

Л. Н. Толстой



Anna
Karenina



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество прилагающих
выдач _____

Т-4. Зак. № 2005

821,161. 1-3

T-64

Rus adabiyoti durdonalari


LEV NIKOLAYEVICH
TOLSTOY



Anna
Karenina

Roman

Birinchi kitob



TOSHKENT – «O‘ZBEKISTON» – 2020

UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros-Rus)1
T 64

Mirzakalon Ismoilii
tarjimasi

Tolstoy, Lev Nikolayevich

T 64 Anna Karenina [Matn]: K.1: roman / L.N. Tolstoy. Birinchi kitob. Mirzakalon Ismoilii tarjimasi. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020. – 536 b.

ISBN 978-9943-25-948-5

«Anna Karenina» – ayol haqida XIX asrda bitilgan eng yaxshi roman. F.M. Dostoyevskiyning soʻzlariga koʻra, «Anna Karenina» zamondoshlarni «nafaqat oʻzining mazmun-mohiyati, balki inson qalbining yirik psixologik ishlanmasi» bilan lol qoldirgan. 1900-yillarga kelib, Lev Tolstoyning ushbu romani dunyoning juda koʻplab tillariga oʻgirilgan, bugungi kunda esa asar jahon adabiyotining oltin xazinasidan joy olgan.

Mutafakkir adibning mazkur asar mutolaasi orqali inson ongi shuuriga yashiringan sirlarni fosh qiluvchi, oʻzni va oʻzgani anglashga koʻmak beruvchi olamga chorlab qolamiz. Zero, bizdan talab qilinadigani ham oʻqish va uqishdir.

UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros-Rus)1

*Ushbu kitobni tayyorlashda yaqindan yordam bergan «Yangi asr avlodi»
nashriyotiga minnatdorlik bildiramiz.*

ISBN 978-9943-25-948-5

© M. Ismoilii (tarj.), 2020
© «O'zbekiston» NMIU, 2020



BIRINCHI QISM

Mne otmshenie, i Az vozdam¹

I

Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, baxtsiz oilalarning esa har biri o'zicha baxtsizdir.

Oblonskiylar uyida hamma narsa ostin-ustin bo'lib ketdi. Xotini erining uylarida murabbiyalik qilgan fransuz ayol bilan aloqada bo'lganini bilib qolib, unga, endi sen bilan bir uyda turolmayman, dedi. Er-u xotinning o'zlari ham, oila a'zolari ham, uy xizmatkorlari ham uch kundan beri davom etib kelayotgan bu mashmasha hammalarining ta'bini xira qilganini sezib turardilar. Oilaning barcha a'zolari va uy xizmatkorlari: o'zlarining birga turishlarida hech qanday ma'no qolmaganini va har qanday karvonsaroyda ittifoqo topishgan odamlarning ulardan ko'ra, ya'ni Oblonskiylarning oila a'zolari bilan uy xizmatkorlaridan ko'ra, bir-birlariga inoqroq ekanlarini sezib turardilar. Xotin o'z xonasidan chiqmaydi, er esa uch kundan beri uyda ko'rinmaydi. Bolalar o'z hollariga qolib, u yoqdan bu yoqqa uyda yugurib yurishadi; ingliz xotin kalitdor ayol bilan urishib qolib, boshqa joy topib ber, deb dugonasiga xat yozdi; oshpaz kecha tushlik ovqat mahalidayoq ketib qoldi; oshxona xodimasi bilan kucher javobimizni berib yuboring, deb turib oldi.

Mojaroning uchinchi kuni knyaz Stepan Arkadich Oblonskiy – (kiborlar uni Stiva deb atar edilar) odatdagicha ertalab soat sakkizda, xotining yotoqxonasida emas, o'z kabinetida saxtiyon qoplangan divanda uyg'ondi, yana bir to'yib uxlamochi bo'lgandek, o'zining biqqisemiz, yo'g'on gavdasi bilan prujinali divan ustida bir yon-

¹ Ularning qasoslari mening bo'ynimda, men jazolarini beraman.

boshiga ag'darildi va yostiqni qattiq quchoqlab, betini unga mahkam bosdi; lekin shu on sapchib o'rnidan turdi-da, divanga o'tirib, ko'zlarini ochdi.

– Aytgandek, nima ko'rdim? – deb o'ylandi tushini eslab. – Nimaydi? Ha! Alabin Darmshtadtda tushlik ziyofat berayotganmish; yo'q, Darmshtadtdamas, qayerdadir Amerikada... Ha, tushimda Darmshtadt Amerikadamish. Ha, Alabin shisha stollarda tushlik ziyofat berayotganmish, stollar ham ashula aytarmish: *Il mio tesoro*¹, yo'q; *Il mio tesoro* emas, undan yaxshiroq bir ashulani aytisharmish. Innaykeyin, allaqanday kichik-kichik grafmlar ham bor, bularning hammasi ayol kishilarmish», – deb eslardi.

Stepan Arkadichning ko'zlari o't sochib chaqnadi. U kulimsirab turib o'yg'a toldi. «Ha, yaxshi bo'ldi, juda yaxshi bo'ldi. U yerda yana juda ajoyib narsalar bo'ldi, lekin ularni kishi o'ngida ham so'z bilan ifoda, til bilan bayon qilolmaydi». So'ng movut darpardalardan birining chetidan tushib turgan yorug'ni ko'rib, vaqtichog'lik bilan divandan oyoqlarini tushirdi-da, xotini gul solib tikib bergan (o'tgan yili tug'ilgan kunida hadya qilingan) zardo'z saxtiyon tuffisini oyoqlariga ildi-yu, eski odatini qildi: o'rnidan turmayoq, o'z yotoqxonasida xalati osig'liq turadigan joyga qo'lini cho'zdi. (To'qqiz yildan beri shunday qilishga odatlanib qolgan edi.) Xuddi shu payt u nima uchun xotining yotog'ida emas, o'z kabinetida yotganini esladi; yuzidagi tabassum yo'qoldi, peshonasi tirishib ketdi.

U bo'lib o'tgan hodisalarni eslab: «Hay attang, attang!» deb g'o'ldiradi. Ana shunda xotini bilan o'zi o'rtasida bo'lib o'tgan janjalning butun tafsiloti, ahvolning mushkulligi va hammasidan ham qilgan gunohi yana xayolida jonlandi, bu gunohi uni azobga solar edi.

«Ha! Xotinim kechirmaydi, kechirolmaydi. Hammasidan ham dahshatlisi shuki, butun gunoh menda – men gunohkor bo'lib turibman, holbuki, menda ayb yo'q. Hamma balo shunda», – deb o'ylar, bu janjalning o'ziga qanday og'ir ta'sir etganini eslab, umidsizlik bilan: «Hay, attang!» deyar edi.

U xotiniga kattakon bir nok olib, teatrdan shod-xurram bo'lib qaytsa, xotini mehmonxonada yo'q ekan; qidirib kabinetdan ham top-

¹ Mening duru xazinam (*ital.*).

may ajablandi va nihoyat, xotinini hamma sirni fosh qilgan o'sha arzimagan xatni qo'lida ushlagan holda yotoqxonada o'tirganini ko'rdi. Ana shu birinchi daqiqa ta'bini xira qilgan edi.

Hamisha nimaningdir g'amini yeb urinib yuradigan, erining fikricha kaltafahm hisoblangan Dolli xatni ushlaganicha qimir etmay o'tirar, dahshat, umidsizlik va g'azab ifoda etgan ko'zlari bilan eriga tikilib qarar edi.

– Bu nima? – deb so'ragan edi u qo'lidagi xatga ishora qilib.

Shularni eslaganda, Stepan Arkadichni (aksari shunday bo'ladi) voqeaning o'zidan ko'ra, xotinining shu so'zlariga qanday javob bergani ko'proq qiynar edi.

Shu daqiqa unda ham, birdan aybi ochilib, sharmanda bo'lgan kishilarda yuz beradigan hodisa yuz berdi. U siri ochilgandan keyin xotini oldida basharasiga qanday tus berishini oldindan o'ylab qo'ymagan edi. Qattiq ranjish, rad etish, o'zini oqlash, afv so'rash, hatto parvosiz qolish o'rniga (shunday qilganda yaxshiroq bo'lardiya!) yuziga tamoman ixtiyorsiz (fiziologiyani yaxshi ko'ruvchi Stepan Arkadich buni «miya refleksi» deb o'yladi), tamoman ixtiyorsiz bir tabassum, odatdagicha muloyim, shuning uchun ham ahmoqona bir tabassum yugurdi.

Shu bema'ni jilmayish uchun u o'zini hech kechirolmasdi. Dolli bu tabassumni ko'rib, jismoniy og'riq sezgandek, birdan qaltiradi, o'ziga xos qiziqqonlik bilan unga achchiq-achchiq gapirib, uydan chopib chiqib ketdi. Ana shundan beri erini ko'rgisi kelmaydi.

«Hammasiga ana shu ahmoqona jilmayishim sabab bo'ldi», deb o'ylardi Stepan Arkadich.

Umidsizlanib: «Endi nima qilish kerak? Nima qilish kerak?» der, lekin javob topolmasdi.

II


Stepan Arkadich o'ziga qolsa rostgo'y odam edi. U o'zini aldayolmas va qilmishidan pushaymon bo'lganiga o'zini ishontirolmas edi. O'ttiz uch yoshga kirgan chiroyli, sevgiga tez beriladigan bu kishi beshta tirik bolaning onasi bo'lgan va ikki bolasi o'lgan, o'zidan bir yoshgina kichik xotiniga muhabbati yo'qligi uchun endi afsuslanmas edi. U qilmishini xotinidan durustroq yashirolmagani

uchun pushaymon edi. Lekin o'z ahvolining og'irligini his etar, xotiniga, bolalariga va o'ziga achinar edi. Agar bu xabarning xotiniga shunchalik qattiq ta'sir qilishini bilsa, balki gunohlarini xotinidan durustroq yashirgan bo'lar edi. Bu narsa ustida, u hech mahal durustroq o'ylab ko'rgan bo'lmasa hamki, o'zining vafosizligini xotini qachonlardan beri payqab yurganini, lekin bunga parvo qilmaganini sal-pal sezardi. Uning nazarida, ozib-to'zg'igan, qarigan, husni aynigan va nazar-e'tiborni jalb qiladigan hech nimasi qolmagan bu sodda xotin, oilada mehribon ona bo'lgani uchun eriga itoat qilishi kerak edi. Ammo butunlay buning aksi bo'lib chiqdi.

«Oh, naqadar dahshat! Bay, bay, bay! Dahshat! – derdi Stepan Arkadich o'z-o'ziga, lekin biron qarorga kelolmasdi. – Shu hodisa yuz bermasdan ilgari hamma narsa joyida edi, biz naqadar yaxshi yashardik! Xotinimning ko'ngli to'q edi, bolalari bilan baxtiyor edi, men unga hech bir to'g'rida xalaqit bermasdim, ko'ngli tusagani-ni qilsin deb, bolalarni, ro'zg'orni o'z mayliga tashlab qo'ygandim. Rost, u xotinning biznikida murabbiyalik qilishi yaxshi bo'lmadi. Yaxshi bo'lmadi! Bolalaringning murabbiyasiga jigarso'xtalik qilishingda qandaydir pastkashlik, ifloslik bor. Lekin o'zi qanday murabbiya edi-ya! (U M-lle Rolandning qora, fusunkor ko'zlarini va tabassumini ko'z o'ngida jonlantirdi.) Lekin u biznikida turganda, axir egri yo'lga yurmagandim-ku! Hammasidan yomoni shu bo'ldiki, u endi... xuddi qasddan qilinganday bo'ldi-ya! Bay, bay, bay! Endi nima qilish, nima qilish kerak?»

Bu savolga eng chigal va mushkul muammolarning hammasiga hayot tomonidan beriladigan umumiy javobdan bo'lak javob yo'q edi. Mana, u javob: kun talabi bilan yashash, ya'ni hamma narsani unutish kerak. Uyqu bilan unutib bo'lmaydi, loaqal tungacha, tushidagi grafin ayollar kuylagan musiqaga qaytishning ham ortiq iloji yo'q; demak, hayot uyqusiga berilib, o'ylamaslik kerak.

Stepan Arkadich o'ziga: «Xayr, nima bo'lsa ko'ramiz», dediyu, o'rnidan turib, havorang shoyi astarli kulrang xalatini kiydi, bog'ichini chigdi, keyin keng ko'krak qafasiga to'ldirib havo oldida, semiz gavdasini yengilgina ko'tarib yuradigan taypoq oyoqlarini odatdagicha dadil bosib, deraza yoniga keldi, pardani ko'tarib qo'yib, qattiq qo'ng'iroq chaldi. Qo'ng'iroqni eshitib, uning eski do'sti kamerdiner Matvey qo'lida kiyim, etik va shoshilinchnoma



bilan darhol kirib keldi. Matvey orqasidan sartarosh ham asboblarini ko'tarib kirdi.

Stepan Arkadich shoshilinchnomani olgandan so'ng oyna yoniga o'tirayotib:

– Mahkamadan qog'oz bormi? – deb so'radi.

Matvey:

– Stolda, – deb javob qildi-da, xo'jayiniga rahmi kelib, unga savol nazari bilan qaradi, keyin biroz kutgach, ayyorona tabassum bilan ilova qildi: – Izvosh egasidan odam keldi.

Stepan Arkadich hech qanaqa javob qilmadi, faqat oynadan Matveyga qarab qo'ydi; ularning oynada uchrashgan nazarlaridan bir-birlarini tushunishlari ko'rinib turardi. Stepan Arkadichning nazari: «Buni nima uchun menga gapiryapsan? Nahotki, voqeadan bexabar bo'lsang?» – deb so'rayotgandek edi.

Matvey qo'llarini nimchasingning cho'ntaklariga suqib, oyoqlarini kerdi-da, mehribonlik bilan xiyol kulimsirab, xo'jayiniga jimgina qarab qo'ydi.

– Yakshanba kuni kelgin, deb aytdim, ungacha sizni ham, o'zini ham bekorga bezovta qilib nima qiladi, – dedi Matvey. Aftidan, bu jumlanı oldından tayyorlab qo'yan bo'lsa kerak.

Stepan Arkadich Matveyning hazillashgisi va uning diqqatini o'ziga jalb qilgisi kelganini tushundi. U shoshilinchnomani ochib o'qidi, har vaqtdagiday dumi uzuq so'zlarni tusmollab tuzatib birdan yuzi charaqlab ketdi.

Stepan Arkadich jingalak bakenbardlarining farqini ochayotgan sartaroshning uzun, silliq, momiq qo'lini bir zumgina to'xtatib turib:


– Matvey, ertaga singlim Anna Arkadevna kelarkan, – dedi.

– Xudoga shukur-ey, – deb yubordi Matvey; shu javobi bilan buning ahamiyatini, ya'ni Stepan Arkadichning suyukli singlisi Anna Arkadevna kelib, er-u xotinni yarashtirib qo'yishi mumkinligini u ham xo'jayini singari anglaganini bildirdi.

– O'zlari keladilarmi yo zavjlari bilanmi? – deb so'radi Matvey.

Stepan Arkadich gapirolmadi, nimagaki sartarosh uning ustki labini qirayotgan edi, shuning uchun u bir barmog'ini ko'tarib qo'ydi. Matvey oynada boshini silkidi:

– Bir o'zlari deng. Yuqoridagi xonani tayyorlab qo'yaymi?



– Darya Aleksandrovnaga ayt, nima desalar, shuni qil.
– Darya Aleksandrovnaga? – deb takrorladi Matvey xuddi shubha qilayotgandek.

– Ha, ayt. Innaykeyin manavi shoshilinchnomani ham ol, kiritib ber, nima derkinlar.

Matvey: «Qo‘yinlariga qo‘l solib ko‘rmoqchimisiz», deb o‘yladi-yu, lekin:

– Xo‘p bo‘ladi, – deb javob qildi.

Matvey g‘arch etiklarini sekin-asta bosib, qo‘lida shoshilinchnoma bilan xonaga qaytib kelganda, Stepan Arkadich allaqachon yuvinib-taranib bo‘lib, endi ketishga otlanib turgandi. Sartarosh chiqib ketgandi.

– Darya Aleksandrovnaga: «Hozir ketyapman, borib ayt», deb buyurdilar. Mayli o‘zi, ya‘ni siz, bilganini qilsin, dedilar. – Matvey faqat ko‘zlari bilan kulib turib shu gapni aytdi-yu, qo‘llarini cho‘ntaklariga suqib va boshini biroz qiyshaytirib turib xo‘jasiga tikildi.

Stepan Arkadich indamadi. Keyin uning chiroyli yuzida muloyim va birmuncha ayanchli tabassum paydo bo‘ldi.

– Nima bo‘ldi, a? Matvey? – dedi u boshini tebratib.

– Hechqisi yo‘q, taqsir, o‘nglanib ketadi, – dedi Matvey.

– Tinchib ketarmikan?

– Xotirjam bo‘ling.

– Rostdan-a? – keyin Stepan Arkadich eshik orqasida xotin kishi ko‘ylagining shitirini eshitib so‘radi: – Kim u?

– Menman, – dedi shaddod, lekin yoqimli ayol ovozi, keyin eshik orqasidan bosh suqib qaragan enaga Matryona Filimonovnaning badqovoq cho‘tir yuzi ko‘rindi.

Stepan Arkadich uning oldiga chiqib:

– Ha, nima gap, Matryosha? – deb so‘radi.

U xotini oldida butunlay gunohkor ekaniga va buni o‘zi ham sezib turganiga qaramay, uydagilarning hammasi, hatto Darya Aleksandrovnaning eng yaqin dugonasi bo‘lgan enaga ham Stepan Arkadichning tarafida edi.

– Ha, nima gap? – dedi u mungli bir tovush bilan.

– Borib uzr so‘rasangiz, yaxshi bo‘larmidi, aylanay. Zora, Xudo yarlaqasa. Juda qiynalyaptilar, odamning rahmi keladi. Uygayam zil

ketdi. Aylanay, bolalarga rahm qiling, uzr so‘rang, aylanay. Nachora!
Avval mingashma, keyin...

– Axir, meni yoniga yo‘latmaydi-da...

– Siz o‘zingizdan lozimini qiling. Xudoning marhamati ulug‘,
xudoga sig‘ining, aylanay. Xudoga yolvoring.

Stepan Arkadich birdan qizarib ketdi-yu:

– Ha, xo‘p, boraver, – dedi, keyin xalatini shartta yechib tashlab,
Matveyga yuzlandi, – qani, olib kel kiyimlarimni.

Matvey xo‘jayinining ko‘ylagida ko‘zga ko‘rinmagan allaqanday
narsani puflab, uni qo‘liga solib turdi-da, miqti gavdasiga ko‘ylakni
kiygizib, ko‘ngli rohat topdi.

III

Stepan Arkadich kiyinib bo‘lib, ustiga atir sepdi, ko‘ylagining
yenglarini tuzatdi, odatlanib qolgan harakat bilan papirosalarini, ham-
yonini, gugurtini, medalon taqilgan qo‘shzanjir soatini cho‘ntaklariga
soldi-da, dastro‘molini silkib, baxtsizligiga qaramay, o‘zini ozoda,
xushbo‘y, sog‘lom va shod his etgan holda har qadam tashlaganda
silkinib yemakxonaga kirdi. Stepan Arkadichning qahvasi va uning
o‘qishi kerak bo‘lgan qog‘ozlari shu yerga keltirib qo‘yilgan edi.

U xatlarni o‘qidi. Xatlardan biri dilini juda siyoh qildi. Bu –
xotining mulkidagi o‘rmonni sotib olmoqchi bo‘lgan savdogardan
kelgan xat edi. O‘rmonni sotish zarur bo‘lsa hamki, xotini bilan
yarashmaguncha bu haqda og‘iz ochib bo‘lmas edi. Hammasidan
ham ta‘bini xira qilgan narsa shu edi: xotini bilan o‘zining yarashish
masalasiga pul masalasi ham aralashib qolardi.

Shu manfaat orqasida yugurib-yelyapti, degan fikr o‘sha o‘rmonni
sotish uchungina xotini bilan yarashaman deb o‘lib yotibdi, degan
fikr uni tahqir etardi.

Stepan Arkadich xatlarni o‘qib bo‘lgandan so‘ng, mahkamadan
kelgan qog‘ozlarni oldiga tortdi, ikkita ishni tez varaqlab chiqib, kat-
takon qalam bilan chetlariga belgilar qo‘ydi, keyin ishlarni nari surib
qo‘yib, qahvaga qo‘l cho‘zdi; qahva icha turib, hali nami ketmagan
ertalabki gazetani ochib o‘qiy boshladi.

Stepan Arkadich mo‘tadil, tarafdorlari ko‘p bo‘lgan liberal
gazetani olib o‘qirdi. Haqiqatda Stepan Arkadichni na fan qiziq-

tirardi, na san'at va na siyosat; lekin shunga qaramay, bu masalalarga ko'pchilikning va o'zi o'qiydigan gazetasining nuqtayi nazari bilan qarar va ko'pchilik qarashini o'zgartirgandagina o'z fikrlarini o'zgartirar yoki, yana ham to'g'risi, u o'z qarashini o'zgartirmasdi, balki qarashlarining o'zi sezdirmasdan o'zgarib turar edi.

Stepan Arkadich na siyosiy maslamlarni va na fikrlarni tanlab olardi, balki shlapa va syurtuklar uchun fason tanlab o'tirmay, boshqalar kiyganini olib kiyaverganiga o'xshash, bu maslaklar va fikrlar ham unda o'zidan o'zi hosil bo'lardi. Ma'lum jamiyatda yashagan odam balog'atga yetganda bir qadar fikriy faoliyatga ehtiyoj sezgani uchun unga ham bunday qarashlar xuddi shlapaday lozim edi. Agar u liberallikni o'z muhitidagi ko'pgina kishilar tarafdor bo'lgan konservatizm oqimidan afzal ko'rgan bo'lsa, bunga sabab, liberal oqimni undan ko'ra ma'noliroq deb topgani emas, balki uning o'z hayot tarziga mosligi edi. Liberal partiya Rossiyadagi hamma narsa yomon derdi; haqiqatan ham, Stepan Arkadichning qarzi ko'p edi-yu, puli juda oz edi. Liberal partiya nikohni eskirgan odat, shuning uchun uni o'zgartirish zarur der edi; haqiqatan ham, Stepan Arkadichni oila hayoti uncha mamnun qilmasdi, uni yolg'on gapirishga, ikkiyuzlamalik qilishga majbur etardi, holbuki, bu narsa uning tabiatiga tamoman zid edi, liberal partiya dinni aholining vahshiy qismi uchun bir no'xta deb hisoblar, yana ham to'g'risi, shunday deb taxmin qilardi; haqiqatan ham, Stepan Arkadich hatto qisqagina ibodatga chidam berolmas, oyoqlarida og'riq sezardi va shu dunyoda juda shod yashash mumkin bo'lgani holda u dunyo haqidagi bu qo'rqinchli va balandparvoz gaplarning nimaga kerakligiga hech tushunolmasdi. Ayni zamonda hazil-mutoyibani yaxshi ko'radigan Stepan Arkadich biron anoyi kishini topib olsa, uning boshini qotirish uchun mazax qilib: agar nasli-nasabing bilan faxrlanging kelsa, shajarangni Ryurikdan emas, odamzodning urug'boshisi bo'lgan maymundan boshlash kerak, derdi. Shunday qilib, liberal oqimga Stepan Arkadich odatlanib qoldi; shuning uchun u o'z gazetasini, kallasida yengilgina tuman hosil qilgani uchun ovqatdan so'ng chekadigan sigaraday yaxshi ko'radi. U gazetaning bosh maqolasini o'qib chiqdi; maqolada radikalizm go'yo butun konservativ unsurlarni yutib yuborish xavfini tug'diryapti, hukumat inqilob ajdahosini ezib tashlash choralarini ko'rishga go'yo majbur, deb bizning zamonamizda faryod

ko'tarish butunlay noo'rin, chunki, aksincha, «bizning fikrimizcha, xavf xayoliy inqilob ajdahosida emas, balki taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan an'anachilikning o'jarligida va hokazolar» deyilardi. Stepan Arkadich moliya masalalaridan bahs etuvchi yana boshqa maqolani ham o'qidi; bunda Bentam bilan Mille tilga olingan, vazirlikka ta'na toshi otilgan edi. U o'zining o'tkir farosati orqasida har qanday imo-ishoraning ma'nosini: kim tosh otyapti, kimning sha'niga tosh otilyapti, nima munosabat bilan shunday qilinyapti – buni darhol payqab olar va bu narsa uni har vaqt birmuncha mamnun qilardi. Lekin Matryona Filimonovnaning maslahatlarini va uyda-gi besaranjomlikni esladi-yu, bugungi kuni zahar bo'ldi. U mish-mishlarga qaraganda, graf Beystning Visbadenga ketgani, oq sochlarni qoraytirish davosi topilgani, yengil kareta sotilmoqchi ekani va bir yosh xonimning taklifi haqidagi xabarlarini ham o'qidi: lekin bu xabarlar ilgarigi vaqtlardagidek, unga sokin, kinoyaomuz shodlik bag'ishlamadi.

Gazetani o'qib bo'ldi, ikki do'lcha qahvani ichib, yog'li oq nonni yeb bo'lgandan so'ng o'rnidan turdi, oq non uvoqlarini nimchasidan qoqdi-da, keng ko'ksini rostlab, shodonligini ichiga sig'dirolmay kulimsiradi; lekin bu tabassumni ko'nglidagi biron xursandchilik emas, yaxshi hazmi taom uyg'otgan edi.

Lekin bu shodon tabassum hamma mojaroni birdan esiga tushirib yubordi: u o'ylanib qoldi.

Eshik orqasidan ikkita bolaning ovozi eshitildi (Stepan Arkadich kichik o'g'li Grisha bilan to'ng'ich qizi Tanyaning ovozini tanidi). Ular bir nimani olib ketayotib tushirib yuborishdi.

– Men senga aytmadimmi yo'lovchilarni poyezd tomiga o'tqazib bo'lmaydi deb! – qichqirdi qizaloq inglizchalab. – Endi o'zing yig'!

Stepan Arkadich: «Hamma narsaga zil ketdi, ana bolalar o'z bilganlarini qilib yurishibdi», deb o'yladi. Keyin eshik yoniga borib ularni chaqirdi. Bolalar poyezd qilib o'ynab yurishgan qutichalarni tashlab, otalarining oldiga yugurishdi.

Otasining arzanda qizi dadil yugurib kirdi-da, Stepan Arkadichni quchoqlab, kula-kula bo'yniga osildi va uning bakenbardlaridan gupillab urgan atir hididan hamma vaqtdagiday dimog'i chog' bo'ldi. Nihoyat, qiz otasining egilib turgani uchun qizarib ketgan va mehr nuri yog'ilib yotgan yuzidan o'pdi-yu, qo'llarini

bo'shatib, orqasiga chopib chiqib ketmoqchi bo'ldi, lekin otasi uni to'xtatib qoldi.

Stepan Arkadich qizchasining silliq, nozik bo'ynini silab turib:

– Oying nima qilyapti? – deb so'radi. Keyin o'zi bilan salomlashgan o'g'liga kulimsirab:

– Salom, – dedi.

Stepan Arkadich o'g'lini uncha yaxshi ko'rmaganiga o'zi tan bersa ham, buni sezdirmaslikka tirishardi; lekin o'g'li buni payqaganidan otasining sovuq tabassumiga tabassum bilan javob qilmadi.

– Oyimmi? Turdilar, – deb javob qaytardi qizaloq.

Stepan Arkadich xo'rsindi. «Bundan chiqdi, yana tun bo'yi mijja qoqmabdi-da», deb o'yladi u.

– Qalay, vaqtichog'mi?

Otasi bilan onasi o'rtasida janjal chiqqanini, shuning uchun onasi vaqtichog' bo'lolmasligini, otasi buni bilishi kerakligini va onasining ahvolini bunday e'tiborsizgina so'rash bilan mug'ambirlik qilayotganini qizi bilar edi. Shu sababdan otasi uchun qizarib ketdi. Otasi ham buni darhol sezib, qizardi.

– Qaydam, – dedi qizaloq. – Oyim menga dars o'qima, miss Gul bilan buvingnikiga borib o'ynab kel, deb buyurdilar.

– Mayli, bora qol, Tanyajon, shirin qizim. Ha-ya, to'xta, – dedi u qizchasini hamon bo'shatmay va uning nozik qo'lchasini silab turib.

Kecha kamin ustiga qo'ygan konfet qutisini oldi-da, unga biri shokoladli va ikkinchisi meva shinnisidan qilingan ikkita konfet chiqarib berdi – qiz shu xillarini yaxshi ko'rardi.

Qizaloq shokoladli konfetga ishora qilib:

– Bunisi Grishagami? – deb so'radi.

– Ha, ha. – Ana shundan keyin u qizaloqning yelkasini yana silab, sochlari bilan bo'ynidan o'pdi-yu, chiqishga ijozat berdi.

– Kareta tayyor, – dedi Matvey. – Innaykeyin, arz bilan kelgan bir ayol ham kutib turibdi.

– Ancha bo'ldimi kelganiga? – deb so'radi Stepan Arkadich.

– Yarim soatcha.

– Darhol xabar qil, deb necha marta senga aytgandim!

– Qahvani bemalolroq ichib olishingiz kerak-da, axir, – dedi Matvey odamning jahlini chiqarishi mumkin bo'lmagan do'stona dag'al ohangda.

Oblonskiy alamidan yuzini tirishtirib:

– Bor, tezroq taklif qil, – dedi.

Shtabs-kapitanning xotini, arzo‘y Kalinina ilojini topish mumkin bo‘lmagan, bema’ni bir narsani so‘rab kelgan edi; lekin Stepan Arkadich o‘z odaticha arzo‘yni o‘tqazdi, uning so‘zini gap qotmasdan, diqqat bilan eshitdi, kimga va qanday murojaat qilish to‘g‘risida mufassal maslahat berdi, hatto bu haqda o‘sha ayolga yordami tegishi mumkin bo‘lgan shaxsga o‘zining yirik, cho‘ziq, chiroyli va aniq xati bilan dadil, silliq bir maktub ham yozib berdi. Shtabs-kapitanning xotiniga javob bergandan so‘ng Stepan Arkadich shlapasini oldi-da, yodimdan bir narsa chiqmadimikan deb o‘ylanib to‘xtab qoldi. Qarasa, yodidan chiqarishni xohlagan narsadan, ya’ni xotinidan boshqa hech nimani yodidan chiqarmabdi.

«E, u ham bor-a!» deb boshini solintirdi, shunda chiroyli yuzi mungli tus oldi. «Boraymi, bormaymi?» dedi u o‘ziga. Ichidan chiqqan ovoz: borish kerak emas, bu – soxtakorlikdan boshqa narsa emas, munosabatingizni tuzatish, epaqaga keltirishning iloji yo‘q, chunki xotiningni yana jozibador qilish, sevgi uyg‘otadigan bir qiyofaga keltirish yoki sening o‘zingni sevgiga noqobil keksa qilib qo‘yish mumkin emas, iloji yo‘q, derdi. Endi soxtakorlikdan va yolg‘ondan boshqa narsa maydonga kelmaydi; soxtakorlik va yolg‘onchilik esa uning tabiatiga zid edi.

«Lekin qachon bo‘lsa ham biron chora ko‘rishi kerak; axir, shundog‘ligicha qolib ketavermaydi-ku», dedi u o‘ziga dalda berishga tirishib. Stepan Arkadich ko‘kragini kerib, cho‘ntagidan papiros chiqarib chekdi, ikki marta burqsitgandan so‘ng uni sadaf chig‘anoq kuldonga tashladi-da, shaxdam odim bilan qorong‘i mehmonxonadan o‘tib, xotining yotoqxonasiga kiriladigan ikkinchi eshikni ochdi.

IV

Darya Aleksandrovna eshigi ochiq shifonerka yonida, butun xonaga sochilib yotgan bisotlari orasida turib, shifonerkadan bir nima axtarayotgan edi; egnida kalta kofta, bir mahallar qalin, ajoyib bo‘lgan, endi esa siyraklashib qolgan sochlari gardaniga turmaklangan, yuzi so‘lgan, ozgan, yuzi ozib ketgani uchun kattayib qolgan ko‘zlarida qo‘rquv bor edi. Erining oyoq sharpasini eshitib to‘xtadi-da, eshik tomonga qarab, yuziga qahrli va adovatli tus berishga urindi. Darya

Aleksandrovna eridan qo‘rqanini sezar, u bilan uchrashishga yuragi yo‘q edi. U mana shu uch kundan beri qilishga o‘n martalab uringan narsasini hozirgina qilmoqchi bo‘lib turgan edi: bolalarining va o‘zining narsalarini onasinikiga olib ketish uchun ajratmoqchi edi, lekin bu gal ham yuragi chopmadi, ilgarigi safarlardagidek, hozir ham: ahvol shunday qololmaydi, biron tadbir-chora ko‘rish, erimni jazolash, sharmanda qilish kerak, erim menga bergan azoblarining o‘ndan birini tortsaydi, ko‘nglim joyiga tushardi, derdi o‘ziga. U hamon: «Erimni tashlab ketaman», derdi-yu, lekin buning imkonsiz ekanini o‘zi sezib turardi; bu narsa shuning uchun ham imkonsiz ediki, Stepan Arkadichni tashlab ketishga qurbi yetmas va uni sevmasligi mumkin emasdi. Bundan tashqari, u shu yerda, o‘z uyida besh bolasiga qarashga zo‘rg‘a-zo‘rg‘a ulgurayotgan bir paytda, u yerda bolalarning ahvoli besh battar yomon bo‘lishini ham sezardi. (U hamma bolasini olib ketmoqchi edi.) Uningsiz ham shu uch kun ichida kenja o‘g‘li yomon sho‘rva bilan boqishgani uchun betob bo‘lib qoldi, boshqa bolalari esa kecha qariyb tushliksiz qolishdi. Darya Aleksandrovna bu yerdan bosh olib ketishning iloji yo‘qligini sezardi; lekin o‘zini aldar, shunday bo‘lsa ham o‘z buyumlarini ajratib, o‘zini ketmoqchiga solardi.

U erini ko‘rdi-yu, bir nima axtarayotgandek, qo‘lini shifonerka yashigiga soldi. Eri yoniga yaqin kelgandagina o‘girilib qaradi. Lekin o‘zi qat‘iy va qahrli tus bermoqchi bo‘lgan yuzi iztirob chekayotgan g‘arib kishining yuziga o‘xshab qoldi.

Stepan Arkadich qo‘rqa-pisa ohistagina:

– Dolli! – dedi-yu, bo‘ynini qisdi, u shu yo‘sin g‘arib va mo‘min kishi tusini olmoqchi bo‘lgan edi, lekin chiqmadi, chunki undan tarovat va sog‘lomlik barq urib turardi.

U erining tarovat va sog‘lomlik barq urib turgan qomatiga boshdan-oyoq tez ko‘z yugurtirib chiqdi. «Ha, u baxtli, mamnun! Men-chi? – deb o‘yladi Dolli. – Yana mana shu muloyimligi uchun hamma uni yaxshi ko‘radi, maqtaydi, holbuki, bu muloyimlik naqadar jirkanch; men muloyimligidan nafratlanaman». Dollining lablari qimtindi, qonsiz, asabiy yuzining o‘ng betidagi mushaklar qaltiradi.

Darya Aleksandrovna o‘zgargan, ko‘krakdan chiqib kelgan shoshqin tovush bilan:

– Nima kerak sizga? – dedi.

– Dolli! – dedi u yana qaltiroq ovoz bilan. – Bugun Anna keladi.
– Kelsa menga nima? Men uni qabul qilolmayman! – deb chinqirdi Dolli.

– Axir, yaxshi emas-da, Dolli...

– Keting, ko‘zimdan nari keting! – deb qichqirdi u erining yuziga qaramasdanoq; u baayni badanining bir yeri og‘riyotgandek qichqirdi.

Stepan Arkadich xotini haqida o‘ylanganida xotirjam edi, Matveyning so‘zi bilan aytganda, hamma narsaning o‘zidan o‘zi o‘nglanib ketishiga ko‘zi yetardi, shuning uchun bamaylixtor gazetasini o‘qib, qahvasini icha oldi; lekin xotining iztirob ichida qolgan horg‘in chehrasini ko‘rganda, taqdiriga tan bergan va alam bilan to‘lgan ovozini eshitganda tomog‘iga bir nima kelib tiqildi-yu, nafasi bo‘g‘ilib qoldi, ko‘zlarida yosh yiltiradi.

– Yo Rabbim, nima qilib qo‘ydim?! Dolli! Xudo xayringni bersin!.. Axir... – U ortiqcha gapirolmadi, tomog‘iga faryod tiqilib qoldi.

Dolli shifonerkaning eshigini yopib, eriga qaradi.

– Dolli, nimayam deyolaman?.. Aytadigan so‘zim bitta: kechir, kechir... o‘ylab ko‘r: nahotki, to‘qqiz yillik umr yuz-xotiri bir daqiqali, bir daqiqali...

Dolli yerga qarab turib quloq solar, shubhalarimni qanday bo‘lsa ham tarqat, deb unga yalinayotgandek, erining aytadigan gaplarini kutar edi.

– ...bir daqiqali havasning gunohini yuvolmasa?.. – deb u uzilgan jumlasini tamomladi. Keyin gapini davom ettirmoqchi bo‘lgan edi, shu so‘zlarni eshitganda Dolli xuddi jismoniy og‘riq sezayotgandek, lablarini qimtib oldi, o‘ng beti lip-lip etib ucha boshladi.

– Keting, keting bu yerdan! – deb Dolli yana ham qattiqroq chinqirdi. – Havaslaringiz, iflosligingiz haqida minba‘d menga gapira ko‘rmang!

Dolli chiqib ketmoqchi bo‘lgandi, birdan gindirakladi-yu, yiqilib tushmaslik uchun darrov stul suyanchig‘ini ushlab qoldi. Stepan Arkadichning lab-lunji osilib ketdi, ko‘zlari yoshga to‘ldi.

– Dolli! – dedi u endi hiqillab yig‘lab turib. – Xudo xayringni bersin, hech bo‘lmasa, bolalarni o‘yla, ularda gunoh yo‘q-ku. Gunoh menda, menga jazo ber, gunohimni yuvish uchun nimaiki lozim bo‘lsa, buyur. Qo‘limdan kelganini qilishga tayyorman! Ayb menda,

qancha aybdor ekanimni aytishga soʻz topolmayman! Lekin kechir, Dolli!

Dolli oʻtirdi. Stepan Arkadich uning ogʻir, qattiq nafas olayotganini eshitdi, xotiniga juda achindi. Dolli gapirishga bir necha marta harakat qilib koʻrdi, lekin gapirolmadi. Stepan Arkadich kutib turdi.

– Bolalar bilan oʻynash uchungina ularni eslaysan, men boʻlsam koʻrib-bilib turibman, endi ular juvonmarg boʻlishdi, – dedi Dolli; bu gap mana shu uch kundan beri Dolli oʻziga oʻzi bir necha marta aytgan gaplaridan biri boʻlsa kerak.

Dolli erini «sen»sirab gapirdi, shuning uchun Stepan Arkadich unga minnatdorlik bilan qarab, xotining qoʻlini ushlab niyatida yaqinlashgandi, Dolli jirkanib oʻzini tortdi.

– Mening fikr-u zikrim bolalarda, shu sababli ularni qutqazish uchun dunyoda hamma narsani qilishga tayyorman; lekin ularni qanday qutqazishimni oʻzim ham bilmayman: ularni otasidan ajratib olib ketaymi yo boʻlmasa, buzuq otasiga tashlab ketaymi, ha, buzuq otasiga... oʻzingiz oʻylab koʻring, oʻsha... rasvogarchilikdan keyin birga turishimiz mumkinmi, axir? Mumkinmi, axir? Ayting, mumkinmi, axir? – deb takrorlardi Dolli ovozi balandlashtirib. – Mening erim, bolalarimning otasi oʻz bolalarining murabbiyasini oʻynash qilib olgandan keyin yana birga turishimiz mumkinmi?..

– Lekin nima qilay? Nima qilay, axir? – dedi Stepan Arkadich mungli tovush bilan, ammo u nima deyayotganini oʻzi ham bilmay, boshini tushirdi.

– Sizdan jirkanaman, koʻrsam koʻnglim ayniydi! – deb qichqirdi Dolli borgan sari qizishib. – Koʻzingizdan oqqan yoshmas, suv! Siz hech mahal meni yaxshi koʻrmagansiz; sizda qalb ham yoʻq, olijanoblik ham! Siz iflos odamsiz, sizdan jirkanaman, yotsiz, ha, menga butunlay yotsiz! – Dolli oʻzi uchun dahshatli boʻlgan bu «yot» soʻzini alam va gʻazab bilan ogʻizga olgan edi.

Stepan Arkadich xotiniga qaragandi, uning yuzidagi gʻazab ifodasini koʻrib ham qoʻrqdi, ham taajjublandi. Xotiniga koʻrsatgan rahm-shafqati uning jahlini chiqarganiga tushunolmasdi. Dolli erining koʻnglida oʻziga nisbatan muhabbat emas, achinish hissi borligini payqagan edi. «Yoʻq, u mendan nafratlanadi. Gunohimni kechirmaydi», deb oʻyladi Stepan Arkadich, keyin:

– Dahshat bu! Dahshat! – deb gʻudrandi.

Shu mahal narigi xonadan bolaning chiqirig'i chiqib ketganidan, u yiqilgan bo'lsa kerak; Darya Aleksandrovna quloq soldi, shunda yuzi birdan muloyimlashdi.

Dolli o'ziga kelguncha bir necha soniya qayerda ekanini, nima qilish kerakligini bilmaganday, dast o'rnidan turib eshik tomon yurdi.

Stepan Arkadich bola chinqirganda xotining yuzida ro'y bergan o'zgarishni ko'rib: «Mening bolamni yaxshi ko'radi-ku, – deb o'yladi. – Ha, mening bolamni; shunday bo'lgandan keyin, u qanday qilib mendan nafratlanadi?»

– Dolli, yana bir og'iz so'zim bor, – dedi u xotining orqasidan yurib.

– Mabodo orqamdan borsangiz, xizmatkorlarni, bolalarni chaqiraman! Mayli, sizning iflosligingizni bilishsin! Men bugun ketaman, siz bu yerda o'ynashingiz bilan qoling!

Dolli eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi.

Stepan Arkadich xo'rsindi, yuzini artdi, keyin sekin qadam bosib, eshik tomon yurdi: «Matvey: tinchib ketadi, deydi; lekin qanday qilib? Bunga hech aqlim etmaydi. Hay, attang, juda yomon ish bo'ldi-da! Qanday bemaza so'zlarni aytib qichqirdi-ya! – deb o'zicha g'udrandi u xotining «iflos» va «o'ynash» degan so'zlarini eslab. – Balki bu so'zlarni xizmatkor qizlar ham eshitgandir! O'taketgan rasvogarchilik, dahshat!» Stepan Arkadich bir necha soniya yolg'iz turdi, ko'zlarini artdi, xo'rsindi, keyin ko'ksini ko'tarib, xonadan chiqib ketdi.

Juma kuni edi, nemis soatsoz yemakxonada soatni burayotgan edi. Stepan Arkadich ehtiyotlik bilan ishlaydigan boshi yarg'oq soatsoz to'g'risida: «Bu nemis soatlarni burab turish uchun o'zi butun umrga buralgan», degan hazilini eslab kulimsiradi. Stepan Arkadich yaxshi hazilning shaydosi edi. «Balki to'g'ridan ham tuzalib ketar. Topgan gapini qarang: o'nglanib ketarmish, – deb o'yladi. – Buni joyi kelganda hikoya qilish kerak».

– Matvey! – deb chaqirdi u. Matvey kiringach, tayinladi: – Marya bilan birgalashib Anna Arkadevna uchun dam olish xonasiga joy tayyorlagin.

– Xo'p bo'ladi.

Stepan Arkadich po'stinini kiyib, tashqariga chiqdi.

– Uyda ovqatlanmaysizmi? – deb so'radi uni kuzatib chiqqan Matvey.

– Ko‘ramiz. Ma, buni xarajat qil, – dedi u hamyonidan o‘n so‘m olib berayotib, – etadimi?

Matvey karetaning eshigini yopib, zinaga qaytayotib:

– Etadimi-etmaydimi, ishqilib, shuni eplab turish kerak, shekilli, – dedi.

Bu orada Darya Aleksandrovna chaqalog‘ini tinchitib va kareta sharpasidan erining jo‘nab ketganini payqab, yana yotog‘iga qaytib keldi. Yotoq uning uy-ro‘zg‘or tashvishidan boshini olib qochadigan birdan-bir panohi edi; bu yerdan chiqdi deguncha ming xil ishlar orasida o‘ralashib qolardi. Mana hozir ham bir zumgina bolalar bo‘lmasiga chiqqanda, ingliz xotin bilan Matryona Filimonovna kechiktirib bo‘lmaydigan va faqat Darya Aleksandrovnagina javob qilishi mumkin bo‘lgan bir necha savolni berishdi: bolalar o‘ynagani chiqishganda ustlariga nima kiydirish kerak? Bolalarga sut beraylikmi? Boshqa oshpazga odam yuboraylikmi?

– Ah, meni o‘z holimga qo‘yinglar, qo‘yinglar, axir! – dedi-yu, yotoqxonasiga qaytib kirib, boya eri bilan gaplashgan joyiga kelib o‘tirdi. Qotma barmoqlariga uzuklari katta kelib qolgan ozg‘in qo‘llarini qisib o‘tirib, eri bilan bo‘lib o‘tgan hamma gapni xayolidan bir-bir o‘tkaza boshladi. «Ketdi! U bilan bo‘lgan aloqasini nima bilan tugatdi ekan? – deb o‘yladi u. – Nahotki, u bilan haliyam ko‘rishib tursa? Nega buni undan so‘ramadim? Yo‘q, yo‘q, yara-shib bo‘lmaydi. Mabodo bir uyda qolganimizda ham, baribir, bir-birimizga yot bo‘lib qolamiz. Umrbod yot bo‘lib qolamiz! – deb takrorladi o‘zi uchun dahshatli bo‘lgan bu so‘zga boshqacha ma‘no berib. – Men uni qanday sevardim, yo Rabbiiy, qanday sevardim-a!.. Qanday sevardim-a! Ajabo, hozir ham uni sevmaymanmi? Avvalgidan ham ortiqroq sevmaymanmi? Hammasidan ham dahshatlisi shuki...» deb boshlagan fikrini tamomlayolmadi: Matryona Filimonovna eshikdan mo‘ralab qoldi.

– Xohlasangiz, ukamga odam yuboraylik, harqalay, ovqat pishirishni biladi-ku, – dedi u. – Bo‘lmasa, kechagiga o‘xshash, bolalar soat oltigacha ovqatsiz qolishadi.

– Xo‘p, hozir chiqib aytaman. Ha, sutga odam yubordinglarmi?

Shunday qilib, Darya Aleksandrovna kundalik tashvishlariga boshi bilan sho‘ng‘ib ketdi va qayg‘u-alamlarini vaqtincha shu tashvishlarga g‘arq etdi.

Stepan Arkadich iste'dodi soyasida, maktabda yaxshi o'qigan bo'lsa ham, sho'x va yalqov bo'lgani uchun maktabni qoloqlar qatorida bitirgan edi; lekin doimo aysh-ishratda yashaganiga, amalining kichikligiga va o'zining ham yoshligiga qaramay, Moskva mahkamlarining birida boshchilik qilar, maoshi yaxshi, faxrli o'rinni egallab kelar edi. Bu o'rinni singlisi Annaning eri, ya'ni o'sha mahkama tobe bo'lgan vazirlikda muhim o'rinlardan birini egallab o'tirgan Aleksey Aleksandrovich Karenin orqali olgan edi. Agar Karenin qaynag'asini shu ishga tayinlamaganda ham, baribir, Stiva Oblonskiy yuzlab boshqa shaxslar: og'a-inilari, opa-singillari, qarindoshlari, bo'lalari, amaki-tog'a, amma-xolalari orqali bu o'rinni yoki olti ming so'm maoshli shunga o'xshash boshqa bir vazifani olardi, chunki unga pul kerak edi, nimagaki xotining davlati yetarli bo'lishiga qaramay, uning ishlari xarob edi.

Moskva bilan Peterburg aholisining yarmi Stepan Arkadichning qarindoshi va oshna-og'aynisi edi. U o'z hukmini o'tkazadigan va o'tkazib turgan odamlar muhitida tug'ilgan edi. Keksa davlat arboblarning uchdan biri otasining oshnalari, ular buni chaqaloqligidan beri bilardilar; boshqalari u bilan sensirab gaplashar, qolganlari esa yaxshi tanishar edi; shunday qilib, bu dunyoning noz-u ne'matlarini, yog'li joy, ijara, konsessiya va shu kabilarni bo'lib beradiganlarning hammasi uning yor-do'stlari edi, ular Stepan Arkadichni esdan chiqarib yuborisholmasdi; shuning uchun Oblonskiyning serdaromad joy olaman deb o'zini o'tga tashlashiga hojat yo'q edi; faqat do'stlar marhamatini qaytarmaslik, hasad etmaslik, janjal qilmaslik, xafa bo'lmaslik kerak edi, xolos! Stepan Arkadich esa xushfe'l odam bo'lgani uchun unday narsalardan uzoq edi. Unga lozim bo'lgan maoshli joyni bermasliklarini aytishsa, bu Stepan Arkadichga kulgili bo'lib ko'rinardi, chunki u favqulodda bir narsani talab qilmasdi; u faqat tengqurlari olayotgan maoshnigina olishni xohlar va bu xil vazifani bajarishda boshqalardan qolishmas edi.

Stepan Arkadichni taniganlar u faqat yaxshi, xushxulqli va vijdonli bo'lgani uchungina suyub qolmasdilar, balki uning o'zida, o'tday yonib turgan chiroyli, ochiq chehrasida, chaqnagan ko'zlarida, qora qoshlarida, qora sochlarida, yuzining oq-u qizilida unga ro'para kelgan odamlarga qandaydir jisman ta'sir qiladigan, xushvaqt qiladi-

gan do'stlik malohati ham bor edi. U bilan uchrashganlar: «E! Stiva Oblonskiy! Ana, o'ziyam kelib qoldi!» deb aksari uni shodiyona bir tabassum bilan qarshi olardilar. Ba'zan u bilan suhbatlashgandan keyin xursand qiladigan biron narsa ro'y bermagan bo'lsa ham, baribir, ertasiga, indiniga u bilan uchrashsalar, yana boyagiday suyunishardi.

Moskvadagi mahkamalarning birida uch yildan beri boshliq vazifasini bajarib kelayotgan Stepan Arkadich xizmatdoshlari, tobelari, boshliqlari va unga ishi tushadiganlarning muhabbatlarinigina emas, hurmatlarini ham qozondi. Stepan Arkadichni mahkamada hammaning hurmat qilishiga sabab bo'lgan asosiy fazilati shundan iborat ediki, u avvalo, o'zida ham kamchiliklar borligini bilgani uchun odamlarga favqulodda bir muloyimlik bilan muomala qilardi; ikkinchidan, unda mukammal liberallik bor edi, ammo bu gazetalardan o'qib olgan liberallik emas, balki qonida, tanida bo'lgan liberallik edi, u odamlarning davlati va martabalariga qaramay, hammasiga bir xil ko'z bilan boqar, bir tekis munosabatda bo'lardi; uchinchidan, eng muhimi shu ediki, qo'lga olgan ishga beparvo qarar, natijada, unga hech vaqt berilib ham ketmas, xatoga yo'l ham qo'ymas edi.

Stepan Arkadich mahkamasiga keldi-yu, portfelini ko'tarib, sertakalluf darbon hamrohligida o'zining kichkina kabinetiga o'tib ketdi; u yerda mundirini kiyib, idoraga kirdi. Mirzolar bilan xizmatchilarning hammalari o'rinlaridan turib, xursand chehra bilan egilib salom berdilar. Stepan Arkadich har mahalgiday joyiga tez o'tib ketdi, u yerda mahkama a'zolarining qo'llarini qisib, joyiga o'tirdi. U nazokat doirasidan chiqmay hazillashib, so'zlashib bo'lgandan so'ng ish boshladi. Zavq bilan ishlash uchun lozim bo'lgan erkinlik, soddalik va rasmiyat chegarasini hech kim Stepan Arkadich qadar bilmas edi. Stepan Arkadichning mahkamasida ishlaydigan hamma xizmatchi singari kotib ham tabassum va ehtirom bilan qog'ozlarni keltirdi-da, Stepan Arkadich joriy qilgan liberal betakalluflik bilan so'z boshladi:

– Axiyri, Penza gubernasi mahkamasidan ma'lumot oldik. Mana, ko'rsinlar...

Stepan Arkadich qog'ozlar orasiga barmog'ini suqib turib:

– Axiyri, olibsizlar-da?! – dedi. – Qani, janoblar... – Shunday qilib, mahkama majlisi boshlandi.

Stepan Arkadich ma'ruza mahalida boshini viqor bilan quyi so- lib: «Bular raislarining yarim soatgina avval ayb ish qilib qo'ygan bola ahvoliga tushganini koshki bilishsa!» deb o'ylar, ma'ruza o'qilib turgan mahalda ko'zlari kulardi. Mashg'ulot soat ikkigacha davom etar, ikkida esa tanaffus bo'lar, tushlik qilishardi.

Mahkama zalining kattakon oynaband eshigi qo'qqisidan ochilib, birov kirib kelganda, soat hali ikki bo'lmagan edi. Podsho surati tagida va zertsalo¹ orqasida o'tirgan barcha hay'at a'zolari, ermak topilganidan xursand bo'lishib, yalt etib eshik tomon qarashdi; lekin eshik yonida turgan qorovul kirgan kishini darrov haydab chiqarib, oynaband eshikni orqasidan yopib qo'ydi.

Ish o'qib bo'lingandan so'ng Stepan Arkadich kerishib o'rnidan turdi-da, zamonaning liberal qoidalarini bajo keltirmoqchi bo'lgandek uyg'un bir harakat bilan cho'ntagidan papiros olib, o'z kabineti to- mon yurdi. Ikki yordamchisi, ya'ni eski xizmatchi Nikitin bilan kamer-yunker Grinevich u bilan birga chiqdi.

Stepan Arkadich:

– Tushlikdan keyin tugatamiz, – degan edi, Nikitin:

– Tugatganda qandoq! – dedi.

Hozir ular ko'rayotgan ishga qatnashgan shaxslardan biri to'g'risida Grinevich:

– Fomin o'lguday tulki odamga o'xshaydi, – deb qo'ydi.

Stepan Arkadich Grinevichning so'zini eshitib, yuzini tirishtir- di va shu bilan birov haqida barvaqt fikr yurgizish yaramasligini sezirdi-yu, lekin unga hech nima demadi.

– Boya kirgan kim edi? – so'radi u qorovuldan.

– Qandaydir bir odam, naryoqqa o'girilib ham edimki, so'ramasdan kirib ketibdi, janobi oliylari. Sizni so'radilar, Hay'at a'zolari chiqsin, innaykeyin, dedim...

– Qayerda?

– Qaydam, dahlizga chiqdimi, boyadan beri shu uerda yuruv- di. Ha, ana, – dedi qorovul, jingalak soqol, keng yag'rinli g'o'labir odamni ko'rsatib; u barradan qilingan papog'ini boshidan olmasda- noq pog'onalari yeyilib ketgan tosh zinapoyadan shaxdam odimlar

¹ Zertsalo – qirralariga Pyotr I farmonlari yozilgan uchburchakli prizma; bunday prizmalar inqilobdan ilgari davlat idoralariga qo'yilar edi (*tarj.*).

bilan yengilgina chiqib kelayotgan edi. Qo'ltig'iga portfel qistirib pastga tushib borayotgan bir ozg'in amaldor to'xtadi-da, yugurib chiqayotgan kishining oyoqlariga xushlamay ko'z tashlagach, Oblonskiyga savol nazari bilan qarab qo'ydi.

Stepan Arkadich zina tepasida turgan edi, u yugurib chiqayotgan kishini taniganda, mundirining kashtali yoqasi ustida muloyimgina kulimsirab turgan yuzi yana ham charaqlab ketdi.

Stepan Arkadich o'ziga yaqinlashib kelayotgan kishini ko'zdan kechirib:

– Ana xolos! Levin-ku, bor ekansan-a! – dedi do'stona bir hazil bilan kulimsirab.

– Qandog' bo'ldi, meni shu xarobadan topishga jirkanmadingmi? – dedi Stepan Arkadich oshnasining qo'lini qisish bilan qanoatlanmay uni o'pa turib. – Qachon kelding?

– Hozir keldim, seni judayam ko'rgim keldi, – deb javob berdi Levin iymanib va ayni zamonda zardasi qaynab, xavotirlanib tevaragiga alanglab qarab qo'ydi.

– Yur bo'lmasa kabinetga, – dedi Stepan Arkadich. U oshnasining izzat-nafsi kuchli va jonsarakligini, iymanchogligini bilardi: Stepan Arkadich uni qo'lidan ushladi-da, xatarli joydan olib o'tayotgandek boshlab ketdi.

Stepan Arkadich tanishlarining qariyb hammasi bilan: oltmish yashar chollar bilan ham, yigirma yoshli yigitlar bilan ham, aktyorlar, vazirlar, savdogarlar va general-ad'yutantlar bilan ham sensirab gaplashardi, u bilan sensirab gaplashadiganlarning juda ko'pi ijtimoiy zinapoyaning ikki chetidagi pog'onalarda turardi, shuning uchun ular Oblonskiy orqali bir-birlariga yaqinliklarini bilishsa, nihoyatda ajablangan bo'lardilar. U o'zi bilan shampan vinosi ichishganlarning hammasi bilan «sen»sirab gapirishardi, o'zi esa hamma bilan shampan vinosi ichardi. Shuning uchun o'z tobelari oldida sensirab gaplashadigan, o'ziga «isnod teggizadigan» do'stlari bilan uchrashgudek bo'lsa (u oshnalarining ko'pini hazillashib shunday deb atar edi), o'ziga xos bir nazokat bilan bu noxush taassurotning ta'sirini tobelari ko'zida kamaytira bilardi. Levin «isnod tegizadigan»lardan emasdi, lekin Oblonskiy Levinning tobelari oldida menga yaqinligini bildirgisi kelayotgandir, deb o'ylaganini o'ziga xos bir nazokat bilan sezdi-yu, uni darhol kabinetga olib kirib ketishga shoshildi.

Levin Oblonskiy bilan qariyb bir yoshda ekani, u bilan birga mayxo'rlik qilgani uchungina uni sensiramasi edi. Levin uning dastlabki yoshlik chog'laridagi o'rtog'i, do'sti edi. Ilk yoshlik chog'larida topishgan oshnalar bir-birlarini qanday yaxshi ko'rishsa, xarakterlari va didlarining turli bo'lishiga qaramay, bular ham bir-birlarini shunday yaxshi ko'rishardi. Shunday bo'lsa ham, faoliyatning turli xilini tanlab olgan kishilarda tez-tez uchrab turganidek, bularning har biri ikkinchisining faoliyatini tilda oqlasa hamki, undan dilida nafratlanardi. Bularning har biriga o'zi kechirayotgan hayot chinakam hayot bo'lib, oshnasi kechirayotgan hayot esa faqat qora hayot bo'lib ko'rinardi. Oblonskiy Levinni ko'rganda yengil, istehzoli tabassumdan o'zini tiyolmadi. Levinning qishloqdan Moskvaga kelib-ketib turganini u necha marta ko'rgan; Levin qishloqda qandaydir ish bilan mashg'ul; ammo nima qilayotganini Stepan Arkadich hech mahal durustroq tushunmaydi, aslini surishtirilsa, bunga qiziqmaydi ham. Levin har doim Moskvaga hayajonlanib, shoshib, biroz siqilib va siqilgandan o'zi tajanglashib, ko'pincha tamoman yangi, kutilmagan fikr bilan keladi. Stepan Arkadich bunga kulsa ham, lekin uni yaxshi ko'rardi. Xuddi shunga o'xshash Levin ham oshnasining shahardagi hayot tarzidan va qilib turgan xizmatidan ichida nafratlanar, bu xizmatni behuda narsa deb, undan kulardi. Lekin farq shunda ediki, hamma qilgan ishni qilgan Oblonskiy o'ziga ishonch va oqko'ngillik bilan, Levin esa o'ziga ishonmay, goho jahl aralash kulardi.

– Biz seni ko'pdan beri kutamiz, – dedi Stepan Arkadich kabinetiga kirib va Levinning qo'lini qo'yib yuborib; u shu harakati bilan bu yerda xavf-xatar yo'qligini bildirganday bo'ldi. – Juda, juda shod bo'ldim seni ko'rib, – deb so'zini davom ettirdi. – Xo'sh, qalaysan? A? Qachon kelding?

Levin indamadi, u Oblonskiyning yordamchilariga, bu notanish kishilarga, ayniqsa, olifta Grinevichning qo'liga qarab qoldi; Grinevichning oppoq, uzun barmoqlari, uchlari qayrilib turgan uzun, sariq tirnoqlari, ko'ylagining yenglaridagi kattakon, yiltiroq ilmatugmalari va, ayniqsa, qo'llari Levinning butun fikr-u xayolini olib qo'yib, bemalol o'ylashiga xalaqit berar edi. Oblonskiy buni darhol sezib, kulimsiradi.

– Ha-ya, ruxsat etinglar, sizlarni tanishtiray, – dedi u. – Yordamchilarim: Filipp Ivanovich Nikitin, Mixail Stepanovich Grinevich, –

keyin Levin tomonga yuzlandi: – Zemstvo¹ xodimi, yangi zemstvo odamlaridan, bir qo‘lida besh pudli toshni ko‘taradigan polvon, chorvachi, ovchi va mening do‘stim Konstantin Dmitrich Levin, Sergey Ivanovich Koznischevning ukasi.

– Juda soz, – dedi chol.

Grinevich esa uzun tirnoqli nozik qo‘lini uzata turib:

– Akangiz Sergey Ivanovichni bilish sharafiga noilmiz, – dedi.

Levin qovog‘ini solib, Grinevichning qo‘lini sovuqqina qisdi-yu, darhol Oblonskiyga yuzlandi. Garchi u butun Rossiyaga nomi ketgan va bir onadan talashib tushgan yozuvchi akasini juda-juda hurmat qilsa hamki, unga Konstantin Levin sifatida emas, mashhur Koznischevning ukasi sifatida murojaat qilishlarini sira yoqtirmas edi.

– Yo‘q, men endi zemstvo xodimimasman, hammasi bilan uri-shib qoldim, majlislarigayam bormayman, – dedi u Oblonskiyga qarab.

– Darrov-a! – dedi kulimsirab Oblonskiy. – Nechun? Nima bo‘ldi?

– Buning tarixi uzun. Vaqti kelganda aytib beraman, – dedi-yu, yana o‘zi hikoya qilishga tutindi. – Xayr, gapning qisqasi shuki, hech qanday zemstvo faoliyati yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas, men bunga ishonдим, – deb gap boshladi go‘yo uni birov hozir xafa qilgandek, – birinchidan, bu o‘yinchoq, parlament o‘yinini o‘ynashadi, men esam o‘yinchoqqa qiziqadigan darajada yosh ham emasman, unchalik qari ham emasman; ikkinchidan (duduqlandi), zemstvo-uezd coterie² uchun pul topish quroli; burunlari vasiylar, sudlar bo‘lardi, endi esa poraxo‘rlik bo‘lmasayam, bebiliska maoshi bo‘lgan zemstvo bor, – dedi u qizishib, xuddi shu yerda o‘tirganlardan birontasi u bilan gap talashayotgandek.

– O‘ho‘! Seni yana yangi fazada, konservativ fazasida ko‘ryapman-ku, – dedi Stepan Arkadich, – lekin bu masala ustida keyin gaplashamiz.

Levin Grinevichning qo‘llariga nafrat bilan tikilib turib:

– Ha, keyin gaplashamiz. Lekin seni bir ko‘rgim kelgandi, – dedi.

¹ Chor Rossiyada: dvoryan-burjo‘y vakillaridan tashkil etilgan, mahalliy ishlarni boshqarib turgan muassasa.

² Bu yerda «shayka» ma‘nosida (*frans.*).

Stepan Arkadich miyig'ida kulimsirab qo'ydi. U Levinning, aftidan, fransuz mashinachi tikib bergan yangi kiyimini ko'zdan kechira turib:

– Minba'd Yevropa kiyimni kiymayman, deb aytmabmidig? – dedi. – Shunaqa! Ko'rib turibman: yangi fazadasan.

Levin birdan qizarib ketdi, lekin o'zlari ham sezmasdan xiyolgina qizargan katta kishilar singari emas, balki o'z uyatchanliklari bilan kulgili ahvolga tushib qolganlarini sezgan va buning natijasida yana besh battar uyalib, ko'zlariga yosh kelguncha qizaradigan bolalarga o'xshab qizardi. Uning bu ma'noli, mardona yuzini bolalarnikiga o'xshash bir ahvolda ko'rish shu qadar taajjub ediki, Oblonskiy undan ko'zlarini olib qochdi.

– Qani, qayerda ko'rishamiz? Sen bilan gaplashadigan juda-juda zarur gapim bor, – dedi Levin.

Oblonskiy o'ylanib qoldi, shekilli:

– Kel, bo'lmasa: Gurinning restoraniga borib ovqatlanaylik-da, o'sha yerda bafurja gaplashaylik. Uchgacha bo'shman, – dedi.

Levin biroz o'ylagandan so'ng:

– Yo'q, men bir yerga borib kelishim kerak, – deb javob qildi.

– Xayr, unday bo'lsa, birga tushlik qilaylik.

– Tushlik? Yo'q, menga qara, aytadigan gapim unaqa uzun emas, faqat ikki og'iz so'z aytaman-u, sendan bir narsa so'rayman, xolos. Gaplashadigan bo'lsak, keyin gaplashamiz.

– Xo'p, bo'lmasa, hozir ayta qol o'sha ikki og'iz so'zingni, suhbatni tushlik ustida qilamiz.

– Bo'lmasa, ikki og'iz so'zim shu, – dedi Levin, – darvoqe, aytarli so'z ham emas.

Levin uyatchanligini bosishga harakat qilgandi, birdan yuzi qahrli tus oldi.

– Shcherbatskiylar nima qilishyapti? Boyagi-boyagidekmi? – dedi Levin.

Stepan Arkadich qaynsinglisi Kitiga Levinning oshiq ekanini ko'pdan beri bilardi; shuning uchun miyig'ida kulimsirab qo'ydi, ko'zlari chaqnaib ketdi.

– Sen ikki og'iz deysan, men bo'lsam ikki og'iz so'z bilan javob qilolmayman, chunki... kechir, bir daqiqaga...

Kotib betakalluf hurmat bilan ichkari kirdi-da, ishning ko'zini bilishda o'zlarini boshliqlaridan ustun deb biluvchi hamma kotiblarga

xos bir takabburlik bilan qo‘lidagi qog‘ozlarni Oblonskiyning oldiga keltirib, bir nima so‘rash bahonasida allaqanday qiyinchiliklarni tushuntira ketdi. Stepan Arkadich uning so‘zini oxirigacha eshitmay, o‘z qo‘lini kotibning qo‘li ustiga muloyimgina qo‘ydi.

– Yo‘q, men aytganimday qila qoling, – dedi u bu tanbehni yuzidagi jilmayish bilan muloyimlashtirib; ishni o‘zi qanday tushunganini qisqagina uqtirgandan so‘ng qog‘ozlarni nari surdi-da: – Shunday qila qoling, ha, lutfan shunday, Zaxar Nikitich, – dedi.

Kotib uyalib chiqib ketdi. Stepan Arkadich kotib bilan gaplashib bo‘lguncha Levin o‘zini xijolatdan butunlay o‘nglab oldi; endi u ikki qo‘li bilan stulga suyanib turar, yuzida esa istehzoli bir diqqat ifodasi bor edi.

– Hech tushunmadim, tushunmadim-da, – dedi u.

Stepan Arkadich ham sho‘xgina kulimsirab va papiros ola turib:

– Nimaga tushunmaysan? – deb so‘radi. U Levindan qandaydir g‘alati bir qiliq kutardi.

Levin yelkalarini qisib:

– Qilayotgan ishlaringizga tushunmayman, – dedi.

– Tavba, qanday qilib shu ishni jiddiy ish deb qilasan?

– Nima bo‘pti?

– Nima bo‘lardi, qiladigan hech nima yo‘q-ku.

– Sen shunday deb o‘ylaysan-u, lekin bizning ishimiz boshimizdan oshib-toshib yotibdi.

– Qog‘ozbozlik-da. Ha, sening bunaqa ishga suyaging yo‘q, – deb qo‘ydi Levin.

– Ya‘ni, fikringcha, biron nuqsonim bormi?

– Ehtimol, bordir ham, – dedi Levin. – Shunday bo‘lsa ham sening sipoligingga havasim keladi, do‘stimning shunday ulug‘ kishiligidan faxrlanaman. – Keyin, o‘zini zo‘rlab Oblonskiyning ko‘zlariga tik qaradi-da, ilova qildi: – Lekin mening savolimga javob bermading-da.

– Xayr, xo‘p, xo‘p, sabr qil, sen ham bir kun eshigimizni qoqib kelarsan. Yaxshiki, Karazino uyezdida uch ming botmon yering, manavinday baquvvat mushaklaring bor, o‘zing ham o‘n ikki yashar qizday tarovatlisan, shunday bo‘lsa ham, baribir, bir kun bizning oldimizga kelasan. Ha, endi sen so‘ragan narsaga kelsak: u masalada

hech qanday o'zgarish yo'q. Lekin, afsuski, yo'qlamaganingga juda ko'p bo'ldi.

– Bir nima bo'ldimi? – Levin cho'chib so'radi.

– Yo'q, hech nima bo'lgani yo'q, – deb javob berdi Oblonskiy. – Bafurja gaplashamiz. Xo'sh, o'zing nima ish bilan kelding?

– Ey, bu to'g'rida ham keyin gaplashamiz, – dedi Levin yana qulog'igacha qizarib.

– Ha, yaxshi. Masala oydin, – dedi Stepan Arkadich. – Gap bundoq, seni uyimga chaqirsam bo'lardi-yu, lekin xotinim picha betobroq. Bunday qila qolaylik: agar ko'rmoqchi bo'lsang, ular bugun soat to'rtidan beshgacha hayvonot bog'ida bo'lishsa kerak. Kiti yaxmalak uchyapti. O'sha yerga bor, men kelaman, keyin biron yerga borib tushlik qilamiz.

– Juda soz, yaxshi qol.

– Ha-da, bormay qolma, men seni bilaman, yo esingdan chiqarasan, yoki birdan qishloqqa jo'nab qolasan! – deb Stepan Arkadich kulib uning orqasidan qichqirib qoldi.

– Yo'q, boraman.

Levin Oblonskiyning yordamchilari bilan xayrlashmaganini eshikka yetgandagina esladi; shunday qilib kabinetdan chiqib ketdi.

– Aftlaridan juda serg'ayrat janobga o'xshaydilar, – dedi Grinevich Levin chiqib ketgandan so'ng.

– Ha, shunaqa, otaxon, – dedi Stepan Arkadich boshini chayqatib. – Xo'p baxtli odam-da! Karazino uyezdida uch ming botmon yeri bor, kelajagi oldida, tarovatiga taraf yo'q! Bizga yo'l bo'lsin.

– Iya, siz nimaga zorlanasiz, Stepan Arkadich?

Stepan Arkadich qattiq xo'rsinib:

– Ey, ahvolim yomon, juda yomon, – dedi.

VI

Oblonskiy Levindan nimaga kelganini so'raganda, Levin qizarib ketdi va qizargani uchun o'zidan jahli chiqdi, chunki u: «Qaynsinglingga og'iz solgani keldim», deb javob berolmadi, garchi o'zi shu maqsadda kelgan bo'lsa ham.

Levinlar bilan Shcherbatskiylarning xonadonlari Moskvadagi eski dvoryan xonadonlaridan; ular hamma vaqt bir-birlari bilan yaqin va do'stona munosabatda bo'lib kelishgan. Bu aloqa Levinning talabalik

vaqtida yana ham mustahkamlandi. U Dolli bilan Kitining akasi yosh knyaz Shcherbatskiy bilan birga tayyorlanib, universitetga birga kirgan edi. O'sha mahal Levin Shcherbatskiylarning uyiga tez-tez kelib yurardi. Natijada, Shcherbatskiylarning xonadonini yaxshi ko'rib qoldi. Bu qanchalik g'alati tuyulmasin, Konstantin Levin chindan ham Shcherbatskiylarning uyiga, oilasiga va, ayniqsa, bu oilaning ayollariga mehr qo'ygan edi. Levin onasini eslayolmasdi, yolg'iz opasi bor edi, xolos; shuning uchun o'qimishli, nomusli eski dvoryan oilasini u birinchi marta Shcherbatskiylarning uyida ko'rdi, Levin ota-onasining vafoti tufayli bundan mahrum bo'lgan edi. Bu oilaning har a'zosi, ayniqsa, ayollari uning nazarida qandaydir sirli, shoirona bir tuman pardasi bilan qoplanganday edi. Levin ulardan bironta nuqson topish u yoqda tursin, balki ularni o'rab turgan o'sha shoirona parda orqasida eng yuksak hislar va turli kamolotlar yashiringan deb ishonardi. Bu uch nafar oyimqizga nima uchun kun oralab goh fransuzcha, goh inglizcha gapirish kerak edi; nima uchun ular muayyan soatlarda navbat bilan fortepiano chalar edilar (bu musiqa ovozi akasining xonasida, yuqorida, talabalar dars tayyorlayotgan xonada eshitilardi); fransuz adabiyoti, musiqa, rasm, raqs muallimlari nima uchun bu yerga kelib turadi; muayyan soatlarda uchala oyimqiz: Dolli – uzun, Natali – o'rtacha, Kiti esa qizil paypoq kiygan xushbichim oyoqchalarini odamlar ko'zidan yashirolmaydigan darajada nihoyatda kalta atlas po'stinchasini kiyib, M-Ile Linon bilan nima uchun faytonda Tverskiy xiyoboniga borishadi; nima uchun ularga shlapasi zarrin to'qali yugurdak hamrohligida Tverskiy xiyobon bo'ylab yurish kerak edi, mana shularning hammasiga va ularning dilidagi sirlariga Levin tushunmas, lekin u yerda yuz bergan narsalarning hammasi go'zal, ajoyib narsalar ekanini bilar, shuning uchun sodir bo'lgan narsalarning xuddi shu sir-asroriga maftun edi.

Talabalik vaqtida u oyimqizlarning kattasini, ya'ni Dollini yaxshi ko'rib qolishga sal qoldi, lekin uni tezda Oblonskiyga erga berib yubordilar. Ana shundan keyin ikkinchisiga ko'ngil qo'ya boshladi. U xuddi opa-singillardan birini yaxshi ko'rishi kerakligini his qilsa ham, faqat qaysi birini yaxshi ko'rishini bilmas edi. Lekin Natalya ham kiborlar muhitida ko'zga ko'rinar-ko'rinmas diplomat Lvovga tegib ketdi. Levin universitetni bitirib chiqqan kezlarda Kiti hali norasida edi. Yosh Shcherbatskiy flot xizmatiga kirib, Boltiq dengizida

cho'kib ketgandan so'ng, Levin Oblonskiy bilan do'st bo'lishiga qaramay, Shcherbatskiylarnikiga kamdan kam boradigan bo'lib qoldi, lekin shu yil, qishloqda bir yil turgandan so'ng, qishda Moskvaga kelib, Shcherbatskiylarni ko'rganda, uch opa-singildan qaysi birini sevish nasib bo'lganini angladi.

Kambag'al emas, nasli-nasabi toza, badavlat kishi bo'lgan Levin uchun knyajna Shcherbatskayaga og'iz solishdan ham osonroq narsa yo'qday tuyulishi mumkin, uni qizlariga juda ham munosib deb darhol qabul qilishlari ehtimoldan uzoq emasdi. Lekin Levin oshiq edi, shuning uchun Kiti uning nazarida har jihatdan mukammal, samoviy, o'zi esa tuproqdan tashqari yurgan kichik bir xilqat bo'lib ko'rinardi, bunday bo'lgandan keyin boshqalarning ham, Kitining o'zi ham uni munosib kuyov deb bilishlari sira-sira aqlga sig'mas edi.

Ikki oy Moskvada gangib yurgandan va Kiti bilan uchrashish niyatida kiborlarga aralashib, Kitini qariyb har kun ko'rib turgandan keyin Levin, birdan bunday bo'lishi mumkin emas, degan qarorga keldi-yu, qishlog'iga jo'nab qoldi.

Levin qizning ota-onasi ko'zida o'zini go'zal Kitiga noloyiq, nomunosib kuyov deb bilgani va Kiti ham meni sevolmaydi, degan o'yga borgani uchun, bunday bo'lishi mumkin emas, degan qanoatga kelgan edi. Qarindosh-urug'lari nazarida u hech qanday muayyan faoliyati va jamiyatda o'rni bo'lmagan odam edi, holbuki, bu o'ttiz ikki yoshga kirganda, o'rtoqlari allaqachon – kimi polkovnik va fligelad'yutant, kimi professor, kimi bank va temiryo'l boshqarmasining direktori yoki Oblonskiyga o'xshash, davlat mahkamasining raisi bo'lib o'tiribdi: o'zi esa (u boshqalar nazarida o'zining qanday odamligini juda yaxshi bilardi) sigir ko'paytirish, ov qilish, bino qurish bilan ovora bo'lgan bir zamindor, ya'ni jamiyat tushunchasicha, hech nimaga yaramagan kishilar qiladigan ishni qilib yurgan va durustroq odam bo'lolmagan uquvsiz bir kishi edi, xolos.

Sirli, go'zal Kitiga kelganda, u bunday xunuk (u o'zini shunday hisoblardi) kishini, ayniqsa, ko'zga ko'rinarli biron fazilati bo'lmagan shunday to'pori bir odamni yaxshi ko'rolmasdi. Bundan tashqari, Kitiga bo'lgan avvalgi munosabati, ya'ni Kitining akasi bilan oshnachilik qilib yurgan kezlarida katta kishining kichik bolaga qiladigan munosabatiga o'xshash munosabatda bo'lgani ham sevgisi yo'lida yangi bir to'g'anoq bo'lib ko'rinardi. Xunuk, mehribon kishini

(u o'zini shunday hisoblardi) aka-ukalik mehri bilan sevish mumkin, lekin o'zi Kitini qanday muhabbat bilan sevgan bo'lsa, Kiti ham uni shunday sevishi uchun, chiroyli, ayniqsa, ajoyib fazilatli kishi bo'lishi kerak, deb o'ylardi.

Xotinlar ko'pincha xunuk, oddiy odamlarni yaxshi ko'rishadi, deb eshitgan bo'lsa ham, bunga ishonmasdi, chunki u bu narsani o'ziga qarab yechar, o'zi esa faqat chiroyli, sirli va jonon ayollar-nigina yaxshi ko'rardi.

Levin qishloqda ikki oy turgandan so'ng Kitiga bo'lgan sevgisi yoshlik chog'larida boshdan kechirgan sevgilarning birontasiga ham o'xshamaganiga, bu his butunlay tinchini olib qo'yganiga, Kitining o'ziga tegish-tegmaslik masalasini hal qilmasdan yasholmasligiga, yuragidagi umidsizlik o'zida paydo bo'lgan vasvasa oqibati eka-niga, o'zining rad qilinishga hech qanday dalil yo'qligiga qanoat hosil qildi. Shuning uchun u bu safar Moskvaga qat'iy qaror bilan: Kitiga og'iz solish va qabul qilsalar, unga uylanish qarori bilan kelgan edi. Yoki... rad qilsalar, holi nima bo'lishini o'ylashga yu-ragi betlamasdi.

VII

Levin Moskvaga ertalabki poyezd bilan kelib, ona bir, ota boshqa bo'lgan akasi Koznishevnikiga tushdi. Kelishining sababini darhol aytish va akasidan maslahat olish uchun kiyimlarini o'zgartirib uning kabinetiga kirdi; lekin akasi yolg'iz emas ekan. U yerda Xarkov-dan kelgan mashhur falsafa professori o'tirgan ekan; u o'zi bilan Koznishev o'rtasida g'oyat muhim falsafiy masalada chiqqan ang-lashilmovchilikni bartaraf qilish uchun atayin Moskvaga kelibdi. Professor moddiyunchilarga qarshi qizg'in munozara boshlagan, Sergey Koznishev esa bu munozarani maroq bilan kuzatib yurgan: u professorning so'nggi maqolasini o'qib, o'zining e'tirozlarini unga xat orqali yozib yuborgan; u professorning moddiyunchilarga had-dan ziyod yon bosib yuborganini ta'na qilgan edi. Professor ham bu masalani bamaslahat hal qilish uchun darhol etib keldi. Gap o'sha mahallar juda urfda bo'lgan masala, ya'ni «Inson faoliyatidagi ruhiy va fiziologik hodisalar o'rtasida chegara bormi va bo'lsa, qayerda?» degan masala haqida borardi.

Sergey Ivanovich, odatda, hammani muloyimlik bilan sovuqqina qarshi olardi; ukasini ham shunday kutib olib, uni professor bilan tanishtirgandan so'ng suhbatini davom ettirdi.

Ko'zoynakli, tor manglayli, kichkina, sap-sariq odam salomlashish uchun bir zumgina gapdan to'xtab, so'ng parvo qilmay so'zini ulab ketdi. Levin professorning ketishini kutib o'tirdi, lekin ko'p o'tmay suhbat mavzusi uning o'zini ham qiziqtirdi.

Levin bu yerda tilga olingan maqolalarni jurnallarda uchratgan va universitetda tabiatshunos bo'lgani uchun o'ziga tanish tibbiyot bilimlari asoslarining taraqqiyoti bilan qiziqib, u maqolalarni o'qigan edi; lekin insonning hayvondan paydo bo'lgani haqidagi, reflekslar, biologiya va sotsiologiya haqidagi bu ilmiy xulosalarni so'nggi vaqtlarda miyasiga tobora tez-tez kelib turgan o'lim va hayotning o'zi uchun bo'lgan ahamiyati haqidagi masalalar bilan hech bog'lamagan edi.

U akasining professor bilan qilayotgan suhbatini eshitib, ilm masalalarini ko'ngil masalalariga olib kelib bog'lashayotganini payqadi; shu masalalarga bir necha bor juda yaqinlashib kelishardi-yu, lekin Levinning nazarida, eng muhim masalaga har safar endi yaqinlashdi deguncha darrov uzoqlashib, yana nozik boblar, sharhlar, iqtiboslar, imo-ishoralar, obro'li zotlar aytgan so'zlar sohasiga sho'ng'ib ketardilar; Levin bo'lsa gap nima ustida ketayotganini zo'rg'a-zo'rg'a tushunardi.

Sergey Ivanovich o'ziga xos aniq-ravshan bir ifoda va nafis bir talaffuz bilan:

– Tashqi dunyo haqidagi tasavvurlarimning hammasi taassurotlarim natijasi bo'lishiga hech yo'l qo'yolmayman, bu haqda Keysning fikriga hech mahal qo'shilolmayman, – dedi. – Borliq haqidagi tushunchani men his, sezgi orqali hosil qilganim yo'q, zero, bizga bu tushunchani beradigan maxsus a'zo ham yo'q, – dedi.

– Xo'p, lekin ular, Vurst, Knaust va Pripasovlar sizga borliq haqidagi tushunchangiz barcha sezgilar majmuasidan hosil bo'ladi, bu borliq tushunchasi sezgilar natijasidir, deb javob berishadi. Hatto Vurst ham: sezgi yo'q joyda, borliq ham yo'q, deb aytadi.

– Men aksini isbot qilaman, – deb Sergey Ivanovich so'z boshladi...

Lekin Levinga ular yana eng muhim masalaga yaqinlashishganda, tag'in uzoqlashib ketishayotgandek tuyuldi, shuning uchun professorga shu savolni berishga jur'at etdi:

– Agar hislarim yo‘q qilinsa, tanim o‘lsa, demak, ortiq hech qanday borliqning bo‘lishi mumkin emas ekan-da?

Professor faylasufdan ko‘ra kema sudrovchi mardikorga o‘xshagan bu g‘alati odam gapini bo‘lgani uchun g‘ashi keldi-yu, ruhiy azob chekayotgandek qarab qo‘ydi; keyin: «Buning gapiga nima desa bo‘ladi?» deb so‘rayotgandek ko‘zlarini Sergey Ivanovichga tikdi. Lekin Sergey Ivanovich professor singari zo‘r berib, bir yoqlama qilib gapirmagan edi, shu sababli professor uchun bu savolga javob berish va ayni zamonda juda soddadillik bilan berilgan bu tabiiy savolni tushunish uchun miyasi yetarli darajada toza edi. Shuning uchun kulimsirab turib:

– Bu masalani hal qilishga hali haqimiz yo‘q, – deb qo‘ydi.

– Qo‘limizda dalillar yo‘q, – deb professor Sergey Ivanovichning so‘zini tasdiqladi-da, o‘z fikrini davom etishga kirishdi. – Yo‘q, – dedi u, – men shuni ta‘kidlamoqchiman: Pripasov aytganidek, sezgi zamirida taassurot bo‘lsayamki, biz bu ikki tushunchani bir-biridan qat‘iyan farq etishimiz lozim.

Levin ortiq quloq solmay, professorning ketishini kutib o‘tirdi.

VIII

Professor ketgandan so‘ng Sergey Ivanovich ukasiga o‘girilib:

– Kelganingga juda xursand bo‘ldim. Ko‘proq turasanmi? Xo‘jaliging qalay? – dedi.

Xo‘jaligi akasini ucha qiziqtirmasligini va unga tabiatsozlik qilib shunchaki so‘rab qo‘yganini Levin bilardi, shuning uchun faqat bug‘doy sotgani va puli haqidagina javob qildi.

Levin uylanish niyatida ekanini aytib, bu haqda akasining maslahatini so‘ramoqchi bo‘lgan va bunga hatto qat‘iy qaror ham qilgan edi; lekin akasini ko‘rib, uning professor bilan qilgan suhbatiga quloq solgandan so‘ng, keyin esa akasining homiylik ohangi bilan xo‘jalik ishlarini so‘raganini (ularning onalaridan meros qolgan mulk bo‘linmagani uchun mulkning har ikkala qismini ham Levin boshqarib kelardi) eshitib, Levin o‘zining uylanish niyati haqida nima uchundir akasi bilan gaplasholmasligini sezdi. Akam bu masalaga mening ko‘zim bilan qaramaydi, deb o‘yladi.

Sergey Ivanovich zemstvoga juda qiziqar va unga katta ahamiyat berib kelardi, shuning uchun:

– Xo‘sh, sizlar tomonda zemstvoning ahvoli qalay? – deb so‘radi.

– Rostini aytsam, qanaqaligini bilmayman...

– Nega? Sen o‘sha zemstvo mahkamasining a‘zosisan-ku!

– Yo‘q, hozir a‘zosimasman, chiqib ketdim, majlislarigayam bormayman, – deb javob berdi Konstantin Levin.

Sergey Ivanovich esa:

– Afsus! – dedi qovog‘ini osiltirib.

Levin o‘zini oqlash uchun uyezdlaridagi majlislar to‘g‘risida gapira boshladi.

– Ana shu-da, biz hamma vaqt shunday qilamiz, – deb Sergey Ivanovich uning so‘zini bo‘ldi. – Biz, ruslar, hamisha shunday qilamiz. O‘zimizning xatolarimizni ko‘ra bilish qobiliyatimiz, ehtimol, yaxshi fazilatdir, lekin biz oshirib yuboramiz, hamma vaqt tilimizning uchida turgan kinoya bilan yupanamiz. Men senga aytsam, zemstvo muassasalari ixtiyorida bo‘lgan huquq Yevropaning boshqa bir xalqiga, chunonchi nemislar yo inglizlarga berilsa bormi, ular bu huquqdan foydalanib, ozodlikka erishadi, biz bo‘lsak, mana shunaqa kulamiz, xolos.

– Nachora? – dedi Levin gunohkorlarcha, – bu mening oxirgi tajribam edi. Shuning uchun jonimning boricha urinib ko‘rdim, bo‘lmadi, qo‘limdan kelmadi.

– Qo‘limdan kelmadimish, – dedi Sergey Ivanovich, – sen bu narsaga chinakam ish ko‘zi bilan qaramaysan.

Levin xafalik bilan:

– Balki, – deb qo‘ydi.

– Xabaring bormi, Nikolay akang yana shu yerda yurganmish.

Nikolay – Konstantin Levinning tug‘ishgan akasi, Sergey Ivanovichning esa ona bir ukasi edi: mol-mulkinging ko‘pini sovurib, yaramas odamlar bilan ulfat bo‘lib, aka-ukasi bilan urishib yurgan, xarob bo‘lgan kishi edi.

– Yo‘g‘ey? – deb yubordi Levin taka-puka bo‘lib. – Qayerdan bilasan?

– Prokofiy ko‘chada ko‘ribdi.

– Shu yerda-ya, Moskvada-ya? Qayerda ekan? Bilasanmi? – Levin hoziroq chiqib ketadigandek, o‘rnidan sakrab turdi.

Sergey Ivanovich ukasining hayajonlanganiga achinganday boshini chayqab:

– Attang, senga aytmasam bo‘larkan, – dedi. – Qayerda turganini bilib kelgani odam yubordim. Trubinga bergan veksellini to‘lab qo‘yuvdim, uni ham o‘ziga yubordim. Mana, uning menga qilgan javobi.

Sergey Ivanovich press-pape tagida yotgan xatni olib, ukasiga uzatdi.

Levin g‘alati, lekin o‘zi uchun qadrdon bo‘lgan husnixat bilan yozilgan satrlarni o‘qib chiqdi.

«Meni o‘z holimga qo‘yishlaringizni mutelik bilan iltimos qilaman. Marhamatli akajon va ukajonimdan talab qiladigan bir narsam bo‘lsa, u ham shudir. Nikolay Levin».

Levin bu satrlarni o‘qidi-yu, boshini ko‘tarmasdan, qo‘lida xat bilan Sergey Ivanovich oldida turib qoldi.

Hozir uning qalbida baxtsiz akasini unutish istagi bilan, bunday qilish yomon-ku, degan tushuncha o‘rtasida kurash bormoqda edi.

– Aftidan, meni haqorat qilmoqchiga o‘xshaydi, – dedi Sergey Ivanovich so‘zini davom qildirib, – lekin meni haqorat qilolmaydi, unga jonim bilan yordam qilishni istardim-u, lekin bilaman, buning iloji yo‘q-da.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, – deb takrorladi Levin. – Sening unga munosabatingni bilaman, qadrlayman ham, lekin men uning oldiga borishim kerak.

– Xohlasang, mayli, bor, lekin maslahat bermayman, – dedi Sergey Ivanovich. – Ya‘ni o‘zim to‘g‘rimda ko‘nglim to‘q, u seni men bilan urishtirib qo‘yolmaydi, bunisidan qo‘rqmayman, lekin maslahatimga kirsang, bormaganing ma‘qul. Unga yordam qilib bo‘lmaydi. Yana o‘zing bilasan.

– Ehtimol, yordam qilib bo‘lmas, lekin sezib turibman, ayniqsa, shu daqiqada – bu boshqa gap – xotirjam bo‘lolmasligimni sezib turibman.

– Ana xolos, men bu qilg‘ingga tushunolmayman, – dedi Sergey Ivanovich. Keyin ilova qildi: – Lekin bir narsaga yaxshi tushunaman: bu tavoze va itoat sabog‘idir. Nikolay hozirgi ahvolga tushgandan so‘ng razolat deb atalgan narsaga boshqacha, marhamat ko‘zi bilan qaraydigan bo‘lib qoldim... Bilasanmi uning nimalar qilganini?..

Levin qayta-qayta:

– Uh, bu juda mudhish, mudhish! – dedi.

Levin Sergey Ivanovichning yugurdagidan akasining manzilini olib, darhol jo‘namoqchi bo‘ldi-yu, lekin o‘ylanib ko‘rib, kechqurun borishga qaror qildi. Ko‘ngil besaranjomligidan qutulish uchun Moskvaga nima maqsadda kelgan bo‘lsa, eng avval shu ishni hal qilish kerak edi. U akasinikidan to‘g‘ri Oblonskiyning idorasiga bordi; u yerda Shcherbatskiylarni surishtirdi-da, Kitini ko‘rish mumkin bo‘lgan joyga qarab ketdi.

IX

Levin soat to‘rtida hayvonot bog‘i oldida izvoshdan tushdi; yuragi dukillab urar edi; u yo‘lakcha bilan to‘g‘ri tepaga, yaxmalak otiladigan joyga qarab ketdi; Kitini o‘sha yerdan topishini aniq bilgan edi, chunki darvoza oldida Shcherbatskiylarning karetasini ko‘rgan edi.

Havo ochiq, sovuq qattiq edi. Darvoza oldida kareta, chanalar, izvoschilar, jandarmlar qatorlashib turardi. Shlyapalari charaqlagan quyoshda yaltiragan toza kiyimli odamlar darvoza oldida va rahlari o‘ymakor qilib ishlangan rus uslubidagi uyachalar orasidagi tozalangan yo‘lkalarda qaynashardi; bog‘dagi shoxlari qor tagida egilgan sada qayinlar tantana kezlari kiyiladigan yangi liboslar bilan yasanib olganga o‘xshardi.

U yaxmalak maydonga boriladigan yo‘lkada keta turib o‘zicha: «Hovliqish kerakmas, og‘ir bo‘lish kerak», derdi. Keyin yuragiga xitob qildi: «Senga nima bo‘ldi? Bu nima o‘zi? Jim bo‘l, nodon!» U o‘zini bosishga nechog‘li harakat qilsa, nafasi shuncha tiqilardi. Bir tanishi uchrab, uni chaqirdi, lekin Levin uning kimligini ham bilmadi. U tepaga yaqinlashdi, u yerda pastga tushayotgan va tepaga chiqayotgan chanalarning zanjirlari g‘ijirlar, sirg‘anayotgan chanalar guldurar, xushchaqchaq ovozlar yangrardi. U yana bir necha qadam tashladi, ana endi yaxmalak maydoni yaqqol ko‘rindi va yaxmalak otayotganlar orasidan darhol Kitini tanib oldi.

Levin yuragining shodlik bilan talpinishi, orziqishidan Kitining shu yerdaligini payqadi. Kiti yaxmalak maydonining narigi tomonida bir xonim bilan gaplashib turgan edi; uning kiyimida ham, turishida ham hech qanday dabdaba yo‘qdek edi. Lekin alaf ichida atirgulni

ajratish qanchalik oson bo'lsa, olomon ichidan uni topib olish ham Levin uchun shunchalik oson bo'ldi. Hamma narsa uning nuri bilan yoritilgandek edi. Tevarakdagi mavjudotni yoritgan narsa uning tabassumi edi. «Nahotki, men muz ustiga tushib, uning yoniga borol-sam?» deb o'yladi Levin. Kiti turgan yer oyoq bosib bo'lmaydigan tabarruk yer bo'lib ko'rindi va boshidan shunday daqiqa kechdiki, ketib qolishiga sal qoldi: shu qadar dahshat bosdi uni. Keyin zo'r bilan o'zini qo'lga oldi-da, Kiti yonida har xil odamlar yuribdi, demak, o'zim ham u yerga borib yaxmalak otishim mumkin-ku, deb mulohaza qildi.

Quyoshga uzoq qarash mumkin bo'lmaganidek, Kitiga ham uzoq qaramaslikka tirishib pastga tushdi, lekin Kitiga qaramasdan, quyoshni ko'rgandek uni ko'rib turdi.

Bir-birlari bilan tanish va bir to'garakka mansub odamlarning hammalari haftaning shu kuni va kunning shu paytida muz maydonida to'planardilar. Bu yerda o'z san'atlarini ko'z-ko'z qilgan yaxmalak ustalari, kursi suyanchig'ini ushlab olib, beso'naqay harakatlar bilan qo'rqa-qo'rqa yaxmalak otishga o'rganayotganlar, o'g'il bolalar va sog'liqlarini saqlash maqsadida yaxmalakka chiqqan keksalar bor edi; bularning hammasi Levin nazarida Xudoning baxtli bandalari edi, chunki ular shu yerda, Kitiga yaqin yerda edilar. Yaxmalak otayotganlar parvosizlik bilan Kitini quvib o'zib ketishar, u bilan hatto beparvo gaplashar va yaxmalakning yaxshiligidan, kunning ochiqligidan, bahri-dillari ochilib, Kitidan qat'i nazar o'z boshlariga chaqchaqlashardilar.

Kitining bo'lasini Nikolay Shcherbatskiy egnida kalta nimcha va tor shim, oyoqlarida konki bilan o'rindi qda o'tirgan edi, Levinni ko'rib qichqirdi:

– O', birinchi rus yaxmalakchisi! Qachon keldingiz? Muz yaxshi, yaxmalakbop, tez bo'ling, konkini kiying.

Levin Kiti huzurida o'zining shunchalik jur'at va betakalluflik bilan gapirganiga ajablanib va Kitiga qaramasdan, uni bir zum bo'lsa ham nazaridan qochirmay turib:

– Konkiyim yo'q, – deb javob qildi. U quyoshning o'ziga yaqinlashib kelayotganini sezardi. Kiti yaxmalak maydonining burchagida edi, u qo'njlari baland botinkali nozik oyoqchalaridagi konki-ning to'mtoq uchiga bosib, aftidan, yurak betlamay, Levin tomonga

sirg'alib kelardi. Rus libosidagi bir o'g'il bola, qo'llarini qattiq silkib va yerga engashib olib, Kitidan o'zib ketdi. Kiti no'noqlik bilan sirg'alardi; u ipga osig'liq kichkina muftadan qo'llarini chiqarib ko'rishish uchun shaylangan va Levinni tanib, ham unga, ham o'zining hurkakligidan kulib kelayotgan edi. Muyulishga yetganda oyoqchasini bir silkitib, to'g'ri Shcherbatskiyning yoniga sirg'alib keldi-da, unga qo'li bilan yopishib, kulimsirgan holda kallasi bilan Levinga salom qildi. Kiti u tasavvur qilgandan ham go'zalroq edi.

Levin Kitini o'ylaganda, uni butun borlig'i bilan, ayniqsa, bolalarga xos soflik va mehribonlikni ifoda qiluvchi mana shu latofatli, xushbichim yuzini, nozik yelkalarida erkin turgan mo'jazgina malla sochli boshini xayolida jonlantira olardi. Chehrasidagi bolalik ifodasi qomatining nozik nafasati bilan qo'shilib uning o'ziga xos malohatini tashkil qilar, buni Levin yaxshi bilardi; lekin unda har mahal kishini nogahon hayratga solib qo'yadigan narsa muloyim, vazmin va rostgo'y ko'zlarining ifodasi va ayniqsa, Levinni hamma vaqt jozibali sehlrar dunyosiga eltadigan tabassumi edi; Levin esa u sirlar dunyosida ko'ngli yumshab iyib ketar, ilk bolalik chog'larida ham kamdan kam shunday bo'lganini eslab kelardi.

Kiti unga qo'lini uzatayotib:

– Qachon keldingiz? – deb so'radi. Keyin muftasidan tushib ketgan dastro'molini Levin yerdan olib berganda: – Salomat bo'ling, – deb qo'ydi.

– Menmi? Yaqinda, kecha... yo'g'-ey, bugun... keldim, – deb javob berdi Levin hayajonlanganidan uning savolini darrov tushunmasdan. – Sizlamikiga bormoqchi edim, – dedi-yu, Kitini nima maqsadda izlab kelganini darhol eslab, xijolatdan qizarib ketdi. – Sizing yaxmalak uchishingizni bilmas ekanman, konkida juda yaxshi tiyg'onarkansiz.

Kiti Levinning nega xijolat tortayotganini bilmoqchi bo'lgandek, unga diqqat qilib qaradi.

– Sizing maqtovingizni qadrlash kerak. Bu yerda sizni eng yaxshi yaxmalak otuvchi edi, degan rivoyatlar bor, – dedi qiz muftaga qo'ngan qirov ignachalarini qora qo'lqopli kichkina qo'li bilan qoqib.

– Ha, bir mahallar ehtiros bilan yaxmalak otardim; bu sohada kamolatga yetish istagim bor edi.

– Nazarimda, siz hamma narsani ehtiros bilan qilasiz, shekilli, – dedi Kiti kulimsirab, – sizning yaxmalak otishingizni biram ko‘rgim keladiki, tezroq konki kiying, birga sirg‘anamiz.

Levin unga qarab turib: «Birga yaxmalak otamiz! Nahotki, buning iloji bo‘lsa?» deb o‘ylardi.

Keyin:

– Hozir kiyib kelaman, – dedi.

Shunday qilib, Levin konki kiyib kelgani ketdi.

Konki ijarachisi Levinning oyog‘ini ushlab va konkini poshnasiga mahkamlab turib:

– Biz tomonlarga kelmaganingizgayam ancha bo‘ldi, taqsir, – dedi. – Sizdan keyin janoblar orasidan usta chiqmadi. Shunchaligi tuzukmi? – deb so‘radi u konki qayishini tortib.

Levin chehrasiga beixtiyor yoyilayotgan baxt tabassumini zo‘rg‘a tutib turib:

– Tuzuk, tuzuk, lekin tezroq bo‘ling, – dedi. Keyin: «Ha, ana bu hayot, ana bu chinakam baxt! – deb o‘yladi. – Birga tiyg‘onamiz, dedi. Rozimni aytammikin hozir? Lekin hozir baxtliman, hech bo‘lmasa, umid bilan baxtliman, shuning uchun rozimni aytishga qo‘rqaman... aytganda-chi?.. Yo‘q, aytish kerak! Aytish kerak, axir! Yo‘qol, sustkashlik!»

Levin oyoqqa turdi, paltosini yechdi, keyin uycha yonidagi g‘udirbudur muz ustida tiyg‘onib, tekis joyga chiqdi-da, sur‘atni xuddi o‘z ixtiyori bilangina tezlatib, sekinlatib va yo‘naltirib borayotgandek, bemalol sirpanib ketdi. U Kitining yoniga yana hayiqib kelgan bo‘lsa ham, lekin qiz lablaridagi tabassumni ko‘rib, yana ko‘ngli joyiga tushdi.

Kiti qo‘lini unga berdi, ular borgan sari sur‘atni tezlashtirib yonma-yon uchib borishdi; uchishlari tezlashgan sari Kiti ham Levinning qo‘lini mahkamroq qisib bordi.

– Siz bilan tezroq o‘rganib olardim, negadir men sizga ishonaman, – dedi unga qiz.

Levin ham:

– Menga suyanganingizda, menda ham o‘zimga ishonch ortadi, – dedi-yu, birdan aytgan gapidan qo‘rqib, qizarib ketdi. Haqiqatan ham, u shu so‘zlarni aytishi bilanoq, quyosh bulut ichiga kirib ketgandek, qiz yuzi ham o‘zining navozishini birdaniga yo‘qotdi;

Levin uning chehrasidagi tanish ifodani ko'rdi: silliq manglayiga tirish yugurdi, bu uning qattiq o'ygga berilganini bildirardi.

– Dilingizni siyoh qilgan biron narsa bo'lgani yo'qmi? Darvoqe, buni so'rashga haqim yo'q, – dedi u shoshib.

– Nega?.. Yo'q, dilimni siyoh qiladigan hech nima bo'lgani yo'q, – deb Kiti sovuqqina javob qildi, keyin darrov ilova etdi: – M-lle Linonni ko'rganingiz yo'qmi?

– Ko'rganimcha yo'q.

– Oldiga boring, u sizni juda yaxshi ko'radi.

Levin: «Bu nima degani? Uni xafa qilib qo'ydim, yo Rabbii, o'zing madad qil!» deb o'yladi-yu, o'rindiqda o'tirgan oq sochli fransuz kampir tomon yugurib ketdi. Fransuz ayol kulimsirab va yasama tishlarini ko'rsatib turib, uni qadrdon do'stday qarshiladi.

– Shunaqa, o'syapmiz, – dedi u ko'zlari bilan Kitiga ishora qilib. – Qariyapmiz ham. Tiny bear¹ katta bo'lib qoldi! – deb fransuz ayol kulib so'zida davom etdi va Levinning uch oyimqiz haqidagi hazilini eslatdi; Levin ularni ingliz ertagidagi uch ayiqqa o'xshatgan edi. – Esingizdami, shunaqa deb hazillashardingiz?

Bunaqa hazil qilgani Levinning esida hech qolmagan bo'lsa ham, fransuz ayol o'n yildan beri bu hazilni eslaganda kulib zavqlanardi.

– Yaxshi, boring endi, yaxmalak uching. Ha, bizning Kitiyam yaxmalakni yaxshi uchadigan bo'пти, a?

Levin yana Kitining yoniga yugurib kelganda, yuzida avvalgi noxushlik alomati yo'qolib, ko'zlari tag'in boyagidek rostgo'ylik va mehribonlik bilan chaqnab turgan bo'lsa ham, Levinga uning mehribonligida jo'rttaga qilingan vazminlik alomati bordek tuyuldi. Buni ko'rib, Levin ma'yus bo'ldi. Kiti o'zining qari murabbiyasi haqida, uning g'alati odatlari haqida gapirib bergandan so'ng Levinning turmushi haqida so'radi.

– Nahotki, qish kunlari qishloqda zerikmasangiz? – dedi u.

Og'ir-vazmin kayfiyatda bo'lgan Kiti uni o'ziga bo'ysundi-rayotganini, endi bu holatdan qutulishga qurbi yetmasligini sezib:

– Yo'q, zerikmayman, judayam bandman, – dedi Levin.

Kiti:

– Ko'proq turasizmi? – deb so'ragandi, u nima dyeyayotganini o'ylamasdan:

¹ Ayiqcha (*ingl*).

– Bilmayman, – deb javob qildi. Agar qizning mana shu do‘stona, vazmin ohangiga bo‘ysunsa, yana hech nimani hal qilmasdan ketib qolishi mumkinligi haqidagi fikr miyasiga keldi-yu, ichida g‘alayon turdi.

– Voy, nega bilmaysiz?

– Bilmayman-da. Bu sizga bog‘liq, – dedi-yu, aytgan so‘zlaridan darhol dahshatga keldi.

Kiti uning so‘zini eshitmadimi yo eshitgisi kelmadimi, haytovur, xuddi qoqilib ketgandek oyog‘ini ikki marta muzga urdi-da, sirg‘anib undan uzoqlashib ketdi. U M-lle Linon yoniga kelib, murabbiyasiga bir nimalar degandan so‘ng xonimlar konkilarini yechayotgan uychaga yo‘l oldi.

«Yo Rabbii, nima qilib qo‘ydim! Ey Xudoyim! O‘zing madad ber, O‘zing aql ber menga!» deb Levin munojot qildi va ayni zamonada kuchli harakatlarga ehtiyoj sezib, muz ustida yugurganicha ichki va tashqi doiralar chiza ketdi.

Shu mahal yoshlardan biri, ya‘ni yangi yaxmalak otuvchilarning eng yaxshisi og‘zida papiros, oyoqlarida konki bilan qahvaxonadan chiqdi-da, yugura kelib, zina pog‘onalarini taraqlatib, sakrab-sakrab konkida pastga tusha boshladi. U pastga tushishi bilanoq, bo‘sh turgan qo‘llarining holatini ham o‘zgartirmasdan, muz ustida sirg‘ana ketdi.

– O‘, bu yangi xili-ku! – dedi-da Levin yaxmalak otishning bu yangi xilini qilib ko‘rish uchun darhol tepaga yugurib chiqib ketdi.

Orqasidan Nikolay Shcherbatskiy:

– Hazir bo‘ling, buni havosini olmasdan qilib bo‘lmaydi! – deb qichqirdi.

Levin zina boshiga chiqib, iloji boricha yugurib keldi-da, pastga tusha boshladi, bu harakatga o‘rganmagani uchun qo‘llari bilan po-sangisini saqlardi. Oxirgi pog‘onaga yetganda qoqilib ketdi-yu, qo‘l uchini muzga qadab, keskin harakat bilan o‘zini o‘nglab oldi-da, kula-kula ilgariga sirg‘andi.

Shu mahal Kiti M-lle Linon bilan kichkina uydan chiqib kelayotgan edi; o‘zining suyukli akasidek ko‘rgan Levinga Kiti iliq bir mehr bilan kulimsirab qarab: «Juda dilbar yigit-da», deb o‘ylandi: «Nahotki, men gunohkor bo‘lsam, nahotki, biron yomon ish qilib qo‘ygan bo‘lsam? Ular buni g‘amza deyishadi. Bilaman, mening sevganim u emas; lekin shunday bo‘lsayam, u bilan bahri-dilim

ochiladi, o'ziam biram yoqimtoyki. Faqat nimaga u so'zni aytdiya?» deb o'ylar edi qiz.

Shiddatli harakatdan keyin qip-qizarib ketgan Levin chiqib ketayotgan Kitini va uni zinapoyada kutib olgan onasini ko'rdi-yu, to'xtab, o'ylanib qoldi. U darhol konkilarini yechdi-da, ona bilan qizga bog' darvozasi og'zida yetib oldi.

– Sizni ko'rib juda xursand bo'ldim, – dedi knyaginiya. – Mehmonlarni har vaqt payshanba kunlari qabul qilamiz.

– Demak, bugun?

– Sizni ko'rsak juda xursand bo'lardik, – dedi knyaginiya quruqqina qilib.

Onasining bu quruq javobi Kitini xafa qildi, shu sababdan bu sovuq muomala ta'sirini yumshatish uchun Levinga yuzlandi-yu, kulimsirab turib:

– Yaxshi qoling, – dedi.

Shu payt shlapasini dol qo'yan, yuzi yaltirab, ko'zlari charaqlab turgan Stepan Arkadich viqor bilan boqqa kirib keldi. Lekin qaynonasining yoniga keldi-yu, uning Dolli sog'ligi to'g'risidagi savollariga ma'yus va gunohkor kishidek to'mtayib javob bera boshladi. Qaynonasi bilan sekin, g'amgin bir chehrada gaplashib bo'lgandan so'ng, ko'ksini rostlab, Levinni qo'ltig'idan oldi. Keyin:

– Xo'sh, ketdikmi? – deb so'radi. – Butun xayolim senda bo'ldi, xayriyat, kelibsan, juda xursand bo'ldim, – dedi Stepan Arkadich, uning ko'zlariga ma'nodor qarab.

– Ketdik, ketdik, – deb javob berdi baxtli Levin. «Yaxshi qoling» degan ovoz hamon quloqlarida yangrar va shu so'zlar aytilayotganda qizning yuzida zohir bo'lgan tabassumni hanuz ko'rib turardi.

– «Angliya»ga boramizmi yo «Ermitaj»ga?

– Menga baribir.

Stepan Arkadich «Angliya»ni tanlab:

– Xo'p bo'lmasa, «Angliya»ga, – dedi, chunki u «Angliya»ga «Ermitaj»ga qaraganda ko'proq qarzdor edi. Shuning uchun bu mehmonxonadan o'zini olib qochib yurishni munosib deb bilmas edi. – Izvoshing bormi? Juda soz, men karetamga javob berib yuboruvdim.

Yo'l bo'yi do'stlar indamay borishdi. Levin Kiti yuzidagi ifodaning o'zgarishi nimani bildirar kin deb o'ylar, goh umid bor, deb

o'ziga dalda berar, goh umidsizlikka berilib, umidining puchligi aniq ekanini ko'rar, shunday bo'lsa hamki, yana o'zini Kitining tabassumi va yaxshi qoling, degan so'zlaridan ilgarigi odamga sira o'xshamagan butunlay boshqa odamdek his etardi.

Stepan Arkadich esa yo'lda tushlik taomnomasini tuzib bordi. Musofirxonaga yaqinlashganlarida Levinga:

– Aytmoqchi, sen tyurboni¹ yaxshi ko'rasan-a? – degan edi Levin:

– Nima? – deb qaytarib so'radi. – Tyurbo? Ha, tyurboni o'lguday yaxshi ko'raman.

X

Oblonskiy bilan musofirxonaga kirganda Levin Stepan Arkadichning chehrasidan va butun qiyofasidan muloyim bir nur yog'ilib turganini, vajohatining boshqachaligini sezmay qolmadi. Oblonskiy paltosini echdi-yu, shlapasini dol qo'yib, yemakxonaga o'tib ketdi; sur pashshadek yopishgan frakli va salftkali tatarlarga yo'l-yo'lakay buyruqlar berib bordi. Hamma yerdagidek, bu yerda ham uchragan va uni xursandchilik bilan qarshi olgan o'ng va so'l tomondagi tanishlariga bosh ega-eга bufetga keldi-da, baliqni tamaddi qilib, sharob ichib, baland stol orqasida o'tirgan fransuz ayolga bir nima dedi; lentalar, to'r taqib, sochlarini jingalak qilib olgan bu ayol ham astoydil kulib qo'ydi. Levin bo'lsa faqat bir narsa tufayligina sharob ichmadi, u ham bo'lsa butun vujudi, sochi, poudre de riz va vinaigre de toilette² qalbakidek tuyulgan ana shu fransuz ayol o'zi uchun haqoratomuz ko'rindi. Shuning uchun iflos joydan qochgandek, shoshib-pishib uning oldidan nari ketdi. Levinning butun qalbi Kiti bilan to'lib-toshgan, ko'zlarida tantana va baxt tabassumi porlardi.

Xira pashshadek yopishib olgan bo'ksasi keng va orqa etagi ayirilib turgan frakli keksa malla tatar:

– Bu yoqqa o'tirsinlar, taqsirim, bu yoqqa, bu yerda taqsirimni bezovta qilmaydilar, – dedi, keyin Stepan Arkadichga hurmat yuzasidan mehmoniga parvona bo'lib: – marhamat, taqsirim, – dedi Levinga.

Keksa tatar bronzadan yasalgan devor shamdoni ostidagi yumaq loq stolga, ustida dasturxon bo'lsa ham, ustidan bir zumda yangi

¹ Tyurbo – baliq turi.

² Guruch upasi va pardoz sirkasi (*frans.*).

dasturxon yozdi-da, baxmal qoplangan kursilarni yaqin surib qo'yib, qo'llarida sochiq va muqovali taomnoma ushlagan holda Stepan Arkadich yonida buyruq kutib turdi.

– Taqsirim, amr etsalar, hozir alohida xona bo'shaydi: knyaz Golitsin xonimlari bilan ketadilar. Yangi olingan ustritsalarimiz bor.

– E! Ustritsa.

Stepan Arkadich o'ylanib qoldi. U barmog'ini muqovali taomnoma ustiga qo'yib:

– Yo rejani o'zgartiramizmi, a, Levin? – dedi. Yuzida jiddiy ikkilanish alomati bor edi. – Yaxshi ustritsami? Ko'zingni och, ha!

– Flensburg ustritsalari, taqsirim, Ostendniki yo'q.

– Flensburgniki bo'lsa Flensburgnikidir, lekin yangimi?

– Kuni kecha oldik.

– Nima deysan, ustritsadan boshlasak, keyin butun rejani o'zgartirsak? A?

– Menga baribir, menga qolsa, karam sho'rva ichib, bo'tqa yerdim; lekin unday narsalar yo'q-da bu yerda.

Go'dak ustida parvona bo'lgan enaga singari tatar ham Levinning boshi ustida engashib:

– A la ryuss bo'tqasi bor, istaydilarmi? – dedi.

– Mayli, hazili yo'q, sen xohlaganingni olib kelaversin. Yaxmalak uchganman, qornim och. – Keyin Oblonskiyning yuzidagi norozilik alomatini ko'rib, ilova qildi: – Men tanlagan ovqatning qadriga yetmaydi, deb o'ylama, jon deb yeyman.

– Bo'lmasam-chi! Nima desang de, lekin bu hayot lazzatlaridan biri, – dedi Stepan Arkadich, – xo'p, bo'lmasa, menga qara, og'ayni, bizga yigirmata desam oz bo'lar, o'ttizta ustritsa, innaykeyin, ildiz solingan sho'rva keltir...

– Prertaner, – dedi tatar.

Lekin Stepan Arkadich, aftidan, tatarning ovqatlar nomini fransuzcha aytib o'zini xursand qilishiga yo'l qo'ygisi kelmadi shekilli:

– Tomir solingan, bilasanmi? – dedi. – Keyin qaylasini quyuq quydirib tyurbo keltirasan, innaykeyin... rostbif; ha, ko'zingni och, yaxshi pishirishsin. So'ngra bichib boqilgan xo'roz qovurmasidanmi, konserva-ponservami olib kelarsan.

Tatar Stepan Arkadichning ovqatlar nomini fransuzcha aytmasligini eslab, uning ketidan takrorlamadi, lekin o'zini xursand qilish uchun buyurilgan hamma ovqatlarning nomini takrorladi: «sup prentaner, tyurbo sos Bomarshe, pulard a lestragon, maseduan de fryui...» – shundan so'ng epchillik bilan darhol muqovali taomnomani qo'ydi-yu, ikkinchisini, ya'ni ichkilik ro'yxatini olib, Stepan Arkadichga tutdi.

– Nima ichamiz?

– Sen xohlaganingni, men jinday shampan vinosi icharman, – dedi Levin.

– Nima? Hali shampan vinosidan boshlamoqchimisan? Bundoq o'ylab qaralsa, shunisiyam ma'qul-a? Sen oq tamg'alisini yoqtirasanmi?

– Kashe bilan, – deb qo'ydi tatar.

– Xo'p, ustritsaga shu tamg'alisini ber, qolganini keyin ko'ramiz.

– Xo'p bo'ladi. Dasturxon musallasidan qaysi xilini buyuradilar?

– Nyuidan bera qol. Yo'q, yaxshisi, klassik shabli keltiraver. .

– Xo'p bo'ladi. Pishloq-chi, o'zlari yaxshi ko'rganidan bo'lsinmi?

– Albatta, parmezanasidan. Yo sen boshqa xilini yoqtirasanmi?

– Yo'q, menga baribir, – dedi Levin o'zini jilmayishdan to'xtatishga qurbi yetmay.

Tatar frakining etaklarini hilpirata-hilpirata yugurib ketdi va besh daqiqadan keyin ochiq sadaf chig'anoqlardagi ustritsalar qo'yilgan tovoq va barmoqlari orasida vino shishasini ushlagan holda g'irillaganicha kirdi.

Stepan Arkadich ohorlangan qo'lsochiqni g'ijimlab nimchasi yoqasiga suqdi-da, qo'llarini stolga qo'yib, ustritsani yeyishga o'tirdi. Keyin shilliq ustritsalarni kumush sanchqi bilan sadaf chig'anoqdan chiqara va birin-ketin yuta turib:

– Chakkimas, – dedi. So'ngra chaq nab turgan namli ko'zlarini goh Levinga, goh tatarga o'girib takrorladi: – Chakkimas.

Levin oq nonga pishloqni qo'shib yeyishni ko'proq yaxshi ko'rardi, shunday bo'lsa ham ustritsadan tanovul qildi. Lekin Oblonskiyga qarab zavqlanib o'tirdi, shisha po'kagini chiqarib, yupqa, taypoq qadahlarga vishillab turgan vinoni quyib turgan tatar ham, bo'ynidagi

oq bo'yinbog'ini to'g'rilab turib, zavqi kelayotganini bildiruvchi oshkor bir tabassum bilan Stepan Arkadichga qarab-qarab qo'yardi.

Stepan Arkadich qadahini ko'tarayotib:

– Nima, ustritsani uncha yaxshi ko'rmaysanmi? – dedi. – Yo ko'ngling notinchmi? A?

U Levinning vaqtini chog' qilishni istardi. Lekin Levin vaqtichog' bo'lish u yoqda tursin, siqilib o'tirardi. Ko'nglidagi shuncha shirin xayollar bilan mayxonada, xonimlar bilan tushlik qilib o'tirilgan kabinetlar orasida yugur-yelpi, to'polon ichida o'tirish uni dahshatga solar, o'ng'aysizlantirar edi; bu bronza ashyolar, oynalar, gazchi-roqlar, tatarlar – bularning hammasi uni tahqir etganday edi. Levin qalbini to'ldirgan hislarga dog' tushirib qo'yishdan qo'rqr edi.

– Menimi? Ha, ko'nglim bejoroq; lekin, bundan tashqari, bu yerdagi narsalarning hammasi yuragimni siqyapti, – dedi u. – Men qishloqda yashovchi odam bo'lganim uchun bu narsalarning hammasi, boya men kabinetningda ko'rgan janobning tirnoqlari singari menga erish tuyuladi, sen buni tasavvur qilolmaysan...

– Ha, bechora Grinevichning tirnoqlari seni juda qiziqtirganini ko'rdim, – dedi Stepan Arkadich kulib.

– Men bunday narsalarni hazm qilolmayman, – deb javob qildi Levin. – Sen o'zingni mening o'rnimga qo'yib ko'r, bu narsalarga qishloq kishisining nuqtayi nazari bilan qara. Biz qishloqda qo'llarimizni ishlash oson bo'ladigan kepatada saqlashga harakat qilamiz; buning uchun tirnoqlarimizni olamiz, ba'zan yenglarimizni ham shimarib qo'yamiz. Bu yerda esa odamlar tirnoqlarini to o'zi sinib tushmaguncha ataylab o'stiradilar va qo'l bilan ishlashga mumkin bo'lmasligi uchun yenglariga ilmatugma nusxasida likopcha taqib oladilar.

Stepan Arkadich nash'a qilib kuldi.

– Ha, bu narsa unga og'ir ishning kerakmasligini ko'rsatadi. Uning aqli ishlaydi...

– Ehtimol, lekin biz qishloqilar ishimizni bajarishga qodir bo'lish uchun tezroq qornimizni to'ydirib olishga harakat qilamiz, holbuki, mana, sen bilan qornimizni mumkin qadar tez to'ydirib qo'yimaslikka tirishib, buning uchun ustritsa yeb o'tiribmiz – shu ahvolimiz hozir menga qanchalik erish ko'rinsa, u narsalar ham menga shunaqa g'alati tuyuladi...

– Ha, albatta, – dedi Stepan Arkadich uning soʻzini ilib. – Lekin maʼrifatning maqsadi ham xuddi mana shunda-da: hamma narsadan lazzat olishda.

– Iya, agar maqsad shu boʻlsa, mening yovvoyi boʻlib qolganim maʼqul ekan.

– Sen shundogʻam yovvoyisan. Siz Levinlarning hammangiz yovvoyisiz.

Levin xoʻrsindi. Nikolay akasini eslab xijolat boʻldi, dili ogʻrib, qovogʻini soldi; lekin Oblonskiy boshqa xususda gap ochgan edi, xayoli darhol ogʻir oʻylardan qutuldi.

Stepan Arkadich ichi boʻsh, gʻudir chigʻanoqlarni itarib, pishloqni oldiga surib qoʻygandan soʻng koʻzlarini maʼnoli chaqnatib:

– Xoʻsh, nima qilasan, bugun kechqurun bizning qarindoshlarnikiga, yaʼni Shcherbatskiylarnikiga borasanmi? – deb soʻragandi, Levin:

– Ha, knyaginya meni malol kelayotgandek taklif qilgan boʻlsa ham, albatta, boraman, – deb javob qildi.

– Ey, qoʻysang-chi! Boʻlmagan gap. Uning odati shunaqa... Qani ogʻayni, shoʻrvamni keltir!.. U kishining, grande dameʼning odatlari shunaqa, – dedi Stepan Arkadich. – Men ham boraman, lekin oldin grafinya Baninanikiga xorga kirib chiqishim kerak. Seni qanday qilib yovvoyi demay? Qani, Moskvadan birdaniga gʻoyib boʻlib ketganingni qanday tushunsa boʻladi? Shcherbatskiylar seni mendan toza surishtirishdi, xuddi men bilishim kerakday. Men boʻlsam shuni bilaman: sen hamisha hech kim qilmagan ishlarni qilib yurasan.

– Ha, – dedi shoshmay Levin hayajonlanib. – Toʻgʻri aytding, men yovvoyiman. Lekin mening birdaniga ketib qolganimmas, yana qaytib kelganim yovvoyiligimni koʻrsatadi. Bu safar shuning uchun keldimki...

– O, naqadar baxtlisan! – dedi Stepan Arkadich uning koʻzlariga tikilgan holda soʻzini boʻlib.

– Nega endi?

– Otning oʻynoqisini tamgʻasidan, yigitning oshigʻini esa koʻzginasidan bilib olaman, – dedi burrolanib Stepan Arkadich. – Kelajaging hali oldingda.

¹ Oqsuyak xonim (*frans.*).

– Nima, seniki orqangda qolib ketdimi?
– Yo‘q, orqada bo‘lmasa hamki, sening kelajaging bor, mening esa hozirim, u ham aytarlimas.

– Nima?

– Uncha yaxshimas. Kel, qo‘y, o‘zimga to‘g‘rimda gapirishni xohlamayman, innaykeyin, buni so‘z bilan aytib ham bo‘lmaydi, – dedi Stepan Arkadich. – Shunday qilib, Moskvaga nima niyat bilan kelding? Hoy, olib ket! – deb qichqirdi tatarga.

Levin ichidan kulib turgan ko‘zlarini Stepan Arkadichdan olmay:

– Nima, payqadingmi? – deb so‘radi.

– Payqashga-ku payqadim-a, lekin bu haqda gap ocholmayman. Mana shuning o‘zidanoq payqaganimning to‘g‘rimi-yo‘qligini bilib olsang bo‘ladi, – dedi Stepan Arkadich nozik tabassum bilan Levinga qarab turib.

Levin yuzidagi mushaklari pir-pir uchib titrayotganini sezib, qal-tiroq tovush bilan:

– Xo‘sh, bu haqda menga nima deysan? – dedi. – Bu muammoga qanday qaraysan?

Stepan Arkadich ko‘zlarini Levindan olmay, bordoqdagi shab-lisini shimirib ichdi.

– Menmi? – deb so‘radi Stepan Arkadich. – Menga qolsa, shu ishning bo‘lgani yaxshi. Bu xayrli ish.

– Menga qara, xato ketmayapsanmi? Nima haqda gaplashayot-ganimizni o‘zing bilasanmi? – dedi Levin ko‘zlarini hamsuhbatiga tikib. – Shu bo‘ladigan narsa deb o‘ylaysanmi, a?

– Bo‘ladi, deb o‘ylayman. Nega bo‘lmasin?

– Yo‘q, shuni aniq bo‘ladigan narsa deb o‘ylaysanmi? Yo‘q, ko‘nglingdagini ayt! Xo‘sh, bordi-yu, bordi-yu, yo‘q desalar?.. Men ishonamanki...

– Nega bunday deb o‘ylaysan? – dedi Stepan Arkadich uning hayajonlanganiga iljayib.

– Gohi mahallar menga shunday tuyuladi. Mabodo, yo‘q deyishsa bormi, axir, mengayam, o‘zigayam yaxshi bo‘lmaydi-da.

– Be, buning qiz uchun yomon joyi yo‘q. Har qanday qiz ham sovchi kelsa, faxrlanadi.

– To‘g‘ri, har qanday qiz, lekin u emas.

Stepan Arkadich kulimsiradi. U Levinning bu tuyg‘usini juda yaxshi bilardi, u yana shuni ham bilardiki, Levinning nazarida

dunyodagi qizlarning hammasi ikki turga bo'linadi: birinchi turi – bunga uning sevgani kirmaydi-yu, dunyodagi qizlarning hammasi kiradi va bular insonga xos zaifliklarning hammasidan xoli bo'lmagan juda oddiy qizlardir; ikkinchi turi esa sevganining yolg'iz o'zi, bunda hech qanday ojizlik, kamchilik yo'q va u insonga xos narsalardan balanda.

Levin qaylani nariga surgandi, Stepan Arkadich uning qo'lini ushlab:

– To'xta, qayladan ol, – dedi.

Levin bo'ysunib qayladan oldi-yu, lekin Stepan Arkadichga ovqat yegizmadi.

– Yo'q, to'xta, to'xtab tur, – dedi u. – Tushungin, axir bu masala men uchun hayot-mamot masalasi-ya! Hech mahal bu to'g'rida birovga og'iz ochgan emasman. Innaykeyin, sendan boshqaga yorilolmayman ham. Axir, biz hamma narsada bir-birimizga yot odamlarmiz: didlarimiz, qarashlarimiz boshqa, hammasi boshqa; lekin meni yaxshi ko'rishingni va gapimga tushunishingni bilaman, shu tufayli seni jonimdan ham yaxshi ko'raman. Lekin, Xudo haqi, ochiq gapiraver.

– Nima o'ylasam, shuni aytaman senga, – dedi Stepan Arkadich kulimsirab, – lekin aytadigan boshqa gapim ham bor: mening xotinim juda ajoyib xotin... – Stepan Arkadich xotini bilan o'zi o'rtasidagi munosabatni eslab bir xo'rsindi-yu, bir zungina jim qolgandan so'ng davom qildi. – Sohibi karomat. Odamlarning ichidagi narsalarni ko'rib turadi: hali buyam oz, hatto nima bo'lishini, ayniqsa, nikohga oid narsalarni oldindan biladi. Masalan, Shaxovskaya-ning Brentelnga tegishini oldindan aytib berdi-ya! Hech kim bunga ishongisi kelmadi, lekin xotinimning aytgani bo'ldi. Shunday qilib, xotinim sen tomonda.

– Ya'ni?

– Ya'ni xotinim seni yaxshi ko'radigina emas, Kitini, albatta, senga tegadi, deb ham aytadi.

Shu so'zlarni eshitib, Levinning og'zi qulog'iga yetdi, iyib ketib yig'lab yuborayozdi.

– Shunday dedimi, a? – deb qichqirdi Levin. – Men hamma vaqt aytardim, xotining ajoyib xotin deb. Bas endi, bas qilaylik bu gapni, – dedi u o'rnidan turayotib.

– O‘tira tursang-chi.

Lekin Levin o‘tirolmasdi. Katakka o‘xshagan kichkina xona ichida bardam qadamlar bilan bir-ikki bor u yoq bu yoqqa yurdi, yoshlarini ko‘rsatmaslik uchun ko‘zlarini pirpiratdi, ana shundan keyingina stolga kelib o‘tirdi.

– Sen tushungin, axir, bu muhabbat emas, – dedi u. – Men muhabbat qo‘yib ko‘rganman, lekin bunisi butunlay boshqacha. Bu mening hissini emas, mendan tashqari bir kuch ixtiyorimni olib qo‘ygan. U safar shuning uchun ketib qoldimki, yer yuzida baxt bo‘lmaganidek, bu narsaning ham bo‘lishi mumkin emas, degan qarorga kelgandim, bildingmi? O‘zimni bosish uchun boshimni ming toshga ursam ham bo‘lmadi, usiz yashayolmasligimni bildim. Shuning uchun bir yoqlik qilish kerak...

– Unday bo‘lsa, nimaga ketib qoluvding?

– Shoshmasang-chi! O‘ylar uymalashib kalamni g‘ovlatib yubordi-ku! Qancha so‘raydigan narsalarim bor! Menga qara, aytgan gaping bilan boshimni osmonga yetkazganingni ko‘z oldingga keltirolmaysan, axir! Men shu qadar baxtiyormanki, hamma narsani unutib, tubanlashib ketyapman. Bugun bir gap eshitdim: Nikolay akam, taniysan, shu yerda emish... uni ham yodimdan chiqardim. U ham baxtiyor bo‘lsa kerak, deb o‘ylabman. Bu xuddi jinnilikka o‘xshaydi. Ammo shunisi dahshatliki... Masalan, sen uylangansan, sen bu hisni bilasan, shunisi dahshatliki, biz anchagina yashagan, o‘tmishda muhabbat emas, gunoh orttirgan odamlarmiz. Birdan pokiza, bokira bir vujudga yaqinlashamiz; bu jirkanch narsa, shuning uchun bunday odam o‘zini noloyiq deb his etolmay turolmaydi.

– Qo‘yaver, senda gunoh ko‘p emas.

– E, har holda bor-da, – dedi Levin. – Har holda «hayotim sahi-falarini jirkanch his bilan o‘qib turib, dir-dir titrayman, la‘nat deyman va achchiq-achchiq zorlanaman...» shunday.

– Nachora, dunyoning o‘zi bo‘lgani shu, – dedi Stepan Arkadich.

– Bittagina tasalli bor, u ham bo‘lsa, men hamma vaqt yaxshi ko‘rib o‘qiydigan duodir: «Meni loyiq bilib emas, shafqat qilib kechir». U ham meni faqat shu tariqa kechirishi mumkin.

XI

Levin qadahini ko'targandan so'ng birpas jim o'tirishdi. Keyin Stepan Arkadich:

– Senga yana bir narsani aytishim kerak. Vronskiyini taniysanmi? – deb so'rab qoldi.

– Yo'q, tanimayman, nimaga so'rayapsan?

Tatar hozir, ayniqsa, kerak bo'lmagan bir paytda mehmonlar tevaragida ivirsib, qadahlarni to'ldirib yurgan edi; Stepan Arkadich unga yuzlanib:

– Boshqasini keltir, – dedi.

– Nima uchun Vronskiyini tanishim kerak ekan?

– Shuning uchun tanishing kerakki, raqiblaringdan biri u.

– Qanaqa odam u, Vronskiy? – dedi Levin. Uning, Oblonskiyini hozirgina zavqlantirgan bolalarga xos quvnoq chehrasi birdan o'zgarib, qahrli, yoqimsiz tus oldi.

– Vronskiy – graf Kirill Ivanovich Vronskiyning o'g'illaridan va Peterburg aslzoda yoshlarining eng ajoyib namunalaridan biri. Men uni Tverda ishlab yurganimda taniganman, u yerga askar olgani kelgandi. Haddan tashqari badavlat, chiroyli, tanish-bilishlari ko'p, o'zi fligel-ad'yutant, shu bilan birga, dilbar yigit, lekin dilbar yigit deyish ham ozlik qiladi. Keyin bu yerda bilsam, o'qimishli, juda aqlli odam ekan; u – kelajagi nihoyatda porloq odam.

Levin qovoqlarini solib, indamay o'tirardi.

– Xo'-o'sh, sen ketganingdan biroz o'tib shu atroflarda paydo bo'lib qoldi; o'ziyam, chamamda, Kitiga oshig'u shaydo. O'zing tushunasana, Kitining onasi...

– Kechir, lekin men hech narsaga tushunmayapman, – dedi Levin yana besh battar qovoqlarini solib. Keyin Nikolay akasi va uni yoddan chiqarib, o'zining naqadar pastkashlik qilgani birdan esiga tushdi.

Stepan Arkadich jilmayib va qo'lini uning qo'lga teggiza turib:

– To'xta, to'xta, – dedi. – Men senga faqat bilgan narsalarimni aytdim, xolos; yana takror aytaman: bu nozik va qaltis masalada, payqashimcha, nafsilamr omad sen tarafda.

Levin kursi orqasiga o'zini tashladi, rangi quv o'chib ketgan edi.

– Lekin ishni iloji boricha tezroq hal qilishingni maslahat beraman, – deb davom etdi Oblonskiy uning qadahini to‘ldira turib.

– Yo‘q, rahmat, ortiq icholmayman, – dedi Levin qadahini nari surib. – Mast bo‘lib qolaman... Xo‘sh, turmushing qalay? – deb so‘radi u, aftidan, suhbat mavzusini o‘zgartirgisi kelib.

– Yana bir og‘iz so‘z: har nima bo‘lgandayam, masalani tezroq hal qilishingni maslahat – bugun og‘iz ochma – maslahat bermayman, – dedi Stepan Arkadich. – Ertaga ertalab butun dabdaba bilan boru og‘iz solaver, Xudo yor bo‘lsin...

– Menikiga ov qilgani bormoqchi bo‘lib yurganding. Shu bahor kel, – dedi Levin.

U bu to‘g‘rida Stepan Arkadichga ko‘ngil yorgani uchun hozir ich-ichidan pushaymon yeb o‘tirar edi. Uning tabarruk hissi allaqanday peterburglik zobit raqobati haqidagi gaplar va Stepan Arkadichning taxmini hamda maslahatlari bilan bulg‘angan edi.

Stepan Arkadich kulimsiradi. U Levinning qalbida nimalar bo‘layotganiga tushunar edi.

– Vaqti bilan borarman, – dedi Stepan Arkadich. – Bunaqa, og‘ayni, ayollar bamisoli vint – hamma narsa o‘shaning tevaragida aylanadi. Mana, masalan, mening ishim ham chatoq, juda chatoq, hammasiga xotinlar sabab. Sen menga ochiq ayt, – dedi u bir qo‘li bilan papiros chiqarib va ikkinchi qo‘lida qadahini ushlab turib, – maslahat ber.

– Nima to‘g‘risida, axir?

– Mana bu to‘g‘rida, faraz qilaylik, sen uylangansan, xotiningni yaxshi ko‘rasan, lekin boshqa bir ayolga ko‘ngling tushib qoldi...

– Kechir, lekin men bunday narsalarni aslo aqlimga sig‘dirolmayman, buyam... hozir shu yerda qornimni to‘yg‘azib olsam-u, non do‘koni yonidan o‘tib ketayotib non o‘g‘irlab yeganimni ham aqlimga sig‘dirolmaganimga o‘xshagan narsa.

Stepan Arkadichning ko‘zlari odatdagidan kuchliroq chaq nab ketdi.

– Nega endi? Oq non ba‘zan shunday xushbo‘y hid taratadiki, yemasdan turolmaysan kishi.

*Himmlisch ist's, wenn ich bezwungen
Meine irdische Begier;
Aber noch wenn's nicht geltngen,
Hatt' ich auch recht hubsch Plaisir!¹*

Stepan Arkadich bularni ayta turib, muloyimlik bilan kulimsiradi. Levin ham o'zini kulimsirashdan tutolmadi.

– Bu gapning hazili yo'q, – deb Oblonskiy so'zini davom ettirdi. – Tushungin, vujudi sevgi bilan to'lgan, yuvosh, dilbar, yakka-yolg'iz, bechora ayol butun borlig'ini senga qurbon qilsa-yu, endi, bo'lar ish bo'lgandan keyin, tushun, axir, nahotki, tashlab ketsang? Faraz qilaylik: oila hayotini buzmaslik uchun undan ajrading ham, nahotki, shundayam unga achinmasang, yordam qilmasang, dardiga dardman bo'lmasang?

– Yo'q, kechir meni, bu fikringga qo'shilmayman, o'zing bila-sanki, ayollar mening nazarimda ikki turga bo'linadi... yo'q, ya'ni... to'g'rirog'i: ayollar boru, yana... men razolatga botgan mahbubalar-ni ko'rgan emasman, ko'rmayman ham, stol orqasida o'tirgan afti-basharasi bo'yoqli, sochlari jingalak fransuz ayolga o'xshaganlarni esa men gazanda deb bilaman, axloqi buzilganlarning hammasiyam shunaqalardan.

– Xo'sh, Injil oyatidagi so'zlar-chi?

– E, qo'ysang-chi! Bu so'zlardan suiiste'mol qilishlarini bilganda hazrati Iso hech mahal bu gapni aytmagan bo'lardi. Butun Injildan faqat shu so'zlarnigina esda olib qolishibdi. So'z orasida shuniyam aytib qo'yayki, men o'ylagan narsalarimnimas, his qilgan narsalarimni gapiryapman. Men axloqi buzilgan xotinlardan nafratlanaman. Sen o'rgimchakdan qo'rqasan, men bo'lsam haligi gazandalardan. Sen-ku, to'g'risi, o'rgimchaklarni o'rganmagansan, ularning tabiatini bilmaysan, men ham shunaqa.

– Bunday deyish oson, bu narsalar Dikkins tasvir qilgan janobning mushkul masalalarni chap qo'l bilan o'ng yelkasidan oshirib tashlaganiday gap. Lekin faktni inkor qilish – javob emas. Nima qilay, gapirsang-chi, axir, nima qilay? Xotining qarib borsa-yu, sen

¹ O'z ehtirosimga bo'lsaydim hokim,
Bu g'oyat go'zal ish bo'lardi, albat;
Bunga erishmagan bo'lsam ham, lekin
Har qalay kayf qildim, oldim ko'p lazzat! (nem.)

quvvatga to'lib-toshsang. Xotiningni har qancha hurmat qilma, bari-bir, uni chinakam sevgi bilan sevolmasligingni hash-pash deguncha seza boshlaysan. Ana shu payt birdan jononga duch kelib qolasan-u, adoyi tamom bo'lasan! – dedi Stepan Arkadich umidsizlik bilan.

Levin istehzo bilan kulimsiradi.

– Ha, adoyi tamom bo'lasan, – deb so'zini davom qildi Oblonskiy. – Xo'sh, nima qilish kerak?

– Non o'g'irlamaslik kerak.

Stepan Arkadich kulib yubordi.

– Ey, axloq ustoz! Tushun, axir: dunyoda ikki toifa xotin bor: biri – faqat o'z huquqini talab etadi; bu huquq – sening sevging, sen esa sevgingni unga bag'ishlayolmaysan; ikkinchi toifa xotin esa borlig'ini senga qurbon qiladi-yu, sendan hech nima talab etmaydi. Shunda nima qilishing kerak? Qanday harakat etishing kerak? Mana bu dahshatli fojia.

– Agar sen bu haqda mening ra'yimni bilmoqchi bo'lsang, xo'p, aytaman: bunda fojia bo'lishiga ishonmayman. Shu sababdan ishonmaymanki, meningcha, muhabbat... har ikkala muhabbat, esingdami, Aflotun o'zining «Ziyofat» nomli asarida bayon qilgan har ikkala muhabbat odamlarni sinab ko'rish xizmatini ado etadi. Bir xil odamlar bu muhabbatning birini, boshqalar esa faqat ikkinchisini muhabbat deb biladilar. Shuning uchun aflotuniy muhabbatdan boshqa muhabbatgagina bo'ysungan odamlar fojia haqida bekor og'iz ko'pirtiradilar. Bunday muhabbatda hech qanday fojining bo'lishi mumkin emas. «Baxsh etgan huzur-halovatingiz uchun ojizona tashakkur, salomat bo'lsinlar» – butun fojia mana shundan iborat, xolos. Aflotuniy muhabbat uchun esa fojining bo'lishi mumkin emas, chunki bunday muhabbat bor joyda hamma narsa ravshan, pokiza, sababki...

Shu payt Levin o'z gunohlarini va boshidan kechirgan ichki kurashini esladi-yu, birdan:

– Kim biladi, balki sen haqdirsan, – deb qo'shib qo'ydi. – Haq bo'lishing ehtimolga juda yaqin... lekin men bilmayman, mutlaqo bilmayman.

– Ana, ko'rdingmi, – dedi Stepan Arkadich, – sen maslak odamisan. Bu sening ham fazilating, ham nuqsoning. Sen bir taxlitda turadigan kishisan, shuning uchun hayotning bir taxlitdagi hodisalar-

dan tarkib topishini xohlaysan. Holbuki, bunday bo'lmaydi. Mana, masalan, sen ijtimoiy faoliyatga, xizmatga jirkanib qaraysan, chunki ishning hamma vaqt maqsadga muvofiq bo'lishini xohlaysan, holbuki bunday bo'lmaydi. Sen har bir kishining faoliyati har mahal maqsadga ega bo'lishini, muhabbat va oila hayotining har mahal bir bo'lishini ham xohlaysan. Holbuki bunday bo'lmaydi. Hayotning barcha rang-barangligi, butun latofati, butun go'zalligi soyalar va yorug'lardan tarkib topadi.

Levin xo'rsinib qo'ydi, javob qilmadi. U o'z fikrlari bilan band bo'lib, Oblonskiyning so'zlarini eshitmagan edi.

Shundan keyin ular, garchi do'st bo'lishsa ham, garchi birga tushlik qilishib, birga may ichishgan bo'lishsa ham, may ularni bir-birlariga yana ham inoqlashtirishi kerak bo'lgani holda, har biri faqat o'z fikri bilan band bo'lib, birining ikkinchisi bilan ishi yo'qligini sezib qoldilar. Oblonskiy mana shunga o'xshash tushlikdan keyin inoqlashish o'rniga, juda ham uzoqlashib ketish kabi hodisani necha bor boshidan kechirgan edi. Shuning uchun bunday hollarda nima qilish kerakligini bilardi.

– Hisobni keltir! – deb qichqirdi-yu, qo'shni zalga chiqib, u yerda darhol bir tanish ad'yutantga uchradi-da, bir aktrisa va uning sohibi haqida gaplashib ketdi. Oblonskiy hamisha Levinning haddan ziyod aqliy va ruhiy jihatdan charchatadigan suhbatidan so'ngra ad'yutant bilan qilgan suhbatidan darhol yengil tortganini, hordig'i chiqqanini his etdi.

Tatar yigirma olti so'mu yana qancha tiyindan iborat bo'lgan va bunga sharob puli ham qo'shilgan hisob-kitobni keltirganda, Levin qishloq kishisi bo'lgani uchun, o'z hissasiga tushgan o'n to'rt so'mlik hisobdan boshqa mahal dahshatga tushgan bo'lardi, lekin hozir bunga e'tibor qilmadi, haqini to'ladi-yu, kiyimlarini o'zgartirish va Shcherbatskiylarnikiga borish uchun uyga jo'nadi; bugun Shcherbatskiylarnikida taqdiri hal bo'lardi.

XII

Knyaz qizi Kiti Shcherbatskaya o'n sakkizga kirgan edi. U shu qishdan kiborlar ziyofatlariga aralasha boshladi. Kiborlar orasida u qozongan muvaffaqiyat har ikki opasinikidan, hatto knyagina kutganidan ham baland edi. Moskva ballarida o'yinga tushuvchi yi-

gitlarning qariyb hammasi Kitiga oshiq bo'lgan, birinchi qishdayoq Kitiga munosib ikki nomzod ma'lum bo'lib qolgan edi: biri Levin, ikkinchisi u qishloqqa ketar-ketmas maydonda ko'ringan graf Vronskiy edi.

Qish boshlarida Levinning paydo bo'lishi, Shcherbatskiylarnikiga tez-tez kelib-ketib turishi, Kitiga bo'lgan oshkor muhabbati Kitining ota-onasi o'rtasida qizlarining kelajagi haqidagi birinchi jiddiy muhokamaga va knyaz-knyaginya o'rtasidagi tortishuvga sabab bo'ldi. Knyaz Levin tomonda edi, u Kiti uchun Levindan ortig'ini orzu qilmaganini aytdi. Knyaginya bo'lsa, ayollarga xos bir odat bilan masalaning mohiyatiga e'tibor bermay, Kitining hali juda ham yoshligini, Levin niyatining jiddiyligini hech nima bilan isbot qilmaganini, Kitining unga mayli yo'qligini va boshqa bahonalarni gapirdi; lekin muddaoning eng muhimi, ya'ni qiziga yana ham munosibroq kuyov kutayotganini, qizi Levinni yoqtirmaganini, Levinni bilmaganini ayt-madi. Levin qo'qqisdan ketib qolganda esa knyaginya xursand bo'lib, tantana bilan eriga: «Ko'rdingmi, men haqli edim», dedi. Vronskiy paydo bo'lganda esa Kiti shunchaki yaxshi kuyov emas, hashamatli, ajoyib kuyov tanlashi kerak, degan fikrini ko'ngliga tugib, yana ham ko'proq xursand bo'ldi.

Kitining onasi uchun Vronskiy bilan Levinni taqqoslash mumkin emas edi. Onasiga Levinning g'alati va keskin muhokamalari ham, knyaginyaning taxminicha, kiborlar jamiyatida o'zini mag'rur tutishdan kelib chiqadigan beso'naqayligi ham, knyaginyaning fahmicha, uning qishloqdagi allaqanday yovvoyi hayoti, hayvonlar va mujiklar bilan mashg'ul bo'lishi ham yoqmas edi; Levin uning qiziga oshiq bo'lib, uylariga bir yarim oydan beri keladi, nimanidir kutadi, chamalaydi, Kitiga og'iz solsa, bu ular uchun katta sharaf bo'lib ketmasmikan, deb qo'rqayotganga o'xshaydi, unashiladigan qizning uyiga kelgandan keyin unga arz-hol qilishi kerakligini tushunmaydi – mana shu narsalar ham knyaginyaga aslo yoqmas edi. Buning ustiga, u yana hech nima aytmasdan ketib qoladi. «Xayriyatki, u ko'zga yaqin kishi emas, Kiti yaxshi ko'rib qolmadi», deb o'ylardi u.

Vronskiy onaning butun orzu-havaslariga munosib edi. Nihoyatda badavlat, aqlli, aslzoda, kelajakda porloq harbiy-saroy martabasi kutib turgan fusunkor kishi. Undan yaxshisini orzu qilib bo'lmasdi. Ballarda Vronskiy Kitiga ochiq-oshkor aylanishar, u bilan o'yinga tushar, uylariga kelardi, demak, niyatining jiddiyligiga gumon qilib

bo'lmas edi. Lekin, shunga qaramasdan, knyaginya shu qishni dahshatli bir xavotir va hayajonda o'tkazdi.

Knyaginyaning o'zi bundan o'ttiz yil ilgari xolasining sovchiligi bilan erga tekkan edi. Oldindan ipidan-ignasigacha ma'lum bo'lgan kuyov kelib qizni ko'rdi, kuyovni ham ko'rishdi; sovchi xola qiz bilan yigitning bir-birida qoldirgan taassurotni so'roqlab bildi, keyin bu taassurotni o'zlariga ham ma'lum qildi; ular bir-birlarida yaxshi taassurot qoldirishgan edi; keyin, tayin qilingan kunda, yigit kelib qizning ota-onasiga xohishini bildirdi, uning xohishi ham ota-onasi tomonidan qabul qilindi. (Ular buni kutib turgan edilar.) Shu bilan hamma narsa juda oson va soddagina hal bo'ldi. Har holda, knyaginyaga shunday tuyulgan edi. Lekin oddiy narsa bo'lib ko'ringan bu ishning unchalik oson va soddagina emasligini o'z qizlarini erga berish mahallida ko'rdi. Katta qizlari Darya bilan Natalyani erga berayotganda qanchadan-qancha vahimaga tushdi, qanchadan-qancha fikrlar miyasiga kelib-ketdi, qanchadan-qancha pul sarf qilindi, eri bilan uning o'rtasida qanchadan-qancha nari-beri gaplar bo'ldi! Mana endi kichik qizlarini kiborlar muhitiga olib chiqar ekan, yana o'shanday vahimaga tushar, yana o'shanday gumon va shubhalarga berilar, eri bilan avvalgi ikki qizi tufayli bo'lgan janjallardan ham ortiqroq janjalla-shardi. Keksa knyaz ham, hamma otalar singari qizlarning nomusi va sofligi to'g'risida juda qattiq turar edi. U qizlarini, ayniqsa, arzanda qizi Kitini haddan tashqari tergar, qizimni badnom qilasan, deb har qadamda knyaginya bilan g'ijillashardi. Knyaginya katta qizlarini erga berish mahallida bu xil janjallarga o'rganib qolgan edi, lekin bu safar knyazning injiqligida asos ko'proq ekanini his etardi. U keyingi vaqtlarda jamiyat urf-odatida ko'p narsalar o'zgarib ketganini, onalar burchi yana ham og'irlashganini ko'rardi. U Kiti tengqurlarining allaqanday jamiyat tashkil etib allaqanday kurslarga qatnayotganlarini, erkaklar bilan bemalol muomala qilganlarini, ko'chalarda yakka o'zlari karetalarda yurganlarini, ko'plarining ta'zim qilmaganlarini va hammasidan ham er tanlash ota-onalarning emas, o'zlarining ishi ekaniga qattiq ishonganlarini ko'rardi. Ana shu yosh qizlar, hatto keksa odamlar ham: «Hozir qizlarni burungi zamonlardagidek erga bermaydilar», deb o'ylashar va ochiq so'zlashardilar. Lekin hozir qizlarni qay tariqa erga berishlarini knyaginya hech kimdan surishtirib bilolmadi. Fransuzlarning odati, bolalar taqdirini ota-onalari hal qiladi, degan odat qabul etilmay qoralanardi. Inglizlarning odati: butun

ixtiyor qizda, degan odat ham qabul etilmas va rus jamiyatiga to‘g‘ri kelmas edi. Ruslarning unashish odati negadir xunuk deb hisoblanar va bu odatdan hamma, jumladan, knyaginyaning o‘zi ham kulardi. Lekin qizning qay tariqa erga tegishi va erga berilishi kerakligini hech kim bilmasdi. Knyaginya bu haqda kim bilan gaplashmasin, hammasi ham: «Jonim, bizning zamonamizda bu eski odatni tashlash kerak. Axir uylanadiganlar yoshlar-ku, ota-onalari emas; shunday bo‘lgandan keyin, ularni o‘z mayillariga qo‘yish kerak, turmushlarini bilganlaricha qurishsin», derdi. Lekin qizlari yo‘q odamlar uchun bunaqa deyish oson; knyaginya, qiz agar o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yilsa, uylanishni xohlamagan yoki kuyovlikka yaramagan bittayarimta odamni yaxshi ko‘rib qolishi mumkin, deb o‘ylardi. Shunday qilib, zamonamizda yoshlar o‘z muqaddarotlarini o‘zlari hal qilishlari kerak, deb har qancha talqin etsalar ham, qaysi bir zamonda bo‘lmasin, besh yashar bola uchun o‘qlangan to‘pponcha eng yaxshi o‘yinchoq ekaniga qanchalik ishonmasa, bu gaplarga ham knyaginya shunchalik ishonolmasdi. Shu sababli knyaginya katta qizlaridan ko‘ra Kiti to‘g‘risida ko‘proq xavotirda edi.

Endi u, Vronskiy qizimga jigarso‘xtalik qilishdan nariga o‘tmasaya, deb qo‘rqardi. Knyaginya qizining uni allaqachon yaxshi ko‘rib qolganini fahmlar, lekin Vronskiy vijdonli odam, shuning uchun qizimni badnom qilmaydi, deb o‘zini yupatardi. Ayni zamonda u hozirgi erkin muomala bilan qizning boshini aylantirib qo‘yish osonligini, erkaklar umuman bu gunohiga beparvo qaraganlarini ham bilardi. O‘tgan hafta Kiti Vronskiy bilan mazurkaga¹ tushayotganlarida o‘tgan gapni onasiga aytib berdi. Bu gap knyaginyani birmuncha yupatgan bo‘lsa hamki, u butunlay xotirjam bo‘lolmasdi. Vronskiy Kitiga: men ham, akam ham har bir masalada onamizga bo‘ysunishga shunchalik odatlanib qolganmizki, onamiz bilan maslahatlashmasdan turib biron muhim ishga qo‘l urgani botinolmaymiz, deb aytibdi. «Hozir oyimning Peterburgdan kelishlarini xuddi baxtimni kutganday kutib turibman», debdi.

Kiti bu so‘zlarning ma’nosiga borib yetmasdanoq hammasini onasiga aytib berdi. Ammo onasi buni boshqacha tushundi. Vronskiyning kekxa onasini Moskvada har kun kutayotganlarini, kampir o‘g‘lining dididan xursand bo‘lishini knyaginya bilardi; shuning uchun ona-

¹ Mazurka – polyakcha raqs.

sini xafa qilib qo'yishdan qo'rqib, Vronskiyning Kitiga og'iz solmayotgani knyaginyaga g'alati tuyulardi; shunday bo'lsa ham bu nikohning bo'lishini, bundan ham ko'proq tashvish va hayajonlaridan tezroq qutulishni shu qadar xohlardiki, axiyri, shunday bo'lishiga o'zi ham ishonib qoldi. Erini tashlab ketmoqchi bo'lib yurgan katta qizi Dollining baxtsizligini ko'rish hozir knyaginya uchun naqadar og'ir bo'lmasin, kichik qizining hal bo'lish oldida turgan taqdiri haqidagi tashvishi uning butun his va tuyg'ularini qamrab olgan edi. Shu bugun Levinning kelishi bilan uning tashvishiga yangi tashvish qo'shildi. Knyaginya, nazarida, bir mahallar Levinga mayli bo'lgan qizining nomus zo'ridan Vronskiyini rad qilmasaydi, Levinning kelishi bitay deb turgan ishni chulg'atib, to'xtatib qo'ymasaydi, deb qo'rqar edi.

Uyga qaytib kelishganda, knyaginya qizidan:

– Qachon kelibdi? – deb so'radi Levin to'g'risida.

– Bugun, maman¹.

– Men faqat bir narsani aytmoqchiman... – deb knyaginya so'z boshladi.

Kiti uning jiddiy, hayajonli yuzidan nima ustida gapirishini payqab oldi.

– Oyi, – dedi u tutaqib va onasiga tomon shartta o'girilib, – o'tinaman, o'tinaman bu haqda hech og'iz ochmang. Bilaman, hammasini bilaman.

Kiti ham onasi xohlagan narsani xohlardi, lekin onasining nima vajdan shuni orzu qilayotgani ko'nglini og'ritardi.

– Men yolg'iz shuni aytmoqchiman: bittasini umidvor qilib qo'yib...

– Jon oyi, Xudo xayringizni bersin, qo'ying, gapirmang. Bu to'g'rida og'iz ochish shu qadar dahshatliki.

Onasi qizining ko'zlaridagi yoshni ko'rib:

– Xo'p, xo'p, gapirmayman, – dedi. – Lekin bir shartim bor, jon bolam, o'zing ham va'da qilgansan, mendan hech siringni yashirmaysan. Yashirmaysan-a?

Kiti qizarib va onasining yuziga tik qarab turib:

– Hech qachon, oyi, hech qanday sirimni yashirmayman, – deb javob berdi. – Lekin hozir sizga aytadigan hech gapim yo'q. Men...

¹ Oyi (*frans.*).

men... mabodo xohlaganimda ham nima deyishimni va qanday deyishimni bilmayman... bilmayman.

Onasi uning hayajonlangani va baxtiyorligiga quvonib: «Yo‘q, u shu ko‘zlari bilan yolg‘on gapirolmaydi», deb o‘yladi. Knyaginya hozir Kitining qalbida ro‘y berayotgan narsalarning qiz bechoraga qanchaliik zo‘r va ahamiyatli bo‘lib ko‘ringaniga kulimsirardi.

XIII

Kiti tushlikdan so‘ng to kech kirgungacha shunday bir tuyg‘u ichida yurdiki, jangga kirish oldida turgan yigitgina shu narsani his etadi. Uning yuragi dukurlab urar, fikrlari bir yerda to‘planolmay chuvalardi.

Kiti shu bugun oqshom Levin bilan birinchi marta uchrashishini, o‘zining taqdirini hal qilishini sezardi. Shuning uchun ularning ikkalasini, goh ayri-ayri holda, goh birgalikda tinmay ko‘z oldiga keltirardi. O‘tmish haqida o‘ylaganida, o‘zining Levin bilan munosabatini eslaganida huzur qilar, ko‘ngli yumshar edi. Bola-lik chog‘larining xotiralari va o‘lgan akasi bilan Levin o‘rtasidagi do‘stlik xotiralari Kitining Levinga bo‘lgan munosabatlariga alohida, shoirona bir nafasat bag‘ishlar edi. U Levinning o‘ziga oshiqqligiga amin edi, shuning uchun muhabbati Kitini havolantirar, quvontirardi. Natijada, u Levinni eslab, yengil tortar edi. Vronskiyini xotirlaganda esa, uning borib turgan kibor va sokin odam bo‘lishiga qaramay, allaqanday o‘ng‘aysiz holga tushar edi; qandaydir soxtalik bordek edi; bu soxtalik Vronskiyda emas, yo‘q u juda sodda, dilbar yigit, soxtalik go‘yo Kitining o‘zida edi; holbuki, u o‘zini Levin oldida butunlay sodda his etar, ko‘ngli ravshan topardi. Ammo shunisi ham bor ediki, u Vronskiy bilan o‘tadigan kelajagini xayoliga keltirdi deguncha ko‘z oldida porloq, baxtli bir istiqbol gavdalanardi. Levin bilan o‘tadigan kelajagi esa xira bo‘lib ko‘rinardi.

Bugungi oqshom yig‘ilishiga kiyinish uchun yuqori qavatga chiqib o‘zini oynaga solganda, Kiti o‘zini eng yaxshi kunlaridan birida ekanini va kuch-quvvatga to‘lib-toshganini ko‘rib quvondi; birozdan so‘ng boshlanadigan yig‘ilish uchun shunday bir holatda bo‘lishi nihoyatda zarur edi: u o‘zining tashqi qiyofasi sokin va harakatlarida erkinlik, latofat borligini his etdi.

Soat sakkiz yarimda u mehmonxonaga endi tushib ham ediki, yugurdak: «Konstantin Dmitrich Levin», deb xabar berdi. Knyagin-ya hali o'z xonasida edi, knyaz ham chiqmagan edi. Kiti: «Xuddi o'ylaganim», deb o'yladi-yu, yuragi dukurlab o'ynay boshladi. Oynaga qarab, yuzining oqarib ketganini ko'rib dahshatga tushdi.

Levin uni xoli topish va taklifini aytish uchun barvaqtroq kelganini Kiti endi aniq bilardi. Xuddi shu on masala birinchi marta butunlay boshqa, yangi tomoni bilan ko'z oldida gavdalandi. U masalaning yolg'iz o'zi, ya'ni kim bilan baxtli bo'lishi va kimni yaxshi ko'rishi ustida emasligini, balki yaxshi ko'rgan kishisini shu tobda haqorat qilishi kerakligi ustida ekanini hozirgina tushundi. U sevgan kishisini bag'ritoshlik bilan haqorat qilishi kerak... Nima uchun? Shuning uchunki, u dilbar yigit, Kitini yaxshi ko'radi, Kitiga oshiq. Lekin, nachora, shunday qilishi kerak, shunday bo'lishi kerak. «Yo Xudo, nahotki, shu narsani o'z og'zim bilan aytsam unga? – deb o'yladi Kiti. – Xo'sh, nima deyman? Nahotki, sizni yaxshi ko'rmayman, deb aytsam-a? Bu noto'g'ri bo'ladi-ku! Nima dey? Boshqani yaxshi ko'raman, deymi? Yo'q, bunday deyolmayman. Chiqib ketaman, chiqib ketishim kerak».

Kiti eshikka yaqinlashganda Levinning oyoq tovushini eshitdi. «Yo'q! Bunday qilish noinsoflik bo'ladi. Nimadan qo'rqaman? Hech yomonlik qilganim yo'q-ku. Nima bo'lsa bo'lar! To'g'risini ayta-man. To'g'risini aytsam, uyat bo'lmaydi. Ana o'zi», dedi Kiti o'ziga Levinning kuchli va hurkak qomatini, o'ziga tikilib turgan porloq ko'zlarini ko'rib. U Levindan shafqat so'rayotgandek, yuziga tik qarab turib qo'lini uzatdi.

Levin bo'sh mehmonxonaga ko'z yugurtirib:

– Barvaqt kelibman, shekilli, judayam barvaqt, – dedi. Levin o'z orzusining ushanganini, ko'nglidagi gaplarini ochiq-oydin gapirishga hech nima xalaqit bermasligini ko'rganda, yuzini g'am buluti qopladi.

– Yo'g'-a, – dedi Kiti stol yoniga o'tirib.

Levin qiz yoniga o'tirmasdan va jasoratni yo'qotmaslik uchun uning yuziga qaramasdan:

– Mening orzum ham sizni xoli topish edi, – deb so'z boshladi.

– Oyimlar hozir chiqadilar. Kecha juda charchab qoldilar. Kecha...

Kiti og'zidan chiqqan gapning ma'nosiga tushunmay gapirar va yolvoruvchi, mehribon ko'zlarini undan olmay o'tirardi.

Levin qizga qaradi; u qizarib, gapidan to'xtab qoldi.

– Men sizga bu yerda ko'p turamanmi, bilmayman... lekin bunisi sizga bog'liq, deb aytuvdim...

Kiti hozir eshitadigan gapiga qanday javob berishni bilmay, boshini borgan sari quyi solintirardi.

– Sizga bog'liq, deb aytuvdim, – dedi Levin takrorlab. – Men aytmoqchi edim... men aytmoqchi edim... men shuning uchun keldim... ki... menga tegsangiz! – dedi u nima dyeyayotganini o'zi ham bilmay; lekin eng dahshatli narsani aytib bo'linganini sezgandan so'ng to'xtab, Kitiga qaradi.

Kiti unga qarab, og'ir-og'ir nafas olardi. Uning boshi osmonga yetgan, qalbi baxt bilan to'lib-toshgandi. Levinning muhabbat izhor qilishi o'ziga shu qadar qattiq ta'sir qilishini u kutmagan edi. Lekin bu hol bir zumgina davom etdi. Kiti Vronskiyini esladi. Ana shundan keyin u o'zining samimiy ko'zlarini ko'tarib Levinga qaradi-da, umidsiz yuzini ko'rib, shoshib javob qildi:

– Yo'q, bu bo'ladigan gap emas... meni kechiring.

Bir daqiqagina oldin Kiti unga naqadar yaqin edi, uning hayoti uchun naqadar zarur edi! Mana endi u Levin uchun naqadar begona, naqadar uzoq bo'lib ketdi!

Levin unga qaramasdan:

– Boshqacha bo'lishi mumkin emasdi, – dedi.

Levin bosh egib ta'zim qilgach, chiqib ketmoqchi bo'ldi.

XIV

Lekin shu on mehmonxonoga knyaginya kirib keldi. U qizining Levin bilan yolg'iz turganini va avzoyilari buzilganini ko'rib, dahshatga keldi. Levin unga bosh egib ta'zim qildi-yu, hech nima demadi. Kiti yerga qarab, jim o'tirardi. Onasi: «Xudoga shukur, rad qilibdi», deb o'yladi; shunda uning yuzi payshanba kunlari mehmonlarni kutganda chehrasida ko'rinadigan odatdagi tabassum bilan yorishib ketdi. Knyaginya o'tirib, Levinning qishloqdagi hayoti haqida surishtira boshladi. Levin yana o'tirib, hech kimga sezdirmasdan chiqib ketish uchun mehmonlarning kelishini kutdi.

Besh daqiqadan keyin Kitining bultur qishda erga tekkan dugonasi grafinya Nordston kirdi.

U qotma, sariq, qora ko'zlari charaqlagan, kasalmand va asabiy bir xotin edi. U Kitini yaxshi ko'rardi; Kitiga bo'lgan muhabbati, har vaqt erli xotinlarning qizlarga bo'lgan muhabbati singari Kitini o'z orzu va tilagiga mos bo'lgan odamga erga berishdan iborat edi, shuning uchun ham Kitini Vronskiyga berishni xohlardi. Qish boshlarida Shcherbatskiylarnikida tez-tez uchratib turgan Levinni esa u sira ham xushlamasdi. Bu ayol Levinni uchratganda, har doim uni mayna qilishni yaxshi ko'rar edi.

– Uning menga o'z ulug'vorligi cho'qqisidan turib qarashini yaxshi ko'raman: jiddiy suhbatlashayotganda, meni nodon bilib, yo gapini kesib qo'yadi, yoki men bilan gaplashish darajasiga tanazzul qiladi. Men uning bu qilig'ini juda yaxshi ko'raman! Meni ko'rishga ko'zi yo'qligidan juda xursandman, – derdi u Levin to'g'risida.

U haq edi, chunki chindan ham Levin uni ko'rganda g'ashi kelar, kerilib yurgani, tajangligi, hayotda uchraydigan har qanday dag'al narsalardan jirkanib, ularga parvosiz qaragani va buni o'zining fazilati deb bilgani uchun undan nafratlanar edi.

Ba'zan ikki kishi zohirda bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lsa ham, bir-biridan shu darajada nafratlanishadiki, hatto bir-birlari bilan jiddiy muomala ham qilisholmaydi va biri ikkinchisining gapiga ranjmaydi ham; bunday hollar kiborlar jamiyatida tez-tez uchrab turadi; Nordston bilan Levin o'rtasida ham hozir xuddi shu munosabat bor edi.

Grafinya Nordston Levinni ko'rishi bilanoq darhol hujum boshladi.

– A! Konstantin Dmitrich! Yana bizning buzuq Bobilga kelibsizda, – dedi u nihoyatda kichik, sariq qo'lini Levinga uzata turib; Levin qish boshida, nima ham bo'lib, Moskvani Bobilga o'xshatgan edi, hozir grafinya shuni eslab ta'na qildi. – Bobil tuzalibdimi yo siz buzilibsizmi? – dedi yana Kitiga istehzo bilan ko'z yugurtirib.

Bu orada o'zini o'nglab olgan Levin odatini qilib, grafinya Nordstonga nisbatan darhol hazil aralash adovat bilan gapira boshladi:

– Mening so'zlarimni shu qadar esda olib qolganingiz uchun nihoyatda xursandman, grafinya, – deb javob qaytardi u. – To'g'rida, so'zlarim sizga juda qattiq ta'sir qilibdi.

– Voy, bo'lmasam-chi! Men hamma so'zlaringizni yozib yuraman! Xo'sh, Kiti, yana yaxmalak uchdingmi?..

Shundan keyin grafinya Kiti bilan gaplasha boshladi. Hozir ketish qanchalik noqulay bo'lsa ham, butun oqshom shu yerda qolishdan va Kitini ko'rishdan ko'ra yengilroq edi, hozir Kiti ora-sira unga qarab-qarab qo'yib, o'z ko'zlarini olib qochayotgan edi. U o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'lib turganida, knyaginya uning jimib qolganini payqab:

– Moskvada ko'p turasizmi? – deb murojaat qildi. – Siz axir zemstvo jamiyatida ishlardingiz, shekilli; bu yerda ko'p turishingizga to'g'ri kelmas.

– Yo'q, grafinya, zemstvoda ishlamay qo'yganman, – dedi u, – bu yergayam bir necha kunga kelganman, xolos.

Grafinya Nordston Levinning jiddiy, salobatli yuziga yer ostidan tikilib: «Bunga bir nima bo'lgan, negadir o'z mulohazalarini bayon qilishga kirishmayapti», deb o'yladi. «Shoshmay tursin, hali jag'ini ochib qo'yaman. Uni Kiti oldida ahmoq qilishni biram yaxshi ko'ramanki, ha, ahmoq qilaman».

– Konstantin Dmitrich, – dedi u Levinga. – Siz hamma narsani bilasiz, marhamat qilib, menga shuni aytib bersangiz: bizning Kalugadagi qishlog'imizda butun mujiklar va qishloqi ayollar bor-budlarini sovurib sharob olib ichishibdi, endi bizga hech nima to'lamay qo'yishdi. Bu nimasi? Siz bo'lsangiz hamma vaqt mujiklarni maqtab yurasiz.

Shu dam mehmonxonaga yana bir xonim kirdi, Levin o'rnidan turdi.

– Kechirasiz, grafinya, men bu haqda, to'g'risi, hech nima bilmayman, shuning uchun sizga bir nima deymayman, – dedi-yu, xonim orqasida kelayotgan harbiy kishiga o'girilib qaradi.

Levin: «Vronskiy shu bo'lishi kerak», deb o'yladi-da, taxminining to'g'riligiga ishonish uchun Kitiga qaradi. Bu orada Kiti Vronskiyga qarab olib, endi Levinga o'girilgan edi, Kitining ixtiyorsiz chaqnaq ketgan ko'zlarining shu bir boqishidanoq Levin uning Vronskiyini yaxshi ko'rishini payqadi: Kiti buni so'z bilan aytganda buni qanday fahmlashi mumkin bo'lsa, hozir ham shunday aniq bilib oldi. Qani, xo'sh, uning o'zi qanday odam?

Endi yaxshi bo'ladimi, xunuk bo'ladimi, Levinning qolmasdan iloji yo'q edi; u Kiti yaxshi ko'rgan kishining qanday odamligini bilishi kerak edi.

Shunday odamlar borki, biron narsada omadi bo'lgan raqibini ko'rganlarida undagi yaxshi fazilatlarining hammasidan darhol ko'z yumishga tayyor turadilar va undagi faqat yomon narsalarnigina ko'radilar; yana shunday odamlar ham borki, ular, aksincha, hamma narsadan oldin u baxtiyor raqiblarida o'zlarini mag'lub qilgan fazilatlarini topishga harakat qiladilar va yuraklari achishib bo'lsa hamki, undan faqat yaxshi xislatlarni axtaradilar. Levin ana shu xil odamlar toifasidan edi. Lekin Vronskiydagi yaxshi va jozibali fazilatlarini topish qiyin bo'lmadi. Bu fazilatlar darhol ko'ziga ko'rinsa qoldi. Vronskiy o'rta bo'yli, mehr yog'ilib turgan chiroyli, yuzi g'oyat sokin va qat'iy, miqtidan kelgan, qora sochli kishi edi. Yuzi va qomatida – kalta qilib olingan qora sochlari, yangigina qirilgan iyagidan tortib to keng, yap-yangi mundirigacha – hamma narsa od-diygina va ayni zamonda go'zal edi. Vronskiy mehmonxonaga kirib kelayotgan xonimga yo'l berib, avval knyaginyaning, keyin Kitining yoniga keldi.

Kitining yoniga kelayotganda Vronskiyning chiroyli ko'zlari o'zgacha mehribonlik bilan chaqnab ketdi, keyin baxtli kishidek, kamtarlik bilan g'olibona (Levinga shunday ko'rindi) jilmaydi-da, ehtirom va ehtiyotlik bilan qiz qoshida engashib, o'zining mo'jaz, lekin yapaloq qo'lini uzatdi.

U hamma bilan salomlashgandan va bir necha og'iz so'z aytgandan so'ng o'zidan ko'zini olmagan Levinga bir marta bo'lsa ham qarab qo'ymasdan o'tirdi.

– Ruxsat eting, sizni tanishtiray, – dedi knyaginya Levinga ishora qilib. – Konstantin Dmitrich Levin. Graf Aleksey Kirillovich Vronskiy.

Vronskiy o'rnidan turdi-da, Levinning ko'zlariga do'stlaricha tikilib, uning qo'lini qisdi. Keyin mayingina jilmayib turib:

– Shu yil qishda, chamamda, siz bilan birga tushlik qilishim kerak edi, – dedi, – lekin siz qo'qqisdan qishloqqa ketib qolibsiz.

– Konstantin Dmitrich shahardan ham, biz shaharliklardan ham nafratlanadilar: ko'rgani ko'zlari yo'q, – dedi grafinya Nordston.

– Aftidan, mening so'zlarim sizga qattiq ta'sir qilsa kerak, haligacha yodingizdan chiqarmabsiz, – dedi Levin; shu gapni boya ham aytganini eslab, qizarib ketdi.

Vronskiy Levin bilan grafinya Nordstonga qarab kulimsiradi. Keyin:

– Hamma vaqt qishloqda turasizmi? – deb so‘radi. – Menimcha, qishda odam juda zerikib qolsa kerak?

– Qilinadigan ish bo‘lsa, innaykeyin, odam o‘z-o‘zi bilan band bo‘lsa, hech zerikmaydi, – deb Levin keskin javob qildi.

Vronskiy Levinning javobidagi keskin ohangni sezsa ham, o‘zini sezmaganga solib:

– Men qishloqni yaxshi ko‘raman, – deb qo‘ydi.

– Lekin aminmanki, graf, butun umr qishloqda turishga hech mahal rozi bo‘lmasdingiz, – dedi grafinya Nordston.

– Qaydam, uzoq turib ko‘rgan emasman. Men bir mahal juda g‘alati bir narsani his etdim, – deb u gapini davom qildi. – Qishda oyimlar bilan Nitsada turganimizda qishloqni, mujiklari chipta kavush kiyib yuradigan rus qishlog‘ini shu qadar sog‘indimki, hech qayerda bunchalik sog‘inmagandim. O‘zingiz bilasiz, Nitsa odamni zeriktiradigan joy. Neapol bilan Sorrento ham faqat oz fursat turilganda yaxshi, xuddi o‘sha yerda Rossiya va, ayniqsa, qishloq ko‘zingdan o‘tib turadi. Ular baayni...

U goh Kitiga, goh Levinga yuzlanib sokin, dam unisiga, dam bunisiga do‘stona nazar tashlab qo‘yar, aftidan, miyasiga nimaiki kelsa, shularni gapirardi.

U grafinya Nordstonning bir nima demoqchi bo‘lganini sezdiyu, boshlagan gapini oxiriga etkazmay to‘xtab qoldi; keyin grafinya Nordstonning so‘zlariga diqqat bilan quloq sola boshladi.

Suhbat bir zum ham to‘xtamadi, shu sababli, qari knyaginya mavzu topilmay qolganda ishga solib yuborish uchun ikki og‘ir to‘pday, hamma vaqt tayyor turgan mavzuni – klassik va real tahsil hamda umumiy harbiy ta‘lim haqidagi mavzularni o‘rtaga tashlashdan, grafinya Nordston esa Levinning jig‘iga tegishdan benasib qoldi.

Levin umumiy suhbatga aralashishni xohlasa ham, aralasholmadi, daqiqa sayin o‘ziga: «Endi ketish kerak», desa ham, nimanidir kutib ketolmadi.

Gap aylanadigan stollar va arvohlarga borib taqaldi, spiritizmga¹ ishonuvchi grafinya Nordston o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan mo‘jizalardan bahs ochdi.

– Eh, grafinya, meni olib boring o‘sha yerga, Xudo haqi, albat, olib boring! Har qayerlarda izlab yuraman-u, lekin hech qachon

¹ *Spiritizm* – marhumlar bilan so‘zlashishga ishonuvchi oqim.

bunday g'aroyib narsalarni ko'rgan emasman, – dedi Vronskiy kulimsirab.

– Xo'p, kelasi shanbada, – deb javob qildi grafinya Nordston.

Keyin Levindan so'radi: – Siz-chi, Konstantin Dmitrich, ishonasizmi?

– Mendan nima qilasiz so'rab? Nima deyishimni o'zingiz bilasiz-ku.

– Yo'q, sizning fikringizni eshitmoqchiman.

– Mening fikrim shuki, – deb javob berdi Levin, – ana o'sha aylanadigan stollar madaniy jamiyat deb atalgan jamiyatning mujiklardan yuqori emasligini isbot qiladi. Mujiklar ko'zga, joduga, issiq-sovuqqa ishonishadi, biz bo'lsak...

– Demak, siz ishonmaysiz?

– Ishonolmayman, grafinya.

– Bordi-yu, o'zim ko'rgan bo'lsam-chi?

– Qishloqi xotinlar ham ajinani ko'rganlarini aytishadi.

– Bundan chiqdi, meni yolg'on aytadi deb o'ylarkansiz-da!

Shu so'zni aytib grafinya ensasi qotib kulib qo'ydi.

– Yo'q, Masha, Konstantin Dmitrich bunday narsalarga ishonolmasliklarini aytyaptilar, – dedi Kiti Levin uchun qizarib; Levin buni sezdi-yu, yana ham g'ijinib javob bermoqchi bo'lib turgan edi, Vronskiy dilsiyohlikka aylanib ketish xavfini tug'dirgan suhbatga o'zining sho'x, samimiy tabassumi bilan darhol oro kirdi.

– Bunday narsalarning bo'lishiga mutlaqo ishonmaysizmi? – deb so'radi u. – Nega endi? Elektrning nimaligini bilmaganimiz holda, uning borligini inkor qilmaymiz; shunday ekan, hozircha bizga ma'lum bo'lmagan yangi bir kuchning mavjud bo'lishi nima uchun mumkin emas? Axir, u...

– Elektr topilgan paytda, – deb uning so'zini darhol bo'ldi Levin, – faqat elektrning xossasigina kashf etilgan edi. Lekin u mahal uning qayerdan amalga kelgani va nimaga qodir ekani ma'lum emas edi; uni hayotga tatbiq qilishni o'rgangunlaricha oradan asrlar o'tib ketdi. Spiritlar esa, aksincha, tatbiqdan boshladilar: oldin stollar ularga yozishdi, arvohlar yonlariga kelishdi, ana shundan keyingina noma'lum kuch borligi haqida gapira boshladilar.

Levinning so'zlari, aftidan, Vronskiyini qiziqtirdi, shekilli, u bu so'zlarni odati bo'yicha diqqat bilan eshitdi.

– Lekin spiritlar – hozircha bu kuchning nimadan iboratligini bilmaymiz, ammo shunday bir kuch bor – muayyan sharoitda o'zini

ko'rsatadi. Endi bu kuchning nimadan iboratligini olimlar kashf qilishsin, deb aytishadi. Yo'q, nima uchun yangi kuchning mavjud bo'lishi mumkin emas, axir, agar u...

– Shuning uchunki, – deb Levin uning so'zini bo'ldi, – elektr quvvatini hosil etishda har safar junga smola surtilsa, ma'lum xossa yuz beradi, spiritizm tajribalarida esa har safar bunday hodisa yuz bermaydi, demak, bu tabiat xossasi emas ekan.

Vronskiy suhbatning mehmonxona uchun haddan ziyod jiddiy tus olib borayotganini sezdi, shekilli, Levinning dalillariga e'tiroz qilmadi, balki suhbat mavzusini o'zgartirishga tirishib, jilmaydi-da, xonimlar tomonga o'girildi. U:

– Keling, grafinya, hozir tajriba qilib ko'raylik, – deb endi so'z boshlagandi, Levin ko'nglidagi gaplarini oxirigacha aytmoqqa chog'landi.

– Mening fikrimcha, – deb davom qildi u, – spiritlearning o'z mo'jizalarini yangi bir kuch borligi bilan izoh qilishga urinishlari muvaffaqiyatsizlikning o'zginasi. Ular ruhiy kuchning borligi haqida ro'y-rost gapiradilar, yana o'zlari buni moddiy tajribadan o'tkazmoqchi bo'ladilar.

Hamma uning so'zi tugashini kutar, buni Levinning o'zi ham sezar edi.

– Fikrimcha, siz a'lo medium¹ bo'lasiz, sizda qandaydir bir layoqat bor, – dedi grafinya Nordston.

Levin bir nima demoqchi bo'lib og'zini juftladi-yu, lekin qizarib, hech nima demadi.

– Knyajna, keling, stollarni tajriba qilib ko'ramiz, – dedi Vronskiy. – Knyaginya, ruxsat berasizmi?

Ana shundan keyin Vronskiy o'rnidan turib, ko'zlari bilan stolcha qidira boshladi.

Kiti ham stolcha qidirgani o'rnidan turdi va Levinning yonidan o'tib ketayotganda, ko'zlari uning ko'zlariga to'qnash keldi. Kiti jonjonidan unga achindi, uning baxtsizligiga o'zi sabab bo'lgani uchun yuragi tuzdek achirdi. «Meni kechirish mumkin bo'lsa, kechiring, men shunchalik baxtlimanki», derdi uning ko'zlari.

Levinning ko'zlari esa «Hammadan nafratlanaman, sizdan ham, o'zimdand ham», deb javob qilganday bo'lardi, ana shundan keyin

¹ Spiritlear e'tiqodicha, «ruhlar» bilan odamlar o'rtasida vositachilik qiluvchi odam (tarj.).

shlapasini qo‘liga oldi. Lekin yana ketishning iloji bo‘lmadi. Hamma stolcha tevaragiga to‘plana boshlaganda, Levin endi chiqib ketmoqchi bo‘lib turgan edi, qari knyaz kirib, xonimlar bilan salomlashgandan so‘ng Levinga murojaat qildi.

– A! – dedi u shodlanib. – Qachon keldingiz? Sening bu yerdaligingni bilmabmanam. Sizni ko‘rib juda xursand bo‘ldim.

Qari knyaz Levinni goh sensirar, goh sizensirardi. U Levinni quchoqlab oldi va u bilan gaplashib turib, Vronskiyga e‘tibor ham qilmadi; Vronskiy esa o‘rmidan turib, knyazning o‘ziga qarashini indamay kutib turardi.

Bo‘lib o‘tgan hodisadan keyin otasining mehribonligi Levinga og‘ir botayotganini Kiti sezib turardi. Shuningdek, u Vronskiyning salomiga otasining nihoyat sovuqqina javob berganini, Vronskiyning esa knyaz nega va nima uchun o‘ziga bunday sovuq muomala qilganini anglashga tirishganini, lekin anglayolmasdan unga samimiy hayrat bilan qarab qo‘yganini ham ko‘rib, qizarib ketdi.

– Knyaz, Konstantin Dmitrichni qo‘yib yuboring, bu yoqqa kelsinlar, – dedi grafinya Nordston. – Biz tajriba qilib ko‘rmoqchimiz.

– Qanaqa tajriba? Stol aylantirishmi? – dedi knyaz. Keyin u bu mashmashani Vronskiy o‘ylab chiqarganini payqab, unga qarab turib gapirdi. – Yo‘q, kechiringlar meni, xonimlar va janoblar, menimcha, baldoq o‘yini tuzukroq bo‘lsa kerak. Baldoq o‘yinida loaqal ma‘no bor.

Vronskiy o‘tkir ko‘zlari bilan knyazga hayratlanib bir qarab oldiyu, xiyol jilmayib qo‘ygandan so‘ng, darhol grafinya Nordston bilan kelasi hafta bo‘ladigan katta bal to‘g‘risida gaplasha boshladi. Keyin Kitiga yuzlanib:

– Umid qilamanki, siz ham bo‘larsiz? – deb so‘radi.

Qari knyaz teskari o‘g‘irilishi bilan Levin sekin chiqib ketdi; uning bu kechadan olib ketgan so‘nggi taassuroti – Vronskiyning bal haqidagi savoliga javob berayotganda Kitining jilmayib turgan baxtli siyosi bo‘ldi.

XV

Kechki o‘tirish tugagandan so‘ng Kiti o‘zi bilan Levin o‘rtasida bo‘lib o‘tgan gapni onasiga aytib berdi; Levinga juda qattiq achinayotganiga qaramay, o‘ziga turmush qurish to‘g‘risida taklif qilin-

ganini o'ylab quvonardi. Kiti o'zining to'g'ri ish qilganiga shubha etmas edi. Shunday bo'lsa ham, ko'rpaga kirgandan keyin uzoq vaqtgacha uxlayolmay yotdi. Bir taassurot uning ko'ngliga tinchlik bermasdi. Bu – Levinning qosh-qovoqlari osilgan va qoshlari ostidan mehribon ko'zlari g'amgin-g'amgin qarab turgan yuzi edi; Levinning tik turib otasining so'zlariga quloq solgani va o'zi bilan Vronskiyga qarab-qarab qo'ygani Kitining ko'zlari oldidan ketmas edi. Levinga yuragi shunchalar achishib ketdiki, ko'zlaridan yosh chiqdi. Lekin u shu on Levindan kechib tanlagan kishisi haqida o'ylay boshladi. U o'sha mardona, qat'iy ifodali yuzni, uning olijanob vazminligi va hammaga mehribonligini ko'z oldiga keltirib, sevgan kishisining o'ziga bo'lgan sevgisini esladi-yu, yana ko'ngli shodlikka to'ldi va baxtiyor kulimsirab yostiqa yotdi. «Attang, attang, lekin nachora? Menda ayb yo'q», derdi u o'zicha; lekin ichidan chiqqan bir ovoz unga boshqa narsani aytardi. Levinni jazb etganidanmi yo bo'lmasa uni rad qilganidanmi, pushaymon ekanini o'zi bilmas edi. Lekin baxti shubha-gumonlar bilan zaharlandi. «Yo Xudo, O'zing rahm qil, O'zing rahm qil, Parvardigor, O'zing shafqat qil, Xudoyim!» deb yotdi u to uxlaguncha.

Shu vaqt pastda, knyazning kichkina kabinetida, suyukli qizlari tufayli ota-ona o'rtasida tez-tez bo'lib turadigan janjallardan biri ro'y berayotgan edi.

– Nima bo'пти? Rasvogarchilik bo'пти! – deb knyaz qo'llarini siltab qichqirdi va olmaxon mo'ynasidan tikilgan xalatining oldini darhol yopib oldi. – Rasvogarchilik shundaki, sizda na g'urur bor va na izzat-nafs, siz mana shu razil, ahmoqona unashish bilan qizingizni sharmanda qilyapsiz, halok etyapsiz!

Knyaginya yig'lamoqdan beri bo'lib:

– Xudo haqi, insof qil, knyaz, men nima qilibman, axir? – derdi.

Knyaginya qizi bilan gaplashgandan keyin o'zini baxtli va mamnun his etib, odaticha knyaz oldiga xayrlashgani kirgan edi; Levinning taklifini va Kitining rad qilganini garchi aytish niyati bo'lmasa ham, nazarida, Vronskiy bilan ishi tamom pishganini, onasi kelgandan keyin bu masala hal bo'lishini eriga ishora qildi. Knyaz ana shu so'zlarni eshitdi-yu, birdan tutaqib, odobsiz so'zlar bilan qichqira boshladi.

– Nima qilibsiz? Mana, sizning qilganingiz: avvalo, kuyovni tuzoqqa ilintiryapsiz, bu butun Moskvada duv-duv gap bo‘ladi, gap qilsa – o‘rinli. Agar kecha o‘tkazadigan bo‘lsangiz, hammani chaqiring, faqat ko‘z ostingizga olib qo‘ygan kuyov to‘rachalarnigina emas. Haligi tirranchalarni (knyaz moskvalik yigitlarni shunday deb atardi) chaqiring, pianinochini chaqiring, o‘yinga tushsin, lekin bugungidaqa kuyov to‘rachalaru qo‘shmachilik bo‘lmasin. Bunday narsalardan jirkanaman, ko‘nglim ayniydi, siz bo‘lsangiz murodingizga etdingiz: qiz bechoraning boshini aylantirdingiz. Levinning o‘lsa o‘ligi ortiq. Unisi bo‘lsa Peterburg oliftasi, undaqalarni moshinada yasab chiqarishadi, hammasi bir-biriga o‘xshaydi, yana rasvo-yu, raddi balo. Menga desa shahzoda urug‘idan bo‘lmaydimi, qizim zor qolgani yo‘q!

– Axir, men nima qilibman?

Knyaz g‘azab bilan qichqirdi.

– Shuni...

– Bilaman, sening gapingga quloq solsak, – deb erining so‘zini bo‘ldi knyaginya, – qizimizni bir umr erga bermaymiz. Unday bo‘lsa, qishloqqa ketish kerak.

– Ha, ketgan ma‘qul.

– Shoshma, axir, nima, men yaltoqlanyapmanmi? Tirnoqchayam yaltoqlanayotganim yo‘q. Yigit chakkimas, yosh, nozanday, qizingni yaxshi ko‘radi, chamasi, qiz ham...

– Ha, ol-a! Men uylanishni qancha o‘ylasam, u ham shuncha o‘ylaydi-ku, qanday qilib qiz uni yaxshi ko‘rsin?.. Oh, ko‘zlarim ko‘rguncha oqib tushsaydi!.. «Ax, spiritizm, ax, Nitsa, ax, balziyofat...» – Knyaz xotinini taqlid qilib, har so‘zida ta‘zim etardi. – Shunday qilib, Katenkaning boshiga ishq savdosini solib, bechorani baxtiqaro qilib qo‘ymasaydik.

– Tavba, nechun bunday deb o‘ylaysan?

– O‘ylamayman, shunday bo‘lishini bilaman; buning uchun ko‘zlarimiz bor, ayollarniki ko‘r. Men niyati xolis odamni ko‘rib turibman, u ham bo‘lsa Levin; innaykeyin, ana shu olato‘g‘anoqqa o‘xshash o‘yin-kulginigina o‘ylaydigan bedananiyam ko‘rib turibman.

– Miyangga bir narsa kelmasin, rosa...

– Ha, bir kun pushaymon bo‘larsan, Dasha bechora singari.

– Xo‘p, xo‘p, endi bas qilaylik, – deb knyaginya uni to‘xtatdi baxtiqaro Dollini esga olib.

– Juda soz, yaxshi bor!

Shundan keyin er-u xotin bir-birini cho‘qintirib va o‘pishib xayrlashdi, lekin har biri o‘z fikrida qoldi.

Knyaginya bugungi kecha Kitining taqdirini hal qildi, endi Vronskiyning niyatidan gumonsirashga hech qanday o‘rin qolmadi, deb oldin qattiq ishongan edi; lekin erining so‘zlari ko‘ngliga g‘ulg‘ula solib qo‘ydi. U o‘z xonasiga keldi-da, xuddi Kiti singari noma‘lum kelajak oldida dahshatga tushib, ko‘nglida bir necha marta munojot qildi: «Yo Xudo, O‘zing rahm qil, O‘zing rahm qil, Parvardigor, O‘zing shafqat qil, Xudoyim!»

XVI

Vronskiy oila hayotining nimaligini hech vaqt bilgan emas edi. Onasi yoshlik chog‘larida yuksak doiralarda porloq mavqe tutgan xotin bo‘lib, erlik mahalida va, ayniqsa, undan keyin butun kiborlar jamiyatida og‘izga tushgan bir qancha ishqiy mojarolarni boshidan kechirgan edi. Vronskiy otasini qariyb eslayolmasdi, u paj korpusida¹ tarbiyalangan edi.

Yosh Vronskiy zobitlik maktabini shukuhli zobit bo‘lib bitirib chiqqandan so‘ng darhol badavlat Peterburg harbiylari bilan ulfat bo‘ldi. Lekin Peterburgdagi kiborlarning uylariga kamdan kam borar, butun ishqiy mojarolari yuksak jamiyat doirasidan tashqarida bo‘lardi.

U Peterburgdagi hashamatli va ayni zamonda tarbiyasiz hayotidan keyin Moskvada birinchi marta o‘ziga ko‘ngil bergan kibor, dilbar va ma‘sum bir qiz bilan yaqindan tanishish lazzatini totidi. Kitiga bo‘lgan munosabatlarida biron yomon narsa bo‘lishi mumkinligini aqliga ham keltirmas edi. Ballarda ko‘proq Kiti bilan o‘yinga tushar va uylariga kelib-ketib turardi. U Kiti bilan, odatda, yuksak doiralarda gapiriladigan har xil behuda gaplardan gaplashar, lekin bu behuda gaplarga o‘z ixtiyoridan tashqari Kiti uchun alohida ma‘no berar edi. U Kitiga odamlar oldida gapirilmaydigan hech qanday narsa gapirmagan bo‘lsa hamki, Kitining ko‘ngli tobora o‘ziga moyil bo‘layotganini sezar va buni qancha ko‘p sezsa, bu unga shuncha

¹ Paj korpusi – Chor Rossiyasida: dvoryanlar uchun imtiyozli harbiy maktab (tarj.).

ko'p xush yoqar, qizga bo'lgan tuyg'ulari nafislashib borar edi. U Kitiga bo'lgan xatti-harakatining muayyan nomi borligini, bu harakat uylanish maqsadida emas, g'araz bilan qizlarni tuzoqqa tushirish deb atalganini va bu qiliq Vronskiyga o'xshagan yosh, kibor yigitlar orasida odat tusini olgan yomon ishlardan biri ekanini bilmas edi. U bu zavq lazzatini birinchi marta o'zim kashf etdim, deb o'ylab, o'z kashfiyotidan zavqlanardi.

Agar Vronskiy Kitining ota-onasi shu kecha nimalar deb gaplashganini eshitolsa, agar ularning nuqtayi nazariga qo'shilolsa va Kitiga uylanmagan taqdirda qizning baxtsiz bo'lishini bilsa edi, juda hayratda qolgan va bunga ishonmagan bo'lar edi. U o'ziga, ayniqsa, Kitiga shu qadar katta va shirin lazzat bag'ishlayotgan narsaning yomon narsa bo'lishiga hech ishonolmasdi. O'zining uylanishi kerakligiga esa bundan ham kamroq ishonishi mumkin edi.

Uylanish unga hech vaqt imkon doirasidagi narsaga o'xshab ko'rinmas edi. U oila hayotini yomon ko'rish bilan birga, oilani, ayniqsa, uylangan odamni o'ziga yot, dushman bo'lgan, hammadan ham kulgili narsa deb xayol qilar edi (bo'ydoq o'tganlar hammasi shu fikrda edi). Garchi Vronskiy Kitining ota-onasi o'rtasida o'tgan gapdan bexabar bo'lsa ham, shu kecha Shcherbatskiylarnikidan chiqib, Kiti bilan o'zi o'rtasida mavjud bo'lgan maxfiy ruhiy aloqaning bugun nihoyatda mustahkamlanganini va biron chora ko'rish kerakligini his etdi. Lekin qanday chora ko'rish kerakligi yo mumkinligini o'ylab topolmadi.

U Shcherbatskiylarnikidan har vaqtdagiday yoqimli, tarovatli sof his bilan chiqdi: bu his qisman butun oqshom bo'yi papiros chekmagani va ayni zamonda Kitining o'ziga bo'lgan iydiruvchi muhabbati natijasi edi, bu uning uchun yangi tuyg'u edi. U Shcherbatskiylarnikidan qaytib ketayotib: «O'rtamizdagi munosabatning butun go'zalligi shundaki, – deb o'ylardi, – na men, na u bir-birimizga hech nima demasdan, ko'z boqishlari va so'z ohanglarining shirin tili bilan bir-birimizning muddaomizga shunchalar tushundik. Kiti meni yaxshi ko'rganini hech mahal bugungiday ravshan qilib aytmagan edi. Naqadar dilbar, naqadar sodda va, eng muhimi, ishonch bilan to'liq! Men o'zimni ilgorigidan ancha yaxshi, ancha sof his etyapman. Men o'zimda qalb borligini va menda ko'pgina

yaxshi fazilatlar borligini sezyapman. Sevgiga muhtalo bo'lgan dilbar ko'zlarini aytmaysizmi? Nima dedi? Ha: «judayam...»

«Xo'sh, so'ngra nima bo'ladi? Hech nima bo'lmaydi. Men uchun ham yaxshi, o'zi uchun ham yaxshi». Ana shundan keyin bugungi oqshomni qayerda o'tkazish to'g'risida o'ylay boshladi.

U borishi mumkin bo'lgan joylarni xayolidan bir-bir o'tkazdi. «Klubga boraymi? Bezik¹ o'ynab, Ignatov bilan shampan vinosi ichsammikan, a? Yo'q, u yerga bormayman. Chayeau des fleurs², u yerda Oblonskiyni topaman, laparlar, sapsaplar³ bo'ladi. Yo'q, jonga tegdi. Shcherbatskiylarni shuning uchun ham yaxshi ko'ramanki, ularnikida o'zim ham yaxshilaniy boraman. Uyga ketay». U Dyussoning musofirxonasidagi hujrasiga to'g'ri kirib borib, kechlik ovqat keltirishni buyurdi, keyin kiyimlarini yechib, boshini yostiqa qo'yar-qo'ymas odatdagicha qattiq va tinch uyquga ketdi.

XVII

Ertasiga ertalab soat o'n birda Vronskiy onasini kutib olgani Peterburg temiryo'li stansiyasiga chiqdi va katta zina pog'onalarida uchragan birinchi kishisi shu poyezd bilan keladigan singlisini kutib turgan Oblonskiy bo'ldi.

– A! Graf janoblari! – dedi Oblonskiy shang'illab. – Kimni kutib olgani chiqding?

Vronskiy Stepan Arkadichga duch kelgan hamma odamlar singari kulimsirab turib:

– Oyimlarni kutgani, – deb javob berdi; keyin uning qo'lini qisib, birga zinaga chiqdi. – Bugun Peterburgdan kelishlari kerak.

– Seni soat ikkigacha kutsam bo'ladimi? Shcherbatskiylarnikidan chiqib qayoqqa ketding?

– Uyga, – dedi Vronskiy. – Rostini aytsam, kecha Shcherbatskiylarnikidan shunday huzur qilib chiqdimki, boshqa yerga bor-gim kelmadi.

– Otning o'ynoqisini tang'asidan, yigitning oshig'ini esa ko'z-ginasidan bilib olaman, – dedi Stepan Arkadich bir mahal Levinga aytgan so'zlarini takrorlab.

¹ Qarta o'yini.

² Restoran nomi (*tarj.*).

³ Sapsap – oyoq o'yini. (*tarj.*).

Vronskiy oshiq ekanidan tonmayotganini bildiruvchi qiyofada kulimsiradi, keyin esa gapni darhol boshqa yoqqa burib yubordi.

– O‘zing kimni kutgani chiqding? – deb so‘radi u.

– Menmi? Bir nozaninni, – dedi Stepan Arkadich.

– O-o!

– Honnio soit qui mal y pense.¹ Singlim Annani.

– Ha, Kareninanimi? – dedi Vronskiy.

– Nima, taniysanmi?

Vronskiy Kareninaning nomini eshitganda qandaydir kerik, diqqinapas bir xonimni xira-shira xayoliga keltirib:

– Chamamda, tanisam kerak. Yo‘q, yo‘q... rostini aysam, esimda yo‘q, – dedi parishonlik bilan.

– Lekin Aleksey Aleksandrovichni, ya‘ni mening mashhur kuyovimni, albatta, tanisang kerak. Uni butun dunyo biladi.

– To‘g‘ri, bu dongdor odamni taniyman, bilaman, donishmand, olim, qandaydir ilohiy bir zot... lekin bilasan, u mening... not in my line², – dedi Vronskiy.

– Ha, juda ajoyib odam; biroz konservatorligi bor-u, lekin yaxshi odam, – dedi Arkadich, – juda yaxshi odam.

Vronskiy kulimsirab turib:

– Unday bo‘lsa, o‘ziga yaxshi-da, – deb qo‘ydi. Keyin onasining eshik yonida turgan qari, novcha malayiga qarab gapirdi: – Ha, sen shu yerda ekansan-u, kir ichkariga.

Vronskiy keyingi vaqtlarda Stepan Arkadichga juda mehribon bo‘lib qoldi, bunga sabab, bir yoqdan Oblonskiyning hammani o‘ziga rom qiluvchi jozibasi bo‘lsa, ikkinchi yoqdan, uni o‘z xayolida Kiti bilan aloqador deb bilishi edi.

– Nima deysan, yakshanba kuni farishta uchun kechki ovqat tashkil qilamizmi, a? – dedi u kulimsirab va Oblonskiyni qo‘ltig‘idan olib.

– Albatta. Men ro‘yxatni tuzaman. Aytgandek, kecha oshnam Levin bilan tanishdingmi? – deb so‘radi Stepan Arkadich.

– Bo‘lmasam-chi, lekin negadir tez ketib qoldi.

– Yaxshi yigit-da, – deb Oblonskiy gapida davom etdi. – To‘g‘rimi?

¹ Bunga yomon ma‘no berguvchiga uyat! (*frans.*)

² Bu mening sohamga kirmaydi (*ing.*)

– Qaydam, – deb javob berdi Vronskiy, – nima uchundir hamma moskvaliklarda, albatta, mening suhbatdoshlarimni istisno qilindanda, – deya Vronskiy hazil qildi, – allaqanday tez mijozlik bor. Negadir hamma vaqt o‘dag‘aylashadi, zarda qilishadi, xuddi bir narsani iddao qilayotgandek bo‘lishadi...

Stepan Arkadich sharaqlab kuldi-yu:

– To‘g‘ri, shunaqa odatlari bor, – dedi.

Vronskiy temiryo‘l xizmatchisidan:

– Nima bo‘ldi, tez keladimi? – deb so‘ragandi, xizmatchi:

– Ha, oxirgi stansiyadan chiqdi, – deb javob qildi.

Stansiyada ko‘rilayotgan tayyorgarliklar, hammollarning yugurib-yelishlari, jandarmlar va stansiya xodimlarining perronda paydo bo‘lishi, kutuvchilarning ortib borishi poyezdning yaqinlashib kelayotganini bildirar edi. Muzdek bug‘lar orasidan egnilariga nimcha po‘stin, oyoqlariga yumshoq piyma etik kiygan ishchilarning bir-birini kesib o‘tgan relslardan o‘tib borishayotgani ko‘rinardi. Uzoqdagi relslarda parovoz chinqirig‘i va og‘ir bir narsaning dukurlab kelayotgani eshitilardi.

Stepan Arkadich Levinning Kiti to‘g‘risidagi niyatini Vronskiyga aytib bergisi kelgan edi, shuning uchun:

– Yo‘q, – dedi, – yo‘q, mening Levinimga noto‘g‘ri baho berding. U juda tajang odam, to‘g‘ri, gohi mahallar boshqalarga yoqmay ham qoladi, lekin ba‘zan juda dilkash ham bo‘lib ketadi. U juda insofli, rostgo‘y odam, qalbi ham pok. Lekin kecha o‘zini shunday tutishga majbur qilgan alohida sabablar bo‘lgan, – dedi yana Stepan Arkadich ma‘noli kulimsirab; kecha u oshnasiga nisbatan his etgan samimiy tuyg‘usini butunlay yodidan chiqarib, hozir Vronskiyga nisbatan ham xuddi o‘shanday his tuyayotgan edi. – Ha, kecha uning juda baxtli yoki juda baxtsiz bo‘lishi uchun sabab bor edi.

Vronskiy yurib ketayotgan yerida to‘xtab, ro‘y-rost so‘radi:

– Ya‘ni, qanday sabab? Yo kecha og‘iz solganmidi sening belle soeur-ingga?¹

– Ehtimol, og‘iz solgan bo‘lsa solgandir, – dedi Stepan Arkadich. – Kecha mengayam shunday tuyulgan edi. Ha, basharti erta ketgan, buning ustiga, kayfiyam buzilgan bo‘lsa, mutlaqo shunday... U ko‘p vaqtdan beri Kitiga oshiq edi, bechoraga jabr bo‘ldi.

¹ Qaynisinglingga? (frans.)

– Hali shunaqa degin!.. Lekin men Kiti o‘ziga yanayam munosibrog‘ini topib oladi, deb o‘ylayman, – dedi-yu Vronskiy ko‘ksini kerib, yana yurishga boshladi. Keyin: – Ammo uni yaxshi bilmayman, – deb qo‘shib qo‘ydi. – Ha, bu juda og‘ir ahvol! Shuning uchun ham ko‘pchilik Klaralar bilan bordi-keldi qilishni afzal ko‘radi. U yerda muvaffaqiyatsizlikka uchrasang, demak, puling kamlik qilibdi, bu yerda esa fazilatlarining tarozida. Ha, ana, poyezd ham kelib qoldi.

Rostdan ham uzoqda parovoz chinqirdi. Bir necha daqiqadan so‘ng platformani titratib parovoz o‘tdi: uning sovuqdan pastga urib turgan bug‘lari pishillar, o‘rtangi g‘ildiragining pishangi sekin va bir me‘yorda goh egilib, goh cho‘zilib borar, bo‘yni bilan boshini o‘rab olgan, soqol-mo‘ylovlarini qirov bosgan mashinist platformadagilarga boshini silkib salom berar edi; parovoz tenderi¹ ketidan esa ichida bir it vang‘illayotgan yuk vagoni platformani yana besh battar gulduratib o‘ta boshladi; nihoyat, dirillab turgan yo‘lovchi vagonlari yetib keldi.

Epchil konduktor hali poyezd to‘xtamay hushtagini chaldi-yu, sakrab tushdi; undan keyin besabr yo‘lovchilar, qaddini tik tutgan va tevaragiga jalanglab qaray boshlagan gvardiya zobiti, qo‘lida sumkasi bilan sho‘x-sho‘x kulimsirayotgan jikkak savdogar; qopini orqalab olgan mujik birin-ketin tusha boshladi.

Vronskiy Oblonskiyning yonida vagonlarga ko‘z yugurtirib, tushayotganlarga qarab turardi; onasi butunlay xayolidan ko‘tarilgan edi. Hozir Kiti haqida bilgan narsalari uni ham hayajonlantirar, ham quvontirardi. Ko‘kragi beixtiyor kerilib ketdi, ko‘zlari porladi. U o‘zini g‘olib his qilardi.

Epchil konduktor Vronskiyning yoniga kelib:

– Grafinya Vronskaya manavi kupedalar, – dedi. Konduktorning so‘zi uni hushiga keltirib, onasini va hozir u bilan ko‘rishishini esiga soldi. U ichida onasini hurmat qilmas va buning sababini bilmagan holda, uni suymas edi; garchi o‘zi mansub bo‘lgan doiraning tushunchasiga va olgan tarbiyasiga muvofiq onasiga so‘ng daraja mute bo‘lish va ehtirom qilishdan boshqa bir munosabatni tasavvur etolmas, zohirda qancha mute va ehtiromli bo‘lib ko‘rinsa, ichida ham uni shunchalik kam hurmat qilar, shunchalik kam suyar edi.

¹ Tender – bu yerda: suv va yonilg‘i saqlanadigan vagon.

XVIII

Vronskiy konduktorning orqasidan vagonga kirdi-da, ichkari-ridan chiqib kelayotgan xonimga yo‘l berish uchun kupe eshigi yonida to‘xtadi. Vronskiy kiborlarga xos bir nazokat bilan xonimning tashqi qiyofasiga bir qarab, uning yuksak kibor jamiyatiga mansubligini bildi. Uzoq so‘rab kupega kirmoqchi bo‘ldi-yu, lekin unga yana bir qayrilib qaragisi keldi; uni yana bir qayrilib qarashga majbur qilgan narsa xonimning nihoyatda xushro‘yligi va butun qaddi qomatida yaqqol ko‘rinib turgan latofati, kamtari-ri viqori emas edi, balki Vronskiy yonidan o‘tib ketayotganida yoqimli chehrasida ko‘zga tashlanib turgan navozishi va nafosati edi. Vronskiy qayrilib qaraganda, u ham boshini o‘girdi. Qalin kipriklari ostida qoramtir ko‘ringan porloq kulrang ko‘zlari, go‘yo uni taniyotgandek rafoqat va diqqat bilan Vronskiyning yuzida bir zumgina to‘xtadi-yu, yaqinlashib kelayotgan olomon ichidan birovni qidirayotgandek, darrov o‘sha yoqqa tikilib qoldi. Vronskiy ana shu nigohida bilinar-bilinmas bir zavq borligini, bu zavq la‘li lablarini jiyirib, sezilar-sezilmas bir tabassum bilan chehrasida va porloq ko‘zlari orasida o‘ynayotganini sezdi. Qandaydir bir his vujudini go‘yo shu qadar to‘ldirib-toshirgan ediki, bu his uning ixtiyoridan tashqari goh nigohida, goh tabassumida jilva qilar edi. U ko‘zlaridagi o‘tini atayin so‘ndirdi, lekin bu o‘t nuri miyig‘idagi tabassumda beixtiyor namoyon bo‘ldi.

Vronskiy vagonga kirdi. Uning ko‘zlari qora, sochlari jingalak, qotma kampir onasi ko‘zlarini suzib o‘g‘liga qarar, yupqa lablari bilan jilmayar edi. U divanchadan turib, xaltasini oqsochga berdi-da, kichkina, qotma qo‘lini o‘g‘liga uzatdi; keyin o‘g‘lining boshini qo‘li bilan ko‘tarib, yuzidan o‘pdi.

– Shoshilinchnomani oldingmi? Sog‘misan? Xudoga shukur.

Vronskiy onasining yoniga o‘tirdi-da, eshik orqasidan eshitalayotgan ayol tovushiga beixtiyor quloq solib turib:

– Yaxshi keldingizmi? – deb so‘radi. U bu tovushning eshik yonida to‘qnash kelgan xonim tovushi ekanini bilardi.

– Har holda, men sizning fikringizga qo‘shilmayman, – derdi xonim tovushi.

– Peterburg nuqtayi nazari bu, xonim.

– Peterburgning emas, xotin kishining nuqtayi nazari, – deb javob qildi xonim.

– Xo‘p, ruxsat eting, qo‘lingizni o‘pay.

– Yaxshi boring, Ivan Petrovich. Ha, aytgandek, qarang, akam shu yerdamikan, bo‘lsa, bu yoqqa yuboring, – dedi xonim eshik yonida turib, keyin yana kupega qaytib kirdi.

Vronskaya xonimdan:

– Ha, akangizni topdingizmi? – deb so‘radi.

Vronskiy bu xonimning Karenina ekanini endi payqadi.

– Akangiz shu yerdalar, – dedi u o‘rnidan turayotib. – Kechiring, sizni tanimabman, zero, siz bilan bir lahzagina ko‘rishgandik, xolos, – dedi Vronskiy, xonimga ta‘zim qilib, – shuning uchun meni eslayolmaysiz.

– Yo‘g‘ey, – dedi xonim, – men sizni tanib olardim, chunki oyingiz bilan yo‘l bo‘yi faqat siz to‘g‘ringizdagina gaplashib keldik chog‘i, – dedi u nihoyat, hayajonlanganini ifodalovchi tabassumdan o‘zini tiyolmay. – Tavba, haliyam akamdan darak yo‘g‘-a.

– Bor, Alyosha, chaqirib kel, – dedi qari grafinya.

Vronskiy platformaga chiqib chaqirdi:

– Oblonskiy! Bu yoqda!

Lekin Karenina akasini kutib o‘tirmadi, uni ko‘rdi-yu, dadil, yengil odimlar bilan vagondan tushdi. Akasi yoniga kelishi bilan Vronskiyini hayratga solgan dadil va latif harakati bilan chap qo‘lini akasining bo‘yniga tashladi-da, uni jadal o‘ziga tortib olib, qattiq o‘pdi. Vronskiy ko‘zlarini undan uzmay qarab turar va sababini o‘zi ham bilmay kulimsirar edi. Lekin onasining kutib o‘tirganini eslab, yana vagonga qaytib kirdi.

Grafinya:

– Juda dilbar juvon-a? – dedi Karenina to‘g‘risida. – Eri yonimga o‘tqazib qo‘ydi, biram xursand bo‘ldimki. Yo‘l bo‘yi gaplashib kelsak bo‘ladimi! Xo‘sh, qulog‘imga chalingan gaplarga qaraganda... *vouz filez le parfait amour. Tant mieux, mon cher, fant mieux.*¹

– Qaydam, nimaga ishora qilayotganingizga tushunolmadim, maman, – deb o‘g‘li sovuqqina javob qildi. – Chiqaylik bo‘lmasa, maman, yuring.

¹ Yuksak muhabbating haliga dovur davom etayotgan emish. Juda soz, jon bolam, juda soz. (*frans.*)

Grafinya bilan xayrlashish uchun Karenina yana vagonga kirdi.

– Ana, grafinya, siz o‘g‘lingiz bilan, men bo‘lsam akam bilan uchrashdik, – dedi u vaqtichog‘ bo‘lib. – Hamma gaplarim tugovdi, endi gapirishga gap ham topolmasdim.

Grafinya uni qo‘lidan ushlab:

– Yo‘q, aylanay, – dedi, – siz bilan butun dunyoni aylanib chiqsam ham hech zerikmasdim. Sizdek dilkash ayollar bilan kishi gaplashgandayam, yoningizda jim o‘tirgandayam huzur qiladi. Ha, o‘g‘lingizni ko‘p o‘ylayvermang, aylanay; u yoq-bu yoqqa tashlab ketmay bo‘larmishmi!

Karenina qaddini tik tutib, qimir etmay turar, ko‘zlari kulimsirdi.

– Anna Arkadevnaning sakkiz yashar o‘g‘illari bor ekan, – deb grafinya o‘g‘liga tushuntirdi, – chamamda, bolasini u yoq-bu yoqqa tashlab ketmaganlar, shekilli, qoldirib kelganlariga juda kuyyaptilar.

– Ha, men o‘z o‘g‘lim to‘g‘risida, grafinya ham o‘z o‘g‘illari to‘g‘risida yo‘l bo‘yi gaplashib keldik, – dedi Karenina; shunda chehrasini yana tabassum yoritib yubordi. Lekin bu suyumli tabassum Vronskiyga bag‘ishlangan edi.

Vronskiy o‘ziga Anna Arkadevna irg‘itgan noz-ishva ko‘ptogini darhol yerga tushirmay ilib oldi-yu:

– Bo‘lmasa, oyim juda zeriktiribdilar-da sizni, – dedi. Lekin Anna Arkadevna, aftidan, gapni shu ohangda davom ettirgisi kelmadi, shekilli, qari grafinyaga murojaat qildi.

– Ko‘pdan ko‘p rahmat sizga. Kechagi kunning qanday o‘tib ketganini sezmay ham qoldim. Xayr, yaxshi qoling, grafinya.

– Yaxshi boring, jonim, – deb javob qildi grafinya. – Keling, chiroyli yuzingizdan bir o‘pib qo‘yay. Men qari kampirman, gapni aylantirib o‘tirmay ro‘y-rost aytaman: sizni yaxshi ko‘rib qoldim.

Bu gap qanchalik quruq, rasmiy gap bo‘lsa hamki, Karenina chin yurakdan ishondi, shekilli, suyunib ketdi. U qizarib biroz egildi-da, yuzini grafinyaga tutib, yana qaddini rostladi va lablari bilan ko‘zlari orasida o‘ynayotgan o‘sha tabassum bilan qo‘lini Vronskiyga uzatdi. Vronskiy o‘ziga uzatilgan jajjigina qo‘lni qisdi. Karenina qo‘lini qat-tiq, dadil silkitib turib mahkamgina qisganida, o‘zida yo‘q xursand

bo‘lib ketdi. Karenina o‘zining to‘lagina gavdasini qushday ko‘tarib borayotgan oyoqlarini shaxdam tashlab kupedan chiqdi.

– Juda dilkash juvon ekan-da, – dedi grafinya.

O‘g‘li ham shunday o‘yda edi. U Kareninaning viqorli qomati g‘oyib bo‘lguncha ko‘zi bilan kuzatdi va tabassumi yuzida qotib qoldi. U derazadan qarab, Kareninaning akasi yoniga borgani-ni, qo‘lini uning qo‘liga qo‘yganini va, aftidan, Vronskiyga hech qanday aloqasi bo‘lmagan bir narsa to‘g‘risida akasi bilan berilib gaplasha boshlaganini ko‘rdi; bu narsa uning g‘ashini keltirgandek bo‘ldi.

Vronskiy onasiga yuzlanib boyagi savolini takrorladi:

– Ha, qalaysiz, maman, sog‘-u salomat yuribsizmi?

– Shukur, salomat yuribman, tuzukman. Alexendre juda shirin bo‘lgan-da. Marie juda yaxshi bo‘lib qoldi. O‘ziyam biram ko‘zga yaqin bo‘lganki.

Grafinya yana hamma narsadan ham ko‘proq o‘zini qiziqtiradigan narsalar, nevarasini cho‘qintirish marosimi, buning uchun Peterburgga borgani va katta o‘g‘liga podshoning alohida iltifoti to‘g‘risida gapira boshladi.

– Ana, Lavrentiy ham keldi, – dedi Vronskiy derazadan qarab, – ruxsat etsangiz, endi chiqaylik.

Grafinya bilan birga kelgan qari xizmatkor vagonga kirib, hamma narsa tayyor bo‘lganini xabar qildi, grafinya chiqish uchun o‘rmidan turdi.

– Chiqaveraylik, odam siyraklashib qoldi, – dedi Vronskiy.

Oqsoch qiz xalta bilan kuchukni, qari xizmatkor bilan hammol esa qoplarni ko‘tardi. Vronskiy onasini qo‘ltig‘idan oldi; ular tashqariga endi chiqishib ham ediki, vahimaga tushganlari yuzlaridan bilinib turgan bir necha odam ular yonidan yugurib o‘tib ketdi. Furjkasi g‘alati rangli stansiya boshlig‘i ham yugurib o‘tdi.

Aftidan, favqulodda bir hodisa yuz bergan edi. Odamlar o‘zlarini olib qochishardi.

– Nima gap?.. Nima?.. Qayerda? O‘zini poyezd tagiga tashlabdi, bosib ketibdi, deysanmi!.. – degan ovozlari eshitilardi.

Singlisi bilan qo‘ltiqlashib ketayotgan Stepan Arkadich ham takapuka bo‘lib qaytib keldi; aka-singil o‘zlarini odamlardan chetga olib, vagon eshigi yonida to‘xtashdi.

Xonimlar vagonga kirib ketishdi, Vronskiy bilan Stepan Arkadich esa falokatning tafsilotini bilish uchun odamlar orqasidan ergashdi.

Temiryo'l qorovuli mast bo'lganidanmi yo qattiq sovuqdan yuz-ko'zlarini o'rab olganidanmi, haytovur, orqaga tisarilib kelayotgan poyezd dupurini eshitmay, vagon tagida qolib ketibdi.

Vronskiy bilan Oblonskiy qaytib kelmasdanoq xonimlar bu tafsilotni qari xizmatkordan so'rab bilib oldilar.

Oblonskiy bilan Vronskiy ikkovi majaqlanib yotgan o'likni borib ko'rishdi. Oblonskiyga, aftidan, juda qattiq ta'sir qildi, shekilli, yuzini tirishtirar, hozir yig'lab yuboradigandek ko'rinar edi. U nuqul:

– Oh, naqadar dahshatli! Anna, bir ko'rsayding! Oh, naqadar dahshatli! – derdi.

Vronskiy indamas, lekin chiroyli yuzi jiddiy va xotirjam edi.

– Oh, bir ko'rsaydingiz, grafinya! – derdi Stepan Arkadich. – Xotiniyam o'sha yerda... Xotinini ko'rgan kishining yuragi tars yorilib ketadi... O'zini erining murdasi ustiga tashladi. Kattakon oilani bir o'zi boqib kelardi, deyishdi. Qanday musibat-a!

Karenina hayajon bilan shivirlab:

– Xotiniga yordam berib bo'lmasmikan? – dedi.

Vronskiy Kareninaga bir qarab olib, darhol vagondan chiqdi. Keyin eshik og'zidan orqasiga qayrilib:

– Hozir kelaman, maman, – dedi.

Vronskiy bir necha daqiqadan so'ng qaytib kelganda, Stepan Arkadich grafinya bilan yangi ashulachi xotin to'g'risida gaplashib o'tirgan edi; grafinya esa o'g'lini kutib, sabrsizlik bilan eshikka qarab-qarab qo'yardi.

Vronskiy kupega kirib:

– Qani, endi ketdik, – dedi.

Hammalari vagondan birga chiqishdi. Oldinda Vronskiy onasi bilan, orqada esa Karenina akasi bilan borardi. Vokzaldan chiqaverishda stansiya boshlig'i Vronskiy orqasidan etib keldi:

– Yordamchimga ikki yuz so'm tashlab ketibsiz. Marhamat qilib, aytib bersangiz, kimga tayinlangan u pul? – deb qoldi.

Vronskiy yelkalarini qisib:

– Qorovulning xotiniga, – dedi. – Hayronman, bilib turib so‘raydiya.

Oblonskiy orqadan:

– Xotiniga pul berdingizmi? – deb qichqirdi-yu, singlisining qo‘lini qisib, ilova qildi: – Juda soz, juda xayrli ish qilibsiz! Quling o‘rgilsin yigit-a? Xayr, salomat bo‘ling, grafinya.

Shundan keyin u oqsoch qizni kutib, singlisi bilan to‘xtadi.

Ular ko‘chaga chiqishganda, Vronskiyning karetesi allaqachon ketgan edi. Vokzaldan chiqqan odamlar hamon o‘sha hodisa to‘g‘risida gaplashar edi.

Bir janob ular yonidan o‘tib keta turib:

– Qanday dahshatli o‘lim-a! – dedi. – Qoq ikkiga bo‘lib ketganmish-a!

– Aksincha, men buni eng oson o‘lim deb o‘ylayman: bir zumda joni chiqadi-ketadi, – dedi ikkinchisi.

– Nega chora ko‘rishmas ekan? – dedi uchinchisi.

Karenina karetaga o‘tirganda, Stepan Arkadich uning lablari titrayotganini, ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a tutib turganini ko‘rib hayron bo‘ldi. Bir necha yuz sarjin ilgari ketishgandan keyin:

– Senga nima bo‘ldi, Anna? – deb so‘radi akasi.

– Bu juda yomon alomat, – dedi Anna.

– E, bo‘lmag‘ur gap! – deb qo‘ydi Stepan Arkadich. – Mana, kelding, hamma gap shunda. Butun umidim senda, buni sen tasavvur etolmaysan.

– Vronskiyini ko‘pdan beri taniysanmi? – deb so‘radi Karenina.

– Ha, bilasanmi, uni Kitiga uylanadi, degan ilinjdemiz.

– Shunaqami? – deb so‘radi Anna. – Xayr, kel endi, o‘zing to‘g‘ringda gaplashaylik, – deb ilova qildi va xalaqit berayotgan allaqanday ortiqcha narsani o‘zidan haydamoqchi bo‘lgandek, boshini silkidi. – Kel, o‘z ishlaring to‘g‘risida gaplashaylik. Xatingni oldim-u, yo‘lga chiqdim, mana, yetib ham keldim.

– Ha, butun umidim sendan, – dedi Stepan Arkadich.

– Xo‘p, bo‘lmasa, gapir gapingni.

Shundan keyin Stepan Arkadich voqeani gapirib bera boshladi.

Uyga yetishganda, Oblonskiy singlisini karettadan tushirdi, bir xo‘rsinib olib, uning qo‘lini qisdi-da, mahkamasiga jo‘nab ketdi.

XIX

Anna xonaga kirganda, Dolli kichik mehmonxonada o'tirib, halitdan otasiga o'xshab qolgan malla sochli do'ndiqqina o'g'ilchasining fransuzcha o'qishiga quloq solayotgan edi. Bolaning ko'zlari kitobda bo'lsa ham, qo'li pijagining ipga osilib qolgan tugmasini burash va uzib olish bilan mashg'ul edi. Onasi qo'lini bir marta tugmadan tortib qo'ysa ham, do'mboqqina jajji qo'l yana tugmaga borib yopishaverdi. Nihoyat, onasi tugmani uzib olib, cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Endi qo'ling tinch tursin, Grisha, – dedi-yu onasi ko'p vaqtlardan beri tikib kelgan ko'rpasini yana qo'lga oldi; og'ir damlarda u hamisha shu ko'rpa bilan ovora bo'lardi; hozir ham asabiy bir holda ishini qo'lga oldi va ilmoqlarini barmoqlari bilan sanay turib to'qiy boshladi. Kecha eriga singlisining kelish-kelmasligi bilan ishi yo'qligini ayttingan bo'lsa hamki, uning kelishiga hamma narsani tayyorlab qo'ygan va qaynsinglisini hayajon bilan kutib o'tirgan edi.

Dolli boshiga tushgan musibat o'tida yonardi, butun fikr-xayoli shu bilan band edi. Shunday bo'lsa ham qaynsinglisini Annaning Peterburgdagi eng olimaqom zotlardan birining xotini va Peterburg grande dame-cu ekanini yodidan chiqarmagan edi. Shuning uchun eriga aytgan so'zini bajarmadi, ya'ni qaynsinglisining kelishini esidan chiqarmadi. «Axir, Annada hech gunoh yo'q-ku, – deb o'yladi u. – Men undan yaxshilikdan boshqa narsani ko'rmadim, o'zimga nisbatan ham undan faqat mehribonlik va do'stlik ko'rganman». Rost, Peterburgda, Kareninlarnikida olgan taassurotidan esida qolgani faqat uylari edi: ularning uylari Dolliga yoqmadi, oila hayotida qandaydir bir soxtalik bor edi. «Lekin Annani nima uchun qabul qilmasligim kerak? Ishqilib, meni yupataman deb ovora bo'lmasin-da, – deb o'ylardi Dolli. – Butun bu tasallilarni, nasihatlarni, nasroniylarning gunohni kechirish to'g'risidagi o'gitlarini – bularning hammasi ustida ming martalab bosh qotirganman, lekin hech biri dardimga davo bo'lolmaydi».

Dolli shu kunlar ichida faqat bolalari bilangina bo'ldi, dardini hech kimga aytishni istamas, yuragida shuncha dard turib boshqa narsalar haqida ham gaplasholmasdi. Keyin yuragidagi dardini har

holda Annaga aytib qo‘yishini bilardi. Goh ko‘ngil yorib, hamma dardimni aytaman, degan fikr uni suyuntirar, goh ko‘rgan xo‘rligini erining singlisiga aytish zarurati, undan tayyor nasihat va tasallilar eshitish majburiyati jahlini chiqarar edi.

U Annaning har dam kelib qolishi mumkinligini kutib, hamma vaqt soatga qarab-qarab qo‘yar edi: keyin xuddi mehmon kelgan paytda boshqa narsa bilan ovora bo‘lib qo‘ng‘iroqni eshitmay qoldi.

Eshikda kiyimlar shitiri va mayin odim tovushi eshitilgandagina u orqasiga o‘g‘irilib qaradi, shu on, jafokash yuzida quvonch emas, taajjub ifodasi paydo bo‘ldi. Keyin o‘rnidan qo‘zg‘aldi-yu, Annani o‘pa turib:

– Voy, keldingmi? – dedi.

– Dolli, seniyam ko‘rar kun bor ekan-da, biram boshim osmonga yetdiki!

– Menikiyam, – dedi Dolli sal kulimsirab va Annaning sirdan voqifmi-yo‘qligini yuzidan bilishga tirishib. Annaning yuzida achinish alomati borligini sezib: «Bilar ekan», deb o‘yladi. Keyin gapni iloji boricha keyinroqqa cho‘zishga tirishib ilova qildi: – Yur bo‘lmasa, xonangga olib borib qo‘yay.

– Bu Grishami? Voy Xudo, katta bo‘lib qolibdi-ya! – deb Anna Grishani o‘pdi va Dollidan ko‘zini olmay to‘xtab qoldi. Keyin qizarib: – Yo‘q, ruxsat etsang, hech qayoqqa bormasam, – dedi.

Anna ro‘molini yechdi, keyin shlapasini boshidan olayotganda u qora, jingalak sochlarining o‘rimiga ilashib qolgandi, boshini silkib sochini bo‘shatdi.

Dolli hasad qilgandek:

– Yuzingdan sog‘lik va baxt-saodat nuri yog‘ib turibdi! – dedi.

– Mening yuzimdanmi?.. Ha, – dedi Anna. – Voy Xudo, Tanya! Mening Seryojam bilan bir yoshdasan-a, – dedi yana yugurib kirgan qizchaga qarab. Anna uni qo‘liga olib o‘pdi. – Biram chiroyli, shirin qiz bo‘libdiki! Dolli, hamma bolalaringni ko‘rsat?

Anna bolalarning ismlarini aytdi, faqat ularning ismlarigina emas, tug‘ilgan yillari, oylari, xulqlari, nima bilan og‘riganlari ham esida bor ekan, Dolli buni taqdirlamasligi mumkin emasdi.

– Yur bo‘lmasa, xonalariga kiraylik, – dedi Dolli, – Vasya uxlayapti, esiz.

Ular bolalarni ko'rib chiqishgandan keyin mehmonxonaga kirib, ikkovlari qahva ichishga o'tirishdi. Anna patnisga qo'l urdi-yu, keyin yana surib qo'ydi.

– Dolli, u hamma gapni menga aytdi, – dedi Anna.

Dolli Annaga sovuqqina qarab qo'ydi. Endi achinib aytiladigan yasama gaplarni kuta boshladi. Lekin Anna bu taxlitda gap qilmadi.

– Dolli, azizim! – dedi u. – Men uning ham tarafini olmoqchimasman, sengayam tasalli bermoqchimasman, bunday qilib bo'lmaydi. Lekin, jonginam, senga juda rahmim keladi. Yurak-yuragimdan achinaman!

Annaning qalin kipriklari ostidagi porloq ko'zlariga birdan yosh yugurdi. U kelinoyisiga yaqinroq kelib o'tirdi-da, qo'lini o'zining kichkina, ixcham qo'lga oldi. Dolli qo'lini tortib olmadi-yu, lekin yuzidagi sovuq ifoda yo'qolmadi. U:

– Menga tasalli berishning foydasi yo'q, – dedi. – O'sha ishdan keyin men uchun hamma narsa barbod bo'ldi, sob bo'ldi.

Shu so'zlarni aytib bo'lar-bo'lmas yuz ifodasi birdan yumshadi. Anna uning qotma, ozg'in qo'lini ko'tarib o'pganidan keyin:

– Lekin nachora, nachora, Dolli? – dedi. – Shunday xunuk ahvolda qanday chora ko'rilsa, yaxshiroq bo'ladi? Hozir mana shu to'g'rida o'ylash kerak.

– Gap tamom bo'lgan, o'ylab o'tirishning hojati yo'q, – dedi Dolli. – Tushungin axir, hammasidan ham xunugi shuki, men uni tashlab ketolmayman, bolalar bor, qo'l-oyog'im bog'liq, u bilan bo'lsa birga turolmayman, uni ko'rsam, zardam qaynab ketadi.

– Dolli, jonimni beray, quloq sol, u hamma gapni aytib bergan; endi sendan eshitmoqchiman, bor gapingni ayt.

Dolli unga savol nazari bilan qaradi.

Annaning muhabbati va kuyib-yonayotgani soxta emasligi yuzidan ko'rinib turardi.

– Xo'p, aytsam ayta qolay, – dedi birdan Dolli. – Lekin bir boshdan aytib beray. Erga qanday tekkanimni o'zing bilasan. Men maman tarbiyasi ostida o'sgan ma'sum qiz bo'lib, shu bilan birga, hech narsani bilmay o'sgandim, hech narsaga aqlim etmasdi. Bilihimcha, erlar ilgari turmushlarini xotinlariga aytib berarmish; Stiva bo'lsa... – u darhol so'zini to'g'riladi. – Stepan Arkadich bo'lsa menga hech nima degani yo'q. Gapimga ishonmaysan, shu

mahalgacha mendan boshqasini ko'rgani yo'q, deb o'ylab kelardim. Sakkiz yil shu taxlitda o'tdim. O'zing o'ylab ko'r, men uni vafosiz deb gumon qilishim u yoqda tursin, bunday narsalarning bo'lishi aqlimgayam sig'masdi. Mana, endi o'zing tasavvur qilib ko'r, shunday ishonch bilan yashab kelsam-u, birdan shu dahshatni, shu pastkashlikni ko'rsam... mening so'zlarimga tushun. O'z baxtingga to'la-to'kis ishonib kelsang-u, birdan... -- deb Dolli gapida davom etdi, ho'ngrab yig'lab yuborishdan o'zini zo'rg'a tutib qoldi, -- xatini olsang... o'zining o'ynashiga, mening murabbiyamga yozgan xatini olsang. Yo'q, bu haddan tashqari bir dahshat! -- Dolli shoshib-pishib ro'molchasini olib yuzini berkitdi. Biroz jim turgandan so'ng yana so'zida davom qildi: -- Orada shunchaki ishqivozlik bo'lsa, boshqa gap edi, men bunga tushunaman, lekin juda chuqur o'ylab, quvlik bilan meni aldashgan... yana kim bilan degin?.. O'zi mening erim bo'la turib, o'sha bilan birga tursa-ya!.. Bu dahshat-ku! Sen bu narsalarga tushunolmaysan...

– Yo'q, tushunaman! Tushunaman, aylanay Dolli, tushunaman, -- dedi Anna uning qo'lini qisib.

– Nima, boshimga tushgan bu kulfatning butun dahshatini u tushunadi, deb o'ylaysanmi? -- deb davom qildi Dolli. -- Qilchayam tushunmaydi. U baxtli, kayfi chog'.

– Yo'g'-ey, undaymas! -- deb Anna uning so'zini shartta bo'ldi. -- Ahvoliga kishi achinadi, qattiq pushaymon bo'lyapti...

Dolli qaynsinglisining yuziga diqqat bilan tikilib turdi-da:

– Pushaymon bo'lishga yararkanmi? -- dedi uning so'zini bo'lib.

– Ha, men uni bilaman. Ahvoliga qarab o'zimming ham rahmim kelib ketdi. Ikkalamiz ham bilamiz uni. Yuragi yumshog'-u, lekin mag'rur, hozir esa ayanchli ahvolga tushib qolibdi. Asosan, menga ta'sir qilgan narsa shu bo'ldiki (Anna Dolliga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan narsani shu on fahmladi), unga ikki narsa azob beryapti: biri, bolalari oldida uyatga qolgani bo'lsa, ikkinchisi, seni yaxshi ko'ra turib... ha, ha, dunyoda hamma narsadan ham ortiqroq yaxshi ko'ra turib, -- dedi e'tiroz qilmoqchi bo'lgan Dolliga so'z bermay, -- ko'nglingni og'ritganidan, jabr qilganidan azob chekyapti. Nuqul: «Yo'q, yo'q, Dolli gunohimni kechirmaydi», deydi.

Dolli qaynsinglisining so'zlariga o'ychanlik bilan quloq solib, bir chetga qarab o'tirar edi.

– Ha, tushunaman, ahvoli juda rasvo, gunohkorning ahvoli gunohsiznikidan og‘ir bo‘ladi, – dedi Dolli, – basharti, butun baxtsizlikka o‘zi sababchi ekanini sezsa. Lekin qanday kechirib bo‘ladi, o‘shandan keyin qanday qilib yana xotin bo‘la olaman? Men unga bo‘lgan o‘tmishdagi muhabbatimni sevaman, xuddi shuning uchun ham u bilan yashash menga bir azob bo‘ladi...

Dolli hiq-hiq yig‘lab, so‘zlayolmay qoldi.

Lekin har safar yumshaganda, u xuddi jo‘rttaga qilayotgandek, nuqul o‘zining jahlini chiqaradigan narsalar to‘g‘risida gap boshlar edi.

– Axir, u xotin yosh, chiroyli bo‘lsa, – derdi u. – Bilasanmi, Anna, mening butun yoshligim, butun chiroyimni kim xazon qildi? O‘sha bilan bolalari. Men unga qilar xizmatimni qilib, adoyi tamom bo‘ldim, albatta, endi unga yosh, pastkash maxluq ko‘proq yoqadi. Ular, ehtimol, mening to‘g‘rimda gapirishgan yoki gapirishmagan bo‘lsa, bu bilan mening sha‘nimga yanayam battar isnod keltirishgan, tushunasanmi? – Dollining ko‘zlari yana nafrat o‘ti bilan yondi. – Qilg‘iliqni qilib, keyin menga kelib... nima, gapiga ishonarmidim? Hech qachon ishonmayman! Yo‘q, bo‘lar ish bo‘ldi, tortgan azob-u uqubatlarim uchun tasalli bo‘lgan, qilgan mehnat va tortgan zahmatlarim uchun mukofot bo‘lgan hamma narsa, hamma narsa barbod bo‘ldi!.. Ishonasanmi gaplarimga, Anna? Hozir Grishaning darsini o‘rgatib turgandim, burunlari bu menga sevinch baxsh etsa, endi bu azob bo‘lib qoldi. Nima uchun jon kuydiraman, nima uchun zahmat chekaman? Bolalarning nima keragi bor? Shunisi dahshatliki, qalbm birdan ostin-ustin bo‘lib ketdi, endi unga bo‘lgan sevgim, mehribonligim yo‘qolib, faqat g‘azab, ha, g‘azabgina paydo bo‘ldi. Men uni o‘ldirsam ham...

– Jonginam, Dolli, tushunib turibman, o‘zingni qiynama. Sen shu qadar haqirlangan, shu qadar hayajonlangansanki, ko‘p narsalarni to‘g‘ri ko‘rolmayapsan.

Dolli jimib qoldi, shundan keyin ikki daqiqacha jim qolishdi.

– Nima qilay, Anna, o‘ylab ko‘r, yordam qil. Men har tomonni o‘ylab ko‘rdim, hech narsa chiqmayapti.

Anna har qancha o‘ylasa ham bir qarorga kelolmas, lekin kelinoyisining har bir so‘zi, yuzining har bir ifodasi yuragini ezar edi.

– Men senga faqat shuni aytolaman, – deb so‘z boshladi Anna, – men singlisiman, shuning uchun fe‘lini, har narsani, hamma narsani unutishga qobiliyatli ekanini bilaman (qo‘lini peshonasiga keltirib ishora qildi), butun borlig‘i bilan bir narsaga havas bog‘lab, yana undan qaytib, pushaymon qilishini bilaman. Qilgan ishini qanday qilib qo‘yganiga hozir o‘ziyam ishonmaydi, tushunmaydi.

– Yo‘q, tushunadi, tushunib turib qilgan! – deb Dolli uning so‘zini bo‘ldi. – Lekin men... meni esdan chiqaryapsan... axir, menga osonmi?

– To‘xta, rostini aytsam, u bo‘lgan gapni menga aytib berganda, musibatingning bu qadar dahshatli ekanini uncha bilmagandim. Men faqat uni va ro‘zg‘oringizning buzilganinigina ko‘rgandim; o‘shanda unga achindim, lekin sen bilan gaplashganimdan keyin men ham ayol bo‘lganim uchun bo‘lak narsani ko‘ra boshladim; sening iztirobda ekaningni ko‘ryapman, senga qanchalik achinganimni so‘z bilan aytib berolmayman! Lekin, jonim Dolli, tortayotgan iztiroblaringga to‘la tushunaman-u, faqat bir narsani bilmayman, ha, bilmayman... qalbingda unga nisbatan yana qancha muhabbating borligini bilmayman. Uning gunohlarini kechiradigan darajada bormi, buni o‘zing bilasan. Agar bo‘lsa, kechir!

Dolli:

– Yo‘q, – deb gap boshlagandi, Anna qo‘lini yana bir marta o‘pib, uning so‘zini kesib qo‘ydi.

– Men kiborlar dunyosini sendan ko‘ra ko‘proq bilaman, – dedi Anna. – Stivaga o‘xshagan bu odamlarning munaqa narsalarga qanday qarashlarini bilaman. Ering u bilan sen to‘g‘ringda gaplashganini aytding. Bunaqa gap bo‘lganmas. Bu odamlar vafosizlik qilishadi-yu, lekin o‘z uylari va xotinlarini muqaddas bilishadi. O‘shanday xotinlar bularning ko‘nglida nafrat uyg‘otishadi, ammo oilalariga xalaqit berishmaydi. Bu odamlar oila bilan o‘shanday xotinlar o‘rtasiga o‘tib bo‘lmaydigan g‘ov tashlab qo‘yishadi. Men bunday narsalarga tushunmayman, lekin haqiqatda shunday.

– Shundaydir-u, lekin Stiva uni o‘pgan-da...

– Dolli, to‘xta, jonim. Stivani senga oshiq bo‘lib yurgan kezlarida ko‘rganman. O‘sha vaqtlar esimda: u mening oldimga kelardi-da, seni gapirib yig‘lardi, sen uning uchun yuksaklik va nafosat timsoli eding, yana shuniyam bilamanki, sen u bilan qancha ko‘p turgan

bo'lsang, uning nazarida shuncha yuksak ko'tarilding. U har ikki so'zning birida «Dolli ajoyib xotin», deb qo'yar, biz uning gapiga qotib-qotib kulardik. Sen uning nazarida hamisha ilohi xilqat eding, hozir ham shundaysan, lekin bu havas – o'tkinchi havas, qalb havasi emas.

– Bordi-yu, bu havas yana takrorlansa-chi?

– Mening fahmimcha, takrorlanishi mumkin emas...

– Xo'p, sen bo'lsang kechirarmiding?

– Bilmayman, bir narsa deymayman... yo'q, kechirardim, – dedi Anna biroq o'ylangach. Keyin ahvolni fahmlab oldi-da, uni ko'ngil tarozisiga solib ko'rib, ilova qildi:

– Yo'q, kechirardim, kechirardim, kechirardim. Ha, men kechirardim. Avvalgi Anna bo'lib qolmasam ham, har holda, kechirardim, kechirganimda ham, o'rtada hech nima bo'lmagandek, hech qanday gap o'tmagandek indamay ketaverardim.

– Ha, albatta, – deb shoshib uning so'zini bo'ldi Dolli; u xuddi bir necha marta o'ylagan narsasini gapirayotgandek edi, – bo'lmasa, boshqacha kechirib bo'larmishmi! Basharti, kechirish lozim bo'lsa, butunlay, tamoman kechirish kerak. Qani endi, yur, xonangga olib chiqib qo'yay, – dedi Dolli o'rnidan turayotib. Keyin yo'lda Annani quchoqlab oldi. – Jonginam, kelganing qanday yaxshi bo'ldi-ya. Ahvolim yengil tortdi, ancha yengil tortdi.

XX

Anna shu kunni uydan, ya'ni Oblonskiylarnikidan chiqmay o'tkazdi va uning kelganidan xabar topib yetib kelgan ba'zi tanishlaridan hech bittasini qabul ham qilmadi. Anna ertalabki soatlarini Dolli bilan bolalar yonida o'tkazdi. Butun qilgan ishi akasiga bir parcha xat yozishdan iborat bo'ldi; u xatida akasining uyda tushlik qilishini so'rab, «Kelaver, Xudoning rahmati ulug'», deb yozdi.

Oblonskiy uyida tushlik qildi; umumiy narsalar to'g'risida gaplashib o'tirishdi, xotini u bilan sensirab gaplashdi, ilgari sensirab gapirmagan edi. Er-u xotin o'rtasidagi muomalada hamon o'sha sovuqlik hukm sursa ham, endi ayrilish masalasi o'rtadan ko'tarilgan edi, shuning uchun Stepan Arkadich xotini bilan gapni baqamti qilib, yarashish mumkinligini payqadi.

Tushlik endi tugaganda Kiti kirib keldi. U Anna Arkadevnani tanir edi, lekin uncha yaqindan emas, shuning uchun hammaning og'zida doston bo'lgan bu peterburglik kibor xonim meni qanday qabul qilar ekan, degan vahima bilan keldi. Lekin o'zining Anna Arkadevnaga yoqqanini shu tobdayoq ko'rdi. Annaning, aftidan, Kitining husniga va yoshligiga havasi kelgan edi, Kiti o'zini o'nglab olishga ham ulgurmay, darrov Annaga mahliyo bo'lib qolganini sezdi. Shu bilan birga, yosh qizlar o'zlaridan katta, erli xonimlarni yaxshi ko'rganlari singari bu ham Annani yaxshi ko'rib qolganini sezdi. Anna kibor jamiyatga mansub xonimga yoki sakkiz yoshli o'g'ilning onasiga o'xshamas edi, agar Kitini hayratga solgan va uni o'ziga jazb qilgan ko'zlarining jiddiy, ba'zan esa mahzun ifodasi bo'lmasa, u o'zining ephilligi, so'limligi, goh qarashlari, goh tabassum-la yorishib ketadigan yuzidagi latofati bilan ko'proq yigirma yoshli qizga o'xshab ketardi. Kiti Annaning nihoyatda sodaligini va hech narsani yashirmasligini, lekin unda Kiti muyassar bo'lolmaydigan boshqa bir olam – murakkab va jo'shqin latofat borligini sezar edi.

Tushlikdan so'ng Dolli o'z xonasiga chiqib ketganda, Anna irg'ib o'rnidan turib, sigara chekayotgan akasining yoniga keldi. Keyin ko'zlarini sho'x-sho'x qisib turib uni cho'qintirdi-da, eshikka imo qilib:

– Stiva, kir, Xudo madadkor bo'lsin, – dedi.

U singlisining so'ziga tushunib, sigarasini tashladi-yu, eshikdan kirib ketdi.

Stepan Arkadich u yoqqa kirib ketgandan so'ng Anna divanga kelib o'tirdi, bolalar uni qurshab olishdi. Bolalar Annani onalari suyganini payqaganlari uchunmi yo ularning o'zlari ammalarida alohida malohat sezganlari uchunmi, harqalay, oldin ikkita kattasi, keyin esa kichiklari tushlikdan oldinoq unga yopishib olib, yonidan ketmay qo'yishdi. Anna bilan bolalar o'rtasida o'yinga o'xshagan bir narsa boshlandi, bu o'yin iloji boricha ammaga yaqinroq o'tirish, unga qo'l tegizish, jajji qo'lini ushlab, uzugini o'ynash yoki hech bo'lmasa, ko'ylagining etagiga qo'l tegizishdan iborat edi.

Anna Arkadevna avvalgi o'rniga o'tirayotib:

– Qani, boyagiday o'tiraylik, – dedi.

Grisha yana boshini Annaning qo'li tagidan suqib, yuzini uning ko'ylagiga suykadi, shunda u faxrlanib, o'zini baxtli sezib, yuzi yo-rishib ketdi.

– Xo'sh, bal qachon? – deb so'radi u Kitidan.

– Kelasi haftada, o'ziam juda ajoyib bal bo'ladi. Hamisha odamning vaqtichog' bo'ladigan ballardan.

– Hamisha odamning vaqtichog' bo'ladigan ballar ham bormi? – so'radi Anna muloyim bir istehzo bilan.

– G'alati ko'rinsayam, har holda bor. Bobrishchevlarnikida hamisha odamning bahri-dili ochiladi, Nikitinlarnikidayam shunaqa, Mejkovlarnikida esa hamisha odam zerikadi. Shunday bo'lishini hech payqamaganmisiz?

– Yo'q, jonginam, mening nazarimda, odamning bahri-dilini ochadigan ballar ortiq yo'q, – dedi Anna, shu on Kiti uning ko'zlarida boshqa bir olamni ko'rди, bu olam Kiti uchun pinhon qolgan edi. – Mening nazarimda, odamni kamroq diqqat qiladigan va kamroq qiynaydigan ballargina bor...

– Siz balda qanday diqqat bo'lishingiz mumkin?

– Men balda nima uchun diqqat bo'lishim mumkin emas? – deb so'radi Anna.

Kiti bu savolga beriladigan javobni Anna oldindan bilib turganini sezdi.

– Shuning uchunki, siz har vaqt hammadan yaxshiroqsiz.

Annaning qizarish qobiliyati bor edi. U qizarib turib dedi:

– Avvalo, hamma vaqt emas, qolaversa, siz aytganday bo'lganda ham, menga buning nima luzumi bor?

– Ana shu balga borasizmi? – deb so'radi Kiti.

– Fikrimcha, bormasam bo'lmas. Ma, ol, – dedi u oppoq, nozik barmog'ining uchidan osongina chiqadigan uzugini tortqilayotgan Tanyaga.

– Borsangiz, juda xursand bo'lardim. Sizni balda ko'rsam deyman.

– Mabodo, borishga to'g'ri kelsa, har holda, bu sizni zavqlantiradi, degan fikr menga tasalli beradi... Grisha, qo'y, aylanay, hadeb tegaverma, shundog'am to'zg'ib o'lyapti, – dedi u Grisha o'ynayotgan sochlarini tuzatib.

– Men sizni balga binafsharangli ko'ylakda kelasiz deb xayol qilaman.

– Nega endi aynan binafsha rangli ko‘ylakda? – Anna kulimsirab so‘radi. – Hay, bolalar, boringlar, boringlar endi. Eshityapsizlarmi? Miss Gul choyga chaqiryapti, – dedi u, keyin bolalarni o‘zidan ajratib, hammasini yemakxonaga yubordi. – Meni nima uchun balga chaqirayotganingizni bilaman. Siz shu baldan ko‘p narsa kutasiz, shuning uchun hammaning o‘sha yerda bo‘lishini, hammaning ishtirok etishini xohlaysiz.

– Siz buni qayerdan bilasiz? Ha, shunday.

– Oh, umringizning qanday ajoyib bir faslidasiz, – deb davom qildi Anna. – Shveysariya tog‘laridagiga o‘xshagan bu moviy tumanni ko‘rganman, esimda, bu tuman bolalik davri tugar-tugamas boshlanadigan shirin paytlarda hamma narsani qoplab oladi va bu quvonchli, baxtli katta doiradan boshlangan yo‘l hamon torayib boradi, ostonasiga kelib to‘xtalganda, bu olam har qancha go‘zal, har qancha charog‘on ko‘rinsayam, unga kirish odamni ham quvontiradi, ham dahshatga soladi... Bu yo‘ldan o‘tmagan bormikan?

Kiti indamay kulimsirab o‘tirar edi. «Ajabo, uning o‘zi qanday o‘tgan ekan bu yo‘ldan? Uning ishqiy mojarolarini biram bilgim keladiki», deb o‘yladi Kiti Annaning eri Aleksey Aleksandrovichning ko‘rimsiz qiyofasini eslab.

– Ba‘zi narsalardan xabarim bor. Stiva aytib berdi, sizni tabriklayman, u menga juda manzur bo‘ldi, – deb so‘zini davom qildi Anna, – Vronskiyni temiryo‘lda ko‘rdim.

– Voy, u ham chiqibdimi? – dedi Kiti qizarib, – Stiva sizga nimalar dedi?

– Stiva hamma gapni aytib berdi. Shunday bo‘lsa, men xursand bo‘lardim. Kecha Vronskiyning onasi bilan birga keldim, – deb Anna so‘zida davom qildi. – Yo‘l bo‘yi o‘g‘li to‘g‘risida gapirib keldi, oyilarining arzanda o‘g‘li ekan, bilaman, bolalar onalarining ko‘ziga oy ko‘rinishadi, lekin...

– Oyilari nima dedilar sizga?

– Juda ko‘p narsalarni gapirdi! Bilaman, u onasining arzandasi bo‘lsayam, lekin har holda olijanob odam ko‘rinadi... Masalan, oyisi u butun mol-u mulkini akasiga bermoqchi bo‘lganini, bolalik chog‘laridayoq yana allaqanday xoriqulodda bir narsa qilganini, suvdan bir ayolni qutqazib chiqqanini aytib berdi. Gapning qisqasi, qahramon, – dedi Anna va stansiyada ikki yuz so‘m berganini eslab kulimsiradi.

Lekin Anna bu ikki yuz so‘m to‘g‘risida gapirmadi, shuni eslasa, negadir ta‘bi xira bo‘lardi. Anna bu hodisada o‘ziga taalluqli bir narsa borligini, lekin bu narsaning bo‘lishi kerak emasligini his etardi.

– Oyisi meni keling deb juda iltimos qildi, – dedi Anna so‘zini davom qildirib. – Men ham kampirni ko‘rsam, xursand bo‘laman, shuning uchun ertagayoq bormoqchiman. Xudoga shukur, Stiva Dollining kabinetida uzoq o‘tirib qoldi, – deb Anna suhbat mavzusini o‘zgartirdi-yu, Kitining nazarida, nimadandir norozi bo‘lgandek, o‘rnidan turib ketdi.

Bolalar choylarini ichib bo‘lishib, Anna ammalarining yoniga yugurishib chiqishdi.

– Yo‘q, oldin men! Yo‘q, men! – deya qichqira boshlashdi.

– Hammangiz birdan! – dedi-da Anna kulib turib bolalar tomonga yugurdi va suyunganlaridan chinqirishib uymalashgan bolalarni quchoqlab yerga yiqitdi.

XXI

Kattalar choy ichgani o‘tirishganda, Dolli ham o‘z xonasidan chiqdi. Stepan Arkadich chiqmadi. U, aftidan, xotining xonasidagi orqa eshikdan chiqib ketgan bo‘lsa kerak.

Dolli Annaga qarab:

– Yuqori qavatda sovqotib qolmasang deb qo‘rqaman, – dedi. – Seni pastga ko‘chirib tushirish niyatidaman, bir-birimizga yaqinroq bo‘lamiz.

Anna Dollining yuziga tikilib, yarashishganmi-yo‘qligini payqashga tirishib:

– E, qo‘yinglar, mening g‘amimni yemanglar, – deb javob qildi.

– Bu yer yorug‘roq, – dedi kelinoyisi.

– Men senga aytсам, hamma yerda yumronqoziqdek uxlayveraman. Stepan Arkadich kabinetdan chiqdi-da, xotiniga qarab:

– Nima gap o‘zi? – deb so‘radi.

Uning so‘z ohangidan Kiti ham, Anna ham er-u xotinning yarashganini payqadi.

– Men Annani pastga ko‘chirib tushmoqchiman, lekin pardalarni boshqatdan osish kerak. Hech kim eplayolmaydi, o‘zim osaman-da, – dedi Dolli eriga qarab.

Anna Dollining so‘zlari sovuq, bosiq ohangda ekanini payqab: «Xudo biladi, butunlay yarashib ketishdimikan?» – deb o‘ylandi.

– E, qo‘ysang-chi, Dolli, hamma og‘ir ishni o‘zing qilaverma, – dedi eri. – Mayli, xohlasang, o‘zim qilay...

Anna: «Ha, yarashib olishibdi», deb o‘yladi.

– Bilaman sening qanday qilishingni, – deb Dolli javob qildi, – eplayolmaydigan ishni Matveyga topshirasan-u, o‘zing ketib qolasan, u hamma ishning rasvosini chiqaradi, – Dolli shu so‘zlarni aytayotganda, odatidagi istehzoli tabassumi lablarining uchini burishtirib yubordi.

Anna: «Butunlay, butunlay yarashishibdi. Butunlay, Xudoga shukur!» – deb o‘ylandi-da, bunga o‘zi sabab bo‘lganidan quvonib, Dollining yoniga keldi. Uni o‘pdi.

Stepan Arkadich miyig‘ida kulimsirab:

– Hech-da, nega Matvey bilan meni mensimaysan? – dedi xotinigayuzlanib.

Dolli butun kecha eriga har mahalgiday istehzo aralash muomalada bo‘ldi, Stepan Arkadich esa mamnun, shod edi. Lekin uning sevinchi afv etilgandan keyin gunohlarini unutganini sezdirmas edi.

Oblonskiylar dasturxoniy tevaragida qizg‘in tus olgan nihoyatda quvonchli, yoqimli oilaviy oqshom suhbatiy soat to‘qqiz yarimda eng oddiy bir hodisa bilan buzildi, lekin bu oddiy hodisa nima uchundir hammaga erish tuyuldi. Anna Peterburgdagi umumiy tanishlaridan gaplashib o‘tirib, birdan o‘rnidan turdi-yu:

– Mening albomimda surati bor, – deb qoldi. Keyin mag‘rur tabassum bilan ilova qildi: – Bahona bilan Seryojaning suratini ham ko‘rsataman.

Anna, odatda, o‘g‘li bilan kechasi soat o‘nlarda xayrlashar, ko‘pincha balga jo‘nash oldidan uni o‘zi yotqizib ketar edi; hozir ham soat o‘nga yaqinlashganda o‘g‘lidan uzoqda ekanini o‘ylab yuragi achishdi; suhbat nima haqda bormasin, Annaning fikr-u xayoli yana o‘zining jingalak sochli Seryojasida bo‘lardi. Uning hozir o‘g‘li haqida gapirgisi va suratini ko‘rgisi kelardi. Birinchi bahonadan foydalanib o‘rnidan turdi-yu, yengil, dadil odimlar bilan shaxdam yurib albomni olib kelgani ketdi. Uning yuqori qavatdagi xonasiga chiqiladigan zina katta zinapoya maydonchasiga taqalar edi.

Anna mehmonxonadan chiqayotganda, dahlizdan qo'ng'iroq jiringgi eshitildi.

– Kim ekan? – dedi Dolli.

Kiti:

– Meni yo'qlab kelishga hali erta, boshqa birovni yo'qlab kelgan bo'lishsa, kech qolishibdi, – dedi.

Stepan Arkadich esa:

– Menga idoradan qog'oz olib kelishgandir, – deb qo'ydi.

Anna zina yonidan o'tib ketayotganda, xizmatkor kim kelganini xabar qilish uchun yuqoriga chopib chiqib ketayotgan, kelgan odam esa chiroq yonida turgan edi; Anna pastga qaradi-yu, darhol Vronskiyini tanidi, shunda g'alati bir xursandlik sezdi va qo'rqish o'rniga yuragida allanima bir ag'darilib tushganday bo'ldi. Vronskiy paltosini echmasdan turar, cho'ntagidan allanimani chiqarar edi. Anna zinaning o'rtasiga yetganda u ko'zlarini ko'tarib qaradi, Annani ko'rib, yuzida xijolat va qo'rquvga o'xshash bir ifoda paydo bo'ldi. Anna boshini xiyol egib o'tib ketdi, keyin Vronskiyini uyga taklif etayotgan Stepan Arkadichning baland ovozi va kirishga unamagan Vronskiyning past, muloyim, vazmin tovushi eshitildi.

Anna albomni olib qaytib kelganda Vronskiy allaqachon ketgan, Stepan Arkadich esa Vronskiyning mashhur mehmon sharafiga ertaga berishadigan ziyofatlari haqida gaplashgani kelganini so'zlab turgan edi. Keyin u:

– Shuncha kir desam, hech unamasa bo'ladimi! Juda g'alati-da, – deb qo'ydi.

Kiti qizarib ketdi. U Vronskiyning nima uchun kelganini va nima sababdan ichkariga kirmaganini bir o'zim bilaman, deb o'yladi. «Biznikiga borgan bo'lsa, meni topolmagan-u, shu yerdadir, deb kelgan, – deb o'ylardi Kiti. – Kirmaganiyam bejiz emas: vaqt kech bo'ldi, innaykeyin, bu yerda Anna bor deb ham o'ylagan».

Hamma indamasdan bir-biriga qarab oldi, keyin Annaning albomini tomosha qila boshlashdi.

Bitta-yarimta odam beriladigan ziyofat tafsilotini bilgani soat to'qqiz yarimda og'aynisinikiga kelsa-yu, ichkari kirmasa, bunda hech qanday g'alatilik ham, g'ayritabiilik ham yo'q: shunday bo'lsa ham, bu narsa hammaga qiziq ko'rindi. Hammadan ham ko'proq Annaga g'alati, xunuk tuyuldi.

XXII

Kiti onasi bilan kelib, tuvaklarda gullar qo'yilgan va yuzlariga upa surtib, egnilariga qizil chakmon kiygan yugurdaklar tavoze qilib turgan katta zina pog'onasiga oyoq qo'yganda, bal endi boshlangan edi. Zallardan g'imirlagan odamlarning shitir-shitiri ari uyasi-dagi guvillagan ovozga o'xshab eshilib turardi; ona-bola zinapoya maydonchasidagi daraxtlar o'rtasida o'zlarini oynaga solib, soch va ko'ylaklarini tuzatib turganlarida birinchi valsni boshlagan orkestr skripkalarining ohangdor, ravshan ovozi yangradi. Ikkinchi oyna oldida chakkalaridagi oppoq sochlarini tuzatib va tevaragiga atir hidini taratib turgan oddiy kiyim kiygan chol zinapoyada ularga to'qnash keldi-yu, Kitini tanimasa kerak, o'zini chetga olib, unga suqlanib qarab qoldi. Nimchasining oldi barala ochiq, soqolsiz bir yigit, ya'ni qari knyaz Shcherbatskiy tirrancha deb atagan kibor yoshlardan biri, oq bo'yinbog'ini yo'l-yo'lakay tuzatib ketayotib, ularga ta'zim qildi-da, yonlaridan shitob bilan o'tib ketdi, keyin qaytib kelib, Kitini kadril o'yiniga taklif etdi.

Kiti birinchi kadrilni Vronskiy bilan tushishga va'da qilgan edi, shuning uchun bu yigitga, ikkinchi kadrilni va'da qildi. Bir zobit qo'lqoplarining tugmalarini qadab turib o'zini eshikdan chetga oldi va loladay qizarib ketgan Kitiga mo'ylovlarini burab suqlanib qaradi.

Yasanib-tusanishga, sochlarini tarashga, bal uchun lozim bo'lgan butun tayyorgarlikni ko'rishga Kiti juda ko'p mehnat va aql sarf qilgan bo'lsa ham, u hozir ustidan pushtirang jild kiydirilgan murakkab to'r ko'ylagida balga shu qadar bemalol va erkin kirib keldiki, go'yo bu lentadan yasalgan gullar, to'rlar, pardozi ikir-chikirlari o'zining ham, uydagi oqsochlarning ham zarracha vaqt va e'tiborini olmagan, go'yo uning o'zi shu to'r ko'ylak, shu to'rlar, shu baland qilib turmaklangan sochlar, shu tepasi qo'sh yaproqli atirgul bilan tug'ilgan edi.

Qari knyaginya zalga kirishdan avval Kitining kamaridagi buralib qolgan lentani tuzatib qo'ymoqchi bo'lgan edi, u o'zini sekin chetga tortdi. U egnidagi hamma narsaning yaxshi o'tirganini, o'ziga viqor berayotganini va hech nimani tuzatishning hojati yo'qligini sezar edi.

Kiti hayotining eng baxtli kunlaridan birini kechirmoqda edi. Hech yerini ko‘ylagi qismas, to‘rlarning hech biri cho‘zilmas, gul-lari ezilmagan va uzilib ham tushmagan edi, xiyol bukik baland poshnali pushtirang tuflisi oyoqchalarini qismas, aksincha, yayratar-di. Oqish sochlardan yasalgan chambar jajjigina boshi uzra xuddi o‘zinikiday bemalol turardi. Qo‘liga yopishib, uning shaklini buzmay turgan uzun qo‘lqopning har uchovi tugmasi uzilmasdan qadalgan edi. Medalonining qora baxmal lentasi esa bo‘yniga juda yarashib tushgan. Bu baxmal lenta nihoyatda chiroyli edi, Kiti uyida bo‘ynini oynada ko‘rib, baxmalning o‘ziga juda yarashganini ko‘rdi. Butun boshqa narsalari shubha tug‘dirishi mumkin, lekin baxmal lentasi gardsiz, go‘zal. Kiti shu yerda, balda ham uni oynada ko‘rib, jilmayib qo‘ydi. U yalang‘och yelkalari va ochiq qo‘llarida marmar sovuqligi-ni his etar, bu his unga, ayniqsa, yoqar edi. Ko‘zlari chaq nab o‘zining jozibadorligini bilib turgani uchun la‘li lablari tabassum qilmay tu-rolmasdi. Kiti zalga kirishga ulgurmay va o‘yinga talkif qilishlarini kutib o‘tirgan xonimlarning lenta-to‘rli rang-barang to‘r ko‘ylakdagi to‘piga yetib borguncha bo‘lmay (Kiti hech mahal bu to‘pga borib qo‘shilmas edi), uni valsga taklif qilib qoldilar; taklif qilganda ham eng yaxshi kavalier, ya‘ni bal-ziyofatlarning ulug‘ kavaleri, mashhur bal dirijyori, marosimlar boshchisi, qaddi-qomati kelishgan, chiroy-li, xotinli kishi – Yegorushka Korsunskiy taklif qildi. U hozirgina valsning birinchi davrasiga birga tushgan grafinya Baninani qo‘yib, o‘yinga tushayotgan bir necha juftni ko‘zdan kechira boshlagan edi, zalga kirib kelayotgan Kitini birdan ko‘rib qoldi-yu, bal dirijyor-larigagina xos bo‘lgan maymana yo‘rg‘a yurish bilan Kiti yoniga yetib kelib ta‘zim qildi-da, xohishini ham so‘rab o‘tirmasdan qizni nozik belidan olish uchun qo‘lini cho‘zdi. Kiti yelpig‘ichini kim-ga berishini bilmay tevaragiga alanglagan edi, uy bekasi kulimsirab yelpig‘ichni qo‘lidan oldi.

Korsunskiy Kitini belidan quchoqlay turib:

– Juda yaxshi bo‘ldi vaqtida kelganingiz, – dedi unga, – ziyofatga kechikib kelish yaxshi emas!

Kiti chap qo‘lini xiyol egib, kavaler yelkasiga qo‘ydi, shunda pushtirang tufli kiygan kichkina oyoqchalari musiqa ohanglariga uyg‘un bir harakat bilan silliq parket pol ustida tez, yengil va bir me‘yorda sirg‘ana ketdi.

Korsunskiy valsning birinchi ohista odimlarini boshlab turib:

– Siz bilan valsga tushganda odamning hordig'i chiqadi, – dedi, keyin hamma yaxshi tanishlariga aytadigan gapini takrorladi: – Naqadar chiroyli o'yinga tushasiz, qushday yengil, precision¹.

Kiti uning xushomadiga kulimsirab qo'ydi-yu, yana kavaleri yelkasidan zalga ko'z yugurtira boshladi. U bunday marosimlarga birinchi marta kelgan qiz emas edi, shuning uchun baldagi odamlarning chehralari bir-biriga qo'shilib, bitta sirli siymo bo'lib ko'rinmasdi, shuningdek, ballarda qo'ldan-qo'lga o'tib yurgan qiz ham emas edi, shuning uchun hamma chehralar tanish, ular ko'ngliga urgan emas edi, u shu ikkala toifa qizlarning unisiga ham, bunisiga ham o'xshamas edi, u hayajonlanardi, lekin tevaragidagi narsalarni kuza-ta oladigan darajada o'zini tuta bilardi. U zalning chap burchagiga jamiyatning yuqori tabaqasi to'planganini ko'rdi. Korsunskiyning haddan ziyod yalang'och xotini go'zal Lida, uy bekasi o'sha yerda, har vaqt oliy tabaqa orasida bo'ladigan Krivinning taqir boshi ham o'sha yerda yiltirab ko'rinar edi; u yoqqa borgani yuraklari botinmay, yigitlar ham o'sha tomonga qarab turishardi; Kiti ko'zi bilan qidirib Stivani ham o'sha yerdan topdi, keyin qora baxmal ko'ylakli, qomati kelishgan Annani ham o'sha yerdagi odamlar orasida ko'rdi. U ham o'sha yerda edi. Kiti uni Levinni rad qilgan kechasidan beri ko'rmagan edi. Kiti uzoqni ko'radigan tetik ko'zlari bilan uni darhol tanidi va hatto o'ziga qarab turganini ham sezdi.

– Xo'sh, yana bir davra aylanamizmi? Charchaganingiz yo'qmi? – dedi Korsunskiy sal-pal hansirab.

– Yo'q, tashakkur.

– Qayerga eltib qo'yay?

– Karenina shu yerda, shekilli... O'shalarning yonlariga olib borib qo'ying.

– Ixtiyorlari.

Korsunskiy valsga tushib, odimlarini sekinlashtirib, to'g'ri zalning chap burchagida turgan to'pga qarab bordi; u o'ynab turib: «Pardon, mesdames, pardon, pardon, mesdames», deb qo'yardi, u to'r ko'ylaklar kiygan, to'rlar va lentalar taqqan ayollar orasida biron yerini ilashtirmay, chaqqonlik bilan o'tib borib Kitini shunday qattiq

¹ Aniq (ing.).

aylantirdiki, uning nafis paypoqli oyoqchalari ochilib ketdi, uzun etaklari esa yelpig'ichday yoyilib, Krivinning tizzalariga kelib yopildi. Korsunskiy bosh egib ta'zim qildi, ochiq ko'kragini kerib, Kitini Anna Arkadevnaning yoniga olib borib qo'yish uchun qo'lini uzatdi. Kiti qizarib, etaklarini Kirivinning tizzasidan oldi-da, boshi biroz aylanib, Annani ko'zlari bilan qidira boshladi. Anna Kiti istaganidek binafsha ko'ylakda emas, ko'ksi ochiq qora baxmal ko'ylakda edi, jilolangan dandon singari silliq, bo'liq yelkaları va siynasi nozik, mushtumi kichik momiq qo'llari ochiq edi. Ko'ylagining hamma yog'iga Venetsiya shoyi to'rlari tikilgan. Boshida, bo'yalmagan asl qora sochlarida kapalak gullardan kichkina chamberak, tasmasining qora lentasida, oq to'rlar orasida ham yana shunday gulchamberak bor edi. Sochlarining oroyishi ko'zga chalinmasdi. Gardani bilan chakkalariga tushib, unga husn beradigan jingalak sochlarining gajaklarigina ko'zga chalinardi. Jilolangandek silliq, baquvvat bo'ynida bir sidra marvarid marjon osilgan edi.

Kiti Annani har kun ko'rardi, u Annani yoqtirib qolgan edi, uni faqat binafsharang ko'ylakdagina ko'z oldiga keltirardi. Lekin Annani hozir qora ko'ylakda ko'rdi-yu, undagi bu latofatga shu mahalgacha fahmi yetmaganini sezdi. Hozir esa Annani o'zi uchun tamoman yangi, kutilmagan bir qiyofada ko'rdi. Endi Kiti Annaning binafsharang ko'ylakda bo'lolmasligini va pardoz-andozini soyada qoldirib, o'zi ko'zga tashlanib turganida, pardoz-andoz esa hech mahal sezilmaganida uning latofati barq urib ko'rinib turishini ang-ladi. Shuning uchun egnidagi serhasham to'rli qora ko'ylagi ko'zga ko'rinmasdi; qora ko'ylak faqat bir ramka edi, xolos, unda faqat Annaning o'zi, oddiy, tabiiy, nafis, shu bilan birga, sho'x, jonli siy-mosigina ko'rinardi.

Anna har vaqtdagiday qaddini g'oz tutib turardi; Kiti shu to'pga yaqinlashganda, Anna boshini xiyol egib, uy egasi bilan gaplasha-yotgan edi. Nima haqidadir:

– Yo'q, – deb javob berdi. Keyin yelkalarini qisib so'zida davom etdi: – Garchi bunga tushunolmasam ham, baribir, tosh otolmayman. – Anna shu so'zlaridan keyin homiylarcha muloyim tabassumi bilan darhol Kitiga yuzlandi-da, yalt etib, ayollarga xos bir nazar bilan uning pardozini ko'zdan kechirdi-yu, boshi bilan sezilar-sezilmas bir harakat qildi; Kiti pardozini va go'zalligini ma'qullaganini bu hara-

katidan tushunib oldi. – Siz zalgayam o‘yin tushib kira-siz-a, – deb qo‘shib qo‘ydi.

Korsunskiy Anna Arkadevnani hali ko‘rmagan edi, u Annaga ta‘zim qila turib:

– Knyajna mening eng ishonchli yordamchilarimdan, – dedi. – Knyajna balning sho‘x va go‘zal o‘tishiga yordam beradilar. Anna Arkadevna, bir davra vals, – dedi u egilib.

– Ana xolos, tanishmisiz? – deb so‘radi uy egasi.

– E, biz kimlar bilan tanish emasmiz? Xotinim ikkalamiz ham-maga otning qashqasiday tanilib qolganmiz, – deb javob qildi Korsunskiy. – Bir davra vals, Anna Arkadevna.

– Men o‘yinga tushmaslik mumkin bo‘lgan kezda o‘yinga tushmayman, – dedi Anna.

– Lekin bugun o‘yinga tushmaslikning iloji yo‘q, – deb javob qildi Korsunskiy.

Shu on Vronskiy yaqinlashib keldi.

– Xayr, agar bugun o‘yinga tushmaslikning iloji bo‘lmasa, yuring, tushaylik, – dedi Anna o‘zini Vronskiy ta‘zim qilganini sezmaganga solib, keyin qo‘lini darhol Korsunskiyning elkasiga qo‘ydi.

Kiti Vronskiyning salomiga Anna jo‘rttaga javob qilmaganini sezib: «Anna nima uchun undan norozi ekan?» deb o‘ylandi. Vronskiy Kitining yoniga kelib, birinchi kadrilga birga tushishlarini xotirlatdi va shu damgacha uni ko‘rish lazzatidan mahrum bo‘lgani uchun taassuf bildirdi. Kiti valsga tushayotgan Annaga havas bilan qarab turib Vronskiyning so‘zlariga quloq soldi. U Vronskiy o‘zini valsga taklif qiladi deb kutgan edi, lekin Vronskiy taklif qilmadi, shundan keyin Kiti uning yuziga ajablanib qarab qo‘ydi. Vronskiy qizardi-yu, uni darhol valsga taklif qildi, lekin nozik belidan endi qo‘l o‘tkazib, birinchi qadamni tashlagan ham ediki, birdan musiqa to‘xtab qoldi. Kiti Vronskiyning nihoyat darajada o‘ziga yaqin turgan yuziga boshini ko‘tarib qaradi va keyin uzoq vaqtlargacha, hatto bir necha yildan keyin ham uning qarashi bag‘rini xijolat nashtari bilan tilkalab keldi, chunki u Vronskiyga muhabbat to‘la bir qarash bilan tikilganda Vronskiy unga javob qilmagan edi.

Korsunskiy zalning narigi tomonidan:

– Pardon, pardon! Vals, vals! – deb qichqirdi-da, to‘g‘ri kelgan birinchi qizni belidan olib, o‘zi o‘yinga tusha boshladi.

XXIII

Vronskiy Kiti bilan bir necha davra vals qildi. Valsdan keyin Kiti onasining yoniga kelib, Nordston bilan bir necha og'iz so'zlashishga ham ulgurmay, Vronskiy birinchi kadrilga taklif qilib kelib qoldi. Kadril o'yini mahalida oralarida aytarli hech qanday suhbat bo'lmadi, tez-tez bo'linib turgan suhbatlari goh Korsunskiyilar, ya'ni er-u xotin ustida bordi, Vronskiy ularni qirq yoshli shirin bolalar deb juda qiziq ta'rifladi, goh kelajak jamoat teatri haqida so'zlashdi, keyin Vronskiy Levinning shu yerdami-yo'qligini so'rab, uning o'ziga juda ham yoqqanini aytganda, ya'ni gap birinchi marta shunga kelib taqalganda, Kiti qattiq hayajonga tushdi. Lekin Kiti kadrildan bundan ortiq narsani kutmagan edi. Endi u yuragini changallab mazurka o'yinini kuta boshladi. Murodi mazurkada hal bo'ladigandek tuyulardi. Kadrilga tushib turganlarida Vronskiy uni mazurkaga taklif qilmagani Kitini xavotirga solmagan edi. Kiti ilgarigi ballardagi singari mazurkani ham u bilan raqs etishiga imoni komil edi, shuning uchun o'zini mazurkaga taklif qilgan yigitlardan beshtasiga rad javobi berib, boshqa odam bilan raqs tushmoqchi ekanini aytdi. Butun bal so'nggi kadrilgacha Kiti nazarida dillarni quvontiradigan ranglardan, ovozlardan, harakatlardan tarkib topgan sirli tushga o'xshar edi. U o'zini nihoyat horg'in his etgan kezlaridagina o'yinga tushmay, dam berishlarini so'rardi. Lekin kishini zeriktiradigan yoshlardan biri taklif etganda uni rad qilishning imkoni bo'lmadi: Kiti shu yigit bilan o'yinga tushib borayotib, Vronskiy bilan Annaga yuzma-yuz keldi. Kiti balga kelgandan beri Anna bilan o'yinda hech to'qnash kelmagan edi, shuning uchun uni hozir yana tamomila yangi, kutilmagan bir malohatda ko'rди. Kiti unda o'ziga tanish bo'lgan muvaffaqiyatdan hayajonlanish hissi borligini ko'rди. U Annaning o'zi uyg'otayotgan zavq taassuroti sharobi bilan mast-u alas ekanini ko'rди. Kiti bu hisni va buning alomatlarini bilar, buni Annada ko'rib turardi – ko'zlaridan chaq nab turgan o'tni, lablarini ixtiyorsiz burayotgan baxt va hayajon tabassumini, harakatlarida ko'zni qamashtirgan tannozlik, aniqlik va yengillik borligini ko'rди.

«Kim ekan, – deb Kiti o'zidan so'rardi, – uni bu holga solgan hammami yo bir kishimi?» Kiti o'zi bilan o'yinga tushayotgan va

gapning kalavasini yo‘qotib qo‘yib, topolmay qiynalayotgan yigitga yordam bermay va hammani goh grand rond¹, goh chaine² shaklida o‘ynatayotgan Korsunskiyning sho‘x va amirona buyrug‘iga zohiran bo‘lsa ham itoatdan bosh tortmay, kuzatishini davom ettirar va yuragi borgan sari qisilib borardi. «Yo‘q, Annani mast qilgan narsa olomonning zavq bilan tomosha qilgani emas, faqat bir kishining maftunligi, xolos. U bir kishi kim? Nahotki, u bo‘lsa-ya?» Vronskiy har safar Anna bilan gaplashganda, Annaning ko‘zlarida quvonch o‘ti porlar, la‘l lablarini baxt tabassumi burardi. Anna bu quvonch alomatlarini sezdirib qo‘ymaslik uchun o‘zini har qancha bosishga tirishsa ham, baribir, o‘z-o‘zidan yuziga urib chiqaverardi. «Unga nima bo‘ldi?» Kiti Vronskiyga qarab, dahshatga tushdi. Annaning yuz oynasida ravshan aks etgan narsani Kiti uning siymosida ko‘rdi. Hamisha vazminligi, tamkinligi, yuzining beg‘am, vazmin ifodasi qayga ketdi? Yo‘q, u endi har safar Annaga murojaat qilganda, Anna oldida yuztuban yiqilgisi kelayotgandek boshini xiyol egadi va boqishlarida faqat itoat va qo‘rquv ifodasigina ko‘rinadi. Boqishlari har safar: «Tahqir qilishni emas, o‘zimni qutqazishni xohlayman, lekin nima qilishimni bilmayman», deyayotgandek bo‘lardi. Vronskiyning chehrasida shunday bir ifoda bor ediki, Kiti buni ilgari hech mahal ko‘rmagan edi.

Ular umumiy tanishlar to‘g‘risida gaplashar, gaplari juda ahamiyatsiz mavzu ustida borardi. Shunday bo‘lsa ham Kitiga ularning og‘zidan chiqayotgan har bir so‘z o‘zlarining ham, Kitining ham taqdirini hal qilayotgandek tuyulardi. Shunisi g‘alati, ular haqiqatan ham Ivan Ivanovichning fransuzcha gaplashishi kulgili ekani va Yeletskayaga durustroq kuyov topish mumkinligi to‘g‘risida gapirishsa ham, ayni zamonda, bu gaplar ular uchun alohida ma‘no kasb etar va ular ham buni Kiti singari his etardilar. Kitining qalbida butun balni, butun olamni va hamma narsani tuman bosganday bo‘ldi. Kiti qattiq tarbiya olgani uchungina o‘zini tutib turar va o‘zidan talab etilgan narsalarni qilishga, ya‘ni o‘yinga tushishga, savollarga javob qaytarishga, gapirishga, hatto jilmayishga ham o‘zini majbur qilardi. Lekin mazurka boshlanishidan oldin stullar terilib, ba‘zi juftlar kichik

¹ Katta davra (*ing.*).

² Qator (*ing.*).

zaldan katta zalga o'ta boshlashganda, Kiti umidsizlik va dahshat ichida qoldi. U besh kishining taklifini rad etgan edi, shuning uchun hozir mazurkaga tushmasdi. Endi bironta odamning taklif qilishiga umidi qolmagan edi, chunki kiborlar orasida juda zo'r muvaffaqiyatga ega bo'lgani uchun shu mahalgacha uning mazurkaga taklif etilmagani hech kimning aqliga ham kelmasdi. Endi betob ekanini onasiga aytib, uyga jo'nab ketishi kerak bo'lsa ham, bunday qilishga majoli qolmadi. U o'zini majaq-majaq bo'lib ketganday his etardi.

Kiti kichkina mehmonxonaning to'riga borib, o'zini oromkursiga tashladi. Ko'ylagining yengil etaklari nozik qomati tevaragida bulut singari ko'tarilib ketdi, yalang'och, ozg'in, nozik qo'li madorsizlikdan tushib, pushtirang to'r yubkasining g'ijimlari orasida ko'milib ketdi; ikkinchi qo'lida esa yelpig'ich bor edi, o't bo'lib yonayotgan yuzini qisqa-qisqa harakatlar bilan tez-tez yelpiy boshladi. U hozirgina ko'katga qo'ngan va darhol zangori qanotlarini yoyib uchishga shaylangan kapalakka o'xshasa ham, dahshatli umidsizlik qalbini tinar edi.

«Ehtimol, men xato ketayotgandirman, ehtimol, unday emasdir?» deb o'ylar, ko'rgan narsalarining hammasini yana xayolidan kechirardi.

Grafinya Nordston gilam ustida sharpasiz yurib kelib:

– Kiti, bu nima gap? – dedi. – Bu qilig'ingga tushunolmadim-ku.

Kitining quyi labi titrab ketdi, u irg'ib o'rmidan turdi.

– Kiti, sen mazurkaga tushmaysanmi?

Kiti ko'z yoshlaridan qaltiragan tovush bilan:

– Yo'q, yo'q, – dedi.

– U mening yonimda o'shani mazurkaga taklif qildi, – dedi Nordston, Kitining u bilan o'shaning kimligini fahmlashini bilib. – «Ajabo, siz knyajna Shcherbatskaya bilan tushmaysizmi?» dedi o'sha.

– Ax, menga baribir! – deb javob qildi Kiti.

Kitining ahvoriga o'zidan bo'lak hech kim tushunmas edi, balki o'zi ham yaxshi ko'rgan bir kishisining taklifini kecha kechqurun rad qilganini, faqat boshqa birovga ishongani uchungina rad qilganini hech kim bilmasdi.

Grafinya Nordston Korsunskiy bilan mazurkaga tushgan edi, hozir uni topib, Kitini raqsga taklif qilish kerakligini buyurdi.

Kiti o'z jufti bilan eng oldinda raqs qildi, shuning uchun baxtiga, gapirish zahmatidan qutulib qoldi, chunki Korsunskiy u yon-bu yonga yugurib, o'yinni tartibga solish bilan band bo'ldi. Vronskiy Anna bilan qariyb uning ro'parasida o'tirardi. Kiti o'tkir ko'zlari bilan ularni uzoqdan ham, davrada to'qnash kelgan paytlarida yaqindan ham ko'rib turar, qancha ko'p ko'rsa, baxtiqaro bo'lganiga shuncha ishonchi ortib borardi. Kiti shu odam to'la zalda ular o'zlarini tanho sezayotganlarini ham ko'rib turar edi. Shuningdek, Vronskiyning hamisha irodali, qat'iy, ifodali chehrasida gunoh qilib qo'ygan aqlli it yuzidagi ifodaga o'xshagan sarosimalik va itoatkorlik borligini ko'rish kishini hayron qilardi.

Anna jilmayar, bu jilmayish darhol Vronskiyning chehrasida o'z aksini topardi. Anna o'yga tolsa, u ham jiddiy bo'lib qolardi. Al-laqanday g'ayritabiiy bir kuch Kitining ko'zlarini Annaning yuziga qarashga majbur qilardi. Anna shu oddiy, qora ko'ylagida juda go'zal edi. Bilaguzuklar taqilgan momiq bilaklari go'zal, marvarid shodasi taqilgan bo'yni go'zal, to'zg'ib ketgan sochlarining jingalak tolalari go'zal, jajji oyoq va qo'llarining latif, mayin harakatlari go'zal, yashnab turgan xushro'y yuzi go'zal edi. Lekin uning bu go'zalligi mudhish, unda allaqanday bag'ritoshlik bor edi.

Kiti avvalgidan ham ortiqroq bir havas bilan Annani tomosha qilar, borgan sari alam o'tida yonardi. Kiti o'zini oyoq ostida qolgandek his qilar, bu uning yuzidan ko'rinib turardi. Mazurkaga tushib turgan mahallari to'qnash kelganda, Vronskiy uni ko'rib darrov taniyolmadi – Kiti shu qadar o'zgartgan edi.

Vronskiy shunda bir narsa deyish uchun Kitiga:

– Ajoyib bal! – degan edi Kiti:

– Ha, – deb javob qildi.

Mazurkaning o'rtasida Anna Korsunskiy o'ylab chiqargan murakkab o'yinni takrorlash uchun davraning o'rtasiga chiqdi-da, ikki kavalerni tanlab, yoniga bir xonim bilan Kitini chaqirdi. Kiti Annaga hadiksirab qarab bordi. Anna esa unga ko'zlarini suzib qaradi, keyin qo'lini qisib, kulimsirab qo'ydi. Lekin bu kulimsirashga Kitining yuzi faqat alam va hayrat ifodasi bilangina javob qilganini sezib, yuzini teskari o'girib oldi, keyin yonidagi xonim bilan chaqchaqlashib gaplasha boshladi.

«Ha, unda allaqanday begona, iblisona bir go'zallik bor», dedi Kiti o'ziga.

Anna kechki ovqatga qolishni xohlamagan edi, uy egasi yalina boshladi.

Korsunskiy Annaning yalang'och qo'lini fragining yengi tagiga ola turib:

– Qoling-ey, Anna Arkadevna, – dedi. – Kotilon o'yini to'g'risida shunday bir fikr keldi! Un bijou!¹

Shunday keyin u Annani qiziqtirish uchun sekin-sekin qilpanglay boshladi. Uy egasi ma'qullab kulimsirardi.

– Yo'q, qolmayman, – dedi Anna jilmayib, lekin uning jilmayishiga qaramay, Korsunskiy bilan uy egasi uning qat'iy ohangda aytgan javobidan qolmasligini angladi.

Anna yonida turgan Vronskiyga ko'z tashlab:

– Yo'q, Moskvada, bir o'zingizning balingizda shuncha ko'p o'yinga tushdimki, qish bo'yi Peterburgda bunchalik ham tushmangandim, – dedi. – Yo'lga chiqishdan oldin dam olishim kerak.

Vronskiy:

– Albatta, ertaga ketmoqchimisiz? – deb so'ragandi, Anna uning shu savolni berishga jasorat qilganidan taajjublanayotgandek:

– Ha, ketmoqchiman, – deb javob berdi; lekin bu so'zlarni aytib turganda ko'zlarida porlagan, o'ynab turgan nur va tabassum Vronskiyini o'tday yondirdi.

Anna Arkadevna kechki ovqatga qolmay, jo'nab ketdi.

XXIV

Levin Shcherbatskiylarnikidan chiqqandan so'ng akasining oldiga piyoda ketayotib: «Ha, menda odamlarni jirkantiradigan bir narsa bor, – deb o'ylardi. – Shuning uchun boshqa odamlarga manzur bo'lmayman. Buni g'urur deyishadi. Yo'q, menda g'urur ham yo'q. Agar menda g'urur bo'lganda, o'zimni shu ahvolga solib qo'ymasdim». Shundan keyin u Vronskiyini, o'zi shu oqshom tushgan mudhish ahvolga, ehtimol, hech mahal tushmagan baxtli, muloyim, aqlli va og'ir tabiatli Vronskiyini ko'z oldiga keltirdi. «To'g'ri, Kiti uni tanlashi kerak edi. Mutlaqo shunday, mening hech kimdan va hech narsadan shikoyat qilishga haqim yo'q. Ayb o'zimda. U o'z hayotini meniki bilan birlashtirar deb o'ylashga qanday haqim bor edi? Men kimman? Nima degan odamman? Hech

¹ Ajoyib (*frans.*).

kimga va hech nimaga yaramagan bir shoʻrlik odamman». U shu fikrlardan keyin Nikolay akasini xotirladi-yu, quvonib, shu xotiralar ustida toʻxtadi. «Dunyodagi hamma narsa rasvo, jirkanch deb aytganda, akam nohaqmi? Biz Nikolay akamni qoraladik, hozir ham qoralaymiz, ammo shu insofdanmi? Albatta, uni yirtiq poʻstinda va mast holda koʻrgan Prokofiy nuqtayi nazari bilan qaralsa, u nafratga loyiq kishi, lekin men uni boshqacha odam deb bilaman. Men uning qalbini va bir-birimizga oʻxshashimizni bilaman. Men boʻlsam uni qidirib topish oʻrniga, tushlik qilgani bordim, keyin bu uyga keldim». Levin koʻcha chirogʻiga yaqin keldi-da, hamyonidan akasining manzilini chiqarib oʻqidi, keyin izvosh chaqirdi. Levin Nikolay akasinikiga yetguncha, uning hayotida sodir boʻlgan oʻziga maʼlum butun hodisalarni shu uzun yoʻl boʻyi oʻylab, xayolida jonlantirib bordi. U akasining universitetda, universitetdan soʻng yana bir yil davomida oʻrtoqlarining masxara qilishlariga qaramay, diniy marosimlarga qattiq rioya qilganini, roʻza tutganini, har qanday halovatdan, ayniqsa, ayollardan qochib, zohid singari hayot kechirganini, keyin esa birdaniga oʻzgarib, eng rasvo odamlar bilan osh-qatiq boʻlganini, borib turgan buzuq yoʻlga kirib ketganini xotirladi. Keyin qishloqdan bitta bolani oʻgʻil qilib olib tarbiyalagani va jahl ustida uni qattiq urib, mayib qilib qoʻygani uchun ustidan jinoiy ish qoʻzgʻatilganini ham esladi. Soʻngra bir tirriq qartaboz bilan boʻlgan hodisani ham yodiga tushirdi: akasi shu tirriq qartabozga pul yutqazib, veksels bergan va meni aldadi, deb yana oʻzi undan shikoyat qilgan edi. (Sergey Ivanovich toʻlab qoʻygan pul shu edi.) Innaykeyin, odamlar bilan mushtlashib politsiya mahkamasida bir kecha yotib chiqqanini ham esladi. Soʻngra onasining mulkidan tegishimni boʻlib bermadi, degan daʼvoda akasi Sergey Ivanovich bilan uyalmay-netmay sudlashganini xotirladi, nihoyat, Gʻarbiy oʻlkaga xizmat qilgani borganda, u yerda starshinani urgani uchun sudga tushganini ham esladi... Bu narsalarning hammasi mudhish bir rasvogarchilikdan iborat boʻlsa ham, bu narsalar Konstantinga Nikolay Levinni tanimagan, uning boshidan kechgan voqealardan xabardor boʻlmagan va qalbini bilmagan kishilar tasavvur qilganday rasvo boʻlib koʻrinmas edi.

Levin Nikolay akasining xudojoʻylik, taqvodorlik, darveshlik qilib yurgan va cherkov ibodatlarini bajo keltirgan kezlarida, din-

dan yordam kutib, ehtirosli tabiatini jilovlaydigan tavfiq tilab yurgan paytlarida uni biron kishi qo'llab-quvvatlamadi, balki hamma, uning o'zi ham akasidan kuldi, jig'iga tegishdi, uni payg'ambar deb, monax deb atashdi, bu malomatlarga chidayolmay, toqati toq bo'lib, buzuq yo'lga kirib ketganda esa unga hech kim yordam qilmadi, balki dahshat va nafrat bilan yuzini o'girib oldi.

Levin akasi Nikolayning hayoti bema'ni bo'lishidan qat'iy nazar, o'zidan nafratlanuvchi odamlardan gunohi ko'p emasligini sezardi. U jo'shqin fe'l-atvor va noqis aql bilan tug'ilgani uchun aybdor emas edi. Ammo u hamisha yaxshi odam bo'lishni orzu etardi. Levin soat o'n birda, manzilda ko'rsatilgan musofirxonaga yetib kelganda: «Yuragimdagi bor gapni aytaman, uniyam yuragidagi dardini gapirishga majbur qilaman, uni yaxshi ko'rganimni, shuning uchun ham dardlarini tushunganimni isbot qilaman», deb ahd qildi.

Levinning savoliga darbon:

– O'n ikkinchi xonayam, o'n uchinchi xonayam tepada, – deb javob qildi.

– Uydalarmi?

– Uyda bo'lsalar kerak.

O'n ikkinchi xonaning eshigi qiya ochiq edi, ichkaridan tushib turgan yorug'da sassiq, arzon tamaki tutuni burqsiq chiqar, Levinga notanish bir ovoz ham eshitilar edi; ammo Levin akasining shu yerdaligini darhol payqadi, u Nikolayning yo'talini eshitdi.

Levin eshikdan kirganda, notanish ovoz:

– Hamma gap ishni yaxshi tushunib, ongli ravishda olib borilishiga bog'liq, – derdi.

Konstantin Levin eshikdan ichkariga mo'ralab, gapirayotgan odamning belburma kamzul kiygan, sochlari o'siq yosh kishi ekani, divanda esa yengsiz, yoqasiz jun ko'ylak kiygan sal cho'tir juvon o'tirganini ko'rdi. Akasi ko'rinmadi. Akasining shunday begona odamlar orasida yashashini ko'rib, Konstantinning yurak-bag'ri qonga to'ldi. Uning kirganini hech kim payqamadi, shuning uchun Konstantin kalishlarini yecha turib, belburma kamzulli janobning gapiga quloq sola boshladi. U allaqanday korxonaga to'g'risida gapirayotgan edi.

– Ey, padarlariga la’nat o’sha imtiyozli sinflarning! – dedi Nikolay yo’tal aralash. – Masha! Bizga ovqat opkel, innaykeyin, qolgan bo’lsa may keltir, qolmagan bo’lsa, oldirib kel.

Ayol o’rnidan turib dahlizga chiqdi-yu, u yerda Konstantinni ko’rdi.

– Nikolay Dmitrich, bu yerda bir janob kutib turibdilar, – dedi u. Nikolay Levinning:

– Kim kerak? – degan jahldor ovozi eshitildi.

Konstantin Levin yorug’ga kelib:

– Men, – deb javob berdi.

Nikolay yana ham battarroq jahl bilan savolini takrorladi:

– Ya’ni kim?

Nikolayning jadal o’rnidan turgani va bir nimaga tegib ketgani eshitildi, keyin Levin ro’parasida akasining nihoyatda tanish, lekin har holda xunuk va kasalmandligi bilan odamni hayratga soladigan zo’r, ozg’in, xiyol bukri gavdasini, javdiragan ko’zlarini ko’rdi.

Akasi bundan uch yil ilgariyidan, Konstantin Levin oxirgi marta ko’rgandagidan ham battarroq ozib ketgan edi. Kalta syurtuk kiyib olibdi. Shuning uchun qo’llari bilan yo’g’on suyaklari yana ham katta ko’rinardi. Sochlari siyraklashib, to’g’ri mo’ylovlari burungiday lablari ustida osilib, ko’zlari kirguvchiga burungiday soddalik bilan g’alati qarab turardi.

Nikolay ukasini tanib:

– O, Kostya! – deb yubordi ko’zlarida esa shodlik o’ti chaqnab ketdi. Lekin u ayni soniyada ichkarida o’tirgan yigit tomonga o’girilib qaradi-yu, bo’yinbog’ siqib, tomiri tortishayotganday bo’yni bilan boshini qimirlatib qo’ydi (uning bu harakati Konstantinga tanish edi), shunda ozg’in chehrasi butunlay boshqa, vahshiy, jafokash va keskin bir ifoda kasb etdi.

– Men sizgayam, Sergey Ivanovichgayam sizlarni tanimayman, tanishniyam istamayman, deb yozgandim. Senga nima, sizga nima kerak?

U Konstantin tasavvur qilganidan butunlay boshqacha edi. Konstantin Levin Nikolayni o’ylaganda uning fe’li yomonligini, ya’ni u bilan bo’ladigan munosabatni qiyinlashtiradigan xususiyatini unutgan edi, mana, hozir ham akasining yuzini, ayniqsa, tomiri tortishayot-

ganday boshini burib qarashini ko'rganda, bu narsalarning hammasini yana boshqatdan xotirladi.

– Men senga biron ish bilan kelganim yo'q, – dedi u hurkib. -- Bir ko'ray deb keldim, xolos.

Ukasining qo'rqib turib gapirgani Nikolayning ko'nglini yumshatdi, shekilli, lablari ucha boshladi.

– Ha, shunaqami? – dedi u. – Xo'p, ichkariga kir, o'tir. Ovqat yeysanmi? Masha, uch kishilik ovqat olib kel. Yo'q, to'xta. Bilasanmi, bu kim? – dedi ukasiga belburma kamzul kiygan janobga ishora qilib. – Bu kishi janob Kritskiy, Kiyevda orttirgan do'stim, juda ajoyib odam, uni, albatta, politsiya ta'qib etmoqda, chunki muttaha emas.

Nikolay shundan keyin o'z odatini qilib, xonadagilarning hammasiga bir-bir qarab chiqdi. Eshik og'zida turgan ayolning chiqishga otlanganini ko'rib: «To'xta deypman!» deb qichqirdi. Keyin hammaning yuziga bir-bir qarab, Konstantinga yaxshi ma'lum bo'lgan no'noqlik bilan Kritskiyning tarixini ukasiga pala-partish hikoya qila boshladi: kambag'al talabalarga yordam jamiyati tuzgani va yakshanba kunlari ishlaydigan maktab tashkil qilgani uchun universitetdan quvilganini, so'ngra xalq maktabiga o'qituvchi bo'lib kirgani va o'sha yerdan ham haydalganini, so'ngra nima uchundir sud qilganini aytib berdi.

Konstantin o'rta cho'kkan noqulay jimlikni buzish uchun:

– Kiyev universitetidanmisiz? – deb so'radi Kritskiydan.

Kritskiy tumtayib, jahl bilan:

– Ha, Kiyev universitetida edim, – dedi.

Nikolay Levin Kritskiyning so'zini bo'lib, Mashaga ishora qildi:

– Bu ayol esa mening umr yo'ldoshim, Marya Nikolayevna. Men buni islovatxonadan olib chiqdim, – shu so'zlarni aytayotganda bo'yni qalt-qalt qilib ketdi. – Lekin uni yaxshi ko'raman, hurmat ham qilaman, shuning uchun men bilan tanish-bilishlik qilishni xohlaganlarning hammasidan buni yaxshi ko'rishni, hurmat qilishni so'rayman, – deb ilova qildi ovozi ko'tarib va qosh-qovog'ini solib turib. – Bu menga baribir xotin o'rmda. Shunday qilib, kim bilan ko'rishganingni bilib qo'y. Agar o'zingni bizga ep ko'rmaydigan bo'lsang, to'rt tomoning qibla.

Shundan keyin ko'zlari yana savol nazari bilan hammaga birmabir qarab chiqdi.

- Nega ep ko'rmas ekanman, hayronman.
– Xo'p, bo'lmasa, ayt, Masha, ovqat keltirishsin: uch kishilik, sharob may... yo'q, to'xta... yo'q, kerakmas... boraver.

XXV

– Gap shunday, – deb so'zini davom ettirdi Nikolay Levin; zo'riqqanidan peshonasi tirishib, yuzining etlari uchar edi, aftidan, nima deyarini ham, nima qilarini ham bilmay boshi qotib qolgan edi. – Ana bularni ko'r... – dedi u xonaning bir burchagidagi chilvir bilan bog'langan allaqanday temir g'o'lalarni ko'rsatib. – Ko'rdingmi bularni? Biz hozir kirishayotgan yangi ishning boshi bu. Bu ishlab chiqarish artelidan iborat...

Uning so'zlari Konstantinning qulog'iga kirmas edi. U akasining kasal, zahil yuziga tez-tez qarar, qaragan sari yana ham ortiqroq rahmi kelar va akasining artel to'g'risidagi gaplarini eshitishga o'zini majbur qilolmay qiynalar edi. Bu artel akasining o'z-o'ziga bo'lgan nafratidan qutulishi uchun bir langar ekanini Konstantin ko'rib turardi. Nikolay Levin hamon gapirar edi:

– Bilasanki, kapital mehnatkashni ezadi. Bizda mehnatning butun og'irligini mehnatkashlar, mujiklar o'z yelkalarida ko'tarib keladilar, ular shunday ahvolga tushirib qo'yilganki, har qancha mehnat qilishsayam, baribir, hayvonga o'xshab qolaveradilar, og'ir ahvoldan qutulolmaydilar, o'z ahvollarini yaxshilash, ko'proq bo'sh vaqt topish va buning natijasida, ilm-ma'rifat olish imkoniyati, mehnat haqining butun foydasi, ya'ni mehnatkashlarga to'lanadigan haqdan qolgani kapitalistlar tomonidan olib qo'yiladi. Jamiyat ham shunday qurilganki, mehnatkashlar qancha ko'p ish qilishsa, savdogarlar, yer egalari shuncha ko'p daromad ko'rishadi, ular esa hamisha ish hayvoni bo'lib qolaverishadi. Shuning uchun bu tartibni o'zgartirish kerak, – deb Nikolay so'zini tugatdi-da, ukasiga savol nazari bilan qaradi.

Konstantin akasining yonoqlari osti qip-qizarib ketgan betiga tikilib turib:

– Ha, albatta, – dedi.

– Shuning uchun, mana, biz chilangarlik arteli tuzyapmiz, bunda mahsulot ham, foyda xam, asosiy ishlab chiqarish qurollari ham – hammasi o'rtada bo'ladi.

– Artel qayerda bo‘ladi? – deb so‘radi Konstantin Levin.

– Qozon guberniyasidagi Vozdrema qishlog‘ida.

– Nima uchun qishloqda? Qishloqda, menimcha, busiz ham ish ko‘p. Qishloqda chilangarlik artelining nima keragi bor?

– Shuning uchun keragi borki, mujiklar ilgari qanday qul bo‘lib kelishgan bo‘lsa, hozir ham shu ahvoldalar, shu sababli ularni qullikdan chiqarishmoqchi bo‘lishgani siz bilan Sergey Ivanovichga yoqmaydi! – dedi Nikolay Levin ukasining e‘tiroziga jahli chiqib.

Konstantin Levin bu orada shu qorong‘i, iflos xonaga ko‘z yugurtirib, xo‘rsinib qo‘ydi. Bu xo‘rsinish akasining yana ham jig‘iga tekkanday bo‘ldi.

– Siz bilan Sergey Ivanovichning zodagonlarcha qarashlaringizni bilaman. U butun aqlining kuchini mavjud adolatsizlikni oqlashga sarf qiladi, buni bilaman.

– Yo‘q, nima uchun Sergey Ivanovichga til tegizasan? – dedi Konstantin kulimsirab.

– Sergey Ivanovichga! Shuning uchunki, – deb birdan qichqirib yubordi Nikolay Levin Sergey Ivanovichning nomini eshitib. – Shuning uchunki... e, qo‘y, nima derdim? Faqat bir yog‘i bor... Xo‘sh, mening oldimga nima uchun kelding? Sen bu narsalarga nafrat ko‘zi bilan qarayapsan, bor, jo‘nab qol, oq yo‘l bo‘lsin, jo‘na! – deb stuldan turayotib qichqirdi: – Jo‘na, jo‘nab qol!

Konstantin cho‘chib:

– Tirnoqchayam nafrat ko‘zi bilan qaramayman, – dedi. – Hatto bu haqda gap talashib o‘tirmayman ham.

Shu on Marya Nikolayevna qaytib keldi. Nikolay Levin unga xo‘mrayib qarab qo‘ydi. Masha shoshib Nikolayning yoniga keldida, qulog‘iga bir nima deb pichirladi.

Nikolay Levin o‘zini bosib, og‘ir-og‘ir nafas olib turib:

– Men kasalman, asabiy bo‘lib qolganman, – dedi, – sen bo‘lsang menga Sergey Ivanovichning yozgan maqolasini gapiryapsan. Bu shunday bema‘ni narsaki, boshqalarniyam, o‘ziniyam aldashdan iborat qip-qizil yolg‘on. Adolatning nimaligini bilmagan kishi adolat haqida nimayam yozishi mumkin? – Keyin u yana stol yoniga o‘tirdi-da, polning yarmigacha sochilib yotgan papiroslarni bir chetga sura-sura bo‘shata turib, Kritskiyga murojaat qildi: – Uning maqolasini o‘qiganmisiz?

Kritskiy gapga aralashishni xohlamadi, shekilli, qovog'ini osiltirib:

– O'qiganim yo'q, – deb qo'ya qolgan edi, Nikolay Levin jahl aralash:

– Nima uchun? – deb so'radi.

– Shuning uchunki, bekorga vaqt sarflash munosib ko'rmadim.

– Ya'ni, shoshmang, vaqtingizning bekorga ketishini qayerdan bilasiz? Bu maqola ko'p kishilar uchun og'ir, ya'ni ularning saviyasidan baland. Menga kelganda, masala boshqa, men uning fikrlarini astaridan avrasigacha ko'rib turaman, innaykeyin, buning nima uchun zaifliginiyam bilaman.

Hamma jim bo'ldi. Kritskiy o'rnidan sekin turib, qalpog'ini qo'liga oldi.

– Ovqatga qolmaysizmi? Mayli, xayr bo'lmasa. Ertaga chilangar bilan keling.

Kritskiy eshikdan chiqar-chiqmas Nikolay Levin kulimsirab ko'z qisdi.

– Buning ham ishlari chatoq, – dedi Nikolay, – ko'zim bor, ko'rib turibman-ku...

Lekin shu on Kritskiy uni eshikdan chaqirib qoldi, Nikolay Levin:

– Yana nima gap? – dedi-yu, uning oldiga, yo'lakka chiqdi. Konstantin Marya Nikolayevna bilan yolg'iz qolgandan so'ng:

– Akam bilan anchadan beri birga turasizmi? – deb so'radi.

– Bir yildan oshdi. Akangizning sog'liqlari juda yomon bo'lib qoldi. Ko'p ichadilar, – dedi Marya.

– Ya'ni, nima ichadi?

– Sharob ichadilar, ammo u kishiga zararli.

– Nahotki, ko'p ichsa? – deb shivirladi Levin.

– Ha, – dedi u eshik tomonga alanglab; ostonada Nikolay ko'rindi.

Nikolay qosh-qovog'ini solib, javdiragan ko'zlarini biridan olib, ikkinchisiga tikib turib:

– Nima to'g'risida gapirishayotuvdinglar? – dedi. – Nima to'g'risida?

Konstantin xijolat bo'lib:

– Hech nima to'g'risida gaplashayotganimiz yo'q, – deb javob berdi.

– Ha, aytginglar yo‘qmi, mayli, aytmanglar. Lekin sen Masha bilan bekor gaplashyapsan, Masha ko‘cha qizi, sen bo‘lsang beksan, – dedi Nikolay, yana bo‘ynining tomirlari tortishdi. Keyin ovozini ko‘tarib, yana gapira boshladi: – Ko‘rib turibman, hamma gapga tushunasana, aqling yetadi, shuning uchun adashganimga achinib qaraysan.

Marya Nikolayevna unga yaqin kelib, yana:

– Nikolay Dmitrich, Nikolay Dmitrich, – deb pichirladi.

– Ha, xo‘p, xo‘p!.. Iya, ovqat nima bo‘ldi? Ha, mana, olib keldi, – dedi Nikolay patnisda ovqat ko‘tarib kirgan yugurdakni ko‘rib. – Bu yoqqa, manavi yoqqa qo‘y, – dedi-yu, jahl bilan darhol sharobni olib qadahga quydi-da, ochko‘zlik bilan simirib yubordi. Keyin kayfi chog‘ bo‘lib ukasiga taklif qildi: – Ich, xohlaysanmi? Xayr, endi Sergey Ivanich to‘g‘risida gapirishni bas qilaylik. Sen bilan ko‘rishganimdan xursandman. Har nima bo‘lgandayam begona emas-miz. Hay, ichsang-chi. Qani, o‘zingdan gapir, nima qilyapsan? – deb bir tishlam nonni ochko‘zlik bilan chaynab, ikkinchi qadahni to‘ldira turib so‘zini davom ettirdi. – Turmush qalay?

Konstantin akasining ochko‘zlik bilan yeb-ichayotganiga dahshat bilan qarab va o‘zining diqqat qilayotganini yashirishga tirishib:

– Burungiday, yana qishloqda yolg‘iz turaman, xo‘jalikka qarayman, – dedi.

– Nimaga uylanmaysan?

– Nasib bo‘lmayapti, – deb javob qildi Konstantin qizarib.

– Nega endi? Men tamom bo‘lgan odamman! Hayotimni rasvo qildim. Men buni aytganman, yana aytaman, agar tegishimni menga zarur vaqtda berishgan bo‘lganda, hayotim butunlay boshqacha bo‘lardi.

Konstantin Dmitrich gapni boshqa yoqqa burib yuborishga tirishib:

– Bilasanmi, Vanyushkang Pokrovskiydagi idoramda ishlayapti, – dedi.

Nikolayning bo‘yin tomirlari tortishdi, u biroz o‘ylanib turgandan so‘ng:

– Qani, gapir, Pokrovskiyda nima gaplar bor? – dedi. – Uymiz, oqqayinlar, darsxonamiz turibdimi? Filipp bog‘bon, nahotki, haliyam tirik bo‘lsa? Eh, shiypon bilan divan hech esimdan chiqmaydi-da! Ha-da, uyda hech nimani o‘zgartirma, tezroq xotin

ol-u, uyni yana eski holiga keltir. Xotining yaxshi bo'lsa, oldingga borib turaman.

– Hozir ham borib turaver, – dedi Konstantin. – Juda yaxshi yashardik-da!

– Agar Sergey Ivanichga ro'para kelmasligimni bilsam, oldingga borib turardim.

– Ro'para kelmaysan. Men undan butunlay ayri, mustaqil yashayman.

– Shunaqa-yu, har nima bo'lgandayam, sen ikkovimizdan bittamizni deyishing kerak, – dedi Nikolay ukasining ko'zlariga hadiksirab qarab. Uning hadiksirashi Konstantinga ta'sir qildi.

– Bu haqda mening ko'nglimni bilmoqchi bo'lsang, xo'p, aytaman: Sergey Ivanich bilan o'rtangizda chiqqan janjaldagi hech biringizning tarafingizni olmayman. Ikkalangiz ham nohaqsiz. Tashqi tomondan qaralsa, sen nohaqsan, ko'proq ichki tomondan – u.

– A, a! Anglabsan-da, anglabsan-da? – deb Nikolay quvongani-dan qichqirib yubordi.

– Lekin men, agar bilging kelsa, sen bilan bo'lgan do'stligimni shaxsan ko'proq qadrlayman, chunki...

– Nima uchun, nima uchun?

Konstantin bu do'stlikni Nikolay baxtsiz bo'lgani va unga do'stlik kerakligi uchun qadrlashini aytolmadi. Lekin Nikolay ukasining xuddi shu narsani aytmoqchi bo'lganini tushundi-yu, xo'mrayib, yana sharobga qo'l cho'zdi.

Marya Nikolayevna semiz, yalang'och qo'lini surohiga uzatib:

– Bas, Nikolay Dmitrich! – dedi.

– Qo'yvor! Xira bo'lma! Kaltak yeysan! – deb qichqirdi Nikolay.

Marya Nikolayevna ma'sum, mehribon bir tabassum bilan jilmaydi, bu tabassum Nikolayga ta'sir etdi, shundan keyin Masha sharobni olib qo'ydi.

– Nima, sen Mashaning hech nimaga aqli yetmaydi deb o'ylaysanmi? – dedi Nikolay. – Bu narsalarga hammamizdan ham yaxshiroq tushunadi. To'g'ri-a, unda allaqanday dilbarlik, joziba bor.

Konstantin gap uchun:

– Ilgari hech Moskvada bo'lmaganmidingiz? – dedi Marya Nikolayevnaga.

– Ey, uni sizsirama. Bunday narsalardan qo‘rqadi u. Islovotxonadan ketmoqchi bo‘lgani uchun sud qilishganda, uni sudya sizsiragan, xolos, undan bo‘lak hech kim sizsiraganmas. Ey Xudo, dunyoda naqadar bema’ni narsalar bo‘ladi-ya! – deb qo‘qqisdan qichqirib yubordi. – Bu yangi muassasalar, yarashtiruvchi sudyalalar, zemstvolalar – qanday masxarabozlig-a bular!

Shundan keyin u yangi muassasalar bilan to‘qnashganini hikoya qila boshladi.

Konstantin Levin Nikolayning so‘zlariga quloq solar va barcha jamoat muassasalarining ahamiyatini inkor qiluvchi akasining fikriga qo‘shilganiga va o‘zi ham ko‘p vaqt shunday fikrlarni aytganiga qaramay, endi bu narsalarni akasining og‘zidan eshitayotgani g‘ashini keltirar edi.

– U dunyoda hammasiga tushunib olamiz, – deb hazillashdi u.

– U dunyoda?! Eh, o‘lguday yomon ko‘raman-da u dunyoni! Yomon ko‘raman, – dedi Nikolay qinidan chiqayozgan qo‘rquv to‘la ko‘zlarini ukasining yuziga tikib. – Ana shu boshqalarning ham, o‘zingning ham qabih, chigal hayotingdan umrbod qutulib ketsang, yaxshi bo‘ladigandek ko‘rinadi-yu, lekin men bo‘lsam o‘limdan qo‘rqaman, juda qo‘rqaman. – U seskanib ketdi. – Kel, biron narsa ich. Shampan vinosi xohlaysanmi? Yo biron yoqqa bo‘raylikmi? Bo‘ldi, lo‘lilarning oldiga boramiz! Bilsanmi, lo‘lilarni, rus qo‘shiqlarini juda yaxshi ko‘rib qoldim.

Uning tili tutila boshladi, shundan keyin kalavaning uchini yo‘qotib qo‘ydi. Konstantin mast bo‘lib uchib qolgan Nikolayni hech qayoqqa bormaslikka ko‘ndirib, Mashaning yordami bilan joyiga yotqizdi.

Masha muhtoj bo‘lib qolsalar, Konstantinga xat yozishni va Nikolay Levinni ukasinikiga borib turishga ko‘ndirishni va‘da qildi.

XXVI

Konstantin Levin ertalab Moskvadan jo‘nab, uyiga kech kirganda yetib keldi. Yo‘lda vagonidagi qo‘shnilari bilan siyosat, yangi temiryo‘llar to‘g‘risida gaplashib bordi. Xuddi Moskvadagi singari har xil fikrlar bilan miyasi g‘ovlagani, o‘zidan noroziligi va nimadandir uyalayotgani ko‘nglini g‘ash qilardi, lekin o‘z stansiyasi-

da vagondan chiqib, chakmonining yoqasini ko'tarib olgan g'ilay kучeri Ignatni taniganda, stansiya derazalaridan tushib turgan xira yorug'da o'zining gilam to'shalgan chanasini, dumlari tugilgan va jabduq urilib, taqinchoqlari osilgan, turli bezaklar bilan yasatilgan otlarini ko'rganda, chanaga joylashayotganlarida kучeri Ignat qishloq yangiliklarini, qishloqqa yollovchi kelganini va Pava degan sigiri tuqqanini aytib berganda, u g'ovlagan miyasi asta-sekin joyiga tushib, xijilligi va o'zidan noroziligi yo'qolib borayotganini sezdi. U Ignatni va otlarini ko'rishi bilanoq o'zini shunday seza boshladi, lekin Ignat keltirgan kattakon pochapo'stinni kiyib, chanada o'ranib olib yo'lga tushganda va bir mahallar minilib kelib, keyinchalik maddordan ketgach, chana yoniga qo'shiladigan, hamon o'ynoqiligini qo'ymagan Don zotli otidan ko'zlarini uzmay qishloqda beradigan buyruq va topshiriqlarini o'ylay boshlaganda, ro'y bergan hodisani butunlay boshqacha tushuna boshladi. U ilgari o'zini qanday his etsa, shunday his qilar va boshqacha bo'lishini istamas edi. U faqat ilgari yoxshiroq bo'lishni xohlar edi. Avvalo, u shu kundan boshlab, uylanish orqasida erishadigan g'ayrioddiy baxtdan ortiq umidvor bo'lmaslikka va natijada hozirgi hayotidan bunday noshukurchilik qilmaslikka qaror etdi. Ikkinchidan, Kitiga uylanishni taklif qilmoqchi bo'lgan vaqtda vujudini qamrab olgan, hozir esa esiga tushganda azob beradigan o'shanday iflos ehtiroslarga berilishga minba'd yo'l qo'ymaydi. So'ngra Nikolay akasini eslab, uni hech vaqt yodidan chiqarmaslikka, holidan xabar olib turishga va ahvoli yomonlashdi deguncha darhol yordam berish uchun tayyor bo'lishga ahd qildi. Tezda yordam berishga to'g'ri keladi, buni Konstantin sezadi. Akasining kommunizm haqidagi gaplariga u mahal juda yengiltaklik bilan qaragan edi, mana endi u gaplar Konstantinni o'ylatib qo'ydi. U iqtisodiy sharoitning o'zgartirilishini bema'nilik deb hisoblasa ham, xalq qashshoq ekan, o'zining juda to'q yashashini hamisha insofsizlik deb bilardi, u ilgari ko'p ishlardi-yu, lekin hashamatli hayot kechirmasdi, mana endi o'zini haqli deb sezish uchun yana ham ko'proq ishlashga, zeb-ziyatga esa yana ham kamroq berilishga qaror qildi. Bu ahd-u paymonlarga erishish shu qadar oson ko'rinardiki, butun yo'lni eng shirin xayollar ichida o'tkazdi. Yangi, yaxshi hayot kechirish to'g'risidagi shirin orzular bilan kechqurun soat sakkizdan oshganda uyga yetib keldi.

Konstantinning uyida ro'zg'or ishlarini boshqaruvchi qari enaga Agafya Mixaylovnaning xonasidan uy sahnidagi qor ustiga yorug' tushib turardi. Enaga uyg'oq edi. Enaga Kuzmani uyg'otgan edi, u uyqusi ochilmagan holda zinapoyaga yalang oyoq yugurib chiqdi. Urg'ochi tozi it Laska ham o'rnidan turib yugurdi va yo'lda Kuzmani urib yiqitayozdi; Laska g'inshir, egasining oyoqlariga surkalar, oldingi oyoqlarini ko'tarib uning ko'ksiga qo'yishni xohlar, lekin hayiqar edi.

– Juda tez qaytdingiz, otaxon, – dedi Agafya Mixaylovna.

Konstantin unga:

– Zerikib qoldim, Agafya Mixaylovna. Mehmondorchilikka bosh yaxshi-yu, lekin uyda bo'lish yanayam yaxshiroq, – deb javob qildi-da, kabinetiga o'tib ketdi.

Olib kirilgan shamdan kabinet sekin-sekin yorishdi. Tanish buyumlar: kiyik shoxlari, kitob javonlari, pastki eshikchasi, allaqachon tuzatilishi kerak bo'lgan pechka oynasi, otasidan qolgan divan, katta stol ustida ochiq qolgan kitob, siniq kuldon, o'z qo'li bilan yozilgan daftar ko'zga tashlandi. U shu narsalarning hammasini ko'rganda, yo'l bo'yi orzu qilib kelgan yangi hayotni qurish mumkinligiga ko'nglida shubha uyg'ondi. Umrining butun bu yo'ldoshlari uni o'rab olib, xuddi tilga kirganday bo'lardi: «Yo'q, bizdan boshingni ham olib ketolmaysan, boshqacha ham bo'lolmaysan, ilgari qanday bo'lsang, yana o'shandayligingcha qolasan, shubhalar ichida o'rtanasan, o'z-o'zingdan hamisha norozi bo'lib yurasan, tuzalishga behuda harakatlarni qilasan, yana tushkunlik ichida qolasan, senga nasib bo'lmagan va bo'lmaydigan baxtga umrbod intizor bo'lib o'tasan».

Lekin bu gaplarni buyumlar gapirardi, qalbida esa boshqa bir ovoz: o'tmishga bo'ysunish kerak emas, odam o'zini har qanday ko'yga solishi mumkin, derdi. Konstantin shu ovozga quloq solib turib, burchakdagi har biri bir pudli ikkita qadoq tosh yoniga bordida, tetiklanib olish uchun toshlarni gimnastika usulida ko'tarib-tushira boshladi. Shu vaqt eshik orqasidan oyoq tovushi keldi, Konstantin toshlarni darrov yerga qo'ydi.

Ishboshchisi kirib, Xudoga shukur, hamma narsa joyida, lekin yangi sushilkadagi grechixalar biroz kuydi, deb xabar qildi. Bu xabar Levinning ta'bini xira qildi. Yangi sushilka qisman Levin tomonidan o'ylab chiqarilgan va o'z qo'li bilan qurilgan edi. Ishboshchi bu

sushilkaga hamma vaqt qarshi edi, shuning uchun grechixaning biroz kuyganini yashirin bir shodlik bilan e'lon qildi. Levin bo'lsa o'zi yuz martalab pishiqtirgan ehtiyot choralari ko'rilmagani uchungina grechixa biroz kuyib qolganiga qattiq ishonar edi. Levinga alam qilib, ishboshchini koyib berdi. Lekin bu xabarlar ichida bit-tasi muhim va quvonchli edi: sigirlar ko'rgazmasidan sotib olingan eng yaxshi, qimmatbaho Pava tuqqan edi.

– Kuzma, pochapo'stinni keltir. Siz chiqib ayting, chiroq olivolishtin, buzoqni ko'rib kelay, – dedi u ishboshchiga.

Zotdor sigirlar boqiladigan molxona uyning orqasida edi. Uy sahnidan, nastarin yonida uyilib yotgan qorlar yonidan o'tib molxonaga keldi. Molxonaning muzlab qolgan eshigi ochilganda, ichkaridan go'ng hidi aralash iliq bug' dimoqqa urildi. Sigirlar esa odatlanilmagan chiroq yorug'idan ajablanib, toza xashak ustida qimirlay boshlashdi. Golland sigirning keng, silliq ola-bula sag'ri yorug'da yilt etib ko'rindi. Burgut nomli buqa labida halqasi bilan yotgan edi, bir turmoqchi ham bo'ldi-yu, lekin fikridan qaytib, yonidan o'tib ketishayotganda bir-ikki marta xo'rsinib qo'ydi. Suv ayg'iri singari yo'g'on, jiyron tusli go'zal Pava ichkari kirganlarga orqasini o'girib bolasini to'sib oldi-da, uni hidlay boshladi.

Levin yaqin borib Pavaning u yoq-bu yog'ini qaradi, keyin olagizil buzoqni ko'tarib, oyoqqa turg'izib oldi. Pava bezovta bo'lib ma'ragan edi, Levin buzoqni yaqin keltirib qo'ygandan so'ng tinchib, chuqur xo'rsindi-yu, bolasini g'udur tili bilan yalay boshladi. Buzoq esa emgisi kelib, tumshug'i bilan onasining chotiga turtar, nuqul dumini o'ynatar edi.

Levin buzoqning u yoq-bu yog'ini ko'rib:

– Manavi yoqqa tut, Fyodor, chiroqni bu yoqqa tut, – derdi. – Onasining o'zginasi! Rangi otasinikiga o'xshagani chakki bo'libdi. Juda soz. Gavadasi uzun, yeliniyam katta bo'ladigan ko'rinadi. Vasiliy Fyodorovich, yaxshi-a? – dedi u ishboshchiga buzoqning yaxshiligidan ko'nglida tug'ilgan suyunch ta'siridan uning grechixa xususidagi aybini esidan chiqarib.

– Yomon bo'lib kimga tortardi? Siz ketgan kunning ertasiga pudratchi Semyon keldi. U bilan ishni pishirish kerak, Konstantin Dmitrich, – dedi ishboshchi. – Moshina masalasini ilgari aytuvdim sizga.

Birgina shu masalaning o'zi Levinning diqqatini katta va murakkab xo'jalikning barcha ikir-chikirlariga jalb etdi, shuning uchun molxonadan to'g'ri idoraga borib, u yerda ishboshchisi va pudratchi Semyon bilan gaplashdi-da, uyiga qaytib kelib, to'g'ri tepadagi mehmonxonasiga chiqib ketdi.

XXVII

Levinning uyi katta, qadimiy uy edi; garchi u yolg'iz tursa ham, butun uyni o'zi egallab, hamma pechkalarini yoqtirardi. Bu narsaning bema'ni ekanini, hatto yaxshi emasligini va hozirgi yangi rejalariga zidligini bilsa hamki, bu uy uning uchun butun bir olam edi. Levinning ota-onasi shu yerda yashab, shu yerda vafot etgan edi. Ota-onasi shunday bir hayot kechirgan ediki, ularning hayoti Levin uchun kamolot cho'qqisi bo'lib ko'rinar va xotini hamda oilasi bilan shunday hayot kechirishni orzu qilib kelardi.

Levin onasini es-es bilardi. Onasi haqidagi tasavvuri uning uchun muqaddas xotira edi, shuning uchun oladigan xotini uning xayolida zavjalikning muqaddas va go'zal timsoli bo'lib ko'ringan onasini takrorlashi kerak edi.

U ayol kishiga bo'lgan muhabbatni nikohdan ayri holda tasavvur qilolmasdi, balki eng oldin oilani, keyin esa u bilan oila quradigan xotinni tasavvur etardi. Shuning uchun Levinning uylanish to'g'risidagi tushunchasi uylanishga kundalik oddiy va maishiy ishlardan biri deb qaraydigan aksar tanishlarining tushunchasiga o'xshamas edi, Levin uchun esa bu narsa hayotning eng muhim masalasi bo'lib, hayotning baxt-saodati shunga bog'liq edi. Mana endi bundan voz kechish kerak!

U hamisha choy ichadigan kichkina mehmonxonasiga kirib, qo'liga kitob olib kursisiga o'tirganida, Agafya Mixaylovna choy keltirib, odati bo'yicha: «Men ham biroz o'tiray, otam», deb deraza yonidagi stolga borib joylashganda, bu qanchalik g'alati bo'lmasin, Levin o'z orzu-havaslaridan qaytmaganini va bu orzu havaslarsiz yasholmasligini sezdi. Kiti bilanmi yo boshqa bilanmi, ishqilib, har holda orzusi ro'yobga chiqadi. U kitob o'qir, o'qigan narsalarini o'ylar va hech to'xtamay gapirayotgan Agafya Mixaylovnaning gaplariga quloq solish uchun o'qishdan to'xtar edi, shuningdek, xo'jalik

ishlarining va kelajak oilaviy hayotining turli-tuman manzaralari xayolida chuvalib ko'rinardi. U o'z qalbining chuqur bir burchida allanima joy olayotganini, mustahkam ildiz otib qad ko'tarayotganini sezardi.

U Proxorning Xudoni esdan chiqarib qo'ygani, Levin ot sotib ol, deb hadya qilgan pulga yotib olib sharob ichayotgani va xotinini o'lasini qilib urgani haqida Agafya Mixaylovna qilayotgan hikoyaga quloq solar, quloq solib o'tirib kitob o'qir, kitob uyg'otgan fikrlarning inkishofini xayolida jonlantirardi. Qo'lidagi kitob Tindalning issiqlik haqidagi asari edi. Tajribalarimni chaqqonlik bilan o'tkazdim, deb kerilgan va falsafiy qarashlardan mahrum bo'lgan Tindalni qoralagani Levinning esiga tushdi. Shunda birdaniga miyasiga bir fikr kelib quvonib ketdi. «Ikki yildan keyin podamda ikkita golland sigirim bo'ladi. Pavaning o'ziyam sog' qolsa, ajab emas, Burgut o'n ikkita qiz ko'rsa va bulardan uchtasi yaxshi chiqsa – ishlar qiyomat!» U yana kitob o'qishga tutindi.

«Xo'p, elektr bilan issiqlik ayni bir narsa deylik, lekin masalani yechish uchun tenglamada bir kamiyat o'miga boshqasini qo'yib bo'ladimi? Yo'q, qo'yib bo'lmaydi. Unday bo'lsa, nima qilish kerak? Tabiatning barcha kuchlari orasidagi aloqa usiz ham instinkt yo'li bilan sezilib turadi... Shunisi quvonchliki, Pavaning qizi ola-qizil sigir bo'ladi, innaykeyin, butun podaga shu uchta sigir qo'yib yuborilsa bormi... ishlar qandak-da. Kechqurun xotim va mehmonlarim bilan podani kutib olgani chiqsak... xotimim: «Biz Kostya bilan bu buzoqni go'dak boladay avaylab o'stirganmiz», deydi. Mehmon bo'lsa xotimimdan: «Iya, bu narsalar sizni qanday qiziqtiradi?» deb so'raydi. Xotimim yana: «Kostyani qiziqtirgan narsalar meni ham qiziqtiradi», deb javob beradi. Lekin menga xotin bo'ladigan shu ayol kim? – shu savoldan keyin u Moskvada bo'lib o'tgan voqeani esladi... – Nachora?.. Men aybdor emasman. Mayli, endi ishlar butunlay boshqacha bo'ladi. Hayot yo'l qo'ymaydi, o'tmish yo'l qo'ymaydi, deyilgan gaplar bema'ni gaplar. Yaxshiroq, xiyla yaxshiroq yashash uchun jon berib – jon olish kerak...» Levin kitobdan boshini ko'tarib o'ygatdi. Egasining kelganidan quvongan va hali quvonchidan tushmay hovlida yugurib, hurib yurgan qari Laska dumini qilpanglatib toza havo hidlarini olib kirdi-da, Levinning yoniga kelib, boshini uning qo'lga surtdi va erkalashni so'rab vangillay boshladi.

– Bechoraning tili yo‘q, xolos, – dedi Agafya Mixaylovna. – It bo‘lsayam... hamma narsaga tushunadi, egasining kelganini, zerikib o‘tirganini bilib turibdi.

– Nega zerikarkanman?

– Nima, mening ko‘zim yo‘qmi, otam? Shu mahalgacha xo‘jayinlarimning fe‘lini bilmasam-a. Mushtdek boshimdan xo‘jayinlar eshigida o‘sganman. Hechqisi yo‘q, otam. Ishqilib, sog‘-u salomatlik bo‘lsa, ko‘ngil pok bo‘lsa bas.

Levin ko‘nglidagi gaplarini enagasi bilib olganiga ajablanib, unga qattiq tikilib qaradi. Enagasi esa:

– Nima qilay, yana choy keltiraymi? – dedi-yu, do‘lchani olib chiqib ketdi.

Laska nuqul kallasini uning qo‘liga surtardi. Levin uni siladi, shundan keyin it egasining oyoqlari yonida g‘ujmayib, boshini o‘zining cho‘zib yotgan keyingi oyog‘i ustiga qo‘ydi. Endi ko‘ngli joyiga tushganini va hamma ish joyida ekanini bildirish uchun Laska og‘zini sal ochib lablarini chapillatdi-da, yopishqoq lablarini keksa tishlari ustiga mahkam bosib, xotirjam rohatga berildi. Levin itning mana shu so‘nggi harakatini diqqat bilan kuzatib: «Men ham shundayman, – dedi o‘ziga o‘zi, – men ham xuddi shundayman! Hechqisi yo‘q... xayrli bo‘lsin».

XXVIII

Baldan keyin, erta bilan Anna Arkadevna eriga shoshilinchnoma berib, shu kuniyoq Moskavadan jo‘nab ketishini xabar qildi.

– Yo‘q, ketishim kerak, albatta, ketishim kerak, – deb u fikrining o‘zgarib qolganini kelinoyisiga shunday bir ohangda tushuntirdiki, go‘yo uyida son-sanoqsiz ishlari qolib ketgandek edi, – yo‘q, bugun ketganim ma‘qul!

Stepan Arkadich shu kuni uyda tushlik qilmas edi, lekin u singlisini kuzatgani kechqurun soat yettida yetib kelishga va‘da qildi.

Kiti ham kelmadi, boshi og‘riyotganini aytib xat yozib yubordi. Dolli Anna ikkovi bolalar va ingliz ayol bilan birga yolg‘iz o‘zlari tushlik qilishdi. Bolalar qarorsiz bo‘lganlaridanmi, yo juda ham sezgirliklari uchunmi, yoxud Annaning bugun butunlay boshqacha bo‘lib qolganini, kecha o‘zlari yoqtirib qolgan Annaga sira o‘xshaganini va u bolalarga parvo qilmaganini sezganlari tufayli-

mi, birdan ammalari bilan o'ynamay qo'ydilar, undan sovib qoldilar va ketishiga parvo ham qilmadilar. Anna ertalab vaqtini yo'l taradudi bilan o'tkazdi. Moskvalik tanishlariga xatlar yozdi, o'z hisob-kitoblarini yozib tugatdi, yig'ishtirindi. Umuman, Dolliga Annaning ko'ngli notinchday ko'rindi, bunday jonsaraklik holati Dolliga yaxshi tanish edi, bunday holat sababsiz bo'lmasligini, ko'pincha odamning o'z-o'zidan noroziligini yashiruvchi bir parda ekanini bilardi. Tushlikdan so'ng Anna o'z xonasiga kiyingani chiqib ketdi, Dolli ham orqasidan bordi.

– Bugun juda g'alati ko'rinasan-a! – dedi unga Dolli.

– Men-a? Shunaqami? G'alatimasman, ko'nglim behuzur. Menda shunaqa hollar bo'p turadi. Nuqul yig'lagim keladi. Bu juda xunuk narsa, lekin o'tib ketadi, – dedi Anna, keyin peshonabog'i bilan batist ro'molchasini joylayotgan xaltasi ustiga qizargan yuzini engashtirdi. Ko'zlari juda ham porlar, ko'zlari jiqqa yosh edi. – Peterburgdan hech ketgim kelmagandi, endi bu yerdan ketgim kelmayapti.

Dolli unga diqqat bilan razm solib turib:

– Bu yerga kelib juda katta savob ish qilding, – dedi.

Anna yoshdan namiqqan ko'zlari bilan unga qaradi.

– Undaqa dema, Dolli. Men hech narsa qilganim yo'q, qilishim ham mumkin emasdi. Men ko'pincha nima uchun odamlar til biriktirib meni buzmoqchi ekan, deb hayron bo'laman. Men nima qilibman-u, qo'limdan nima ish kelardi? Uni kechirish uchun yuragingda yetarli muhabbat bor ekan...

– Sen bo'lmasang, Xudo biladi, nimalar bo'lardiykan! Qanday baxtlisan sen, Anna! – dedi Dolli. – Ko'ngling oq, undagi narsalarning hammasi go'zal.

– Inglizlar aytganidek, har kimning ko'nglida o'z skeletons'i bo'ladi.

– Senda qanday skeletons bo'lsin? Ko'nglingdagi narsalar oyday ravshan.

– Bor! – dedi birdan Anna ko'z yoshlaridan so'ng kutilmagan quv va kinoyaomuz bir tabassum bilan lablarini burishtirdi.

– Unday bo'lsa, sening skeletonslaring odamni xafa qiladigan emas, xursand qiladigan skeletonslar ekan, – dedi kulimsirab Dolli.

¹ Bu yerda: sir (*ingl.*).

– Yo‘q, xafa qiladigan. Bilasanmi, nima uchun ertagamas, bugun ketyapman? Bu menga azob bersa-da, lekin senga ochiq e‘tirof etmoqchiman, – dedi Anna o‘zini birdan oromkursiga tashlab va Dollining ko‘zlariga tik qarab.

Dolli esa Annaning quloqlarigacha, jingalak qora soch o‘rimlari ostidagi bo‘ynigacha qizarib ketganini ko‘rib tong qoldi.

– Shundog‘, – deb Anna gapida davom etdi. – Kitining nima uchun tushlikka kelmaganini bilasanmi? Menga rashki kelyapti. Men ishni buzib qo‘ydim... Kechagi balning unga shodlik emas, azob keltirganiga men sababchi bo‘ldim. Lekin, rosti, men gunohkor emasman yoki ozgina gunohkorman, – dedi u «ozgina» so‘zini ingichka tovush bilan cho‘zib.

Dolli kulib turib:

– Iye, bu so‘zni xuddi Stivaga o‘xshatib aytding! – dedi.

Bu gap Annaning nafsoniyatiga tegib ketdi. U qovoqlarini solib:

– Yo‘q, yo‘q! Men Stiva emasman, – dedi. – Bu narsani senga shuning uchun aytyapmanki, men bir daqiqayam o‘zimdan shubhalanishimga yo‘l qo‘ymayman.

Lekin shu so‘zlarni aytayotgan daqiqasida bu so‘zlari nohaq ekani o‘zi sezib turardi, Anna o‘zidan shubhalanibgina qolmay, balki Vronskiyini esga olganda hayajonga tushganini ham sezardi, shu sababli u bilan ortiq uchrashmaslik uchun o‘zi mo‘ljallaganidan ertaroq ketayotgan edi.

– Ha, Stiva gapirib berdi, sen u bilan mazurkaga tushibsan, innaykeyin, u...

– Bu narsaning qanchalik kulgili chiqqanini ko‘z oldingga keltirolmaysan. Men, aslida, sovchilik qilmoqchi edim, amalda bundan butunlay boshqa narsa chiqdi. Ehtimol, men o‘z ixtiyorimdan tashqari...

Anna qizarib, gapining davomini aytmadi. Dolli:

– O, buni ular hozir sezishyapti! – dedi.

– Lekin bu to‘g‘rida Vronskiy tomonidan biron jiddiy narsa so‘dir bo‘lganda boshqa gap edi – yomon jahlim chiqardi, – deb Anna uning gapini bo‘ldi. – Shuning uchun bu narsalar esdan chiqib ketadi, Kitiyam mendan nafratlanishini qo‘yadi, deb umid qilaman.

– Haq gapni aytganda, Anna, Kitining o‘shanga tegishini hech xohlamayman. Agar u, Vronskiy bir kun ichida senga oshiq bo‘lib qolgan bo‘lsa, ajrashib ketishgani yaxshi.

– Voy Xudo-yey, bu uchiga chiqqan bema’nilik bo’lardi, – dedi-yu, Anna o’zini mashg’ul qilgan fikrning so’z bilan ifoda qilinganini eshitib, lazzatlanganidan yuzi loladek qizarib ketdi. – Shunday qilib, jon-dilim bilan yaxshi ko’rgan Kitini o’zimga dushman qilib ketyapman. Voy, qanday dilbar qiz-a! Dolli, o’zing ko’nglini olarsan, a?

Dolli tabassumdan o’zini zo’rg’a tiyib qoldi. U Annani yaxshi ko’rardi, lekin uning ham zaif tomonlari borligini ko’rib huzur qildi.

– Dushman qilib? Yo’q, bo’lmagan gap.

– Men sizlarni qanday yaxshi ko’rsam, meniyam hammangiz shunday yaxshi ko’rishingizni biram xohlaymanki, endi sizlarga muhabbatim yanayam ortdi, – dedi Anna ko’zlariga yosh olib. – Voy, bugun aqlimni yeb qo’ygan ekanman!

Anna ro’molchasi bilan yuzini artib, kiyina boshladi.

Anna endi jo’nayman deb turganda, kechikib qolgan Stepan Arkadich bo’g’riqib, kulib, sigara bilan may hidini burqsitib kirib keldi.

Annaning hislari Dolliga ham ta’sir qildi, u Annani so’nggi marta quchoqlab turib quloqlariga pichirladi:

– Esingda bo’lsin, Anna, menga qilgan yaxshiligingni bir umr unutmayman. Yodingdan chiqarma, men seni yaxshi do’stim bilib yaxshi ko’rganman, bundan keyin ham hamma vaqt yaxshi ko’raman!

Anna uni o’pib va ko’z yoshlarini yashirib turib:

– Hayronman, nega endi? – dedi.

– Nima demoqchi bo’lganimni tushunding, tushunasan ham. Yaxshi bor, jonginam!

XXIX

Uchinchi zang urilguncha vagonda yo’lni to’sib turgan akasi bilan xayr-ma’zurlashgandan so’ng Anna Arkadevnaning miyasiga kelgan birinchi fikr shu bo’ldi: «Xayriyat, hammasi tamom bo’ldi, Xudoga shukur!» U kichkina divanga, oqsoch qiz Annushkaning yoniga kelib o’tirdi-da, g’ira-shira yorug’da yumshoq vagonni ko’zdan kechirdi. «Xudoga shukur, ertaga Seryoja bilan Aleksey Aleksandrovichni ko’raman, innaykeyin, hayotim eskicha, yana bo-yagiday yaxshi o’tadi».

Anna shu bugungi kunni jonsaraklik ichida o'tkazgan edi, hozir ham yana o'shanday jonsaraklik bilan xursand bo'lib yo'lga hozirlandi, kichkina, chaqqon qo'lchalari bilan qizil qopchiqni ochib bog'ladi, yostiqlichasini olib tizzasiga qo'ydi, keyin oyoqlarini yaxshilab o'rab, jimgina o'tirdi. Bir kasal xonim uxlagani yotdi. Qolgan ikki xonim u bilan gaplasha boshladi, semiz kampir esa oyoqlarini o'rab, pechka yoqilmaganidan shikoyat qila ketdi. Anna xonimlarga bir necha og'iz so'z bilan javob qildi-yu, suhbatdan foyda yo'qligini sezib, Annushkadan kichkina fonarchani olib berishini iltimos qildi, keyin fonarchani kursi suyanchig'iga osib qo'yib, sumkasidan qog'oz kesadigan pichoq bilan ingliz romanini oldi. Dastlab es-hushini bir yerga to'plab o'qiyolmadi, oldin har xil shov-shuv va kelish-ketishlar xalaqit berdi, keyin, poyezd yurganda esa ovozlarga quloq solmaslikning iloji bo'lmadi, so'ngra chap derazaga urib, oynaga yopishib qolgan qor, yonidan o'tib ketayotgan, hamma yog'ini o'rab olgan, bir yelkasini qor bosgan konduktorning qiyofasi, hozir yo'lda dahshatli bo'ron turgani to'g'risidagi gap-so'zlar xayolini bo'ldi. Keyin yana o'sha vagonlarning taraqlab silkinishi, yana o'sha qorning derazaga urishi, yana o'sha siymolarning g'ira-shira yorug'da u yoqdan-bu yoqqa o'tib turishi, dam issiq, dam sovuq havoning urib turishi va yana o'sha tovushlar tinmas edi, axiyri, Anna ko'nikib, o'qigan narsalariga tushuna bordi. Annushka tizzasidagi qizil qopchiqni yirtiq qo'lqopli serbar qo'llari bilan ushlab olib mudrab o'tirardi. Anna Arkadevna hamon o'qir, o'qiganini tushunar, lekin o'qish, ya'ni boshqa odamlar hayotini kuzatib borish hushiga yoqmas edi. Hammadan burun o'zining ko'proq yashagisi kelardi. Roman qahramonining kasalga qaraganini o'qisa, o'zining ham kasal yotgan xonada tovush chiqarmay yurgisi kelardi, parlament a'zosining nutq so'zlaganini o'qisa, o'zining ham shunday nutq so'zlagisi kelardi, ledi Merining ot ustida bir gala qushlar orqasidan quvib borganini, kelinining jig'iga tegib, hammani chavandozligi bilan hayron qoldirganini o'qib, o'zining ham shunday qilgisi kelardi. Lekin qiladigan ishi yo'q edi, shuning uchun silliq pichoqni qo'lchalarida o'ynatib o'tirib, zo'r berib kitob o'qigani-o'qigan edi.

Roman qahramoni nihoyat o'zining inglizcha baxtiga erishib, baronlik unvoni olgandan va mulk egasi bo'lgandan so'ng Anna shu qahramon bilan o'sha mulkka borgisi kelib qoldi, ammo birdan qah-

ramonning bu narsadan uyalishi kerakligini, o'zining ham uyalishi kerakligini fahmladi. «Iya, men nimadan uyalaman?» deb so'radi u o'zidan, tahqirlangan bir hayrat bilan. Shundan keyin kitobini bir chetga qo'yib, oromkursi suyanchig'iga yaslandi-da, qog'oz qirqadigan pichoqni panjasi bilan mahkam qisa boshladi. Uyaladigan narsa yo'q edi. U Moskva xotiralarini bir-bir xayolidan o'tkazdi. Hammasi ham yaxshi, hammasi ham yoqimli edi. Balni esladi, Vronskiyini va uning ishqqa muhtalo bo'lgan itoatkor chehrasini xayoliga keltirdi, u bilan bo'lgan hamma munosabatlarini esiga tushirdi: uyaladigan hech nima bo'lmagan edi. Lekin shu bilan birga, xotiralarining xuddi shu erida uyalish hissi kuchaydi, xuddi shu yerda, Vronskiyini eslab turgan paytda ichidan chiqqan allaqanday bir ovoz go'yo «Issiq, juda issiq, qaynoq», deyayotgandek bo'ldi. Keyin u oromkursiga qaytadan o'tira turib: «Nima bo'пти? – dedi o'ziga qat'iy bir ohangda. – Bu nima degan gap? Ajabo, bu narsaga tik qarashdan qo'rqamanmi? Nima bo'пти? Nahotki, men bilan ana o'sha zobit bola o'rtasida har bir tanish bilan bo'ladigan munosabatdan boshqacharoq munosabat bor va bo'lishi mumkin bo'lsa?» U nafrat bilan kulimsirab, yana kitobini qo'liga oldi, lekin o'qigan narsalarini bu safar aslo tushunmadi. Qog'oz kesadigan pichoqni deraza oynasiga teggizdi. Keyin uning silliq, sovuq tig'ini betiga bosdi va hech narsadan hech narsa yo'q birdan qalbini to'ldirgan sevinchdan qah-qahlab kulib yuborishiga sal qoldi. U asablarining tor singari tortilib allaqanday burama quloqqa o'ralayotganini sezdi. Ko'zlarining katta ochilib qo'l va oyoq barmoqlarining asabiylik bilan qimirlayotganini, ichida allanarsa nafasini bo'g'ayotganini va ana shu lipillab turgan g'ira-shira qorong'ilikda hamma surat, hamma ovozlar g'ayrioddiy ravshanligi bilan uni hayratda qoldirayotganini sezdi. «Vagon oldinga ketyaptimi yo orqaga, yoki bo'lmasa bir yerda to'xtab turibdimi? Yonimda o'tirgan Annushkami yo begonami? Hu anavi ilgakdagi nima, po'stinmi yo vahshiy hayvonmi? Nima, men ham shu yerdamanmi? O'zimmanmi yo boshqami?» kabi shubhalar ko'nglini chulg'ab olgan edi. Bunday hushsizlik uni dahshatga solardi. Lekin allanima uni ana shu hushsizlik olamiga sudrar, xohlasa, o'zini g'aflat og'ushiga tashlar, xohlamasa, hushiga kelar edi. O'ziga kelish uchun o'rmidan turdi, o'ranib o'tirgan ro'molini olib qo'ydi, issiq ko'ylagining ustidan tashlab yuradigan yengsiz kalta kiyimini yechib tashladi. Bir zungina hus-

higa kelib tushunsa, matodan tikilgan, bir tugmasi yo‘q uzun paltoli oriqliq mujik pechkaga o‘t yoquvchi ekan, u kirib termometrni qaraganini, orqasidan shamol bilan qor bo‘ralab urganini ko‘rdi, keyin yana hamma narsa qorishib ketdi... Beli uzun shu mujik devordagi allanarsani g‘ajiy boshladi, kampir oyog‘ini vagonning bu boshidan u boshigacha cho‘zib, hamma yoqni bulutga bostirib yubordi, keyin allanima dahshatli ravishda qirsillab, xuddi birovni majaq-majaq qilayotgandek bo‘ldi. So‘ngra bir qizil olov ko‘zlarini qamashtirdi, shundan keyin hamma narsani devor to‘sib qoldi. Anna o‘zini jarga qulab ketayotganini his qildi. Lekin bu narsalarning hammasi dahshatli emas, quvonchli taassurot qoldirardi. Yuz-boshini o‘rab olgan, qor bosgan kishining ovozi quloqlari tagida bir nima deb qichqirdi. Anna darhol o‘rnidan turib, hushiga keldi: u stansiyaga kelganini, boyagi kishi esa konduktor ekanini angladi: Annushkadan yechib tashlagan peshonabog‘ bilan ro‘molini oldi-da, yana o‘ranib, eshik tomon yurdi.

– Tashqariga chiqmoqchilarmi? – deb so‘rab Annushka.

– Ha, biroz havo olgim bor. Bu yer juda isib ketdi.

Anna vagon eshigini ochgandi, shamol bilan bo‘ron quturib kelib yuz-ko‘zlariga urdi, eshikni ochdirgani qo‘ymadi. Bu ham Annaga shodlik bag‘ishladi. U eshikni ochib tashqariga chiqdi. Shamol uni xuddi kutib turganday, kayfi chog‘ bo‘lib uvladi-da, yerdan uzib olib, uchirib ketmoqchi bo‘ldi, lekin Anna muzday ustunni ushlab oldi, keyin ko‘ylagini tutib platformaga tushdi, u yerdan vagon orqasiga o‘tib ketdi. Stansiya sahnida shamol kuchli bo‘lsa ham, vagonlar orqasidagi platforma jimjit edi. Anna qor hidi kelib turgan muzdek havoni zavq bilan ko‘ksiga to‘lg‘azib olar, platformani va yorug‘ stansiyani vagon yonida turib ko‘zdan kechirar edi.

XXX

Dahshatli bo‘ron vagonlarning g‘ildiraklari orasida va stansiya burchagidagi ustunlarga kelib urilar, guvillar edi. Vagonlar, simyog‘ochlar, odamlar va ko‘zga ko‘ringan narsalarning hammasini bir tomondan qor bosgan va bu qor uyilib borayotgan edi. Bo‘ron bir zungina tindi-yu, keyin yana shunday, bir shiddat bilan quturdiki, unga tob keltirishning iloji yo‘qday ko‘rina boshladi. Shunday bo‘lsa ham allaqanday odamlar platforma taxtalarini g‘ijirlatishib u yoqdan bu yoqqa yugurishib yurishar, chaqchaqlashib

gaplashishar, katta-katta eshiklarni ochib-yopishardi. Ikki bukilib olgan bir kishining qorasi Annaning oyoqlari tagidan lip etib o'tib ketdi, keyin bolg'aning temirga urilgani eshitildi. Naryoqda bo'ron ichidagi zulmatdan allakimning: «Shoshilinchnomani ber!» degan jahldor ovozi yangradi. Keyin har xil ovozlari: «Bu yoqqa marhamat! № 28!» deb qichqirdi va yuz-boshini o'rab olgan, qor bosgan odamlar yugurib o'tdi. Yana Annaning yonidan og'izlarida papirosalari yonib turgan ikki kishi janob ham o'tib ketdi. Anna toza havoga yaxshiroq to'yib olish uchun yana bir marta chuqur nafas oldi-da, vagon eshigi yonidagi temirni ushlab vagonga chiqmoqchi bo'ldi, qo'lini endi muftasidan chiqargan edi, harbiy formali yana bir kishi yonginasida to'xtab, lipil-lab yonib turgan fonar yorug'ini to'sib qo'ydi. Anna boshini ko'tarib qaradi-yu, darhol Vronskiyning ko'rib tanidi. Vronskiy qo'lini furajkasiga yaqin keltirib Annaga ta'zim qilgandan so'ng, sizga biron narsa kerakmi-yo'qmi, xizmatigizda bo'lishga ijozat berasizmi, deb so'radi. Anna hech qanday javob qilmasdan unga uzoq qarab turdi, uning soyada ekaniga qaramay, yuz-ko'zlarining ifodasini ko'rdi yoki ko'rgandek bo'ldi. Vronskiyning yuzida kecha Annaga nihoyatda qattiq ta'sir qilgan yana o'sha hurmat va maftunlik ifodasi bor edi. Anna mana shu so'nggi kunlarda Vronskiyning o'z nazarida hamisha va hamma yerda uchraydigan yuzlarcha yigitlardan bittasi, shuning uchun hech mahal uni o'ylab boshimni qotirmayman, deb o'ziga gapirib kelardi; boya ham xuddi shunday deb o'ylagan edi; lekin hozir, uni ko'rgan soati Annani quvonchli bir g'urur hissi qamrab oldi. Uning nechun bu yerdaligini so'rashga luzum qolmagan edi. Anna buning sababini xuddi Vronskiy uning yonida bo'lish uchungina shu yerda ekanini o'z og'zi bilan aytib turganday aniq bilardi.

Anna vagon eshigi yonidagi temirni ushlab uchun ko'targan qo'lini pastga tushirib:

– Sizning ketayotganingizni bilmabman. Nimaga ketyapsiz? – dedi. Shunda uning chehrasida zo'r shodlik, zavq-shavq nuri porladi.

– Nega ketyapman? – deb takrorladi Vronskiy Annaning ko'zlariga tik qarab. Keyin ilova qildi: – Bilasiz-ku, siz qayerda bo'lsangiz, men ham o'sha yerda bo'lish uchun ketyapman. Shunday qilmasam, turolmayman.

Xuddi shu payt shamol o'z yo'lidagi g'ovni ag'darib o'tgandek vagonlarning tomlaridagi qorlarni uchirib tushirdi, bir taxta tunu-

kani qayerdandir ko'chirib daranglatdi, oldinda esa parovoz yig'layotgandek g'amgin bir tovush bilan chinqirdi. Qor bo'ronining butun dahshati Annaga endi yana ham go'zalroq ko'rindi. Vronskiy Annaning ko'ngli istagan, lekin aqli qo'rqib turgan gapni aytgan edi. Anna hech qanday javob qilmagan bo'lsa ham, Vronskiy uning ichida kurash borayotganini chehrasidan ko'rdi.

– Aytgan so'zim sizga yoqmagani bo'lsa, kechiring meni, – dedi Vronskiy itoatkorona.

Vronskiy nazokat va hurmat bilan, ayni zamonda shunday qat'iy bir ohangda gapirgandiki, Anna anchagacha javob qilolmay qoldi.

– Aytgan so'zingiz yaxshi so'zmas, shuning uchun sizdan iltimos qilaman, agar yaxshi odam bo'lsangiz, aytgan so'zingizni esingizdan chiqaring, men ham esdan chiqaraman, – dedi nihoyat Anna.

– So'zlaringizning bittasini ham, harakatlaringizning zarrachasini ham hech vaqt esdan chiqarmayman, esdan chiqarolmayman ham.

– Bas, bas! – deb qichqirdi Anna; u yuziga jiddiy tus bermoqchi bo'ldi-yu, lekin bo'lmadi, chunki Vronskiy unga tikilib turgan edi. Shundan keyin muzdek temirni ushlab zinadan chiqdi-da, shoshib vagon dahliziga kirib ketdi. Lekin ana shu kichkina dahlizda to'xtab, yuz bergan hodisani xayolidan o'tkaza boshladi. Anna o'zining ham, uning ham so'zlarini esga olmasdanoq, shu bir zumli gap ularni bir-biriga so'ng daraja yaqinlashtirganini sezgisi bilan payqadi, shuning uchun bundan ham qo'rqdi, ham o'zini baxtiyor his etdi. Dahlizda bir necha soniya turgandan so'ng vagonga kirib, o'z joyiga o'tirdi. Birozgina avval o'zini qiynagan betoqatligi yangilanibgina qolmay, balki kuchaydi va shu darajaga bordiki, ichida nihoyatda taranglashgan bir narsaning har dam uzilib ketishidan qo'rqa boshladi. Anna kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi. Lekin o'sha taranglik va xayolini band qilgan xulyolarda ko'nglini xira qiladigan hech qanday dilozor narsa yo'q edi, aksincha, qandaydir suyuntiradigan, yondiradigan, hayajonga soladigan bir narsa bor edi. Anna o'tirgan oromkursida ertalabga yaqin birpas mizg'ib oldi, uyg'onganda esa oppoq tong otgan, hamma yoq yorishgan, poyezd Peterburgga yaqinlashib qolgan edi. Darhol uyi, eri, o'g'li haqidagi o'ylar va shu bugun hamda undan keyin keladigan kunlar tashvishi xayolini qamrab oldi.

Peterburgda poyezd to'xtab, u vagondan chiqqanda diqqatini jalb qilgan birinchi siymo – erining siymosi bo'ldi. Erining sovuq va sa-

lobatli gavdasini, ayniqsa, yumaloq shlapasining bariga tegib turgan va oʻzini hozir juda ham hayron qilgan quloqlarining kemirchagini koʻrib: «Voy, Xudo! Quloqlari nega bundaqa boʻlib qolibdi-ya?» deb oʻyladi. Eri uni koʻrdi-yu, lablarini burib, odatdagicha istehzoli tabassum bilan, yirik horgʻin koʻzlarini Annaga tikkan holda unga qarab kelaverdi. Anna uning qattiq tikilgan horgʻin koʻzlariga rost kelganda, goʻyo uni boshqa tusda koʻrish umidida boʻlgandek, allaqanday yoqimsiz bir narsa dilini ogʻritdi. Erini koʻrganda butun vujudini qamragan bir his – oʻz-oʻzidan norozilik hissi Annani hayratga soldi. Eriga boʻlgan munosabatlarida soxtalikka oʻxshagan bu his unga koʻp vaqtlardan beri tanish boʻlsa ham, lekin ilgari uning farqiga bormas edi, mana endi uni ravshan sezib, dili ogʻriy boshladi.

– Mana, koʻrdingmi, mehribon ering, uylanganimdan bir yil keyingiday mehribon ering seni koʻrish orzusi bilan toʻlib-toshib keldi, – dedi u oʻzining salmoqli nozik tovushi bilan; u Anna bilan doim shu ohangda gaplashar edi, goʻyo u birov shu taxlitda gapirganda uni masxara qilayotgandek edi.

– Seryoja salomatmi? – deb soʻradi Anna.

– Ana xolos, shuncha aylanib-oʻrgilganimning mukofoti shuginami? – dedi eri. – Salomat, salomat...

XXXI

Vronskiy shu kecha uxlashga harakat ham qilmadi. U oʻz oromkursisida goh koʻzlarini roʻparasiga tikib, goh kirib-chiqayotgan odamlarga koʻz yugurtirib oʻtirdi, agar ilgari oʻzining ogʻirligi, vazminligi bilan notanish odamlarni hayrat va haya-jonga solib kelgan boʻlsa, hozir yana ham magʻrur, yana ham xotirjam koʻrinar edi. Odamlarga xuddi buyumlarga qaragandek qarardi. Roʻparasida okrug sudida xizmat qiluvchi tajang bir yigit oʻtirgan edi, u Vronskiy shu magʻrur boqishi uchun yomon koʻrib qoldi. Yigit undan papirosini tutatib oldi, unga gapirib koʻrdi, hatto oʻzining buyum emas, odam ekanini sezdirish uchun uni turtib ham qoʻydi, boʻlmadi – Vronskiy hamon fonarga qaraganday qarab oʻtiraverdi, shundan keyin yigit oʻzining odam oʻrnida koʻrilmaganidan jigʻibiyroni chiqib borayotganini sezib, lab-lunjini burishtira boshladi.

Vronskiy hech kimni va hech narsani koʻrmas edi. U oʻzini podsho his qilardi, ammo Annada taʼsir qoldirgani uchun emas – chunki u hali bunga ishonmasdi – Annaning unga qilgan taʼsiri uchun, chunki bu taʼsir unga baxt va faxr bagʻishlar edi.

Bu narsalarning oqibatini Vronskiy bilmas, hatto bu toʻgʻrida oʻylamas ham edi. U shu damgacha oʻz holiga tashlangan, parokanda kuch-quvvati bir yerga toʻplanganini, bu kuch dahshatli harorat bilan bir shirin maqsad tomon yoʻnalganini his qilardi. U bundan baxtiyor edi. U faqat Annaga haqiqatni aytganini, Anna qayerda boʻlsa, oʻzi ham oʻsha yerda boʻlish uchun ketayotganini, baxti, hayotining birdan-bir maʼnosi Annani koʻrib, ovozini eshitib turishda ekaninagina bilardi. U Vologovo stansiyasida selter suvi ichgani tushib Annani koʻrganda ixtiyorsiz aytgan birinchi soʻzi bilan koʻnglidagi gapini bildirib qoʻydi. Vronskiy unga shu soʻzni aytganiga, endi Anna buni bilganiga va bu haqda oʻylay boshlaganiga xursand boʻldi. U kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi. Oʻz vagoniga qaytib kelganda esa Annani qanday ahvolda koʻrganini, Anna aytgan butun soʻzlarni xayolidan birma-bir oʻtkazar va erishilishi ehtimol boʻlgan kelajak manzaralari xayolida jonlanib yuragini oʻynatar edi.

Peterburgga kelib vagonidan tushganda, uyqusiz oʻtkazgan kechasidan keyin xuddi sovuq vannadan chiqqan kishiday, oʻzini tetik va bardam his etdi. Annaning chiqishini kutib, oʻz vagoni yonida toʻxtab turdi. Ixtiyorsiz kulimsirab: «Yana bir marta koʻraman, – derdi u oʻziga, – yurishlarini, yuzlarini koʻraman, zora, biron nima desa, yuzini oʻgirib qarasa, shiringina jilmayib qoʻysa». Lekin Annani koʻrishdan avval uning erini koʻrdi: stansiya boshligʻi uni ehtiromlan bilan odamlar orasidan boshlab kelardi. «Eh! Eri-ku!» Vronskiy bu erning Annaga aloqador shaxs ekanini endi birinchi marta aniq tushundi. Annaning eri borligini bilsa ham, lekin uning mavjudligiga ishonmasdi, mana endi uni, boshini, yelkalarini va qora shimli oyoqlarini koʻrgandagina bunga toʻla-toʻkis ishondi, bu er Annaning qoʻlini xuddi oʻz mulkiday xotirjamlik bilan ushlaganda ishonchiga ishonch qoʻshildi.

Vronskiy Aleksey Aleksandrovichning peterburgliklarga xos tarovatli yuzini, yumaloq shlapasi va xiyol bukchaygan basavlat qomatini koʻrib, uning mavjudligiga ishondi-yu, tashnalikdan oʻrtangan bir kishining zoʻrgʻa buloqqa yetib kelib, u yerda suv ichgan va

suvni bulg'ab yotgan itni, qo'yni yoki to'ng'izni ko'rganda ko'ngli qandayin ag'darilsa, Vronskiyning ham ko'ngli shunday behuzur bo'lib ketdi. Aleksey Aleksandrovichning orqasini lapanglatib va to'mtoq oyoqlarini sudrab yurishi Vronskiyga, ayniqsa, haqoratomuz tuyuldi. U Annani sevishga faqat o'zinigina haqli deb hisoblar edi. Anna esa hamon boyagi Anna edi. Uni ko'rganda Vronskiyning tanasi yayrar, jonlanar va qalbi baxtiyorlik hislari bilan to'lar, u yana boyagiday ta'sir qilar edi. U ikkinchi klass vagondan yugurib kelgan nemis yugurdakka buyumlarni olib jo'nashni buyurdi-yu, o'zi Annaning oldiga keldi. U er-u xotinning birinchi uchrashuvini ko'rib, Annaning eri bilan gaplashganda biroz siqilib turganini oshiq'larga xos bir farosat bilan payqab oldi. U o'zicha: «Yo'q, Anna uni sevmaydi, sevolmaydi», degan qarorga keldi.

Anna Arkadevnaga orqadan yaqinlashib kelayotgan paytidayoq Anna uning kelayotganini sezganini payqab quvonib ketdi, Anna orqasiga qayrilib bir qaradi-yu, uni ko'rib, yana eriga yuzlandi.

– Kechani yaxshi o'tkazdingizmi? – dedi Vronskiy ayni zamonda ham Annaga, ham eriga bosh egib va bu ta'zimini o'z hisobiga qabul qilish-qilmaslik va o'zini tanish yoki tanimaslikka solish ixtiyorini Aleksey Aleksandrovichga havola qilib.

– Tashakkur, juda yaxshi o'tkazdim, – deb javob qildi Anna.

Annaning yuzi charchagan ko'rinardi, shuning uchun yuzida goh tabassum bo'lib, ko'zlarida goh o't bo'lib o'ynagan hayajon izlari yo'q edi; lekin Vronskiyga bir qiyo boqqanda, ko'zlarida allanarsa bir zungina chaqnaq o'tdi, bu o't darhol o'chgan bo'lsa ham Vronskiy shu birgina on baxsh etgan suyunchdan o'zini baxtiyor his etdi. Anna Vronskiyini tanirmikan deb erining yuziga qaradi. Aleksey Aleksandrovich noxushlik bilan nazar tashlab, parishon holda, uning kimligini eslay boshladi. Vronskiyning vazminlik va xudpisandligi bilan Aleksey Aleksandrovichning sovuq xudpisandligi to'qnashib, pichoq suyakka qadalganday bo'ldi.

– Graf Vronskiy, – dedi Anna tanishtirib.

– E! Tanishga o'xshaymiz, – dedi parvosizgina Aleksey Aleksandrovich qo'lini uzata turib. – Demak, onasi bilan u yoqqa ketibsan-u, o'g'li bilan bu yoqqa qaytibsan-da, – dedi har bir so'zini dona-dona qilib gapirib. – Chog'imda, ta'tildan qaytib

kelayotgandirsiz? – dedi-da, javob kutib o‘tirmasdan, hazil-mutoyiba ohangi bilan xotinidan so‘radi: – Xo‘sh, Moskvadan jo‘nashda ko‘z yoshlari ko‘p to‘kildimi?

U xotiniga aytgan shu so‘zlari bilan o‘zlarining xoli qolishlarini istaganini Vronskiyga shama qildi-yu, yuzini unga o‘girib, qo‘lini shlapasiga teggizdi, lekin Vronskiy Anna Arkadevnaga yuzlanib:

– Sizni ziyorat qilish sharafiga noil bo‘larman degan umiddaman, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich Vronskiyga horg‘in ko‘zlari bilan qarab:

– Juda xursandman, – dedi sovuqqina qilib, – mehmonlarni dushanba kunlari qabul qilamiz. – U Vronskiyning jo‘natib yuborgandan so‘ng xotiniga: – Xayriyatki, seni kutib olishga va mehribonligimni izhor etishga yarim soat bo‘sh vaqtim bor ekan, – dedi yana gapni o‘sha hazil-mutoyiba ohangda davom ettirib.

Orqalaridan yurib kelayotgan Vronskiyning oyoq tovushiga beixtiyor quloq solib turib, Anna ham o‘shanday hazil-mutoyiba ohangda:

– Mening qadrimga yetsin deb mehribonligingni hadeb pesh qilaverasan, – dedi. Keyin Vronskiy to‘g‘risida: «Kelsa kelar, menga nima?» deb o‘yladi-yu, o‘zining yo‘qligida Seryoja vaqtini qanday o‘tkazganini eridan so‘ray boshladi.

– O, juda yaxshi o‘tkazdi! Mariette, shiringina bo‘lib yurdi, deydi, innaykeyin... ta‘bingni xira qilsam ham aytaman... u seni menchalik sog‘ingani yo‘q. Lekin menga yana bir kuningni hadya qilganing uchun tag‘in bir marta merci, azizam. Dilkash o‘ziqaynarimizning boshi osmonga yetadi-da. (U mashhur grafinya Lidiya Ivanovnani hamma vaqt, hamma narsaning tashvishini yeb, hovliqib yurgani uchun o‘ziqaynar deb atardi.) U seni so‘rovdi. Agar maslahatimga kirsang, bugun bir yo‘qlab qo‘ysang, yaxshi bo‘lardi. O‘zing bilasan-ku, hammaning qayg‘usini yeb yuradi. Boshidagi shuncha tashvish ustiga, hozir Oblonskiylarni yarashtirish bilan ovora.

Grafinya Lidiya Ivanovna Aleksey Aleksandrovichning do‘sti va Peterburg kibor doiralaridan birining markazi edi, Anna eri tufayli shu doiraga hammadan ham yaqinroq turardi.

– Axir, xat yozdim-ku.

– Lekin hamma narsani ipidan-ignasigacha bilmasa bo‘lmaydi. Charchamagan bo‘lsang, borib kel, azizam. Xo‘p, bo‘lmasa, karetni

senga Kondratiy olib keladi, men to'g'ri qo'mitaga ketaman. Xayriyat, tushlikni yolg'iz qilmayman, – dedi Aleksey Aleksandrovich endi jiddiy ohangda so'zida davom etib. – Senga qanchalik o'rganib qolganimni aytсам, ishonmaysan...

U shu so'zlardan keyin Annaning qo'lini uzoq qisib turgandan so'ng g'alati bir tabassum bilan uni karetaga o'tqazdi.

XXXII

Annani uyida birinchi bo'lib kutib olgan o'g'li bo'ldi. Murabbiyasining hay-haylashiga ham quloq solmay, zina pog'onalaridan chopib chiqdi-yu, suyunganidan jonining boricha: «Oyi! Oyi!» – deb qichqirib yubordi. Onasi yetib kelgandan keyin esa bo'yniga osilib oldi.

– Oyim keldilar, demadimmi sizga! – deb murabbiyasiga qichqirdi. – Biluvdim-da!

Eri singari o'g'lidan ham ko'ngli sovigandek bo'ldi. U o'g'lini haqiqiy holatidan yaxshiroq deb tasavvur qilardi. O'g'li qanday bo'lsa, shundog'ligicha sevish uchun u hayotiy sharoitga uyg'unlashishga majbur bo'ldi. Lekin o'g'li shundoqligicha ham sochlari qo'ng'iroq, ko'zlari lojuvard, paypoqlari tarang tortilib turgan sarv oyoqchalari bo'liq, shiringina bola edi. Anna o'g'ilchasining yaqinligidan va erkanishlaridan jismoniy bir laz-zat olar, uning sodda, sof va mehribon boqishlarini ko'rib, soddadillik bilan bergan savollarini eshitganda ma'naviy orom his etardi. Anna Dollining bolalari yuborgan sovg'a-salomlarini berdi, Moskvada Tanya degan yaxshi bir qiz borligini va o'sha Tanya o'zi o'qishni bilishi, boshqa bolalarga ham o'qishni o'rgatganini o'g'luga aytib berdi.

- Nima, men undan yomonmanmi? – deb so'radi Seryoja.
- Yo'q, mening uchun dunyoda hammadan ham yaxshiroqsan.
- Bilaman, – dedi Seryoja kulimsirab.

Anna qahvasini ichib ulgurmasdanoq grafinya Lidiya Ivanovna-ning kelganini xabar qilishdi. Grafinya Lidiya Ivanovna uzun bo'yli, to'la gavdali, kasalmand, zahil yuzli, chiroyli qora ko'zlari o'ychan ayol edi. Anna uni yaxshi ko'rardi, lekin bugun uni birinchi marta butun nuqsonlari bilan ko'rayotgandek bo'ldi.

Grafinya Lidiya Ivanovna xonaga kirar-kirmas:

– Qalay, azizam, yarash bayrog‘ini tiklab keldingizmi? – deb so‘radi.

– Ha, hamma ish bartaraf bo‘ldi. Lekin bu narsalarning biz o‘ylagancha muhimligi yo‘q ekan, – deb javob berdi Anna. – Umu-man, mening belle soeur-um¹ bir so‘zli chiqib qoldi.

Lekin o‘ziga taalluqli bo‘lmagan narsalarga qiziquvchi grafinya Lidiya Ivanovnaning o‘zi qiziqqan narsasiga quloq solish odati yo‘q edi, shuning uchun Annaning so‘zini bo‘lib qo‘ydi:

– Ha, dunyo qayg‘u-alam va badkorlik bilan to‘lib yotibdi, men bulardan shunchalik to‘ydimki!

Anna kulib yubormaslikka tirishib, so‘radi.

– Ha, nima bo‘ldi?

– Haqiqat qidirib bekorga nayza sindirishdan charchay boshladim, gohi mahallar toqatim toq bo‘lib ketadi. Hamshiralarning ishi (bu xayr-ehson va diniy-vatanparvarlik bir muassasasi edi) nozanday ketayotgandi, lekin bu janoblar bilan hech ish qilib bo‘lmaydi, – dedi grafinya Lidiya Ivanovna istehzo bilan taqdirga tan bergandek. – Ular bu ishning ma‘nosiga osilib olib, rasvo-yu raddi balo qilishdi, innaykeyin, juda sayoz, ma‘nosiz muhokama qilishadi. Ikki-uch kishi, jumladan, sizning eringiz, bu ishning ahamiyatiga yaxshi tushunadi, boshqalar bo‘lsa, yerga urgani-urgan-da. Kecha Pravdindan xat oldim...

Pravdin chet elda yashovchi mashhur panslavistlardan² edi, grafinya Lidiya Ivanovna olgan xatining mazmunini aytib berdi.

Keyin grafinya cherkovlarni birlashtirish yo‘lida g‘ov bo‘lgan dilsiyohliklar va fitnalar to‘g‘risida gapirdi-da, bugun yana bitta jamiyat majlisiga va slavyanlar qo‘mitasiga borishi kerak bo‘lgani uchun shoshib-pishib jo‘nab ketdi.

«Axir, ilgariyam shunday edi-ku, tavba, nega ilgari buni sezmadim-a? – dedi Anna o‘ziga. – Yo bugun grafinya odatdagidan ortiqroq asabiymikan-a? Haqiqatan ham, bu juda kulgili, grafinyaning asl maqsadi xayr-u saxovat, o‘zi nasroniy ayol bo‘la turib, mudom g‘azablanib yuradi, hamma yoqda dushman ko‘radi, xayr-u saxovat va nasroniylikda hamma unga dushman bo‘lib ko‘rinadi».

Grafinya Lidiya Ivanovna ketgandan so‘ng Annaning dugonasi – direktorning xotini kelib, shahar yangiliklarini aytib berdi. Tushlik-

¹ Go‘zal singlim (*frans.*).

² Panslavizm – barcha slavyanlarni birlashtirish tarafdori bo‘lgan oqim (*tarj.*).

ka kelishga va'da qilib, soat uchda u ham jo'nab ketdi. Aleksey Aleksandrovich vazirlikda edi. Anna yolg'iz qoldi-da, tushlikka qadar bo'lgan bo'sh vaqtini o'g'lini ovqatlantirishga (o'g'li alohida tushlik qilardi), ul-bullarini saranjomlashga va stolida yig'ilib qolgan xat-maktublarni o'qib, ularga javob yozishga sarf qildi.

Yo'l bo'yi ko'nglini xijil qilib kelgan sababsiz nomus hissi va hayajoni butunlay yo'q bo'ldi. Ko'nikib qolgan hayot sharoitida u o'zini yana qat'iy, benuqson his qila boshladi.

Anna kechagi ahvolni eslab hayron bo'lardi. «Nima bo'libdi? Hech nima. Vronskiy bema'ni gap qildi, bunga osongina xotima berish mumkin, men ham o'ziga yarasha javob berdim. Buni erimga aytib o'tirishning keragi yo'q, aytib ham bo'lmaydi. Bu haqda gapirish – ahamiyatsiz narsaga ahamiyat berish bo'ladi». Anna Peterburgda erining yosh tobelaridan biri o'ziga izhori muhabbat qilayozganini aytib berganda, Aleksey Aleksandrovich: kibor jamiyatda yashovchi har bir ayolning boshiga shunday ahvol tushishi mumkinligini, ammo Annaning odobiga imoni komil ekanini va uning ham, o'zining ham rashk balosiga muhtalo bo'lishiga yo'l qo'ymasligini aytgan edi, hozir Anna shu narsani esladi. «Demak, aytishning keragi yo'q ekan-da? Ha, Xudoga shukur, aytadigan hech nima yo'q», – dedi Anna o'ziga.

XXXIII

Aleksey Aleksandrovich vazirlikdan soat to'rtida qaytib kelgan bo'lsa ham, Annaning yoniga kirishga ulgurmay, bunday hollar ilgari ham ko'p bo'lardi. U kutib o'tirgan arzo'ylarni qabul qilish va ishlar mudiri keltirgan ba'zi qog'ozlarga qo'l qo'yish uchun to'g'ri kabinetiga o'tib ketdi. Tushlikka (Kareninlarnikida hamma vaqt uchto'rt kishi ovqatlanardi) Aleksey Aleksandrovichning qari bo'lasi, departament direktori, buning xotini va xizmat joyida Aleksey Aleksandrovichga tavsiya qilingan bir yosh yigit yetib keldi. Anna ular bilan gaplashib o'tirgani mehmonxonaga kirib ketdi. Soat rosa beshda Pyotr I davridan qolgan brinj soat beshinchi zangni urishga ulgurmay, Aleksey Aleksandrovich oq bo'yinbog' bog'lab, qora fragiga ikkita yulduz taqib kirib keldi. Chunki tushlikdan keyinroq jo'nab ketishi kerak edi. Aleksey Aleksandrovich hayotining har bir daqiqasi band bo'lib, taqsim qilib qo'yilgan edi. Har kun qiladigan ishlarini bajarishga ulgurishi uchun bir zum ham vaqtini bekor

ketkazmaslikka tirishardi. «Shoshilmaslik va dam olmaslik» – mana shu edi uning shiori. U zalga kirib hamma bilan salomlashdi-da, xotiniga bir kulimsirab qo‘yib, darhol o‘rniga borib o‘tirdi.

– Shukur, yolg‘izligim xotima topdi. Yolg‘iz tushlik qilishning qanchalik o‘ng‘aysizligini (o‘ng‘aysiz so‘zini chertib gapirdi) ayt-sam, ishonmaysan.

U ovqat ustida xotini bilan Moskvadagi ishlar to‘g‘risida gap-lashib o‘tirdi. Keyin istehzoli tabassum bilan Stepan Arkadichni so‘radi, lekin gap asosan umumiy mavzular, Peterburgdagi xizmat va ijtimoiy ishlar ustida bordi. Aleksey Aleksandrovich tushlikdan so‘ng mehmonlar yonida yarim soatcha o‘tirdi-da, xotining qo‘lini yana jilmayib turib qisgach, zaldan chiqib, majlisga ketdi. Anna o‘zining kelganidan xabar topib, bugun kechqurun uni mehmonga chaqirgan knyaginya Betsi Tverskayanikiga ham, shu kecha lojaga chiptasi bo‘lgan teatrga ham bormadi. Hech qayoqqa bormaganining asosiy sababi, tiktirayotgan ko‘ylagining tayyor bo‘lmaganida edi. Umuman, mehmonlar ketishgandan so‘ng Anna o‘z pardoz-ando-zi bilan shug‘ullangan bo‘lsa hamki, bormagani o‘ziga qattiq alam qildi. Anna uncha qimmatbaho liboslarga uchmasa ham, umuman, chiroyli kiyinishga usta edi, shuning uchun Moskvadan jo‘nashi ol-dida uchta ko‘ylagini urf bo‘lgan kiyimlarni tikuvchi mashinachiga buzib tiktirgani eltib bergan edi. Bularni buzib, yangidan hech ta-nib bo‘lmaydigan qilib tikish va bundan uch kun avval taxt qilish kerak edi. Xabar oldirsa, ko‘ylaklarining ikkitasi hali butunlay tayyor bo‘lmabdi, uchinchi esa Annaning ko‘nglidagiday qilib tikilmabdi. So‘nggi urfdagi kiyimlar tikuvchi ayol kelib shu fasonning yaxshi-ligini uqtirmoqchi bo‘lgan edi, Anna shu qadar koyib berdiki, keyin esiga tushgach, o‘zi xijolat bo‘la boshladi. U o‘zini butunlay bosib olish uchun o‘g‘lining xonasiga kirib, butun oqshomni o‘sha yerda o‘tkazdi, o‘g‘lini o‘zi yotqizdi, boshi ustida xoch alomati qo‘yib, ustiga ko‘rpa yopib qo‘ydi. Hech qayoqqa bormagani, oqshomni uyida yaxshi o‘tkazgani uchun xursand bo‘ldi. U endi o‘zini shu qadar yengil va xotirjam his qilari, temiryo‘lda o‘ziga shu qadar ahamiyatli bo‘lib tuyulgan narsaning kiborlar hayotida uchrab turadigan ahami-yatsiz, arzimas tasodifiy hodisalardan biri ekanini, boshqalar oldida ham, o‘zi oldida ham xijolat tortadigan hech nima yo‘qligini shu qadar oydin va ravshan ko‘rib turar edi. Anna qo‘liga bir ingliz

romanini oldi-yu, kamin yonida erini kutib o'tirdi. Rosa soat to'qqiz yarimda erining qo'ng'iroq chalgani eshitildi, so'ngra o'zi xonaga kirib keldi.

Anna unga qo'lini uzatib:

– Axiyri, kelding-a! – dedi.

Eri xotining qo'lini o'pib, yoniga o'tirdi.

– Chog'imda, safaring o'ngidan kelganga o'xshaydi, – dedi u.

Anna:

– Nimasini aytasan, judayam, – dedi-yu, grafinya Vronskaya bilan ketganini, Moskvaga yetib kelganini, temiryo'lda yuz bergan hodisani – hammasini boshdan-oyoq gapirib berdi. So'ngra avval akasiga, keyin esa Dolliga achinganini ham aytib o'tdi.

– U akang bo'lsayamki, baribir, bunday odamni kechirib bo'lmaydi deb o'ylayman, – dedi Aleksey Aleksandrovich cho'rt kesib.

Anna kulimsiradi. Eri o'zining samimiy fikrini aytishga qarindoshlik mulohazalari ham xalaqit bermasligini ko'rsatish uchungina shunday deyayotganini Anna tushundi. U erining bu xislatini bilars, shuning uchun uni yaxshi ko'rardi.

– Hamma ishlar muvaffaqiyat bilan bartaraf bo'lganiga, sening qaytib kelganingga juda-juda xursandman, – deb so'zini davom ettirdi. – Xo'sh, men davlat kengashmasida o'tkazgan yangi nizom haqida nima gaplar bor u yoqda?

Anna bu nizom haqida hech nima eshitmagan edi, shu sababli eri uchun shu qadar muhim bo'lgan narsani osongina esdan chiqarib qo'ygani uchun mulzam bo'ldi.

– Bu yerda esa, aksincha, u masala juda katta shov-shuv ko'tardi, – dedi u kibrli bir tabassum bilan.

Anna Aleksey Aleksandrovichning o'ziga yoqib ketgan bir narsani aytgisi kelib turganini sezib, savollar bilan uni aytishga majbur qildi. Aleksey Aleksandrovich shu nizomni o'tkazgani uchun o'zining gulduros olqishlar bilan qarshi olinganini yana mag'rurona iljayib gapirib berdi.

– Juda-juda xursand bo'ldim. Bizda nihoyat bu ishga aql-idrok ko'zi bilan qarab, bu haqda mustahkam bir fikr hosil qilinganini ko'rsatadi bu.

Aleksey Aleksandrovich ikkinchi piyola choyini qaymoq va non bilan ichib bo'lib o'rnidan turdi-da, kabinetiga qarab yo'l oldi.

– Hech qayoqqa bormading ham, juda zerikkan bo‘lsang kerak? – degandi, Anna:

– Voy, qayoqda! – deb javob berdi-da, o‘rmidan turib, uni zal orqali kabinetiga uzatib bordi. – Hozir nima o‘qiyapsan? – deb eridan so‘radi.

– Hozir Duc de Lille, «Poesie des enfers»¹ni o‘qiyapman, juda ajoyib kitob, – dedi eri.

Anna yaxshi ko‘rgan kishilarining zaif tomonlaridan kulgan odamdek, kulimsirab qo‘ydi-yu, qo‘lini uning qo‘li ostidan o‘tkazib, erini kabinet eshigigacha uzatib qo‘ydi. Anna unga ham kechasi kitob o‘qish odat bo‘lib qolganini bilardi. U Aleksey Aleksandrovichning qariyb butun vaqti xizmat vazifalari bilan band bo‘lganiga qaramay, ong-bilim sohasida paydo bo‘lgan hamma ajoyib asarlarni kuzatib borishni o‘zining burchi deb qarashini bilardi. U yana shuni ham bilardiki, erini asosan siyosiy, falsafiy va ilohiyotga oid kitoblar qiziqtirar, san‘atni esa o‘zining tabiatiga tamoman zid deb hisoblar, lekin shunga qaramasdan, yoki, to‘g‘rirog‘i, shuning uchun Aleksey Aleksandrovich bu sohada shov-shuvga sabab bo‘lgan narsalarning birontasini ham nazaridan qochirmay, uni o‘qishni o‘zining burchi deb hisoblar edi. Anna Aleksey Aleksandrovichning siyosat, falsafa va ilohiyot sohalarida shubhalari borligini yoki yangi masalalar qidirganini bilardi, lekin san‘at va nazm masalalarida, ayniqsa, mohiyatidan tironoqcha ham xabari bo‘lmagan musiqa masalasida muayyan va mustahkam fikrga ega edi. U Shekspir, Rafael, Betxoven haqida, nazm va musiqadagi yangi maktablarning ahamiyati haqida gapirishni yaxshi ko‘rardi, bu maktablarni u nihoyatda ravshan bir izchillik bilan xillarga bo‘lib qo‘ygan edi.

– Xayr, kir endi, Xudo yor bo‘lsin, – dedi Anna kabinetning eshigi yonida; kabinetda eri uchun ustiga qalpoq o‘rnatilgan sham tayyorlab, kursi yoniga grafinda suv keltirib qo‘yilgan edi.

– Men ham o‘tirib Moskvaga xat yozaman.

U Annaning qo‘lini qisib, yana bir marta o‘pdi.

Anna o‘z bo‘lmasiga qaytib kelgandan so‘ng erini go‘yo ayblayotgan va uni yaxshi ko‘rib bo‘lmaydi, deyayotgan allakim oldida Aleksey Aleksandrovichni himoya qilayotgandek: «Yo‘q, har holda u yaxshi kishi, to‘g‘riso‘z, mehribon va o‘z sohasida ajoyib inson, –

¹ Gersog de Lilning «Jahannam poeziyasi» (frans.).

deb o‘yladi. – Lekin hayronman, quloqlari nega bunaqa dikkayib turadi-ya! Yo sochini qirqtirganmikan?»

Soat rosa o‘n ikkida, Anna hali yozuv stoli yonida o‘tirib Dolliga yozayotgan maktubining so‘nggi satrlarini bitib tamomlayotganda, tuflilangan oyoqlarning bir me‘yordagi shaloplashi eshitildi, yuvinib, sochlarini tarab olgan Aleksey Aleksandrovich qo‘ltig‘ida kitob bilan Annaning yoniga keldi.

U g‘alati bir tabassum bilan:

– Bas, vaqt bo‘ldi, – dedi-yu, yotoqxonaga o‘tib ketdi.

Anna Vronskiyning Aleksey Aleksandrovichga qaysi ko‘z bilan qaraganini eslab: «Unga bunday qarashga qanday haqi bor ekan-a?» deb o‘ylandi.

Anna kiyimlarini yechib, yotoqxonaga kirdi, Moskvada ekanida ko‘zlaridan va tabassumlaridan barq urib turgan shavq-zavqdan hozir asar ham yo‘q, aksincha, hozir o‘ti o‘chganday yoki buni allaqayeriga yashirib qo‘ygandek ko‘rinar edi.

XXXIV

Vronskiy Peterburgdan jo‘nashida Morskaya ko‘chasidagi katkon kvartirasini oshnasi va sevikli o‘rtog‘i Petritskiyga qoldirib ketgan edi.

Petritskiy nasl-nasabi uncha mashhur bo‘lmagan, badavlat bo‘lish u yoqda tursin, qulog‘igacha qarzga botib, har oqshom mast bo‘lib yuradigan, har xil masxarabozligi va noloyiq ishlari uchun tez-tez avaxta tushib turadigan, lekin o‘rtoqlari va boshliqlari yaxshi ko‘rgan yosh poruchik edi. Vronskiy soat o‘n ikkida temiryo‘ldan o‘z kvartirasiga yetib kelganda, eshigi yonida bir tanish kareta turganini ko‘rdi. Chalgan qo‘ng‘irog‘iga eshik orqasidan erkaklarning xaxolab kulishganini, bir ayolning bidirlab gapirganini va Petritskiyning: «G‘alamislardan bo‘lsa, kirgizma!» degan qichqirig‘ini eshitdi. Vronskiy xizmatkor askariga o‘zining kelganini aytmagin deb tayinladi-da, birinchi xonaga lip etib kirib oldi. Petritskiyning mijozlari, binafsha atlas ko‘ylak kiygan va oq-sariq betlari qip-qizil baronessa Shilton o‘zining parijcha lahjasi bilan misoli to‘rg‘ayday butun xonani to‘ldirib sayrar, yumaloq stol yonida qahva qaynatib o‘tirar edi. Petritskiy paltoda, rotmistr Kamerovskiy esa to‘g‘ri xizmatdan kelgan bo‘lsa kerak, to‘la harbiy formada baronessa atrofida o‘tirishgan edi. Petritskiy stulni taraqlatib sakrab o‘rnidan turdi-da:

– Yasha! Vronskiy! – deb qichqirdi. – Xo‘jayinning o‘zi kelib qoldi. Baronessa, yangi qahvadondan unga qahva suzing. Qo‘qqisdan kelib qolarsan deb hech o‘ylamagan edik! Kabinetingning zeb-ziyatidan mamnun bo‘larsan deb umid qilaman, – dedi u baronessaga ishora qilib. – Tanish bo‘lsalaringiz kerak?

– Tanish bo‘lish ham gapmi? – dedi Vronskiy kulimsirab va baronessaning kichkina qo‘lchasini siqib turib. – Juda yaxshi tanishmiz! Eski do‘st.

Baronessa:

– Yo‘ldan keldingiz, – dedi, – men keta qolay. Voy, xalaqit berayotgan bo‘lsam, shu tobdayoq ketaman.

– Siz qayerda bo‘lsangiz, o‘sha yer sizning uyingiz, baronessa, – dedi Vronskiy. – Salom, Kamerovski, – deb qo‘ydi Kamerovskiying qo‘lini sovuqqina qisib.

– Qarang, siz hech mahal odamga shunaqa yaxshi gaplarni aytishni bilmaysiz, – dedi baronessa Petritskiyga yuzlanib.

– Yo‘q, nega aytolmas ekanman? Tushlikdan keyin bundan ham yaxshirog‘ini ayta olaman.

– Tushlikdan keyingisining qimmati bir chaqa! Xo‘p, hozir qahva quyib beraman, boring, yuvinib, kiyinib-taranib keling, – dedi baronessa yana joyiga o‘tirib; u yangi qahvadonning vintchasini ehtiyot bilan burab turib, Petritskiyga: – Per, quruq qahvadan picha bering, – deb murojaat qildi. Baronessa Petritskiyning familiyasiga qarab Per deb atar va u bilan bo‘lgan aloqasini yashirmaslikka tirishar edi. – Ozroq qo‘shmasam bo‘lmaydi.

– Buzasiz-da.

– Yo‘q, buzmayman! Ha, aytmoqchi, xotiningiz qani? – deb qoldi birdan baronessa o‘rtoqlari bilan gaplashib turgan Vronskiyning so‘zini bo‘lib. – Biz bu yerda o‘tirib sizni uylantirib qo‘ygandik. Xotiningizni olib keldingizmi?

– Yo‘q, baronessa. Men onadan lo‘li bo‘lib tug‘ilganman, lo‘li holimcha o‘lib ketaman.

– Unday bo‘lsa, juda yaxshi, juda soz. Qo‘lingizni bering.

Shundan keyin baronessa Vronskiyning qo‘lini qo‘yib yubormasdan hayotining so‘nggi rejalarini hazil-kulgi aralash hikoya qila va undan maslahatlar so‘ray boshladi.

– Taloq xatimni berishga u hech unamaydi! Endi nima qilsam ekan-a? (U – baronessaning eri edi). Sudlashsam deb turibman. Siz qanday maslahat berasiz? Kamerovskiy, qahvaga qarasangiz-chi, toshib ketyapti, ko‘rib turibsiz-ku, ish bilan bandman! Sudlashmoqchiman, chunki o‘z mulkim o‘zimga kerak. Bu nodonlikni qarang, men unga vafosizlik qilayotganmishman, – dedi baronessa nafratlanib, – shuning uchun ham mening mulkimdan foydalanmoqchi.

Vronskiy bu nozanin xotinning sho‘x ado bilan aytayotgan so‘zlarini huzur qilib eshitar, gaplarini ma‘qullar, yarim hazil, yarim chin maslahatlar berardi, keyin u shu xildagi ayollar bilan qanday muomala qilsa, hozir ham darrov shu taxlit muomala qilishga o‘tdi. Uning nazarida, Peterburg olamidagi hamma odamlar bir-biriga tamoman zid ikki turga bo‘linardi. Bulardan biri: razil, nodon va asosan kulgili, past nav odamlar, bu turdagi odamlar – har bir erkak nikohiga olgan o‘z xotini bilan yashashi kerak, qiz bola – tortinchoq, xotin kishi – uyatchan, erkak – mard, og‘ir va mustahkam bo‘lishi kerak, bolalarini tarbiya qilishi, mehnat bilan non topishi, qarzlarini to‘lashi va shunga o‘xshash har xil bema‘ni narsalarni qilishi kerak, degan aqida bilan yashaydigan kishilar edi. Bular eskirib, kulgili bo‘lib qolgan odamlar turi edi. Lekin haqiqiy insonlardan iborat ikkinchi nav odamlar ham bor edi, bunga Vronskiylar va uning do‘stlari mansub edi, bu turdagi odamlar asosan bashang, chiroyli, olijanob, dadil, xushchaqchaq bo‘lishi, har qanday ehtirosga uyalmay-qizarmay berilishi va boshqa narsalarning hammasidan kulishi kerak edi.

Vronskiy Moskvadan keltirgan butunlay boshqa olamning taassurotlaridan so‘ng faqat dastlabki daqiqalardagina gangib qoldi, lekin oyoqlarini eski tufliga suqqandek, darhol ilgarigi sho‘x, dilrabo muhitga kirib ketdi.

Qahva, baribir, pishmay qoldi, faqat toshib, hammaning kiyimiga sachradi va lozim bo‘lgan taassurotni qoldirdi, ya‘ni shov-shuvga va kulgilarga sabab bo‘lib, qimmatbaho gilam bilan baronessaning ko‘ylagiga to‘kildi.

– Xayr endi, salomat bo‘ling, yo‘qsa, hech qachon chiqib yuvinmaysiz, unda tuzuk odamlar nazarida eng yomon jinoyat hisoblangan nopoklik gunohi mening bo‘ynimga tushadi. Demak, pichoqni bo‘g‘ziga qadashni maslahat ko‘rasiz?

– Mutlaqo, innaykeyin, qo‘lchangiz lablariga yaqin tursin. U qo‘lchangizni o‘padi, shu bilan olam guliston-da, – deb javob qildi Vronskiy.

– Demak, shu kecha fransuz teatrida uchrashamiz! – dedi-yu, baronessa ko‘ylagini shitirlatib chiqib ketdi.

Kamerovskiy ham qo‘zg‘aldi, Vronskiy esa uning ketishini kutib o‘tirmasdan qo‘lini uzatib, yuvingani chiqib ketdi. U yuvinib turgan paytda Petritskiy Vronskiy ketgandan so‘ng o‘z ahvolidagi yuz bergan o‘zgarishlarni qisqagina qilib aytib berdi. Yonida bir tiyini ham yo‘q emish. Otasi pul ham bermayman, qarzingni ham to‘lamayman, debdi. Tikuvchi qamattirmoqchi emish, yana boshqasi ham, albatta, qamattiraman, deb do‘q urayotganmish. Polk komandiri, agar shu g‘avg‘olar tugatilmasa, iste‘foga chiqish kerak, debdi. Baronessa zig‘ir yog‘day ko‘ngliga uribdi, ayniqsa, pul beraman deb va‘da qilaverib joniga tegibdi, manaman degan bir jonon topibdi, uni Vronskiyga ko‘rsatarmish, sharq qizlari qiyofasida, baayni «Rebeka kanizi»ning o‘zginasimish. Verkoshev bilan ham kecha so‘kishibdi, u sekundantlarini yubormoqchi bo‘lgan ekan, lekin, baribir, bundan hech narsa chiqmasmish. Umuman, hamma ishlar quling o‘rgilsin deganday yaxshi, kunlari xushchaqchaqlik bilan o‘tayotgan emish. Petritskiy o‘rtog‘ini ahvolining ikir-chikirlarigacha xabardor qildirgisi kelmay, faqat qiziq yangiliklarnigina hikoya qila boshladi. Vronskiy Petritskiyning bu tanish hikoyalarini o‘zining uch yildan beri o‘rganib qolgan kvartirasidagi tanish asbob-anjomlar orasida eshitib o‘tirib, Peterburgda odatlanib qolgan betashvish hayotiga yana qaytib kelgani uchun xursand bo‘lar edi.

Vronskiy qizil, sog‘lom bo‘yniga suv oqizayotgan yuvinish chanog‘i tepkisini qo‘yib yuborib:

– Yo‘g‘ey! – deb qichqirdi. – Yo‘g‘ey! – deb yana qichqirdi, Loraning Fertingofni tashlab Mileyev bilan topishganini eshitib. – Tentak Mileyev haliyam o‘zidan mamnunmi? Xo‘sh, Buzulukov qalay?

– Ax, Buzulukov shunday bir voqeani kechirdiki, asti qo‘yaver! – deb Petritskiy qichqirib yubordi. – Bilasan-ku, bal desa jonini beradi, saroy ballaridan bittasigayam bormay qo‘ymaydi. Yaqinda yangi kaskasini kiyib, bir kattakon balga boribdi. Yangi chiqqan kaskalarni ko‘rdingmi? Juda yaxshi kaska, yengil. Bahosiyam... yo‘q, bu yog‘iga quloq sol.

Vronskiy paxmoq sochiq bilan artinib turib:

– Qulog‘im senda, axir, – deb javob berdi.

– Bir vaqt ulug‘ knyaginya allaqanday elchi bilan uning yonidan o‘tib qolmaydimi! Buzulukovning sho‘riga ular yangi kaska to‘g‘risida gaplashayotgan ekan. Ulug‘ knyaginya kaskani elchiga ko‘rsatmoqchi bo‘libdi... Qarasa, bizning shovvozimiz turgan ekan. (Petritskiy uning kaska bilan qanday turganini taqlid qilib ko‘rsatdi.) Ulug‘ knyaginya undan, kaskangizni bering, deb so‘raydi, u bermaydi. Nima gap? Unga ko‘zlari bilan imo qilishadi, boshlari bilan ishora qilishadi, qovoqlarini solishadi. Ber, deyishadi-da. Shundayam bermaydi. Bez bo‘lib turaveribdi. Ahvolni ko‘z oldingga keltira olasanmi?.. Faqat, haligi... oti nimaydi... yaqin kelib boshidan kaskasini olmoqchi bo‘ladi... yana bermaydi! U kaskani boshidan shartta yulib olib, knyaginyaga beradi. «Yangi kaska mana shu», deydi ulug‘ knyaginya. U kaskani ag‘darib ko‘rsatmasinmi! Voh, ichidan nok, konfet, ikki qadoqcha konfet yerga shopillab to‘kilsa bo‘ladimi!.. Balda kaskasini to‘ldirib olgan ekan, boyaqish!

Vronskiy kulaverib ichagi uzilguday bo‘ldi. Keyincha, uzoq vaqtlargacha ham, boshqa narsalar to‘g‘risida gaplashib turib kaska esiga tushib ketsa, mahkam, jips tishlarining oqini ko‘rsatib, qah-qah urib kulib yuborardi.

Vronskiy butun yangiliklarni bilgandan so‘ng yugurdagi yordami bilan mundirini kiyib, kelganini ma‘lum qilish uchun harbiy idoraga ketdi. U yerdan chiqib akasinikiga, keyin Betsinikiga borish, so‘ngra bir qancha odamlarni ko‘rib kelish fikrida edi, bundan maqsadi Kareninani uchratish mumkin bo‘lgan kiborlar majlislari-ga qatnay boshlash edi. Hamisha u Peterburgda yarim kechagacha uyiga qaytmas edi, hozir ham shu fikr bilan chiqib ketdi.





IKKINCHI QISM

I

Qish oxirlarida Kitining salomatligi qay ahvolda ekanini va uning zaiflashib borayotgan sog'ligini tiklash uchun nimalar qilish kerakligini aniqlash maqsadida Shcherbatskiylar uyida konsilium¹ o'tkazildi. Kiti betob bo'lib, bahor yaqinlashgan sari salomatligi yomonlashib bormoqda edi. Uy shifokori unga baliq moyi ichirdi, keyin temir, undan keyin lapis² berdi, lekin na birinchisi, na ikkinchisi va na uchinchisi yordam bermagani va bahorni chet elda o'tkazishni maslahat ko'rgani uchun mashhur doktor chaqirib keltirilgan edi. Hali yoshi qaytmagan bu ko'rkamsifat mashhur doktor kasalni tekshirib ko'rishni talab qildi. U go'yo mamnunlik bilan qiz bolaning uyatchanligi faqat yovvoyilikdan qolgan meros, shuning uchun hali yoshi qaytmagan bir erkakning yalang'och qiz badanini ushlab ko'rishdan ham tabiiyroq narsa yo'q, deb so'zida turib oldi. U har kun shunday qilgani va bunda hech narsa sezmagani, fikricha, yomon o'ylarga ham bormagani uchun bu narsani tamoman tabiiy deb bilardi, shu sababdan qizlardagi uyatchanlikni yovvoyilik davridan qolgan sarqit deb hisoblabgina qolmay, shu bilan birga, o'zi uchun bir haqorat deb ham bilardi.

Doktorning talabiga bo'ysunish kerak edi, chunki hamma doktorlar bir xil maktabda, bir xil kitob o'qib, bir xil ilm olganlariga va ba'zi odamlarning bu mashhur doktorni yomon doktor deganlariga qaramasdan, knyaginyaning uyidagilar va unga yaqin odamlar negadir ana shu mashhur doktorni har qanday kasal sirini biladi, Kitini faqat shuning o'zigina qutqazib qola oladi, degan fikrda edilar. Mashhur doktor hang-mang bo'lgan va uyalganidan yerga kirib ketay degan kasalni diqqat bilan tekshirib qaragandan va u yer-bu yerini to'qillatib urib ko'rgandan so'ng qo'llarini yaxshilab yuvgach,

¹ *Konsilium* – shifokorlar kengashi (*tarj.*).

² Kumush nitrat.

mehmonxonada knyaz bilan tikka turib gaplashdi. Knyaz doktorning soʻzlarini yoʻtalib, qosh-qovoqlarini osiltirib turib eshitdi. Oshini oshab, yoshini yashab ham dard koʻrmagan, aql-hushini yoʻqotmagan knyaz tibbiyotga ishonmas, Kiti muftalo boʻlgan dardning asl sababini deyarli yolgʻiz oʻzigina bilgani uchun bu masxarabozliklarga yurak-yuragidan gʻashi kelardi. Mashhur doktorning Kiti muftalo boʻlgan dard toʻgʻrisidagi vaysashlariga quloq solib turgan paytda qari knyaz ovchilar lugʻatidagi soʻzni mashhur doktorga miyasida tatbiq qilib: «Voy, shalpanqulogʻ-ey!» deb oʻylardi. Doktor ham oʻzining bu qari kibor odamga boʻlgan nafratini zoʻrgʻa-zoʻrgʻa yashirib turar va uning tuban ongi darajasiga qiyinlik bilan tanazzul qilardi. Mashhur doktor bu chol bilan gaplashib oʻtirishning hojati yoʻqligini va bu uyning boshi knyaginya ekanini tushunardi. Shuning uchun u butun bilagʻonligini ona oldida tantana qilmoqchi boʻldi. Xuddi shu vaqtda knyaginya mehmonxonaga uy doktori bilan kirib keldi. Knyaz bu masxarabozlikning oʻzi uchun naqadar kulgili ekanini sezdirib qoʻymaslikka tirishib, nari ketdi. Knyaginya boshi gʻovlab, nima qilishini bilmas edi. U oʻzini Kiti oldida aybdor hisoblar edi.

– Qani, doktor, taqdirimizni hal qiling, – dedi knyaginya. – Hamma gapni ochiq ayting. – «Umid bormi?» demoqchi boʻldi-yu, lekin lablari qaltirab ketib, bu savolni berolmadi. – Gapiring, nima gap, doʻxtir?..

– Hozir hamkasbim bilan gaplashib olay, keyin fikrimni aytaman, knyaginya.

– Boʻlmasa, biz chiqib ketaylikmi?

– Ixtiyoringiz.

Knyaginya bir xoʻrsinib, chiqib ketdi.

Doktorlar yolgʻiz qolishgandan soʻng uy shifokori oʻz fikrini qoʻrqa-pisa gapira boshladi. Uning fikricha, sil kasalining boshlanganini bildiruvchi alomatlar bor, lekin... va hokazo, va hokazo. Mashhur doktor unga quloq solib turib, soʻzining oʻrtasida oʻzining kattakon tilla soatiga qarab oldi.

– Shunday, – dedi u. – Lekin...

Uy shifokori soʻzining yarmida hurmat bilan toʻxtab qoldi.

– Oʻzingizga maʼlumki, sil kasalining boshlanganini siz bilan biz aniqlayolmaymiz, kavaklar paydo boʻlmasdan turib, bir narsa deb

bo'lmaydi. Lekin shubha qilishimiz mumkin. Negaki, ishtahasining yomonligi, asabiy hayajonda ekani va boshqa alomatlar shunday taxmin qilishga asos beradi. Endi oldimizda shunday bir masala bor: sil kasalining boshlanganiga shubha tug'ilganda, bemorning ishtahasini ochish uchun nima qilish kerak?

Uy shifokori nozik bir tabassum bilan:

– Lekin, o'zingizga ma'lumki, bu masala zamirida hamma vaqt axloqiy va ma'naviy sabablar ham bo'ladi, – deb o'z fikrini aytishga jur'at etdi.

Mashhur doktor soatiga yana bir qarab olib:

– Ha, albatta, – deb javob berdi. – Kechirasiz, Yauza ko'prigi ochilganmi yo tag'in aylanib o'tish kerakmi? – deb so'radi. – A! Ochilgan. Xo'p, unday bo'lsa, yana yigirma daqiqacha qolaman. Demak, biz shunday qarorga keldik: kasalning ishtahasini ochish va asabini tuzatish kerak. Bu narsalarning har biri ikkinchisi bilan bog'liq, shuning uchun masalaning har ikki tomoniga ham e'tibor qilish lozim bo'ladi.

– Chet elga jo'natish masalasi nima bo'ladi? – deb so'radi uy shifokori.

– Men chet elga jo'natish tarafdori emasman. O'zingiz o'ylab ko'ring, agar sil kasali boshlangan bo'lsa, afsuski, buni bilishga qodir emasmiz, u holda chet elga jo'natishdan naf yo'q. Shunday bir chora topish zarurki, u kasalning ishtahasini ochsa-yu, o'ziga zarar yetkazmasa.

Shundan keyin mashhur doktor kasalni Soden suvlari bilan davolash rejasini aytib berdi; shu xil muolajani tayinlashdan asosiy maqsadi, aftidan, bu suvlarning kasalga zarar yetkazmasligi bo'lsa kerak.

Uy shifokori uning so'zlarini diqqat va hurmat bilan tingladi.

– Lekin kasalning odatlanib qolgan narsalarini o'zgartirish va uni og'ir xotiralar uyg'otuvchi sharoitdan uzoqlashtirish uchun chet elga jo'natilsa, yomon bo'lmasdi. Innaykeyin, onalariyam shuni xohlaydilar.

– E! Unday bo'lsa, mayli, boraversinlar, faqat ana shu nemis firibgarlari kasalga zarar yetkazishadi-da... Lekin bizning maslahatlarimizdan chiqmasliklari kerak... Xay, mayli, boraversinlar...

Mashhur doktor yana soatiga qarab:

– O'! Ketishim kerak, – deb eshik tomon yo'l oldi.

Mashhur doktor knyaginyaga kasalni yana bir marta ko'rmoqchi ekanini aytdi. (Shu gapni u odob yuzasidan aytgan edi.)

– Labbay! Yana tekshirib ko'rmoqchisiz! – deb yubordi ona dahshatlanib.

– Yo'q, masalaning ba'zi bir mayda-chuyda tomonlarini aniqlab olmoqchiman, xolos, knyaginya.

– Unday bo'lsa, marhamat.

Ana shundan keyin ona doktor bilan birga mehmonxonaga kirdi: ozib-to'zigan, yuzlari qizargan Kiti uy o'rtasida tik turar, boya xijolat bo'lgani uchun ko'zlari nur sochib porlar edi. Doktor kirganda yuziga qon yugurdi, ko'zlari esa yoshga to'ldi. Butun dardi va uni shifolashga urinish Kitiga ahmoqona, hatto kulgili bir narsa bo'lib ko'rinardi! Chilparchin bo'lgan ko'za siniqlarini bir-biriga ulash naqadar kulgili bo'lsa, o'z muolajasi ham unga shunday kulgili bo'lib ko'rinardi. Ko'ngil shishasi singan edi. Ajabo, uni dori-darmonlar bilan shifolab bo'ladimi? Lekin onani tahqir etib bo'lmasdi, ayniqsa, o'zini aybdor hisoblagani uchun ham uni xafa qilib bo'lmas edi.

– Zahmat bo'lsayam, o'tirsangiz, knyaginya, – dedi mashhur doktor.

U kulimsirab Kitining ro'parasiga o'tirdi, tomirini ushlab ko'rib, yana odamni diqqat qiladigan savollar bera boshladi. Kiti bir necha savolga javob bergandan so'ng, birdan jahli chiqib, o'rnidan turib ketdi.

– Kechiring, do'xtir, lekin bu so'roq-savollardan hech qanday naf chiqmaydi. Bir narsani mendan uchinchi marta so'rayapsiz.

Mashhur doktor xafa bo'lmadi. Kiti chiqib ketgandan so'ng knyaginya:

– Kasal natijasi-da, bu asabiylik, – dedi. – Xayr, ko'rib bo'ldim...

Shundan keyin doktor knyaginya oldida, xuddi g'oyat dono xotin oldida gapirayotgandek, knyajnaning ahvolini ilmiy jihatdan tasvirlab bergandan so'ng, hech luzumi bo'lmagan suvlarni qanday ichish to'g'risida yo'l-yo'riq ko'rsatib, tahliliga yakun yasadi. Chet elga borsinmi-yo'qmi, deyilgan savol berilganda esa doktor xuddi chigal masalani yechayotgandek, chuqur o'yga botib ketdi. Axiyri, masalani shu taxlit hal etdi: borsa bo'ladi, lekin firibgarlarga ishonmasligi va har bir masalada o'ziga murojaat qilishi kerak...

Doktor ketgandan so'ng xuddi quvonchli hodisa yuz bergandek bo'ldi. Onasi qizining yoniga xursand bo'lib kirib keldi, Kiti ham yolg'ondan o'zini xursand qilib ko'rsatdi. Endi Kiti tez-tez, qariyb hamma vaqt ayyorlik qilishga majbur edi.

– Rostini aytsam, soppa-sog'man, maman. Lekin chet elga ketgingiz kelayotgan bo'lsa, mayli, ketaylik! – dedi-yu, Kiti chet elga qilinadigan safarga qiziqayotganini ko'rsatishga tirishib, yo'l taraddudlari to'g'risida gapira boshladi.

II

Doktor ketgandan keyin Dolli keldi. U shu bugun konsilium bo'lishini bilardi, shuning uchun yaqinda ko'zi yorib, o'rnidan turganiga (qish oxirlarida qiz tuqqan edi), o'z dardi va tashvishi boshidan oshib-toshib yotganiga qaramay, emizikli bolasi bilan og'rib qolgan qizini uyiga qo'yib, Kitining holidan xabar olgani va konsilium natijasini bilgani kelgan edi. U mehmonxonaga kirdi-yu, shlapasini boshidan ham olmay:

– Xo'sh, nima bo'ldi? – deb so'radi. – Hammangizning vaqtingiz chog'. Yaxshiga o'xshaydi-a?

Doktoring so'zlarini unga aytib bermoqchi bo'lishdi, lekin doktor har qancha silliq gapirgan, ko'p gapirgan bo'lsa ham, uning so'zlarini tuzukroq aytib berisholmadi. Shuncha gapning ichida faqat chet elga borish to'g'risidagi qarordan boshqa hech qanday qiziq gap topilmadi.

Dolli beixtiyor xo'rsindi. Eng yaxshi do'sti, singlisi uzoq safarga jo'naydigan bo'libdi. U o'z hayotidan xursand emasdi. Eri bilan yarashgandan so'ng Stepan Arkadichga bo'lgan munosabati xo'riligini keltiradigan bo'lib qoldi. Anna bog'lab ketgan iplar mahkam ushlamadi, natijada, oila totuvligi yana eski joyidan uzildi. Aniq bir narsa bo'lmasa hamki, Stepan Arkadich deyarli uyda hech vaqt ko'rinmas, yonida qariyb hech mahal pul ham bo'lmas edi; erining vafosizligi haqidagi shubhalari Dollini har doim qiynar, bir karra boshidan o'tgan rashk azoblaridan qo'rqib, shubhalarini xayolidan quvishga tirishar edi. Bir marta boshidan kechirgan birinchi rashk olovi yana qaytadan lovillayolmasdi, basharti, erining vafosizlik qilayotganini bilib qolganda ham, baribir, bu narsa birinchi martadagi singari qat-

tiq ta'sir qilmagan bo'lar edi. Agar bilib qolsa, bu narsa endi uni faqat oila odatlaridagina mahrum qilar va Dolli o'z-o'zini aldab, bunday bo'shanglik qilgani uchun eridan ham, o'zidan ham nafratlangan bo'lar edi. Buning ustiga, kattakon oila tashvishi holi-joniga qo'ymay qiynar: goh emizikli bolasi sutdan qolar, goh enaga ketib qolar, goh hozirgidek bolalaridan biri og'rib qolar edi.

– Bolalaring qalay? – deb so'radi onasi.

– Ax, maman, sizning o'z dardingiz boshingizdan oshib-toshib yotibdi. Lili og'rib qoldi, qizilchamasmikan deb qo'rqaman. Sizlardan birrov xabar olib ketay deb keldim, Xudo ko'rsatmasin, qizilcha bo'lsa, yudan chiqolmay o'tirib qolaman.

Doktor ketgandan so'ng keksa knyaz ham kabinetidan chiqqida, o'pish uchun betini Dollining lablariga tutib, u bilan biroz gaplashgandan so'ng xotiniga yuzlandi:

– Nima qiladigan bo'ldinglar, jo'naysizlarmi? Xo'sh, meni nima qilmoqchisizlar?

– Sen qolsangmikin deyman, Aleksandr, – dedi xotini.

– Ixtiyorlaring.

– Maman, nega endi dadam biz bilan ketavermaydilar? – dedi Kiti. – Dadam ham xursand bo'ladilar, biz ham.

Qari knyaz o'rnidan turib Kitining sochlarini siladi. Kiti boshini ko'tardi-yu, zo'r-zo'rakasiga kulimsirab, otasining yuziga qaradi. Otasi u bilan kamdan kam gaplashsa ham, Kitiga hamisha oila a'zolarining ichida eng yaxshi sirdoshi – otasi bo'lib ko'rinar edi. Kiti kenja qiz bo'lganidan otasining arzandasi edi, shuning uchun otasining muhabbati uni Kitiga nisbatan sezgir qilib qo'ygandek tuyulardi. Hozir Kitining ko'zlari otasining o'ziga diqqat bilan qarab turgan mehribon moviy ko'zlari bilan to'qnash kelganda, Kitiga otasi uning ichidagi gapni bilgandek va ko'nglidan o'tgan yomon hislarni fahmlayotgandek tuyuldi. Kiti qizardi-yu, otam o'par deb, unga suykandi, lekin qari knyaz qizining sochlarini qo'li bilan to'zg'itib:

– Bu ulamasochlar xo'p ahmoqona narsa-da! – dedi. – Qizingning o'z sochini topguningcha o'lib bo'lasan, nuqul harom o'lgan xotinlarning sochini silaysan. Xo'sh, Dolinka, sening ko'zuring nima qilib yuribdi? – dedi qari knyaz katta qiziga qarab.

Dolli gap erining ustida ketayotganini fahmlab:

– Tuzuk, dada, – deb javob berdi. Keyin istehzoli bir tabassum bilan shu soʻzlarni aytishdan oʻzini tiyolmadi: – Hamma vaqt koʻchada, yuziniyam koʻrmayman desam, yolgʻon boʻlmaydi.

– Ha, haliyam qishloqqa yogʻoch sotgani ketgani yoʻqmi?

– Yoʻq, hadeb paysalga solib yuribdi.

– Shunaqami! – deb yubordi knyaz. – Boʻlmasa, men ham yoʻl tarraddudini koʻraymi? Xoʻp boʻladi, – dedi u xotini yoniga oʻtirayotib. Keyin kenja qiziga yuzlanib ilova qildi: – Menga qara, Katya, bir kunmas bir kun uyqungdan uygʻonsang-u: «Ey, men soppa-sogʻman, kayfim ham chogʻ, yana dadam bilan ertalab sovuqda aylangani chiqaylik», desang, nima boʻlarkin, a?

Otasi aytgan narsalarni qilish juda oson koʻrinsa ham, Kiti bu soʻzlarni eshitganda, jinoyat ustida qoʻlga tushgan odamday shoshib, sarosimaga tushdi. «Ha, dadam hamma sirni biladi, hammasiga tushunadi, shuning uchun shu soʻzlari bilan «Har qancha uyat boʻlsa ham, bu uyatga tob keltirish kerak», demoqchi boʻladi». Otasiga javob qilishga Kitining yuragi yoʻq edi. Bir nima deb gap boshladiyu, qoʻqqisidan yigʻlab yuborib, yugurganicha xonadan chiqib ketdi.

– Ana, hazilning oqibati! – deb knyaginya eriga hujum qildi. – Sen hamma vaqt... – Knyaginya shu taxlit eriga taʼna qila ketdi.

Knyaz knyaginyaning ginaxonligiga indamay oʻtirib quloq soldi, lekin dam sayin qosh-qovoqlari osilib, yuzi tumtaya bordi.

– Bechora qizimning ahvoli shu qadar ogʻirki, koʻrsam, rahmim keladi, sen tushunmaysanki, uni shu koʻyga solgan sababga zarracha ishora qilinguday boʻlsa, uning yuragi qonga toʻladi! Eh, odam bolasini bilib boʻlmas ekan-da! – dedi knyaginya uning soʻz ohangining oʻzgarishidan Dolli bilan knyaz gap Vronskiy ustida ketayotganini anglashdi. – Hayronman, bunday yaramas, pastkash odamlarning adabini berish uchun nega qonun yoʻq ekan?

– E, koshki qulogʻim eshitmasaydi shu gaplaringni! – dedi knyaz qovogʻini solib, keyin oromkursidan turib chiqib ketmoqchi boʻldiyu, lekin eshik ogʻziga borganda toʻxtab qoldi. – Qonun-qoida bor, onasi, senki tilimni qichitib qoʻyding, endi mendan eshit, ayb kimdaligini aytib beray: hammasiga aybdor sensan, bir oʻzingsan, oʻzginangsan! Bunday muttahaamlarga qarshi qonun-qoida hamma vaqt boʻlgan, hozir ham bor! Boʻlmasligi kerak boʻlgan oʻsha ka-sofat ish boʻlmaganda-chi, ha, men qariligimga qarab oʻtirmasdan u

oliftani devorga taqab qo'yardim. Mana endi dori-darmonlar bering, firibgar do'xtirlarni uyga chorlang!

Knyazning gapi hali ko'pga o'xshardi, lekin knyaginya uning gap ohangini eshitdi-yu, darhol mo'minlashib, pushaymon bo'la boshladi. Gap jiddiy masalalarga ko'chganda, u hamisha shunday qilardi:

– Alexandre, Alexandre, – deb shipshidi u eri tomonga jilib, yig'lab turib.

Knyaginya yig'lab yuborgandan so'ng knyaz ham tilini tishlab qoldi. U xotiniga yaqin keldi.

– Bas, bas, bo'ldi endi! Bilaman, sengayam qiyin. Nachora? Lekin sho'rimiz qurigancha yo'q. Xudoning marhamati ulug'... Shukur qil... – derdi u nima deyatganini ortiq o'zi ham bilmay, keyin knyaginya ko'z yoshlarini to'kib qo'lidan o'pganini sezdi-yu, unga ham o'pish bilan javob qilib mehmonxonadan chiqib ketdi.

Kiti mehmonxonadan yig'lab chiqib ketganda, Dolli o'zining onalik mehri va oila tajribasi bilan bu ishga xotin kishining aralashuvi kerakligini darhol tushundi-da, o'zi shunga tayyorlandi. Boshidan shlapasini oldi, o'zini chog'lab harakatga tushdi. Onasi otasiga hujum boshlagan paytda u qizlik hurmati yo'l qo'ygan darajada onasini boshiga tirishgan edi. Knyaz jahli chiqib, ko'pirib ketganda esa jim turdi, Dolli ana shunda onasi uchun uyalgan bo'lsa, darhol jahlidan tushib, muloyimlashgan otasiga qalbi mehr-u muhabbat bilan to'lgan edi; lekin otasi chiqib ketgandan so'ng qilinishi lozim bo'lgan eng muhim ishni qilishga, ya'ni Kitining yoniga kirib, uni yupatishga bel bog'ladi.

– Sizga ko'p vaqtlardan beri aytaman deb yurgan bir gapim bor edi, maman: Levin so'nggi marta shu yerda ekanida Kiti bilan turmush qurish to'g'risida taklif qilmoqchi bo'lganidan xabaringiz bormi? Stivagayam aytgan ekan.

– Xo'sh, aytgan bo'lsa, nima? Hayronman...

– Ehtimol, aytgan bo'lsa, balki Kiti ko'nmagandir?.. Kiti hech nima degani yo'qmi sizga?

– Yo'q, Kiti unisi to'g'risidayam, bunisi to'g'risidayam hech nima degani yo'q, bunday narsalarni gapirishga bo'yni yor beradigan qiz emas u. Lekin bilaman, bu narsalarning hammasiga o'sha sabab...

– O'zingiz bir o'ylab ko'ring, oyijon, agar Levinni rad qilgan bo'lsa, demak, narigisiga ilinji bo'lgani uchun rad qilgan, bilamanda... Keyin o'shanisi Kitini yomon aldab ketgan.

Qizining oldida gunohi naqadar zo'r ekanini o'ylaganda knyagin-yani dahshat bosar edi, shuning uchun darhol jahli chiqdi:

– Oh, kalam g'ovlab ketdi! Hozirgi zamonda hamma o'z aqli bilan yashash fikrida, onalariga hech nima deyishmaydi, oqibati bo'lsa mana bunday...

– Maman, Kitining yoniga kirmoqchiman.

– Kiraver. Nima, men yo'lingni to'sib turibmanmi? – dedi onasi.

III

Dolli Kitining kichkina kabinetiga, ya'ni ikki oygina avval yuzlari gulday ochilib, o'ynab-kulib turgan sho'x, yosh, tarovatli Kitining o'zginasiga o'xshagan ana shu chiroyli, tarovatli va vieux saxe¹ qo'g'irchoqlari bilan bezakli mo'jazgina xonaga kirganda, bu xonani bultur ikkovlari qanday sevinch va mehr bilan yig'ishtirganlarini esladi. Hozir Kiti eshik yaqinidagi pastak stulda ko'zlarini gilam burchiga tikib o'tirardi. Dolli uni ko'rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Kiti opasiga qayrilib qaragan bo'lsa hamki, yuzining sovuq, birmuncha qahrli ifodasi o'zgarmadi.

Darya Aleksandrovna Kitining yoniga o'tirib:

– Men hozir ketaman-u, shu ko'yi uydan ko'chaga chiqolmayman, sen ham mening oldimga kelolmaysan, – dedi. – Shuning uchun hozir sen bilan gaplashib olmoqchiman.

Kiti cho'chib boshini ko'tardi-yu, shoshib-pishib:

– Nima to'g'risida? – deb so'radi.

– Sening darding to'g'risida-da, boshqa nima to'g'risida bo'lardi?

– Mening hech qanaqa dardim yo'q.

– Bas, Kiti. Nahotki, meni hech narsadan xabari yo'q deb o'ylasang? Hamma gapdan xabarim bor. Mening gapimga kirsang, bunga hech parvo qilma, behuda gap bular... Hammamiz ham boshimizdan o'tkazganmiz.

Kiti jim o'tirar, yuzida esa g'azab alomati ko'rinar edi. Darya Aleksandrovna birdaniga maqsadga ko'chib:

– U sening bunchalik iztirob chekishingga arziydigan odam emas, – dedi.

¹ Eski sakson (*frans.*).

– Ha, chunki u meni nazariga ilmadi! – dedi Kiti qaltiroq bir tovush bilan qichqirib. – Unaqa dema! Jon opa, bunaqa gaplaringni qo‘y!

– Axir, senga kim shunday dedi? Hech kim bu gapni aytgani yo‘q. Nazarimda, seni yaxshi ko‘rib qolgan. Hozir ham yaxshi ko‘radi, men bunga aminman, lekin...

– Ax, odamlarning menga achinishlariga hech toqat qilolmayman! – Kiti birdan jahli chiqib qichqirib yubordi. Keyin burilib o‘tirib oldi, yuzi qizardi va ushlab turgan tasma bandini goh bu, goh u qo‘li bilan g‘ijimlab, barmoqlarini tez-tez qimirlata boshladi. Dolli singlisining qizishgan paytlarda qo‘liga tushgan narsani shunaqa g‘ijimlaydigan odati borligini bilardi, Kiti qizishgan daqiqalarida o‘zini unutib, bir talay bema‘ni va xunuk so‘zlarni aytib yuborishdan ham toymas edi. Dolli Kitining shu fe‘lini bilgani uchun uni tinchitishga urinib ko‘rdi, lekin vaqt o‘tgan edi.

– Axir, nima, nima demoqchisan menga, nimaga ta‘na qilyapsan? – deb Kiti bidiray ketdi. – Ko‘ngil bergan kishim meni nazariga ilmagani, men uning ishqida o‘lib yotganimni ta‘na qilmoqchimisan? Shu gapni bir qorindan talashib tushgan opam gapiryaptimi?.. Menga joni... joni kuyayotganini bildirmoqchi bo‘ladimi!.. Lekin bunday jonkuyarlik, bunday riyokorliklarga ko‘zim uchib turgani yo‘q!

– Kiti, noinsoflik qilyapsan.

– Nega meni buncha qiynaysan?

– Voy, nega qiynay... aksincha, xafaligingni ko‘rib...

Lekin Kiti g‘azab o‘tida yonib turgani uchun opasining so‘zlarini eshitmadi.

– Men boshimni toshgayam urmayman, tasalligayam muhtojmasman. Meni yomon ko‘rgan kishini yaxshi ko‘radigan darajada hali aqlimni yeb qo‘yganim yo‘q, o‘zimga yarasha g‘ururim bor.

– Men ham unaqa deyaotganim yo‘q-ku... faqat sendan bir narsani so‘ramoqchiman, menga to‘g‘risini ayt, – dedi Darya Aleksandrovna singlisining qo‘lini ushlab, – qani, ayt-chi, Levin senga hech nima debmidi?..

Levinning nomi aytilganda, Kitining so‘nggi sabr-u toqati ham tugagandek bo‘ldi, stuldan sakrab turdi, tasmabandini yerga otib urdi va qo‘llarini tez-tez qimirlatib, bidiray ketdi:

– Bu yerda Levin nima qilib yuribdi? Hayronman, meni nima uchun qiynaysan-a? Men boya ham aytdim, yana qayta-qayta ayta-

man, men mag'rurman, shuning uchun sen qilgan narsani hech vaqt, hech vaqt qilmayman, sevgingga xiyonat qilgan, boshqa bir xotinni yaxshi ko'rib qolgan bir kishi bilan o'lsam ham birga turmayman. Men bunday narsalarni aqlimga sig'dirolmayman! Sen birga turolasan, lekin men turolmayman!

Kiti shu so'zlarni aytib bo'lib opasining yuziga qaradi-da, Dollining xafa bo'lib, boshi xam bo'lib, jim qolganini ko'rди-yu, tashqariga chiqib ketish fikrida bo'lishiga qaramay, eshik yoniga borib o'tirdi va dastro'molchasi bilan yuzini to'sib, boshini quyi solintirdi.

Sukunat ikki daqiqacha davom etdi. Dolli o'zi to'g'risida o'ylardi. Hamisha o'zini ezib kelayotgan xo'rлиgini singlisi uning yuziga solganda, Dollining yuragi tars yorilib ketay dedi. U o'z singlisidan shunday bag'ritoshlikni kutmagan edi, shuning uchun jahli chiqdi. Lekin birdan ko'ylak shitirini va ayni zamonda hiq-hiq yig'i tovu-shini eshitdi, keyin allakimning qo'llari pastdan kelib bo'ynini quchoqladi. Kiti ro'parasida tiz cho'kib turardi.

– Dollijon, men shu qadar baxtsizman, shu qadar baxtsizman-ki! – Kiti gunohkordek shivirladi.

So'ngra ko'z yoshlari bilan yuvilgan dilbar chehrasini Darya Aleksandrovna ko'ylagining etaklariga yashirdi.

Bu ko'z yoshlari go'yo opa-singil o'rtasidagi do'stlik iplarini mustahkamlaydigan mumdek zarur bo'lgan bir narsadek edi, opa-singil ko'z yoshlarini to'kib, yuraklarini bo'shatib olgandan so'ng o'zlarining xayollarini band qilmagan masalalar to'g'risida gaplasha boshlashdi, lekin mavzudan tashqari narsalar to'g'risida gaplashib turib ham bir-birlarining muddaolariga juda yaxshi tushunardilar. Kiti Stepan Arkadichning vafosizligi va Dollining xo'rlangani to'g'risida jahl ustida aytib yuborgan gaplari bechora opasining qalbini qattiq yaralagan bo'lsa ham, opasi uni kechirayotganini sezib turardi. Dolli ham bilgisi kelgan narsalarini payqab oldi, taxminlari to'g'ri chiqqaniga ishondi: Levin unga uylanishni taklif qilganda, Kiti uni rad qilgan, Vronskiy bo'lsa Kitini aldab ketgan, mana endi Kitining Levinga ko'ngli moyil, Vronskiy esa ko'rishga ko'zi yo'q – Kitining butun dardi, uning shifolab bo'lmaydigan dardi xuddi mana shulardan iborat edi. Kiti bu haqda og'iz ochgani ham yo'q, faqat ruhiy kayfiyati haqidagina gapirdi, xolos.

– Mening hech qanday dardim yo‘q, – dedi u o‘zini bosib olgandan so‘ng, – lekin shu narsani tushunolarmikansan: hozir menga hamma narsa, dastavval, o‘z ahvolim shu qadar jirkanch, murdor ko‘rinadiki... Hamma narsa to‘g‘risida men juda yomon fikrga kelib qolganman, sen buni xayolinggayam keltirolmaysan.

Dolli kulimsirab turib:

– Tavba, senda qanaqa yomon fikrlar bo‘lishi mumkin? – deb so‘radi.

– Juda yomon, judayam yomon, xunuk fikrlar; senga durustroq qilib aytib berolmayman. Bu qayg‘u-alam emas, hasrat ham emas. Bulardan ham battarroq narsa. Bamisoli mendagi yaxshi xislatlarning hammasi yashirinib olgan-u, faqat yomon, qabih narsalargina qolgan. – Kiti opasining ko‘zlaridagi hayrat alomatini ko‘rib so‘zida davom etdi: – Senga qanday qilib tushuntirib bersam ekan? Dadamlar hozir aytdilar... Nazarimda, meni erga tegishi kerak, deb o‘ylaydilar, xolos. Oyimlar meni ballarga olib boradilar; nazarimda, tezroq erga berib yuborish va mendan qutulish uchungina shunday qiladilar. Bilaman, bu noto‘g‘ri o‘y, lekin bu fikrlarni miyamdan hech chiqarib tashlayolmayman. Kuyov deb atalgan kimsalarni esa ko‘rishga ko‘zim yo‘q. Nazarimda, ular mening bo‘y-bastimni o‘lchayotgandek. Burunlari bal kiyimida u yoq-bu yoqqa borsam, jonim huzur qilar, o‘zimga havasim kelardi; endi esa uyalaman, o‘ng‘aysizlanaman. Xo‘sh, yana nima deyin! Ha, do‘xtir... bu...

Kiti tutilib qoldi; u so‘zining davomida: o‘zida yuz bergan shu o‘zgarishdan keyin Stepan Arkadich ko‘ziga juda shumshuk ko‘rinib qolganini, uni ko‘rganda eng jirkanch, eng xunuk narsalarni xayoliga keltirolmasdan turolmasligini aytmoqchi edi.

– Shunaqa, hamma narsa ko‘zimga juda xunuk, juda shumshuk ko‘rinadigan bo‘lib qoldi, – deb Kiti so‘zida davom qildi. – Mendagi kasallik shundan iborat. Ehtimol, bu o‘tib ketar...

– Ishqilib, o‘ylamasang bo‘lgani...

– Ilojim yo‘q. Faqat bolalar yonida, sizlarnikida bo‘lsam, ko‘nglim yengil tortadi.

– Afsuski, biznikiga borolmaysan, iloji yo‘q.

– Yo‘q, boraman. Qizilcha bilan og‘riganman, oyimlardan ruxsat olaman.

Kiti soʻzida qattiq turib olib, opasinikiga koʻchib ketdi va toʻgʻridan ham bolalarga yuqqan qizilcha tamom oʻtib ketguncha u yerda kasal boqdi. Opa-singil olti bolaning hammasini ogʻir kasaldan sogʻ-u salomat qutqazib oldi-yu, lekin Kitining salomatligi yaxshilanmadi va nihoyat, roʻza kunlarida Shcherbatskiylar oilasi chet elga joʻnab ketdi.

IV

Peterburg kiborlar jamiyati, aslida, bitta doiradan iborat; bu doiradagi aslzodalar bir-birlarini tanishadi, hatto bir-birlari bilan bordikeldi qilib turishadi. Lekin bu katta doira ichida kichik toʻgaraklar ham bor. Anna Arkadevna Kareninaning uchta har xil toʻgarakda doʻstlari va yaqin kishilari bor edi. Bu toʻgaraklardan biri erining idorasidagi xizmatdoshlaridan va tobelaridan tashkil topgan, bunga turli ijtimoiy pogʻonada boʻlgan, lekin ajoyib tarzda bir-biriga bogʻlangan kishilar kirardi. Anna dastlabki mahallarda shu odamlarga nisbatan oʻzida zoʻr bir ehtirom hissi uygʻonganini es-es biladi. Uyezd shahridagi odamlar bir-birlarini qanday bilishsa, Anna ham bu toʻgarak odamlarini hozir shunday yaxshi bilardi; kimning qanday odati va zaif tomoni borligini, kimning qaysi oyogʻini etigi siqayotganini ham bilardi; ularning bir-biriga va bosh markazga boʻlgan munosabatlaridan, kimning kimga tarafdorligidan, oʻz mavqeyini qanday va nima bilan saqlab kelayotganidan, kimning kim bilan nima masalada topishib, nima masalada tortishib yurganidan xabardor edi; Lekin hukumat manfaatini koʻzlaydigan, erkaklarni qiziqtiradigan bu masalalar, grafinya Lidiya Ivanovnaning talqin va taʼkidiga qaramay, Annani hech vaqt qiziqtirmadi, aksincha, bu doiradan u oʻzini olib qochib yurdi.

Annaga yaqin turgan ikkinchi toʻgarak – Aleksey Aleksandrovichning baland martabaga erishuviga yordam bergan toʻgarak edi. Bu toʻgarak markazida grafinya Lidiya Ivanovna turardi. Bu toʻgarak qari, xunuk, saxovatpesha va taqvodor kampirlardan hamda aqlli, olim va shuhratparast erkaklardan iborat edi. Ana shu toʻgarakka mansub boʻlgan aqlli odamlardan biri uni «Peterburg jamiyatining vijdoni» deb atagan edi. Aleksey Aleksandrovich bu toʻgarakni qadrlar edi; hamma bilan murosa qilib ketaveradigan Anna Peterburgdagi

hayotining dastlabki kunlaridayoq bu to‘garakdan o‘ziga tuppa-tuzuk do‘stlar topib oldi. Mana endi, Moskvadan qaytib kelgandan so‘ng, bu to‘garak ko‘ziga juda xunuk ko‘rinib qoldi. Annaning nazarida o‘zi ham, to‘garak odamlari ham riyokorlik qilishayotganga o‘xshardi; axiyri, bu jamiyatdan zerikib, o‘zini shu qadar noqulay his etadigan bo‘ldiki, oqibat, grafinya Lidiya Ivanovnanikiga iloji boricha kamroq boradigan bo‘lib qoldi.

Nihoyat, Annaning tanishlari ko‘p bo‘lgan uchinchi to‘garak aslida kiborlardan, ya‘ni ballar, ziyofatlar berib turadigan, porloq zeb-u ziynatlarga berilgan, yarim kibor darajasiga tushib qolmaslik uchun bir qo‘li bilan saroy ahllarining etagini ushlab olgan aslzodalardan iborat edi; bu yuksak doira a‘zolari o‘zlaridan pastroqda turgan yarim kibor jamiyatning odamlaridan hazar qilamiz, deb o‘ylashsa ham, haqiqatda didlari ularnikiga o‘xshash, hatto bir xil ham edi. Anna bu muhit odamlari bilan bo‘lasining yilda yuz yigirma ming so‘m daromadi bo‘lgan xotini knyaginya Betsi Tverskaya orqali aloqa qilib kelardi; knyaginya Tverskaya Annani kiborlar jamiyatida ko‘rina boshlagan kunidan tortib yaxshi ko‘rar, tevaragida parvona bo‘lib yurar, grafinya Lidiya Ivanovnaning to‘garagidan kulib, uni o‘z to‘garagiga tortardi.

– Qarib husnim buzilganda, men ham shunaqa bo‘lib qolaman. Lekin tarki dunyo qilganlar galasiga qo‘shilish sizday yosh, xushro‘y juvon uchun ertalik qiladi, – deyardi Betsi.

Anna dastlabki vaqtlarda grafinya Tverskayaning kiborlar jamiyatidan iloji boricha o‘zini olib qochib yurdi; chunki bu jamiyat Annaning kuchi yetmaydigan xarajatlarni talab qilardi, innaykeyin, ko‘ngli ham narigi jamiyatga ko‘proq moyil edi; lekin Moskvaga borib kelgandan keyin ishlar boshqacha bo‘lib ketdi. U fazilatli do‘stlaridan o‘zini olib qochib, kiborlar ziyofatiga bora boshladi. U yerda Vronskiyga uchrashar, bu uchrashuvlar unga shodlik va hayajon bag‘ishlardi. Vronskiyini, ayniqsa, Betsinikida ko‘proq uchratardi, chunki Betsi Vronskiyning amakivachchasi, o‘zining qizlik familiyasi ham Vronskaya edi. Vronskiy esa Annani ko‘rishi mumkin bo‘lgan joydan qolmas, ilojini topganda unga ishq-muhabbat izhor qilar edi. Annadan unda umid tug‘diradigan biron harakat sodir bo‘lmagan esa-da, lekin har safar unga duch kelganda, birinchi daf‘a vagonda

koʻrgan kuni his qilgan oʻsha yoqimli hayajon yana qalbida oʻt olib ketardi. Vronskiyning koʻrganida shodlikdan koʻzlari chaqnab, lablarida tabassum paydo boʻlganini Annaning oʻzi ham sezib turar, lekin bu shodlik alomatlarini koʻrsatmaslikka ojizlik qilar edi.

Vronskiy payiga tushib olganidan norozi ekaniga dastlabki paytlarda u astoydil ishonardi ham; lekin Moskvadan qaytgandan biroz soʻng Vronskiyning koʻrish niyatida bir majlisga bordi-yu, u yerda Vronskiyning yoʻqligini koʻrdi, yuragi hasrat bilan toʻlganidan shu kungacha oʻzini oʻzi aldab kelayotganini, Vronskiyning oʻz payidan tushib yurgani dilini ogʻritish u yoqda tursin, balki hayotining butun maʼnosini ham tashkil etganini ochiq-oydin tushundi.

Mashhur ashulachi xonim ikkinchi marta ashula aytayotgan va kiborlarning qaymogʻi teatrga toʻplangan payt edi. Vronskiy birinchi qatordagi oʻz kursisidan amakisining qizini koʻrdi-yu, tanaffusni ham kutib oʻtirmasdan, uning lojasiga kirib bordi.

– Nega tushlikka kelmadingiz?.. – dedi unga grafinya Betsi. – Oshiqning oldindan koʻrish qobiliyatiga hayron qolaman, – grafinya kulimsirab va faqat Vronskiygagina eshitiladigan qilib gapirdi: – u ham kelmadi. Lekin operadan keyin toʻgʻri boravering.

Vronskiy amakisining qiziga savol nazari bilan qaragandi, u boshini egib bir nima dedi. Vronskiy unga jilmayish bilan tashakkur bildirib, yoniga oʻtirdi. Bu ishq-muhabbatning oʻsishini kuzatib borishdan katta huzur topuvchi knyaginya Betsi:

– Sizning hazil va mazaxlaringiz oʻqtin-oʻqtin esimga tushib ketadi! – deb soʻzida davom etdi. – Qayerda qoldi u shoʻxliklaringiz? Qarmoqqa ilinganga oʻxshaysiz, azizim.

Vronskiy odatdagi ogʻir-vazmin, mehribon tabassumi bilan:

– Mening birdan-bir istagim ham qarmoqqa ilinishdir, – deb javob qildi. – Gapning toʻgʻrisini aytsam, men qarmoqqa yaxshi ilinmaganimdangina shikoyat qilishim mumkin. Umid iplari uzilib boryapti.

– Xoʻsh, nimadan umidvor boʻlishingiz mumkin? – dedi Betsi dugonasi tufayli koʻngli ogʻrib. – Entendons nous...¹ – uning koʻzlarida chaqnagan uchqunlar Vronskiyning nimadan umidvor ekanini grafinya ham xuddi Vronskiyday aniq va juda yaxshi bilganini koʻrsatar edi.

¹ Bir-birimizni tushunamiz... (frans.)

Vronskiy kulib va jips tishlarining oqini ko'rsatib turib:

– Hech nimadan, – dedi, keyin Betsining qo'lidan durbinini olib: – kechirasiz, – deb qo'ydi-yu, uning yalang'och yelkalari ustidan ro'paradagi loja qatorlarini kuzata boshladi. – Odamlarga kulgi bo'lmasaydim deb qo'rqaman.

Betsi ko'zida, barcha kiborlar ko'zida kulgi bo'lish xavfi yo'qligini u juda yaxshi bilardi. Bu odamlarning ko'zida erga tegmagan qiz va yo boshi ochiq ayolning noshud xushtori bo'lish kulgili ko'rinishi mumkin; ammo erli xotin orqasidan tushib, uni zino yo'liga boshlash uchun butun jonini tikib qo'ygan kishi yolg'iz kulgili emas, hatto chiroyli va ulug' bir ish qilgan hisoblanar, bu tomonlarini u juda yaxshi bilardi, shuning uchun xursandligidan miyig'ida mag'ur kulimsirab turib durbinini tushirdi-yu, Betsiga qaradi.

– Xo'sh, tushlikka nima uchun kelmadingiz? – dedi Betsi unga zavqi kelib.

– Buni sizga hikoya qilib berish kerak. Band edim, bilasizmi nima bilan? Garov o'ynayman... topolmaysiz. Xotinini haqorat qilgan kishi bilan o'sha xotinning erini yarashtirdim. Topolmasdingiz, rostmi?

– Xo'sh, butunlay yarashtirdingizmi?

– Ha, yarashtirdim hisob.

– Menga bu voqeani aytib bermasangiz bo'lmaydi, – dedi Betsi o'rnidan turayotib. – Keyingi tanaffusda keling.

– Bo'lmaydi; fransuz teatriga boraman.

– Nilsonni tashlab-a? – deb yubordi Betsi dahshatga tushib; holbuki, uning o'zi Nilsonni ashula aytgan qizlarning hech biridan ajratolmasdi.

– Nachora? U yerda bir odam bilan ko'rishishim kerak, yana shu sulhparvarlik ishi bilan.

– Sulhparvarlar baxtiyordirlar, ular najot topadilar, – dedi Betsi kimdandir eshitgan shunga o'xshash bir gapni eslab. – Bo'lmasa, o'tiring, ayting-chi, nima gap ekan?

Betsi yana o'rniga o'tirdi.

– Bu gapni gapirish kamtarlikdan bo‘lmasayam, har holda, gashti shu qadar zo‘rki, aytmasdan turolmayman, – dedi Vronskiy kulib turgan ko‘zlarini Betsiga tikib. – Lekin o‘sha odamlarning familiyalarini aytmayman.

– Yana yaxshi, o‘zim payqab olaman.

– Xo‘p, bo‘lmasa, quloq soling: ikki sho‘x yigit ot minib ketayotgan ekan...

– Albatta, sizning polkingizdagi zobitlardan bo‘lsa kerak?

– Zobitlar deyayotganim yo‘q-ku, shunchaki nonushta qilib kelayotgan ikkita yigit...

– Tarjima qiling: kayflari taroq ekan.

– Ehtimol, shundaydir. Kayflari chog‘ bo‘lib o‘rtoqlarinikiga tushlik qilgani ketishayotgan ekan. Bunday qarashsa, suqsurday bir juvon izvoshta yetib kelibdi-yu, ularga bir qayrilib qarab o‘tib ketibdi; yigitlarning nazarida imlagandek, kulgandek tuyulibdi. Albatta, shundan keyin yigitlar jonon orqasidan ot qo‘yishibdi. Otlarini shunday choptirishibdiki, asti qo‘yavering. Jononning izvoshti yigitlar kelayotgan uyning eshigi oldiga kelib to‘xtabdi; bular ko‘rishibdi-yu, hayron bo‘lib qolishibdi. Jonon izvoshtidan tusha solib yuqori qavatga chopib chiqib ketibdi, yigitlar uning yuzidagi kalta, harir parda tagidan la‘l lablarini va xushbichim oyoqchalarini ko‘rib qolishibdi, xolos.

– Siz bu narsani shunday hayajon bilan gapiryapsizki, nazarimda, o‘sha ikki yigitdan biri o‘zingizga o‘xshaysiz.

– Ana xolos, hozirgina qanday pisanda qilib edingiz? Shunday qilib, yigitlar o‘rtog‘inikiga kirishsa, u yerda xayrlashish ziyofati ayni avjida ekan. Hamisha xayrlashish ziyofatida ko‘p ichiladi, bular ham, aftidan, ortiqcha ichib qo‘yishganga o‘xshaydi. Ziyofat ustida yigitlar yuqoridagi qavatda kim turganini surishtirishadi. Lekin hech kim bilmaydi. Faqat uy egasining yugurdagi: «Yuqorida xonimlar turishadimi?» deyilgan savolga yuqorida unaqa oyimchalar ko‘p ekanini aytadi. Ziyofatdan so‘ng yigitlar uy egasining kabinetiga kirib, noma‘lum xonimga xat yozishadi. Xatni ehtiros bilan yozadilar, unda noma‘lum xonimga ishqlarini izhor qiladilar,

keyin xatda tushunilmay qolishi mumkin bo'lgan joylarini tushuntirib berish uchun xatni o'zlari yuqoriga olib chiqadilar.

– Menga nima uchun bunday pardasiz narsalarni aytasiz? Xay, keyin nima bo'ldi?

– Yuqoriga chiqib, eshik qo'ng'irog'ini chalishadi. Eshikka bir qiz keladi, xatni unga berishib, ikkovlarining ham o'larcha oshiq bo'lib qolishganini, hozir shu yerda – ostonada yiqilib jon berajaklarini aytishadi. Qiz hayron bo'lib, ular bilan gaplasha boshlaydi.

Shu payt bakenbardlari xasipga o'xshagan, qisqichbaqa singari qip-qizarib ketgan bir janob chiqadi-da, uyda o'zining xotinidan boshqa hech kim turmasligini aytib, ularni quvib yuboradi.

– Bakenbardlari xasipga o'xshab osilib tushganini qayerdan bilasiz?

– Bu yog'iga quloq soling, bilib olasiz. Bugun ularni yarashtirgani bordim.

– Xo'sh, nima bo'ldi?

– Gapning qiziq joyiyam xuddi shu yerdan boshlanadi. Bilsak, bakenbardli janob – titulyar maslahatchi¹, noma'lum xonim esa uning xotini ekan. Titulyar maslahatchi shikoyat qilib ariza beradi, men bo'lsam yarashtiruvchi rolini o'ynay boshlayman, yana qanday deng!.. Imoningiz komil bo'lsin, bu masalada Taleyrans ham oldimda ip esholmaydi.

– Buning nimasi qiyin ekan?

– Bu yog'iga quloq soling, bo'ynimizni egib uzr so'radik: «Biz juda pushaymondamiz, bu anglashilmovchilik uchun bizni kechirishingizni o'tinib so'raymiz», dedik. Bakenbardlari xasipga o'xshagan titulyar maslahatchi eriy boshladi, u ham yuragidagi hislarini izhor etgisi keladi, lekin og'zini ochishi bilan qizishib ketib, qo'pol so'zlar aytish boshlaydi, ana shundan keyin men yana o'z diplomatik qobiliyatimni ishga solishga majbur bo'laman. «To'g'ri, ularning qilmishi yaxshi emas, men bu fikringizga tamoman qo'shilaman, lekin anglashilmovchilik bo'lganini, ularning yoshligini nazarga olishingizni o'tinib so'rayman; buning ustiga, ular nonushtadan sal kayf qilib chiqishgan ekan. Bu yog'ini o'zingiz yaxshi tushunasiz. Ular chin ko'ngillaridan

¹ *Titulyar maslahatchi* – Chor Rossiyasida 9-darajali fuqarolik mansabi (*tarj.*).

pushaymon bo'lishib, gunohlarini kechirishingizni iltimos qilish-yapti», desam, titulyar maslahatchi yana yumshaydi-da; «Xo'p, graf, gunohlarini kechirishga-ku tayyorman-a, lekin, bilasizmi, mening xotinim, nomusiga zarracha ham gard tushirmagan xotinimning payiga tushishsa, qo'pollik va pastkashlik qilishsa! Yana kimlar deng? Allaqanday tirranchalar, abla...» – deydi; ana bu ahvolning chatoqligini qarang: titulyar maslahatchi aytgan tirranchalar yonimda turishibdi, men ularni yarashtirishim kerak. Men yana diplomatchilikni ishga solaman, ora endi tuzalay deb qolganda, titulyar maslahatchim yana qizishadi; qizaradi, chakkalari-dagi xasiplari o'ynay boshlaydi, men yana diplomatik hunarimni mahorat bilan ishga solaman.

– Eh, bu voqeani sizga bir aytib berish kerak edi! – dedi Betsi lojasiga kirib kelgan bir xonimga yuzlanib. – Bu meni kuldiraverib ichaklarimni uzayozdi. – Keyin knyaginya yelpig'ich ushlagan qo'lining bo'sh barmog'ini Vronskiyga uzatib: – Xo'p, bonne chance¹, – deya ilova qildi-da, lojaning oldiga chiqib o'tirganda gaz yorug'ida odamlarning ko'ziga iloji boricha yalang'ochroq ko'rinish uchun ko'ylagining yuqoriga ko'tarilib qolgan lifini yelkalarining harakati bilan pastga tushirib qo'ydi.

Vronskiy fransuz teatriga ketdi; u bu yerda fransuz teatrining bitta ham tomoshasini ko'rmay qolmaydigan polk komandiri bilan chindan ham ko'rishishi va uch kundan beri o'ziga ermak bo'lib qolgan yarashtiruvchilik vazifasi haqida u bilan gaplashib olishi kerak edi. Bu janjal Vronskiyning yaqin do'sti Petritskiy va yaqinda xizmatga kirgan dilkash yigit, yaxshi o'rtoq, yosh knyaz Kedrov ustida borar edi. Bunda polk sha'niga ham gap tegishi turgan gap edi.

Bu zobitlarning ikkovi ham Vronskiyning eskadronida xizmat qilardi. Titulyar maslahatchi – amaldor Venden polk komandirining oldiga xotinini haqorat qilgan zobitlari ustidan shikoyat qilib keldi. Vendenning so'ziga qaraganda, uning yosh xotini – uylanganiga yarim yil bo'lgan ekan – onasi bilan cherkovga borgan, homiladorlik sababi bilan birdan ko'ngli behuzur bo'libdi-yu, oyog'ida turolmasdan, ro'para kelgan birinchi izvoshga o'tirib, uyiga qaytibdi. Yo'lda zobitlar ot bilan quvishibdi, qo'rqqanidan xotinning dardi yana besh

¹ Muvaffaqiyat tilayman (*frans*).

battar yomonlashibdi, chor-nochor pog'onadan yugurib uyga chiqib olibdi. Vendenning o'zi idoradan qaytib kelgandan so'ng qo'ng'iroq chalinganini, allaqanday ovozlar ko'tarilganini eshitib chiqibdi-da, xat ushlab turgan mast zobitlarni ko'rib, itarib chiqaribdi. Venden ana shu zobitlarga qattiq jazo berilishini iltimos qilgan edi.

Polk komandiri Vronskiyni o'z yoniga chaqirib:

– Yo'q, ortiq toqat qilib bo'lmay qoldi, – dedi. – Petritskiy hadidan oshib ketyapti. Janjalsiz biron haftayam o'tmaydi, bu amaldor bo'sh kelmaydi, yuqorigacha arz qiladi.

Vronskiy bu ishning bema'niligini tushunardi, bunda duel chiqmasligini, shu sababli titulyar maslahatchini yumshatish va ishni bosdi-bosdi qilib yuborish uchun qo'lidan kelgan hamma harakatni qilish kerakligini yaxshi bilardi. Polk komandiri Vronskiyni olijanob, aqlli odam, xususan, polk sha'niga dog' tushirmaydigan odam deb bilgani uchun uni yoniga chaqirtirgan edi. Ular bafurja o'tirib maslahatlashgandan keyin Vronskiy Petritskiy bilan Kedrovni titulyar maslahatchining yoniga olib borib, undan uzr so'rash kerak, degan qarorga kelishdi. Polk komandiri bilan Vronskiyning ikkalasi ham Vronskiyning nomi va uning fligel-ad'yutantlik tug'rosi titulyar maslahatchini yumshatishi kerakligini tushunishar edi. Haqiqatan ham ana shu ikki vosita qisman o'z ta'sirini ko'rsatdi; lekin Vronskiy aytganidek, yarashish natijasi qorong'i bo'lib qolaverdi.

Vronskiy fransuz teatriga kelgandan keyin polk komandiri bilan foyega chiqdi-yu, muvaffaqiyatlarini yoki muvaffaqiyatsizliklarini unga gapirib berdi. Polk komandiri hamma tomonini o'ylab chiqqandan keyin masalani oqibatsiz qoldirishga qaror qildi, shunday bo'lsa ham, biroz vaqtichog'lik qilish uchun Vronskiyning u bilan qanday ko'rishganini va buning tafsilotini surishtirdi; Vronskiy titulyar maslahatchining sal yumshagandan so'ng voqea tafsilotini eslab yana birdan tutaqib ketganini va yarash tiraman deb og'iz ochganda, amaldorning qahriga uchrab, epchillik bilan o'zini orqaga tortganini, Petritskiyni oldinga itarganini aytib berganda, polk komandiri o'zini to'xtatolmay uzoq sharaqlab kuldi.

– Xunuk voqea bo'lsayam, lekin juda kulgili. Axir Kedrov u janob bilan duel qilolmaydi-ku! Shunday tutaqib ketdi deng? – Polk komandiri kulib yana qaytadan so'radi. Keyin yangi fransuz aktrisasidan gap ochdi: – Bugun Kler yomon ham qotirib yubor-

dimi? Ajoyib-a! Necha marta ko'rsang ham, har kun ko'zingga yangi ko'rinadi. Bunday mahorat faqat fransuzlardagina bo'lishi mumkin.

VI

Knyaginya Betsi so'nggi pardaning oxirigacha o'tirmay uyiga jo'nab ketdi. Knyaginya pardoixonasiga kirib, uzunchoq, zahil yuziga upa qo'yib ishqaladi-da, sochini tuzatgandan so'ng katta mehmonxonaga choy keltirishlarini endigina buyurib turgan ham ediki, o'zining Katta Morskaya ko'chasidagi kattakon uyiga birin-ketin karetarlar kela boshladi. Mehmonlar keng zinadan yuqori chiqishar, ertalabki mahallar oynavand eshik orqasida gazeta o'qiyotganini o'tkinchilarga ko'z-ko'z qilib o'tiradigan semiz darbon bu azamat eshikni g'ichirlatmasdan ochib, mehmonlarni ichkariga kirgizib turar edi.

Sochlarini yangidan turmaklab, yuziga tarovat bergan uy sohibasi bir eshikdan, mehmonlar esa boshqa eshikdan kattakon mehmonxonaga qariyb bir mahalda kirib kelishdi; devorlari qoramtir, pat gilamlari mayin mehmonxonadagi stol ustida shamlar nurida oppoq ko'ringan dasturxon, kumush o'ziqaynar va jonon chinni choy idishlari porlab turardi.

Uy sohibasi o'ziqaynar yoniga o'tirib, qo'lqoplarini yechdi. Jamoat esa sharpasiz harakat qiluvchi yugurdaklar yordami bilan stullarni u yoq-bu yoqqa surib, ikki qismga bo'linib o'tirdi, birlari uy sohibasi bilan o'ziqaynar yonida qoldi, boshqalari esa mehmonxonaning narigi burchiga borib, elchining qora baxmal ko'ylakli, qora qalam-qoshli go'zal xotini yoniga borib o'tirishdi. Har ikki markazda borayotgan suhbat, hamma vaqt dastlabki daqiqalarda bo'lgani kabi so'rashishlar, salomlashishlar, choyga qilingan takliflar bilan bo'linib, bir maromga tushmay turdi.

Elchi xotining to'pidagi bir diplomat:

– U aktrisa sifatida nihoyatda ajoyib, – dedi, – Kaulbaxdan ta'lim olgani ko'rinib turibdi; qanday yiqilganini payqadingizmi?..

– E, qo'ying, o'sha Nilson to'g'risida gapirmaylik! U haqda biron yangi gap bo'lmagandan keyin, – dedi yuzi qizil, qoshi tuksiz, ulamasochsiz, eski shoyi ko'ylakli, oq-sariqdan kelgan semiz bir xonim. U o'zining soddaligi, qo'pol muomalasi bilan shuhrat chiqargan enfant

terrible¹ deb atalgan knyaginya Myagkaya edi. Knyaginya Myagkaya har ikkovi to'pning o'rtasida suhbatga quloq solib o'tirar, goh u yoqdagi, goh bu yoqdagi gapga aralashib ketardi.

– Xuddi til biriktirib olishgandek, Kaulbax haqidagi shu gapni bugun menga uch kishi aytsa-ya! Bu gapning ularga yoqib qolganiga hayron bo'laman.

Suhbat shu gapdan keyin kesildi-qoldi, endi yangi mavzu axtarish kerak edi.

Inglizcha small-talk, ya'ni shirin suhbatlarga chechan bo'lgan elchining xotini endi nima haqda gaplashsak ekan deb boshi qotib o'tirgan diplomatga yuzlanib:

– Bizga bironta qiziqroq narsa gapirib bering, lekin achchiq gap bo'lmasin, – dedi.

– Qiziq narsani gapirish qiyin deyishadi, faqat achchiq gaplargina kulgili bo'larmish, – deb gap boshladi u kulimsirab. – Mayli, harakat qilib ko'raman. Lekin suhbat mavzusini o'zingiz tanlang. Hamma gap mavzuda. Mavzu bo'lsa, uni yo'nish-yechish oson bo'ladi. Men ko'pincha o'tgan asrning mashhur gapdonlari bizning zamonamizda yashasa bormi, aqlli narsa aytishga juda qiynalishardi, deb o'ylayman. Nimaga desangiz, aqlli gaplar me'daga tegib ketdi...

Elchining xotini kulib turib:

– Bu fikr qachonlar aytilgan, – deb uning so'zini bo'ldi.

Juda shirin suhbat boshlangan edi-yu, lekin haddan tashqari shirin bo'lgani uchun yana uzilib qoldi. Endi sinovdan o'tgan, hech qachon dami kesilmaydigan qurolni qo'lga olish – g'iybat boshlash kerak edi.

Diplomat stol yonida turgan chiroyli, oq-sariqdan kelgan yigitga imo qilib:

– Nima deysiz, ana shu Tushkevichda Louis XV ni eslatadigan bir nima bor, a? – dedi.

– Rost! O'ziam shu mehmonxonaga juda yarashgan-da, shuning uchun bu yerga tez-tez kelib turadi.

Bu gapni darrov ilib olishdi, chunki bunda ushbu mehmonxonadagi gapirilishi mumkin bo'lmagan narsaga, ya'ni Tushkevichning uy sohibasi bilan bo'lgan munosabatiga ishora bor edi.

¹ Shum (*frans.*).

Bu vaqt o'ziqaynar bilan uy sohibasi tevaragida to'planganlar o'rtasida ham suhbat xuddi narigi to'pdagi singari uchta muqarrar mavzu atrofida: jamoat orasida yuz bergan so'nggi yangiliklar, teatr va yaqin odamlarni ta'na qilish ustida anchagina aylangandan so'ng, nihoyat, oxirgi mavzuda to'xtadi, ya'ni g'iyatga o'tishdi.

– Eshitdingizmi, Maltishcheva – qizi emas, onasi – o'ziga diable rose¹ kostyum tiktirayotganmish?

– Yo'g'-ey! Yo'q, juda ajoyib-ku!

– Hayronman, shunday aqlli xotin, axir, uni nodon deb bo'lmaydiku, o'zining kulgi bo'lishini bilmasa-ya!

Sho'rlik Maltishchevani qoralash, uni kulgi qilish uchun har kim o'ziga yarasha gap topdi, ana shundan keyin suhbat ham guvillab yonib turgan gulxan singari qizib ketdi.

Knyaginya Betsining gravyura² yig'ishga ishqiboz bo'lgan oqko'ngil, semiz eri xotining yonida mehmonlar borligini bilib, klubga ketishdan oldin mehmonxonaga kirdi. Mayin gilam ustida tovuhsiz odimlar bilan yurib, knyaginya Myagkayaning yoniga keldi.

– Qalay, Nilson yoqdimi sizga? – deb so'radi.

– Voy, odam degan shunaqa biqinib keladimi? Yuragimni chiqarib yubordingiz, – deb javob qildi Myagkaya. – Qo'ying, men bilan opera to'g'risida gaplashmang, siz musiqaga qilchayam tushunmay-siz. Undan ko'ra, men sizning saviyangiz darajasiga tushay-u, mayolikalar³ bilan gravyuralaringiz to'g'risida gaplashayin. Xo'sh, yaqinda chayqov bozoridan qanday g'aroyib narsa sotib oldingiz?

– Xohlasangiz, ko'rsataman? Lekin fahmiga yetmaysiz-da.

– Ko'rsating. Men haligilarnikida, hah, otlari nimaydi... ha, bankirlarnikida ko'rib ko'zim pishib qolgan... Ularnikida juda ajoyib gravyuralar bor. Bizga ko'rsatishardi.

– Iya, hali Shyutburglarnikida bo'lganmisiz? – deb so'radi o'ziqaynar yonida o'tirgan uy sohibasi.

– Bo'lganmiz, ma chere⁴. Erim ikkovimizni tushlikka chaqirishgan edi, tushlik qaylasini ming so'mga tushdi, deb aytishdi, – hamma gapiga quloq solib turganini sezib, knyaginya Myagkaya jo'rttaga

¹ Dabdabali, pushtirang (*frans.*)

² Gravyura – yog'ochga, toshga o'yib ishlangan rasm (*tarj.*)

³ Mayolika – sirlangan guldor sopol (*tarj.*)

⁴ Azizim (*frans.*)

baland ovoz bilan javob berdi, – lekin o‘lgudek bemaza qayla edi, allaqanday ko‘m-ko‘k. Keyin biz ham ularni mehmonga chaqirdik, men sakson besh tiyinga qayla tayyorladim, hammaning og‘zida qoldi. Ming so‘mlik qayla qilish mening qo‘limdan kelmaydi.

Uy sohibasi:

– Knyaginya xo‘p topilmaydigan ayol-da! – degandi o‘tirganlardan biri:

– Ajoyib xotin! – deb qo‘ydi.

Knyaginya Myagkayaning so‘zlari hamma vaqt bir xilda zo‘r ta‘sir qoldirardi, buning siri shunda ediki, u hozirgidek u qadar o‘rinli gap qilmasa ham, har holda oddiy ma‘noli gapni gapirardi. U yashab turgan jamiyatda bunday so‘zlar eng o‘tkir hazildek taassurot qoldirardi. Knyaginya Myagkaya o‘z gapining nega bunday taassurot qoldirishiga tushunmasa ham, lekin shunday taassurot qoldirishini bilar, bundan foydalanib kelardi.

Knyaginya Myagkaya gapirayotganda hamma unga quloq solgani uchun elchi xotining yonidagi suhbat to‘xtab qoldi; ana shundan keyin uy sohibasi butun majlisni bir yerga to‘plash niyatida elchi xotinigamurojaat qildi.

– Hech choy ichgingiz yo‘qmi? Bizning yonimizga kelib o‘tirsangiz, yaxshi bo‘lardi.

Elchining xotini kulimsirab turib:

– Yo‘q, biz shu yerda yaxshi o‘tiribmiz, – deb javob qildi-da, boshlangan suhbatini davom qildirdi.

U yerda shirin suhbat ketayotgan edi. Er-u xotin Kareninlarni ta‘na qilmoqda edilar.

– Anna Moskva safaridan keyin judayam o‘zgarib ketdi. Unda g‘alati bir narsa bor, – deyardi dugonasi.

– Undagi o‘zgarish asosan shundan iboratki, u Moskvadan Aleksey Vronskiyning soyasini ergashtirib keldi, – dedi elchining xotini.

– Xo‘sh, ergashtirib kelsa, nima bo‘libdi? Grimmning: soyasiz odam, soyasidan ayrilgan odam, degan masali bor. Soyasidan ayrilgan bo‘lsa, demak, biron qilmishining jazosi uchun ayrilgandir-da. Bu jazoning nimadan iborat ekaniga hech qachon aqlim yetmaydi. Lekin xotin kishining soyasiz qolishi o‘ziga yomon ta‘sir qilsa kerak.

– Shunaqa-yu, lekin soyasi bo‘lgan xotinlarning oqibati odatda juda yomon bo‘ladi, – dedi Annaning dugonasi.

Knyaginya Myagkaya uning so‘zini eshitib qolib:

– Tilingizga tirsak chiqsin, – dedi. – Karenina juda ajoyib xotin. Erini yaxshi ko‘rmayman, lekin o‘zini jonimdek ko‘raman.

– Erini nimaga yaxshi ko‘rmaysiz? Juda ajoyib odam-ku, – dedi elchining xotini. – Erim bunday davlat arbobi Yevropada kamdan kam topiladi, deydi.

– Mening erim ham shunday deydi, lekin ishonmayman, – dedi knyaginya Myagkaya. – Erlarimiz shunday deyishmaganda, biz har narsani qanday bo‘lsa, shunday ko‘rgan bo‘lardik, Aleksey Aleksandrovich esa, menimcha, shunchaki bir aqli kalta odam. Men bu gapni pichirlab aytyapman... Haqiqat yuzaga chiqyapti, a? Buringlari meni unga aqli odam deb qarashga majbur qilishganda, men jon kuydirib uning aqlini axtarardim-u, topolmay o‘zimni nodon deb hisoblardim; mana endi pichirlab bo‘lsayam uni aqli kalta odam dedim-u, masala o‘z-o‘zidan ravshan bo‘ldi-qoldi, shunday emasmi?

– Bugun tilingizdan zahar tomadi-ya!

– Hech-da! Boshqa chora bo‘lmasa, nima qilay? Har holda, ikkovimizdan birimiz ahmoqmiz. O‘zlaringiz bilasizlar, ahmoqligini hech kim bo‘yniga olmaydi.

– Hech kim o‘z davlatidan mamnun bo‘lmaydi, lekin har kim o‘z aqlidan xursand bo‘lib yuradi, – deb diplomat bir fransuzcha she‘rni misol keltirdi.

– Ha, kam bo‘lmang, – deb knyaginya Myagkaya shoshib-pishib uning so‘zini quvvatladi.

– Lekin bilib qo‘yinglar, Annani sizlarga xor qildirib qo‘ymayman. U juda jonon, dilbar juvon. Hamma yaxshi ko‘rib, orqasidan soyaday yuraversa, nima qilsin bechora?

– Yo‘q, men ham uni qoralamoqchi emasman, – deb Annaning dugonasi o‘zini oqlay boshladi.

– Agar orqamizdan soyaday yurganlar bo‘lmasa, bu hol boshqalarni qoralashga haqimiz borligini isbot qilmaydi-ku.

Knyaginya Myagkaya Annaning dugonasiga yaxshilab tanbeh bergandan so‘ng o‘rnidan turdi-da, elchining xotini bilan stol oldiga borib, Prussiya qiroli haqida ketayotgan umumiy suhbatga qo‘shildi.

– U yoqda kimning g‘iybatini qildinglar? – deb so‘radi Betsi.

Elchining xotini:

– Kareninlarning. Knyaginya Aleksey Aleksandrovichni tavsif qilib berdilar, – deb javob qildi-da, kulimsirab stol yoniga o'tirdi.

Uy sohibasi eshik tomonga qarab-qarab qo'yib:

– Attang, biz eshitmabmiz-da, – dedi. Keyin eshikdan kirib kelgan Vronskiyga murojaat qildi: – Ha, axiyri, kelarkansiz-u!

Vronskiy bu yerdagilarning hammasi bilan tanish bo'libgina qolmay, balki ular bilan har kun ko'rishib turardi, shuning uchun bu yerga, hozirgina chiqib ketgan uyga qaytib kirayotgandek, bamayli-xotir kirib keldi.

– Qayerdan kelyapmanmi? – deb javob berdi u elchi xotining savoliga. – Bo'yningma olmasam bo'lmas, iloji yo'qqa o'xshaydi. Vuffdan¹ kelyapman. Kam deganda yuz marta ko'rgandirman-u, lekin har safar maza qilaman. Ajoyib-da! Bilaman, aytishga uyat-u, lekin, nima qilay, operada uxlab qolaman, Vuffda esa oxirigacha o'tiraman, shunday mazaki, asti qo'yavering. Bugun...

U fransuz aktrisasining nomini tilga olib, uning to'g'risida bir nimalar aytmoqchi bo'lgandi, elchining xotini hazil aralash bir dahshat bilan so'zini bo'lib qo'ydi.

– Baraka topkur, shu xunuk gaplarni bizga aytmang.

– Xo'p, aytmaganim bo'lsin, shundoq ham bu xunuk narsalarni hamma biladi.

– Agar u operaga o'xshash yoqimli bo'lsa, hamma o'sha yerga jon deb boradigan bo'lardi, – dedi knyaginya Myagkaya.

VII

Eshik orqasidan oyoq tovushi eshitildi. Knyaginya Betsi uning Karenina ekanini bilgani uchun Vronskiyga yer ostidan qarab qo'ydi. Vronskiy ham eshikka qarab turgan edi, yuzida allaqanday yangi bir ifoda paydo bo'ldi. U ichkari kirib kelayotgan ayolga quvonch bilan tikilib, ayni zamonda yuragi dov bermaganday qarab o'rnidan sekin-sekin turardi. Mehmonxonaga Anna kirib kelmoqda edi. U har mahalgiday qaddini tik tutib, boshqa kibor ayollarning yurishiga o'xshamagan shaxdam, yengil qadamlar bilan kelardi, u bilan uy sohibasi o'rtasidagi bir necha qadamlik joy qolgan edi. Anna hech qayoqqa burilib qaramay to'g'ri borib, tabassum bilan Betsining

¹ Vuff – komediya teatri (tarj.).

qo'lini qisdi va jilmayib Vronskiyga bir qarab qo'ydi. Vronskiy engashib ta'zim qilgandan so'ng unga stol taklif etdi.

Anna bo'lsa Vronskiyning ta'zimiga boshini xiyol bukib javob qildi-yu, birdan qizarib, qosh-qovog'ini solib oldi. Lekin darhol taniqlariga bosh irg'ab, uzatilgan qo'llarni qisib turib uy sohibasiga yuzlandi.

– Grafinya Lidiyanikiga borgandim, bu yerga ertaroq kelmoqchi edim-u, lekin uzoq o'tirib qoldim. Ularnikiga ser Jon kelgan ekan. Juda alomat odam-da.

– Huv anavi missionermi?

– Ha, hindlar hayotidan juda qiziq narsalar aytib berdi.

Annaning kelishi bilan uzilib qolgan suhbat shamol urgan chiroq yallig'iday yana lipillay boshladi.

– Ser Jon! Ha, ser Jon. Ko'rganman. Juda silliq gapiradi. Vlaseva juda qattiq yaxshi ko'rib qolibdi.

– Ha, aytgandek, kichik Vlaseva Topovga tegarmish, shu rostmi?

– Ha, shunaqamish, bitishib qo'yishibdi deyishadi.

– Men qizning ota-onasiga hayron qolaman. Sevishib uylanishayotganmish.

– Sevishib? Tavba, sizning juda almisoqdan qolgan eski fikrlaringiz bor-da! Hozir kim sevgi-ehtirosga qarab o'tiradi? – dedi elchining xotini.

– Bu ahmoqona eski rasm-rusum haligacha davom etib kelayotgan bo'lsa nachora? – dedi Vronskiy.

– Shu rasm-rusumlarga yopishib olganlarga qiyin, battar bo'lishsin. Bilaman, chinakam baxt aql-mulohaza bilan turmush qurishda.

– To'g'ri-ku-ya, lekin aql-mulohaza bilan qurilgan turmushdagi baxt ko'pincha ehtiros (o'sha inkor etilgan ehtiros) paydo bo'ldi deguncha chang-to'zonga aylanib ketadi, – dedi Vronskiy.

– Lekin biz ehtiros davrini boshdan kechirib, keyin topishgan zavjlarni aql yo'li bilan uylanganlar deb ataymiz. Bu qizilchaga o'xshagan kasal, bir og'rib o'tilmasa bo'lmaydi.

– Unday bo'lsa, muhabbatniyam chechakka o'xshash sun'iy yo'li bilan emlash kerak ekan.

– Men yoshligimda bir dyakonni yaxshi ko'rib qolgandim, – dedi knyaginya Myagkaya. – Qaydam, menga muhabbatning foydasi tegdimi-yo'qmi, bilmayman.

– Yo‘q, mening gapimni hazil deb bilmanglar, menimcha, muhabbatning nimaligini bilish uchun oldin xato qilib, keyin tuzatish kerak, – dedi grafinya Betsi.

Elchining xotini hazil aralash qilib:

– Nikohdan keyin ham-a? – dedi.

– Tavba-tazarruning kechi bo‘lmaydi, – deb diplomat bir ingliz maqolini misol keltirdi.

– Ha, barakalla, – dedi Betsi, uning so‘zini quvvatlab, – oldin xato qilish, keyin tuzatish kerak. – So‘ngra bu suhbatga miyig‘ida xiyol kulimsirab quloq solib o‘tirgan Annaga yuzlandi: – Qani, siz nima deysiz? – deb so‘radi undan.

Anna qo‘lidan chiqarilgan qo‘lqopini o‘ynab turib:

– Men nima derdim, – dedi, – menimcha... qancha kalla bo‘lsa, shuncha aql bor, qancha ko‘ngil bo‘lsa, demak, shuncha sevgi xiliyam bor.

Vronskiy Annaga qarab, uning nima deyishini kutib turar, yuragi orziqardi. Anna shu so‘zlarni aytgandan so‘ng Vronskiy katta xavfdan qutulganday xo‘rsinib qo‘ydi.

Anna birdan unga qarab gapirib qoldi:

– Men Moskvadan xat oldim. Kiti Shcherbatskaya juda betob deb yozishibdi.

– Nahotki? – dedi Vronskiy qovog‘ini solib.

Anna unga keskin bir nazar bilan qaradi.

– Nima, bu xabar sizni qiziqtirmaydimi?

– Aksincha, judayam qiziqtiradi. Qani, nima deb yozishibdi, agar bilish mumkin bo‘lsa? – deb so‘radi Vronskiy.

Anna o‘rnidan turib Betsining yoniga keldi.

– Menga bir do‘lcha choy bering, – dedi u Betsining stuli orqasida to‘xtab.

Grafinya Betsi choy quyayotganda, Vronskiy Annaning yoniga keldi.

– Xo‘sh, nima deb yozishibdi? – deb so‘radi.

Anna unga javob qaytarmasdan:

– Mening miyamga ko‘pincha shunday fikr keladi, – dedi, – erkaklar pastkashlik nimaligini tushunishmaydi-yu, lekin shu to‘g‘risida ko‘p gapirishadi. Ko‘pdan beri sizga aytmoqchi bo‘lib yurgandim, – deb ilova qildi-da, bir necha qadam tashlab, ustiga albom qo‘yilgan stol burchagiga kelib o‘tirdi.

Vronskiy unga do‘lchada choy tutayotib:

– Gapingizning ma’nosiga u qadar tushunolmadim, – dedi.

Anna yonidagi divanga ko‘z tashlagandi, Vronskiy darhol o‘sha yerga o‘tirdi.

Anna unga qaramasdanoq so‘z boshladi:

– Ha, ko‘pdan beri sizga aytmoqchi bo‘lib yurgandim: siz yomon ish qildingiz, judayam yomon.

– Ajabo, yomon ish qilganimni o‘zim ham bilmaymanmi? Lekin shunday yomon ish qilganimga kim sabab bo‘ldi?

Anna keskin nazar bilan qarab turib:

– Nega bunaqa deysiz menga? – dedi.

– Negaligini o‘zingiz bilasiz, – deb dadil javob berdi u, keyin ko‘zlarini Annadan olmasdan uning ko‘zlariga kulib turib dadil qaradi.

Vronskiy emas, Anna ko‘zini olib qochdi.

– Bu sizda faqat qalb yo‘qligidan dalolat etadi, – dedi Anna. Lekin boqishlari Vronskiyning qalbi borligini, shuning uchun ham undan qo‘rqqanini bildirib turardi.

– Hozir siz aytgan narsa muhabbat emas, xatolik edi.

– Esingizda bo‘lsa kerak, men bu so‘zni, bu yaramas so‘zni minba‘d og‘zingizga olmang, deb taqiq etgandim, – dedi Anna titrab ketib; lekin u, taqiq etgandim, degan so‘zlari bilan Vronskiyga nisbatan o‘zining muayyan bir huquqqa ega ekanini ko‘rsatayotganini va shu bilan Vronskiyga muhabbat to‘g‘risida gapirishga ixtiyor berayotganini darrov sezib qoldi. Keyin uning ko‘zlariga tik qarab turib so‘zini davom qildi, yuzlari qip-qizarib lovillardi. – Men sizga ko‘pdan beri buni aytmoqchi bo‘lib yurgandim, shuning uchun ham bu yerga jo‘rttaga keldim, sizni bugun shu yerdan topishimni bilardim. Bu narsaga xotima berish kerak, men sizga shuni aytgani kelganman. Men hech mahal hech kim oldida qizarmagandim, lekin siz meni o‘zimni nima to‘g‘risidadir aybdor deb his qilishga majbur etasiz.

Vronskiy Annaga tikilib turar, uning yuzidagi yangi ma’naviy go‘zallikni ko‘rib hayron bo‘lardi.

– Mendan nima istaysiz? – dedi Vronskiy, sodda, lekin jiddiy bir ohangda.

Anna:

– Moskvaga borib, Kitidan uzr so‘rashingizni istayman, – degan edi, Vronskiy:

– Yo‘q, buni o‘zingiz xohlamaysiz, – deb javob qildi.

Anna xohlagan narsasini emas, xohlamagan narsasini gapirishga o‘zini majbur qilayotganini Vronskiy ko‘rib turar edi.

– Agar meni yaxshi ko‘raman degan so‘zingiz rost bo‘lsa, – deb pichirladi Anna, – mening tinchimni buzmag.

Vronskiyning yuzi porlab ketdi.

– Tavba, bilmaysizmiki, siz axir menga jonimdan ham azizsiz; nima qilay, o‘zimda tinchlik bo‘lmagandan keyin sizga qanday qilib tinchlik beraman. Butun borlig‘imni, muhabbatimni baxsh etaman. Men siz bilan o‘zimni ayri-ayri holda tasavvur etolmayman. Men uchun siz bilan men – bir tan-u, bir jon. Shuning uchun sizgayam, o‘zimgayam oldinda tinchlik imkoni borligini ko‘rmayman. Men oldinda umidsizlik, baxtsizlik imkoni borligini ko‘raman... yoki baxt imkonini, shunday ajoyib bir baxt imkoni borligini ko‘raman!.. Ajabo, shunday baxtning bo‘lishi mumkin emasmi? – dedi faqat lablarinigina qimirlatib, lekin Anna buni eshitdi.

Anna unga aytilishi kerak bo‘lgan narsani aytish uchun butun aqlidrok kuchini bir yerga to‘pladi; lekin buni aytish o‘rniga muhabbat to‘la ko‘zlarini unga tikdi-yu, hech nima demadi.

Vronskiy quvonib o‘ylandi: «Xayriyat! Men umidsizlikka tushgan, bu umidsizlik intihosi yo‘qday ko‘ringan bir paytda, mana ayon bo‘ldi! U meni yaxshi ko‘radi. O‘zi iqror bo‘lib turibdi».

– Unday bo‘lsa, mening xotirim uchun hech qachon bu xil so‘zlarni aytmag, ikkalamiz qarddon do‘st bo‘lib qolaylik, – dedi Annaning lablari, lekin ko‘zlari esa butunlay boshqa narsani gapirib turardi.

– Do‘st bo‘lib qololmaymiz, buni o‘zingiz ham bilasiz. Ammo biz odamlarning eng baxtiyori bo‘lamizmi yoki baxtsizlarimi – bunisi sizning ixtiyoringizda.

Anna bir nima demoqchi bo‘lgan edi, Vronskiy uning gapini og‘zidan oldi.

– Sizdan birgina narsani iltimos qilaman: hozirgidek ko‘z tushishga, azob chekishga huquq berishingizni o‘tinib so‘rayman; agar buning ham iloji bo‘lmasa, mayli, yo‘q bo‘lib ket deb buyuring, men darhol yo‘q bo‘lib ketaman. Meni ko‘rishdan jafo chekayotgan bo‘lsangiz, ko‘rmay qo‘ya qolasiz.

– Sizni hech qayoqqa quvib yubormoqchimasman.

– Faqat hech bir narsani o‘zgartirmang, hamma narsa avval-gicha qolsin, – dedi Vronskiy titragan ovoz bilan. – Ana, eringiz ham keldi.

Rostdan ham, shu daqiqa Aleksey Aleksandrovich o‘zining og‘ir, beso‘naqay yurishi bilan mehmonxonaga kirib kelayotgan edi.

Xotini bilan Vronskiyga bir qarab olgach, uy sohibasining yo-niga keldi-da, bir do‘lcha choy olib o‘tirib, hammaga eshitaladigan og‘ir-vazmin ovozi bilan kimnidir mazax qilib, odatidagicha hazil-mutoyiba ohangida gap boshladi.

U majlisdagilarni ko‘zdan kechirib:

– Rambulengiz jamuljam, – dedi, – fan va san‘at ilohalari hamda ilhom parilari.

Lekin knyaginya Betsi o‘z ta‘biricha sneering¹ bo‘lgan bu gap ohangiga toqat qilolmasdi, o‘zi aqlli ayol bo‘lgani sababli darhol Kareninni umumiy majburiy harbiy xizmat to‘g‘risidagi jiddiy suhbatga tortdi. Aleksey Aleksandrovich ham darhol suhbatga kirishib, yangi farmonni knyaginya Betsidan jiddiy suratda himoya qila bosh-ladi, grafinya Betsi yangi farmonni tanqid ostiga olgan edi.

Vronskiy bilan Anna hamon kichkina stol yonida o‘tirishardi. Xonimlardan biri Vronskiy, Karenina va uning eriga imo qilib:

– Odob doirasidan chiqib ketishyapti, – deb pichirlagandi, An-naning dugonasi:

– Boya aytmabmidim? – deb javob qildi.

Lekin faqat shu xonimlargina emas, mehmonxonadagilarning qariyb hammasi, hatto knyaginya Myagkaya bilan Betsining o‘zi ham umumiy to‘pdan o‘zlarini chetroqqa olib o‘tirgan Vronskiy bilan Annaga, go‘yo bular majlisga xalaqit berishayotgandek, bir necha marta qayrilib qarab qo‘yishdi. Aleksey Aleksandrovichning bir o‘zigina u yoqqa qayrilib qaramadi, boshlagan suhbatidan ham chalg‘imadi.

Knyaginya Betsi bu ahvolning hammada yomon taassurot qol-dirganini sezib, Aleksey Aleksandrovichning so‘ziga quloq so-lish uchun o‘rniga boshqa odamni qo‘ydi-da, o‘zi turib Annaning yoniga bordi.

¹ Masxaraomuz (*ingl.*).

– Eringizning fasohat bilan so‘zlashiga hamisha hayron qolaman, – dedi Betsi. – U gapirganda, eng mujmal tushunchalar ham menga ayon bo‘ladi.

Anna Betsining o‘ziga aytgan so‘zlaridan birontasini tushunmagan bo‘lmasa ham, baxt tabassumi bilan charaqlab:

– O‘, albatta! – dedi. Shundan keyin katta stol yoniga kelib, umumiy gurgunga qo‘shildi.

Aleksey Aleksandrovich yarim soat o‘tirgandan so‘ng xotining yoniga kelib, birga uyga ketishini taklif qildi; lekin Anna erining yuziga qaramasdan, kechki ovqatga qolmoqchi ekanini aytdi. Aleksey Aleksandrovich ta‘zim qilib chiqib ketdi.

Kareninaning yaltiroq charm palto kiygan kekxa, semiz tatar kучeri ko‘chadagi eshik oldida sovuqdan tipirchilayotgan bo‘z otni zo‘rg‘a-zo‘rg‘a ushlab turar edi. Yugurdak kareta eshikchasini ochib, darbon esa ko‘cha eshigini ushlab turar edi. Anna Arkadevna po‘stinining ilgagiga ilinib qolgan eng to‘rlarini kichkina, chaqqon qo‘lchasi bilan shoshib-pishib ajratar, uni kuzatib chiqqan Vronskiyning gaplariga boshini egib zavq bilan quloq solar edi.

– Siz hech nima demadingiz; faraz etaylik, men ham hech nima talab qilganim yo‘q, – deyardi Vronskiy, – lekin o‘zingiz bilasiz, menga kerak bo‘lgan narsa do‘stlik emas, mening uchun hayotda birgina baxt bo‘lishi mumkin. U shunday bir so‘zki, siz uni juda yomon ko‘rasiz... Ha, u muhabbat...

– Muhabbat... – dedi Anna, shu so‘zni ichida takrorlab, keyin, to‘rni ajratdi-yu, birdan ilova qildi: – men bu so‘zni shuning uchun yomon ko‘ramanki, u mening uchun juda ko‘p ahamiyatga, siz tushunishingiz mumkin bo‘lgandan ham ko‘proq ahamiyatga ega, – dedi-da, Vronskiyning yuziga tikilib qaradi. – Yaxshi qoling!

Vronskiy qo‘lini berib, shaxdam odimlar bilan darbon yonidan lip etib o‘tdi va karetaga kirib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Annaning nigohi, qo‘lchasining tegib ketishi Vronskiyning vujudini o‘tday yondirdi. U kaftidagi Annaning qo‘li tekkan joyni o‘pdi-da, shu oqshom so‘nggi ikki oydagidan ko‘ra maqsadiga ko‘proq yaqinlashgani uchun baxtiyor bo‘lib uyiga jo‘nab ketdi.

VIII

Aleksey Aleksandrovich xotining Vronskiy bilan alohida stol yonida o'tirib, nima to'g'risidadir shirin suhbat qilganiga ajablanmas, bunda odobsizlik bor deb ham bilmas edi; lekin buning mehmonxonada o'tirgan boshqa odamlarga odobsizlikday, erish narsaday ko'ringanini sezgani uchun o'ziga ham odobsizlikday bo'lib ko'rindi. U buni xotiniga aytishga qaror qildi.

Aleksey Aleksandrovich uyga qaytgandan so'ng, o'z odaticha to'g'ri kabinetiga kirib ketdi; u yerda kursisiga o'tirdi-da, o'qiyotgan papizm haqidagi kitobni xatcho'p tashlab qo'ygan joyidan ochib, har vaqtdagiday, soat birgacha o'qidi; faqat ora-sira keng peshonasini silab-silab qo'yar va nimanidir quvmoqchi bo'lgandek, boshini silkitar edi. Odatdagi soatida o'rnidan turdi, yotish oldidan yuvinib-tarandi. Anna Arkadevna haligacha kelmagan edi. Kitobni qo'ltig'iga qisib yuqoriga chiqdi; lekin bu kecha uning miyasi xizmat ishlari haqidagi odatdagi fikr va mulohazalar o'rniga, xotini va unda sodir bo'lgan allaqanday nojo'ya harakat to'g'risidagi fikrlar bilan band bo'ldi. U o'z odatiga xilof qilib, o'rniga yotmadi, qo'llarini orqasiga qilib, xonada u yoq-bu yoq yura boshladi. Yuz bergan yangi ahvol to'g'risida oldin yaxshiroq o'ylab olish zaruratini sezib, o'rniga kirib yotolmadi.

Aleksey Aleksandrovich xotini bilan gaplashib olish to'g'risida o'zicha bir qarorga kelganda, bu narsa unga juda oson, oddiy ish bo'lib ko'ringan edi; lekin yuz bergan bu yangi ahvol to'g'risida mundoq o'ylab qaragandan keyin bu narsa juda ham chigal, juda ham mushkul bo'lib ko'rindi.

Aleksey Aleksandrovich rashkchi emas edi. Uning aqidasi, rashk xotin uchun bir haqorat, shu sababli xotinga ishonch bo'lishi kerak edi. Nima uchun xotiniga albatta ishonishi, ya'ni yosh xotini-ning uni hamisha yaxshi ko'rishiga butunlay ko'ngli to'q bo'lishi kerakligini u o'zidan so'ramasdi; lekin ko'nglida shubha, ishonchsizlik hissi yo'q edi, shuning uchun ishonchi bor edi va ishonish kerak, deb aytardi. Rashkning odamni uyatga qoldiradigan bir his ekani va odamda ishonch bo'lish kerakligi to'g'risidagi aqidasi hozir barbod etilmagan bo'lsa ham, allaqanday mantiqsiz, ma'nosiz bir narsa qarshisida yuzma-yuz turganini his etar, ammo nima qilishini bilmay boshi qotar edi. Aleksey Aleksandrovich hayot qarshisida yuzma-yuz turar, xotining o'zidan boshqa birovni yaxshi ko'rib qolishi mum-

kinligini ko'rib turar, bu esa unga juda bema'ni, chigal narsa bo'lib ko'rinardi, chunki bu hayotning o'zi edi. Aleksey Aleksandrovich butun umrini hayot in'ikosi bilan aloqada bo'lgan xizmat sohasida o'tkazgan edi. Har safar hayotning o'zi bilan yuzma-yuz kelganda, u o'zini panaga olardi. Jar ustidagi ko'prikdan bamaylixotir o'tib ketgan, keyin esa birdan u ko'prikning buzib tashlanganini va ostida girdob borligini ko'rgan kishi qanday his-tuyg'ularga berilsa, Aleksey Aleksandrovich ham hozir xuddi o'shanday tuyg'uda edi. Bu girdob – hayotdan iborat, ko'prik esa – Aleksey Aleksandrovich yashagan sun'iy hayot edi. Xotining boshqa birovni yaxshi ko'rib qolishi mumkinligi masalasi bilan birinchi marta to'qnashganda yuragi chiqib ketayozdi.

U kiyimlarini yechmasdan salmoqli odimlari bilan xonalar ichida u yoqdan bu yoqqa aylanib yurardi; birgina chiroq yoritib turgan va parketlari g'ijillaydigan yemakxonada, nim qorong'i mehmonxonaning gilami ustida u yoq-bu yoq yurar (yaqindagina tayyorlanib mehmonxonadagi divan ustiga osib qo'yilgan o'zining katta portretigagina yorug' tushib turardi), so'ngra Annaning ikkita sham yonib turgan kabinetiga kirar, shamlar xotining ota-onasi va yor-u dugonasi portretlariga, uning yozuv stolida ko'raverib, ko'ziga tanish bo'lib qolgan chiroyli o'yinchoq-bezanchoqlariga nur to'kib turardi. Annaning xonasidan o'tib, mehmonxona eshigiga yurib kelar, yana qaytib ketardi.

Xonalar ichida u yoqdan bu yoqqa aylanib yurganida, ayniqsa, charog'on yemakxonaning parketlari ustida yurib borayotganida to'xtab: «Ha, bir qarorga kelish, bunga xotima berish kerak, men bu to'g'rida o'z fikrimni, qarorimni aytishim lozim», – derdi o'ziga. Shundan keyin yana orqasiga qaytardi. «Lekin nimani aytaman? Qanday qarorni?» deb mehmonxonada o'ziga savol berar, lekin javob topolmay qiynalardi. Keyin kabinet tomonga burilishda yana o'zidan so'radi: «Shoshma, axir, o'zi nima gap? Nima bo'ldi? Hech nima bo'lgani yo'q-ku. Faqat Vronskiy bilan uzoq gaplashdi, xolos. Xo'sh, nima bo'пти? Kibor jamiyatlarda xotinlar birovlar bilan o'tirib gaplashmaydimi? Innaykeyin, bu rashk nima-si – o'zimniyam, uniyam yerga urish degan so'z-ku bu, axir», deb o'ylardi u, Annaning kabinetiga kirganda; lekin ilgarilari o'zi uchun salmoqqa ega bo'lgan bu mulohazalarning endi salmog'i ham, aha-

miyati ham qolmagan edi. U yotoqxona eshigidan yana zal tomonga qayrilib ketar; lekin nim qorong'i mehmonxonaga qaytib kirdi deguncha, allaqanday bir ovoz: «Bular sen o'ylaganday emas, mabodo boshqalar buni sezishgan bo'lsa, demak, bu yerda bir gap bor», – derdi. Shundan keyin u emakxonada yana o'ziga: «Ha, bu masalani hal qilish, barham berish kerak, so'ngra o'z mulohazalarimni aytiшим lozim...» derdi. Mehmonxonadan qayrilishda yana o'z-o'zidan: «Qanday hal qilish kerak?» – deb so'rardi. Keyin yana: «Nima hodisa bo'ldi?» – deb o'zidan so'rar, «Hech qanday hodisa bo'lgani yo'q» – deb javob berar, so'ngra rashk degan narsaning xotinni xo'rllovchi his ekanini eslar, lekin mehmonxonaga borganda, yana «Bir gap bor», deb vasvasaga tushardi. Fikri ham jasadi singari to'la doira bo'ylab aylanib yurar, lekin hech qanday yangi narsaga rost kelmas edi. U buni sezdi-yu, peshonasini silab, xotining kabinetida o'tirib qoldi.

Bu yerda Annaning stoliga va uning ustida yotgan malaxit byuvar hamda yoza boshlangan bir maktubchaga ko'zi tushdi-yu, fikrlari birdan o'zgarib ketdi. U Anna to'g'risida, Annaning nimalarni o'ylagani va his etgani to'g'risida o'ylay boshladi. Xotining shaxsiy hayoti, fikr-o'ylari, istak va orzulari bo'lishini u birinchi marta xayoliga keltirdi, shunda xotining o'ziga xos hayoti borligi va bo'lishi kerakligi to'g'risida tug'ilgan fikr unga shu qadar dahshatli bo'lib ko'rindiki, bu fikrni boshidan tezroq quvib yuborish harakatiga tushdi. Bu bir girdob edi, unga qarashga Aleksey Aleksandrovichning yuragi tob keltirolmasdi. O'zini boshqa bir odamning o'mniga qo'yib, o'sha odamday fikr va his qilish esa Aleksey Aleksandrovichga ruhan yot narsa edi. U bu xil ruhiy holatni zararli, xavfli bir xayolparastlik deb hisoblardi.

«Masalaning eng dahshatli tomoni shundaki, – deb o'ylardi u, – boshlagan ishim oxiriga yetib qolganda (hozir amalga oshirayotgan loyihasini o'ylardi), tinch yashashim va qalbimning butun kuchini safarbar qilishim judayam zarur bo'lib turgan shu paytda boshimga ana shu bema'ni tashvish tushsa-ya! Endi nima qilishim kerak? Men axir besaranjomlikka, hayajonga tushib haqiqat yuziga boqishdan qo'rqadigan odamlardan bo'lmasam».

– Men bu narsani o'ylab ko'rishim, bir qarorga kelishim va tashvishlarni o'rtadan ko'tarib tashlashim kerak, – dedi u ovozi chiqarib.

«Xotininimning his-tuygʻulari haqidagi, uning qalbida sodir boʻlayotgan va boʻlishi mumkin boʻlgan narsalar toʻgʻrisidagi masalaning menga daxli yoʻq, bu uning vijdoniga va iymoniga taalluqli narsa», – deb oʻylandi-da, sodir boʻlgan hozirgi ahvolni qonunlashtirish uchun muvofiq modda topganidan quvonib, oʻzida bir yengillik his etdi.

«Shunday qilib, – dedi Aleksey Aleksandrovich, – uning hislari va hokazolar toʻgʻrisidagi masalalar, uning vijdoniga taalluqli masalalardir, ularning menga hech qanday daxli boʻlishi mumkin emas. Mening vazifam esa ravshan va muayyan. Men oilaning boshligʻiman, shuning uchun oilaga rahbarlik qilishga va qisman javobgarlikni uhdamga olishga majburman; men oʻzim koʻrib turgan xavf-xatarni koʻrsatishim, undan saqlashim va hatto hukmronligimniyam ishga solishim kerak. Men bu narsalarning hammasini unga aytishim kerak».

Xotinigga aytadigan gaplari Aleksey Aleksandrovichning miyasida endi ravshan shakl oldi. U aytadigan gaplarini oʻylab turib, vaqtini va aql kuchini shunday mayda-chuyda narsalarga, uy tashvishlariga isrof qilishga majbur boʻlayotgani uchun afsuslandi; lekin bunga qaramasdan soʻzlaydigan nutqi miyasida maʼruza singari izchil va oydin shakl ola boshladi. «Men quyidagi narsalarni aytishim, uqtirishim kerak: birinchidan, afkor ommaning va odob qoidalarining ahamiyatini; ikkinchidan, nikoh mohiyatining diniy jihatdan izohini; uchinchidan, kerak boʻlsa, oʻgʻil uchun yuz berishi mumkin boʻlgan baxtiqoralikni; toʻrtinchidan, uning oʻz boshiga tushadigan shoʻrigʻavgʻoni eslatib qoʻyishim kerak». Ana shundan keyin Aleksey Aleksandrovich barmoqlarini bir-biriga kirishtirdi, kaftlarini pastga qaratib turib bir tortgan edi, barmoqlarining boʻgʻinlari qirsillab ketdi.

Uning bu yomon odati – qoʻllarini chatishtirib, barmoqlarini qirsillatish odati – hamma vaqt asablarini tinchitar va hozir unga juda ham zarur boʻlgan xotirjamlik hissini tugʻdirardi. Tashqari eshigiga kareta kelib toʻxtagani eshitildi. Aleksey Aleksandrovich zal oʻrtasida toʻxtab qoldi.

Zinapoyadan chiqib kelayotgan ayol kishining qadam tovushi eshitildi. Aleksey Aleksandrovich nutqini irod etishga shaylanib chatishtirilgan barmoqlarini qattiq qisgan holda yana qaysi biri qisirlar ekan deb kutib turar edi. Boʻgʻinlaridan biri qisirladi.

Zinapoyadan eshitilayotgan mayin qadamlar tovushidan Anna-ning yaqinlashib kelayotganini sezdi-da, tayyorlab qo‘ygan nutqidan mamnun bo‘lsa ham, yana gapni ochiq qilish kerakligini o‘ylab yuragi orqasiga tortib ketdi.

IX

Anna boshini solintirib, quloqchining popugini o‘ynab kelardi. Yuzi porlab nur sochib turardi; lekin bu shodlik nuri emas edi, u qorong‘i kechada lovullagan dahshatli yong‘in yog‘dusini eslatardi. Anna erini ko‘rib boshini ko‘tardi-da, xuddi uyqudan uyg‘onayotgan kishi singari, kulimsirab qo‘ydi.

– Ana xolos, haliyam yotganing yo‘qmi? Qiziq! – dedi-yu, Anna quloqchisini chiqarib, to‘xtamasdanoq pardozxonasiga kirib ketdi. Keyin eshik orqasidan ovozi eshitildi: – Yotish kerak, Aleksey Aleksandrovich.

– Anna, senda gapim bor edi.

– Menda? – taajjub bilan eshikdan chiqib, eriga qaradi Anna. – Ha, nima gap? Nima xususda? – deb so‘radi o‘tiringandan keyin. – Xo‘p, gaplashaylik, agar juda zarur bo‘lsa. Ammo yotsak, yaxshiroq bo‘lardi.

Anna tiliga kelgan narsalarni qaytarmay gapirar, gapirayotgan narsalariga quloq solib, yolg‘on gapirishga qobiliyatli ekaniga o‘zi hayron qolar edi. So‘zlari naqadar sodda, naqadar tabiiy, uxlagisi kelgani ham xuddi rostga o‘xshar edi! Anna o‘zini qalin yolg‘onchilik libosini kiyib olganday his etardi. Qandaydir ko‘rinmaydigan bir kuch o‘ziga yordam berayotganini, o‘zini qo‘llab-quvvatlayotganini his qilardi.

– Anna, men seni ogoh qilib qo‘ymoqchiman, – dedi eri.

– Ogoh qilib qo‘ymoqchisan? – deb so‘radi Anna. – Nimadan?

Anna shu qadar sodda, shu qadar quvnoq chehra bilan qarab turardiki, uni ericha bilmagan, tanimagan kishi so‘zlarining na ohangida, na ma‘nosida biron g‘ayritabiiy narsa borligini payqayolmas edi. Lekin uni yaxshi bilgan eri uchun, besh daqiqa kechikib yotganda Anna buni sezib, sababini surishtirganini necha martalab ko‘rgan er uchun, har bir sevinchini, xushvaqtligini va dard-u hasratlarini darhol kelib o‘ziga aytganini bilgan er uchun – erining ahvolini sezgisi kelmagan, o‘zi to‘g‘risida bir og‘iz ham so‘z aytishni istamagan

xotinini shunday ahvolda ko'rish – juda ko'p ma'noga ega edi. Xotining avvallari hamma vaqt o'zi uchun ochiq bo'lgan qalbining endi yopiq ekanini ko'rib turardi. Hali bu ham oz, hatto Annaning so'z ohangida bu harakatidan uyalmayotganini, go'yo: «To'g'ri, qalbm sen uchun yopiq, shunday bo'lishi kerak, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi», deb ro'y-rost gapirayotgandek avzoda ekanini ko'rib turardi. Uyiga qaytib kelganda, uyni qulflog'liq ko'rgan kishi o'zini qanday his qilsa, Aleksey Aleksandrovich ham hozir xuddi shunday hisni boshidan kechirmoqda edi. «Lekin, zora kaliti topilsa», deb o'yladi Aleksey Aleksandrovich.

– Men seni shu xususda ogoh qilib qo'ymoqchimanki, – deb mungli tovush bilan so'z boshladi u, – ehtiyotsizlik va yengiltaklik orqasida sen o'zingni kiborlar jamiyatida gap-so'zga qoldirishing mumkin. Bugun graf Vronskiy bilan (bu nomni qattiq ovoz bilan chertib-chertib gapirdi) qilgan haddan ziyod dilkashliging butun majlisning diqqatini o'ziga jalb etdi.

U so'zlayotganda Annaning kulib turgan, lekin nimani ifoda etayotganini tushunib bo'lmaydigan (shu bilan uni dahshatga solayotgan) ko'zlariga qarab, o'z so'zlarining foydasiz, noo'rin ekanini sezib turardi.

Anna u aytgan gaplarga hech bir tushunmagan, faqat so'nggi so'znigina jo'rttaga tushungandek:

– Hamma vaqt shunaqa qilasan, – deb javob berdi. – Zerikib o'tirsam ham senga yoqmayman, vaqtim chog' bo'lib o'tirsam ham yoqmayman. U yerda hech zerikkanim yo'q. Nima, zerikmaganim senga alam qildimi?

Aleksey Aleksandrovich bir seskandi-yu, barmoqlarini qisirlatmoqchi bo'lib bukdi.

– Qo'y, qisirlatma, biram yomon ko'ramanki, – dedi Anna.

Aleksey Aleksandrovich o'zini bosib qo'llarini harakatdan to'xtatdi-da:

– Anna, sen o'zingmisan? – dedi.

Anna ham samimiy, ham kulgili taajjub bilan:

– Ha, nima? – dedi. – Nima demoqchisan menga?

Aleksey Aleksandrovich, dami ichiga tushib ketib qo'li bilan peshonasini, ko'zlarini siladi. U o'zining qilmoqchi bo'lgan narsasi o'rniga, ya'ni xotinini kibor jamiyat ko'zida xatolardan ogohlanti-

rib qo'yish o'rniga Annaning vijdoniga taalluqli narsalar to'g'risida ixtiyorsiz hayajonlanayotganini va allaqanday xayoliy to'sqin bilan kurashayotganini ko'rdi.

– Men senga shuni aytmoqchi edim, – deb sovuq sokin bir ohangda so'zini davom ettirdi, – iltimos qilaman, gapimga yaxshilab quloq sol. O'zing bilasan, men rashkni tahqir etuvchi va kishi izzat-nafsini yerga uruvchi bir his deb bilaman, shuning uchun hech qachon bu hisga berilib ish qilmayman; lekin odob degan narsaning shunday qonun-qoidalari borki, buni oyoqosti qilgan kishi jazosini tortmay qolmaydi. Bugun men sezganim yo'q, lekin majlisdagilarda qoldirgan taassurotingga qarab bir nima deyiladigan bo'lsa, sen o'zingni hamma talablarga javob beradigan tartibda tutmading, buni hamma sezdi.

– Gapingga tushunsam o'lay agar, – dedi Anna, yelkalarini qisib. Keyin o'zicha: «Unga baribir ekan. Mening harakatimni kiborlar jamiyati payqashgani uchun tashvishga tushibdi», deb o'yladi. – Tobing qochgan ko'rinadi, Aleksey Aleksandrovich, – deb ilova qildi-da, o'rnidan turib, xonasiga kirib ketishni mo'ljallab turganda eri uni to'xtatmoqchi bo'lganday oldinga qarab yurdi.

Uning yuzi xunuk, qovoqlari soliq edi, Anna uni hech mahal bu xilda ko'rmagan edi. Anna to'xtadi-da, boshini orqaga tashlab sal qiyshaytirib chaqqon qo'llari bilan sochlaridagi sochto'g'nog'ichlarini chiqara boshladi.

– Xo'p, qulog'im senda, qani, gapir, eshitay, – dedi Anna, vazmin, lekin mazax qiluvchi bir ohangda. – Hatto gapingga jon deb quloq solaman, chunki nimaligini bilishni xohlayman.

Anna so'zlar, so'zlayotgan so'zlarining tabiiy, vazmin, to'g'ri ohangdaligiga va har bir so'zni topib gapirayotganiga hayron bo'lardi.

– Hislaringni sinchiklab bilib olishga haqim yo'q, men buni umuman foydasiz, hatto zararli deb hisoblayman, – deb so'z boshladi Aleksey Aleksandrovich. – Qalbimizni kavlashtirganimizda, ba'zan shunday narsalarni kavlab chiqaramizki, unday narsalar o'sha erida ko'rinmay yotgani yaxshiroq bo'lardi. Sening hislaring – vijdoningga taalluqli narsa; lekin men sening oldingda, o'zimning oldimda, Xudo oldida o'z burchlaringni ko'rsatib qo'yishga majburman. Bizning hayotimiz payvand qilingan, lekin odamlar tomonidan emas, Yaratgan tomonidan payvand qilingan. Bu payvandni faqat

jinoyatgina buzishi mumkin, bunday jinoyat esa og'ir jazo bilan natijalanadi.

– Gapingga hech tushunolmayapman. Voy Xudo-yey, xuddi o'chakishganday, biram uyqum kelyaptiki! – dedi-yu, Anna qo'li bilan sochlarini tez-tez kavlashtirib, qolgan sochto'g'nog'ichlarni qidira boshladi.

Aleksey Aleksandrovich:

– Anna, Xudo xayringni bersin, unday dema, – dedi. – Ehtimol, men yanglishayotgandirman, lekin gapimga ishon, men bu narsalarni o'zimdanda ko'ra ko'proq sening yuzxotiring uchun aytyapman. Men eringman, seni yaxshi ko'raman.

Bir lahzagina Annaning boshi quyi solindi va ko'zlaridagi istehzo uchquni so'ndi; lekin «yaxshi ko'raman» so'zi uni yana g'azabga keltirdi. «Yaxshi ko'radi? Nahotki, yaxshi ko'rishni bilsa? Muhabbat degan narsa borligini eshitmagan bo'lsaydi, hech qachon bu so'zni ishlatmasdi. Muhabbat nimaligini bilmaydi», – deb o'ylandi Anna, keyin:

– Aleksey Aleksandrovich, o'lay agar, hech narsaga tushunmayapman, – dedi. – Tushuntiribroq gapir, nima, bilay...

– Shoshma, gapimni gapirib olay. Men seni yaxshi ko'raman. Lekin men o'zim to'g'rimda gapirayotganim yo'q; bunda asosiy shaxslar o'g'limiz-u sening o'zing. Takror aytaman, mening so'zlarim senga butunlay behuda, noo'rin bo'lib tuyulishi mumkin, ehtimol, bu so'zlar yanglishayotganligim natijasidir. Unday bo'lsa, meni kechirishingni iltimos qilaman. Mabodo, zarracha bo'lsayam asos borligini sezsang, u holda o'ylab ko'rishingni va ko'ngil yorib menga ochiq aytishingni iltimos qilaman...

Aleksey Aleksandrovich oldindan tayyorlab qo'ygan so'zlarini emas, butunlay boshqa narsalarni aytganini o'zi ham payqamay qoldi.

– Mening aytadigan hech qanday gapim yo'q. Innaykeyin... – Anna o'zini jilmayishdan zo'rg'a tutib, birdan shoshib gapirdi: – bo'ldi, uxlash kerak.

Aleksey Aleksandrovich xo'rsinib qo'ydi-da, ortiq hech nima demasdan, yotoqxonaga kirib ketdi.

Anna yotoqxonaga kirganda, eri o'rnida yotgan edi. Lablari qimtilgan, ko'zlari esa xotiniga emas, boshqa yoqqa tikilgan edi. Anna o'z o'rniga kirib, erining yana gap boshlashini daqiqqa sayin

kutib yotdi. U erining gap boshlashidan ham qo‘rqar, gap boshlashini ham xohlardi. Lekin eri miq etmasdi. Anna qimir etmasdan uzoq kutdi va nihoyat, uni unutdi. U hozir boshqa kishini o‘ylar, uni ko‘z o‘ngida ko‘rib turar, uni o‘ylagan paytda yuragining hayajon bilan, jinoyatkorona shodlik bilan to‘lib borganini payqar edi. U birdan burundan bir maromda chiqarayotgan sokin bir hushtakni eshitdi. Aleksey Aleksandrovich o‘zi chiqarayotgan hushtakdan dastlab qo‘rqib, to‘xtab qoldi; lekin ikki marta nafas olgandan so‘ng yangi bir ohangda yana hushtak ota boshladi.

– Foydasiz, foydasiz, endi foydasiz, – deb Anna kulimsirab turib pichirladi. U uzoq vaqtgacha qimir etmay ko‘zlarini ochib yotdi; ko‘zlaridagi uchqunni u qorong‘ida ham ko‘rib turgandek tuyardi.

X

Shu oqshomdan Aleksey Aleksandrovich uchun ham, xotini uchun ham yangi hayot boshlandi. Aytarli hech qanday hodisa yuz bermadi. Anna har vaqtdagiday kiborlar majlislariga qatnar, ayniqsa, knyagina Betsinikiga ko‘proq borar, Vronskiyni hamma joyda uchratardi. Aleksey Aleksandrovich buni ko‘rsa ham, lekin hech narsa qilolmasdi. Xotinidan gap olish uchun uringanda har safar Anna uni allaqanday shodiyona bir taajjub bilan qarshi olardi. Zohirda hamma narsa avvalgiday edi, lekin botinda aloqalari butunlay o‘zgargan edi. Aleksey Aleksandrovich davlat ishlarida benihoya qudratli odam bo‘lsa ham, bu masalada o‘zini zaif his qilardi. U bamisoli ho‘kizga o‘xshash, boshini egib, boshi ustida ko‘tarilgan boltaning zarbasini mutelik bilan kutardi. Har gal shu to‘g‘rida o‘ylay boshlaganda yana bir marta harakat qilib ko‘rish kerakligini, mehribonlik, muloyimlik va talqin-ta‘sir yo‘li bilan uni qutqazib qolish, hushini joyga keltirib qo‘yish kerakligini his qilardi va har kun u bilan gaplashishga jazm qilardi. Lekin har safar Anna bilan gaplasha boshlaganda, Annaning ichiga kirib olgan badkorlik va riyokorlik shaytoni o‘zining ham yelkasiga minib olayotganini his qilardi-da, Anna bilan gaplashmoqchi bo‘lgan ohangda emas, butunlay boshqa ohangda, boshqa to‘g‘rilarda gapirib yuborardi. U Anna bilan ixtiyorsiz o‘zi odatlanib qolgan istehzo aralash ohangda gaplasha boshlardi. Holbuki, Annaga aytilishi lozim bo‘lgan narsani bu xil ohangda aytib bo‘lmas edi.

XI

Vronskiy uchun qariyb bir yildan beri hayotining birdan bir orzusi bo'lib, o'tmishdagi barcha orzularining o'rmini egallab olgan narsa; Anna uchun esa imkon xorijida bo'lgan, dahshatli ko'ringan va bunga qaramay jozibali orzu bo'lib kelgan narsa – nihoyat ushlangan edi. Vronskiy rangi o'chgan, jag'i qaltiragan holda Annaning boshi ustida turib, Annaga: tinchlaning, o'zingizni bosib oling, deb yalinib-yolvorar, lekin nima deb, nima bilan tinchitishni bilmay boshi qotar edi.

– Anna! Anna! – deyardi u, qaltiroq tovush bilan. – Anna, Xudo haqi!..

Vronskiy qancha baland ovoz bilan gapirsa, Anna bir mahallar mag'rur, quvnoq bo'lgan, endi esa uyatga qolgan boshini shuncha past tushirar, egilib-bukilar, o'tirgan divandan polga, uning oyoqlari ostiga yiqilardi; Vronskiy ushlab turmagan bo'lsa, gilamga yiqilib tushardi.

Anna uning qo'lini ko'ksiga bosib:

– Yo Parvardigor! O'zing kechir! – deb hiqillardi.

Anna o'zini shu qadar jinoyatkor va aybdor sezardiki, faqat o'zini yerga urish, uzr so'rashdan boshqa iloji qolmagan edi; dunyoda esa endi Annaning Vronskiydan boshqa hech kimi yo'q edi, shuning uchun kechirim so'rab unga ham yalinib-yolvorardi. Anna unga termilar, o'zining xo'riligini butun vujudi bilan his etar, ortiq gapirishga so'z topolmay qiynalar edi. Vronskiy esa qotil o'zi o'ldirgan kishisining jasadini ko'rganda his qilishi kerak bo'lgan narsalarni his qilar edi. U hayotdan mahrum qilgan bu jasad ularning muhabbati, muhabbatlarining birinchi fasli edi. Bu dahshatli hayosizlik evaziga qo'lga kiritilgan baxt xotiralaridagi qandaydir mudhish, jirkanch bir narsa edi. Anna o'zining ma'naviy yalang'ochligidan ezilar, bu narsa Vronskiyga ham ta'sir qilardi. Lekin qotil, o'zi qatl etgan kishining jasadi oldida qanchalik dahshatga tushmasin, bu jasadni pora-pora qilib yashirishi kerak, qotil qatl yo'li bilan qo'lga kiritgan narsalaridan foydalanishi kerak.

Shuning uchun qotil g'azab bilan, go'yo ehtiros bilan jasadga tashlanadi, uni sudraydi, parchalaydi; shunga o'xshash Vronskiy ham uning yuzini, yalang'och yelkalarini bo'salar bilan qopladi. Anna

uning qo'lini ushlab, qimir etmay o'tirardi. Ha, bu o'pishlar – hayosizlik evaziga qo'lga kiritilgan narsalardir. Ha, hamisha meniki bo'lib qoladigan bu yagona qo'l esa – men bilan til birlashtirgan sherigimning qo'li. Anna bu qo'lni lablariga keltirib o'pdi. Vronskiy tiz cho'kib, Annaning yuziga qarab diydoriga to'ymoqchi bo'ldi; lekin u yuzini yashirib, bir so'z ham demadi. Nihoyat, Anna o'zini zo'rlab o'rnidan turdi-da, Vronskiy ni itarib yubordi. Yuzi hamon avvalgiday chiroyli bo'lsa ham, ayanch tusda edi.

– Hamma narsa bitdi, – dedi Anna. – Mening sendan boshqa hech nimam yo'q. Esingda bo'lsin.

– Jonimdek ko'rganimni hech qachon esdan chiqarolmayman. Bu baxtning bir lahzasi uchun...

– Qanday baxt?! – dedi Anna, jirkanch va dahshat bilan; bu dahshat Vronskiyga ham beixtiyor ta'sir qildi. – Xudo xayringni bersin, ortiq bir so'z ham aytma.

Anna darhol o'rnidan turib, o'zini chetga oldi.

– Ortiq bir so'z ham aytma, – deb takrorladi-yu, yuzida Vronskiyga g'alati tuyulgan sovuq bir umidsizlik ifodasi bilan undan ayrildi. Anna hozir qadam tashlagan yangi hayot oldida his qilgan nomus, shodlik hissini va dahshatni so'z bilan ifoda etolmasligini sezar, shuning uchun bu haqda gapirishni, bu hisni nomunosib so'zlar bilan bulg'ashni istamas edi. Lekin keyincha ham, ertasiga va indiniga ham, bu hislarning butun murakkabligini ifoda qila biladigan so'zlar topolmadigina emas, balki qalbida bor narsalarni o'zicha o'ylab ko'rishga yaraydigan fikrlar ham topolmadi.

«Yo'q, endi bu to'g'rida o'ylayolmayman; keyin, tinchimni topganimdan keyin o'ylayman», derdi u o'z-o'ziga. Lekin fikr-o'ylariga orom beradigan bu tinchlik kelavermadi; nima qilib qo'yganini, endi boshiga nimalar kelishi va nima qilish kerakligi to'g'risidagi fikrlar har gal miyasiga kelganda, uni dahshat bosar va bu fikrlarni miyasidan quvar edi.

– Keyin, tinchimni topganimdan keyin, – derdi o'z-o'ziga.

Ammo tushida, o'z fikrlariga hukmronlik qilish ixtiyori qo'lidan ketganda, ahvol butun sharmandaligi, yalang'ochligi bilan ko'z oldida gavdalanardi. Qariyb har kecha tushiga bir narsa kirar edi. Tushida ularning har ikkovi ham eri bo'lib ko'rinar, ikkovi ham Annani sevib-siyqalar emish. Aleksey Aleksandrovich Annaning qo'llarini

o'pib yig'lar emish, nuqul: «Xayriyat, endi yaxshi bo'ldi!» dermish. Aleksey Vronskiy ham o'sha yerda, u ham Annaning eri emish. Anna esa burunlari o'ziga imkon xorijida ko'ringan bu ahvolga hayron bo'lar, bu ahvolning o'ng'ayligini, endi har ikkala erining ham bundan mamnun va baxtiyorligini kulib turib gapirmish. Lekin bu tush xuddi qora bosgandek Annani qiynar, u vahm bilan uyg'onib ketardi.

XII

Levin Moskvadan qaytgan dastlabki kunlarida, rad javob olib, sharmanda bo'lganini eslab har safar titrab, qizarib yurgan kezlarida o'ziga shunday derdi: «Fizikadan bir olib, ikkinchi kursda qolganimda, hamma narsa barbod bo'ldi, deb xuddi shunday qaltiragan, lavlagidek qizargandim; opamning menga topshirgan ishini buzib qo'yganimdayam barbod bo'ldim, deb o'ylagandim. Xo'sh, oqibat nima bo'ldi? – Mana endi, yillar o'tgandan so'ng, o'sha narsalar uchun qayg'urganimni eslab hayron qolaman. Bu qayg'umning oqibatiyam shunday bo'ladi. Vaqt o'tgandan so'ng bu narsagayam parvosiz qaraydigan bo'laman».

Lekin oradan uch oy o'tib ketgan bo'lsa ham, bunga parvosiz bo'lib qololmadi, balki xuddi birinchi kunlardagi singari bu hodisani eslaganda yuragi o'rtanib ketardi. Hech taskin topolmasdi, chunki ko'p vaqtlardan beri oila hayotini orzu qilib kelganiga, o'zini bunday hayot uchun yetilgan his qilganiga qaramay, hamon uylanmagan va uylanish ehtimolidan burungiga nisbatan ancha uzoqlashgan edi. Atrofidagi odamlar singari, uning o'zi ham shu yoshga yetgan kishining so'qqabosh bo'lib qolishi yaxshi emasligini sezib o'kinardi. Bir kun, Moskvaga jo'nash oldida, o'zining molboqari Nikolayga (bu sodda mujik bilan hangomalashishni yaxshi ko'rardi): «Nima deysan, Nikolay, uylanmoqchiman!» degani hali-hali esida. O'shanda Nikolay shubhasiz bajarilishi lozim bo'lgan ish to'g'risida gapirayotgandek: «Albatta, allaqachon uylanish kerak edi, Konstantin Dmitrich!» degan edi. Lekin uylanish ehtimoli hozir har vaqtdagidan ham uzoqlashgan edi. Ko'nglidagi o'rin esa egallangan, hozir ana shu o'ringa tanish qizlardan birontasini xayolida qo'yib ko'rsa, buning sira-sira bo'lishi mumkin emasligiga ishonch hosil qilardi. Bundan tashqari, rad javob olganini, bu masalada o'zi o'ynagan rolini eslaganda uyalib yerga kirib ketgudek bo'lardi. Bu xususda o'zining hech qanday aybi

yo'qligini o'ziga necha marta aytsa ham, buni eslash shunga o'xshash kishini uyaltiradigan xotiralar singari, uni qaltiratar, qizartirar edi. Har qanday odamda bo'lgani singari, uning o'tmishida ham vijdonini azoblaydigan yomon ishlar sodir bo'lgan; lekin qilgan nojo'ya ishlari to'g'risidagi xotira bu arzimas, lekin uyatli hodisa singari azob bermas edi. Yuragidagi bu yara hech bir mahal bitadigan yara emasdi. Endi Kitidan olgan rad javobi va o'sha kecha boshqalar nazarida tushgan ayanch ahvoli ham shu xotiralar sirasiga kelib qo'shildi. Lekin vaqt va mehnat o'z ishini qilmoqda edi. Bu og'ir xotiralar uning uchun ko'zga chalinmaydigan, lekin qishloq hayoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar orqasida qolib borardi. Haftalar o'tgan sari Kitini kamdan kam eslaydigan bo'lib qoldi, u Kitining erga tekkani yoki yaqinda erga tegishi to'g'risidagi xabarni sabrsizlik bilan kutar, bunday xabar og'riq tishni sug'urib tashlaganday shifo beradi, deb ko'z tutar edi.

Bu orada kishining bahri dilini ochadigan go'zal ko'klam yetib keldi; o'simliklar ham, jonivorlar ham, insonlar ham – hammasi baravariga yayrab-yashnaydigan nodir bahor o'zini kuttirmay yetib keldi. Bu go'zal bahor Levinning hislarini yana besh battar qo'zg'atgan va o'zining yolg'izlikda kechiradigan hayotini mustahkam, mustaqil negizda qurish uchun o'tmishdagi hamma narsalardan voz kechish to'g'risidagi niyatini quvvatladi. U qishloqqa qaytishda u yerda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlaridan ko'pginasini hali-hanuz bajarmagan bo'lsa ham, lekin eng muhimi – pok va toza hayot kechirish istagi amalga oshgan edi – u bunga rioya qilardi. Razil bir ishni qilib qo'yib, keyin azobini chekib yuradigan Levin endi uyatli ish qilmas, shuning uchun odamlar yuziga tortinmay qarar edi. U Marya Nikolayevnadan fevral oyidayoq xat olgan edi; xatida Nikolay akasining sog'ligi yomonlashib borayotganini, lekin u muolajaga ko'nmayotganini xabar qilgan edi; shu xat munosabati bilan Levin Moskvaga borib, akasini doktorlar bilan maslahatlashishga va chet elga jo'nab, suv muolajasini olishga ko'ndirib keldi. Akasini osongina yo'lga solishga va jahlini chiqarmasdan yo'l xarajatlari uchun qarz ham berishga muvaffaq bo'ldi. Bu ishi uchun o'zidan juda mamnun edi. Bahorda, ayniqsa, diqqat talab qiladigan xo'jalik bilan mashg'ul bo'lishdan va kitob o'qishdan tashqari, Levin shu qish xo'jalik haqida bir asar ham yoza boshladi; bu asarning rejasiga ko'ra, xo'jalikdagi

ishchining xarakteri ham iqlim va tuproq qatori mutlaq omil deb tanilishi, shuning uchun qishloq xo'jaligi fanining butun nizom va qoidalari faqat tuproq va iqlim omillariga qarabgina emas, balki iqlim, tuproq hamda ishchining o'zgarimas, ma'lum xarakteri omillarining xulosasi bo'lishi kerak. Shunday qilib, yakka yashaganiga qaramay yoki yakka yashagani uchun ham uning hayoti ish va tashvish bilan to'lib-toshgan, faqat ora-sira miyasida chuvalashgan tarqoq fikrlarini Agafya Mixaylovnadan boshqalarga ham aytish uchun ehtiyoj sezar, bunga qaramasdan Agafya Mixaylovna bilan ham ko'pincha fizika, xo'jalik nazariyasi, ayniqsa, falsafa to'g'risida muhokamalar yuritardi; falsafa esa Agafya Mixaylovnaning yaxshi ko'rgan fani edi.

Bahor chehrasini uzoq vaqtgacha ochmadi. Ro'zaning so'nggi haftalarida havo ochiq, sovuq bo'lib turdi. Kunduzlari qatqaloqlar erir, kechalari esa sovuq yetti darajaga chiqib olar edi; muz shu qadar qalin ediki, aravalar to'g'ri kelgan joydan yurib ketaverardi. Pasxa kunlarida ham qor bor edi. Keyin, bayramning ikkinchi kuni birdan iliq shamol esdi, qora bulutlar bosib keldi, uch kecha-yu uch kunduz iliq jala quydi. Payshanba kuni shamol tindi-da, tabiatda yuz berayotgan o'zgarishlar sirini yashirmoqchi bo'lganday, quyuq kulrang tuman tushdi. Tuman ichida suvlar shaldirab oqar, muzlar qasirlab o'rinlaridan ko'char, loyqa suvlar ko'pirib, to Qizil Gorkagacha yoyilib borardi; kechqurun tuman parchalandi, qora bulutlar pag'apag'a bo'lib tarqaldi, bahorning yorqin, chinakam chehrasi ko'rindi. Ertalab charaqlab chiqqan quyosh kechasi suv yuzida paydo bo'lgan yupqa muzlarni bir zumda eritdi, uyg'ongan yerdan ko'tarilgan bug'lar bilan iliq havo larzaga keldi. Bulturgi o'lanlar ham, yangidan nish urib chiqayotgan yosh o'tlar ham yashil tus oldi; bodrezak, qarag'ay va yopishqoq xushbo'y oqqayinlarining kurtaklari bo'rtidi, uylaridan uchib chiqqan asalarilar tillasimon gullar bilan o'rtilgan novdalar ustida g'uvillasha boshladi. Muzlab qolgan yashil baxmal ekinlar ustida to'rg'aylar ko'zga ko'rinmay bo'zlaydi, qoramtir suv bosib yotgan pastliklar va botqoqlar tepasida loyxo'raklar chiyillaydi, turnalar, g'ozlar bahor nag'masi bilan baland-balandlarda uchib o'tadi. Tillagan, faqat u yer-bu yeridagina tuki qolgan qoramollar o'tloqlarda ma'rashadi, qing'iroyoq qo'zilar alanglanib ma'rashgan onalari tevaragida chopishib o'ynashadi, yalang oyoqlarning izi tushgan va quriy boshlagan yolg'izoyoq yo'llarda bolalar g'izillab yugu-

rishadi, hovuzlardan bo‘z chayqagani kelgan xushchaqchaq ayollar-ning shang‘ilari, hovlilardan esa omoch va molalarini tuzatayotgan dehqonlarning bolta dukurlari eshitiladi. Chinakam bahor kelgan edi.

XIII

Levin kattakon etigini va birinchi marta po‘stinini emas, movut paltosini kiydi-da, oftobda yaltirab, odamning ko‘zini qamashtirgan ariqlardan hatlab, goh muz ustidan yurib, goh yopishqoq loyga botib xo‘jaligini aylangani chiqdi.

Bahor – reja va niyat fasli. Levin hovliga chiqdi-da, bahorda bo‘rtib qolgan kurtaklaridagi yosh surx novdalari, shoxlari qayoqqa va qanday o‘shishini hali-beri bilmagan daraxt singari, o‘zining yaxshi ko‘rgan xo‘jaligida hozir qanday ishga qo‘l urishini tuzukroq bilmasa ham, lekin miyasi yaxshi niyat va orzular bilan to‘liq ekanini sezib turardi. Hammasidan avval molxonaga kirdi. Sigirlar qo‘raga qo‘yib yuborilgan edi, silliq yunglari yilt-yilt qilib turgan sigirlar quyoshda isinishar, dalani qo‘msab ma‘rashardi. Levin eng nozik chiziqlarigacha tanish bo‘lgan sigirlarini zavq bilan tomosha qilgandan so‘ng ularni dalaga haydab, buzoqlarni qo‘raga chiqarishni buyurdi. Podachi dalaga chiqarkanman, deb quvonib, yugurganicha tayyorlangani ketdi. Molboqar ayollar etaklarini lippa urishib, hali quyoshda qora-yib ulgurmagan oppoq yalang oyoqlari bilan loy kechib yugurishar, bahor shodligidan diringlab ma‘rashib yurgan buzoqlarni qo‘llarida xivich bilan qo‘raga quvib haydashardi.

Levin bu yil nihoyat darajada yaxshi yetilgan yosh mollarni havas bilan tomosha qilgandan so‘ng (erta tug‘ilgan buzoqlar mujiklarning sigirlariga, Pavaning uch oyli bolasi esa bir yoshlik sigirlarga teng kelardi) ularning oldiga tog‘orani chiqartirib, pichanini panjara ichida berishni buyurdi. Lekin kuzda qilingan panjaralar qish ichi ishlatilmagani uchun ba‘zi yerlari qiyshayib, sinib qolibdi. U buyruq bo‘yicha yanchiq mashinasini tuzatishi kerak bo‘lgan duradgorga odam yubordi. Odam borsa, Maslenitsa¹ bayramidan oldin bitkazilishi kerak bo‘lgan molalarni ta‘mir qilayotgan ekan. Bu xabarni eshitib, Levin juda xafa bo‘ldi. Necha yillardan beri butun kuch-quvvati bilan tirishib-tirmashganiga qaramay, xo‘jaligidagi bu tartibsizlik hech xotima topmagani uchun jahli chiqdi. Surishtirib

¹ Qishni kuzatish bayrami.

bilsa: panjaralar qishda ishlatilmagani uchun otxonaga kiritib qo'yilgan ekan, u yerda sindirib yuborishibdi, chunki aslda buzoqlarga moslab, yengil-yelpi yasashgan ekan. Bundan tashqari, yana shu narsa ham ma'lum bo'ldiki, qishdayoq ko'zdan kechirilib, shikast-rextlari tuzatib qo'yilsin, deb buyruq berilgan bo'lsa-da, molalar bilan qishloq xo'jalik asboblari hali ham tuzatilmabdi; holbuki, bu ish uchun atayin uch cho'pkor usta ajratilgan edi; mana endi, mola bosish zarur bo'lib qolgan paytdagina molalarni tuzatishga kirishibdi. Levin sarkoriga odam yubordi-yu, keyin o'zi ham uni qidirib ketdi. Sarkor yoqa va barlariga barra qoplangan uzun po'stin kiygan, qo'lidagi cho'pni sindirib o'ynagani holda omborxonadan kelar, bugun atrofda charaqlagan hamma narsa qatori uning ham ko'zlari porlar edi.

– Nega duradgor yanchiq mashinasini tuzatmabdi?

– Sizga kecha xabar qilmoqchi edim: molalarni tuzatish kerak.

Bugun-erta yer hayday boshlaymiz.

– Qishda nima qildinglar?

– Ustada nima ishingiz bor edi?

– Buzoq qo'rasidagi panjaralar qayerda?

– O'z joyiga keltirib qo'yinglar, deb buyurib edim. Asli bu odamlarga ishingiz tushmasin! – dedi sarkor qo'lini siltab.

– Bu odamlargamas, bu sarkorga ishim tushmasin! – dedi Levin qizishib. – Menga ayting, axir, sizni nega ishga olganman? – deb Levin qichqirdi. Lekin bu xil qichqirish-hayqirishdan foyda yo'qligini eslab, so'zini yarmida to'xtatdi-yu, chuqur xo'rsindi. Bir zum jim turgandan so'ng: – Xo'sh, ekishni boshlasa bo'ladimi? – deb so'radi.

– Turkinoning naryog'iga erta yo indindan eka boshlasak bo'ladi.

– Bedani-chi?

– Vasiliyni Mishka bilan chiqardim, ekishyapti. Faqat yer loy, urug' yerni yorib chiqadimi-yo'qmi, bilmayman.

– Necha botmon yerga?

– Olti botmonga.

– Nega hammasigamas? – deb qichqirdi Levin.

Bedani yigirma botmon emas, faqat olti botmon yergagina ekti-rayotgani Levinga yana ham alam qildi. Ham nazariy jihatdan, ham o'zining shaxsiy tajribasi jihatdan bedani mumkin qadar barvaqt, hatto qor ketmasdan ekilganda yaxshi natija berardi. Lekin Levin hech mahal bunga muvaffaq bo'lolmasdi.

– Odam yo‘q. Bu odamlar bilan nimayam qilib bo‘ladi? Uchtasi ishga chiqmadi. Mana endi Semyon...

– Odamlarni xashakdan oling edi.

– Oldim.

– Qani ular?

– Beshtasi kompot qilyapti (ya‘ni kompost¹ demoqchi). To‘rttasi sulini shopiryapti; dimiqmasmikan deb qo‘rqaman-da, Konstantin Dmitrich.

«Dimiqmasmikan» degan iboraning urug‘lik uchun ajratilgan ingliz navli sulini barbod qilindi demak ekanini Levin juda yaxshi bilardi, demak, u tayinlagan narsani yana qilishmabdi.

– Ey, ro‘za kunlari aytganman-a, lapashang!.. – deb qichqirdi Levin.

– Xafa bo‘lmang, hammasini to‘g‘rilaymiz.

Levin jahli chiqib qo‘lini siltadi-da, omborga sulini ko‘rgani bo‘rib, otxonaga qaytib keldi. Suli hali buzilmagan edi. Ishchilar uni kuraklar bilan shopirishayotgan ekan, holbuki, pastki omborga to‘kib yuborish mumkin edi. Levin shunday qilishni tayinlagandan so‘ng beda ekishga yuborish uchun bu yerdan ikkita ishchini oldi-da, jahlidan tushdi. Bundan tashqari, kun shunday ajoyib ediki, achchiqlanib bo‘lmas edi.

Quduq yonida yenglarini shimarib olib faytonini yuvayotgan kucheriga:

– Ignat! – deb qichqirdi. – Otlardan birini menga egarlab ber...

– Qaysi birini xohlaydilar?

– Mayli, Kolpikni egarlay qol.

– Xo‘p bo‘ladi.

Sarkor shu atrofda Levinning ko‘zida ivirsib yurardi; otni egarlab bo‘lishguncha Levin sarkor bilan yarashib olish uchun uni yoniga chaqirdi-da, bahorda qilinadigan ishlar va xo‘jalik rejalari haqida gapira boshladi.

– Go‘ngni tashish ishlarini barvaqt boshlash kerak. Bu ishlar er-tangi pichan o‘rimigacha tamomlanishi lozim. Namini ketkazmaslik uchun uzoqdagi dalalar plug bilan peshma-pesh haydab turilsin, pichanning hammasi tengsheriklikka berilmasin, asta-sekin mardikorlar qo‘li bilan yig‘ishtirib olinsin.

¹ *Kompost* – turli o‘g‘itlar aralashmasi (*tarj.*).

Ishboshi diqqat bilan quloq solib turar, aftidan, xo'jayinining chamalab qo'ygan ishlarini ma'qullashga tirishar edi; lekin bunga qaramasdan uning yuzida Levinga nihoyat darajada tanish bo'lgan va hamisha Levinni asabiylashtiradigan umidsizlik, g'amginlik alo-matlari bor edi. Bu alo-matlar: «Tuzuk, bu gaplaringiz ma'qul, lekin yana Xudo biladi», – derdi.

Levinni hech narsa sarkorning ana shu ohangdagi gapi qadar xafa qilmas edi. Lekin bu Levinning qo'lidan o'tgan hamma sarkorlar uchun umumiy bir xususiyat edi. Ularning hammasi ham Levinning mo'ljallab qo'ygan narsalariga shu xilda qarashar edi, shuning uchun ortiq u achchiqlanmas, faqat xafa bo'lar, o'zi «Xudo bila-di» deb atashdan boshqa nom topolmagan va hamisha o'ziga qarshi qo'yilgan ana shu tabiiy kuchga qarshi kurashish uchun o'zida yana ham ko'proq g'ayrat tug'ilib borganini his qilardi.

– Qo'limiz tegsa, Konstantin Dmitrich, – dedi sarkor.

– Nega qo'lingiz tegmaydi?

– Yana albatta o'n besh kishi yollash kerak. Odam yo'q, hech kim kelmaydi. Bugun kelishuvdi. Yoz ishlari uchun yetmish so'mdan so'rashyapti.

Levin jim bo'lib qoldi. U yana o'sha kuchning qarshiligiga uch-ragan edi. Ular qanchalik tirishib-tirmashmasin, bu bahoga qirqdan, o'ttiz yettidan, o'ttiz sakkizdan ortiq ishchi yollasholmasliklarini bi-lardi. Qirqtasini yollashlari mumkin, ammo ortig'ini yollayolmasdi-lar. Shunday bo'lsa ham, u kurashmasdan turolmasdi.

– Odamlar kelmayotgan bo'lsa, Sura bilan Chefirovkaga odam yuboring. Qidirish kerak.

– Yuborishga-ku yuboraman-a, – dedi Vasiliy Fyodorovich bo'shshib, – otlarning mazasi qochib qolgan-da.

– Yana olamiz, – dedi-yu Levin, keyin kulib turib ilova qildi: – bilaman, siz shunaqa, ozroq bo'lsin-u, yomonroq bo'lsin, deysiz; lekin bu yil sizni o'z ixtiyoringizcha ish qildirib qo'ymayman. Ham-masini o'zim qilaman.

– Chamamda, shundog'am juda kam uxlaysiz. Xo'jayinimiz ko'z o'ngida ishlasak, xursand bo'lamiz...

– Demak, Qayin sayligining narigi tomoniga beda ekishyapti, a? Qani, bir borib ko'rib kelay-chi, – dedi Levin kucher keltirgan kich-kina bo'z otga mina turib.

– Soydan o‘tolmaysiz, Konstantin Dmitrich, – deb orqasidan qichqirib qoldi kucher.

– Xo‘p, unday bo‘lsa, o‘rmondan kesib o‘taman.

Levin qantariqda tobiga yetgan va ko‘lmak suvlar ustida pishirib, jilovini tortib borayotgan otni bilchillagan qo‘radan haydab chiqdi-da, to‘g‘ri dalaga qarab surdi.

Levin mol qo‘rasi va g‘alla omborida vaqtichog‘ bo‘lgan bo‘lsa, endi dalaga chiqishi bilan quvonchga to‘lib ketdi. O‘ynoqi bo‘z otning yo‘rg‘asiga monand bir me‘yorda chayqalib, o‘rmon ichida, u yer-bu yerda qolgan qor uyumlari ustidan o‘tib, qor hidi kelib turgan iliq havoni ichiga yutib borar va po‘stlog‘ida maysalar ko‘karib, kurtaklari bo‘rta boshlagan har bir daraxtidan quvonardi. O‘rmondan chiqqanda, ko‘zlari o‘ngida, kattakon maydonda yashil gilamga o‘xshash ekinzor yastanib yotardi; dalaning hech yerida suv bosgan yoki taqir yer yo‘q edi, faqat chuqurliklarda hali erib ulgurmagan qorlar oqarib ko‘rinardi, xolos. Ekin maydonini bir dehqon oti va uning yonida o‘ynoqilab yurgan toychog‘i oyoqosti qilib yurganini ko‘rganda ham jahli chiqmadi (ro‘para kelgan bir mujikka ularni haydab chiqarishni buyurdi), yo‘lda uchragan Ipat mujikning mazaxli, ahmoqona javobi ham jig‘iga tegmadi. Ipatdan: «Ha, Ipat, tezda urug‘ sochishga boshlaymizmi?» – deb so‘raganda, u: «Avval yerni haydash kerak, Konstantin Dmitrich», – deb javob bergan edi. Levin qancha uzoqqa borsa, bahri-dili ham shuncha ochilib, miyasiga xo‘jalikni yaxshiroq olib borish xususida bir-biridan yaxshiroq rejalar kelardi: tollarni dalalarning kungay tomoniga ekish kerak, shunday qilinganda ostida qorlar yig‘ilib qolmaydi; dalaning olti hissasini go‘ng solinadigan va uch hissasini ehtiyot shartdan pichan ekiladigan qilib bo‘lish, dalaning eng uzoq chetiga mol qo‘rasi qurib, hovuz kavlatish kerak; dalani tabiiy yo‘l bilan o‘g‘itlab turish uchun esa hayvonlarga tevaragi to‘siq bilan o‘ralgan ko‘chma molxonalar yasash lozim. Shunday qilinganda, 300 botmoni bug‘doy, 100 botmoni kartoshka va 150 botmoni yo‘ng‘ichqa bo‘ladi, bir botmon ham ortiq yer qolmaydi.

Levin xayoli shunday narsalar bilan band ekan, ekinni bostirmaslik uchun otini ehtiyot bilan marzalarda yurgizib, beda ekishayotgan mardikorlar yoniga etib keldi. Urug‘lik solingan arava marzada emas, ekin ichida turgan edi; lalmikorni g‘ildiraklar ezib, ot bosib tashlabdi. Ikkala mardikor ham marzada o‘tirib, aftlaridan, bir trub-

kadan chekishayotgan edi. Aravadagi beda urug‘i aralashtirilgan tuproq maydalanmabdi, aksincha, yumaloqlanib, kesak bo‘lib qolibdi. Vasiliy degan mardikor xo‘jayinini ko‘rib aravaga keldi, Mishka esa urug‘ni socha boshladi. Bu yaxshi emas edi, ammo Levinning ishchilarga kamdan kam jahli chiqardi. Vasiliy yoniga kelganda, Levin otini marzaga qo‘yishni buyurgandi, Vasiliy:

– Hechqisi yo‘q, xo‘jayin, ko‘karaveradi, – deb javob qildi.

– Qo‘y, aql o‘rgatma, qil degan narsani qilaver, – dedi Levin.

Vasiliy:

– Xo‘p bo‘ladi, – deb javob qildi-yu, otining boshini ushladi. Keyin tabiatsozlik qilib: – Ammo ekinniyam quling o‘rgilsin qilib ekyapmiz, Konstantin Dmitrich, – dedi, – judayam. Faqat yurish qiyin bo‘lyapti! Har chorig‘imizga bir puddan loy yopishadi-ya!

– Nega uruqqa aralashtirilgan tuproqni elamadinglar? – deb so‘ragandi Levin.

Vasiliy bir hovuch urug‘ oldi-da, tuproqni kaftida ezib turib:

– Mana shunaqa ezib sochamiz, – deb javob berdi.

Tuproqni elamasdan berganlari uchun Vasiliy aybdor emas edi, shunday bo‘lsa ham bu narsa Levinga alam qildi.

Levin xafagarchiligini bosish, yomon bo‘lib ko‘ringan narsalarni yaxshiga aylantirish uchun necha martalab sinovdan o‘tkazgan va foydasini ko‘rgan vositasini hozir ishlatdi. U oyog‘ining har biriga yopishgan loy lo‘mbozini sudrab, zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yurib borayotgan Mishkaga qarab turdi-da, otdan tushib, Vasiliydan urug‘ xaltasini oldi-yu, o‘zi sepa boshladi.

– Qayerda to‘xtab eding?

Vasiliy belgi qo‘ygan joyini oyog‘i bilan ko‘rsatgandan keyin Levin tuproq aralash urug‘ni o‘zi bilganicha sepa ketdi. Xuddi botqoqdagi singari yurish qiyin edi, Levin bir taxta joyga sepguncha terga pishdi, to‘xtab, urug‘ xaltasini Vasiliyga berdi.

– Ha-da, xo‘jayin, yozda bu taxtani ko‘rib meni so‘kasiz-da, – dedi Vasiliy.

Levin qo‘llangan vositasining ta‘sirini sezib suyundi-da:

– Nimaga? – deb so‘radi.

– Yozda bilasiz. Farqini ko‘rasiz. Bir qarang, o‘tgan bahor men qayerga sepgan edim. Xuddi qo‘l bilan o‘tqazgandek tekis chiqdi! U yog‘ini surishtirsangiz, Konstantin Dmitrich, men xuddi o‘z otamning ekinini ekayotgandek jon kuydiryapman. Hafsalasizlik bilan ish

qilishni o‘zim ham yomon ko‘raman, boshqaga ham qildirmayman. Xo‘jayinga yaxshi bo‘lsa, bizgayam yaxshi. Buni qarang, – dedi Vasiliy, dalaga ishora qilib, – ko‘rgan kishining bahri dili ochiladi.

– Bahor zap yaxshi keldi-da, Vasiliy.

– Keksalar bunaqa bahorni ko‘rgan emasmiz, deyishadi. Uyga boruvdim, bizning boboy ham uch chorak bug‘doy ekib olibdi. Unib chiqqan ekan, javdardan hech ajratib bo‘lmaydi, deyishadi.

– Siz bug‘doyni anchadan beri ekasizmi?

– Iya, uzog‘ yili o‘zingiz o‘rgatgansiz-ku; esingizdami, menga ikki pud urug‘lik hadya qilgansiz. Choragini sotib, uch choragini ekkanmiz.

Levin ot yoniga qayta turib:

– Ha-da, kesaklarini ezib sep, – dedi, – innaykeyin, Mishkaga hash hazir bo‘l. Yaxshi unib chiqsa, har botmonasiga ellik tiyindan siylov beraman.

– Salomat bo‘ling. Haliyam sizdan o‘la-o‘lguncha minnatdormiz.

Levin otiga minib, o‘tgan yil beda ekilgan dalaga va plug bilan haydalib, bahorikor bug‘doyga tayyorlab qo‘yilgan maydonga ketdi.

Bug‘doy o‘rib olingan joyda beda yaxshi unib chiqibdi. Bultur o‘rib olingan bug‘doylarning siniq poyalari orasida bedalar ko‘karib turardi. Otning tuyog‘i chala-chulpa erigan yerga botib ketar, shalop-shalop qilib borardi. Plug bilan haydalgan yerlardan butunlay o‘tib bo‘lmas, faqat muzlari erimagan joylardangina yurishga to‘g‘ri kelar, erigan jo‘yaklarda esa ot oyog‘i tizzasigacha botib ketardi. Yer juda yaxshi haydalibdi, ikki kundan keyin mola bosib, ekib yuborish mumkin. Hamma ishlar alomat, hamma ishlar joyida – odamning bahri dilini ochar edi. Levin qaytishda, suvi kamaygandir, degan umid bilan soy orqali qaytdi. To‘g‘ridan ham, soydan bermalol o‘tib, ikkita o‘rdak uchirdi. «O‘rmon loyxo‘ragiyam bo‘lsa kerak», – deb o‘yladi. Uyga burilishda o‘rmon qorovulini uchratgan edi, u o‘rmon loyxo‘ragi haqidagi taxmini tasdiq etdi.

Levin tushlikka ulgurish va miltig‘ini kechki ovga tayyorlash uchun otini yo‘rttirib ketdi.

XIV

Levin kayfi juda chog‘ bo‘lib uyga yaqinlashganda, uyining katta eshigi tomonidan qo‘ng‘iroq tovushini eshitdi.

«Temiryoʻldan birov kelgan chiqar, – deb oʻylandi u, – Moskva poyezdi xuddi shu vaqtda keladi... Kim keldi ekan? Bordi-yu, Nikolay akam kelgan boʻlsa-ya? Ehtimol, suv muolajasiga ketarman, ehtimol, sening oldingga borarman, degandi-ku». Nikolay akasi oʻzining bu baxtiyor bahor kayfi-safosini buzib qoʻyishidan qoʻrqib, birinchi daqiqalarda koʻngli biroz xira boʻldi. Lekin koʻngli xira boʻlgani uchun uyaldi-da, xayolan darhol quchogʻini ochganday boʻldi va bu kelgan kishining akasi boʻlishini mehr toʻla bir sevinch, butun qalb bilan kutdi. Otni haydab akas daraxtining orqasiga oʻtdi-da, temiryoʻl stansiyasidan kelayotgan uch otli pochtaxona chanasini va unda oʻtirgan poʻstinli bir janobni koʻrdi. U akasi emas edi. «Hech boʻlmasa, dardlashadigan bir durust odam boʻlsaydi!» deb oʻylandi u. Keyin ikkovi qoʻlini baravariga koʻtarib, suyunganidan:

– E! – deb qichqirdi. – Ana aziz mehmon! Xoʻp kelding-da, boshim osmonga yetdi! – dedi Stepan Arkadichni tanib.

Levin: «Erga tekkanmi, tegmagan boʻlsa, qachon tegadi, hammasini bilib olaman», deb oʻyladi.

U mana shu goʻzal bahor kunida Kitini eslaganda yuragi jazillamaganini his etdi. Qanshariga, betiga va qoshlariga loy sachragan, lekin shodlik va sogʻlik barq urib turgan Stepan Arkadich:

– Ha, meni kutmovdingmi? – dedi. Keyin uni quchoqlab oʻp-gandan soʻng: – Avvalo, seni koʻrgani keldim – bu bir, soʻngra ov qilay deb keldim – bu ikki va nihoyat, Yergushovodagi oʻrmonni sotgani keldim – bunisi uch, – dedi.

– Juda soz! Qanday ajoyib bahor, a? Chanada qanday qilib kelding?

– Aravada kelsak, yanayam qiynalardik, Konstantin Dmitrich, – deb javob berdi tanish kucher.

Levin sevinchi ichiga sigʻmagan yosh bola tabassumi bilan jilmayib:

– Kelganningga juda xursandman, juda-juda xursandman, – dedi astoydil.

Levin doʻstini mehmonlar uchun ajratilgan xonaga boshlab keldi; Stepan Arkadichning buyumlarini: qopini, gʻilofdagi miltigʻini, sigarra xaltasini ham orqadan olib kelishdi. Mehmoni yuvinib, kiyimlarini oʻzgartirib olguncha uni yolgʻiz qoldirib, yer haydash va beda ekish toʻgʻrisida topshiriqlar berish uchun oʻzi idoraga kirib ketdi. Hamma vaqt xonadon shaʼniga dogʻ tushirmaslik uchun kuyinib yuradigan

Agafya Mixaylovna uni dahlizda to'xtatib, tushlikka nima ovqat qilish to'g'risida fikrini so'radi. Levin:

– Xohlagan ovqatingizni qildiravering, faqat tezroq bo'lsin, – dedi-yu, ishboshi yoniga kirib ketdi.

Levin idoradan qaytib kelganda, bu orada yuvinib-taranib olgan Stepan Arkadich o'z eshigidan charaqlab chiqib keldi, shundan keyin ikkovlari birga yuqoriga chiqib ketishdi.

– Senikiga eson-omon yetib kelganimga juda xursandman-da! Sen bu yerda qilayotgan ajoyib ishlarning sir-asrorini endi bilib olaman-ku. Rostini aytsam, senga havasim keladi. Qara, qanday ajoyib uying bor, hamma narsa joyida! Hamma yoq yop-yorug', kishining bahri dili ochiladi, – derdi Stepan Arkadich hamma vaqt bahor bo'lavermasligini, kunlarning ham shu kungiday ochiq turavermasligini esidan chiqarib. – Enagang ham bir ajoyib xotin ekan! Oldiga oq peshband tutib olgan jonongina cho'ri qiz bo'lsa yanayam yaxshi bo'lardi-ya, lekin senday tarkidunyo qilgan, jiddiy odamga shuning o'zi yaxshi.

Stepan Arkadich juda ko'p qiziq yangiliklarni aytib berdi, bular-dan biri Levinni, ayniqsa, qiziqtirardi: bu akasi Sergey Ivanovich shu yoz Levinning yoniga qishloqqa kelish harakatida ekani to'g'risidagi xabar edi.

Stepan Arkadich Kiti to'g'risida, umuman, Shcherbatskiylar haqida bir og'iz ham so'z aytmadi, faqat xotinidan salom aytdi, xolos. Levin u ko'rsatgan nazokatdan minnatdor bo'ldi va mehmon bo'lib kelgani uchun chin qalbidan suyundi. Levin tanho turgan kezlarda hamisha miyasida juda ko'p fikrlar to'plansa, yuragida behad hislar yig'ilsa ham, lekin bularni tevaragidagi odamlarga yorilib aytolmasdi; mana endi u bahorning sururli quvonchlarini, xo'jaligidagi muvaffaqiyatsizligi va rejalarini, o'qigan kitoblariga oid fikr va mulohazalarini, ayniqsa, xo'jalik haqidagi barcha eski asarlarni tanqid qilish asosiga qurilganini o'zi ham sezmay yozayotgan asarining g'oyasini Stepan Arkadichga birma-bir hikoya qila ketdi. Hamma narsani imo-ishoradan payqab oladigan, hamisha dilkashlik qiladigan Stepan Arkadich bu safargi kelishida yana ham dilkash edi; Levin unda o'ziga hurmat va go'yo mehr-muhabbat paydo bo'lganini sezib xursand bo'ldi.

Agafya Mixaylovna bilan oshpazning tushlikni nihoyatda shirin tayyorlash uchun ko'rsatgan jonbozliklari shu bilan natijalan-

diki, juda ham ochiqqan ikkala do'st jinday tamaddi qilib olgani o'tirishdi-yu, qorinlarini yog' surtilgan non, yaxna go'sht va tuzlangan qo'ziqorinlar bilan to'ydirib olishdi; keyin Levin sho'rvani pirojoksiz keltirishni buyurdi, holbuki, oshpaz mehmonni pirojoklar bilan hayratda qoldirmoqchi edi. Stepan Arkadich boshqa xil taomlarga odatlanib qolgan bo'lsa ham, hamma narsani, o't solingan sharobni ham, nonni ham, moyni, ayniqsa, yaxna go'shtni ham, qo'ziqorinni ham, achitqi sho'rvasini ham, oq qaylali tovuq go'shtini ham, oq qrim mayini ham juda maqtadi.

Qovurmani yeb bo'lgandan keyin kattakon bir papirosni tutatib turib:

– Juda soz, judayam ajoyib! – deb maqtadi. – Men xuddi po'rtanada qolib, shovqin-suronli paroxoddan tinchgina sohilga tushib kelganday bo'ldim. Demak, sening fikringcha, ishchi unsuri alohida o'rganilishi va xo'jalikni boshqarish usullarini tanlashda unga rioya qilinishi kerak. Ey, bunday narsalarga mening fahmim yetmaydi, lekin, menimcha, nazariya va uning hayotga tatbiq etilishi ishchigayam o'z ta'sirini o'tkazadi.

– Shoshmay tur, men siyosiy iqtisod to'g'risida gapirayotganim yo'q, xo'jalik fani haqida gapiryapman. Xo'jalik fani ham, tabiiy fanlar singari ham ma'lum hodisalarni kuzatib borishi, ham ishchining iqtisodiy, etnografik jihatlarini...

Shu payt Agafya Mixaylovna qiyom ko'tarib kirib keldi. Stepan Arkadich semiz barmoqlarining uchini o'pib:

– Yashang, Agafya Mixaylovna, – dedi, – yaxna go'shtingiz, o't solingan sharobingiz judayam ajoyib bo'пти-ya!.. Turdikmi endi, Kostya? – deb ilova qildi keyin.

Levin uchlari yalang'och daraxtlar orqasida botib borayotgan quyoshga derazadan qarab:

– Qani, ketdik, Kuzma, aravani qo'sh! – dedi-yu, yugurib tushib ketdi.

Stepan Arkadich pastga tushgandan so'ng lokli yashikdan parusina jildini o'zi avaylab chiqardi-da, yashikni ochib, undagi qimmatbaho, yangi xil miltig'ini yig'ishtira boshladi. Kuzma anchagina sharob puli o'marish niyatida Stepan Arkadich yonidan ketmas, unga paypoqlarini, etiklarini kiydirar, Stepan Arkadich ham jon deb turar, qarshilik qilmas edi.

– Savdogar Ryabininni bugun kel deb buyurgandim, mabodo, kelib qolsa, kutib olishsin, shu yerda poylab tursin, tayinlab qo‘y, Kostya...

– Nima, o‘rmoningni Ryabininga sotyapsanmi?

– Ha, nimaydi, taniyanmi uni?

– Bo‘lmasa-chi, albatta, taniyman. Men ham u bilan «bor baraka» qilishganman.

Stepan Arkadich kuldi. «Bor baraka» savdogarning yaxshi ko‘rgan so‘zlari edi.

– Ha, gaplari judayam qiziq. Xo‘jayinning qayoqqa ketayotganini payqabsan-da! – dedi u, Levin atrofida parvona bo‘lib g‘ingshib, goh qo‘lini, goh miltig‘i bilan etigini yalayotgan Laskani silab.

Ular tashqariga chiqishganda, arava eshik oldida taxt turgan edi.

– Boradigan joyimiz yaqin bo‘lsayam arava qo‘stirdim; yo piyoda boraylikmi?

Stepan Arkadich aravaga yaqin kelib:

– Yo‘q, aravada bora qolaylik, – dedi. U aravaga chiqdi-da, yo‘lbars terisi bilan oyoqlarini o‘rab o‘tirdi, keyin sigara chekdi. – Chekmaganingga hayronman! Sigara faqat kayf beradigina emas, balki samoviy lazzat bag‘ishlaydijam. Mana buni hayot desa bo‘ladi! Qanday yaxshi-ya! Men ham jon-jon deb shunday yashardim!

Levin kulimsirab:

– Xo‘sh, qo‘lingni kim ushlayapti? – dedi.

– Yo‘q, sen baxtli odamsan. Yaxshi ko‘rgan narsalarningning hammasi muhayyo. Otni yaxshi ko‘rasan – otlaring bor, itni yaxshi ko‘rasan – itlaring bor, ovni yaxshi ko‘rasan – ov qiladigan quroling va joylaring bor, xo‘jalikni yaxshi ko‘rasan – xo‘jaliging ham bor.

Levin Kitini eslab:

– Balki, bor narsalarimdan quvonib yurganim uchun ham, yo‘q narsaning dardini chekmasman, – dedi.

Stepan Arkadich gapning ma‘nosiga tushundi, unga bir qarab qo‘ydi-yu, hech nima demadi.

Oblonskiy Levinning Shcherbatskiylar haqida gap ochilishidan qo‘rqqanini o‘ziga xos bir ziyraklik bilan sezib, bu haqda hech nima demagani uchun Konstantin Dmitrich undan minnatdor bo‘ldi; lekin Levin o‘zini qiynayotgan narsani hozir bilgisi kelsa ham, bu haqda gap ochishga jur‘at qilolmas edi.

Levin faqat o'zi to'g'risidagina o'ylash yaxshi emasligini anglab:

– Xo'sh, o'zingning ishlaring qalay? – deb so'radi.

Stepan Arkadichning ko'zlari chaq nab ketdi.

– Sen axir o'zingning halol noning turganda, birovning kulchasi-ga ko'z olaytirishni yoqtirmaysan, sen buni jinoyat deb bilasan; men esa hayotni muhabbatsiz tasavvur qilolmayman, – dedi u Levinning savolini o'zicha tushunib. – Nima qilay, bo'lgan-turganim shu bo'lsa, lekin bu narsaning boshqalarga ziyoni qancha oz bo'lsa, o'zing uchun nash'asi shuncha ko'p...

– Nima, yana yangisini topdingmi deyman? – deb so'radi Levin.

– Topdim, og'ayni! O'zingdan o'tar gap yo'q, hurliqo... tushingga kirib turadigan xotinlar bo'ladi... sen bularni bilasan... ana shunaqalari o'ngingdayam topiladi... Qiyomat xotinlar. Xotin degan narsa shunday bir olamki, uni qancha o'rganmagin, yana hamma vaqt undan yangi narsa topasan.

– Unday bo'lsa, o'rganmagan ma'qul.

– Yo'q. Qaysi bir matematik lazzat – haqiqatni topishda emas, uni qidirishda, degan ekan.

Levin jim o'tirib quloq soldi. U har qancha harakat qilmasin, baribir, do'stining ruhiy holatini tushunolmas, uning hislarini va unday xotinlarni o'rganishdan oladigan lazzatning nimaligini ko'z oldiga keltirolmas edi.

XV

Ov qilinadigan joy soy tepasida, kichkina o'rmonchada edi. O'rmonga yetishganda, Levin aravadan tushib, Oblonskiyni qori erib bo'lgan, yo'sin bilan qoplangan sizot yerning bir chetiga boshlab bordi. O'zi esa berigi tomondagi qo'sh qayin yoniga qaytib keldida, miltig'ini qurib qolgan pastki butog'iga suyab qo'yib, chakmonini yechdi, kamarini bog'ladi, keyin qo'llarini bemalol harakat qila olish-olmasligini tekshirib ko'rdi.

Orqasidan ergashib yurgan qari, tuklari oqargan Laska ro'parasiga sekin o'tirib, quloqlarini dikkaytirdi. Quyosh katta o'rmon orqasida botib borardi, tog'teraklar orasida o'sgan oq qayinlar kurtaklari bo'rtib, ochilay-ochilay deb yotgan shoxlarini solintirib, oqshom shafag'ida ko'zga yorqin chalinib turardi.

Hali qorlari erib bitmagan qalin o'rmondan ilonizi bo'lib oqayotgan suvlarning shildirashi eshitalardi. Mayda qushlar chirqillashar, ora-sira daraxtdan daraxtga uchib o'tishardi.

Atrofni qoplagan chuqur sukunat ichida yerning erishi va ko'katlarning o'sishi bilan bulturgi xazonlarning shitirlagani eshitaladi.

Levin nish urib chiqqan yosh ko'kat yonidagi qoramtir bir daraxt yaprog'ining qimirlaganini sezib: «Alomat! Eshitilib, ko'rinib turibdi-ya ko'katning o'sayotgani!» – deb o'yladi. U tik turib tevarakka quloq solar, goh pastga, ustini yo'sin qoplagan ho'l yerga, goh quloqlarini ding qilib poylagan Laskaga, goh ro'parasidagi tog' etagida yoyilib yotgan yalang'och daraxtzorga, goh pag'a-pag'a oq bulutlar qoplab borayotgan xira osmonga qarardi. Bir qarchig'ay qanotlarini og'ir-og'ir qoqib, uzoqdagi o'rmon ustidan, juda-juda balanddan uchib o'tdi; yana biri ham o'sha tomonga uchib o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qushlar chakalakda tobora qattiqroq chug'ullasha boshladi. Yaqin bir yerda ukki huvlagan edi, Laska bir seskanib, bir necha qadam joyga biqinib bordi-yu, boshini bir yonga egib, quloq sola boshladi. Soy orqasidan kakku qushning ovozi eshitildi. Oddiy tovush bilan ikki marta kukulagandan so'ng ovozi bo'g'ildi, shoshib qolib, sayrashidan adashdi.

Stepan Arkadich buta orqasidan chiqib:

– Alomat! Kakku ham bor! – dedi.

Levin:

– Ha, eshityapman, – deb javob berdi, o'ziga yoqmagan ovozi bilan o'rmon sukunatini buzgani uchun norozi bo'lib. – Endi ko'p kutmaymiz.

Stepan Arkadich yana buta orqasida g'oyib bo'ldi, Levin esa gugurtining lovillab yongan olovini, undan keyin papirosining qizil cho'g'i bilan ko'kimtir tutuninigina ko'rardi.

Stepan Arkadich to'g'rilagan tepki «shiq! shiq!» degan ovoz chiqardi. Keyin o'ynoqilayotgan toychoqning ingichka ovoz bilan kishnashiga o'xshagan cho'zinchoq tovushga Levinning diqqatini jalb qilib:

– Bu qichqirayotgan nima? – deb so'radi.

– Bilmaysanmi? Erkak quyon. Bo'ldi, gapirma! Quloq sol, uchib kelyapti! – dedi-yu, Levin tepkini to'g'riladi.

Uzoq-uzoqlardan ingichka hushtak eshitildi, ikki soniyadan keyin ovchiga juda ham tanish bo'lgan ohangda ikkinchi, uchinchi hushtak ovozi keldi, uchinchi hushtakdan keyin esa hilpillagan ovoz eshitildi.

Levin ko'zlarini chapga, o'ngga yugurtirdi; birdan uning ro'parasida, xira-moviy osmonda, tog'teraklarning uchidagi nozik novdalari bir-biriga chalmashib ketgan balandlikda uchib kelayotgan qush ko'rindi. U xuddi Levinga qarab kelmoqda edi: tarang qilib tortilgan mato sidirilganda chiqadigan tovushga juda ham o'xshash ovoz quloqlarning qoq ustida eshitila boshladi; qushning uzun tumshug'i bilan bo'yni ko'rindi. Levin endi mo'ljalga olganda, Oblonskiy turgan buta orqasidan qizil yashin chaqnadi; qush o'qday pastga otildi-yu, yana ko'tarilib ketdi. Yana chaqmoq chaqnadi, yana gumburlagan ovoz eshitildi; qush havoda to'xtab qolgisi kelgandek, qanotlarini pitirlatib bir zumgina turdi-yu, keyin sizot yer ustiga toshday shaloplab tushdi.

Stepan Arkadichga tutun orqasida hech nima ko'rinmas edi.

– Nahotki, tegmagan bo'lsa! – deb qichqirdi u.

– Ana! – dedi Levin Laskaga ishora qilib; Laska bir qulog'ini dikkaytirib, baroq dumining uchini baland ko'tarib likillatib, o'ldirilgan qushni tishlab, xo'jayini tomon sekin-sekin yurib kelar, bundan olayotgan lazzatini cho'zgisi kelayotgandek, xursand bo'lib jilmayayotgandek ko'rinar edi. – Sen otib tushirganing uchun xursandman, – dedi-yu, Levin bu qushni o'zi urib tushirmagani uchun yuragida hasad hissi uyg'onganini sezdi.

Stepan Arkadich miltig'ini o'qlab turib:

– O'ng qo'lidan otilgan o'q bekor ketdi, – deb javob qildi. – Jim... uchib kelyapti.

Rostdan ham, birin-ketin qattiq hushtak tovushlari eshitildi. Ikkita o'rmon loyxo'ragi o'ynashib, bir-birini quvishib, qanot tovushlarini chiqarmay, faqat chiyillagan ovoz chiqarishib ovchilarning qoq boshlari ustiga uchib kelishdi. To'rt marta o'q uzildi, ammo bu qushlar xuddi qaldirg'ochlar singari lip etib burilishdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Ov yaxshi bo'ldi; Stepan Arkadich yana ikkitasini urib tushirdi; Levin ham ikkitasini otgan edi, bittasi topilmadi. Qorong'i tusha boshladi. Kumushday tovlangan Zuhro yulduzi g'arbda, oq qayinlar orqasida, pastroqda nozik yog'dusini sochib turar, sharqda, juda-ju-

da balandda esa badqovoq Arkturus yulduzi qizil yog'dulari bilan tovlanib ko'rinardi. Levin boshi ustidagi Yetti qaroqchi yulduzlari ni goh ko'rar, goh yo'qotib qo'yardi. O'rmon loyxo'ragi uchishni to'xtatdi; ammo Levin joyidan qimirlamay, oq qayin shoxidan pastda ko'rinib turgan Zuhro yulduzi baland ko'tarilib, Yetti qaroqchi ravshan ko'ringuncha kutishga qaror qildi. Zuhro yulduzi shoxdan yuqoriga ko'tarildi, endi Yetti qaroqchilar aravasi shotisi bilan ko'kimtir qorong'i osmonda ravshan ko'rina boshlagan bo'lsa ham, Levin hamon kutishda davom etdi.

– Ketmaymizmi? – so'rardi Stepan Arkadich.

O'rmonga ortiq sukunat cho'kkan, qushlar ham uchishdan to'xtagan edi.

– Yana picha turaylik, – deb javob berdi Levin.

– Ixtiyoring.

Hozir ular o'rtasidagi masofa o'n besh qadamcha kelardi. Levin birdan:

– Stiva! – dedi. – Nega menga aytmayсан: qaynsingling erga tegdimi yo yaqin o'rtada tegadimi? – deb so'rab qoldi.

Levin o'zini shu qadar bardam, xotirjam his etardiki, nazarida, hech qanday javob uni hayajonga sololmasdi. Lekin Stepan Arkadich bunday javob berar deb o'ylamagan edi:

– Erga tegishni o'ylagani ham yo'q, hozir ham o'ylamaydi: juda qattiq kasal, doktorlar uni chet elga yuborishgan. Bir nima bo'lib qolmasmikan deb qo'rqib yurishibdi-yu.

– Yo'g'-e! – deb Levin qichqirib yubordi. – Kasali og'irmi? Unga nima bo'пти? Ahvoli qalay?..

Ular shu to'g'rida gaplashayotganlarida Laska quloqlarini dik-kaytirib goh osmonga, goh ularga o'pka qilib qarab qo'yar edi.

«Bularning gaplashishga topgan vaqtlarini qara-yu, – deb o'yarladi Laska. – Qush bo'lsa uchib kelyapti... ana, keldi, ha, xuddi aytganim, g'aflatda qolishadi-da».

Lekin shu on ikkala do'st ham birdan hushtak ovozini eshitib qoldi; bu ovoz quloqlarni teshib o'tgudek bo'ldi; ikkala do'st birdaniga miltiqqa yopishdi, ikkita chaqmoq chaqnadi va ayni bir lahzada ikkita gumburlagan ovoz yangradi. Balandda uchib borayotgan o'rmon loyxo'ragi bir zumda qanotlarini yig'di-yu, nozik surx novdalarni egib, chakalakka kelib tushdi.

– Yashavor! Ikkovimiz otib tushirdik! – deb qichqirdi-da Levin, Laska bilan o‘rmonga qushni axtargani kirib ketdi. «Hali nimaga ko‘nglim g‘ash bo‘ldi? – deb eslay boshladi Levin, – ha, Kitining og‘rib qolganiga... nachora, ko‘p afsus», deb o‘ylandi.

Laskaning og‘zidan issiq qushni olib, to‘lib qolayozgan xaltasiga soldi-da:

– Topdi! Xo‘p aqlli it-da! – dedi. Keyin do‘sti tomonga qichqirdi: – Stiva, topdim!

XVI

Uyga qaytishda Levin Kitining kasali va Shcherbatskiylarning rejaları haqida mufassal ma‘lumot oldi; buni e‘tirof etish har qancha uyatli bo‘lsa hamki, olgan ma‘lumotlari unga juda yoqqan edi. Shuning uchun yoqardiki, Kitidan hali umid uzmagani edi, unga shunday azob bergan qizning o‘zi hozir azob chekayotgani yana ham ko‘proq yoqar edi. Lekin Stepan Arkadich Kitining nima uchun betob bo‘lib qolgani to‘g‘risida gapira turib, Vronskiyning nomini tilga olganda, uning so‘zini bo‘ldi.

– Oila ishlarining ikir-chikirlarini bilishga hech qanday haqim yo‘q, rostini aytsam, meni hech biri qiziqitirmaydi.

Stepan Arkadich bir daqiqagina ilgari qanchalik kayfi chog‘ bo‘lsa, hozir shunchalik dili siyoh bo‘lib ketgan Levinning yuzidagi o‘ziga tanish oniy bir o‘zgarishni sezib, miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– O‘rmon to‘g‘risida Ryabinin bilan bitishib qo‘ydingmi? – deb so‘radi Levin.

– Ha, bitishib qo‘yganman, bahosi juda bopta, o‘ttiz sakkiz ming. Sakkiz mingini oldin beradi, qolganini olti yil ichida. Bu ish meni juda ovora qildi. Bundan ortiq beradigan odam topilmadi.

– Bo‘lmasa, o‘rmoningni tekinga berib yuboribsan, – dedi Levin, qovog‘ini solib.

Stepan Arkadich endi hech narsa Levinga yoqmasligini bilib, yoqimli bir tabassum bilan:

– Ya‘ni qanday tekinga? – deb so‘ragandi, Levin:

– Negaki o‘rmonning har botmoni kam deganda besh yuz so‘m turadi, – deb javob berdi.

– Eh, bu qishloqi xo‘jayinlar-e! – dedi Stepan Arkadich hazil-lashib. – Biz shaharliklarni shunaqa masxara qilib yurasizlar!.. Ishni

qilishda, bizdan ko'ra qotiradigani bo'lmaydi. Xo'p deyaver, hammasini o'lchab-chamalab ko'rganman, o'rmon yaxshi narxga ketdi, hatto u aynib qolmasaydi deb qo'rqyapman. U yog'ini surishtirsang, o'rmon uskunabop emas, – dedi Stepan Arkadich uskunabop so'zi bilan Levinning shubhasi o'rinsiz ekaniga uni batamom ishontirish uchun, – aksari qismi o'tindan boshqa narsaga yaramaydi. Har botmonidan juda chiqsa o'ttiz sarjin o'tin chiqadi, u bo'lsa botmoniga ikki yuz so'mdan berdi.

Levin mensimaslik bilan kulimsiradi. «Bitta uning emas, hamma shaharliklarning qilig'ini bilaman, – deb o'ylandi Levin. – O'n yilda bir-ikki bor qishloqqa kelishdi-yu, ikki-uchta qishloq so'zini eshitishib, fahmlaricha, hamma narsani bilaman deb, bu so'zlarni bo'lar-bo'lmasga ishlataverishadi. Uskunabop emas, o'ttiz sarjin o'tin chiqadimish! Gapirgan gapining ma'nosini o'zi bilmaydi».

– Idorada yozib o'tirgan narsalaringni u qil-bu qil deb o'rgatmayman, – dedi Levin, – agar kerak bo'lib qolsa, bilmagan narsalarimni sendan so'rab olishim mumkin. Sen bo'lsang o'rmon masalasida o'zingni juda ham bilag'on deb hisoblaysan. Yo'q, o'rmon masalasi juda qiyin narsa. Daraxtlarni sanaganmisan?

Stepan Arkadich do'stini yomon kayfiyatdan qutqazish istagida:

– Birodar, daraxtlarniyam sanagan bormi? – deb kuldi. – Qumlarni, sayyoralarning nurlarini yuksak zakovat sohibi sanasa mumkin bo'lardi...

– Barakalla, yuksak zakovatli Ryabinin buni sanay oladi. Senga o'xshash tekinga bermasa, birontayam savdogar sanamasdan olmaydi. O'rmoningni men yaxshi bilaman. Har yili o'sha yerga borib ov qilaman; o'rmoning har botmoniga besh yuz so'mdan naqd to'lab olsa bo'ladi, u bo'lsa ikki yuz so'mdan nasiyaga olibdi. Demak, sen unga o'ttiz ming so'mni o'z qo'ling bilan keltirib beribsan.

– Bo'ldi, bu gapni ko'p cho'zavermaylik, – dedi Stepan Arkadich norozi bir ohangda, – bo'lmasa, nega hech kim besh yuz so'mdan bermadi?

– Negaki uning savdogarlar bilan tili bir; ularning og'zini moylab qo'ygan. Men ular bilan ko'p olishganman, bilaman hammasini. Ular savdogar emas, moli mardumxo'rlar. U o'n-o'n besh foiz hayon ko'radigan joyga o'zini xor qilib bormaydi, bir so'mni bittangaga oladigan joyni poylaydi.

– Bo‘ldi, bas endi! Bugun kayfing joyidamas, shekilli.

Uyga yetib kelishganda Levin xo‘mrayib:

– Yo‘q, kayfim joyida, – dedi.

Tashqari eshikning zinapoyasi yonida chetiga tunuka qoqilgan, ichi charm bilan qoplangan va semiz ot qo‘shilgan bir arava turgan edi. Belini kamar bilan mahkam bog‘lab olgan, chertsa, yuzidan qon tomadigan gumashta aravada o‘tirar, u ayni zamonda Ryabininga kucherlik ham qilardi. Ryabinin uyda ekan, ikki do‘stni dahlizda kutib oldi. Ryabinin soqoli qirilgan, iyagi biroz oldinga chiqqan, mo‘ylov qo‘ygan, novcha, qotmadan kelgan o‘rta yoshli, nursiz baqa ko‘zli bir kishi edi. Ustida etagigacha tugma qadalgan uzun syurtuk, oyoqlarida boldirlari tarang turgan baland qo‘njli, to‘pig‘i g‘ijimlangan etik, etik ustidan kattakon kalish bor edi. Dastro‘mol bilan yuz-ko‘zini artdi-da, shundoq ham ustida yaxshi o‘tirgan syurtugini tuzatib, kirib keluvchilar bilan jilmayib salomlashdi, keyin bir nimani tutib olmoqchi bo‘lganday qo‘lini Stepan Arkadichga uzatdi.

Stepan Arkadich ham unga qo‘lini uzata turib:

– Ha, kelibsiz-ku, juda yaxshi bo‘pti-da, – dedi.

– Yo‘l o‘lguday yomon bo‘lsayamki, janoblarning buyruqlarini yerda qoldirishga jur‘at etolmadim. Butun yo‘lni piyoda bosdim desam bo‘ladi. Lekin, shunday bo‘lsayam, vaqtida yetib keldim. Konstantin Dmitrich, salom, – dedi Levinga, uning ham qo‘lini ushlashga tirishib, ammo Levin qovog‘ini osiltirib va cho‘zilgan qo‘lni sezmaganga solib, loyxo‘raklarni xaltadan chiqara boshladi. – Ha, ov bilan vaqtlarini chog‘ qilibdilar-da? Qani, bu qanaqa qush ekan? – deb ilova qildi Ryabinin o‘rmon loyxo‘ragiga jirkanib qarab. – Mazali bo‘lsa kerak deyman. – Ana shundan keyin, bu bosh og‘riqlardan sariq chaqalik naf chiqishiga gumoni bordek, ma‘qullamay bosh chayqadi.

Levin qosh-qovog‘ini solib:

– Kabinetga kira qolasanmi? – dedi Stepan Arkadichga fransuzchalab. – Kabinetga kiringlar, o‘sha yerda gaplasharsizlar.

– Bo‘ladi, xohlagan xonalariga kiraveramiz, – dedi Ryabinin nafatomuz bir viqor bilan; shu bilan u, boshqalar uchun har kim bilan va har qanaqa masala yuzasidan muomala qilish og‘ir bo‘lsa ham, lekin o‘zi uchun hech qanaqa ishda qiyinchilik tug‘ilishi mumkin emasligini sezdirganday bo‘ldi.

Ryabinin kabinetga kirgandan so'ng o'z odaticha, ikonani qidirayotgandek, tevarakka alanglab qaradi, lekin ikonani ko'rdi-yu, cho'qinmadi. Boyagi o'rmon loyxo'ragiga qanday gumonsirab qaragan bo'lsa, kitob shkaflari va javonlariga ham shunday gumon bilan bir qarab, nafrat bilan kulimsiradi va bu bosh og'riqlardan sariq chaqalik naf chiqishiga hech aqli yetmagandek, ma'qullamay bosh chayqadi.

– Xo'sh, pulni keltirdingizmi? – deb so'radi Oblonskiy. – O'tiring.

– Pul bo'lsa qochmaydi. Bir ko'rishib, gaplashib ketay deb keldim.

– Yana nimani gaplashamiz? O'tirsangiz-chi.

Ryabinin kursiga o'tirib, qattiq azob chekayotgandek kursi orqasiga suyana turib:

– O'tirsak bo'ladi, – dedi. – Biroz yon bering, knyaz. Yo'qsa gunoh bo'ladi. Narxini tushirsangiz, chaqasini oxirgi tiyinigacha naqd olasiz. Pul tayyor, ko'nglingiz to'q bo'laversin.

Shu payt miltig'ini shkafga qo'yayotgan Levin eshikdan endi chiqib ketmoqchi bo'lgandi, savdogarning gapini eshitib, to'xtab qoldi.

– Haliyam tekinga olyapsiz, – dedi Levin, – afsuski, u mening yonimga kech keldi, bo'lmasa, narxini o'zim qo'yardim.

Ryabinin o'rnidan turib, hech nima demasdan, kulimsirab Levinni boshdan-oyoq ko'zdan kechirib chiqdi. Keyin Stepan Arkadichga qarab:

– Konstantin Dmitrich juda xasislar, – deb kulimsiradi. – Undan hech narsani osonlikcha olib bo'lmaydi. Bug'doy savdolashdik, yaxshi baho berdim.

– Nima uchun o'z molimni sizga tekinga berarkanman? Men bug'doyni yerdan topib yo o'g'irlab olganim yo'q-ku.

– Dardingizni olay, axir, shu zamonda o'g'irlik qilib bo'lar-mishmi! Shu zamonda har bir ish qonun-qoida bilan, sud bilan baqamti qilinadi; hozir hamma narsani to'g'irlik bilan bir yoqli qilish kerak; o'g'irlik bilan bir nima qilib bo'lar-mishmi! Biz halol gaplashganmiz. Qimmat so'rayaptilar, uchi-ketini ulayolmay dog'da qolyapman. Narxini hech bo'lmasa biroz tushirsinlar-da.

– Pisanda qilib bo‘lishganmisizlar yo yo‘qmi? Gap bitgan bo‘lsa, savdolashib o‘tirishning hojati yo‘q, bitmagan bo‘lsa, o‘rmonni o‘zim olaman, – dedi Levin.

Ryabininning yuzidagi jilmayish birdan g‘oyib bo‘ldi. Chehrasida kalxatnikiga o‘xshagan sovuq va keskin bir ifoda paydo bo‘ldi. U shoshib-pishib, suyakdor barmoqlari bilan syurtugining tugmalarini yechgan edi, osilib tushgan uzun ko‘ylagi, kamzulining jez tugmalari va soatining zanjiri ko‘rindi; eski, qalin hamyonini cho‘ntagidan chiqardi-da, tez-tez cho‘qingach, qo‘lini cho‘zib:

– Marhamat, o‘rmon meniki, – dedi. – Pulini ol, o‘rmon meniki, Ryabinin ana shunday savdo qiladi, tiyinning yuziga borib o‘tir-maydi, – dedi yana xo‘mrayganicha hamyonni silkitib turib.

– Sening o‘rningda men bo‘lsam, shoshmasdim, – dedi Levin.

Oblonskiy hayron bo‘lib:

– Axir, so‘z berganman, – dedi.

Levin eshikni taqillatib yopib, kabinetidan chiqib ketdi. Ryabinin eshikka qarab, kulimsirab turib boshini chayqadi.

– Bu narsalarning hammasi yoshlikdan, bolalikdan kelib chiqadi. Gapimga ishonsangiz, men bu o‘rmonni faqat nom chiqarish uchun-gina olyapman; Oblonskiyning o‘rmonini boshqa birovmas, Ryabinin sotib olgan, deyishsin deyman-da. Hali buning uchi-ketini qanday to‘g‘rilashimni Xudoning o‘zi biladi. Menga ishonmasangiz, Xudoga ishonib, marhamat. Bitimni yozib yuborsalar...

Bir soatdan so‘ng savdogar xalatiga o‘ranib-chirmanib, syurtugi-ning tugmalarini qadab va shartnomani cho‘ntagiga solib chiqdi-da, chetlariga tunuka qoqilgan aravasiga o‘tirib, uyiga jo‘nadi.

– Voy-bo‘, janoblar-ey, biri-biridan battar-a! – dedi u gumash-tasiga.

Gumashtasi tizginni unga berdi-da, charm peshbandining tugma-larini qadab turib:

– Bular shunaqa, – dedi. – Savdo masalasi nima bo‘ldi, Mixail Ignatich?

– Chuh, chuh...

XVII

Stepan Arkadich savdogar uch oy oldin naqd to'lab ketgan pul bilan cho'ntagini qappaytirib yuqoriga chiqdi. O'rmon masalasi hal bo'lgan, pullar cho'ntakka solingan, ov ham ajoyib natijalar bergan edi, shuning uchun Stepan Arkadichning sevinchi ichiga sig'masdi, endi Levinda paydo bo'lgan xafaqonlikni ham tarqatgisi kelardi. Ko'ngilxushligi bilan boshlangan bu kunni yana kechki ovqat ustida ko'ngilxushlik bilan tugatishni xohlardi.

Levinning kayfi chog' emas edi; o'zining mehmoni bilan shirin, muloyim muomalada bo'lishga har qancha harakat qilsa ham, o'zini hech qo'lga ololmasdi. Kitining erga tegmagani to'g'risidagi xabar unga sekin-sekin nash'a qila boshladi.

Kiti erga tegmagan, betob, uni nazariga ilmagan kishiga bo'lgan muhabbati tufayli betob. Bu haqorat xuddi Levinga taalluqlidek edi. Vronskiy Kitini nazariga ilmadi, Kiti esa Levinni. Demak, Vronskiy Levindan nafratlanishga haqli, shuning uchun Levinning dushmani. Ammo Levin shunday deb o'ylamasa ham, bunda o'zini tahqir etuvchi allanimalar borligini g'ira-shira sezar, shu sababli o'zining kayfini buzgan narsaga jahl qilmay, duch kelgan har bir narsadan alamini olar edi. O'rmonning ahmoqlik bilan sotilishi, Oblonskiyning tuzoqqa ilinishi va Levinning o'z uyida sodir bo'lgan tovlamachilik jahlini chiqarardi.

– Ha, ishni bitirdingmi? – dedi u Stepan Arkadichni yuqori qavatda uchratib. – Ovqatlanamizmi?

– Albatta, jon deb. Qishloqda ishtaham biram ochilib ketadiki, alomat! Nega Ryabininni ovqatga taklif qilmading?

– Boshimga uramanmi?

– Unga juda qo'pol muomala qilarkansan! – dedi Oblonskiy. – Qo'l berib ham ko'rishmading. Nega bunday qilding?

– Negaki, malayga qo'l berish odatim yo'q, malay bo'lsa undan ming chandon yaxshi.

– Rosa eski tushunchadagi odam ekansan-ku! Unday bo'lsa, ta-baqalarning birlashishiga nima deysan? – dedi Oblonskiy.

– Birlashish kimga yoqsa – marhamat, birlashaversin, men hazar qilaman.

– Ana xolos, chindan ham juda eski tushunchadagi odam ekan-san.

– To‘g‘risini aytsam, o‘zimning qanday odamligimni hech o‘ylab ko‘rgan emasman. Men o‘zimni Konstantin Levin deb bilaman – vassalom.

Stepan Arkadich kulimsirab:

– Ya‘ni kayfi juda buzilib turgan Konstantin Levin, – dedi.

– Ha, kayfim buzuq, bilasanmi nega? Kechiru meni, o‘rmoningni ahmoqlarcha sotganingga...

Stepan Arkadich bekordan bekorga ko‘ngli og‘ritilgan va kayfi buzilgan kishi singari yuzini sal tirishtirdi-da:

– Xayr, bas endi! – dedi. – Birov bir narsasini sotganda darhol kelib: «Bu ancha qimmat turadi», demagan zamon bo‘lganmi? Sotaman deganingda, hech kim ortiq bermaydi... Yo‘q, ko‘rib turibman, ana shu bechora Ryabininni ko‘rishga ko‘zing yo‘q.

– Ehtimol shundaydir. Bilasanmi, nima uchun? Sababini aytsam, sen meni yana eski tushunchadagi odam deb yoki yana boshqa yomon so‘z topib masxara qilasan; men o‘zim mansub bo‘lgan va tabaqalarning bir-lashganiga qaramay, dvoryanlikning (bu tabaqaga mansub bo‘lganim uchun shodman) har tomondan bechoralashib borganini ko‘rish menga alam qiladi, ko‘nglimni og‘ritadi... bechoralashgandayam, hashamat va dabdaba orqasida bechoralashayotgani yo‘q, bunday bo‘lsa, mayli edi-ya; boy-badavlatlarcha yashash – faqat dvoryanlarninggina qo‘llaridan keladi, bu dvoryanlarning ishi. Hozir mujiklar tumshug‘imiz tagidagi yerlarni sotib olishyapti – menga alam qilmaydi bu. Zamindor hech nima qilmaydi, ishlamaydi, mujiklar bo‘lsa ishlashyapti. Bekor yurganlarni siqib chiqaryapti, asli shunday bo‘lishi lozim. Shu sababdan mujiklar yer sotib olayotgani uchun xursandman. Lekin dvoryanlarni, nima deb atashni o‘zim ham bilmayman, mayli, aytaylik, allaqanday ma‘sumlik orqasida bechoralashib borayotganini ko‘rish menga alam qiladi. Shu yerda bir ijarador polyak Nitstsada turuvchi bir xonimdan ajoyib bir mulkni yarim bahosiga sotib oldi. Shu yerda bir botmoni o‘n so‘m turadigan yerni savdogarga bir so‘mdan ijaraga berishyapti. Shu yerda sen ham haligi mug‘ombirga bekordan bekorga o‘ttiz ming so‘m pulingni berib yubording.

– Nima qil deysan? Daraxtlarni bitta-bitta sanash kerakmidi?

– Albatta, sanash kerak edi. Mana, sen sanamading, Ryabinin bo‘lsa sanadi. Ryabininning bolalarida bemalol yashashga, ilm olishga mablag‘ bo‘ladi, sening bolalaringda esa balki bo‘lmaydi!

– Yo‘q, meni kechiru daraxtlarni sanab o‘tirishda qandaydir bachkanalik bor. Bizning ishimiz boshqa, ularniki boshqa, ular hayon ko‘rishi kerak. Xayr, bo‘lar ish bo‘ldi, endi gapni cho‘zib o‘tirishning hojati yo‘q. Ana sarig‘i ajratilib qovurilgan tuxum, mening eng yaxshi ko‘rgan ovqatim bu. Innaykeyin, Agafya Mixaylovna o‘sha ajoyib o‘t solingan sharobniyam keltiradi...

Stepan Arkadich stol yoniga o‘tirdi-da, ko‘p vaqtlardan beri bunday lazzatli ovqat yemaganini aytib, Agafya Mixaylovna bilan hazillasha boshladi.

– Xayriyat, siz maqtayapsiz, – dedi Agafya Mixaylovna, – Konstantin Dmitrich esa, oldiga nima qo‘ysangiz ham, nonning qattig‘ini-mi, boshqa narsanami yeydilar-u, indamay chiqib ketaveradilar.

Levin o‘zini qo‘lga olishga harchand tirishsa ham, baribir, chehrasi ochilmas, indamas edi. Stepan Arkadichdan bir narsa so‘ramoqchi edi-yu, lekin jur‘at qilolmasdi, aytishga so‘z, fursat topolmasdi. Stepan Arkadich pastga, o‘z xonasiga tushib, kiyimini yechdi, yana yuvindi-da, burma ko‘ylagini kiyib o‘rniga kirib yotdi, Levin bo‘lsa so‘raydigan narsasini so‘rashga jur‘at qilolmay, har xil ikir-chikirlar to‘g‘risida gapirib, uning bo‘lmasida ancha vaqtgacha ivirsib yurdi.

Agafya Mixaylovna mehmon uchun tayyorlab qo‘ygan, lekin Oblonskiy ishlatmagan xushbo‘y atir sovunni qog‘ozidan chiqardi-da, uni tomosha qilib:

– Xo‘p ajoyib sovunlar qilishadi-da, – dedi. – Buni bir qara, san‘at deb shuni aytsa bo‘ladi.

– Ha, hamma narsa shunaqa kamolatga erishyapti, – dedi Stepan Arkadich ham maza qilib esnab, – teatrlar ham, masalan, o‘sha ko‘ngilochar joylar... ham! – deb esnadi. – Hamma yoqda elektr chiroqlar...

– Ha, elektr chiroqlar, – deb aytdi Levin. Keyin sovunni qo‘yib, birdan: – Menga qara, Vronskiy qayerda? – deb so‘rab qoldi.

Stepan Arkadich esnashini to‘xtatib:

– Vronskiy? – dedi. – Vronskiy Peterburgda. Sendan keyin ketganicha hali Moskvaga qaytib kelgani yo‘q. Bilasanmi, Kostya, senga to‘g‘risini aytsam, – Oblonskiy stolga tirsaklari bilan suyanib (moy bosgan mehribon, uyquli ko‘zlari yulduzlar singari chaqnaq turardi), chiroyli, qizil yuziga qo‘lini tirab, davom

etdi: – ayb o‘zingda. Raqibingni ko‘rib, yuraging chiqib ketdi. Men o‘shanda ham senga aytganman, imkon ko‘proq kimning tarafida ekanini bilmayman deb. Nega qattiq turmading? O‘shanda aytmabmidim senga... – Og‘zini ochmay, faqat jag‘i bilan esnadi.

Levin unga qarab turib: «Menga teg deb taklif qilganimni bilmamikan-bilasmikan? Ha, yuzida allaqanday hiylakor, diplomatik bir ifoda bor», – deb o‘ylandi-da, qizara boshlaganini sezib Stepan Arkadichga indamay qarab qoldi.

– Agar o‘sha mahal Kitida unga nisbatan bir narsa bo‘lgan bo‘lsa, u faqat tashqi husniga qiziqishdan bo‘lak narsa emas edi, – deb Oblonskiy so‘zini davom ettirdi. – Bilasan, uning mukammal zodagonligi va kelajakda kibor jamiyatida egallaydigan mavqeyi Kitining onasiga ta‘sir qildi, ammo qizigamas.

Levin qovog‘ini soldi. Rad javobi olib tahqirlanganini eslab, yuragi tuz sepganday achishib ketdi. Lekin u o‘z uyida edi, uyda esa devorlar odamga madad etadi.

– Shoshma, shoshma, – dedi u, Oblonskiyning so‘zlarini bo‘lib, – sen zodagonlik deysan. Ruxsat ber, sendan so‘rayin: Vronskiyning yoki boshqa kimning bo‘lsayam zodagon nimadan iboratki, unday zodagon meni nazar-pisand qilmaslikka huquq beradi? Sen Vronskiy-ni zodagon deb bilasan, men bo‘lsam zodagon deb bilmayman. Otasi pastkashlik, muttahamlik bilan mavqe qozongan, onasi bo‘lsa, Xudo biladi, kimlar bilan aloqada bo‘lmagan bir ayol... Yo‘q, kechirasan, men o‘zimni va menga o‘xshagan odamlarni zodagon deb hisoblayman; bunday odamlar o‘zlarining o‘tmishida eng yuksak darajada ma‘lumotli bo‘lgan (iste‘dod va aql-idrok masalasi boshqa gap), hech mahal hech kimga yaltoqlik qilmagan, hech mahal hech kimga muhtoj bo‘lmagan, mening ota-bobom singari yashagan, uch-to‘rt nasl davomida o‘zlariga dog‘ tushirmagan halol, nomusli ajdodlarini ko‘rsatib bera oladilar. Men bunaqalarning juda ko‘pini bilaman. O‘rmonda daraxt sanaganim senga pastkashlik bo‘lib ko‘rinadi, lekin o‘zing Ryabininga o‘ttiz ming so‘mni bekorga berib o‘tiribsan; lekin sen ijara haqi yana, qaydam, shunga o‘xshagan imtiyozlar olasan, men bo‘lsam olmayman, shuning uchun men ota-bobomdan qolgan, o‘z mehnatim soyasida qo‘lga kiritilgan narsalarni qadrlashga majburman... Asl zodagonlar bizmiz, biz bo‘yni yo‘g‘onlardan sadaqa olib tirikchilik qiladiganlar, ikki paqirga sotiladiganlardan emasmiz.

Stepan Arkadich Levin ikki paqirga sotiladigan odamlar to‘g‘risida gapirganda, uni ham nazarda tutganini payqagan bo‘lsa-da, yana samimiyat va mamnuniyat bilan:

– Og‘ayni, kimga shama qilyapsan? Lekin gaplaringga qo‘shilaman, – dedi. Levinning jonlangani unga astoydil yoqqan edi. – A, kimga shama qilyapsan? Vronskiy to‘g‘risidagi gaplarningning ko‘pi noto‘g‘ri bo‘lsayam, ammo men bu haqda bir narsa demoqchi emasman. Senga ro‘y-rost aytadigan gapim shu – sening o‘rningda men bo‘lsam, Moskvaga tushib ketardimu...

– Yo‘q. Sening bir gapdan xabaring bormi-yo‘qmi, buni bilmayman, menga baribir. Endi senga aytay: men og‘iz solib, rad javobi olganman, shuning uchun Katerina Aleksandrovnani eslaganda uyalib, yerga kirib ketgudek bo‘laman.

– Nega endi? Bo‘lmag‘ur gap!

– Kel endi, bo‘ldi qilaylik. Senga qattiq-quruq gap qilgan bo‘lsam, kechir meni, – dedi Levin. Dilidagi gaplarni aytib bo‘lgandan keyin yana ertalabki kayfiyatga tushdi. – Mendan xafa emasman, Stiva? Jon do‘stim, xafa bo‘lma, – dedi-yu, kulimsirab uning qo‘lini ushladi.

– Ey, tirnoqchayam xafa emasman, nimaga xafa bo‘laman? Gaplashib yuragimizni bo‘shatib olganimizga xursandman. Bilasanmi, ertalabki ov juda yaxshi bo‘ladi-da. Yo boramizmi, a? Boradigan bo‘lsak, uxlamasdan, ovdan to‘g‘ri stansiyaga chiqib ketardim.

– Xo‘p, juda soz.

XVIII

Vronskiyning qalbi ishq-muhabbat bilan to‘lib-toshgan bo‘lsa ham, sirtidan qaraganda uning hayoti o‘zgarmagan, kiborlar jamiyati va polkdagi oshna-og‘aynichilik munosabatlari eskicha davom etardi. Polk ishlari Vronskiyning hayotida juda muhim o‘rin tutardi, chunki u polkni yaxshi ko‘rar, polkdagilar esa Vronskiyning undan ham ortiqroq yaxshi ko‘rishardi. Polkda Vronskiyning yaxshi ko‘rish bilan birga, uni hurmat qilishar, u bilan faxrlanishar edi ham; u bilan shuning uchun faxrlanishardiki, nihoyatda badavlat, yuksak ma‘lumotli, iste‘dodli rahbar qanday muvaffaqiyatga, shonu shavkatga erishmog‘i uchun yo‘llar ochiq bo‘lgan bu odam ushbu ne‘matlarni nazar-pisand qilmas, butun hayot manfaatlarini ichida faqat polk va o‘rtoqlari-

ning manfaatinigina birinchi o‘ringa qo‘yar, yuragiga yaqin tutardi. Vronskiy o‘rtoqlarining o‘ziga shunday nazar bilan qarashganini sezar, bu hayotni sevish bilan birga o‘zi to‘g‘risida paydo bo‘lgan qarashlarga zarar yetkazmaslikni o‘zi uchun bir burch deb bilardi.

Tabiiyki, muhabbati haqida o‘rtoqlarining hech biriga yorilmas, qattiq ichgan paytlarida ham bu sirni og‘zidan chiqarmasdi (shuni-si ham borki, es-hushini yo‘qotib qo‘yadigan darajada qattiq mast bo‘lmasdi), uning aloqasiga shama qilgan yengiltak o‘rtoqlarining ovozini o‘chirardi. Lekin oshiqliği butun shaharga ma‘lum bo‘lganiga qaramay – uning Karenina bilan bo‘lgan aloqasini hamma ozmi-ko‘pmi to‘g‘ri tushunib olgan edi – yigitlarning ko‘pchiligi uning muhabbati g‘oyat qaltis bo‘lgani sababidan, ya‘ni Kareninning mavqeyi balandligi, bu aloqa kiborlar orasida oshkor bo‘lgani saba-bidan Vronskiyga havaslari kelardi.

Annaga hasad qilib yurgan, uni to‘g‘ri juvon deb ataganlarida jonlari halqumiga keladigan juvonlarning ko‘pchiligi, gumonsira-gan narsalarimiz to‘g‘ri chiqdi, deb quvonar va Annaga o‘z nafrat-larini sochish uchun afkor ommada o‘zgarish bo‘lishini toqatsizlik bilan kutar edi. Vaqti kelganda Annaning yuziga otish uchun loy lo‘mbozlarini allaqachon tayyorlab qo‘ygan edilar. Yoshlari qayt-gan odamlar va baland martabali mansabdorlarning ko‘pchiligi esa tayyorlanayotgan bu ijtimoiy janjaldan norozi edi.

Vronskiyning onasi o‘g‘lining aloqasini eshitib, dastlab xur-sand bo‘ldi, chunki, uning fikricha, hech bir narsa aslzoda yigit-ga kiborlar jamiyatidagi aloqa qadar zeb berolmasdi; uning o‘ziga ham juda yoqib tushgan va yo‘lda o‘z o‘g‘li to‘g‘risida juda ko‘p gapirib kelgan Karenina ham hamma chiroyli, odobli ayollardan hech bir farq qilmasdi. Ammo keyingi kunlarda grafinya o‘g‘lining unga taklif etilgan va kelajagi uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan baland martabadan azbaroyi polkda qolish, Karenina bilan ko‘rishib turish uchungina voz kechganini eshitdi; yuqori man-sabdagi odamlar o‘g‘lining bu qilig‘idan norozi bo‘lishgani ham qulog‘iga yetib keldi, shundan keyin grafinya fikrini o‘zgartirdi. Bu aloqa haqida eshitgan-bilgan narsalariga qaraganda, bu aloqa uning ko‘ngliga xush keladigan kibor jamiyatdagi porloq va latif ishqiyoj mojarolardan emas edi – bu tomoni ham grafinyaga yoqma-

di, odamlarning gapicha Vertercha, telbalarcha bo'lgan bu ehtiros o'g'lini bora-bora ahmoqlik ko'chasiga kirgizib qo'yishi mumkin edi. Grafinya o'g'lini qo'qqisidan Moskvadan jo'nab ketgan kuni-dan beri ko'rmasdi, shuning uchun katta o'g'li orqali Moskvaga qaytishini talab qildi.

Katta o'g'li ham ukasidan norozi edi. U ukasining muhabbati qanaqa muhabbatligini: katta muhabbatmi yo kichik, ehtiroslimi yo ehtirossiz, sharmanda qiladiganmi yo sharmanda qilmaydiganmi – buni bilmas, buning farqiga bormas edi (uning o'zi, bolalari bo'lgan holda, bir raqqosani o'ynash qilib olgan, shuning uchun bu narsaga iltifot bilan qarardi); lekin bu muhabbatning ba'zi zotlarga yoqmaganini bilar, shuning uchun ukasining qilig'ini ma'qullamas edi.

Vronskiyning xizmat vazifalaridan va kibor jamiyatidagi vaqti-chog'liqdan tashqari yana bitta ermagi ham bor edi, bu – otlarga bo'lgan ishqibozligi edi.

Shu yil zobitlar uchun to'siqli poyga belgilangan edi. Vronskiy poygaga yozilib, ingliz zotli bir biya sotib oldi-da, oshiqligiga qaramay, zo'r ishtiyoq bilan poygaga asta tayyorlana boshladi.

Undagi ikki ehtiros bir-biriga xalaqit bermas edi. Aksincha, qalbida to'lib-toshgan muhabbatidan tashqari unga biron mashg'ulot va ermak kerak edi, bu narsalar uni haddan ziyod hayajonlantirgan taassurotlardan uzoqlashtirib dam berar, tinchlantirardi.

XIX

Qizil Seloda poyga o'tadigan kuni Vronskiy polk artelining umumiy zaliga odatdagidan ertaroq bifshteks yegani keldi. Uning juda parhezga berilishi shart emas edi, chunki og'irligi belgilangan qoidaga muvofiq to'rt yarim pud edi, lekin shu bilan birga, semirmasligi ham kerak, shuning uchun xamir ovqat, shirinlik iste'mol qilmasdi. U nimcha ustidagi syurtugining tugmalarini yechib tashlagan va ikkala tirsagini ham stolga qo'ygan holda, buyurgan bifshteksining keltirilishini kutib, likopchada yotgan fransuzcha romanga qarab o'tirardi. Zalga kirib-chiqib turgan zobitlar bilan gaplashmaslik va o'z o'ylari bilan mashg'ul bo'lish uchungina kitobga qarab o'tirardi.

Bugun poygadan so'ng Anna u bilan ko'rishishga va'da qilgan, Vronskiy ham hozir shuni o'ylab o'tirar edi. Lekin u Annani uch kundan beri ko'rgani yo'q edi; eri chet eldan qaytib kelgani uchun bugun ko'risha olish-olmasligini bilmas, buni qanday bilish yo'lini ham topolmas edi. Annani so'nggi marta amakisining qizi Betsining chorbog'ida ko'rgan edi. Kareninlarning chorbog'iga esa iloji boricha kam borardi. Hozir o'sha yoqqa borish to'g'risida o'ylar, qanday bahona bilan borsam ekan deb bosh qotirardi.

«Albatta, Anna bugun poygaga kelarmikin, bilib kelgin, deb Betsi yubordi, deyman. Albatta, boraman», deb ahd qildi kitobdan boshini ko'tarib, keyin Annani ko'rish baxtiga noil bo'lishini ko'z oldiga keltirib, yuzi birdan yorishib ketdi.

Issiq kumush likopchada bifshteks keltirgan malayiga:

– Uyga odam yubor, tezda uch otlik aravamni qo'shishsin, – dedi-da, likobchani oldiga surib, ovqatni yeya boshladi.

Yondagi bilyardxonadan sharlarning urilgani, gurung, kulgi eshilib turardi. Tashqi eshikdan ikkita zobit kirib keldi: bulardan biri yaqinda Paj korpusidan ularning polkiga xizmatga kelgan zahil, ingichka yuzli yosh zobit edi, ikkinchisi esa bir qo'lida bilaguzuk ushlagan, bit ko'zlarini moy bosgan semiz, keksa zobit edi.

Vronskiy ularga qarab bir xo'mraydi-yu, o'zini ko'rmaganga sohib, ko'z qiri bilan ham kitob o'qishga, ham ovqat yeyishga kirishdi.

Semiz zobit uning yoniga o'tirayotib:

– Ha? Poygadan oldin qorinni qappaytiryapsanmi? – dedi.

Vronskiy qovog'ini soldi-da, og'zini artib, unga qaramasdan oq:

– Ko'rib turibsan-ku, – deb javob qildi.

– Menga qara, semirib ketishdan qo'rqmaysanmi? – dedi u yana, yosh zobitga stol to'g'rilab turib.

Vronskiy jirkanganidan yuz-ko'zini tirishtirib:

– Nima? – dedi jahl bilan, sadaf tishlarini ko'rsatib.

– Semirib ketishdan qo'rqmaysanmi, deyapman.

Vronskiy unga javob bermay:

– Hey, xeres keltir! – deb qichqirdi-da, kitobni narigi tomoniga qo'yib, o'qishga tutindi.

Semiz zobit ichkilik ro'yxatini oldi-yu, yosh zobitning yuziga qarab turib:

– Ichadigan narsangni o'zing tanla, – dedi ro'yxatni uzatib.

Yosh zobit qo‘rqa-pisa Vronskiyga ko‘z qirini tashladi-da, endi chiqa boshlagan miyiqclarini barmoqlari bilan chimdib:

– Reynveyn icha qolaylik, – dedi. Keyin Vronskiyning parvo qilmaganini ko‘rib, yosh zobit o‘rnidan turdi-da: – Yur bilyardxonaga, – dedi.

Semiz zobit itoatkorlik bilan o‘rnidan turdi, keyin ikkovi eshikka qarab yurdi.

Shu on bu yerga novcha, qaddi-qomati kelishgan rotmistr Yashvin kirib keldi. U haligi ikki zobitga nafrat bilan bosh irg‘ab, Vronskiyning yoniga keldi.

– A! Bu yoqda ekansan-u! – deb qichqirdi-da, yo‘g‘on qo‘li bilan Vronskiyning pogoniga paqillatib urdi.

Vronskiy jahli chiqib qaradi-yu, darhol yuzi uning o‘ziga xos bir vazminlik, mehr-muhabbat bilan yorishib ketdi.

Rotmistr do‘rillagan ovoz bilan:

– Aqling joyida, Alyosha, – dedi. – Ovqat ustidan bir ryumka ham ichib ol.

– Hech ovqat o‘tmayapti.

Shu payt xonadan chiqib ketayotgan haligi ikki zobitga Yashvin masxaraomuz nazar tashlab:

– Voy, bu ajralmas do‘stlar-ey, – deb qo‘ydi. So‘ngra u tor shimli uzun oyoqlarini bukib, Vronskiyning yoniga o‘tirdi (tizzasi stuldan ancha baland turar edi). – Kecha nega teatrga kelmading? Numerova qoyil qilib tashladi. Qayerda eding?

– Tverskiylarnikida o‘tirib qoldim, – deb javob berdi Vronskiy.

Yashvin:

– E! – deb qo‘ydi.

Qartaboz, to‘polonchi va hech qanday qonun-qoidaga rioya qilmaydigan, buzuqi odam bo‘lgan bu Yashvin polkda Vronskiyning eng yaxshi og‘aynisi edi. Vronskiy uni misli ko‘rilmagan bir jismoniy kuchi uchun (ko‘pincha o‘tirishlarda ichkilikni kosalab ko‘tarsa ham, kechasi bilan uxlamasdan o‘zini yana boyagiday tetik tuta bilar, shu bilan kuchini ko‘rsatardi), boshliqlari va o‘rtoqlariga ma‘naviy kuchini ko‘rsatib, ularni qo‘rqishga va o‘zini hurmat qilishga majbur etgani uchun, o‘n ming so‘mlab pul tikiladigan o‘yinda, har qancha ichganiga qaramay, o‘yinni shu qadar nozik, ustalik bilan olib borgani sababli ingliz klubida qimorbozlar guli deb hisoblangani uchun yaxshi ko‘rardi. Yashvin Vronskiyini shuhrati va davlati uchun emas, inson bo‘lgani

uchun yaxshi ko'rar, Vronskiy buni sezar, shu sababli uni hurmat qil- lar, sevardi. Shuning uchun ham Vronskiy butun oshna-og'aynilari ichida faqat shu kishi bilangina o'z muhabbati haqida ko'ngil yorib gaplashishni xohlardi. Yashvin har qanday his-tuyg'ularga haqorat ko'zi bilan qaraydigandek ko'rinsa ham, hozir Vronskiyning butun borlig'ini qamrab olgan kuchli ehtirosni yolg'iz u, yolg'iz shugina tushuna olishini Vronskiy sezib yurardi. Bundan tashqari, Yashvinning g'iybatdan, janjaldan huzur topadigan odam emasligiga, balki bu hisga jiddiy ko'z bilan qarashiga, ya'ni muhabbatga ermak yoki hazilakam narsa deb emas, muhim va zarur narsa deb qaraydigan, bunga isho- nadigan kishi ekaniga ham imoni komil edi.

Vronskiy o'z sevgisi to'g'risida unga yorilmagan bo'lsa ham, lekin Yashvinning hamma gapdan xabardorligini, hamma narsaga keragicha tushunganini bilar, ko'zlaridan bu narsani ko'rib xushla- nardi.

Vronskiyning Tverskiylarnikida bo'lganini eshitib, Yashvin:

– Ha, ha! – dedi-yu, qora ko'zlarini porillatib, chap mo'ylovini barmoqlari orasiga oldi-da, yomon odatini qilib, mo'ylovining uchini og'ziga tiqa boshladi.

– Xo'sh, o'zing kecha nima qilding? Yutdingmi? – deb so'radi Vronskiy.

– Sakkiz ming so'm yutdim. Faqat uch mingining qo'limga tegishiga gumonim bor.

– Unday bo'lsa, menga tikkan dovingni yutqazsang ham bo'lar ekan-da, – dedi Vronskiy kulib. (Yashvin Vronskiy uchun juda katta pul tikkan edi.)

– Yutqizib bo'pman. Faqat Maxotin xavfli, xolos.

Shundan keyin suhbat endi bo'ladigan, Vronskiyning butun fikri-xayolini band qilgan poygaga o'tib ketdi.

– Yur, bo'ldim, – Vronskiy, o'rnidan turib, eshik tomon yurdi. Yashvin ham o'rnidan turib, so'loqmon oyoqlari va yag'rindor qo- matini rostladi.

– Tushlik qilay desam, hali erta, lekin qittay otib olishim kerak. Ketaver, men hozir boraman. Hoy, may keltir! – Yashvin koman- da berayotgandek, oynalarni titratib yo'g'on ovozi bilan qichqirdi. Keyin yana baqirdi: – Yo'q, kerakmas, sen uyga ketyapsanmi, men ham birga ketaman.

Shunday qilib, Vronskiy ikkalasi chiqib ketdi.

Vronskiy ikkiga bo'lingan keng, toza yog'och uyda yashardi. Petritskiy lagerda ham u bilan birga turardi. Vronskiy Yashvin bilan kirganda, Petritskiy uxlab yotgan edi.

Yashvin to'siq orqasiga o'tdi-da, tumshug'ini yostiqqa tiqib olib, sochlari to'zg'igan holda uxlab yotgan Petritskiy yelkasidan turtib:

– Tur, bo'ldi shuncha uxlaganing, – dedi.

Petritskiy birdan tizzalanib turdi-yu, tevaragiga alanglab qaradi.

– Akang kelib edi, – dedi u Vronskiyga. – Qurg'ur, meni uyg'otib, tag'in kelaman, deb ketdi. – Shundan keyin ko'rpani ustiga tortib, o'zini yana yostiqqa tashladi. Yashvin ustidan ko'rpani tortgandi, jahli chiqib: – Ey qo'ysang-chi, Yashvin, – deb to'ng'illadi. – Qo'y! – Shundan keyin o'girilib, ko'zini ochdi. – Undan ko'ra ayt: nima ichay? Og'zim shunday bemazaki...

– Sharob icha qol, shunisi ma'qul, – deb do'rilladi Yashvin. Keyin o'z ovozin eshitib maza qiladigandek: – Tereshchenko! Xo'jangga sharob bilan bodring opke! – deb qichqirdi.

Petritskiy yuzini tirishtirib va ko'zlarini ishqab turib:

– Sharob tuzuk deysanmi? A? – deb so'radi. – O'zing ham ichasanmi? Bo'lmasa, birga ichamiz! Vronskiy, ichasanmi? – dedi Petritskiy, o'rnidan turib va yo'lbars terisidan tikilgan po'stakka o'ranib.

Petritskiy to'siq devor bilan ajratilgan uyning eshigidan chiqdi-da, qo'lini ko'tarib, fransuzcha ashula ayta boshladi:

«Tulada bir qirol bor edi-i-i...» Vronskiy, qittay ichasanmi?

Vronskiy yugurdak tutib turgan syurtukni kiya turib:

– Nari tur-e, – dedi.

– Yo'l bo'lsin? – deb so'radi Yashvin. Keyin yaqinlashib kelayotgan faytonni ko'rib, ilova qildi: – Ana uch ot qo'shilgan faytoning ham keldi.

– Otxonada ishim bor, innaykeyin, Bryanskiy bilan ham ot to'g'risida gaplashmoqchiman, – dedi Vronskiy.

Vronskiy chindan ham Bryanskiynikiga borishga va ot pulini eltib berishga va'da qilgan edi. Bryanskiy Petergofdan o'n chaqirimcha berida turar, Vronskiy borib kelishga shoshilardi. Lekin o'rtoqlari faqat o'sha yergagina bormasligini payqab qolishdi.

Petritskiy ko‘zlarini qisib ashulasini davom ettirib: «Uning qanaqa Bryanskiyligini bilamiz», deganday lablarini burib qo‘ydi. Yashvin:

– Ishqilib, kechikib qolmagin-da, – dedi-yu, keyin suhbat mavzusini o‘zgartirish uchun Vronskiyga sotgan va u hozir aravaga qo‘shgan o‘rtadagi otga derazadan qarab: – Qalay, mening samanim yaxshi tortyaptimi? – deb so‘radi.

– To‘xta! – deb qichqirdi Petritskiy chiqib ketayotgan Vronskiyning orqasidan. – Akang senga xat tashlab ketgandi. Shoshma, qayerda qoldi-ya?

Vronskiy to‘xtadi.

– Qani, axir?

– Qani, deysanmi? Hamma gap shunda-da! – Petritskiy ko‘rsatkich barmog‘ini burnining uchidan yuqoriga ko‘tarib, tantanali ovoz bilan gapirdi.

Vronskiy esa kulimsirab:

– E, ko‘p ezmalanmay aytasang-chi, axir, bu bema‘nilik-ku! – dedi.

– Kaminga o‘t qalaganim yo‘q. Shu o‘rtadadir-da.

– Bas, ko‘p yolg‘on gapiraverma. Qani xat?

– O‘lay agar, qayerga qo‘yganimni bilmayman, yo tushimda ko‘rganmikanman-a? Shoshma, shoshma! Nega jahling chiqadi! Kecha menga o‘xshash sen ham kishi boshiga to‘rt shishadan ichganingda bormi, naq qayerda yotganingni bilmas eding. Shoshma, hozir eslayman!

Petritskiy to‘siq orqasiga o‘tib, o‘rniga yotdi.

– Shoshma! Men bunday yotuvdim, u bunday turuvdi. Xa-a-a-a... mana! – dedi-da Petritskiy xatni matras tagiga suqib qo‘ygan joyidan olib berdi.

Vronskiy maktub bilan akasi yozib ketgan xatni oldi. U shunday xatni olishini ilgaridan bilib yurardi, biri, Moskvaga kelmayapsan, deb onasi o‘pka qilib yozgan maktub bo‘lsa, ikkinchisi, sen bilan gaplashadigan gapim bor, deb akasi qoldirgan bir enlik xat edi. Vronskiy bularning o‘sha to‘g‘risidagi gap ekanini bilardi. U «Nima ishlari bor ekan-a men bilan», deb o‘yladi-yu, xatlarni buklab, yo‘lda bamaylixtor o‘qish uchun syurtugining tugmalari orasiga qistirib qo‘ydi. Dahlizda unga ikkita zobit duch keldi: biri – o‘zlarining polkidan, ikkinchisi – boshqa polkdan edi.

Vronskiyning uyi hamma vaqt zobitlar to'planadigan takyaxona bo'lib qolgan edi.

– Yo'l bo'lsin?

– Petergofga borib keladigan ishim bor.

– Uarskoe Selodagi ot keldimi?

– Kelibdi, lekin hali ko'rganim yo'q.

– Maxotinning Gladiatori oqsab qoldi, deyishadi.

– Bekor gap! Lekin shu loygarchilikda qanday chopasiz? – deb so'radi ikkinchi zobit.

Petritskiy ichkari kirgan zobitlarni ko'rib:

– Ana mening xaloskorlarim! – deb qichqirib yubordi: Petritskiy yonida askar malayi sharob bilan sho'r bodring qo'yilgan patnis-ni ko'tarib turardi. – Mana, Yashvin: tetik bo'lmoq uchun ichgin, deyapti.

Kelgan zobitlardan biri:

– Kecha bizni xo'p bopladinlar-da, kechasi bilan uxlatmadinlar, – dedi.

Petritskiy kechagi voqeani hikoya qila ketdi:

– O', rosa maza qildik-da! Volkov tomga chiqib olib zerikyapman, devdi, men: bo'lmasa, motam marshi chalinsin, dedim. Boyoqish motam marshi ostida tomdayoq uxlab qoldi.

Petritskiyning boshi tomonida turgan Yashvin bolasiga dori ichirayotgan ona singari:

– Ich, albatta, sharob ich, keyin ustidan selter suvi ichib yuborasan, yaxshilab limon yeb olasan, – deyardi, – eng oxirida qittay shampan vinosi ichasan – bir shisha bo'lsa bas.

– Mana bu aqlli odamning gapi! To'xta, Vronskiy, qittay ichaylik.

– Yo'q, yaxshi qolinglar, janoblar, men bugun ichmayman.

– Nima, og'irlashib qolishdan qo'rqasanmi? Mayli, unday bo'lsa, o'zimiz ichamiz. Qani, selter suvi bilan limonni keltir.

Vronskiy dahlizga chiqqanda, orqasidan kimdir:

– Vronskiy! – deb chaqirdi.

– Nima deysan?

– Sochingni qirqtirib olsang bo'lardi, yo'g'asa og'irlik qiladi, ayniqsa, taqir joyingdagi sochlar.

Chindan ham, Vronskiyning tepa sochlari barvaqt to'kila boshlagan edi. U sadaf tishlarini ko'rsatib chaqchaqlab kuldi-da,

furajkasini taqir boshiga bostirib tashqariga chiqdi-yu, faytonga o'tirdi.

– Otxonaga! – deb kucherga buyurgach, yana bir o'qib chiqish uchun qo'ynidagi xatlarini olmoqchi bo'ldi, lekin otlarni ko'zdan kechirguncha xayolini bo'lmaslik uchun bu fikridan qaytdi. – «Keyin!..»

XXI

Taxtalardan yasalgan omonat otxona poyga maydonining yaqin bir yeriga qurilgan, Vronskiyning oti esa u yerga kecha keltirilgan bo'lishi kerak edi. U otni hali ko'rmagan edi. So'nggi kunlarda otni o'zi sovutmay, bu ishni mashq qildiruvchiga topshirib qo'ygani uchun otning hozir qanday ahvolda ekanini sira ham bilmasdi. U faytondan tushar-tushmas, malaylik vazifasini o'tovchi otboqari uning faytonini uzoqdan ko'rishi bilan mashq qildiruvchini chaqirdi. Baland qo'njli etik, kalta kamzul kiygan, soqol o'rniga iyagida bir tutamgina tuk qoldirgan bu qotma ingliz chavandozlarga xos beso'naqay yurish bilan tirsaklarini ko'targan holda Vronskiy yoniga lapanglab keldi.

Vronskiy inglizchalab:

– Ha, Fru-Fru qalay? – deb so'ragandi, ingliz bo'g'iq ovoz bilan javob qildi:

– All right sir – hammasi joyida, janob. – Keyin, shlapasini ko'tarib, ilova qildi: – Yaxshisi, oldiga bormay qo'ya qoling, tumshug'iga to'r no'xta tutib qo'yuvdim, oti qurmag'ur bezovta bo'lyapti. Bormaganingiz ma'qul, ot bekorga bezovta bo'ladi.

– Yo'q, bormasam bo'lmaydi. Otni ko'rgim kelyapti.

Ingliz qovoqlarini solib, boyagiday og'zini ochmasdan:

– Yuring, – dedi-yu, tirsaklarini silkitib, lapanglagan yurish bilan oldinga tushdi.

Ular barak oldidagi kichkinagina hovli sahniga kirishdi. Toza kurtka kiyib, yasanib olgan, qo'lida supurgisi bilan yurgan tetikkinin bir bola kelganlarni kutib olib, orqalaridan ketdi. Barakda, ayrim bo'lmalarda beshta ot turgan edi, Vronskiy o'zining eng zo'r raqibi bo'lgan Maxotinning Gladiator nomli novcha, jiyron oti ham bugur shu yerga keltirilgan bo'lishini va uning shu yerda ekanini bilardi. O'zining otidan ko'ra Gladiatori ko'rishga ko'proq qiziqardi, chunki

uni hech ko'rmagan edi, lekin Vronskiy ot sportining qoidasiga ko'ra, raqib otini ko'rish u yoqda tursin, uning qanaqaligini surishtirish ham uyat ekanini bilardi. U yo'lakda ketayotganda, navbatchi bola chap yoqdagi ikkinchi bo'lmaning eshigini ochgan edi, Vronskiy u yerda turgan oq oyoqli kattakon bir jiyronni ko'rdi. U buning Gladiator ekanini bilsa ham, birovning ochiq yotgan xatidan yuz o'girib o'tgan kishidek, u ham yuzini teskari o'girib, Fru-Fru turgan bo'lmaga keldi.

Ingliz tirnog'i kir boshmaldog'ini yelkasi ustidan oshirib, Gladiator turgan bo'lmaga ishora qildi-da:

– Ma-k... Mak...ning oti shu yerda... uning nomini aytishga hech tilim kelmaydi-da, – dedi.

– Maxotinningmi? Ha, u mening jiddiy raqiblarimdan biri, – dedi Vronskiy.

– Shu otda chopganingizdami, – dedi ingliz, – dovni sizga qo'yardim.

Vronskiy chavandozligini maqtaganlaridan yoyilib kulimsiradi-da:

– Fru-Fru tezroq, kuchliroq ham, – dedi.

Ingliz esa:

– G'ovli poygada hamma gap otni ustalik bilan minishda, pluck-da, – dedi.

Vronskiy o'zida yetarli darajada pluck, ya'ni g'ayrat va jasorat borligini his etish u yoqda tursin, dunyoda hech kim pluck-ka uning o'zichalik ega emasligiga ham amin edi; hamma narsadan muhimi ham shu tomoni edi.

– Menga qarang, otni yana ham ko'proq chopib terlatish kerak emasligini aniq bilasizmi?

– Kerak emas, – deb javob berdi ingliz. – Qattiq gapirmang, baraka topkur. Ot bezovtalanyapti, – deb ilova qildi, boshi bilan bo'lmaga ishora qilib. Ular Fru-Fru turgan bo'lma eshigining oldida turar edilar, ichkaridan xashak ustida bir oyog'ini ko'tarib, bir oyog'ini bosayotgan otning dupuri eshitilardi.

Ingliz eshikni ochdi, Vronskiy kichkina derazachadan xiragina yorug' tushib turgan bo'lmaga kirdi. Bo'lmada yangi solingan pichan ustida no'xta urilgan bir chiroyli qora to'riq ot depsinib turardi. Vronskiy g'ira-shira qorong'i bo'lmaga ko'z yugurtirib, sevikli otining butun qaddi-qomatini bir qarashdayoq qamrab oldi. Fru-Fru o'rtamiyona ot bo'lib, turqi ba'zi kamchiliklardan xoli emas edi.

Jussa suyaklari mayda edi, o‘mgani oldinga turtib chiqqan bo‘lsa hamki, to‘shi tor, kambar edi. Sag‘ri biroz pastroq, oldingi, ayniqsa, ketingi oyoqlari sal qiyshiq edi. Ketingi va oldingi oyoqlarining paylari u qadar yirik emasdi, lekin pushtani (ayil tortadigan yeri) shu qadar keng ediki, hozir qantariqda turganiga va qorni tortilganiga qaramay, odamni hayron qoldirardi. Otga oldindan qaralganda, bolidirlarining suyagi barmoqdan yo‘g‘on ko‘rinmas, yonidan qaralganda esa haddan ziyod serbar edi. Uning butun jussasi yondan siqilib, oldinga cho‘zilib ketganday ko‘rinardi. Lekin uning barcha kamchiliklarini unuttirib yuboradigan eng yuksak fazilati – zoti edi; uning zotli ekani, inglizcha qilib aytganda, ko‘zga tashlanib turardi. Yupqa, harakatchan va atlas kabi silliq terisida arqoqlanib yotgan tomirlar tagidan bo‘rtib chiqqan paylari ham xuddi suyaklari singari mahkam va chayir tuyulardi. Porillab turgan sho‘x, baqa ko‘zli qotma kallasida qansharidan tortib, ichidagi pardalariga qon to‘lgan burunlariga tomon kengayib borardi. Butun qaddu bastida, ayniqsa, kallasida aniq, qudratli, ayni zamonda, nozik bir ifoda bor edi. U tilga kirib gapirishiga og‘zining tuzilishi yo‘l qo‘ymaydigan hayvonlardan biridek edi.

Har holda Vronskiyning nazarida otga qarab turib o‘ylagan narsalarning hammasini ot tushunganday tuyuldi.

Vronskiy ot yoniga kirganda, u o‘pkasini to‘ldirib havo oldida, baqa ko‘zlarini shunday olaytirib qaradiki, ko‘zlariga narigi tomondan qon kelib to‘ldi; no‘xtasini silkitib, oyoqlarini yerga gurs-gurs urib turib, kirganlarga qaradi.

– Ana, qarang, bezovta bo‘lyapti, – dedi ingliz.

Vronskiy ot yoniga kelib:

– Hay, jonivor! – deb erkaladi.

Lekin u yaqinlashgan sari, otning bezovtaligi ham ortib bordi. Vronskiy ot boshiga qadalib kelgandagina, u birdan tinchidi; ana shundan keyin yupqa, nozik tuklari ostidagi mushaklari pir-pir ucha boshladi. Vronskiy otning kuchli bo‘ynini siladi, narigi tomonga tushib ketgan yolini joyiga keltirib qo‘ydi, ko‘rshapalak qanotlari singari yoyilib ketgan burun kataklariga yuzini yaqin keltirdi. Ot qattiq bir nafas oldi-yu, tarang bo‘lib turgan burun kataklaridan havoni yana hushillatib chiqardi, keyin bir seskanib, ingichka quloqlarini chimirdi-da, Vronskiyning yengidan tishlagisi kelgandek, kuchli qora labini unga cho‘zdi. Lekin no‘xtalangani esiga tushdi, shekilli,

tumshug'ini bir silkitdi-yu, yana nozik oyoqlarining birini ko'tarib, birini qo'ya boshladi.

Vronskiy otni sag'ridan yana silab:

– Og'ir bo'l, jonim, og'ir bo'l! – dedi, keyin otning kayfiyati juda ham yaxshi ekanidan xursand bo'lib, chiqib ketdi.

Otning bezovtaligi Vronskiyga ham ta'sir qildi; u ham tomirlarida qon qaynaganini, o'zi ham ot singari harakat qilgisi, tishlagisi kelganini his qildi, u ham qo'r qar, ham quvonardi.

– Xo'p, mayli, sizga ishonaman, soat olti yarimda maydonda bo'lasiz-da, – dedi u inglizga.

– Hamma narsa joyida bo'ladi, – dedi ingliz. – O'zlariga yo'l bo'lsin, milord? – deb so'radi u, hech qachon ishlatmagan bu my-Lord so'zini qo'llab.

Vronskiy ajablanib boshini ko'tardi-da, o'ziga xos bo'lgan bir ado bilan inglizning ko'zlariga emas, peshonasiga qarab turib, uning shu savolni berishga jur'at etganiga hayron bo'ldi. Lekin bu savolni berganda, ingliz uni o'z xo'jayini deb emas, bir chavandoz deb qaraganini fahmlab:

– Bryanskiynikiga borib kelishim kerak, bir soatdan keyin uyda bo'laman, – deb javob berdi.

Kamdan kam qizaradigan Vronskiy: «Bugun menga bir necha marta berishdi-ya bu savolni!» deb o'ylab qizarib ketdi. Ingliz unga razm solib qaradi. Vronskiy qayoqqa ketayotganini bilib turgandek:

– Poyga oldidan odamning ko'ngli eng avval tinch bo'lishi kerak, – deb ilova qildi. – Ruhingiz ham tushmasin, kayfingiz ham buzilmasin.

Vronskiy kulimsirab:

– All right, – dedi-da, faytonga sakrab chiqib, Petergofga qarab haydashni buyurdi.

Vronskiyning faytoni bir necha qadam yurar-yurmas, ertalabdan beri yomg'ir xavfini tug'dirib turgan qora bulutlar bosib keldi-yu, birdan jala quyib yubordi.

Vronskiy faytonning soyabonini ko'tara turib: «Ish chatoq! – deb o'ylandi. – Busiz ham hamma yoq loy edi, endi botqoq bo'ladi». Soyaboni tushirilgan faytonda yolg'iz o'tirib, onasining maktubi bilan akasining xatini oldi-da, bir boshdan o'qib chiqdi.

Ha, yana o'sha eski gaplar. Hammasi, onasi ham, akasi ham, hammasi uning yurak ishlariga aralashishmoqchi. Ularning arala-

shishi Vronskiyini g‘azabga keltirdi, u kamdan kam g‘azablanardi. «Ularning nima ishlari bor? Nima uchun har qanday odam mening g‘amimni yeyishni o‘ziga burch deb bilar ekan? Nima uchun menga tirg‘ilishadi-ya? Shuning uchunki, bunda o‘zlarining hech aqllari yetmagan allaqanday narsa bor deb bilishadi. Agar bu kibor jamiyatida bo‘lib turadigan odatdagi razil aloqalardan bo‘lsa, meni o‘z holimga qo‘yishgan bo‘lard. Ular bu narsaning allaqandayligini, boshqachaligini, bu narsa hazil emasligini, bu ayol men uchun jonimdan ham ortiqiligini sezishadi. Ular xuddi shu narsaga tushuni-sholmaydi, xuddi shuning uchun ularga alam qiladi. Taqdirimiz qanday bo‘lmasin, oqibati qayerga bormasin, biz uni hal qilganmiz, biz undan zorlanmaymiz, – der, biz so‘zi bilan o‘zini Anna ila bog‘lar edi. – Yo‘q, ular bizga yashash yo‘lini o‘rgatmoqchi bo‘ladilar. Ular baxtning nimaligidan butunlay bexabardirlar, bu muhabbat bo‘lmasa, biz uchun baxt ham, baxtsizlik ham bo‘lmasligini, hayot ham bo‘lmasligini bilmaydilar», deb o‘ylardi.

O‘z ishiga hamma aralashaverganiga shuning uchun jahli chiqar-diki, Vronskiy ularning, ya‘ni hammaning haq ekanini yurakdan sezardi. U o‘zini Annaga giriftor qilgan muhabbatning kishi hayotida yoqimli va yoqimsiz xotiradan boshqa iz qoldirmaydigan kibor jamiyatidagi aloqalar singari o‘tkinchi, qisqa umrli bir havas emasligini sezardi. U o‘zining ham, Annaning ham ahvoli og‘ir ekanini, o‘zlari mansub bo‘lgan kibor jamiyat ko‘zida oshkor bo‘lgan o‘z sevgilarini yashirish, yolg‘on gapirish, aldash qiyin ekanini, ularni bir-biriga bog‘lagan va o‘z muhabbatlaridan boshqa hamma narsani unuttirib qo‘ygan ehtirolari kuchli bo‘lgan holda yana yolg‘on gapirish, aldash, quvlik qilish, har doim boshqalar to‘g‘risida o‘ylash naqadar mushkul ekanini sezardi.

U harchand tabiatiga yoqmasa ham, juda ko‘p marta yolg‘on gapirishga va aldashga majbur bo‘lganini esiga tushirdi; aldash va yolg‘on gapirishga majbur bo‘lganda Annaning qizarib-bo‘zarganini necha martalab ko‘rganini ham jonli bir sur‘atda xayolidan o‘tkazdi. Yana shunisi ham bor ediki, Anna bilan aloqa bog‘lagandan beri ba‘zan yuragida g‘alati bir his uyg‘onganini ham sezib yurardi. Bu esa nimagadir qarshi jirkanch hissi edi: Aleksey Aleksandrovichga qarshimi, o‘ziga qarshimi yo butun dunyoga qarshimi – bunisini durust bilmas edi. Lekin bu g‘alati hisdan o‘zini hamma vaqt qut-

qarishga harakat qilardi. U hozir o'zini qo'lga olib, fikrlariga yo'l ochib berdi.

«Ha, Anna ilgari baxtsiz bo'lsayam, lekin mag'rur va tinch edi, endi u tinchiniyam, izzatiniyam yo'qotdi, lekin buni sezdirmaydi. Ha, bunga xotima berish kerak», deb o'zicha ahd qildi.

Shunday qilib, miyasiga birinchi marta: «Bu yolg'on-yashiq'larga barham berish zarur, qancha tez barham berilsa, shuncha yaxshi bo'ladi», degan ravshan fikr keldi.

«U ham, men ham hamma narsadan voz kechib, o'z muhabbatlarimiz bilan boshimizni boshqa yoqlarga olib ketishimiz kerak», deb o'yladi u.

XXII

Jala uzoq cho'zilmadi, o'rtaga qo'shilgan ot bor kuchi bilan yo'rtib, loy ichida jilovsiz chopib borayotgan shatakchi otlarni sudrab manzilga yetib kelganda, quyosh yana bulutlar orqasidan chiqdi, chorbog'larning tomlari, katta ko'cha bo'ylaridagi bog'larning keksa jo'ka daraxtlarida yomg'ir tomchilari porillab, daraxt shoxlaridan tomchilar tomib, tomlardan esa suv oqib turardi. Vronskiy bu jalaning poyga maydonini buzib qo'yishi to'g'risida ortiq bosh ham qotirmasdi, lekin u shu yomg'ir sharofati bilan Annani uyda yolg'iz ko'rsam, ajab emas, deb quvonar, chunki yaqinda suv muolajasidan qaytib kelgan Aleksey Aleksandrovichning Peterburgdan chorboqqa ko'chib kelmaganini bilardi.

Vronskiy Annani yolg'iz topish umidi bilan hamma vaqtdagiday, odamlar diqqatini kamroq jalb qilish uchun ko'prikchadan berida aravadan tushib, piyoda ketdi. Ko'cha eshigidan emas, hovli darvozasidan kirib bordi.

– Xo'jayin keldilarmi? – deb so'radi u bog'bondan.

– Yo'g'-a, kelganlari yo'q. Begoyim uydalar. Ko'cha eshigidan marhamat qilsinlar, u yerda odam bor, ochib beradi, – deb javob berdi bog'bon.

– Yo'q, bog'dan o'ta qolaman.

Shunday qilib, u Annaning uyda yolg'izligiga qanoat hosil qildi-da, o'zining bugun kelishga va'da qilmagani va Annaning ham, ehtimol, poyga oldidan uni kelar deb o'ylamagani uchun birdan yoniga kirib borish istagi bilan qilichini ushlab, chetlariga gullar ekilgan

yo'lkaga sepilgan qum ustida sharpasiz qadam tashlab boqqa qaragan ayvon tomon yurib bordi. Vronskiy o'z ahvolining og'irligi, mushkulligi to'g'risida yo'l bo'yi o'ylab kelgan narsalarini endi butunlay yodidan chiqardi. U hozir faqat bir narsani, Annani hozir tasavvurida emas, tirik holdida, hayotda qanday bo'lsa, shundayligicha ko'rishnigina istardi. Tovush chiqarmaslik uchun ayvonning yotiq zina pog'onasiga oyog'ini asta bosib endi chiqa boshlagan ediki, hamisha esidan chiqib qoladigan va Anna bilan bo'lgan munosabatining eng og'ir tomonini tashkil etgan, Vronskiyga savol va nafrat nazari bilan qaraydigan Annaning o'g'li birdan esiga tushdi.

Bu bola ularning munosabatiga hamma narsadan ham ko'proq xalaqit berardi. Bola yonlarida ekanida, Vronskiy ham, Anna ham boshqalar oldida og'izlariga ololmaydigan narsalar to'g'risida gapirish u yoqda tursin, bola tushunmaydigan narsalar to'g'risida imoishora bilan gapirishga ham botinolmasdilar. Ular bu haqda kelishib qo'yishmagan bo'lishsa hamki, bu narsa o'z-o'zidan qoida tusiga kirib qolgan edi. Ular bu go'dak bolani aldashni o'zlari uchun bir haqorat deb bilardilar. Bolaning oldida oddiy tanishlardek so'zlashardilar. Lekin bunga qaramasdan, Vronskiy bolaning ko'pincha o'ziga hayrat nazari bilan tikilib qolganini ko'rar, uning o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatida g'alati bir qo'rqqoqlik, asabiylik, goh erkalanish, goh tortinish va adovat hislari borligini sezardi. Bola bu kishi bilan onasi o'rtasida ma'nosiga o'zi tushunolmaydigan qandaydir muhim bir aloqa borligini sezganday ko'rinardi.

Chindan ham, bola bu aloqani angalayolmasligini his etar, qancha tirishib-tirmashmasin, bu odamga nisbatan o'zida uyg'ongan hisning ma'nosini angalayolmas edi. U otasi, murabbiyasi, enagasi – hammalari Vronskiyi yomon ko'ribgina qolmay, uning to'g'risida hech nima deyishmasa hamki, unga nafrat bilan qo'rqa-pisa qaraganlarini, onasi esa unga eng yaxshi do'stday muomala qilganini bolalarga xos bir hushyorlik tuyg'usi bilan ochiq-ravshan ko'rib turardi.

«Buning ma'nosi qanday bo'ldi? U axir qanaqa odam? Uni qanday yaxshi ko'rsa bo'ladi? Agar men bunga tushunmayotgan bo'lsam, ayb menda, yo men nodonman, yo ahmoq bolaman», deb o'ylardi bola; Vronskiyi nihoyatda siquvchi bu so'rovchi, qisman yomon

ko‘z bilan qarayotganini bildiruvchi ifoda, hurkaklik, asabiylik – bularning hammasi yuqoridagi mulohaza orqasida sodir bo‘lmoqda edi. Bolaning yonlarida bo‘lishi Vronskiyda u keyingi vaqtlarda his qila boshlagan g‘alati, sababsiz jirkanish tuyg‘ularini uyg‘otib kelardi. Bola huzurida Vronskiy bilan Annada paydo bo‘lgan hisni sur‘at-la borayotgan kemasi noto‘g‘ri yo‘ldan ketayotganini kompasdan ko‘rib tursa-da, uning bu harakatni to‘xtatishga qodir bo‘lmagan va har bir daqiqa uni to‘g‘ri yo‘ldan uzoqlashtirib borayotganini ko‘rayotgan, lekin orqaga qaytish kerakligiga tan bersa, shu bilan o‘z halokati-ga tan bergan bo‘lishini anglagan dengiz sayohatchisining hissiga o‘xshatishi mumkin edi.

Bu bola o‘zining hayotga bo‘lgan sodda qarashi bilan ularga o‘zlari bilgan, lekin bilishni xohlashmagan narsalaridan qanchalik chetga chiqib ketganlarini ko‘rsatib turuvchi bir kompas edi.

Bu safar Seryoja uyda yo‘q edi, shuning uchun Anna o‘ynagani chiqib, yomg‘irda qolgan o‘g‘lining qaytishini ayvonda o‘zi yolg‘iz kutib o‘tirgan edi. O‘g‘lining orqasidan bir xizmatkori bilan oq-soch qizini axtarishga yuborib, o‘zi kutib o‘tirardi. U kenggina qi-lib tikilgan oq ko‘ylak kiyib, ayvonning burchagida, gullar orqasida o‘tirardi. Shuning uchun Vronskiyning kelganini payqamadi. Anna qora qo‘ng‘iroq sochli boshini eggan, Vronskiyga shu qadar tanish, qo‘sha-qo‘sha uzuk taqqan ikkala chiroyli qo‘li bilan panjara usti-dagi gulchelakni ushlab, bu sovuq gulchelakga peshonasini qo‘yib turgan edi. Butun qomatining, boshi, bo‘yni, qo‘llarining go‘zalligi Vronskiyning har safar nafasati bilan hayratga solardi. U to‘xtab, maf-tunkor ko‘zlari bilan Annaga tikilib qoldi. Keyin, uning oldiga borish uchun endigina qadam tashlamoqchi bo‘lganda, Anna uning yaqin-lashganini sezdi-yu, gulchelakni itarib tashlab, qizib ketgan yuzini Vronskiyga o‘girdi.

– Nima bo‘ldi? Tobingiz yo‘qmi? – dedi fransuzchalab Vronskiy yaqin kelib. Bir ko‘ngli Annaning yoniga yugurib kelmoqchi bo‘ldi, lekin begona odamlar bo‘lishi ehtimolini esladi-yu, balkon eshigi-ga alanglab qarab, qizarib ketdi; xavfsirash va alanglashga majbur bo‘lganini sezib, har gal shunaqa qizarib ketardi.

Anna o‘rmdan turdi-da, Vronskiyning qo‘lini qattiq siqib turib:

– Yo‘q, sog‘man, – dedi. – Men... seni kutmagandim.

– Yo Xudo! Qo‘llaringiz biram muzlab ketibdiki! – dedi Vronskiy.

– Meni qo‘rqitib yubording, – deb javob qildi Anna. – O‘zim yolg‘iz Seryojani kutib turuvdim, ular shu tomondan kelishadi.

Anna o‘zini tinch tutishga tirishsa ham, lablari qaltirar edi.

O‘zaro ruscha gaplashishganda quloqqa juda ham sovuq eshitiladigan «siz» va xavfli «sen» so‘zlarini ishlatmaslik uchun u hamma vaqt fransuzcha so‘zlashardi, hozir ham so‘zini fransuzcha davom ettirib:

– Qo‘qqisdan kelganim uchun meni kechiring, – dedi. – Lekin sizni ko‘rmasam, bugungi kunimni tinch o‘tkazolmasdim.

– Nega kechirishim kerak ekan? Aksincha, kelganingiz uchun juda xursandman!

Vronskiy Annaning qo‘lini qo‘yib yubormay, boshi ustida engashib turib:

– Lekin siz betob yo xafaday ko‘rinasiz, – deb so‘zida davom etdi. – Nimalarni o‘ylayotgandingiz?

– O‘sha bir narsani, – dedi Anna kulimsirab.

Anna to‘g‘risini aytgan edi. Qachon va qaysi daqiqada nimalarni o‘ylayotganini so‘raganday bo‘lishsa, Anna: «Bir narsani, o‘z baxtim, o‘z baxtsizligimni o‘ylayapman», deb xato qilmasdan javob bera olardi. Hozir ham, ya‘ni Vronskiy uni ayvon burchagida ko‘rganda ham, xuddi shu haqda o‘ylab turgan edi: u «Nima sababdan boshqalar uchun, masalan, Betsi uchun (Anna Betsining kibor jamiyatidan yashiriqcha Tushkevich bilan aloqasi borligini bilardi) bu narsalar yengil-u, men uchun bu qadar og‘ir?» deb o‘ylardi. Ba‘zi mulohazalarga ko‘ra, bugun bu fikr uni, ayniqsa, azob o‘tida yondirmoqda edi. Anna undan poyga to‘g‘risida so‘radi. Vronskiy uning so‘roqlariga javob bera boshladi; Annaning hayajon ichida ekanini ko‘rib, chehrasini ochish uchun, poygaga qanday tayyorgarlik ko‘rishganini eng sodda til bilan batafsil hikoya qilib berdi.

Anna uning vazmin, mehribon ko‘zlariga qarab: «Aytsammi-aytmasammi? – deb o‘ylardi. – U o‘z poygasi bilan shu qadar band, shu qadar baxtliki, bu narsani keragicha tushunmaydi, bu hodisaning ikkalamiz uchun ham naqadar muhimligini anglamaydi».

Vronskiy hikoyasini to‘xtatib:

– Lekin men kelganimda nimalarni o‘ylab turganingizni aytmadingiz, – dedi, – ayting, eshitaylik!

Anna javob beravermadi, boshini xiyol egib uzun kipriklar ostida piriqirab turgan ko‘zlari bilan unga yer ostidan qarab turdi. Uzib olgan yaproqni o‘ynab turgan qo‘li tinmay titrardi. Vronskiy buni ko‘rar, yuzi Annani har doim maftun etgan bir itoat, qullarcha sa-doqat ifoda qilardi.

– Nazarimda, bir nima bo‘lganga o‘xshaydi. Sizda bir dard bo‘lsa-yu, men unga sherik bo‘lolmasam, ajabo, shundan keyin bir zum bo‘lsa ham men tinchimni topa olamanmi? Aying, Xudo xayringizni bersin! – deb takrorladi Vronskiy yolvoruvchi bir tovush bilan.

Anna unga hamon boyagiday qarab, yaproq ushlagan qo‘li borgan sari yana ham qattiqroq titrayotganini sezib: «Ha, agar bu hodisaning butun ahamiyatini tushunmasa, uni hech qachon kechirmayman. Aytmaganim ma‘qul, uni sinab o‘tirishning nima keragi bor?» deb o‘ylardi.

Vronskiy uning qo‘lini ushlab:

– Xudo xayringizni bersin! – deb takrorladi.

– Aytaveraymi?

– Ha, ha, ha...

– Homiladorman, – dedi Anna past tovush bilan.

Qo‘lidagi yaproq yana kuchliroq titradi, lekin u bu xabarning ta’sirini bilish uchun ko‘zlarini Vronskiydan olmadi. Vronskiy oqarib ketdi. Bir narsa demoqchi bo‘ldi-yu, lekin indamadi, Annaning qo‘lini qo‘yib yuborib, boshini quyi soldi. Anna: «Ha, bu hodisaning butun ahamiyatini angladi», deb o‘yladi-da, Vronskiyning qo‘lini minnatdorlik bilan qisdi.

Lekin Anna bu xabarning ma‘nosini Vronskiy xuddi o‘ziday, ya’ni xotin kishiday angladi, deb o‘ylash bilan xato qildi. Vronskiy bu xabarni eshitganda, kimgadir o‘qtin-o‘qtin yuragida paydo bo‘lib turadigan o‘sha g‘alati, jirkanch hissi o‘zini yana qamrab olganini o‘n chandon ortiq kuch bilan his qildi, shu bilan birga, o‘zini intizor qilgan bo‘hronning endi boshlanishini, o‘rtadagi munosabatlarini ortiq eridan yashirib bo‘lmasligini, shuning uchun bu g‘ayritabiyy ahvolga qanday shaklda bo‘lsa-da, xotima berish zarurligini ham angladi. Lekin, bundan tashqari, Annaning hayajoni Vronskiyga ham jisman ta’sir etdi. U Annaga mehr to‘la itoatkor ko‘zlarini tikdi, qo‘lini o‘pdi, keyin o‘rnidan turib, ayvonda indamasdan u yoqdan bu yoqqa yura ketdi.

– Ha, – dedi u, Annaning yoniga keskin odimlar bilan kelib. – Siz ham, men ham o'rtamizdagi aloqaga o'yinchoq deb qaragan emasmiz, mana endi taqdirimiz hal bo'ldi. – Keyin tevaragiga alanglab: – Yolg'on-yashiq'larga endi xotima berish zarur, – dedi.

– Xotima berish? Qanday xotima berib bo'ladi, Aleksey? – so'radi Anna ovozini past qilib.

Anna endi tinchini topdi. Endi yuzi nozik bir tabassum bilan yorishib ketdi.

– Eringizni tashlaysiz, ikkimiz hayotimizni birlashtiramiz.

– Shusiz ham hayotimiz birlashgan-ku, – deb eshitarlar-eshitilmas javob qildi Anna.

– Shunday-ku-ya, lekin butunlay, butunlayin birlashtirsak deyman.

Anna o'z ahvolining mushkulligiga mungli bir istehzo bilan achinib:

– Lekin menga yo'l ko'rsat, qanday qil deysan, Aleksey? – dedi. – Ajabo, bu ahvoldan qutulishning yo'li bormi? Ajabo, men o'z erimning xotini emasmanmi?

– Har qanaqa ahvoldan qutulishning yo'li bor. Faqat jur'at kerak, – dedi Vronskiy, – hozir yashab turgan ahvoldingdan boshqa narsalarning hammasi ming chandon yaxshi. Har narsa – kibor jamiyat, o'g'ling, ering tufayli azob chekayotganingni ko'rib turibman-ku, axir.

– E, erim bu yerda nima qilib yuribdi, – dedi Anna oddiy bir istehzo bilan. – Men uni bilmayman ham, o'ylamayman ham. U bormi-yo'qmi, menga baribir.

– Bu so'zlaring samimiy emas. Seni yaxshi bilaman. U tufayli ham azob chekasan.

– Bu narsalardan uning xabari yo'q, – dedi-yu, birdan Annaning betlari, peshonasi, bo'yni qizarib ketdi, ko'zlarida uyat yoshlari paydo bo'ldi. – Qo'y, u to'g'risida gaplashmaylik.

XXIII

Vronskiy hozirgiday qat'iy bir sur'atda bo'lmasa hamki, Annani bir necha bor o'z ahvoli to'g'risida gapga solishga urinib ko'rgan va har safar Annaning hozirgiday yuzaki, yengiltak muhokamalariga duch kelgan edi. Go'yo shu masalada Anna tushunib yetolmaydigan

- Xayr, yaxshi boring, - dedi Anna Vronskiyga. - Hademay poyga boshlanadi. Betsi meni birga olib boraman deb va'da qilgandi. Vronskiy soatiga qarab, tezda jo'nab ketdi.

XXIV

Vronskiy Kareninlarning balkonida soatiga qaraganda, shu qadar hayajonli va o'z fikrlari bilan shu qadar band ediki, raqamlar ustidagi millami ko'rgan bo'lsa ham, soat necha ekanini payqamagan edi. U tosh yo'lga tushdi-da, loyda asta-sekin yurib, faytoni turgan yoqqa qarab ketdi. Anna to'g'risidagi hislari vujudini shu qadar qamrab olgan ediki, soat nechalgini va Bryanskiynikiga borishga hali vaqt bormi-yo'qligini ham o'ylab ko'rmadi. Unda nimadan keyin nimani qilish kerakligini ko'rsatadigan faqat tashqi hofiza layoqatigina qolgan edi (bu holat ko'p uchrab turadi), u kucherining yoniga kelganda, kucheri qalin yaproqli jo'ka daraxtining qiya tushib turgan soyasida, peshtaxta ustida mudrab o'tirgan edi. Vronskiy ter bosgan otlar ustida qaynashib, yiltirashib uchayotgan mayda pashshalami biroz tomosha qilgandan so'ng kucherini uyg'otdi-da, aravaga sakrab chiqib, Bryanskiynikiga borishni buyurdi. Faqat yetti chaqirimcha yo'l yurgandan keyingina esi joyiga tushdi-yu, soatiga qarab, vaqtning olti yarim bo'Mib qolganini, demak, o'zining kechikkanini fahmladi.

Bugun poyganing bir necha turi: konvoylar poygasi, keyin ikki chaqirimli zobitlar poygasi, to'rt chaqirimli poyga, nihoyat, Vronskiy qatnashadigan g'ovli poyga belgilangan edi. Vronskiy o'zi qatnashadigan poygaga ulgurishi mumkin edi, agar Bryanskiynikiga boradigan bo'lsa, u holda poygadan quruq qolar, saroy ahllari to'plangandan keyingina yetib kelardi. Bunisi yaxshi emas edi. Lekin Bryanskiynikiga kelaman deb va'da qilgan edi. Shuning uchun yo'lni davom ettirishga qaror qilib, kucherga otlami ayama deb buyurdi.

Vronskiy Bryanskiynikiga kelib, besh daqiqacha o'tirgandan so'ng orqasiga qaytdi. Troykaning¹ uchib borishi ko'nglini ancha tinchitdi. Annaga bo'lgan munosabatidagi barcha og'ir tomonlar, u bilan qilgan suhbatidan qolgan barcha noaniq fikrlar miyasidan chiqib ketdi; endi u zavq bilan, hayajon bilan faqat poygani, har nima bo'lganda ham unga ulgurishini o'ylardi, bugun kechasi Annaning

¹Troyka - uch otlı izvosh.

vasliga yetishish baxtiga noil bo'lish orzusi goho xayolida chaqnaq ketardi.

Chorbog'lardan va Peterburgdan poygaga kelayotgan aravalardan o'zib, poyga havosi kelib turgan joyga yaqinlashgan sari, hozirgina boshlanadigan poyga to'g'risidagi hayajoni ham kuchayib borardi.

Uning uyida hech kim qolmagan edi: hamma poygaga ketgan, yugurdagigina uni darvozada kutib turgan edi. Vronskiy kiyimlarini o'zgartirib turgan paytda yugurdak ikkinchi poyganing boshlangani-ni, janoblardan bir qanchasi uni so'roqlab kelganini, otxonadagi bola ikki marta yugurib kelib ketganini aytib berdi.

U shoshilmasdan kiyimlarini o'zgartirgandan so'ng (u hech mahal shoshilmas, o'zini yo'qotmas edi), aravasini baraklar tomon haydashni buyurdi. Barakka yetib borganda, u yerda had-hisobsiz karetalarni, piyodalarni, poyga maydonini o'rab turgan askarlarni, odamlar qaynashgan shiyponlarni ko'rdi. Shu mahal ikkinchi poyga ketayotgan bo'lsa kerak, chunki Vronskiy barakka kirayotganda qo'ng'iroq chalinganini eshitdi. Otxonaga yaqinlashganda esa Maxotinning oq oyoqli jiyron Gladiatoriga duch keldi; ustiga to'q-sariq yopiq tashlangan va dikkaygan quloqlari uzoqdan juda katta ko'ringan bu otni jilovidan ushlab poyga maydoniga olib ketishayotgan edi.

Vronskiy:

- Kord qani? – deb otboqardan so'radi.
- Otxonada, otni egarlayapti.

Eshigi ochib qo'yilgan bo'lmada Fru-Fru allaqachon egarlog'liq turardi. Uni endi olib chiqmoqchi edilar.

– Kech qolganim yo'qmi?

– All right! All right! Hammasi joyida, hammasi joyida, – dedi ingliz. – Xavotir qilmang.

Vronskiy butun gavdasi bilan titrab turgan sevikli otining chiroyli bastiga yana bir marta ko'z yugurtirib chiqdi-da, bu manzardan ko'zlarini zo'rg'a uzib barakdan chiqdi. Hech kimning diqqatini o'ziga jalb qilmaslik uchun, poyga qizib turgan paytda shiyponlar yoniga kelib oldi. Ikki chaqirimli poyga endi tugayotgan, hammaning ko'zi kuchlarining boricha otlarini choptirib, mo'miqqa yaqinlashib qolgan suvorilarga, oldinda ketayotgan kavalergard¹ bilan orqada

¹ *Kavalergard* – podsho armiyasidagi maxsus polk zobiti (*tarj.*).

borayotgan leyb-gusarga tikilib qolgan edi. O'rtadagi otlqlar ham, chetlardagilar ham mo'miqqa qarab siqilishib borar, kavalergard guruhidagi askarlar bilan zobitlar o'z zobitlari va o'rtoqlarining yaqinlashib qolgan g'alabasini shodiyona hayqiriqlar bilan qarshilardilar. Vronskiy poyganing tugaganini bildiruvchi qo'ng'iroq chalingan paytda sekingina olomon ichiga kirib oldi, shu payt birinchi bo'lib kelgan, hamma yog'iga loy sachragan novcha kavalergard egariga o'mashib o'tirib oldi-da, terdan qorayib, hansirab turgan bo'z ayg'irining jilovini bo'shata boshladi.

Bo'z ayg'ir oyoqlarini zo'rg'a-zo'rg'a bosib, zo'r gavadasining shiddatli sur'atini sekinlashtirgandan so'ng, kavalergard zobiti, xuddi og'ir uyqudan uyg'ongan kishi singari, tevaragiga alanglab zo'rg'a kulimsiradi. O'ziga qarashli odamlar ham, yot-begonalar ham uni o'rab oldi.

Vronskiy shiyponlar oldida o'zlarini sipo olib, bemalol gaplashib yurgan olimaqom kiborlar ko'zidan o'zini jo'rttaga olib qochar edi. Karenina, Betsi, akasining xotini ham o'sha yerda ekanini payqadi, lekin boshini og'ritgisi kelmagani, uchun jo'rttaga ularning yoniga bormadi. Lekin har qadamda tanishlari uni to'xtatib, o'tgan poygalarning tafsilotini so'zlashar, undan nima uchun kechikib qolganini so'rashar edi.

Poygaga qatnashganlarni sovrin berish uchun shiyponga chaqirishganda, hamma o'sha yoqqa oqa boshladi, shunda Vronskiyning akasi uning yoniga keldi, akasi Aleksandr akselbantlar taqqan polkovnik bo'lib, bo'yi o'rtamiyona, Alekseyniki singari g'o'labir, lekin ukasidan chiroyliroq, ikki beti qip-qizil, burni mast kishilarnikiga o'xshash qizargan, yuzi ochiq edi.

– Xatimni oldingmi? – deb so'radi u. – Seni hech topib bo'lmaydi.

Aleksandr Vronskiy ishratbozligiga, ayniqsa, mast-u alast hayot kechirishi bilan ma'lum va mashhur bo'lganiga qaramay, saroyga munosib kishi edi.

U hozir o'zini nihoyatda xafa qilgan narsa to'g'risida ukasi bilan gaplashib turgan bo'lsa hamki, ko'pgina ko'zlarining o'zlariga tikilib turgan bo'lishi mumkinligini bilgani uchun ukasi bilan ahamiyatsiz bir narsa ustida hazillashib gaplashayotgandek kulimsirar edi.

– Ha, oldim, lekin, rostini aytsam, sen nimaning g'amini yeyayotganingga aslo tushunolmadim, – dedi Aleksey.

– Men shu narsaning g'amini yeyapmanki, hozir shu yerda bo'l-maganingni va dushanba kuni seni Petergofda ko'rganlarini aytib menga ta'na qilishdi.

– Shunday ishlar bo'ladiki, ularni to'g'ridan to'g'ri manfaatdor bo'lgan shaxslargina muhokama qilishlari mumkin, innaykeyin, sen shu qadar g'amini yeyayotgan ish ham shunday ishki...

– Tuzuk, unday bo'lsa, harbiy xizmatga kirmaydilar...

– Iltimos qilaman, mening ishlarimga sira aralashma, vassalom!

Aleksey Vronskiyning tumtaygan yuzidan qon qochdi, oldinga turtib chiqqan pastki jag'i qaltirab ketdi, bunday hol unda kamdan kam bo'lardi. U nihoyatda mehribon odam bo'lgani uchun kamdan kam g'azablanardi, lekin g'azabi kelib, pastki jag'i qaltiray boshlaganda xavfli odamga aylanar, buni Aleksandr Vronskiy yaxshi bilardi. Aleksandr Vronskiy sho'xgina kulimsiradi.

– Senga faqat oyimning maktubini berib qo'ymoqchi bo'ludim. Oyimlarga javob yoz, poyga oldidan ta'bingni tirriq qilma. Bonne chance¹, – deb iljaydi-yu, ukasining yonidan nari ketdi.

Lekin u ketar-ketmas, Vronskiyini yana bir odam do'stona salom berib to'xtatdi.

– Og'aynilarni taniging kelmay qoldimi deyman-a! Salom, mon cher, – dedi Stepan Arkadich, u Moskvadagi singari bu yerda ham, Peterburg kazo-kazolari ichida ham qip-qizil sog'lom yuzi, tarab zeb berilgan yaltiroq bakenbardlari bilan parpirab yurardi. – Kecha keldim, endi sening tantanangni ko'rib, xursand bo'laman. Qachon ko'rishamiz?

– Ertaga artelga kelarsan, – dedi-yu, Vronskiy kechirim so'rab, uning yengini qisdi-da, g'ovlardan o'tiladigan katta poygaga qatnashuvchi otlar keltirilayotgan maydon tomon ketdi.

Poygadan qora terga pishib chiqqan, majoldan ketgan otlarni otboqarlar yetaklab olib chiqishib ketar va navbatdagi poygaga birin-ketin yangidan yangi otlar keltirilardi edi, qorinlari tortib bog'langan, quloqchin kiygizilgan va ko'pchiligi ingliz zotidan bo'lgan bu ot-

¹ Muvaffaqiyat tilayman (*frans.*).

lar kattakon, bahaybat qushlarga juda ham o'xshab ketardi. O'ng tomondan nozik jussali go'zal Fru-Fruni yetaklab keldilar, u elastik, ancha uzun to'piqlari ustida xuddi prujinada yurgandek silkinib kelardi. Unga yaqin bir yerda shalpanquloq Gladiator ustidan yopiqni tushirishmoqda edilar. Bu ayg'irning kattakon, kelishgan va nihoyatda xushbichim qaddi-basti, ajoyib sag'ri, tuyoqlariga juda yaqin o'rnanishgan kaltabaqay to'piqlari Vronskiyning nazarini beixtiyor o'ziga jalb qilardi. U o'z otining yoniga bormoqchi bo'lib turganda, tanishlaridan yana biri to'xtatib qoldi.

– Ana, Karenin ham keldi! – dedi gaplashib turgan tanishi. – Xotinini izlab kiribdi, xotini bo'lsa shiypon o'rtasida o'tiribdi. Ko'rganingiz yo'qmi?

– Yo'q, ko'rganim yo'q, – deb javob berdi-da, Vronskiy Karenina o'tirgan va tanishi ishora qilgan shiypon tomonga qayrilib ham qaramasdan, otining yoniga keldi.

Vronskiy egarni ko'zdan kechirib, bu haqda topshiriqlar berishga ulgurmay, poygada qatnashuvchilarni shiyponga raqam olgani va jo'nagani chaqirib qolishdi. O'n yetti nafar zobit jiddiy, salobatli, aksari qoni qochgan holda shiyponga to'planib, raqamlarni olishdi. Vronskiyga yettinchi raqam chiqdi. Shundan keyin: «Otlarga minilsin!» degan ovoz yangradi.

Vronskiy boshqa chavandozlar bilan birlikda o'zining markazni tashkil qilganini va hammaning ko'zi shu markazga tikilganini sezdi-da, butun diqqatini to'plab oti yoniga keldi, bunday hollarda harakatlari sust va og'ir bo'lib qolardi. Kord poyga tantanasi munosabati bilan o'zining rasmiy kiyimlarini kiyib chiqqan edi, egnida hamma tugmalari qadalgan qora syurtuk, bo'ynida qattiq ohorlangan, lunjlariga tirkalib turgan baland yoqa, boshida yumaloq qora shlapa, oyoqlarida esa qo'nji uzun etik bor edi. U har vaqtdagiday xotirjam, sipo edi, otning har ikkovi jilovini o'zi ushlab oldinda turardi. Fru-Fru hamon bezgakdagidek titrardi. Oldiga kelgan Vronskiyga u olov chaqnab turgan ko'zlari bilan olayib qaradi. Vronskiy qorinboqqa barmog'ini suqib ko'rdi. Ot yana battar olaydi, tishlarini ochib, quloqlarini chimirdi. Ingliz otni qanday egarlanganini tekshirib ko'rishayotganiga kulmoqchi bo'lib, lablarini burishtirdi.

– Mining, ko'nglingiz joyiga tushadi.

Vronskiy o'z raqiblariga so'nggi marta ko'z yugurtirib chiqdi. Poyga mahali ularni ko'rolmasligini bilardi. Ikki otliq poyga boshlanadigan joyga ketib borardi. Vronskiyning oshnasi va xavfli raqiblaridan biri, Galtsin mindirgisi kelmayotgan qora-to'riq ayg'ir yonida aylanib turardi. Tor shimli, kichik jussali bir leyb-gusar otini yo'rttirib, inglizlarga taqlid qilgan holda engashib ot sag'riga mushukday yotib olgan edi. Knyaz Kuzovlyov o'zining Grabov zavodidan chiqqan zotdor biyasi ustida rangi oqargan holda o'tirar, bir ingliz otni jilovidan ushlab borardi. Vronskiy va uning hamma o'rtoqlari Kuzovlyovni, uning asabi «zaif» ekanini, xudbinligini yaxshi bilardilar. Ular knyaz Kuzovlevning hamma narsadan qo'rqishini, front otlarini minishdan ham qo'rqishini bilardilar, lekin hozir bu poyga juda ham xavfli bo'lgani, chavandozlar yiqilib bo'yinlari tagida qolishi va har bir g'ov yonida doktor, xoch alomati solingan kasalxona aravasi hamda tibbiyot hamshirasi turgani uchun ham u ishtirok qilishga ahd etgan edi. Ko'zlari bir-biriga to'qnash kelganda, Vronskiy uning qarorini ma'qullab, mehr bilan ko'zini qisib qo'ydi. Lekin Vronskiy faqat bir kishini, asosiy raqibi bo'lgan Maxotinni Gladiator ustida ko'rmadi.

– Shoshilmang, – deb Kord Vronskiyga nasihat qildi, – innaykeyin, shu narsa esingizda bo'lsin, to'siq oldida otning shashtini qaytarmang, qistamang ham, o'z mayliga qo'yib bering.

Vronskiy tizginini qo'liga olib:

– Xo'p, xo'p, – dedi.

– Ilojini topsangiz, poygachilarning oldiga o'tib oling, mabodo, orqada qolib ketsangiz ham, to oxirgi daqiqagacha ham umidsizlikka tushmang.

Ot turgan yeridan jilishga ulgurmay, Vronskiy epcillik bilan bir zumda oyog'ini kertiklangan po'lat uzangiga qo'ydi-da, o'zining ixcham gavdasini charmi g'ijirlab turgan egar ustiga yengilgina chiqarib oldi. O'ng oyog'ini uzangiga kirgizgandan so'ng, o'rganib qolgan bir harakat bilan qo'shaloq tizginni barmoqlari orasiga kirgizib baravarlashtirdi, shundan keyin Kord jilovni qo'yib yubordi. Fru-Fru qaysi oyog'ini bosishini bilmayotgandek, uzun bo'ynini cho'zib tizginlarni tortdi-da, sirtida o'tirgan suvoriyni silkita-silkita xuddi prujina ustida yurgandek yurib ketdi. Kord qadamini tezlatib orqadan bordi. Bezovtalangan ot suvorini aldashga tirishib, tizginni goh u

yoqdan, goh bu yoqdan tortar, Vronskiy esa uni ham ovozi, ham qo'l harakati bilan tinchlatishtga urinardi.

Ular to'g'on bilan to'silgan anhorga yaqinlashib, poyga boshlanadigan joyga qarab bormoqda edilar. Chavandozlardan ko'pi oldinda, bir qanchasi orqaroqda kelardi, shu payt Vronskiy o'zining orqasida loy yo'lda sakrab-sakrab chopib kelayotgan ot dupurini eshitdi – Maxotin o'zining oq oyoqli shalpangquloq Gladiatori ustida yonginasidan o'tib ketdi. Maxotin uzun tishlarini ko'rsatib iljaygan edi, Vronskiy unga jahll bilan qarab qo'ydi. Vronskiy uni ko'rsa, jini qo'zg'ar edi, hozir esa o'zining eng xavfli raqibi deb hisoblardi; hozir otni choptirib, Fru-Fruni bezovta qilib ketganiga jahli chiqdi. Fru-Fru chap oyog'ini otib chopmoqchi bo'ldi-yu, lekin ikki qadam tashlagandan so'ng jilovi tortib qo'yilganiga jahli chiqib, chavandozini silkita-silkita yo'rtib ketdi. Kord ham qovog'ini solib, Vronskiy orqasidan yugurib kelmoqda edi.

XXV

Poygada o'n bitta zobit qatnashayotgan edi. Otlar shiypon oldidagi to'rt chaqirimli, tuxumsimon berk doira chizig'i bo'ylab chopishi kerak edi. Bu doirada to'qqizta to'siq: soy, shiyponning qoq ro'parasiga qurilgan eni ikki gazli kattakon g'ov, bitta quruq, yana suv oqib turgan ariq, tepalik, ustiga cho'pchor sanchilgan tuproqqo'rg'ondan iborat bitta irland banketkasi¹ (bunisi to'siqlar ichida eng qiyinlaridan biri edi), bundan keyinoq otga ko'rinmaydigan yana bitta zovur bor edi; ot yo shu ikki to'siqdan baravariga sakrab o'tishi yoki yiqilib nobud bo'lishi kerak edi, bulardan keyin yana ikkita suvli va bitta suvsiz zovurdan o'tilib, shiypon oldiga belgilangan marraga kelinardi. Lekin poyga doiradan emas, undan yuz sarjinchacha naridan boshlanar, bu yerda birinchi to'siqqa, ya'ni suvi to'sib qo'yilgan, eni uch gazli anhorga duch kelinar, bundan chavandozlar o'z mayillaricha sakrab o'tishlari yoki otlarini kechtirib o'tishlari mumkin edi.

Chavandozlar uch marta qatorga tizildilar, lekin har safar bittasining oti ilgari chiqib ketavergani uchun yana qayta otlarni tislatisht

¹ Ko'tarma, tepa.

saf tortishga majbur bo'lardilar. Poyga mirishkori hisoblangan polkovnik Sestrin, nihoyat, to'rtinchi marta «Hayda!» deb qichqirguncha xun bo'lib ketdi, komandadan keyin chavandozlar otlarini haydab ketdilar.

Rang-barang kiyingan chavandozlar safga tizila boshlaganlaridayoq hamma ko'zlar, hamma durbinlar ularga qaratilgan edi.

Intizorlik ichida o'tgan sukunatdan so'ng har yoqdan: «Boshlandi! Chopib kelishyapti!» degan ovozlar ko'tarildi.

Shundan keyin odamlar yakka-yakka, yo to'p-to'p bo'lishib, chavandozlarni yaxshiroq ko'rish uchun u yoqdan bu yoqqa yugurisha boshladi. Chavandozlar to'pi birinchi daqiqadayoq cho'zila boshlagani, keyin ikkita-ikkita yo uchta-uchta bo'lib yoinki biri ketidan ikkinchisi ot qo'yib anhorga yaqinlashib kelayotganlari ko'rindi. Tomoshabinlarga ular hammasi baravariga chopib kelishayotgandek tuyulardi; lekin chavandozlar bir-ikki soniya orqada yoki oldinda chopib borardilar, ular ko'zida esa bu juda katta ahamiyatga ega edi.

Saranjomini yo'qotib, so'ng daraja asabiylashgan Fru-Fru dastlabki soniyani boy berib qo'ydi, bir necha ot undan ilgariroq joyidan qo'zg'aldi, lekin anhordan o'tmasdanoq Vronskiy surib borayotgan otining jilovini bor kuchi bilan tortib, uch chavandozdan osongina o'tib ketdi, Vronskiyning oldida faqat Maxotinning sag'risi bir maromda silkinib chopib borayotgan jiyron Gladiatorigina qolgan, bundan ham oldinda, hammadan ilgarida esa es-hushini yo'qotgan Kuzovlyovning go'zal Dianasi uchib borardi.

Dastlabki daqiqalarda Vronskiy o'zini ham, otini ham qo'lga olmagan edi. Birinchi to'siqqa, ya'ni anhorga yetguncha ham otini boshqarolmadi.

Gladiator bilan Diana baravariga anhorga yaqinlashdi-da, qariyb bir mahalda birin-ketin anhordan sakrab, u tomonga o'tib olishdi; Fru-Fru ham, xuddi qanot chiqargandek, ular ketidan sakradi, shunda, Vronskiy o'zini havoda uchib borayotgandek his qilganida, otning qariyb oyoqlari ostida, anhorning u yuzida Kuzovlyovning o'z Dianasi bilan tipirchilab yotganini ko'rib qoldi (ot sakrab o'tgandan keyin Kuzovlyov jilovini qo'yib yuborgan ekan, ot ustidagi suvoriysi bilan umbaloq oshib ketibdi). Bu voqeaning tafsilotini Vronskiy keyin bildi, hozir esa Fru-Fru sakrab tushadigan o'rda Diananing

oyog‘i yo kallasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rdi. Lekin Fru-Fru yuqoridan yiqilib tushayotgan mushuk singari oyoqlari va yag‘rinini qimirlata-qimirlata, ot ustidan oshib tushib, chopa ketdi.

«Yashavor, jonivor!» – dedi Vronskiy ichida.

Anhordan o‘tgandan so‘ng Vronskiy otni butunlay qo‘lga oldi, katta to‘siqdan Maxotindan so‘ng o‘tish, keyin keladigan ikki yuz sarjinli to‘siqsiz joyda undan o‘zib ketishga harakat qilish uchun otining jilovini tortibroq bordi.

Katta to‘siq podsho shiyponining qoq ro‘parasida edi. Podsho, butun saroy ahli, xalq olomoni – ularga, ya‘ni Vronskiyga, Maxotinning oldinda to‘siqqa yaqinlashib kelayotgan otiga qarab turardi. Vronskiy hammaning ko‘zi o‘ziga tikilib turganini sezsa ham, lekin o‘z otining quloqlari-yu, bo‘ynidan, o‘ziga qarab chopib kelayotgan erdan va o‘rtadagi masofani hech kamaytirmasdan oldinda uchib borayotgan Gladiatorning sag‘ri-yu oq oyoqlaridan boshqa hech nimani ko‘rmas edi. Gladiator hech bir yerini to‘siqqa tegizmay sakradi-da, kalta dumini bir silkitib, Vronskiyning ko‘zidan g‘oyib bo‘ldi.

Allakim:

– Yasha! – deb qichqirdi.

Xuddi shu asnoda Vronskiyning ko‘zlari oldida to‘siq taxtalari ko‘rindi. Ot harakatini zarracha ham o‘zgartirmasdan to‘siq ustidan sakradi, taxtalar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, faqat orqadan bir narsa taraqlab ketdi. Gladiatorning oldinda borayotganiga g‘ashi kelib, uning oti to‘siqdan andak ilgari sakragan va orqa oyog‘ining tuyog‘i taxtaga tegib ketgan edi. Shunday bo‘lsa ham uning chopish sur‘ati o‘zgarmadi. Vronskiy yuziga loy sachraganini sezib, Gladiatordan yana boyagi masofada ketayotganini angladi. U yana o‘z oldida Gladiatorning sag‘risini, kalta dumini va hamon uzoqlashmasdan, pirillab borayotgan oq oyoqlarni ko‘ra boshladi.

Vronskiy endi Maxotindan o‘zib ketish kerakligini xayolidan kechirgan paytda Fru-Fruning o‘zi Vronskiyning o‘yini tushundi-da, uni qistatib o‘tirmasdan, sur‘atini tezlashtirdi va eng o‘ng‘ay tomondan, arqon tortilgan tomondan Maxotinga yaqinlasha boshladi. Maxotin esa arqon tomondan yo‘l bermas edi. Vronskiy tashqari tomondan o‘zib o‘tish mumkinligini endi xayoliga keltirgan ham ediki, Fru-Fru yo‘lni o‘zgartirib, xuddi shu taxlitda aylanib o‘ta boshladi. Fru-Fruning terdan qoraya boshlagan o‘mgani Gladiatorning sag‘ri

bilan baravarlashib qoldi. Ikki ot bir zum yonma-yon bordi. Lekin to'siqqa yaqinlashish oldida doira chizmaslik uchun Vronskiy jilovni siltab, tepalikda Maxotindan o'tib ketdi. Vronskiy uning loy sachragan yuzini ko'rib qoldi. U hatto Vronskiyga kulimsiraganday ko'rindi. Vronskiy raqibidan o'tib ketgan bo'lsa hamki, lekin uning o'z orqasidan qolmay kelayotganini sezdi va orqasida Gladiatorning bir tekis chopib kelayotganini eshitib bordi, burnidan chiqayotgan nafasi uning charchamaganini ko'rsatardi.

Keyingi ikki to'siqdan – ariq bilan g'ovdan osongina o'tib ketdi-yu, lekin Vronskiy Gladiatorning dupurini va pishillashini yana ham yaqinroqdan eshita boshladi. U otining jilovini bo'shatdi, shundan keyin ot sur'atini tezlashtirdi, endi Vronskiy Gladiatorning dupuri yana boyagi masofadan eshitiba boshlaganini sezib suyundi.

Vronskiy Kordning maslahatiga ko'ra poyganing oldida borardi, o'zining ham tilagi shu edi, endi g'alaba qozonishiga ishonchi komil edi. Uning hayajoni, Fru-Fruga mehri va shodligi hamon kuchayib borardi. U orqasiga qaragisi kelsa hamki, qarayolmaydi, o'zini bosishga, Fru-Fruni qistamaslikka tirishdi, Gladiator kuchini ehtiyot qilayotganini sezgan, shu sababdan o'z otining kuchini saqlab qolishga tirishar edi. Oldinda yana bitta eng qiyin to'siq qolgan edi, agar shu to'siqdan hammadan oldin o'tib olsa, marraga birinchi bo'lib kelardi. Vronskiy irland banketkasiga yaqinlashib kelardi. U Fru-Fru bilan bu banketkani uzoqdanoq ko'rgan va ikkovining, o'zining ham, otining ham yuragida bir zungina shubha tug'ilgan edi. Vronskiy otining hadigini quloqlaridan sezib qamchisini bir ko'tardi-yu, lekin shubhasi noo'rinligini fahmlab qoldi: nima qilish kerakligini otning o'zi bilardi. Fru-Fru sur'atini oshirdi-da, xuddi Vronskiy o'ylagandek, yerni tepib, epkini bilan bir me'yorda havoga ko'tarildi, epkini bilan zovurdan ancha uzoqqa borib tushdi, ana shundan keyin Fru-Fru yana o'sha iskartda, o'zini zo'rlamasdan, to'xtamay chopa ketdi.

Vronskiy o'z polki va oshnalarining shu to'siq yaqinida ekanini bilardi, ana shu to'pdan:

– Yasha, Vronskiy! – degan tovushlar eshitildi; bular orasida Yashvinning tovushi ham borligini sezdi-yu, lekin o'zini ko'rmadi.

Vronskiy Fru-Fru haqida: «O, jonginam!» deb o'yladi-da, orqasidagi sharpaga quloq solib qoldi. Orqasidan Gladiatorning dupurini

eshitib: «O'tib ketdi!» deb o'ylandi. Endi eni ikki gazli, ichi suvli zovur – so'nggi to'siq qolgan edi. Vronskiy uni nazar-pisand qilmay, hammadan ancha ilgari yetib borish uchun, jilovni otning chopishiga monand aylantirib silkita boshladi, otning chopishiga qarab, goh ot boshini tortar, goh bo'shatardi. U otining so'nggi kuchlarini sarf qilib ketayotganini payqar: faqat bo'yni va o'mganigina ter bosgan emas, shu bilan birga, yollarida, boshida, ingichka quloqlarida ham ter tomchilari ko'rinar, nafasi tiqilib, hansirashi kuchayib borardi. Lekin Vronskiy unda qolgan kuchning so'nggi ikki yuz sarjin masofaga bemalol etib berishini bilardi. U o'zining yerga yana yaqin his qilganidan va otning harakati mayinlashib qolganidan Fru-Fru o'z sur'atini naqadar orttirganini angladi. Zovurdan hech pisand qilmay sakrab, bamisoli qushday uchib o'tdi. Lekin Vronskiy xuddi shu asnoda o'zi ham bilmay, nihoyatda yomon, kechirib bo'lmaydigan bir harakat qilib qo'rganini sezib dahshatga tushdi: otning harakatidan kech qolib, egarga bevaqt o'tirib oldi. Shundan keyin holati birdan o'zgardi-da, dahshatli bir hodisa yuz berganini angladi. Nima bo'lganini payqab ololmasdan burun, jiyron ayg'irning oq oyoqlari yaqinginasida bir lip etib ko'rindi-yu, Maxotin shiddatli bir sur'at bilan yonidan o'tib ketdi. Vronskiyning bir oyog'i yerga tegdi, ot esa shu oyoq ustiga yiqila boshladi. U oyog'ini tortib olishga ulgurur-ulgurmas, ot bir yoni bilan yerga gursillab tushdi va og'ir-og'ir nafas olib, ter bosgan ingichka bo'ynini silkita-silkita turishga harakat qildi, Vronskiyning oyoqlari ostida o'q yegan qushday tipirchilay boshladi. Vronskiyning beso'naqay harakati otining belini sindirdi. Lekin buni u ancha keyin bildi. Hozir esa Maxotinning shiddat bilan uzoqlashib borayotganigina ko'rar, o'zi bo'lsa to'xtab qolgan yerda, loy ichida yolg'iz gandraklab turar, Fru-Fru ro'parasida og'ir-og'ir nafas olib yotar, boshini unga o'girib, chiroyli ko'zi bilan tikilib turardi. Vronskiy nima hodisa bo'lganini hamon tushunmasdan otini jilovidan tortdi. Fru-Fru egar qanotlarini qisirlatib, baliq singari, yana tipirchiladi, oldingi oyoqlarini tagidan chiqardi, lekin sag'risini ko'tarishga kuchi etmay tipirlab, yana yoni bilan yerga yiqildi. Ehtirosdan yuzi burishgan, qoni qochgan, pastki jag'i qaltiray boshlagan Vronskiy otining qorniga poshnasi bilan tepib, yana jilovidan torta boshladi.

Lekin ot qimirlamadi, tumshug'ini yerga qo'yib, ma'noli bir nazar bilan xo'jayiniga tikilib yotaverdi.

Vronskiy boshini ushlab:

– Voy! Nima qilib qo'ydim! – deb faryod ko'tardi. – Bir yoqdan poygani ham boy berdim! Ayb o'zimda, sharmanda bo'ldim, buni kechirib bo'lmaydi! Oh, bu bechorani, jondan aziz otimni ham juvonmarg qildim! Voy-bo'y, nima qilib qo'ydim-a!

Olomon, doktor, feldsher va polk zobitlari u tomon yugurdi. O'zining baxtsizligiga, hech qanday shikast yemaganini, salomat ekanini sezdi. Ot belini sindirib olgan edi, uni otib tashlashga qaror qildilar. Vronskiy o'ziga berilgan savollarga javob qaytarolmas, hech kim bilan gaplashgisi kelmas edi. Boshidan uchib ketgan furajkasini ham olmay, orqasini o'girib poyga maydonidan boshi oqqan tomonga qarab ketdi. U o'zini baxtsiz deb bilardi. O'z umrida birinchi marta shunday og'ir baxtsizlikka uchragan edi, u sira-sira tuzatib bo'lmaydigan, o'zi aybdor bo'lgan bir baxtsizlik edi.

Yashvin uning furajkasini olib orqadan yetib keldi-da, o'rtog'ini uyiga eltib qo'ydi. Vronskiy faqat yarim soatdan keyingina o'ziga keldi. Lekin bu poyga xotirasi ko'nglida uzoq vaqtlargacha hayotining eng og'ir, eng azob beruvchi xotirasi bo'lib qoldi.

XXVI

Aleksey Aleksandrovichning xotini bilan bo'lgan muomalasi ilgariqday edi. Farqi shu ediki, Aleksey Aleksandrovich ish bilan ilgariqidan ko'proq band edi. Avvalgi yillardagi singari, bahor kelishi bilan qishki og'ir mehnati natijasida buzilgan salomatligini tuzatish uchun chet elga, suv muolajasiga jo'nadi-yu, odatdagicha, iyulda qaytib, darhol yana o'zining o'rganib qolgan ishiga zo'r g'ayrat bilan kirishib ketdi. Hamma vaqtdagiday, xotini chorboqqa ko'chib chiqdi, o'zi esa Peterburgda qoldi.

Knyaginya Tverskayanikidagi o'tirishdan keyin, uyida xotini bilan qilgan suhbatidan buyon u o'z shubhalari va rashki to'g'risida Annaga hech og'iz ochmagan edi, shu sababli uning xotiniga bo'lgan hozirgi muomalasida kimgadir taqlid qilib gapirishga o'rganib qolgan ohang o'ziga juda ham yarashib tushardi. Xotiniga birmuncha sovibroq qolgan edi. U o'sha kecha Anna quloq solishni istamagan

birinchi suhbat tufayli xotinidan andak norozi ko‘rinardi, xolos. Xotiniga qilgan muomalalarida dili ozor bo‘lganini ko‘rsatuvchi kichik bir alomatdan boshqa hech nima sezilmasdi. U xayolida Annaga qarab: «Men bilan ochiq gaplashishni xohlamading, mayli, o‘zingga qiyin, – deya yotganday bo‘lardi. – Endi sen o‘zing menga yalinasan, men bo‘lsam bu haqda og‘iz ochishni ham xohlamayman. O‘zingga qiyin», deb xayol surar, uning bu so‘zlari yong‘in o‘chirishga harakat qilib, bekorga urinib jahli chiqqan va: «Battar bo‘! Yonib o‘!» degan kishining so‘zlariga o‘xshab ketardi.

Xizmat ishlarida nozik tabiatli, aql-idrokli bo‘lgan bu kishi xotiniga bunday muomala qilish telbalikdan bo‘lak narsa emasligini tushunmasdi. Hozirgi ahvolini o‘zi uchun g‘oyat dahshatli bo‘lgani sababli ham tushunmasdi, shuning uchun o‘zining oilasiga, ya‘ni o‘z qalbida xotini bilan o‘g‘liga bo‘lgan hislari saqlangan qutini mahkam yopib, qulflab, muhrlab qo‘ygan edi. Bir mahallar o‘z o‘g‘liga mehribon bo‘lgan bu ota shu qish oxirlaridan boshlab undan sovidi, xotini singari unga ham kinoyaomuz muomalada bo‘la boshladi. «Ha! Yigitcha!» deb muomala qilardi unga.

Aleksey Aleksandrovich, idoramdagi ishim hech qachon mana shu yildagidek ko‘p bo‘lmagan deb o‘ylar, so‘zlardi, lekin shu yil o‘ziga o‘zi shuncha ko‘p ishlar o‘ylab topganini, bu esa xotiniga, oilasiga bo‘lgan hislari hamda ular to‘g‘risidagi o‘ylari solib qo‘yilgan qutini ochmaslik uchun yolg‘iz bir qurol ekanini, qutiga yashirilgan o‘ylari u yerda yotgan sari dahshatli tus olib borayotganini tushungisi kelmas edi. Biron odam topilib, xotining yurish-turishi to‘g‘risida nimalar o‘ylaganini so‘raguday bo‘lsa, bu mo‘min, muloym Aleksey Aleksandrovich hech narsa deb javob qilmas, balki bu narsani so‘ragan kishidan qattiq jahli chiqqan bo‘lardi. Shuning uchun xotining salomatligini so‘rashganda, Aleksey Aleksandrovichning yuzida allaqanday mag‘rurlik va qahru g‘azab alomatlari ko‘rinardi. Aleksey Aleksandrovich xotining yurish-turishi va his-tuyg‘ulari haqida hech nima o‘ylagisi kelmas, bu haqda hech bosh qotirmas edi.

Aleksey Aleksandrovichning doimiy chorbog‘i Petergofda edi, grafinya Lidiya Ivanovna ham odatda yoz fasllarini o‘sha yerda, qo‘shni chorbog‘da o‘tkazar, Anna bilan doim bordi-keldi qilib turardi. Bu yil grafinya Lidiya Ivanovna Petergofga borib turgani unamadi, Anna Arkadevnanikiga ham hech oyoq bosmadi: Annaning Betsi

hamda Vronskiy bilan yaqinlashgani yaxshi bo'lmaganini Aleksey Aleksandrovichga ishora qilgan edi. Aleksey Aleksandrovich uning so'zini taqqa to'xtatdi-yu, xotiniining har qanday gumon va shubhalardan yuqori ekanini aytib, o'shandan beri grafinya Lidiya Ivanov-nadan o'zini olib qochadigan bo'ldi. Kiborlar xotiniga olayib qaraganini ko'rmas, ko'rishni ham istamas, Betsi yashagan va Vronskiyning polki joylashgan lagerga juda ham yaqin bo'lgan Uarskoe Seloga ko'chib boraylik deb xotiniining hadeb qistaganiga tushunmas, tushu-nishni ham istamas edi. U bu narsalarni xayoliga keltirmas, kelishiga yo'l ham qo'ymas edi, lekin shu bilan birga, bu narsalarni hech mahal tan olmas, buni tan olish uchun isboti tugul, shubhasi ham bo'lmagani holda yana o'zini xotini aldab yurganini aniq bilar, shu tufayli o'zini nihoyatda baxtsiz hisoblardi.

Xotini bilan kechirgan sakkiz yillik baxtli hayoti mobaynida Aleksey Aleksandrovich boshqa vafosiz xotinlar va aldangan er-larni ko'rib necha marta o'ziga: «Qanday qilib shu ahvolga yo'l qo'yishadi? Bu yaramas ahvolga nechun xotima berishmaydi?» degan edi. Lekin hozir o'zining boshiga sho'r tushganda, bu ahvolga xotima berishni o'ylash u yoqda tursin, hatto buni tan olishni ham xohlamas, shuning uchun xohlamas ediki, bu ahvol g'oyat dahshatli, g'oyat g'ayritabiiy edi.

Aleksey Aleksandrovich chet eldan qaytib kelgandan beri chor-boqqa faqat ikki martagina bordi. Bir marta kelganda tushlik qilib, ikkinchi marta esa mehmonlar bilan kechqurun o'tirib qaytib ketdi, lekin avvalgi yillardagi singari bir marta ham yotib qolmadi.

Poyga kuni Aleksey Aleksandrovichning ishi nihoyatda ko'p edi, lekin u bugun qiladigan ishlarining jadvalini ertalabdan tuzib qo'ydi-da, tushlikni barvaqt qilib, darhol chorboqqa, xotiniining yo-niga jo'namoqchi va u yerdan poygaga bormoqchi bo'ldi; poygaga butun saroy ahli kelar, o'zining ham u yerda bo'lishi zarur deb bi-lardi. Xotiniining yoniga esa odob yuzasidan haftada bir marta borib turish kerak deb qaror qilgani uchungina bormoqchi edi. Bundan tashqari, o'zi joriy qilgan tartibga binoan, o'ning har o'n beshinchi kunida, ya'ni shu bugun ro'zg'or xarajatlari uchun xotiniga pul eltib berishi kerak edi.

U o'z fikrlarining jilovini tortib qo'yishga qodir bo'lgani uchun xotini to'g'risidagi narsalarni ipidan ignasigacha o'ylab chiqdi-yu,

lekin xotiniga taalluqli bo'lmagan narsalar ustida o'ylardan o'zini tiydi.

Bugun ertalab Aleksey Aleksandrovichning ishi nihoyatda ko'p bo'ldi. Kecha grafinya Lidiya Ivanovna hozir Peterburgda bo'lgan va Xitoyni aylanib chiqqan mashhur bir sayyohning kitobchasini xat bilan qo'shib yuborgan, ba'zi mulohazalarga ko'ra maroqli, zaruriy odam bo'lgan bu sayyohning o'zini ham qabul qilishini iltimos etgan edi. Aleksey Aleksandrovich kitobchani kechqurun o'qib chiqishga ulgurmay, ertalab o'qib tugatdi. Keyin arzgo'ylar kelishdi, ma'ruza eshitish, odamlarni qabul etish, ishga tayinlash, ishdan bo'shatishlar, mukofotlarni, nafaqalarni, maoshlarni taqsimlash, yozishmalar boshlandi, ya'ni Aleksey Aleksandrovich aytganidek, juda ko'p vaqtni oladigan kundalik ishlar boshlandi. Keyin shaxsiy ishlari bilan mashg'ul bo'ldi: doktor, ishlarini boshqaruvchi keldi. Ishlarini boshqaruvchi ko'p vaqtini olmadi. U Aleksey Aleksandrovichga zarur bo'lgan pulni topshirdi-da, bu yil tez-tez safar qililib turilgani natijasida ortiqcha xarajat qilingani, kirimdan chiqimning ko'p bo'lgani uchun ahvolning u qadar yaxshi emasligi haqida qisqacha hisob berdi. Lekin Peterburgda shuhrati ketgan va Aleksey Aleksandrovich bilan do'stlarcha aloqada bo'lgan doktor vaqtini ko'p oldi. Aleksey Aleksandrovich uni bugun kelar deb kutmagan edi, lekin qo'qqisdan kirib kelganini ko'rib hayron bo'ldi; keyin doktor Aleksey Aleksandrovichdan sog'-u salomatligini miridan sirigacha surishtirib, ko'kragiga quloq solgandan so'ng uni taqillatib, jigarini paypaslab ko'rgach, hayrati yana battar oshdi. Aleksey Aleksandrovich o'zining do'sti Lidiya Ivanovna Aleksey Aleksandrovichning sog'ligi bu yil yaxshi emasligini sezib, doktordan kasalni borib ko'rishni iltimos qilganidan bexabar edi. Grafinya Lidiya Ivanovna doktorga: «Mening yuzi xotirim uchun borib ko'ring», deganda, doktor:

– Rossiyaning yuzi xotiri uchun, grafinya, – deb javob bergan edi. Grafinya Lidiya Ivanovna esa:

– Topilmaydigan odam! – deb qo'ydi.

Doktor Aleksey Aleksandrovichning ahvolidan mamnun bo'lmadi. Jigari ancha kattalashganini, ishtahasining kamayganini va suv muolajasining hech qanday kor qilmaganini aniqladi. Iloji boricha ko'proq jismoniy harakat qilish, aqliy mehnatni mumkin qadar kamaytirish va eng muhimi, xafagarchilikka yo'l qo'ymaslik zarurligini

ta'kidlab ketdi, bu esa Aleksey Aleksandrovich uchun nafas olishni taqiq qilganday bir gap edi, doktor Aleksey Aleksandrovichda, uning sog'ligida tuzatib bo'lmaydigan bir o'zgarish paydo bo'libdi, degan noxush bir tushuncha qoldirib ketdi.

Doktor Aleksey Aleksandrovichning yonidan chiqib, ko'cha eshigi oldida o'zining yaxshi tanishi, Aleksey Aleksandrovichning ishlarini boshqaruvchi Slyudinga duch keldi. Ular universitetda birga o'qishgan edi, o'zaro kamdan kam ko'rishib turishsa ham, bir-birlarini juda hurmat qilishar, qadrdon edilar, shuning uchun doktor kasal to'g'risidagi fikrini hech kimga aytmasa ham Slyudinga ochiq-oydin ayta olardi.

– Uni ko'rganingizga juda xursand bo'ldim, – dedi Slyudin. – Mazasi qochib qoldi. Nazarimda... Xo'sh, qalay?

Doktor Slyudin boshi ustidan kucheriga qo'lini qimirlatib faytonini oldiga chaqirdi-da:

– Gap bunday, – dedi. Keyin oppoq qo'li bilan charm qo'lqopining barmog'ini cho'zib kiyarkan, so'zini davom ettirdi: – Gap bunday: torni tarang qilmasdan turib uzishga urinib ko'ring, qiyin bo'ladi, lekin oxirigacha tarang qilib torting-da, shu tarang tor ustiga barmog'ingiz bilan bosing – uziladi-ketadi. Aleksey Aleksandrovich esa qunt bilan, astoydil ishlash orqasida jon to'mirlari uzilar darajasiga yetib taranglashgan, tashqaridan tazyiq bor, juda og'ir tazyiq, – doktor qoshlarini ma'noli bir tarzda ko'tarib, so'zini tugatdi. Keyin eshik oldiga keltirilgan kareta tomon tushayotib ilova qildi: – Poygaga borasizmi? Ha, ha, albatta, vaqtni juda ko'p oladi, – deb javob berdi Slyudin aytgan gapni yaxshi eshitolmay qolgan doktor.

Juda ko'p vaqtni olgan doktordan keyin mashhur sayyoh kirib keldi, ana shundan so'ng Aleksey Aleksandrovich hozirgina o'qib tushirgan kitobchadan va bu sohaga doir avvalgi bilimidan foydalanib, bu sohada chuqur ma'lumotli ekani va ma'rifatining kengligi bilan sayyohni hayratga solib qo'ydi.

Sayyohning kelganini xabar qilishgani kirganlarida, hozir Peterburgda bo'lgan va Aleksey Aleksandrovich bilan gaplashishni istagan bir gubernator dvoryanlarining sardori ham kutib turganini ma'lum qilishgan edi. Sardor ketgandan so'ng ish boshqaruvchisi bilan kundalik ishlarni baqamti qilib olish va bir muhim, jiddiy ish bilan olimaqom

bir shaxs yoniga borib kelish ham zarur edi. Shuning uchun Aleksey Aleksandrovich faqat soat beshda, o'zi tushlik qiladigan vaqtdagina qaytib keldi-da, ish boshqaruvchi bilan birga tushlik qilib, uni o'zi bilan birga chorboqqa, so'ngra poygaga taklif qildi.

Aleksey Aleksandrovich qilayotgan ishini o'ylamasdan, xotini bilan ko'rishganda yonida yana bir kishi bo'lishini xohlar edi.

XXVII

Anna katta oyna oldida turib, Annushka yordami bilan ko'ylagiga oxirgi bantni qadayotganda, tashqaridan mayda shag'allarni g'ijillatib kelayotgan g'ildirak tovushini eshitdi.

Anna: «Betsining kelishiga hali barvaqt», deb o'yladi-da, derazadan qarab, karetni va undan chiqib kelayotgan Aleksey Aleksandrovichning qora shlapasi bilan ko'raverib ko'ziga tanish bo'lib qolgan quloqlarini ko'rdi. Anna: «Bemavrid kelganini qarang-a, nahotki, yotib qolsa-ya?» deb o'yladi, erining yotib qolishi orqasida yuz beradigan ahvol o'ziga shu qadar dahshatli, qo'rqinchli ko'rindi, lekin bir daqiqa ham o'ylab-netib o'tirmay, yashnab, porloq chehra bilan uni qarshilagani chiqdi va allaqachon o'rganib qolgan yolg'onchilik, aldanchilik kayfiyatiga berilib, nima deyishini o'zi ham bilmay, gapira boshladi.

– Kelganing juda yaxshi bo'ldi-da! – dedi Anna, qo'lini eriga uzatib va uy kishisi hisoblangan Slyudinni tabassum bilan salomlab, keyin tilyog'lamalik qilib: – Bugun yotib qolarsan deb umid qilaman. Xo'p, endi birga jo'naymiz. Hay, attang, Betsiga va'da qiluvdim-da, u meni olib ketmoqchi bo'lgan edi, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich Betsining nomini eshitib yuzini tirishtirdi-da, odatdagi hazilkash ohangda:

– O, unday bo'lsa ayrilmas do'stlarni bir-biridan ayirmayman, – dedi. – Biz Mixail Vasilyevich bilan birga boramiz. Doktorlar ham meni piyoda yuring deb maslahat qilishyapti. Yo'lda, suv muolajasini olyapman, deb xayol qilib ketaman.

– Shoshmasang ham bo'ladi, – dedi Anna. – Choy ichasizlarmi? – Anna qo'ng'iroq chaldi-da:

– Choy olib kiring, innaykeyin, Seryojaga Aleksey Aleksandrovichning kelganlarini ayting, – dedi. – Xo'sh, salomatliging qanday? Mixail Vasilyevich, biznikiga anchadan beri kelmaysiz, bal-

konni bir chiqib ko‘ring, qanday yaxshi qilib qo‘ydim, – derdi goh unga, goh bunga qarab.

Anna juda sodda, juda tabiiy qilib gapirsa ham, lekin haddan ziyod ko‘p, haddan tashqari tez gapirdi. Buni o‘zi ham sezib turardi, ayniqsa, Mixail Vasilyevichning sinovchi nazar bilan qarab turganini ko‘rib, o‘ziga razm solayotganini payqadi.

Mixail Vasilyevich darhol o‘rnidan turib balkonga chiqdi.

Anna erining yoniga o‘tirib:

– Judayam mazang yo‘q ko‘rinadi, – dedi.

– Ha, bugun do‘xtir kelib, bir soat vaqtimni oldi, – dedi Aleksey Aleksandrovich. – Chamamda, uni do‘stlarimdan birontasi yuborgan-ku, salomatligim go‘yo qimmatli narsaday...

– Shoshma, do‘xtir nima dedi?

Anna undan sog‘ligini, ishlarining qanday borayotganini so‘rab, dam olishga va o‘z yoniga ko‘chib kelishga ko‘ndirmoqchi bo‘ldi.

Anna xushchaqchaqlik bilan bidirlab, ko‘zlarini g‘alati porillatib turib gapirardi, lekin Aleksey Aleksandrovich uning gapidagi ohangga hech qanday ma‘no bermadi. U Annaning so‘zlariga quloq solib, bu so‘zlarni bevosita, tom ma‘nosi bilan tushundi. Shuning uchun hazilga olib, oddiy bir tarzda javob qildi. Bu gaplarning hammasida favqulodda bir narsa bo‘lmasa hamki, Anna bu qisqa mojaroni keyincha xijolat tortmasdan eslayolmasdi.

Seryojani murabbiyasi boshlab kirdi. Agar Aleksey Aleksandrovich unga diqqat bilan razm solganda edi, Seryojaning avval otasiga, keyin esa onasiga qo‘rqibgina, parishon bir nazar bilan qaraganini payqab olardi. Lekin Aleksey Aleksandrovich bu narsani ko‘rishni istamadi, shuning uchun ko‘rmadi.

– Ha, yigitcha! Iye, katta kishi bo‘p qopti-ku. Xush ko‘rdik, yigitcha, – dedi-yu, yuragi po‘killab turgan Seryojaga qo‘l berdi.

Ilgarilari ham otasidan hayiqadigan Seryoja endi, Aleksey Aleksandrovich uni yigitcha deb atagandan va Vronskiyning do‘stmi-dushmanmi ekanini aniqlayolmay boshi qotib yurgandan so‘ng otasidan yotsiray boshladi. Seryoja xuddi himoya talab qilayotgandek onasiga qaradi. U onasining yonidagina o‘zini yaxshi his qilardi. Aleksey Aleksandrovich murabbiya bilan gaplashayotganda o‘g‘lini yelkasidan ushlab turgan edi, Seryoja shu

qadar yomon, noqulay ahvolga tushdiki, Anna uning yig'lagisi kelayotganini ko'rdi.

O'g'li kirganda Annaning yuzi qizarib ketdi; u Seryojaning o'zini noqulay his etayotganini sezib, darhol o'midan turdi-da, yelkasidan Aleksey Aleksandrovichning qo'lini olib, o'g'lini o'pdi-yu, uni ayvonga boshlab chiqib, o'zi darrov qaytib kirdi.

Anna soatiga qarab:

– Vaqt bo'lib qoldi-ku, – dedi, – lekin Betsidan haligacha darak yo'q!..

Aleksey Aleksandrovich:

– Ha, vaqt bo'lib qoldi, – dedi-da, o'midan turib, yana barmoqlarini bir-biriga kirishtirdi-yu, qisirlatdi. – Bu yerga kelishimdan yana bir maqsad senga pul tashlab ketish edi, – dedi. – Nimagaki, quruq qoshiq og'iz yirtar. Pul kerakdir, deyman?

– Yo'q, kerakmas... ha, kerak, – dedi Anna erining yuziga qaramasdan; shu on to quloqlarigacha qizarib ketdi. – Ha, aytgandek, poygadan keyin shu yerga kelarsan.

– Ha, albatta! – deb javob qildi Aleksey Aleksandrovich. So'ngra derazadan qaradi-da, yaqinlashib kelayotgan va ixchamgina kuzovi juda ham baland o'rnatilgan ingliz fasonli faytonni ko'rib: – Ana, Petergofning chekkasidagi guli knyaginya Tverskaya ham kelib qoldilar! – deb ilova qildi. – Odamning ko'zini qamashtiradi-ya! Nihoyatda go'zal! Xo'p, biz ham ketdik.

Knyaginya Tverskaya faytonidan chiqmadi, faqat shtiblet kiygan, yelkasiga yengsiz kiyim tashlagan va qora shlapali yugurdagigina eshik yonida aravadan sakrab tushdi.

– Yaxshi qolinglar, men ketdim, – dedi-yu, Anna o'g'lini o'pib, Aleksey Aleksandrovichning yoniga keldi, unga qo'lini uzatib: – Yaxshi qilding kelib, rahmat, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich uning qo'lini o'pdi. Anna:

– Xo'p bo'lmasa, yaxshi qol. Qaytishda choy ichib ketsang, juda soz bo'ladi! – dedi-da, kulimsirab, chaqchaqlab chiqib ketdi. Lekin erining ko'z o'ngidan nariroq ketgandan keyin qo'lga hali uning lablari tekkanini esladi-yu, jirkanib, seskanib ketdi.

XXVIII

Aleksey Aleksandrovich poyga bo'ladigan joyga yetib kelganda, Anna butun olimaqom kiborlar to'plangan shiyponda Betsi bilan yonma-yon o'tirgan edi. U erini uzoqdan ko'rdi. Ikki kishi, ya'ni eri bilan oshiqi Anna hayotining ikki markazini tashkil qilar, Anna esa ularning yaqinligini tashqi sezgi a'zolari yordamisiz ham sezib turardi. U erining yaqinlashib kelayotganini uzoqdanoq sezib, chayqalib turgan olomon to'ldini orasidagi erini beixtiyor kuzata boshladi. Anna uning, goh yaltoqlanib ta'zim qilayotganlarga iltifot bilan javob berib, goh o'ziga teng martabali zotlar bilan do'stona, parishonxotir salomlashgani, goh quloqlarining uchini bosib turgan kattakon shlapasini qo'liga olib, zo'ravonlarning bir qarab qo'yishlariga muntazir bo'lib, shiyponga yaqinlashib kelayotganini ko'rib turardi. Anna erining butun bu tarzi usulini yaxshi bilar, ular Annaning nafratini qo'zg'ar edi. «Faqat shuhratparastlik, faqat mansabparastlik – uning yuragida bulardan boshqa hech nima yo'q, – deb o'ylardi Anna, – balandparvoz mulohazalar, ma'rifat va ma'rifatga bo'lgan sevgisi, din-diyonat – bularning hammasi baland martabaga erishish yo'lidagi qurollardir, xolos».

Erining xonimlar turgan shiyponga tikilishidan (u Annaga to'ppa-to'g'ri qarayotgan bo'lsa ham, lekin lentalar, dokalar, patlar, soyabonlar va gullar dengizida xotinini taniyolmasdi) Anna o'zini qidirayotganini angladi, ammo Anna jo'rttaga o'zini ko'rmaganga soldi.

– Aleksey Aleksandrovich! – deb qichqirdi knyaginya Betsi. – Chamamda, xotiningizni ko'rmayotganga o'xshaysiz, mana u!

Aleksey Aleksandrovich o'zining sovuq tabassumi bilan jilmayib:

– Bu yer shu qadar serhasham, yaltiroqki, odamning ko'zi qamashadi, – dedi-yu, shiyponga qarab yurdi. Er kishi hozirgina ko'rgan xotini bilan uchrashganda qanday jilmayishi kerak bo'lsa, u ham xotiniga shunday jilmaydi-da, knyaginya va boshqa tanishlar bilan salomlashib, har biriga munosib iltifotda bo'ldi, ya'ni xonimlar bilan hazillashdi, erkaklar bilan salom-alik qildi. Pastda, shiypon yonida Aleksey Aleksandrovich hurmat qilgan va aql-idroki ham-

da ma'lumoti bilan mashhur bo'lgan general-ad'yutant turgan edi. Aleksey Aleksandrovich shu bilan suhbatga kirishib ketdi.

Poygalar o'rtasidagi tanaffus vaqti bo'lgani uchun suhbatlariga hech narsa xalaqit bermas edi. General-ad'yutant poygani qoralardi. Aleksey Aleksandrovich esa unga qarshi chiqib, poygani yoqlardi. Anna erining bitta ham so'zini qulog'idan qochirmaslikka tirishib, uning bir me'yordagi ingichka ovozi eshitar, uning har bir so'zi o'ziga soxta ko'rinar, quloqlariga yoqmas edi.

To'rt chaqirimlik to'siqli poyga boshlanganda esa Anna oldinga egildi-da, otining oldiga kelayotgan, keyin otiga mingan Vronskiydan ko'zlarini olmay qarab turdi va ayni zamonda jag'i tinmagan erining jirkanch ovoziga quloq solib o'tirdi. Anna Vronskiydan xavotir olib azob chekar, lekin jag'i tinmagan erining o'ziga tanish ohangdagi gaplaridan, muloyim tovushidan beshbattar iztirob chekardi.

«Men yaramas xotinman, halok bo'lgan xotinman, – deb o'ylardi Anna, – lekin yolg'on gapirishni yomon ko'raman, yolg'on gapga chidab turolmayman, ammo uning (erining) rizqi-ro'zi yolg'on. U hamma narsani biladi, hamma narsani ko'rib turadi, agar u shunchalik og'ir-vazmin gapirayotgan bo'lsa, ko'nglida qanday his, qanday tuyg'ular bor ekan? Meni o'ldirsaydi, Vronskiyini o'ldirsaydi, unda men uni hurmat qilgan bo'lardim. Ammo unday emas, unga faqat yolg'on-u odob kerak», deb o'zicha so'zlar edi Anna, lekin eridan nima talab qilishni, erini qay holda ko'rishni xohlaganini o'ylamas edi. Aleksey Aleksandrovichning Annani asabiylashtirayotgan hozirgi ezmaligi undagi ichki hayajon va tashvishlarning bir ifodasigina ekanini Anna anglamas edi. Yiqilib tushgan bola og'riqni bosish uchun irg'ishlab mushaklarini harakatga keltirganidek, Aleksey Aleksandrovichga ham, xotini yonida, Vronskiy yonida va uning nomi har doim tilga olinib, butun diqqatini o'ziga jalb qilgan bir paytda xotini to'g'risidagi fikr-o'ylardan o'zini chalg'itish uchun aqliy harakat lozim edi. Bola uchun irg'ishlash naqadar tabiiy bir holat bo'lsa, Aleksey Aleksandrovich uchun ham chiroyli va ma'noli gapirish shu qadar tabiiy holat edi. U:

– Harbiy, suvoriy poygalardagi xavf-xatar ham poyganing zaruriy shartlaridandir. Agar Angliya o'zining harbiy tarixida suvoriy as-

karlarining porloq muvaffaqiyatlaridan dam urishga qodir bo'lsa, bu faqat shuning sharofati orqasidaki, Angliya tarixi jihatdan o'zida bu kuchni ham jonivorlarda, ham insonlarda taraqqiy toptirgan. Mening fikrimcha, sportning ahamiyati juda katta, ammo biz narsalarni faqat yuzaki, zohiriy tomondangina ko'rishga odatlanib qolganmiz, – derdi.

– Yuzaki demang-e! – dedi knyaginya Tverskaya. – Bitta zobit yiqilib, qovurg'asini sindirib olganmish-ku.

Aleksey Aleksandrovich faqat tishlarining oqini ko'rsatish uchun kuldi, ammo uning kulgisi bundan boshqa hech nimani ifoda etmas edi.

– Buni zohiriy emas, ichki, botiniy deb faraz qilaylik, knyaginya, – dedi Aleksey Aleksandrovich. – Lekin gap bunda emas, – deb tag'in o'zi jiddiy mavzuda gaplashib turgan generalga yuzlandi. – Shunisi ham esingizda bo'lsinki, poygada qatnashayotgan chavandozlar bu hunarni o'zlari tanlab olgan harbiy kishilardir, xo'p deyavering, har bir ishning yomon tomoni bo'lgandek, yaxshi tomoni ham bo'ladi. Poyga harbiy kishining bevosita vazifasi hisoblanadi. Mushtlashish va ispan toreadorlarinikiga¹ o'xshash bema'ni sport – vahshiylik alomatidir. Lekin ixtisoslashtirilgan sport esa taraqqiyot nishonasidir.

– Yo'q, endi hech poygaga kelmayman, odamning yuragini o'ynatib yuborarkan, – dedi knyaginya Betsi. – Shunaqami, Anna?

– O'ynatishga-ku o'ynatadi-ya, lekin odam ko'zini uzolmaydi, – dedi yana boshqa bir xonim. – Agar men Rim qizi bo'lganimdami, sirk tomoshalarining bittasigayam bormay qolmasdim.

Anna churq etmay, durbinni ko'zlaridan olmay, bir nuqtadan ko'z uzmay o'tirardi.

Shu payt shiypondan bir novcha general o'taverdi. Aleksey Aleksandrovich gapdan to'xtadi-yu, shoshib, lekin sipogarchilik bilan o'rnidan turdi-da, o'tib borayotgan harbiy kishiga ikki bukilib ta'zim qildi.

– Ha, siz poyga chopmaysizmi? – deb general hazillashgandi, Aleksey Aleksandrovich hurmat bilan:

– Men chopadigan poyga mushkulroq, – deb javob qildi.

¹ *Toreador* – buqa bilan kurashuvchi kishi (*tarj.*).

Bu javobda hech qanday chuqur ma'no bo'lmasa hamki, general aqlli odamdan aqlli javob olgan, la pointe de la sauce-ni¹ tamomila payqagan odam tusini oldi.

Aleksey Aleksandrovich yana so'zida davom etdi:

– Bu masalaning ikki tomoni bor: bir tomonida poyga qatnashchilari tursa, ikkinchi tomonida tomoshabinlar. Bu xil tomoshaga ishqibozlik – tomoshabinlarning saviyasi pastligini ko'rsatadigan eng to'g'ri alomatdir, bu haqdagi fikringizga qo'shilaman, lekin...

– Knyaginya, keling, garov o'ynaymiz! – Stepan Arkadichning pastdan Betsiga qarab aytgan ovozi eshitildi. – Siz kimga pul tikasiz?

– Biz Anna ikkovimiz knyaz Kuzovlyovga tikamiz, – deb javob berdi Betsi.

– Men esam Vronskiyga tikaman, bir juft qo'lqopdan.

– Bo'пти!

– Juda chiroyli-a?

Yonidagilar gaplashib bo'lgunicha Aleksey Aleksandrovich jim turdi, keyin yana darhol so'zga kirishdi.

– Fikringizga qo'shilaman, lekin mardona o'yinlar... – deya so'zini davom ettirmoqchi bo'lgandi, shu payt birdan chavandozlarga komanda berilib qoldi-yu, hamma suhbat taqa-taq uzildi-qoldi.

Aleksey Aleksandrovichning ham gapi og'zida qoldi, hamma o'rnidan qo'zg'alib, anhor tomonga tikildi. Aleksey Aleksandrovich poygaga qiziqmas edi, shuning uchun chavandozlarga qaramay, parishonxotir, horg'in ko'zlarini tomoshabinlar ustida yugurtira boshladi. Ko'zlari borib Annaga tushdi.

Annaning rangi qochgan yuzida jiddiy bir ifoda bor edi. Aftidan, u bir kishidan bo'lak hech kimni, hech nimani ko'rmas edi. Qo'li asabiy bir holda yelpig'ichini qisar, xuddi nafasi to'xtab qolgandek ko'rinardi. Aleksey Aleksandrovich xotiniga bir zumgina qarab turgandan so'ng yuzini o'girib, boshqalarga qaray boshladi.

«Ha, bu xonim ham, boshqalari ham qattiq hayajonda, albatta, shunday bo'lishi juda tabiiy», deb o'yladi Aleksey Aleksandrovich. Uning Annaga qaragisi kelmasdi, lekin shunday bo'lsa ham, ko'zlari o'z-o'zidan Anna tomonga qaragisi kelaverardi. Shundan keyin Aleksey Aleksandrovich yana Annaning yuziga tikilardi, unda

¹ Uning askiyasini (*frans.*).

ochiq-oydin ko‘rinib turgan ifodalarni uqmaslikka tirishar, lekin bilgisi kelmagan va uning yuzida ravshan ko‘rinib turgan ifodalarni g‘ayriixtiyoriy ravishda dahshat bilan o‘qir edi.

Kuzovlevning anhorda birinchi yiqilishi hammani hayajonga soldi, lekin Aleksey Aleksandrovich Annaning qoni qochgan, tantana qilib turgan yuzidan xotini tikilib turgan kishisining yiqilmaganini ravshan ko‘rdi. Maxotin bilan Vronskiy baland g‘ovdan sakrab o‘tishganlaridan so‘ng ular orqasidan kelayotgan bir zobit kallasi bilan tushib, til tortmay o‘lganda va butun olomon dahshatga kelib, shovqin ko‘targanda, Aleksey Aleksandrovich bu fojiani Anna payqamay qolganini, faqat tevarakdagi gap-so‘zlardangina zo‘rg‘a tushunganini ko‘rdi. Lekin Aleksey Aleksandrovich Annaga tobora tez va qattiq razm solib qaray boshladi. Anna butun borlig‘i bilan Vronskiyning tomosha qilishga berilib ketgan bo‘lsa hamki, yon tomondan erining sovuq ko‘zlari o‘ziga tikilib qarayatganini sezib turardi.

U bir zungina qayrilib, eriga savol nazari bilan qaradi-yu, xiyol xo‘mrayib, yana yuzini teskari o‘girib oldi.

Anna shu qarashda: «Ax, menga baribir», degandek bo‘ldi-da, ortiq eriga qaramadi.

Poyga qutlug‘ kelmadi, o‘n yetti chavandozning yarmidan ko‘pi yiqilib, mayib bo‘ldi. Poyga oxiriga yaqinlashganda odamlar qattiq hayajon ichida qoldi; podsho poygadan norozi bo‘lgani uchun bu hayajon yana beshbattar kuchaydi.

XXIX

Hamma o‘z noroziligini baralla aytar, hamma kim tomonidan-dir aytilgan: «Endi sher o‘ynatmagan sirk qoldi, xolos», degan gapni takrorlar, dahshat ichida guvillardi, shuning uchun Anna Vronskiyning yiqilganini ko‘rib baland ovoz bilan «oh» deb yuborgan bo‘lsa, bunda hech kim g‘ayrioddiy bir narsa bor deb o‘ylayolmas edi. Lekin shundan keyin Annaning yuzida odob doirasiga sig‘maydigan bir o‘zgarish sodir bo‘ldi. U o‘zini yo‘qotib qo‘yib, tuzoqqa ilingan qushday, o‘zini har yoqqa ura boshladi, goh o‘rnidan qo‘zg‘alib qayoqqadir bormoqchi bo‘lardi, goh Betsiga yuzlanib gapirardi.

– Yur, boraylik, yur, boraylik, – dedi to‘xtovsiz.

Lekin uning gapi Betsining qulog'iga kirmasdi, u panjaradan pastga egilib, o'zining yoniga kelgan general bilan gaplashayotgan edi.

Aleksey Aleksandrovich Annaning yoniga keldi-da, hurmat bilan qo'lini uzatdi.

– Agar xohlasangiz, ketaylik, – dedi u fransuzchalab, lekin Anna generalning gapiga quloq solib turgan edi, shuning uchun erini ko'rmay qoldi.

– Buyam oyog'ini sindirib oldi, deyishyapti, – dedi general. – Bu qanday bedodlik, a!

Anna eriga javob qilmasdan, durbinini ko'zlariga tutdi-da, Vronskiy yiqilgan joyga qaray boshladi, lekin u er shu qadar uzoq, odamlar shu qadar ko'p to'plangan ediki, hech narsani ko'rib bo'lmasdi. Anna durbinini tushirib, o'sha yoqqa bormoqchi bo'lgan edi, shu payt bir zobit ot choptirib kelib, podshoga allanima to'g'risida ma'ruza qila boshladi. Anna bo'ynini cho'zib quloq soldi. Keyin akasini ko'rdi-yu:

– Stiva! Stiva! – deb qichqirdi.

Lekin akasi eshitmadi. Anna yana shiypondan tushib ketmoqchi bo'ldi.

Aleksey Aleksandrovich Annaning qo'liga qo'lini tegizib:

– Agar ketishga xohishingiz bo'lsa, yana bir marta xizmatimni taklif qilaman, – dedi.

Anna undan jirkanganday o'zini chetga tortdi-da, yuziga ham qaramasdan:

– Yo'q, yo'q, menga tegmang, men qolaman, – deb javob berdi.

Hozir u Vronskiy yiqilgan joydan bir zobit shiypon tomon chopib kelayotganini ko'rdi. Betsi dastro'molini silkitib, unga ishora qildi. Zobit chavandozning sog'-salomatligini, otining esa beli singanini xabar qildi.

Anna bu xabarni eshitib, darhol joyiga o'tirdi-yu, yuzini yelpig'ich bilan berkitib oldi. Aleksey Aleksandrovich uning yig'layotganini, ko'z yoshlarini to'xtatish u yoqda tursin, ho'ngrab yig'lashdan o'zini tiyolmayotganini, ko'kragi ko'tarilib-tushib turganini ko'rdi. Aleksey Aleksandrovich Anna o'ziga kelguncha uni o'z gavdasi bilan to'sib turdi.

Bir necha daqiqadan so'ng u yana Annaga murojat qilib:

– Uchinchi marta uyga qaytaylik deb xizmatimni taklif qilaman, – dedi.

Anna unga anqovsirab qarab turar, lekin nima javob qilishni bilmas edi. Knyaginya Betsi joniga oro kirdi.

– Yo‘q, Aleksey Aleksandrovich, Annani bu yerga men olib kelganman, uyiga eltib qo‘yishga va‘dayam qilganman, – deb Betsi o‘rtaga tushdi.

Aleksey Aleksandrovich odob bilan kulimsiradi, keyin knyaginyaning ko‘zlariga eb yuboradigandek qarab turib:

– Meni kechirasiz, knyaginya, – dedi, – nazarimda, Anna betob ko‘rinadi, shuning uchun men bilan ketishini istardim.

Anna qo‘rqa-pisa alanglab qaradi-da, itoatkorlik bilan o‘rnidan turib, qo‘lini erining qo‘li ustiga qo‘ydi.

– Unga odam yuboraman, ahvolini bilib, darhol senga xabar qilaman, – deb shipshidi Betsi.

Shiypondan chiqaverishda Aleksey Aleksandrovich har mahalgiday ro‘para kelgan tanishlari bilan to‘xtab gaplashar, Anna ham, har mahalgiday, savollarga javob berishga, o‘zi ham gapirishga majbur bo‘lardi, lekin uning hushi hozir joyida emas edi, eri bilan ham xuddi tushdagidek qo‘ltiqlashib borardi.

«Biron yerini mayib qilib olganmikan? Shu gap to‘g‘rimikan?» deb o‘ylardi Anna.

Anna Aleksey Aleksandrovichning karetasiga churq etmay o‘tirdi, boshqa kareta orasidan o‘tib ketayotganlarida ham churq etgan ovoz chiqarmadi. Aleksey Aleksandrovich butun bu ko‘rgan narsalariga qaramay, xotining hozirgi ahvoli ustida bosh qotirishni o‘ziga ep ko‘rmasdi. U faqat tashqi alomatlarinigina ko‘rdi. U faqat Annaning o‘ziga yarashmagan qiliq qilganinigina ko‘rdi va buni unga aytishni o‘z burchi deb bildi. Lekin faqat shu narsanigina aytib, qolganini ichiga yutish uning uchun juda ham og‘ir edi. Xotining o‘ziga yarashmaydigan qiliq qilganini aytish uchun og‘iz juftladi-yu, lekin ixtiyorsiz boshqa narsalarni aytib yubordi.

– Hammamiz ham shunday dahshatli tomoshalarga xo‘p o‘chmizda, – dedi u. – Mening sezishimcha...

– Nima? Tushunmadim, – dedi Anna nafratlanib.

Aleksey Aleksandrovich dili og‘rib, darhol ko‘nglidagi gapga o‘tdi.

– Sizga aytib qo‘yishim kerakki, – deb gap boshladi.

Anna: «Ana, ora ochiq bo‘ladi endi», deb o‘yladi-yu, birdan dahshatga tushdi.

– Sizga aytib qo‘yishim kerak, siz hozir o‘zingizga yarashmaydigan qiliq qildingiz, – dedi u fransuzchalab.

Anna shartta o‘g‘irilib, ilgarilari qandaydir yashirin bir sirni ifodalovchi sho‘xlik bilan emas, balki yuragiga tushgan qo‘rquvni zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yashirolgan qat‘iy bir qiyofada ko‘zlariga tikilib turib:

– O‘zimga yarashmaydigan nima qiliq qilibman? – deb so‘radi baland ovoz bilan.

Aleksey Aleksandrovich kucher ro‘parasidagi ochiq derazachaga imo qilib:

– Esingizdan chiqmasin, begona odam bor, – dedi.

Shundan keyin u o‘rnidan sal turib, derazaning oynasini ko‘tarib qo‘ydi.

– Sizga qaysi qilig‘im yoqmadi? – deb takrorladi Anna.

– Chavandozlardan biri yiqilganda hayajoningizni yashirolmaganingiz.

Aleksey Aleksandrovich u e‘tiroz qiladi deb kutdi, lekin Anna ro‘parasiga tikilgan bo‘yicha jim borar edi.

– Men sizdan, o‘zingizni kiborlar orasida shunday tutingki, zaharli tillar ham sizga qarshi biron narsa deyolmasin, deb bir qur iltimos qilgandim. Ichki munosabatlarimiz haqida gapirgan vaqtlarim ham bo‘lgan edi; hozir u narsalar haqida og‘iz ochayotganim yo‘q. Hozir tashqi munosabatlarimiz to‘g‘risida gapiryapman. Siz o‘zingizni yaxshi tutmadingiz, xohlardimki, bu narsa ortiq takrorlanmasa.

Anna eri aytgan so‘zlarning yarmini eshitmadi, u yeridan qo‘rqib, Vronskiyning mayib bo‘lmagani to‘g‘rimikan-yo‘qmikan, deb o‘ylab o‘tirardi. «Chavandoz omon qolib, otining esa beli sindi», deganlarida Vronskiyini aytishgan edimikan? Aleksey Aleksandrovich gapini gapirib bo‘lganda, Anna yasama bir istehzo bilan faqat kulimsirabgina qo‘ydi, ammo hech nima deb javob qilmadi, chunki u aytgan so‘zlarni tugal eshitmagan edi. Aleksey Aleksandrovich dadil gap boshlagan bo‘lsa ham, aytayotgan narsalarining ma‘nosiga o‘zi yaxshi tushungandan keyin, Annani qamrab olgan qo‘rquv o‘ziga ham ta‘sir qildi. Aleksey Aleksandrovich Annaning lablaridagi tabassumni ko‘rib, g‘alati bir xato fikrga keldi.

«Shubhalanganimga mazax qilib kulimsirayapti. Ha, u gal aytgan soʻzlarini yana yuzimga soladi, shubhalarimni nooʻrin deydi, gaplarimni kulgili deydi».

Hozirda, haqiqatni ochib tashlash payti kelganda, u Annaning, yana oʻsha safardagidek, gumonlari kulgili ekanini, ularda hech qanday asos yoʻqligini aytishini, masxara bilan javob berishni xohlar, faqat shuni, shunigina koʻzlar edi. Koʻrgan bilganlari shu qadar dahshatli ediki, hozir har qanday narsaga ishonishga tayyor edi. Lekin Annaning qoʻrquvdan soʻlgan ruhsiz yuzidagi ifoda hozir uning yolgʻon gapirishidan dalolat bermas edi.

– Balki men yanglishayotgandirman, – dedi Aleksey Aleksandrovich. – U holda meni kechirishingizni iltimos qilaman.

Anna uning sovuq yuziga hayajon bilan qarab:

– Yoʻq, yanglishayotganingiz yoʻq, – dedi sekingina. – Xato qilganingiz yoʻq. Toʻgʻri, men hayajonga tushdim, hayajonga tushmay turolmasdim. Hozir ham qulogʻim sizda-yu, xayolim unda. Men uni yaxshi koʻraman, men uning maʼshuqasiman, ortiq chidayolmayman, sizdan qoʻrqaman, sizdan nafratlanaman... Mana endi bilganingizni qiling.

Anna karetaning bir burchiga oʻzini otdi-da, qoʻllari bilan yuzini toʻsib, piq-piq yigʻlab yubordi. Aleksey Aleksandrovich qimir etmadi, bir nuqtaga qaraganicha qotib qoldi. Lekin butun yuziga qotib yotgan oʻlik yuzining tamgʻasi tushib qoldi va bu tamgʻa to chorboqqa yetgunlaricha ham oʻzgarmadi. Uyga yaqinlashganlarida ham u ayni ifoda bilan boshini Anna tomonga oʻgirdi.

– Shundogʻ! Lekin mening nomusimni saqlab qoladigan chorani koʻrgunimga va, – shu yerda uning ovozi qaltirab ketdi, – va buni sizga xabar qilgunimga qadar xulq-odobning tashqi shartlariga rioya qilib turishingizni oʻtinaman.

U karetdan chiqib, keyin Annani tushirdi. Xizmatkorlar koʻzida jimgina Annaning qoʻlini qisdi-da, yana karetaga oʻtirib, Peterburgga joʻnab ketdi.

U joʻnagandan soʻng Betsining yugurdagi Annaga xat olib keldi: *«Alekseyga odam yuborib, salomatligini soʻratdim, u salomatligini, hech yeri mayib boʻlmaganini, lekin juda ham xafa ekanini yozib yuboribdi».*

«Demak, keladi! – deb o‘yladi Anna. – Erimga hammasini ochiq aytganim ko‘p yaxshi bo‘ldi».

Anna soatiga qaradi. Yana uch soat bor edi, u so‘nggi uchrashuv tafsilotini eslab qoni qizidi, butun vujudi o‘t bo‘lib yondi.

«Yo Rabbiy, naqadar yorug‘! Bu yog‘du yurakka vahima soladi, lekin men uning diydoriga mushtoqman va bu ajoyib yog‘duga oshiqman... Erim-chi! Ha-ya... Xudoga shukur, u bilan orani ochti qildim».

XXX

Odamlar jam bo‘ladigan hamma joylardagi singari, Shcherbatskiylar kelgan kichkina nemis suv shifoxonasida ham bu jamoat orasidagi munosabat muayyan bir shaklga kirdi, natijada uning har bir a‘zosi aniq, doimiy o‘rin ishg‘ol qildi. Suv zarrasi sovuqda har doim ma‘lum va o‘zgarmas qor kristali shaklini olgani kabi, suv muolajasiga kelgan har bir yangi kishi ham xuddi shu taxlitda darhol o‘ziga munosib o‘rin olardi.

Fyurst Shcherbatskiy zamt gemalin und toxtex¹ tushgan uylariga, o‘z nomlariga va topgan tanishlariga qarab o‘zlariga ajratilgan muayyan o‘rinni darhol ishg‘ol qildilar.

Bu yil suv muolajasiga Germaniya podshosining qizi ham kelgan edi, natijada jamiyat ichidagi munosabatning muayyan shaklga kirish jarayoni tezlashdi. Knyaginya o‘z qizini mutlaqo podsho qiziga tanishtirmoqchi bo‘lib, ertasiqayoq bu marosimni o‘tkazdi. Kiti Parijdan olingan g‘oyat sodda, ya‘ni boshqacha so‘z bilan aytganda, g‘oyat ziynatli yozgi ko‘ylagida juda past egilib, viqor bilan ta‘zim qildi. Podsho qizi Kitiga: «Umid qilamanki, bu chiroyli chehra yana yaqinda qizil gulday ochilib ketadi», dedi. Ana shu damdan boshlab Shcherbatskiylar hayoti muayyan va mustahkam yo‘lga tushdi, endi bu yo‘ldan chetga chiqishning iloji yo‘q edi. Shcherbatskiylar bir ingliz ledisining oilasi bilan, bir nemis grafinyasi va uning so‘nggi urushda yaralangan o‘g‘li bilan, bir shved olim hamda M.Canut va uning singlisi bilan ham tanishib oldilar. Lekin Shcherbatskiylar istar-istamas moskvalik xonimlardan Marya Yevgeniyevna Rtishcheva va uning qizi bilan (Kiti bu qizni yoqtirmas edi, chunki u ham, Kiti

¹ Knyaz Shcherbatskiy xotini va qizi bilan (*nem.*).

singari, muhabbat balosiga yo'liqqan edi) hamda bir moskvalik polkovnik bilan ulfat bo'lib qoldilar; Kiti yoshlik chog'larida ko'rgan bu polkovnik mundir kiyib, epoletlar taqib yurardi. Bu yerda esa bit ko'zlari va ochiq bo'ynidagi ola bo'yinbog'i bilan shu qadar kulgili bo'lib ko'rinardiki, hadeb ezmalik qilaverganidan odamning yuragi siqilib ketardi. Hamma narsa joy-joyini topib mustahkamlangandan keyin va otasi Karlsbadga ketib, onasi bilan yolg'iz qolgach, Kiti juda siqila boshladi. U tanigan odamlarga qiziqmas edi, chunki ulardan biron yangilik kutib bo'lmasligini sezardi. Endi uni qiziqtirgan asosiy narsa suv muolajasiga kelgan, lekin o'zi tanimagan odamlarni kuzatishdan va ular haqida taxminlar qilishdan iborat edi. Kitining xarakterida shunday xislat bor ediki, u insonlar, ayniqsa, tanimagan odamlar hamisha eng yaxshi fazilatlariga ega deb xayol qilardi. Mana, hozir ham Kiti ko'rgan odamlarning kim ekani va bu odamlar orasida qanday munosabatlar borligi to'g'risida taxminlar qilib, xayoliga g'oyat ajoyib, go'zal xarakterli odamlarni keltirar, kuzatishlarida buning isbotini topar edi. Bu odamlardan biri, ya'ni hamma madam Shtal deb atagan kasal rus xonimi bilan suv muolajasiga kelgan bir rus qizi Kitini boshqalardan ko'ra ko'proq mashg'ul qilardi. Madam Shtal yuksak kibor jamiyatiga mansub edi, lekin kasali shu qadar og'ir ediki, yurolmasdi, faqat havo kamdan kam ochiq turgan kunlardagina kichkina izvoshga o'tirib shifo suvlariga kelardi. Knyaginyaning gapiga qaraganda, madam Shtal dardining og'irligidan ko'ra ko'proq mag'rurligidan ruslarning hech bittasi bilan tanish emas edi. Rus qizi esa madam Shtalning xizmatini qilar, bundan tashqari, Kitining sezishiga ko'ra, suv muolajasida bo'lgan juda ko'p og'ir kasallar bilan yaxshi muomalada bo'lib, ularning xizmatlarini astoydil bajarib turardi. Kitining bilishicha, bu rus qizi madam Shtalning qarindoshi ham emas, yollangan dastyori ham emas edi. Madam Shtal uni «Varenka» deb atasa, boshqalar «m-lle Varenka» deb muomalla qiladilar. Bu qizning madam Shtalga va boshqa tanish kishilarga bo'lgan munosabatini kuzatish Kitini qanchalik qiziqtirgani bir yoqda tursin, Kiti ko'nglida bu m-lle Varenkaga nisbatan g'alati bir muhabbat his etar (bunday hodisa ko'p uchraydi), ko'zlari to'qnash kelganda o'zining ham unga yoqqanini sezib turardi.

Varenka birinchi yoshlik davrini yashab bo'lgan qizga emas, umuman, yoshlik chog'lari bo'lmagan bir xilqatga o'xshardi: yoshini

o'n to'qqizda desa ham bo'lardi, o'ttizda desa ham. Agar yuzining bichimiga razm solib ko'rilsa, uni kasalvand, zahil yuziga qaramay, xunuk deyishdan ko'ra ko'proq chiroyli desa bo'lardi. Agar gavdasi bu qadar qotma, kallasi o'rta bo'yiga yarashmaydigan darajada katta bo'lmaganda edi, qaddi-qomatini kelishgan deb aytish mumkin edi, lekin u erkaklarga yoqishi mumkin emasdi. U hali yaproqchalari to'kilmagan, lekin ochilib, hidi ketib qolgan chiroyli gulga o'xshardi. Bundan tashqari, u erkaklarni yana shu sababdan maftun qilolmasdiki, Kitida haddan tashqari ko'p seziladigan fazilatlar bunda yo'q edi. Kitida esa hayot olovini bilintirmaslik va o'z maftunkorligini qadrlash qobiliyati bor edi.

U bajarilishi hech shubhasiz bo'lgan biron ish bilan hamisha banday ko'rinar, shuning uchun begona narsalarga qiziqmaydigandek taassurot qoldirardi. U Kitining tabiatiga zid bo'lgan mana shu tomonlari bilan Kitini o'ziga isitib oldi. Kiti undan, uning tarzi hayotidan o'zi hozir zo'r berib qidirib yurgan namunalarni topishiga umidvor edi, u kibor jamiyatdagi qizlarning erkaklarga bo'lgan munosabatidan butunlay tashqarida turgan hayotiy zavq, hayotiy fazilat uchun namuna qidirar va kibor jamiyatdagi qizlarning erkaklarga bo'lgan bu munosabati hozir unga xaridorini kutib, molini bozorga solgan kishilarning sharmandaligiga o'xshab ko'rinardi. Kiti o'zining noma'lum do'stiga qancha ko'p razm solsa, bu qizning o'zi tasavvur qilgan o'sha mukammal xilqat ekaniga shuncha ko'p ishonib borar, u bilan tanishish istagi ham ortar edi.

Ikkala qiz har kun bir necha marta ko'rishsa ham, Kitining ko'zlari har safar: «Kimsiz? Siz qanaqasiz? Rostdan ham, siz men tasavvur qilgan o'sha go'zal xilqatsiz, a? – degandek bo'lardi. – Lekin Xudo xayringizni bersin, – deb ilova qilardi ko'zlari, – zinhor meni tanishaman deb o'lib turibdi deb o'ylamang. Sizga shunchaki qarashdan zavqlanaman, sizni yaxshi ko'raman, xolos». Noma'lum qizning ko'zlari ham: «Men ham sizni yaxshi ko'raman, siz juda-juda dilbar qizsiz. Vaqtim yetarli bo'lganda, sizni yana ham ko'proq yaxshi ko'rgan bo'lardim», deb javob qilardi. Chindan ham, Kiti uning hamma vaqt band ekanini ko'rardi: u yo rus oilalaridan biron-tasining bolalarini suv shifoxonasidan boshlab olib ketar, yo kasalga issiq ro'mol olib borib uni o'ratar, yoki xunob bo'lib turgan kasalning ko'nglini ochishga tirishar, yoinki allakimga qahva uchun pechenelar tanlab sotib olardi.

Shcherbatskiylar kelgandan biroz o'tib ertalabki suv muolajasida yana ikki kishi paydo bo'lib qoldi, odamlar ularga dushman ko'zi bilan qaray boshladilar. Bularidan biri – nihoyatda novcha, qomati xiyol bukilgan, qo'llari zo'r, egnidagi eski paltosi bo'yiga nisbatan kalta, ko'zlari qora, sodda, ayni zamonda qo'rqinchli bir erkag-u, ikkinchisi – cho'tir bo'lsa ham istarasi issiq, lekin o'zi didsiz, yomon kiyingan bir ayol edi. Kiti ularni ruslar deb fahmlab, ular orasida ajoyib va ta'sirli ishq mojarosi bor, deb tasavvur eta boshladi. Lekin knyaginya Kurliste-dan¹ bularning Nikolay Levinu, Marya Nikolayevna ekanlarini bilib, Kitiga bu Levinning qanday bemaza odam ekanini aytib berdi, ana shundan keyin Kitining ikki shaxs to'g'risidagi shirin xayoli to'z'g'ib ketdi. Onasi aytgan so'zlardan ko'ra bu odam Konstantinning akasi bo'lgani uchun ham Kitining ko'ziga ular nihoyatda shumshuk ko'rinib qoldi. Nikolay Levin boshini qalt-qalt silkitishga o'rganib qolgan edi, shu bilan Kitida yengib bo'lmaydigan bir jirkanish hissi uyg'otardi.

Bu odamning Kitiga zo'r berib tikilgan katta, qo'rqinchli ko'zlarida nafrat va istehzo ifodasi bordek ko'rinar, shu sababli Kiti unga duch kelishdan o'zini olib qochishga tirishardi.

XXXI

Havo aynigan kunlardan biri edi, ertalabdan yomg'ir yog'ardi, bemorlar qo'llarida soyabon bilan galereyada tiqilishib turardi.

Kiti onasi va Frankfurtda sotib olingan yevropacha syurtugida oliftagarchilik qilib, chaq-chaq urib yurgan moskvalik polkovnik bilan aylanib yurardi. Ular galereyaning narigi tomonida yurgan Levindan qochishib, berigi tomonda yurishardi. Qoramtir ko'ylak va chetlari pastga egilgan qora shlapa kiygan Varenka bir ko'r fransuz ayol bilan galereyani uzunasiga kezib yurar, har gal Kiti bilan uch-rashganda, bir-biriga do'stona ko'z bilan qarab qo'yishardi.

Noma'lum do'stidan ko'z uzmay yurgan Kiti uning chashmaga kelganini ko'r-di-da, u bilan o'sha yerda gaplashish mumkinligini o'ylab, onasiga:

– Oyi, o'sha qiz bilan gaplashsam bo'ladimi? – deb so'radi.

– Ha, gaplashging kelgan bo'lsa, mayli, avval kimligini bilay, o'zim yoniga boray-chi, – deb javob qildi onasi. – Uning nimasi

¹ Kurort ro'yxati (tarj.).

yoqib qoldi? Bitta-yarimtasining dastyoridir-da. Xohlasang, madam Shtal bilan tanishaman. Men uning belle-souer-ini¹ bilardim, – deb ilova qildi knyaginya boshini g'urur bilan ko'tarib.

Kiti madam Shtalning knyaginya bilan tanishgisi kelmay yurgani uchun onasining dili og'riganini bilardi. Shuning uchun Kiti tanishishga qistamadi.

Kiti Varenkaning fransuz ayolga stakanda suv tutganini ko'rib:

– Biram jonon qizki, – dedi. – Qarang, biram sodda, biram dilbar.

– Sening bu engouemets-ing² ko'nglimga zig'ir yog'day tegdi-da, – dedi knyaginya. Keyin Levinning o'z xonimi va bir nemis doktori bilan ro'paradan kelayotganini ko'rib: – Yo'q, yaxshisi, qayta qolaylik, – deb qo'shib qo'ydi. Levin doktorga zarda qilib o'shqirib gapirardi.

Ular qaytmoqchi bo'lib orqalariga qayrilganda, hali qattiq-qattiq gaplashayotganlarning birdan baqira boshlaganlarini eshitib qolishdi. Levin to'xtab baqirar, doktor ham qizishib javob qilardi. Ularni olomon o'rtaga oldi. Knyaginya Kiti bilan darhol jo'nab qolishdi, polkovnik esa nima janjalligini bilish uchun olomon orasiga kirdi.

Bir necha daqiqadan keyin polkovnik ular orqasidan yetib keldi.

Knyaginya:

– Nima bo'пти? – deb so'ragandi, polkovnik:

– Sharmandalik! – deb javob berdi. – Chet elda bir narsadan, u ham bo'lsa, ruslar bilan uchrashishdan qo'rqasan. Haligi novcha janob o'zini noto'g'ri muolaja qilayotganlikda ayblab do'xtirga ko'p xunuk so'zlar aytdi, bu ham ozdek, hassasini ko'tarib urmoqchi ham bo'ldi. Sharmandalikki, sira naryog'i yo'q!

– Obbo, ko'p xunuk ish bo'пти-da, – dedi knyaginya. – Xo'sh, oxiri nima bo'ldi?

– Baraka topsin, haligi... haligi shlapasi qo'ziqoringa o'xshagan qiz ajratib qo'ydi. Chamamda, rus qiziga o'xshaydi, – dedi polkovnik.

¹ Kelini (*frans.*).

² Havasing (*frans.*).

– M-lle Varenkami? – deb suyunib so‘radi Kiti.

– Ha, ha, hammadan burun chopib keldi, janobni qo‘ltiq lab olib chiqib ketdi.

– Ana, ko‘rdingizmi, oyi, – dedi Kiti onasiga, – u qizga havasim kelganiga tag‘in hayron bo‘lasiz.

Kiti ertasiga ham noma‘lum do‘stiga razm solib, Varenkaning Levin bilan ham, yonidagi ayol bilan ham, o‘zining boshqa proteges-lari¹ singari munosabatda bo‘lganini payqadi. M-lle Varenka ular yoniga kelib gaplashar, chet tillarning bittasida ham gaplasholmaydigan o‘sha ayolga tarjimonlik qilar edi.

Kiti Varenka bilan tanishish uchun ruxsat so‘rab, onasiga yana ham ko‘proq yalina boshladi. O‘zini kerik tutgan madam Shtal bilan tanishish uchun birinchi qadamini tashlash o‘zi uchun qancha og‘ir tuyulmasin, knyaginya Varenkani orqavoratdan surishtirib, uning to‘g‘risida mufassal ma‘lumot olgandan so‘ng, u bilan tanishib baraka topish mumkin bo‘lmasa-da, lekin bunda isnod tegizadigan narsa yo‘qligiga qanoat hosil qilgach, oldin o‘zi borib Varenka bilan tanishdi.

Knyaginya qizining chashmaga ketgan paytini poylab turib, Varenkaning yoniga bordi; u shu payt non do‘koni oldida turgan edi.

Knyaginya o‘z viqoriga yarashib tushgan bir tabassum bilan:

– Keling, bir tanishib qo‘yaylik, – dedi. – Qizim sizni yaxshi ko‘rib qolibdi. Balki meni tanimassiz. Men...

– Men ham shunday, knyaginya, – deb Varenka shoshqin javob qildi. – Qizingizni men ham yaxshi ko‘raman.

– Kecha bizning sho‘rlik vatandoshimizga bir katta savob ish qildingiz-da, – dedi knyaginya.

Varenka qizarib ketdi.

– Esimda yo‘q, hech nima qilmovdim, shekilli, – dedi Varenka.

– Voy, Levinni janjaldan olib chiqib ketdingiz-ku.

– Ha, sa compagne² chaqirib edi, men tinchitdim, kasali juda og‘ir, do‘xtirdan norozi. Men kasallarga qarab o‘rganib qolganman.

– Ha, eshitdim, Mentonda xolangiz bilan turarmishsiz, m-me Shtal xolangiz bo‘lsalar kerak. Men delle-souer-ini³ bilardim.

¹ O‘z himoyasi ostiga olgan kishilar (*frans.*).

² Rafiqasi (*frans.*).

³ Mahrami (*frans.*).

– Yo‘q, xolam emas, men uni maman deyman, lekin ularga begonaman, meni tarbiya qilganlar, – Varenka shu javobni berdi-yu, tag‘in qizarib ketdi.

Qiz bu so‘zlarni shu qadar sodda va rostgo‘ylik bilan so‘zladi, ochiq chehrasi shu qadar yoqimli ediki, knyaginya o‘z Kitisining bu Varenkani nima uchun yaxshi ko‘rib qolganiga endigina tushundi.

– Xo‘sh, bu Levinning ahvoli nima bo‘ldi? – deb knyaginya so‘ragan edi, Varenka:

– Ketyapti, – deb javob berdi.

Kiti chashmadan kelsa, o‘zining noma‘lum do‘sti bilan onasi tanishib olgan ekan, Kiti buni ko‘rib, terisiga sig‘may quvondi.

– Mana, Kiti, sening tanishging kelib yurgan m-lle...

– Varenka, – deb kulimsiradi Varenka, – hamma meni shunday deydi.

Kiti suyunganidan qizarib, yangi do‘stining qo‘lini indamay uzoq qisib turdi; do‘sti esa o‘z qo‘lini qisgan qo‘lga qisish bilan javob qilmadi, o‘sha holidagi qo‘yib berdi. Garchi qo‘li qisuvchi qo‘lga javob qilmagan bo‘lsa ham, lekin m-lle Varenkaning yuzi osoyishta, shodiyona, ammo birmuncha mungli bir tabassum bilan yorishib, onasi tanishib olgan ekan, Kiti buni ko‘rib, terisiga sig‘may quvondi.

– O‘zimning ham qachondan beri tanishgim kelib yuruvdi, – dedi Varenka.

– Ishingiz juda ko‘p-ku...

– Qayoqda deysiz, hech qanaqa ishim yo‘q, – Varenka shu javobni qildi-yu, lekin yangi tanishlarini tashlab ketishga majbur bo‘ldi, chunki betob yotgan bir rusning ikkita kichkina qizchasi chopib keldi-da:

– Varenka, oyim chaqiryaptilar! – deb chinqirdi.

Shundan keyin Varenka qizlarning orqasidan ketdi.

XXXII

Varenkaning o‘tmishi, uning madam Shtalga bo‘lgan munosabati va madam Shtalning o‘zi to‘g‘risida knyaginya olgan ma‘lumotlar quyidagilardan iborat edi.

Madam Shtal kasalmand, ta‘sirchan ayol edi, birovlar uni erini qiynab bezor qilgan desa, boshqalari eri buni axloqsizligi bilan

bezor qilgan derdi. U eridan ajralib ketgandan keyin tuqqan birinchi bolasi yerga tushmasdanoq o'lib qolgan edi; madam Shtalning qarindoshlari uning ta'sirchanligini bilganlari sababli, bu xabar dilini vayron qilmasin deb, o'lgan chaqaloqning o'rniga xuddi ana shu kecha, Peterburgdagi xuddi ana shu uyda saroy oshpazining xotini tuqqan chaqaloqni keltirib qo'yishadi. U chaqaloq Varenka edi. Keyincha madam Shtal Varenkaning o'zi tuqqan qizi emasligini bilsa ham, baribir tarbiya qilaveradi, chunki bu voqeadan ko'p vaqt o'tmay Varenkaning qavm-qarindoshidan hech kim qolmagan edi.

Madam Shtal o'n yildan ortiqroq vaqtdan beri doim chet elda, janubda yashab, o'rnidan sira turmasdi. Birovlar madam Shtal jamiyatda saxovatpesha, taqvodor ayol degan nom chiqardi desa, boshqalar uning qoldirgan taassurotiga qarab, uni yaqin odamlariga yaxshilik qilish uchungina yashab kelayotgan yuksak axloqli pokiza ayol deb gapirardi. Hech kim uning qanday dindaligini: katolikmi, protestantmi va yo pravoslavmi ekanini bilmas edi, lekin bir narsa ravshan ediki, u hamma cherkovlar va mazhablarning olimaqom peshvolari bilan do'stona aloqada edi.

Varenka u bilan har doim chet elda birga turar, shuning uchun madam Shtalni tanigan kishilarning hammasi m-lle Varenkani ham tanir, uni yaxshi ko'rar va shu nom bilan atardi.

Knyaginya bu tafsilotni bilgandan so'ng qizining Varenka bilan yaqinlik qilishida unga isnod tekkizadigan hech narsa yo'qligini ko'rdi, innaykeyin, Varenkaning qiliqlari chiroyli, o'zi g'oyat yaxshi tarbiya olgan edi: fransuz va ingliz tillarini bekam-ko'st bilardi. Bunisi ham u yoqda tursin, Varenka madam Shtalning kasalligi orqasida knyaginya bilan tanishish zavqidan mahrum ekani to'g'risida afsus yeb o'tirganini ham kelib aytdi.

Kiti Varenka bilan tanishib olgandan so'ng kun sayin do'stiga mehri ortib borar va har kun unda yangidan-yangi fazilatlar borligini ko'rar edi.

Knyaginya Varenkaning yaxshi ashula aytishini eshitib, kechqurun ashula aytib berishini so'radi.

– Kiti chalib turardi, bizda fortepyano bor, to'g'ri, uncha yaxshimas, lekin kelib ashula aytib bersangiz, bizni juda xursand qilgan bo'lasiz, – dedi knyaginya yasama tabassum bilan. Varenkaning ashula aytgisi kelmayotganini sezib turgani uchun ham bu tabassum

hozir Kitining juda g'ashiga tegdi. Shunday bo'lsa ham Varenka kechqurun keldi, o'zi bilan bir nota daftarini ham keltirdi. Knyagina Marya Yevgenevnani, qizini va polkovnikni taklif qildi.

Varenka bu yerda begona odamlar o'tirganiga hech parvo qil-magandek, darhol fortepyanoning yoniga keldi. Varenka ashula ay-tayotganda fortepyanoni o'ziga jo'r qilib chalishni bilmasa hamki, notaga qarab ashula aytishga juda usta edi. Kiti fortepyanoni yaxshi chalardi, unga jo'r bo'ldi.

Varenka birinchi ashulani ajoyib bir tarzda aytib bo'lgandan so'ng, knyagina:

– Misli yo'q iqtidoringiz bor ekan, – dedi.

Marya Yevgenevna ham qizi bilan tashakkur bildirib, iqtidorini maqtadi.

Polkovnik derazaga qarab o'tirgan edi, u birdan:

– Iye, buni qaranglar, – deb yubordi. – Ovozingizni eshitib qan-cha odam to'planibdi-ya!

Rostdan ham, deraza yoniga odam sig'may ketgan edi.

Varenka soddagina qilib:

– Ashulam sizlarga zavq bag'ishlagani uchun xursandman, – deb javob qildi.

Kiti do'stiga faxrlanib qarab turardi. U Varenkaning san'atiga, ovozigaga, yuziga maftun bo'lgan edi, lekin hammasidan ham o'zini tutishiga havasi kelar edi, chunki Varenka, aftidan, o'zining ashula aytishdagi mahorati to'g'risida hech narsa o'ylamas, maqtovlarga zarracha ham parvo qilmas edi, avzoyida xuddi: «Yana aytaymi yo bas qilaymi?» degan savol bordek edi.

«Agar men uning o'rnida bo'lsam, – deb o'ylanardi Kiti, – bun-dan naqadar faxrlanardim. Deraza yoniga to'plangan odamlarni ko'rib naqadar quvonardim! U esa bu narsalarga qayrilib ham qaramaydi. Faqat onamning iltimosini yerda qoldirmaslikni, uning bahri-dilini ochishnigina o'ylaydi. Unda nima bor, a? Hech bir narsaga parvo qilmay, o'zini xotirjam tutishiga kuch-quvvat bergan narsa nima? Oh, qani endi men ham shu narsani bilsam-u, undan o'rgansam!» deya Kiti Varenkaning vazmin yuziga tikilib turib o'ylardi. Knyagina Varenkadan yana bitta ashula aytib berishni so'ragandi, u bu ashulani ham bir maqomda, ta'sirli qilib, yurakdan kelgan bir tovush bilan ay-

tib berdi; u fortepyano yonida g'oz turib, ozg'in, bug'doyrang qo'lini maqomga moslab fortepyanoga urib turib aytdi.

Daftarda bundan keyin bir italyan ashulasining notasi kelardi, Kiti muqaddimasini chalib, Varenkaga qaradi.

Varenka qizarib:

– Buni tashlab o'taylik, – dedi.

Kiti taka-puka bo'lib, savol nazari bilan Varenkaning yuziga tikildi. Kiti bu ashulaning bir narsa bilan bog'liq ekanini payqab, darhol sahifani varaqladi-yu:

– Xo'p, bo'lmasa, boshqasini, – dedi shoshib.

Lekin Varenka qo'lini nota ustiga qo'ydi-da, kulimsirab turib:

– Yo'q, shuni aytamiz, – deb javob berdi.

Varenka bu ashulani ham boyagidek og'ir, vazmin ohangda, qizishmay, yaxshilab aytdi.

Ashulani tugatgandan so'ng hamma unga yana tashakkur aytib, choy ichgani ketdi. Kiti bilan Varenka esa uy yonidagi bog'chaga chiqdi.

– Rostdan ham, bu ashulaning sizdagi bir xotira bilan aloqasi bo'lsa kerak-a? – dedi Kiti. – Zinhor menga uni ayta ko'rmang, – dedi shoshib yana Kiti, – faqat shuni ayting: rostmi?

– Yo'q, nega aytmas ekanman? Aytaveraman, – deb Varenka sodagina javob qildi-da, undan gap kutib o'tirmay davom qildi: – Ha, bu bir xotira, ammo bir vaqtlar meni yomon qiynagan xotira. Men bir odamni yaxshi ko'rardim, shu ashulani unga aytib bergan edim.

Kiti ko'zlarini katta ochib, mehri tovlanib Varenkaga tikildi-da, jim bo'lib qoldi.

– Men uni yaxshi ko'rardim, u ham meni yaxshi ko'rardi, onasi xohlamadi, shundan keyin boshqaga uylanib ketdi. U bizga yaqin joyda turadi, goh-gohda ko'rib yuraman. Nima, meni o'z boshidan ishq savdosini kechirmagan deb o'yloddingizmi? – dedi u, shunda uning chiroyli yuzidan nur yog'ilib, chehrasi yorishib ketdi, Kiti bir mahallar o'zidan shunday nur yog'ilib turganini his etardi.

– Yo'q, bunday deb o'ylaganim yo'q. Agar men erkak kishi bo'lganimda, sizni shunday bilganimdan keyin boshqa hech kimga ko'ngil berolmasdim. Men faqat shunisiga hayronman: onasining ra'yiga borib, sizni qanday baxtsiz qildi ekan? Bag'ritosh odam ekan.

– Yo‘g‘-e, juda yaxshi odam edi, men o‘zimni baxtsiz deb hisoblamayman ham, aksincha, juda ham baxtliman. Xay, bugun ashulani bas qilsak ham bo‘ladi, a? – deb ilova qildi, uy tomonga yo‘l olib.

– Biram yaxshisiz, biram yaxshisizki! – deb Kiti qichqirdi-yu, uni to‘xtatib, betidan cho‘pillatib o‘pdi. – Qani endi, jinday bo‘lsa ham sizga o‘xshasam!

– Qiziq, boshqalarga o‘xshab nima qilasiz? Shu holingizda ham yaxshisiz, – dedi Varenka, mo‘min, horg‘in tabassum bilan jilmayib turib.

– Yo‘q, men hecham yaxshi emasman. Menga qarang... Shoshmang, picha o‘tiraylik, – dedi Kiti, uni yana o‘rindiqqa, o‘z yoniga o‘tqazayotib. – Menga qarang, bir odam sizning muhabbatingizni nazarga ilmasa, sizni xohlamasa-yu, siz nahotki, buni o‘zingizga haqorat deb bilmasangiz?..

– Yo‘q, u meni nazarga ilmadi emas-da; ishonaman, u meni yaxshi ko‘rardi, lekin nachora, itoatkor o‘g‘il...

– Mabodo onasining ra‘yiga qarab emas, o‘zi tashlab ketgan bo‘lsa-chi?.. – dedi-yu Kiti o‘z sirini ochib qo‘yganini va xijolatdan loladek qizarib ketgan yuzi o‘z dardini fosh qilganini sezdi.

– U holda yomon ish qilgan bo‘lardi, men ham unga achinib yurmasdim, – deb javob berdi Varenka. Gap o‘zi ustida emas, Kiti ustida ketayotganini, aftidan, u ham payqagan edi.

– Xo‘sh, ko‘rgan haqoratingiz-chi? – dedi Kiti, keyin so‘nggi balda, musiqa to‘xtaganda o‘zining qanday termilib qaraganini eslab: – Yo‘q, yo‘q, haqoratni unutib bo‘lmaydi, unutib bo‘lmaydi, – dedi.

– Nega haqorat ko‘rasiz? Axir, yomon qiliq qilmagandirsiz?

– Yomon ham gapmi, undan battar – hali-hali uyalaman.

Varenka boshini chayqab, qo‘lini uning qo‘liga qo‘ydi.

– Nega uyalasiz, axir? – deb so‘radi Varenka. – O‘zingizga beparvo qaragan kishiga-ku sizni yaxshi ko‘raman, deb aytmagandirsiz?

– Albatta, aytmayman-da, hech qachon bir og‘iz ham so‘z aytgan emasman, lekin o‘zi bilardi. Yo‘q, yo‘q, nigoh degan narsa bor, raftor bor. Yuz yil umr ko‘rsam hamki, sira esimdan chiqarmayman.

– Xo‘sh, nima bo‘pti? Gapingizga hayronman. Hozir uni yaxshi ko‘rasizmi-yo‘qmi – hamma gap shunda, – dedi Varenka, gapni lo‘nda qilib.

– Men undan nafratlanaman, men bu qilmishim uchun o‘zimni kechirolmayman.

– Xo‘sh, nima bo‘pti?

– O, bu sharmandalik, haqorat-ku...

– Eh! Hamma ham sizga o'xshash sirkasi suv ko'tarmaydigan bo'lsa edi, – dedi Varenka. – Bu xil savdolarni boshdan kechirmagan bitta ham qiz yo'q dunyoda. Innaykeyin, bu narsalarning hech ahamiyati ham yo'q.

Kiti uning yuziga maroqli bir hayrat bilan tikilib turib:

– Bo'lmasa nimaning ahamiyati bor? – deb so'radi.

– Dunyoda ahamiyatli narsalar ko'p, – dedi Varenka kulimsirab.

– Ayting axir?

Varenka nima deyishini bilmay:

– Axir, undan ham muhim narsalar ko'p, – deb javob qildi.

Lekin shu payt derazadan knyaginyaning ovozi eshitildi.

– Kiti, ko'cha salqin! Yo ro'molingni ol, yoki bo'lmasa, uyga kir.

– To'g'ri, vaqt kech bo'ldi, – dedi Varenka, o'rnidan turayotib. –

Men hali m-me Berthe-nikiga ham kirib o'tishim kerak, kelgin, deb iltimos qilgandi.

Kiti uni qo'lidan ushlab turar, ko'zlari esa ehtirosli bir maroq, tavallo bilan: «Ko'ngilga tinchlik beradigan o'sha, eng muhim narsa nima, axir? Siz bilasiz, menga aytib bering!» deb so'rardi. Lekin Varenka Kitining ko'zlari nimalarni so'rayotganini anglamas edi. U faqat bugun m-me Berthe-nikiga ham kirib o'tish va kechasi soat o'n ikkida, maman-i choy ichadigan mahalga yetib borish kerak ekaninagina o'ylardi. Varenka ichkariga kirib notalarni yig'ishtirdi-da, hamma bilan xayrlashib, ketishga tayyorlandi.

– Shoshmang, men olib borib qo'yaman, – dedi polkovnik.

– Rost-da, kechasi qanday yolg'iz ketadi? – deb knyaginya polkovnikning taklifini quvvatladi. – Hech bo'lmasa, Parashani qo'shib beray.

Kiti, uni eltib qo'yish kerakligini aytishganda, Varenka lablaridagi tabassumni zo'rg'a-zo'rg'a tutib turganini ko'rdi.

Varenka shlapasini qo'lga olib:

– Yo'q, men hamma vaqt yolg'iz ketaveraman, menga hech balo bo'lmaydi, – dedi. Keyin Kitini yana bir marta o'pdi-da, nima muhimligini baribir aytmay, nota daftarini qo'ltig'iga qisib, shaxdam odimlar bilan yoz tunining g'ira-shira qorong'isida ko'zdan g'oyib bo'ldi, u shu ketishida nimaning muhimligi, kishining havasini keltiradigan bu vazminlik, bu layoqatni unga baxsh etgan narsaning nimaligi haqidagi sirni o'zi bilan birga olib ketdi.

Kiti madam Shtal bilan ham tanishib oldi, bu tanishlik Varenkaga bo'lgan do'stlik tuyg'ulari bilan birga qo'shib Kitiga zo'r ta'sir qildi va ayni zamonda dardlarini unuttirib, tasalli ham berdi. U topgan tasalli shundan iborat ediki, bu tanishlik soyasida o'tmish bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan yangi bir dunyo, yuksak hislar, go'zal tuyg'ular dunyosi ochildi, bu dunyo cho'qqisidan turib o'tmishga xotirjam qaray bilardi. U hozirgacha yashab kelgan savqitabiiy hayotdan tashqari boshqa ma'naviy hayot borligini ham kashf etdi. Bu yangi hayot din orqali ochilib bormoqda edi, lekin bu dinning Kitini bolalik chog'larida o'rgangan dinga, tanishlari bilan uchrashiladigan cherkovdagi ibodatlarda va pop hazratlari bilan birga o'tirib slavyan tilidagi oyatlarni yodlab yurgan vaqtlarida zikr etilgan dinga xech qanday aloqasi yo'q edi; bu din ajoyib fikrlar, hislar bilan bog'liq bo'lgan yuksak, sirli bir din ediki, unga ishonishgina emas (aslida unga imon keltirish amr qilingan edi), balki uni yaxshi ko'rish ham mumkin edi.

Kiti bu narsalarni so'zlar orqaligina bilmadi. Madam Shtal Kiti bilan o'zining yoshlik chog'larini esga soluvchi bir shirin bola bilan gaplashayotgandek gaplashardi, u odamlarning butun dard-u alamlariga yolg'iz muhabbati va imonigina tasalli bera olishini, hazrati Isoning bizga rahmi kelishi uchun dardu alamlarimizning og'ir yo yengil bo'lishi shart emasligini faqat bir martagina eslatdi-yu, darhol gapni boshqa yoqqa burib yubordi. Lekin Kiti uning har bir harakatidan, har bir so'zidan, Kitining ta'biricha, har bir ilohiy boqishidan, ayniqsa, Varenka orqali bilib olgan hayotidan «nimaning muhimligini» va ilgari bilmagan narsalarini bilib oldi.

Lekin madam Shtalning xarakteri naqadar yuksak bo'lmasin, uning boshidan kechirganlari naqadar ta'sirli bo'lmasin, so'zlari naqadar balandparvoz va muloyim bo'lmasin, Kiti ixtiyorsiz unda shunday xususiyatlar borligini payqadiki, bu narsalar uning ko'nglini xijil qilib qo'ydi. Kiti madam Shtalning undan qavm-qarindoshlarini surishtirib turib istehzo bilan kulimsiraganini payqab qoldi, bu qiliq nasroniy dinidagi kishining shafqatiga sira ham o'xshamas edi. Kiti bir kun kelib, madam Shtal yonida bir katolik ruhoniysi o'tirganini, madam Shtal esa yuzini abajur soyasiga yashirishga tirishib, ma'nodor

qilib kulimsiraganini ham payqab qoldi. Kiti payqagan bu ikki narsa qanchalik ahamiyatsiz bo'lsa hamki, baribir Kitining ko'nglini xijil qildi, natijada, Kiti madam Shtalga gumon bilan qaraydigan bo'ldi. Lekin qavm-qarindoshi, yor-u do'stlari bo'lmagan, mungli bir umidsizlik ichida yakka-yolg'iz yashab kelgan, hech nimani xohlamagan, hech nimaga achinmagan Varenka esa Kiti orzu qilgan kamolot namunasi edi. U Varenkaga razm solib, inson o'zini unutsa-yu, boshqalarga mehr qo'ysa, shunda uning darrov orom topishi, baxtli va dilovor bo'lishi mumkinligini ko'rdi. Kiti ham o'shanday bo'lishni xohlardi. Kiti eng muhim narsaning nimadan iboratligini endi tushunib olgandan so'ng, bu narsaga tahsin qilish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki ko'z oldida ochilgan bu yangi hayotga o'zini bajonidil taslim qildi. Varenkaning madam Shtal va nomlarini tilga olgan boshqa odamlar qilgan ishlar to'g'risidagi hikoyasini eshitib, Kiti ham kelajak hayotining rejasini tuzib qo'ydi. U ham, madam Shtalning jiyani Aline singari (uning to'g'risida Varenka juda ko'p narsalar aytib bergan edi), qayerda yashamasin, baxtsiz odamlarni qidirib topadi, qo'lidan kelganicha yordam qiladi, ularga Injil ulashadi, kasallarga, jinoyatkorlarga, o'lim to'shagida yotganlarga Injil o'qib beradi. Aline singari, jinoyatkorlarga Injil o'qib berish fikri Kitiga juda ham yoqib tushdi. Lekin bu narsalarning hammasi Kitining yashirin orzulari edi, bu orzularni Kiti onasiga ham, Varenkaga ham og'zidan chiqarmagan edi.

O'z rejalarini katta miqyosda amalga oshirish ishtiyoqida yongan Kiti kasallar, baxtsizlar ko'p uchraydigan shu yerning o'zida suv shifoxonasidayoq Varenkaga taqlid qilib, o'zining yangi qoidasini osongina amalga oshira boshladi.

Oldin knyaginya Kitining madam Shtalga, ayniqsa, Varenkaga bo'lgan va o'zi engouement deb atagan hisning qattiq ta'siri ostida yurganini sezganday bo'ldi. U Kitining Varenkaga faqat ishdagina emas, balki yurish-turishiga, gapirishiga va ko'zlarini piri-pirishiga ham taqlid qilayotganini ko'rdi. Keyin esa knyaginya qizida bu maftunkorlikdan tashqari allaqanday jiddiy, ruhiy o'zgarish yuz berayotganini payqadi.

Kiti madam Shtal hadya qilgan fransuzcha Injilni kechqurunlari o'qib o'tirardi, ilgari u Injil o'qiganini knyaginya ko'rgan emasdi. Kiti kibor jamiyatdagi tanishlaridan o'zini olib qochib, Varenka

himoyatidagi kasallar bilan, ayniqsa, Petrov degan bir kasal rassomning kambag'al oilasi bilan do'stlashgan edi. Kiti, aftidan, bu oilada shafqat hamshirasi vazifasini o'tayotgani bilan faxrlanar edi. Bu yomon narsa emas edi, shuning uchun knyaginya bunga qarshilik qilmasdi, chunki Petrovning xotini odobli, obro'li ayol edi, innaykeyin, podsho qizi ham Kitining ishini ko'rib, uni maqtadi, tasalli farish-tasi deb atadi. Agar Kiti haddidan oshirib yubormaganda, bularning hammasi xayrli ishlar edi. Lekin knyaginya, qizining haddidan oshib ketayotganini ko'rar, ogohlantirar edi.

– Il ne faut jamais rien outrer¹, – derdi u qiziga.

Lekin qizi hech nima deb javob qilmasdi, u faqat ichida, nasroniylilik yo'lida bunday narsalardan og'iz ochib bo'lmaydi, deb o'ylardi. Modomiki, nasroniy dini: «Kimki bir betingga shapati ursa, unga ikkinchi betingni ham tutib ber. Agar ustingdagi cho-poningni yechintirib olishsa, ichingdagi ko'ylagingni ham yechib ber», deb ta'lim berarkan, bu maslak yo'lidan borishda qanday qilib haddan oshish mumkin? Lekin bu haddan oshish knyaginya-ga yoqmasdi. Bundan ham ko'ra Kitining ko'nglidagi narsalarini ochib aytmagani ko'proq yoqmasdi – buni knyaginya sezib yurardi. To'g'ridan ham, Kiti o'zining yangi qarashlari va hislarini onasidan yashirin tutardi. U onasini hurmat qilmagani, yaxshi ko'rmagani uchun emas, u faqat onasi bo'lgani uchun bu sirlarni yashirin tutardi. Kiti bu sirlarni onasidan ko'ra boshqalarga tezroq ochib aytishi mumkin edi.

– Negadir Anna Pavlovna biznikiga anchadan beri kelmaydi, – dedi knyaginya, Petrovning xotini eslab. – Keling deb taklif qiluvdim. Hayronman, biron narsadan ko'ngli qolganmi.

– Yo'q, men sezmadim-u, maman, – dedi Kiti birdan qizarib.

– Ularnikiga kirmaganingga ancha bo'ldimi?

– Ertaga tog' sayriga chiqmoqchi bo'lib turibmiz, – deb javob qildi Kiti.

Knyaginya xijolat tortgan qizning yuziga tikilib, xijolatpazlikning sababini bilishga tirishdi.

– Mayli, boringlar, – dedi u.

¹ Hech vaqt hech narsani me'yordan oshirib yubormaslik kerak (*frans.*).

Shu kuni Varenka ularnikiga tushlik qilgani kelib, Anna Pavlovnaning toqqa chiqish fikridan ayniganini xabar qildi. Shunda knyaginya Kitining yana qizarib ketganini payqadi.

O‘zlari yolg‘iz qolishganda, knyaginya:

– Kiti, Petrov bilan sening o‘rtangda ko‘ngilni xira qiladigan hech gap o‘tgani yo‘qmi? – deb so‘radi. – Nega bolalariniyam yubormaydi, o‘ziyam kelmay qo‘ydi?

Kiti oralarida hech qanday gap o‘tmaganini, Anna Pavlovna o‘zidan nima uchun noroziday ko‘ringaniga hech tushunmasligini aytdi. Juda to‘g‘ri gapirgan edi. U Anna Pavlovnada o‘ziga nisbatan yuz bergan o‘zgarishning sababini bilmasa hamki, lekin fahmiga yetar edi. Ammo payqagan narsasini onasiga ham aytolmasdi, o‘zi ham bo‘yniga ololmasdi. Bu o‘zing bilib, sezib turgan bo‘lsangda, o‘zingga ham aytolmaydigan narsalardan biri edi, bunda xatoga ketish ham qo‘rqinchli, ham uyatli bo‘lar edi.

Kiti bu oilaga bo‘lgan munosabatini birma-bir xayolidan o‘tkazdi. Anna Pavlovna bilan uchrashganlarida, uning sodda, yumaloq yuzida shodlik alomati ko‘ringanini xotirladi, ish qildirmaslik (unga ishlash man qilingan edi), uni sayr-u tomoshalarga olib chiqib ketish to‘g‘risida Anna Pavlovna bilan yashiriqcha til biriktirishganini esladi, kichik o‘g‘illarining o‘rganib qolgani, uni «mening Kitim» deb ataganini, Kitisiz yotishga unamaganini ham bir-bir xayolidan o‘tkazdi. Qanday yaxshi edi bu narsalar! Keyin qahvarang syurtukli Petrovning qotma gavdasini, uzun bo‘ynini, siyrak, jingalak sochlari-ni, dastlabki vaqtlarda Kitiga dahshatli ko‘ringan, savol nazari bilan to‘lgan moviy ko‘zlarini, Kiti oldida o‘zini zo‘r berib tetik, jonli tutish uchun qilgan harakatlarini bir-bir esladi. U hamma sillarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lsa, Petrovga nisbatan ham dastlabki davrlarda ko‘nglida tug‘ilgan jirkanish hissini daf qilish uchun harakat qilganini, kasalga aytadigan so‘zlarini naqadar qiynalib topganini xotirladi. Kiti uning naqadar hurkak, ma‘yus bir nazar bilan o‘ziga termilib qaraganini, o‘zida g‘alati achinish va o‘ng‘aysizlik hissi uyg‘onganini, keyin esa yaxshilik qilayotganini anglab tasalli topganini xayolidan kechirdi. Qanday yaxshi edi bu narsalar! Lekin faqat dastlabki vaqtlarda shunday edi. Bundan bir necha kun avval hamma narsa birdan o‘zgardi-ketdi. Anna Pavlovna Kitini yasama

bir iltifot bilan qarshi oladigan va eri bilan Kitini ko‘z ostidan qochirmaydigan bo‘ldi.

Kiti yaqinlashganda rassomning quvonchga to‘lib ketishi nahotki Anna Pavlovnaning undan sovishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa?

«Ha, – deya Kiti o‘tgan narsalarni eslay boshladi, – bundan uch kun avval Anna Pavlovna g‘ashi kelib: «Ko‘rdingizmi, madordan ketib qolsayam, sizsiz qahva ichishga unamay, yo‘lingizga qarab yotibdi», – deganda, Anna Pavlovnaning tovushida g‘ayritabiiy bir narsa bor edi va bu narsa uning iltifotiga hech qovushmay turgan edi».

«Ha, kasalning yelkasiga ro‘mol yopib qo‘yganim ham, ehtimol, Anna Pavlovnaga yoqmagandir. Bular shunchaki oddiy bir narsa edi, lekin rassom bundan shu qadar o‘ng‘aysizlandi, shuncha ko‘p minnatdor bo‘ldiki, o‘zim o‘ng‘aysiz holga tushib qoldim. Innaykeyin, rassom juda mahorat bilan chizgan portretimni aytmaysizmi. Hammasidan ko‘ra, uning xijolat bilan, mehr bilan qarab turishi-chi! Ha, ha, shunday! – Kiti dahshatga kelib takrorladi. – Yo‘q, bunday bo‘lolmaydi, bo‘lishi mumkin emas! Bechoraga, odamning rahmi keladi!» dedi o‘ziga u yuqoridagilarni o‘ylab.

Bu shubha Kitining yangi, shirin hayotini zaharladi.

XXXIV

O‘z so‘zi bilan aytganda, rus og‘aynilari bilan ko‘rishib, rus ruhiga to‘yib olish uchun Karlsbaddan Baden va Kissengenga ketgan knyaz Shcherbatskiy suv muolajasi kursi tugalish oldidan qaytib keldi.

Knyaz bilan knyaginyaning chet el hayotiga bo‘lgan qarashlari bir-biriga butunlay qarama-qarshi edi. Knyaginyaga chet eldagi narsalarning hammasi ajoyib ko‘rinardi, shuning uchun rus jamiyatidagi mavqeyining mustahkamligiga qaramay, knyaginya chet elda ekani-da Yevropa xonimiga o‘xshashga tirishardi, lekin uddalayolmasdi, chunki u rus boyvachchasi edi, shu sababli o‘zini biroz o‘ng‘aysiz ahvolga tushgandek qilib ko‘rsatardi. Knyazga esa, aksincha, chet eldagi narsalarning hammasi xunuk ko‘rinardi. Yevropa hayotidan bezor bo‘lar, o‘zining rus odatlarini davom ettirar va qasddan chet elda o‘zini jo‘rttaga yevropalikka o‘xshamaganini ko‘rsatishga tiri-shar edi.

Knyaz ozib-to'zib, lunjlarining terilari osilib qaytib keldi, lekin kayfi nihoyatda chog' edi. Kitining butunlay sog'ayib ketganini ko'rib vaqti yana ham chog' bo'ldi. Kitining madam Shtal va Varenka bilan do'st tutingani haqidagi xabarni, Kitida yuz bergan allaqanday o'zgarishlar to'g'risida knyaginya aytgan so'zlarni eshitganda esa knyazning ta'bi biroz xira bo'ldi, uning ixtiyoridan tashqari qizining diqqatini tortgan narsalarga knyazning odatda rashki kelardi, hozir eshitgan xabari ham unda shu rashk hissini va qizim ta'sirimdan chiqib, men bilmaydigan boshqa bir ta'sirga berilib ketmasmikan, degan qo'rquvni uyg'otdi. Lekin bu noxush xabarlar unda, ayniqsa, Karlsbad suv muolajasidan keyin yana ham kuchaygan mehribonlik, shodlik dengizida g'arq bo'lib ketdi (shundog' ham o'zi, xushchaq-chak odam edi).

Salqigan yuzini tirish bosgan, lunjiga ohorlangan yoqasi qadalib turgan bu rus knyazi kelgan kunining ertasiga uzun paltosini kiydida, qizini yoniga olib, chaq-chaq urib suvga ketdi.

Ajoyib subhidamlardan biri edi: kichik-kichik bog'chalik oromijon uylar, pivodan yuzlari qizargan, qo'llari qizargan, sho'x-sho'x ishlayotgan xizmatkor nemis qizlari, charog'on quyosh odamning bahri dilini ochardi, lekin ular buloqlarga yaqinlashganlari sari kasallar ko'proq uchrar, bu kasallarning qiyofalari sarishtali nemis hayotining yoqimli manzarasida yana ham ayanchli bo'lib ko'rinardi. Bu ziddiyat Kitini ortiq ajablantirmasdi. Yorqin quyosh, zumrad o'simliklar, musiqqa sadolari Kiti nazarida o'zi kuzatib turgan, sog'ligi yomon yoki yaxshilanib borayotgan shaxslar yashab turgan muhitning zeb-ziynati edi, xolos, lekin bu iyun subhidam nuri, yog'dusi, bir sho'x valsni chalib turgan orkestr sadosi, ayniqsa, salomat, barvasta, xizmatkor ayollarning qiyofasi Yevropaning har tomonidan bu yerga to'plangan va oyoqlarini zo'rg'a-zo'rg'a sudrab, o'liklarga o'xshab qolgan bu kasallar orasida knyazga xunuk, bema'ni narsaga o'xshab ko'rinardi.

Sevgili qizi bilan qo'l olishib ketayotganda ko'nglida uyg'ongan iftixor hissiga va yoshlik chog'lari qaytib kelayotgandek ko'ringaniga qaramay, o'zining bardam-tetik qadam tashlab ketayotganidan, yo'g'on tortib semirib ketganidan hozir xijolat bo'lar, o'zini noqulay his etardi. U o'zini xaloyiq orasiga yalang'och chiqqan odamday his etmoqda edi.

Knyaz qizining qo'lini tirsagi bilan qisib:

– Meni yangi do‘stlaringga tanishtir, – deyar edi. – Men sening ana shu la‘nati Sodeningniyam seni tuzatib qo‘ygani uchun yaxshi ko‘rib qoldim. Lekin bu yerda odam qon bo‘lib ketadi, yomon zerikadi. Bu kim?

Kiti ro‘para kelgan tanish va notanishlarning nomlarini otasiga aytib turdi. Bog‘ga kiraverishda bir qiz yetaklab borayotgan ko‘r m-me Berthe-ga duch kelishdi. Kitining tovushini eshitganda, fransuz kampirning yuzidagi quvonch ifodasini ko‘rib, knyaz xursand bo‘ldi. Kampir fransuzlarga xos bir sertakalluflik bilan darhol knyazga gapira ketdi, shunday ajoyib qizi bo‘lgani uchun uni maqtadi. Kitini ko‘z oldida osmonlarga ko‘tardi, uni bir xazina, javhar, tasalli farishtasi, deb atadi.

– Unday bo‘lsa, Kiti ikkinchi darajadagi farishta ekan, – dedi knyaz kulimsirab. – U m-lle Varenkani birinchi darajadagi farishta deb yuradi.

– Oh! M-lle Varenka, u chinakam farishta, allez¹, – deb so‘zni ilib ketdi m-me Berthe.

Ular galereyada Varenkaning o‘zi bilan ham uchrashdi. Varenka qo‘lida ziynatli qizil sumkacha bilan ularni qarshilash uchun shoshib kelardi.

– Mana, dadam keldilar! – dedi unga Kiti.

Varenka har qanday narsani hamma vaqt sodda va tabiiy bir tarzda qilganidek, hozir ham ta‘zim bilan reverans o‘rtasida bir harakat qildi-da, darhol knyaz bilan gapga kirishib ketdi, hamma bilan qanday gaplashsa, knyaz bilan ham shunday sodda va tabiiy bir tarzda gaplasha boshladi.

– Albatta, men sizni taniyman, juda yaxshi taniyman, – dedi knyaz kulimsirab. Kiti otasining bu kulimsirashidan do‘sti unga manzur bo‘lganini anglab, suyundi. – Qayoqqa shoshib ketyapsiz?

Varenka Kitiga yuzlanib:

– Maman shu yerda, – dedi. – Kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi, do‘xtirlar bu yerdan ketishni maslahat berishdi. Uning qo‘l ishini olib ketyapman.

Varenka ketgandan keyin knyaz:

¹ Shubhasiz (*frans.*).

– Birinchi darajadagi farishtang shu degin! – dedi.

Kiti otasining Varenkadan kulgisi kelganini, lekin Varenka o‘ziga yoqib qolgani uchun kulishni istamaganini payqadi.

– Shunday qilib, do‘stlaringning hammasini bitta-bitta ko‘rar ekanmiz, – dedi otasi. – Agar iltifot qilib, meni tanigisi kelsa, madam Shtalniyam borib ko‘ramiz.

Kiti madam Shtalning nomi tilga olinganda otasining ko‘zlarida istehzo uchquni chaq nab ketganini payqadi-yu, cho‘chib so‘radi:

– Nima, siz uni tanirmidingiz, dada?

– Erini tanirdim, o‘ziniyam, lekin piyetistlikka yozilmasdan avval sal-pal tanirdim.

Kiti madam Shtalda juda qadrlagan xislatning nomi borligidan hurkib:

– Piyetist deganingiz nimasi, dada? – deb so‘radi.

– O‘zim ham durust bilmayman. Faqat shunisini bilamanki, madam Shtal har bir narsa uchun Xudoga shukur qiladi, har qanday baxtsizlik uchun ham, eri o‘lgani uchun ham Xudoga shukur qiladi. O‘ylab qarasang, odamning kulgisi qistaydi, chunki er-u xotin it-mushuk edi.

Knyaz o‘rindiqda o‘tirgan qahvarang paltoli, qoqshol oyoqlaridagi oq shimi g‘ijimlangan o‘rta bo‘y bir kishiga ishora qilib:

– Kim bu? – deb so‘radi. – Voy bechora-yey!

Bu janob poxol shlapasini siyrak, jingalak sochlari ustida xiyol ko‘tarib, shlapa qizartirib yuborgan serbar, zahil peshonasini ochdi.

Kiti qizarib:

– Bu rassom Petrov, – deb javob qildi, keyin Anna Pavlovnaga ishora qilib: – anavi ayol esa xotini, – deb ilova qildi. Anna Pavlovna ular yaqinlashganda, yo‘lkadan yugurib borayotgan bolasi orqasidan, xuddi jo‘rttaga qilayotgandek, ketayotgan edi.

– Juda ayanchli bo‘lsayam, yuzi qanday issig‘-a! – dedi knyaz. – Nega oldiga bormading? Chamamda, senga bir narsa aytgisi bordek ko‘rindi.

Kiti shartta o‘girilib:

– Bo‘lmasa, yuring, boramiz, – dedi. Petrov yoniga kelgandan so‘ng: – Bugun ahvolingiz qalay? – deb so‘radi.

Petrov hassasiga tayanib o'rnidan turdi-da, knyazga cho'chinqirab qaradi.

– Bu mening qizim, – dedi knyaz. – Ruxsat bersangiz, tanishsak.

Rassom ta'zim qildi-da, g'alati yaraqlab turgan oq tishlarini ko'rsatib, kulimsiradi.

– Sizni kecha kelarsiz deb xo'p kutdik, knyajna, – dedi u Kitiga.

U shu so'zlarni ayta turib gindiraklab ketdi, keyin jo'rttaga gindiraklaganini ko'rsatmoqchi bo'lib, bu harakatini yana takrorladi.

– Men bormoqchi edim, lekin Anna Pavlovna sayrga chiqmaydigan bo'lganingizni Varenkadan aytirib yuboribdi.

– Nega chiqmas ekanmiz? – dedi Petrov, qizarib va darhol yo'tali tutib, keyin xotinini ko'zlari bilan qidira boshladi. – Aneta! Aneta! – deb qichqirdi, shunda uning oq bo'ynidagi tomirlari chilvirday bo'rtib chiqdi.

Anna Pavlovna yetib keldi.

Petrovning ovozi bo'g'ilib qolgan edi.

– Nega sayrga chiqmaymiz, deb knyajnaga odam yubording? – dedi u, asabiy bir shipshish bilan.

– Salom, knyajna! – dedi Anna Pavlovna, ilgarigi muomalalariga hech o'xshamaydigan yasama bir tabassum bilan. Keyin knyazga murojaat qildi: – Siz bilan tanishganim uchun g'oyat xursandman. Sizni anchadan beri kutishardi, knyaz.

Rassom yana ham battarroq jahli chiqib:

– Nega sayrga chiqmaymiz, deb knyajnaga odam yubording? – deb xirqiroq ovoz bilan yana bir marta shivirladi, aftidan, ovozi yo'qolib qolgani va natijada so'zlariga xohlagan ifodasini berolmayotgani uchun qattiq xit bo'lgan edi.

– Voy Xudo. Bormaymiz, deb o'ylabman-da, – dedi xotini jig'ibiyroni chiqib.

– Axir, bu qanday... – yana yo'tali tutib, qo'lini siltadi.

Knyaz shlapasini xiyol ko'tarib xayrlashdi-yu, qizi bilan uzoqlashdi.

– O-oh! – deb knyaz ich-ichidan xo'rsindi. – U qanday baxtsiz-a!

– Ha, juda baxtsiz, dada, – deb Kiti javob qildi. – Buni qarangki, bechoralarning uchta bolasi bor, xizmatkorlari yo'q, mablag'lariyam yo'q hisobida. Akademiyadan bir nima olib turadi, shekilli, – dedi Kiti, u Anna Pavlovnaning o'ziga bo'lgan munosabatida yuz bergan

g'alati o'zgarish natijasida yuragida uyg'ongan hayajonini bosishga tirishib, harorat bilan gapirardi.

– Ana madam Shtal bu yoqda ekanlar, – deb Kiti bir kichik izvoshga ishora qildi, soyabon tagida, har tomoniga yostiq qo'yilgan izvoshda va havorang bir nimaga o'ranib, allakim cho'zilib yotardi.

Bu madam Shtal edi. Izvosh orqasida, uni aylantirib yurgan barvasta, qosh-qovoqlari soliq bir nemis xizmatkor turardi. Izvosh yonida esa nomini Kiti biladigan bir mallasoch shved grafi turgan edi. Kasallardan bir qanchasi izvosh yonida qadamlarini sekinlashtirib, bu xonimga xuddi umrlarida ko'rmagan narsaga qaragandek qarab o'tishardi.

Knyaz madam Shtalning yoniga bordi. Kiti darhol otasining ko'zlarida o'zini xijil qilgan istehzo uchqunini ko'rdi. Otasi madam Shtalga yaqinlashib, hozir ko'p odamlar gaplasholmaydigan toza, sof fransuz tilida g'oyat hurmat va nazokat bilan gaplasha boshladi.

Knyaz shlapasini boshidan oldi-da, uni qo'lida ushlab turib:

– Qaydam, meni eslaysizmi-yo'qmi, lekin qizimga qilgan yaxshiliklaringiz tufayli minnatdorlik bildirish uchun o'zimni esingizga solib o'tishga majburman, – dedi-da, yana shlapasini boshiga kiyib oldi.

– Ha-a, knyaz Aleksandr Shcherbatskiy, – dedi madam Shtal, moviy ko'zlarini knyaz tomonga ko'tarib, Kiti bu ko'zlarda noxushlik ifodasi borligini fahmladi. – Juda xursandman. Qizingizni biram yaxshi ko'rib qoldik.

– Sog'ligingiz haliyam tuzuk emasmi?

– E, o'rganib qoldim, – dedi-da, madam Shtal knyazni shved grafi bilan tanishtirdi.

– Qarang, uncha o'zgarmabsiz, – dedi madam Shtalga knyaz. – Sizni o'n yo o'n bir yildan beri ko'rish sharafiga noil bo'lolmagandim.

– Ha, Xudo jabrini berganda sabriniyam qo'shib berar ekan. Ko'pincha hayron bo'lasan, umrning bunday cho'zilishi nimaga kerak ekan... Naryog'idan! – deb madam Shtal oyog'ini yaxshi o'rayolmagan Varenkaga zarda qildi.

Knyaz ko'zlari bilan kulib turib:

– Ehtimol, saxovat qilish uchundir, – dedi.

Madam Shtal knyaz yuzidagi ifodaning ma'nosini payqab:

– Bu narsalarga biz osiy bandalarning aqlimiz yetmaydi, – dedi. – Bo‘lmasa, o‘sha kitobni menga yuborasiz-da, a, muhtaram graf? Ko‘p rahmat, – dedi u yosh shvedga yuzlanib.

Knyaz yonlarida turgan moskvalik polkovnikni ko‘rib:

– A! – deya ovoz chiqardi-yu, madam Shtalga ta‘zim qilib, qizi va ularga qo‘shilib olgan moskvalik polkovnik bilan nariga yurib ketdi.

O‘zi bilan tanishgisi kelmagani uchun madam Shtalga o‘pka qilib yurgan moskvalik polkovnik o‘zini pichingchi qilib ko‘rsatishga tirishib:

– Bu kishi bizning aristokratiyamiz bo‘ladilar, knyaz, – dedi.

– Hech o‘zgarmabdi, o‘shandek, – deb javob qildi knyaz.

– Nima, siz uni sog‘ vaqtida, ya‘ni yotib qolmasdan oldin bilar-midingiz, knyaz?

– Ha, tanishlik vaqtimizda yotib qolgan, – dedi knyaz.

– O‘n yildan beri joyidan turmaydi, deyishadi...

– Shuning uchun turmaydiki, oyoqlari o‘lguday kalta. Qomati judayam beso‘naqay...

– Yo‘g‘-e, dada! – deb yubordi Kiti.

– Tili yomonlar shunaqa deyishadi-ku, chirog‘im. Lekin Varenkaning toza sho‘ri quriydi-da, – deb qo‘shib qo‘ydi. – O‘, bu kasal boyvuchchalar!

– Yo‘g‘-e, dadajon! – deb harorat bilan e‘tiroz qildi Kiti. – Varenka uni yaxshi ko‘radi. Innaykeyin, biram yaxshiliklar qiladiki! Mayli, xohlagan odamingizdan so‘rab ko‘ring. Uniyam, Aline Shtalni hamma biladi.

Knyaz qizining qo‘lini tirsagi bilan qisib:

– Ehtimol, – dedi. – Lekin yaxshilikni shunday qilgan tuzukki, kimdan so‘rasang ham, hech kim hech narsa bilmasin.

Kiti aytadigan gapi yo‘qligi uchun emas, sirli o‘ylarini otasiga ham bildirgisi kelmagani uchun jim bo‘lib qoldi. Lekin qizig‘i shu bo‘ldiki, u otasining nuqtayi nazari ta‘siriga tushib qolmaslik, muqaddas olamidan uni voqif qilmaslik uchun qanchalar uringaniga qaramay, shunday bir narsani his etdi: yechib tashlangan ko‘ylakning qanday yotganini ko‘rganingda bu ko‘ylakni kiygan ayolning qomati ko‘z oldingdan yo‘q bo‘lib ketganidek, Kiti rosa bir oydan beri qalbida saqlab yurgan madam Shtalning ilohiy tasavvuri ham shunday yo‘q bo‘lib ketdi. Endi xayolida oyoqlari kalta bir ayolgina qoldi,

u qaddi-qomati xunuk bo'lgani uchungina joyidan turmay yotadi, oyoqlarini tuzukroq o'ramagani uchun yuvosh Varenkani qiynaydi. Shunday qilib, hech bir xayol kuchi bilan avvalgi madam Shtalni tasavvurida tiriltirishning iloji qolmadi.

XXXV

Knyazning vaqtichog'ligi uydagilarga ham, uning tanish-bilishlariga ham, hatto Shcherbatskiylar qo'ngan uyning egasi – nemisga ham ta'sir qildi.

Knyaz Kiti bilan birga suv shifoxonasidan qaytib kelgach, polkovnikni, Marya Yevgenevnani, Varenkani o'zlarinikiga qahva ichgani taklif qildi-yu, stolni bog'chaga, kashtan daraxtining tagiga chiqartirib qo'yirdi, nonushta yemagini shu yerga keltirtirdi. Uy egasi ham, xizmatkorlar ham uning kayfi chog'ligini ko'rib serharakat bo'lib qoldilar. Bular knyazning saxiyligini bilardilar, oradan yarim soatcha o'tgach, yuqori qavatda yashovchi bir gamburglik kasal doktor kashtan daraxti ostiga to'plangan bu sog'lom, xushchaqchaq rus kishilarini derazadan hasadlanib tomosha qildi. Boshiga safsar lentalar qadab olgan knyaginya yaproqlarning titrab turgan soyasi ostida, oq dasturxon solinib, ustiga qahvadonlar, non, sariyog', pishloq, yaxna go'shtlar terib tashlangan stol yonida mehmonlarga choy quyib berib o'tirardi. Knyaz stolning u to'rida ishtaha bilan ovqat yeb, chaqchaqlashib gaplashib o'tirardi. Knyaz borib kelgan suv shifoxonalarida o'zi sotib olgan narsalarini, o'ymakor qutichalarini, bezak buyumlarini, kitob sahifalarini kesadigan turli-tuman pichoqlarni oldiga yoyib olib, ularni hammaga, jumladan, xizmatkor qiz Lixen bilan uy egasiga ham hadya qila boshladi. Nemis tilini yaxshi bilmagan knyaz juda kulgili tarzda uy egasi bilan hazillashar, Kitini ma'dan suvlari emas, uy egasi bergan lazzatli ovqatlar, ayniqsa, qora g'aynoli solib pishirilgan sho'rvalar shifoladi, derdi. Knyaginya erining qiliqlaridan mazax qilib kulsa hamki, jonlanib, vaqtichog' bo'lib o'tirardi, ma'dan suvlariga kelgandan buyon bunday xursand bo'lmagan edi. Polkovnik, har mahalgiday, knyazning hazillarini eshitib kulimsirasa hamki, Yevropa masalasida (u Yevropani yaxshi o'rgandim deb o'ylardi) knyaginyaning tarafini olardi. Ko'ngilchan Marya Yevgenevna esa knyaz aytgan qiziq narsalardan qotib-qotib kular, Varenka ham ta'sirlanib knyazning hazillariga ku-

lar, lekin bunday kulgidan lohas bo'lardi, Kiti unda bunday holni hech ko'rmagan edi.

Bu narsalarning hammasi Kitining kayfini chog' qilsa ham, u bir andishadan hech qutulolmasdi. U o'z do'stlariga va jon-dili bilan yaxshi ko'rib qolgan bu hayotga otasining kulib qarashi orqasida ko'nglida ixtiyorsiz tug'ilgan masalalarni hal qilolmay qiynalardi. Buning ustiga, Petrovlarga bo'lgan munosabatidagi o'zgarish ham yangi bir muammoni vujudga keltirdi. Petrova o'z fikrini xunuk tarzda ochiq-oydin bayon etdi. Hamma xushchaqchaq, lekin Kitining ko'ngli ochilmas, bu narsa uni battar qiynardi. U bolalik chog'lari jazolanib, o'z bo'lmasiga qamab qo'yilganda, opalarining chaqchaqlashib kulishganlarini eshitib qanday his-tuyg'ularni boshidan kechirgan bo'lsa, hozir ham shunday tuyg'ular ichida edi.

Knyagina kulimsirab va eriga qahva uzata turib:

– Buncha mayda-chuyda narsalarni olib, boshingga urarmiding? – dedi.

– Shahar aylanib yurib, birdan ko'zing bir do'konga tushib qoladi, yaqin bordingmi – tamom! Molini tumshug'ingga tiqib: «Oling, erxlauxt, ekstselyents, durxlauxt»¹, deb holi-joningga qo'yishmaydi. «Durxlauxt» deyishdimi – bo'ldi, darrov erib ketaman, bunday qarabsanki, hamyoningdan o'n taler² yo'q bo'pti-qopti.

– Zerikkaningdan shunday qilasan-da, – dedi knyagina.

– Albatta, zerikkanimdan-da. Odam shunday xun bo'lib ketadiki, onasi, boshingni qayerga suqishingni bilmay qolasan.

– Qanday qilib zerikish mumkin-a, knyaz? Hozir Germaniyada qiziq narsalar shuncha ko'pki, – dedi Marya Yevgenevna.

– Ey, qiziq narsalarning hammasini bilaman: qora g'aynoli solib pishiriladigan sho'rvani bilaman, no'xatdan qilingan xasiplarni bilaman. Hamma narsani bilaman.

– Yo'q, siz nima desangiz, deng, knyaz, lekin ularning muassalari juda alomat, – dedi polkovnik.

– Qo'ysangiz-chi, nimasi alomat? Hammasi mis chaqaga o'xshab yaltirab yurishadi; hammani yengdik, deb kerilishadi-da. Xo'sh, men nimadan xursand bo'lishim kerak? Hech kimni yengmagan bo'lsam, etigimni o'zim yechib, eshik tashqarisiga o'zim chiqarib qo'yishga majbur bo'lsam, ertalab barvaqt tur, shoshib-pishib kiyin-

¹ Knyaz janoblari, general janoblari, graf janoblari.

² Eski nemis kumush tangasi.

da, yemakxonaga kirib arzon choyni ich. Uyda bo'lsa boshqa gap! Shoshilmasdan uyg'onasan, unga-bunga jahl qilasan, to'ng'illaysan, keyin es-hushingni yig'ishtirib, bafurja o'ylaysan, shoshilmaysan.

– Vaqt – naqd deganlar, buni esdan chiqarmang, – dedi polkovnik.

– U qanaqa vaqt ekan?! Shunday paytlar bo'ladiki, butun bir oylik vaqtini yarim tangaga sotasan, ba'zan yarim soatda uch pul ham topolmaydigan paytlaring bo'ladi. Shunaqami, Katenka? Ha, nega mashqing past?

– Hech, o'zim.

– Ha, yo'l bo'lsin? Birpas o'tiring, – deb murojaat etdi knyaz Varenkaga.

Varenka o'rnidan qo'zg'alib:

– Uyga borishim kerak, – dedi-yu, yana sharaqlab kulib yubordi.

Varenka kulgisi bosilgandan keyin odamlar bilan xayrlashib, shlapasini olgani uyga kirib ketdi. Kiti orqasidan bordi. Hozir unga Varenka ham boshqacha ko'rinib qoldi. Yomon ko'rinmasa ham, lekin u Kiti tasavvuridagi avvalgi Varenkaga o'xshamas edi.

Varenka soyabon bilan xaltachasini yig'ishtirib turib:

– Voy, qachondan beri bunaqa kulmagandim, – dedi. – Otangiz biram yaxshi kishi ekanki.

Kiti indamadi. Varenka:

– Qachon ko'rishamiz? – deb so'radi.

Kiti Varenkani sinab ko'rmoqchi bo'lib:

– Maman Petrovlarnikiga kirib chiqmoqchi edilar. Siz kirmaysizmi? – deb so'radi.

– Kiraman, – deb javob qildi Varenka. – Jo'nab ketishmoqchi, kirib, ul-bullarini yig'ishtirib beraman deb va'da qilganman.

– Unday bo'lsa, men ham boraman.

– Yo'g'-e, siz nima qilasisiz?

Kiti ko'zlarini katta ochib, Varenkani qo'yib yubormaslik uchun soyabonidan ushlab turib:

– Nima uchun? Nega? Nechun? – deb bidirladi. – Yo'q, to'xtang, nima uchun?

– Hech, otangiz kelganlaridan keyin ular tortinib qolishdi.

– Yo'q, menga aytib bering: Petrovlarnikiga nima uchun tez-tez borib turishimni xohlamaysiz? Rostdan ham istamaysiz-a? Nima uchun?

– Men sizga bunaqa deganim yo‘q, – dedi Varenka og‘ir-vazmin turib.

– Yo‘q, jonimni qoqay, ayting!

– Hammasini aytaveraymi? – deb so‘radi Varenka.

– Hammasini, hammasini! – dedi Kiti shoshib.

– Unchalik jiddiy narsa yo‘q-ku, lekin Mixail Aleksandrovich (rassomni shunday atardilar) ilgari ketishga rozi bo‘lsayam, hozir unamayapti, – dedi Varenka, kulimsirab.

Kiti xo‘mrayib turib Varenkani qistadi:

– Innaykeyin? Innaykeyin-chi?

– Innaykeyin, Anna Pavlovna nima uchundir, Kiti shu yerda bo‘lgani uchun ketging yo‘q, deb aytdi. Albatta, bu o‘rinsiz gap, lekin shunday bo‘lsayam, siz tufayli g‘ijillashib qolishibdi. O‘zingiz bilasiz-ku, kasallar judayam injiq bo‘lishadi.

Kiti borgan sayin qovoqlarini osiltirib, churq etmay turar, Varenka esa uni tinchitish, yumshatishga tirishib yolg‘iz o‘zi gapirar, qaynab-toshib, g‘alayonga kelganini ko‘rib, uning hozir ko‘z yoshi qilishini ham yoinki jag‘i ochilib ketishini ham bilmasdi.

– Shuning uchun bormaganingiz ma‘qul... O‘zingiz tushunasiz-ku, xafa bo‘lmang...

Kiti soyabonini Varenkaning qo‘lidan tortib olgach, dugonasining ko‘zlariga qaramay, qayoqqadir tikilib turib.

– O‘zimga o‘zim qildim, o‘zimga o‘zim qildim! – deb bidirladi.

Varenka do‘stining bolalarcha g‘azabini ko‘rib kulimsiramoqchi bo‘ldi-yu, lekin uni xafa qilib qo‘yishdan qo‘rqdi. Keyin:

– Nega o‘zingizga o‘zingiz qilasiz? Tushunmadim, – dedi.

– Shuning uchun o‘zimga o‘zim qildim deymanki, bular hammasi yurakdan chiqqan ish emas, yasama, o‘ylab chiqarilgan narsalar edi. Birovning eriga suykanish menga juda zaril keptimi? Ana ko‘rdingizmi, birov mendan iltimos qilmagan narsani qildim-u, er-u xotinning janjaliga sababchi bo‘ldim. Chunki bular hammasi yasamalik! Soxtalik!

– Axir, nima maqsadda yasama muomala qilasiz? – deb Varenka sekingina so‘radi.

Kiti soyabonni bir ochib, bir yopib turib:

– Ax, naqadar ahmoqona, jirkanch narsalar bu! Bunday qilishimning hech zarurati yo‘q edi... Hammasiga riyokorligim aybdor! – dedi.

– Tavba, axir, nima uchun bunday qildingiz?

– Odamlar nazarida, o‘z ko‘zimda, Xudo oldida yaxshiroq ko‘rinish, hammani aldash uchun. Yo‘q, bas endi, bunday narsalarga minba‘d berilmayman! Mayli, o‘tim yomon bo‘lsa bo‘lsin, lekin yolg‘onchi, aldamchi bo‘lmay.

– Iya, kim aldamchilik qilyapti? – dedi Varenka o‘pkalab. – Gapingizdan xuddi...

Kiti hozir g‘azabga kelib, o‘zini tutolmasdi. Uni gapirtirmadi.

– Siz to‘g‘ringizdama, aslo siz to‘g‘ringizdama bu gapim. Siz bunday narsalardan xoli, mukammal insonsiz. Ha, ha, bilaman, siz aybsiz odamsiz, lekin men shunday nodon bo‘lsam, nima qilay? Nodon bo‘lmasam, boshimga bu savdolar tushmasdi. Mayli, qanday bo‘lsam, shunday bo‘lib qolay, o‘zimni yaxshi ko‘rsatish uchun soxta harakatlar qilmay qo‘ya qolay. Anna Pavlovna bilan mening nima ishim bor ekan-a? Mayli, xohlaganlaricha yashayverishsin, men ham xohlaganimcha yashayman. Boshqacha bo‘lolmayman... Bu men aytgan narsamas, hech ham unaqamas!..

Varenka hayron bo‘lib:

– Nima unaqamas? – deb so‘radi.

– Hamma narsa, bu men o‘ylagan narsamas. Men yurak amri bilan yashayolaman, boshqacha yashayolmayman. Ammo siz qonunqoida bilan yashaysiz. Men sizni beg‘araz yaxshi ko‘rgandim, siz bo‘lsangiz, to‘g‘risi, meni qutqazish, menga ta‘lim berish uchungina yaxshi ko‘ribsiz!

– Insofdan chiqib ketdingiz, – dedi Varenka.

– Men boshqalar to‘g‘risida gapirayotganim yo‘q-ku, o‘zim to‘g‘rimda gapiryapman.

– Kiti! – onasining ovozi eshitildi. – Po‘rtaxollaringni olib kelib dadangga ko‘rsat.

Kiti dugonasi bilan yarashmasdan, mag‘rur bir qiyofada stoldan qutichadagi po‘rtaxollarni olib, onasining yoniga ketdi.

Otasi bilan onasi:

– Nima bo‘ldi? Nimaga qizarib ketding? – dedi baravariga.

Kiti:

– Hech narsa, – deb javob qildi-da: – Hozir kelaman, – deb orqasiga chopib ketdi.

«U shu yerda hali! – deb o‘yladi Kiti. – Nima deyman-a unga, voy Xudo! Nima qilib qo‘ydim, nimalar deb yubordim! Bechorani

nimaga xafa qildim? Endi nima qilsam ekan? Oldiga borib nima deyman?» deb o'yladi-yu, Kiti eshik yonida to'xtab qoldi.

Varenka boshida shlapa, qo'lida soyabon bilan stol yonida o'tirib, Kiti sindirgan prujinani qarayotgan edi, Kiti kirganda, boshini ko'tarib qaradi.

Kiti uning yoniga kelib:

– Varenka, kechiring meni, kechiring, – deb shivirladi. – Nimalar deganimni o'zim ham bilmayman. Men...

– To'g'risi, sizni xafa bo'lasiz deb o'ylamagandim, – dedi Varenka kulimsirab.

Dugonalar o'rtasida sulh tuzildi. Ammo Kiti yashab turgan muhit otasining kelishi bilan butunlay o'zgarib ketgandek edi. Kiti bilgan-o'rgangan narsalaridan qaytmagan bo'lsa ham, xohlagan odamiga o'xshashni orzu qilish bilan o'zini aldab kelganini angladi. U xuddi uyqudan uyg'ongandek bo'ldi, ko'tarilmoqchi bo'lgan yuksaklikda soxtakorliksiz va maqtanchoqliksiz turib olishning naqadar qiyinligini tushundi, bundan tashqari, ichida yashab kelgan bu qayg'u alam, kasal va o'layotgan insonlar muhitining butun og'irligini ham sezdi, butun bu narsalarga mehr qo'yish uchun o'zini zo'rlagani o'ziga og'ir tuyuldi, tezroq toza havoga chiqqisi, Rossiyaga qaytgisi va olingan xatlardan ma'lum bo'lishicha, Dolli bolalari bilan ko'chib chiqqan Yergushovo qishlog'iga borgisi kelib ketdi.

Ammo Varenkaga bo'lgan muhabbati kamaymagan edi. Kiti u bilan xayrlashib, Rossiyaga, o'zlarinikiga mehmon bo'lib kelishini yalinib-yolvorib so'radi.

– Xo'p, lekin erga tekkaningizda boraman, – dedi Varenka.

– Hech qachon erga tegmayman.

– Unday bo'lsa, men ham hech qachon bormayman.

– Unday bo'lsa, men ham sizni kelasiz deb erga tegaman. Ha-da, va'dangiz esingizdan chiqmasin! – dedi Kiti.

Doktorlarning taxminlari to'g'ri chiqdi. Kiti uyiga, Rossiya-ga soppa-sog' bo'lib qaytdi. U burungiday beg'am, xushchaqchaq bo'lmasa hamki, har holda, og'ir-vazmin edi. Uning Moskvada tortgan dard-u alamlari bir xotira bo'lib qoldi.



UCHINCHI QISM

I

Sergey Ivanovich Koznishev aqliy mehnatdan dam olmoqchi bo'ldi-yu, odatdagicha chet elga jo'nash o'rniga, may oyining oxirlarida qishloqdagi ukasining oldiga kirib keldi. Uning qanoaticha, eng yaxshi hayot – qishloq hayoti edi. U hozir ana shu hayot gash-tini surishi uchun ukasining oldiga kelgan edi. Konstantin Levin bu yoz Nikolay akasining kelishiga umidvor bo'lmagani uchun ham, katta akasini ko'rib boshi osmonga yetdi. Lekin Sergey Ivanovich-ni yaxshi ko'rganiga va uni hurmat qilganiga qaramay, Konstantin Levin akasining qishloqda ekanidan birmuncha qisildi. Akasining qishloqqa bo'lgan munosabatini ko'rib qisilar, hatto g'ashi ham kelardi. Konstantin Levin nazarida, qishloq hayot manbayi, ya'ni shodlik, iztirob, mehnat maydoni edi, Sergey Ivanovich nazarida esa qishloq, bir yoqdan, og'ir mehnatdan so'ng hordiq chiqariladigan joy bo'lsa, ikkinchi yoqdan, buzuqlikka qarshi dori-darmon ediki, foydasi ko'pligini bilgani uchun bu darmonni jonu dili bilan qabul qilardi. Konstantin Levinning nazarida, qishloq – foydasi muqar-rar bo'lgan mehnatga maydon ochib bergani uchun yaxshi ko'rinsa, Sergey Ivanovich nazarida esa qishloq – u yerda hech narsa qilmaslik mumkinligi va qilish kerak emasligi uchun ham yaxshi ko'rinar-di. Bundan tashqari, Sergey Ivanovichning xalqqa muomalasi ham Konstantinni biroz xijil qilardi. Sergey Ivanovich qishloq odamlarini yaxshi ko'rganini, ularni yaxshi bilganini aytar, soxtalikka bormas-dan, kerilmasdan mujiklar bilan tez-tez suhbatlar qurar, bu suhbat-larning har biridan xalq foydasiga va o'zining bu xalqni yaxshi bil-ganini ko'rsatadigan dalillar foydasiga umumiy xulosalar chiqarardi. Xalqqa bu xilda muomala qilinishi Konstantin Levinga aslo yoqmas edi. Konstantin Levin nazarida, xalq umumiy mehnatda faqat asosiy

qatnashchigina edi. Shuning uchun, mujiklarga bo'lgan butun hurmatiga va o'zi aytgandek, go'daklik chog'larida emizib katta qilgan mujik enagasining suti bilan qoniga singib ketgan allaqanday muhabbatiga qaramay, bu umumiy ishda ular bilan birga qatnashib kelgan bir kishi sifatida bu odamlarning kuch-quvvatlariga, kamtarinligiga, haqqoniyligiga ba'zan qoyil qolar, ko'pincha, umumiy ishda boshqa xislatlar talab qilinganda esa ularning beg'amligi, piyonistaligi, yolg'onchiligi uchun g'azabga kelar edi. Agar Konstantin Levindan mujiklarni yaxshi ko'rasanmi deb so'rab qolguday bo'lishsa, qanday javob qilishini bilmay boshi qotib qolgan bo'lar edi. Umuman, odamlarni ham sevgani, ham yomon ko'rganiga o'xshash, mujiklarni u ham sevar, ham yomon ko'rardi. Albatta, u yaxshi odam bo'lgani uchun odamlarni yomon ko'rishdan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rardi. Mujiklarni ham shunday yaxshi ko'rardi. Lekin alohida bir xislatga ega deb yaxshi ko'rmaganidek, yomon ham ko'rmasdi, chunki u mujiklar bilan birga yashab, butun manfaatlari mujiklar bilan bog'liq bo'lganiga qaramay, shu bilan birga, u o'zini mujiklarning bir zarasi deb hisoblar, o'zida ham, mujiklarda ham alohida fazilat va nuqsonlar bor deb bilmas, shuning uchun o'zini mujiklarga qarshi qo'yolmas edi. Bundan tashqari, bir xo'jayin, bir vositachi, ayniqsa, bir maslahatgo'y sifatida (mujiklar unga ishonishar, qirq chaqirimlab yerdan maslahat olgani kelishardi) uzoq vaqt mujiklar bilan eng yaqin munosabatda bo'lib kelgan bo'lsa ham, haligacha mujiklar haqida muayyan bir mulohazaga ega bo'lmagani uchun unga «Mujiklarni bilasizmi?» deyilgan savolga javob berish ham, «Mujiklarni yaxshi ko'rasizmi?» deyilgan savolga javob berishday qiyin, mushkul narsa edi. Uning uchun mujiklarni bilaman deyish ham, odamlarni bilaman deganday gap edi. U o'zi yaxshi va maroqli deb hisoblagan har xil odamlarni, bular qatorida mujiklarni ham har doim kuzatib, o'rganib yurar, hamma vaqt ularda yangidan-yangi fazilatlar topar, natijada, ular haqidagi avvalgi fikrlarini o'zgartirib, yangi fikrlarga kelardi. Sergey Ivanovich esa aksincha edi. O'zi yashab turgan hayotni qanchalik yomon ko'rsa, buning aksiga qishloq hayotini shunchalik yaxshi ko'rar, maqtab yurardi, u o'zi bilgan odamlar toifasini qanchalik yomon ko'rsa, buning aksiga qishloq mujiklarini shunchalik yaxshi ko'rardi, xuddi shuningdek, mujiklarni umuman insonlarga zid bir toifa deb bilardi. Uning ma'lum tizimga solingan

aqlida xalq hayotining qisman xalq hayotining o'zidan, asosan esa muqoyasalardan hosil topgan muayyan shakllari ravshan gavdalana boshladi. U mujiklar to'g'risidagi fikrini ham, ularga bo'lgan xayri-xohlik munosabatini ham hech vaqt o'zgartirmas edi.

Mujiklar masalasida aka-uka o'rtasida chiqib turadigan bahslarda Sergey Ivanovich mujiklarning o'zlari, ularning xarakteri, xosiyatlari va didlari haqida muayyan fikrga ega bo'lgani uchun hamma vaqt ukasidan g'olib chiqardi. Konstantin Levinda esa hech qanday muayyan va qat'iy tushuncha yo'q edi, shuning uchun bu xil tortishuvlarda Konstantin Levinning hamma vaqt o'z fikriga o'zi qarshi tushunchada ekani oshkor bo'lib qolardi.

Sergey Ivanovichning nazarida, kichik ukasi yuragi keng va toza yigit, ammo zehni ancha o'tkir bo'lsa ham, o'tkinchi taassurotlarga tez beriladi, shuning uchun qarama-qarshi fikrlarga alahsib turadi. Aka bo'lgani uchun ko'ngilchanlik qilib, u ba'zan bu narsalarning ahamiyatini tushuntirishga urinsa ham, lekin ukasi bilan gap tala-shishdan rohat topmasdi, chunki Sergey Ivanovich uni osongina chalpak qilib tashlardi.

Konstantin Levin akasiga umumiy baxt-saodat uchun hormay-tolmay ishlashga qobiliyatli, eng yuksak fazilatli olijanob, zo'r aql va bilimga ega bo'lgan kishi deb qarardi. Lekin yoshi ulg'aygan va akasini yana ham chuqurroq o'rgangan sari qalbining chuqur bir yerida, umumiy baxt-saodat uchun hormay-tolmay ishlash qobiliyati (o'zini shu qobiliyatdan mahrum deb hisoblardi) ehtimol, fazilat emas, aksincha, nimaningdir yetishmagani – yaxshi, halol, olijanob orzular va didlarning yetishmagani emas, balki hayot kuchining, qalb deb atalgan narsaning, odamni hayot yo'llaridan bittasini tanlashga va faqat shu bitta yo'l bilangina borishga majbur qiladigan intilishning yetishmagani alomatidir, degan fikr miyasiga tez-tez keladigan bo'lib qoldi. U akasini qancha ko'p o'rgansa, Sergey Ivanovichning ham, umumiy baxt-saodat yo'lida hormay-tolmay ishlayotgan boshqa juda ko'p arboblarning ham bu umumiy baxt-saodatni qalblari bilan sevmaganlariga shuncha ko'p qanoat hosil qilib bordi. Konstantin Levinning qanoaticha, ular bu narsa bilan shug'ullanishning yaxshiligini aql-idroklari bilan tushungan, shuning uchun ham bu ish bilan mashg'ul bo'lib kelayotgan edilar. Akasi shohmot o'yiniga va yangi mashinaning juda g'alati ishlanganiga qanchalik qiziqsa,

umumiy baxt-saodat va ruhning abadiyligi masalalariga ham o'shan-cha qiziqardi, buni sezgandan keyin Levinning taxminlari yana ham chuqurroq ildiz otib ketdi.

Bundan tashqari, Konstantin Levinning akasining qishloqda ekanidan siqilishiga yana boshqa sabab ham bor edi: Levin qishloqda ayniqsa, yoz pallalarida har doim xo'jalik ishlari bilan band bo'lar, qilinadigan ishlarni bajarishga yozning uzun kunlari ham kaltalik qil- lar, Sergey Ivanovich bo'lsa bemalol dam olib yotardi. Lekin u hozir dam olayotgan, ya'ni asari ustida ishlamayotgan bo'lsa ham, aqliy mehnatga shu qadar o'rganib qolgandiki, miyasiga kelgan fikrlarni ixcham, ko'rkam shaklda gapirib berishni yaxshi ko'rar, bularga bi-rov quloq solib o'tirishi kerak edi. Uning gaplariga quloq soladigan odam ukasi edi. Shu sababdan ham, muomalalarining sodda, do'stona bo'lishiga qaramay, Konstantin akasini yolg'iz qoldirib ketishdan tortinardi. Sergey Ivanovich ko'kat ustida cho'zilib olib o'zini of- tobg'a solishni, erinchoqlik bilan valaqlab yotishni yaxshi ko'rardi.

– Bilmaysan-da, – dedi Sergey Ivanovich ukasiga, – bu xoxol tanballigi jonimga shunaqayam huzur beradiki! Miyamga irimiga bittayam o'y kelmaydi.

Lekin Konstantin Levin akasining yonida gaplariga quloq solib o'tirishdan xit bo'lib ketardi, chunki o'zi ko'z-quloq bo'lib turmasa, go'ngni usiz dalaga tashishib, Xudo biladi, qanday to'kib ketishar ekan deb bezovta edi, innaykeyin, plugning tishini ham mahkamlamasdan chiqarib tashlashadi-da, plug degani behuda narsa, o'zimizning almi- soqdan qolgan omochimiz yaxshi, deb turishib oladi.

Sergey Ivanovich unga:

– Bas-e, hadeb jaziramada yuraverasanmi! – desa, Levin:

– Yo'q, idoraga birrov kirib chiqmasam bo'lmaydi, ishim bor, – derdi-yu, dalaga qarab chopardi.

II

Ro'zg'or ishlariga qarab turuvchi enaga Agafya Mixaylovna iyun- ning dastlabki kunlarida yangigina tuzlagan qo'ziqorinlarni bankada yerto'laga olib tushib ketayotib qoqildi-yu, yiqilib, qo'lini chiqarib oldi. Yaqindagina talabalik kursini tugatgan bir yosh, laqma zemstvo doktori keldi. U Agafya Mixaylovnaning qo'li chiqmaganini aytib,

kompress qo'ydi-da, mashhur Sergey Ivanovich Koznishevning suhbatidan lazzat oldi, shekilli, tushlik qilgani qoldi. Keyin, o'zining hamma narsadan xabardorligini ko'rsatish uchun, zemstvo ishlarining ahvoli yomonligidan shikoyat qilib, uyezdda tarqalgan g'iybatlarni oqizmay-tomizmay Sergey Ivanovichga aytib berdi. Sergey Ivanovich uning gaplarini diqqat bilan eshitdi, ba'zi narsalarni surishtirdi, keyin, yangi some topilganidan quvonib, gapga kirishib ketdi-da, yosh doktorga nihoyatda ma'qul tushgan bir qancha o'tkir, salmoqli fikrlar aytdi, u porloq va qizg'in suhbatdan keyin hamma vaqt kayfi ochilar, uning bu odatini ukasi bilardi. Doktor jo'nab ketgandan so'ng Sergey Ivanovich soyga borib baliq tutmoqchi ekanini aytdi. U baliq ovlashni yaxshi ko'rar va bunday bema'ni narsani yaxshi ko'rganidan go'yo o'zi faxrlanar ham edi.

Konstantin Levin esa haydalayotgan dalaga, keyin pichanzorga borishi kerak edi, akasini kabrioletida birga borishga taklif qildi.

Yoz dovondan oshib, bu yilgi hosil ko'zga ko'rinib qolgan, kelasi yil ekinlarining g'ami yeyiladigan va o'rim-terim yaqinlashgan palla edi, javdari bug'doy boshq olib, hali to'lmagan, yengil, sariq-yashil boshqolari shamolda to'lg'inlanib turardi, oralarida sariq ko'katlar sochilib yotgan yashil sulilar kichik ekin maydonlarida tinimsiz tebrantar, ertaki grechixa g'ovlab ketib, yer bag'rini qoplab olgan, mollar bosaverib toshday qotib ketgan, omoch ham o'tmaydigan dalalarning yarmi haydovga chiqarilgan edi. Bunday pallada dalaga chiqarib solingan quruq go'ng tong paytlarida xushbo'y ko'katlar hidiga qo'shilib anqiydi, sayhon joylarda ehtiyot qilib saqlangan pichanlar o'rimchilarini kutib, dengizday to'lg'anib turadi.

Qishloq ishlarida har yil takrorlanadigan va har yil butun mujliklar kuchini talab qiladigan o'rim-yig'im pallasi oldidagi qisqagina tanaffus payti edi. Hosil yaxshi, havo ochiq, kunlar issiq, tunlar shudringli, qisqa.

Aka-uka pichanzorga borish uchun o'rmon oralab o'tishga majbur edilar. Sergey Ivanovich yaproqlarga ko'milgan o'rmon manzarasidan zavqlanib borar, ukasiga goh terskay tomondan qorayib, sariq yaproqlari bilan olaquroq bo'lib ko'ringan, gullay-gullay deb qolgan keksa jo'ka daraxtini ishora qilar, goh shu yil ekilgan va zumradday tovlanib turgan yosh niholchalarga imo qilardi. Konstantin Levin

tabiatning go'zalligi haqida gapirishni ham, bu haqdagi gaplarni eshitishni ham yomon ko'rardi. Uning nazarida, so'z o'zi ko'rib turgan narsaning husniga dog' tushirardi. U akasining so'zlarini ma'qullab borsa ham, o'zi ixtiyorsiz boshqa narsalar to'g'risida o'ylardi. O'rmondan chiqishgandan so'ng, uning butun diqqatini qaysi joylari ko'kat bosgan, qaysi joylari jo'yak olinib pol qilingan, qaysi joylari go'ng solingan, qaysi joylari haydab qo'yilgan yaydoq dala qamrab oldi. Dalada birin-ketin aravalar bormoqda edi. Levin aravalarni sanadi-da, hamma go'ngni tashib ulgurisharkan, deb xursand bo'ldi. Pichanzorni ko'rgandan keyin esa butun fikri o'rim masalasiga o'tdi. U pichan o'rimiga hamisha jon kuydirar edi. Pichanzorga kelishgach, Levin otini to'xtatdi.

Ertalabki shabnam pastda, qalin ko'katlar ichida hali ham saqlangan edi, shu sababli, oyog'ini ho'l qilib qo'ymaslik uchun, Sergey Ivanovich ukasidan o'zini oqtol yonigacha aravasida eltib qo'yishni so'radi, anhor bo'yidagi shu daraxt yaqinida zog'orabaliqlar ko'p bo'lardi. Konstantin Levin selkillab turgan ko'katlariga yuragi achishib aravasini o'tloqqa solib yubordi. G'ovlab yotgan ko'katlar, arava g'ildiraklariga, ot oyoqlariga yumshoqqina o'ralib, shabnamdan ivigan g'ildirak o'qi va kegaylariga urug'lari yopishib, to'kilib qolardi.

Akasi buta tagiga o'tirib, qarmoqlarini to'g'riley boshladi, Levin esa otini bir chetga bog'ladi-da, shamol to'lqinlantirmayotgan poyonsiz bo'z-yashil ko'katlar dengiziga kirib ketdi. Urug'lari to'kilib turgan, ipakdek yumshoq ko'katlar suv toshadigan joylarda odamlarning qariyb belidan kelardi.

Konstantin Levin pichanzorni tikkasiga kesib o'tib, yo'lga chiqdi-da, asalari inini ko'tarib ketayotgan shilpiq ko'zli bir cholga uchradi.

– Ha, Fomich, nima balo, tutib oldingmi? – deb so'radi Levin.

– Ey, tutib boshimga uramanmi, Konstantin Mitrich! O'zimirnikini eplab olsam ham katta gap. Bachchag'arlar yana qochib ketsa bo'ladimi... baraka topgur yigitlar otda quvib tutib kelishdi. Eringizni haydashayotgan ekan. Otni qo'shdan chiqarib, tutib kelishdi...

– Qani, nima deysan, Fomich: o'rdiraveraymi yo tag'in picha sabr qilaymi?

– Nima desam bo'ladi! Biz o'zimizning pichanlarimizni Pyotr bayramidan oldin o'rolmaymiz. Siz bo'lsangiz, har yil barvaqt o'rdirasiz. Nimasini aytasiz, Xudo beribdi, o'lanlaringiz chakki emas. Chorvangizga rosa jon kiradi-da.

– Havo qanday bo'lar ekan, nima deysan?

– Bunisini Xudo biladi. Balki, havo yaxshi kelar.

Levin akasining yoniga keldi. Qarmog'iga hech nima ilinmagan bo'lsa ham, Sergey Ivanovichning kayfi nihoyatda yaxshi edi. Levin akasining doktor bilan qilgan suhbatidan keyin gaplashgisi kelib turganini sezdi. Levinning esa, aksincha, tezroq uyga qaytib, o'roqchilarni ertaga chaqirtirmoqchi edi, o'zini tog'day bosib turgan o'roq tashvishidan tezroq qutulgisi kelardi.

– Qaytaylik endi, – dedi Levin.

– Shoshib qayerga borasan? Biroz o'tiraylik. Voy-voy, hamma yog'ing shalabbo-ku! Baliq ilinmasayam, lekin maza qilyapman. Har qanaqa ovning shunisi yaxshiki, tabiat og'ushida bo'lasan. Anavi oynaga o'xshagan suvni qara, qanday ajoyib! – dedi akasi. – Bo'ylaridagi o't-o'lanlar, – deb so'zini davom qildi, – hamisha bir topishmoqni esimga soladi, bilasanmi qanday topishmoq? «Ko'kat sugva aytarmish: biz bo'lsak silkinamiz, tebranamiz...»

– Men bilmayman bu topishmoqni, – dedi Levin tumtayib.

III

– Bilasanmi, men sen to'g'ringda o'yladim, – dedi Sergey Ivanovich. – Uyezdrlaringizdagi ahvol chatoqmish, do'xtir aytib berdi, do'xtir ancha aqlli, bama'ni yigit ekan. Senga ilgariyam aytuvdim, yana aytaman, majlislarga bormay qo'yganing, umuman, zemstvo ishlaridan o'zingni tortib yurganing yaxshimas. Agar baobro' odamlar o'zlarini shunaqa chetga tortishsa, albatta, hamma ish, Xudo biladi, rasvoyi raddi balo bo'ladi. Pulini bo'lsa to'lab turamiz, bu pullar oylikka sarf qilinyapti, vaholanki, na maktab bor, na feldsherlar, na doylalar, na dorixona. Hech nima yo'q.

Levin malol kelayotgandek past ovoz bilan:

– Harakat qilib ko'rdim, bo'lmadi-da, – deb javob berdi. – Qo'limdan hech narsa kelmasa, nima qilay, axir?

– Nima uchun qo'lingdan hech narsa kelmas ekan? Mening masalam boshqa, men zemstvoning ishlariga tushunmayman. Men

ishga beparvo qarashning ham, qo'limdan hech narsa kelmaydi, deyilgan gaplarni ham tan olmayman, nahotki, bu faqat bir tanballik bo'lsa?

– U ham emas, bu ham emas, oxirgisi ham emas. Harakat qilib ko'rdim, lekin qo'limdan hech narsa kelmasligiga axiyri ishonдим, – dedi Levin.

Akasining so'zlari u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketardi. Anhorning narigi tomonidagi haydalayotgan yerlariga qarab turgandi, ko'zi bir qora narsaga tushdi, lekin otmi yo salt otda kelayotgan ishboshisimi, aniqlayolmadi.

– Nima uchun qo'lingdan hech narsa kelmas ekan? Tuzuk, harakat qilib ko'ribsan, chamangda, hech narsa chiqmabdi, darrov taslim bo'lib qo'ya qolish kerakmidi? Nahotki, odamda izzati nafs degan narsa bo'lmasa?

– Izzati nafs, – dedi Levin akasining gapidan nafs og'rib, – gapingga tushunmayman. Universitetdaligimda, agar boshqalarning integralni topishga aqllari yetadi-yu, seniki yetmaydi, deyshgan bo'lsa, to'g'ri, bu gap izzati nafsga tegishi mumkin. Lekin bu masalada odam eng oldin bu xil ishlarda ma'lum qobiliyatga ega ekaniga, ayniqsa, bu ishlarning hammasi nihoyatda muhimligiga qattiq ishongan bo'lishi kerak.

Sergey Ivanovich o'zini mashg'ul qilib kelayotgan narsani ukasi muhim narsa deb bilmaganidan, ayniqsa, gaplariga uncha quloq solmayotganidan nafs og'rib:

– Barakalla-ey! Seningcha, bu muhim narsa emasakan-da? – dedi.

– Mening nazarimda muhim emasdek ko'rinadi, meni qiziq-tirmaydi, nima qilay, axir?.. – deb javob berdi Levin, boya ko'rgan kishining ishboshisi ekanini aniqlab; keyin qo'shchilarga javob berganini, qo'shchilar esa omochlarini chiqarayotganlarini ko'rib: «Nahotki, haydab bo'lishgan bo'lsa?» deb o'ylandi.

Akasi xushsurat, ma'noli yuzini xo'mraytirib:

– Menga qara, – dedi. – Hamma narsaning ham chegarasi bo'ladi. Tentak bo'lsang ham vijdonli odam bo'lish, qilvirlikni yomon ko'rish juda yaxshi narsa, men buni yaxshi bilaman, lekin sen aytgan narsalar yo bema'ni narsalar yoki kurakda turmaydigan narsalar. Sen o'zing yaxshi ko'raman deb da'vo qilgan mujiklaring...

Konstantin Levin: «Hech qachon davо qilgan emas edim-ku», deb o‘ylandi.

– ...Yordamsiz qirilib ketayotgan bo‘lsa, sen qanday qilib buni muhim narsa emas deb hisoblaysan? Nodon kampir doylar chaqaloqlarni juvonmarg qilishyapti, mujiklar jaholat qo‘ynida, taqdirleri noinsof mirzolar qo‘lida. Bularga yordam qurolini qo‘lingga ushlab qo‘yishibdi-ku, sen bo‘lsang yordam qilmaysan, chunki sen buni muhim narsa emas deb bilasan. – Shundan keyin Sergey Ivanovich masalani keskin qilib qo‘ydi: – Yo sen qilishing mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘rolmaydigan darajada taraqqiy topmagan odamsan yoki o‘z tinchligingni buzishni, shuhratparastligingga putur yetkazishni, bilmayman, yana nima balolarni xohlamaganing uchungina bu narsalarga bosh qo‘shmaysan.

Konstantin Levin akasining da‘volariga bo‘ysunishdan yoki umumiy ishga muhabbati yetarli emasligini tan olishdan boshqa chorasi qolmaganini sezardi. Bu narsa esa uni tahqir etar, xafa qilardi.

– Unisi ham, bunisi ham, – dedi Levin, qat‘iy qilib. – Men ko‘rmayapman bu narsaning iloji...

– Nima? Pulni o‘rniga sarf qilib, do‘xtirlar yordamini uyushtirish mumkin emasmi?

– Nazarimda, mumkin emas... Kattaligi to‘rt ming kvadrat chiqirim bo‘lgan uyezdimizda, jaziramada, qor bo‘ronlarida, ish qaynab turgan paytlarda hammaga, hamma joyda do‘xtirlar yordamini uyushtirish mumkinligiga ko‘zim yetmaydi. Innaykeyin, umuman tibbiyotga ishonmayman ham.

– Yo‘q, unday dema, bu gaping insofdan emas... Xohlasang, bu to‘g‘rida minglab misol keltiraman... Xo‘sh, maktablar-chi?

– Maktablarning nima keragi bor?

– Ana xolos, ma‘rifatning foydasiga shak keltirib bo‘ladimi? Agar ma‘rifat senga yaxshi bo‘lsa, boshqalarga ham yaxshi.

Konstantin Levin o‘zining ma‘naviy jihatdan mot bo‘lganligini seza boshladi. Shuning uchun biroz qizishib, o‘zining umumiy ishiga parvosiz qaraganligining asosiy sababini bilmasdan aytib yubordi.

– Aytgan narsalaring, ehtimol, yaxshidir, lekin o‘zim hech foydalanmaydigan tibbiyot punktlarini, o‘zim ham bolalarimni yubormaydigan, mujiklar ham bolalarini yuborishni xohlamaydigan maktablarni tashkil qilish menga juda zaril keptimi? Innaykeyin, mujiklarning

bolalarini maktablarga yuborish kerakligiga o'zim hali uncha ishonmayman ham, – dedi Levin.

Sergey Ivanovich bu kutilmagan e'tirozni eshitib bir zumgina hayratga tushdi-yu, darhol hujumning yangi rejasini tuzdi.

U biroz jim turdi, keyin, qarmoqlardan birini chiqarib, boshqa joyga tashladi-yu, kulimsirab ukasiga qaradi.

– Menga qara... Avvalo, tibbiyot punkti zarurligini o'zing ko'rding. Masalan, Agafya Mixaylovna uchun zemstvo do'xtirini odam yuborib oldirib kelding.

– Oldirib kelganimiz bilan foydasi tegibdimi? Chamamda, qo'li qing'ir bo'lib qolsa kerak.

– Bunisi hali noma'lum... Innaykeyin, senga ko'proq savodli mujiklar, savodli qarollar kerak, bularning keltiradigan foydasi ham katta bo'ladi.

– Yo'q, xohlagan odamingdan so'rab ko'r, – dedi Konstantin Levin keskin qilib, – bundaqlarning savodlisi ishga uncha yaramaydi. Innaykeyin, yo'llarni ham tuzatib bo'lmaydi, ko'priknini bu yoqdan tuzattirsam, u yoqdan taxta-yog'ochlarini o'g'irlashib ketadi.

Sergey Ivanovich qarama-qarshi fikrlarni, gapga hech aloqasi bo'lmagan yangidan-yangi dalillarni keltirib, bir masaladan darrov boshqa masalaga ko'chib turadigan munozaralarni yomon ko'rardi, bunda odam qaysi bir savolga javob berishga shoshib qoladi, shuning uchun u qovog'ini solib:

– Lekin gap unda emas, – dedi. – Shoshma. Ma'rifatning mujiklar uchun bir baxt-u saodat ekaniga tan berasanmi?

Levin bexosdan:

– Tan beraman, – dedi-yu, darhol ko'nglidagi narsani aytmagani o'yladi. Agar tan berdim desa, shu bilan o'z gapining hech qanday ma'noga ega bo'lmagan behuda narsa ekanligi isbot qilingan bo'lar, buni Levin sezib turardi. Buning qanday isbot qilinishini o'zi bilmasa ham, lekin bu dalilning, shubhasiz, mantiq jihatidan isbot qilinishi aniqligini bilardi, shuning uchun bu isbotga muntazir bo'lib turdi.

Buning dalili Konstantin Levin kutgandan ancha sodda bo'lib chiqdi.

– Modomiki, buning xayrli ekanligiga tan bersang, – dedi Sergey Ivanovich, – u holda bir halol kishi sifatida bunday ishni yaxshi

ko'rmsliging, bunga xayrixoh bo'lmasliging, demak, bu ish yo'lida jonbozlik ko'rsatishni xohlamasliging mumkin emas.

– Lekin bu ishni hali xayrli ish deb tan olganimcha yo'q, – dedi qizarib Konstantin Levin.

– Nima? Hozirgina tan olding-ku!..

– Ya'ni men uni yaxshi deb ham tan olmayman, qilsa bo'ladigan narsa deb ham.

– Bu ishni qilmasdan turib, qandayligini bilolmaysan.

– Xayr, faraz qilaylik, – dedi Levin, garchi o'zi faraz qilmagan bo'lsa ham, – xayr, faraz qilaylik, bu sen aytganday bo'la qolsin, lekin men nima uchun bu narsalarning g'amini yeyishim kerakligiga hech aqlim yetmayapti.

– Nimaga yetmaydi?

– Yo'q, modomiki, bu haqda gap ochdikmi, kel endi, buni falsafa nuqtayi nazaridan menga tushuntirib ber, – dedi Levin.

Sergey Ivanovich:

– Hayronman, bu yerda falsafa nima qilib yuribdi, – degan edi, akasining gap ohangi Levinga: «Senga falsafa haqida gapirishni kim qo'yibdi», deganday bo'lib tuyuldi. Bundan Levinning jahli chiqdi.

– Mana bunday qilib yuribdi! – dedi Levin, qizishib. – Men hammamizni harakatga solgan kuch har holda shaxsiy saodat deb o'ylayman. Men dvoryan bo'lganim uchun, hozir zemstvo muassasalarida mening farog'atimga yordami tegadigan biron narsa borligini ko'rmayman. Yo'llar tuzalgan emas, tuzalmaydi ham, otlarim meni yomon yo'llarda ham olib yurishibdi. Menga do'xtirlar ham, tibbiyot punktlari ham darkor emas, sudlarga ham hojatim yo'q, men ularga hech qachon arz bilan borgan emasman, bormayman ham. Maktablarning menga kerak emasligi u yoqda tursin, ular menga zararli ham, men buni boya aytuvdim. Zemstvo muassasasi men uchun har botmon yerdan o'n sakkiz tiyindan haq to'lash, shaharga tushish, qandalalarga yem bo'lish, har xil bema'ni va yaramas gaplarni eshitishdan iborat bir majburiyat, xolos, shaxsiy manfaatim esa meni bunday narsalarga majbur qilmaydi.

Sergey Ivanovich kulimsirab uning so'zini bo'ldi:

– Shoshma, shaxsiy manfaatimiz bizni dehqonlarni ozod qilish yo'lida ishlashga majbur qilgan emas edi, shunday bo'lsa ham ishlaganmiz-ku.

– Yo‘q! – Konstantin yana ham battarroq qizishib akasining so‘zini bo‘ldi. – Dehqonlarni ozod qilish ishi boshqa gap edi. Unda shaxsiy manfaat bor edi. Buni, hamma yaxshi odamlarni ezib turgan bu bo‘yinturuqni olib tashlamoqchi bo‘lgan edik. Lekin vakil bo‘lish, qancha axlat tashuvchi kerakligini belgilash, o‘zim turmaydigan shaharga quvurlarni qanday o‘tkazish masalasi ustida bosh qotirish, sud maslahatchisi bo‘lib o‘tirish va cho‘chqa go‘shтини o‘g‘irlagan mujikni sud qilish, himoyachilar bilan prokurorlarning bema‘ni, ezma gaplariga olti soatlab quloq solish, sud raisi mening mujigim qari Alyoshka-tentakdan: «Janob sudlanuvchi, cho‘chqa go‘shтинing o‘g‘irlanganligi faktini bo‘yningizga olasizmi?» deb so‘raganda, uning: «Labbay?» deganiga shohid bo‘lib o‘tirish kimga zaril kepti?

Konstantin Levin asosiy mavzudan chiqib, sud raisi bilan Alyoshka-tentakni taqlid qila boshladi, nazarida, bu narsa ham ishga taalluqli ko‘rinardi.

Lekin Sergey Ivanovich hayron bo‘lib yelkalarini qisdi.

– Xo‘p, gapning xullasini ayt, nima demoqchisan?

– Men faqat shuni aytmoqchimanki, menga... mening manfaatlarimga doir bo‘lgan haq-huquqlarni bor kuchim bilan hamma vaqt himoya qilaman, talabalik vaqtlarimizda jandarmlar yotog‘imizni tintib, xatlarimizni o‘qishganda, men bu huquqimni, ya‘ni bilimga, ozodlikka bo‘lgan huquqimni jonu jahdim bilan himoya qilishga tayyor turar edim. Harbiy majburiyat bo‘lsa boshqa gap, men buning bolalarim, aka-ukalarim taqdiriga, o‘zimning ham taqdirimga daxli borligini tushunaman; men o‘zimga taalluqli bo‘lgan narsalarni muhokama qilishga tayyorman, lekin zemstvonning qirq ming pulini nimaga xarj qilish yoki Alyoshka-tentakni sud qilish masalasiga tushunmayman, tushunolmayman ham.

Konstantin Levinning jag‘i ochilib ketib tinmay javrardi. Sergey Ivanovich kulimsirab qo‘ydi.

– Bordi-yu, ertaga sudlashadigan bo‘lding, xo‘sh, seni oddiy sudda emas, eski jinoiy ishlar palatasida sud qilishsa xursand bo‘larmiding?

– Mening sudlashadigan ishim yo‘q. Men hech qachon birovni so‘ymayman, shuning uchun sudga ham tushmayman. Ammo-lekin, – deb so‘zini davom qildi, ishga hech aloqasi bo‘lmagan boshqa gapga

ko'chib, – bizning zemstvo muassasalarimiz ham, bu narsalar ham biz Troitsa bayramida yerga sanchib qo'ygan oq qayinlarga o'xshaydi, biz bu ko'chatlarni Yevropada o'zi o'sib chiqqan o'rmonga o'xshasin deb ekishga ekdig-u, lekin sug'orishga hech ko'nglim bo'lmaydi, odam bo'lishlariga ham aqlim yetmaydi!

Sergey Ivanovich, ukasi oq qayinlar to'g'risidagi gapi bilan nima demoqchi bo'lganini darrov tushungan bo'lsa hamki, talashib o'tirgan masalalariga bu oq qayinlarni nega aralashtirganiga hayron bo'lgandek, yelkalarini qisib qo'ydi.

– To'xta, bu taxlit muhokama qilib bo'lmaydi-da, – deb ta'kidladi akasi.

Lekin Konstantin Levin o'z kamchiligini, umumiy baxt-saodatga parvosiz qaraganligini oqlash uchun:

– Mening fikrimcha, – deb so'zini davom ettirdi, – shaxsiy manfaat negiziga qurilmagan faoliyatlarning hech biri hech qachon mustahkam bo'lolmaydi. Bu umumiy, falsafiy haqiqat, – deb falsafiy so'zini keskin takrorladi va shu bilan o'zining ham el qatori falsafa to'g'risida gapirishga haqi borligini shama qilib o'tganday bo'ldi.

Sergey Ivanovich yana bir marta kulimsirab qo'ydi. «Buning ham o'z maqsadiga xizmat qiladigan allaqanday falsafasi bor ekan», deb o'ylandi-yu:

– Qo'y, sen falsafani og'zingga olma, – dedi. – Barcha asrlar falsafasi oldida ko'ndalang bo'lib kelgan asosiy masala: shaxsiy manfaat bilan umumiy manfaat orasida mavjud bo'lgan zarur aloqani topishdan iborat edi. Lekin bu gaplarning ishga aloqasi yo'q, muqoyasangdagi xatolarni tuzatib qo'yishim kerak – ishga mana buning aloqasi bor. Yerga sanchilgan oq qayinlarga emas, ko'chat qilib ekilgan, urug'i sochilgan oq qayinlarga ko'proq ehtiyotlik bilan qarash kerak. O'z muassasalaridagi muhim, ahamiyatli narsalarni darrov payqab oladigan va ularni ardoqlaydigan xalqlarninggina istiqboli bo'lishi, ana shunday xalqlarningina tarixiy xalq deb atash mumkin.

Shunday qilib, Sergey Ivanovich masalani Konstantin Levinning uncha aqli yetmaydigan falsafiy-tarixiy sohaga ko'chirib, unga o'z qarashining tamoman noto'g'riligini isbot qilib berdi.

– Bu narsalarning senga yoqmaganligi xususiga kelsak, bu gapim uchun meni kechir, bu biz ruslardagi tanballik, takabburlik natijasidir

xolos, sen vaqtincha yo‘ldan adashgansan, bu xatolar o‘tib ketadi, men bunga ishonaman.

Konstantin jim o‘tirardi. U o‘zini hamma masalada mot qilingan his etsa-da, lekin ayni zamonda, o‘zi aytmoqchi bo‘lgan narsalarini akasi uqmaganligini ham sezib turardi. Faqat nimaga uqmaganligiga hayron bo‘lardi: yo o‘z ko‘nglidagi narsalarni epaqaga keltiribroq aytolmagani uchun yoki uning gaplariga akasi qo‘shilgisi kelmagani uchun uqmaganmi – bu yog‘ini bilmasdi. Lekin bu haqda boshini qotirib o‘tirmadi-da, akasiga gap ham qaytarmasdan, butunlay boshqa narsa to‘g‘risida, o‘z ishi to‘g‘risida o‘ylab ketdi.

Sergey Ivanovich oxirgi qarموqni ham o‘rab bo‘lib otini yechib kelgandan so‘ng aka-uka yo‘lga tushdi.

IV

Akasi bilan gaplashib turganda Levinning xayolini band qilgan shaxsiy ish quyidagicha edi: Levin bultur o‘roq boshlangan kunlarning birida pichanzoriga kelib, sarkoriga jahli chiqdi-yu, shunda o‘zining jahlini bosib olish uchun qo‘llanadigan bir usulini qildi – bir mujikning qo‘lidan o‘rog‘ini olib, o‘zi o‘ra boshladi.

Bu ish Konstantin Levinga shu qadar yoqdi, u bir necha bor o‘zi o‘ra boshladi. Uyining oldidagi o‘t-o‘lanlarni bir o‘zi o‘rgandan keyin, mujiklar bilan ertadan kechgacha birga pichan o‘rishga qaror qildi; bu fikrni u erta bahorda ko‘ngliga tugib qo‘ygan edi. Akasi kelgandan beri «O‘rshsammi-yo‘qmi?» deb ikkilanib yurardi. Akasini kun bo‘yi tashlab ketishga ko‘ngli bo‘lmas, o‘rayotganimni bilsa, akam mendan kuladi, deb qo‘rqar edi. Lekin pichanzor ichida biroz yurib, o‘roq gashtini esladi-yu, o‘raversam bo‘lar degan qarorga kelib qo‘ydi. Akasi bilan o‘zi o‘rtasida o‘tgan gapdan dili siyoh bo‘lganda yana shu fikr esiga keldi.

«Menga jismoniy harakat kerak, bo‘lmasa fe‘lim juda yomon buzilib ketyapti», deb o‘yladi-da, akasi bilan mujiklar ko‘zida bu harakati nojo‘ya bo‘lsa ham, baribir, o‘rishga qaror qildi.

Kechqurun Konstantin Levin idoraga kirib, ishlar to‘g‘risida topshiriqlar berganidan keyin, qishloqlarga odam yuborib, ertasiga o‘roqchilarni chaqirtirdi va o‘roqni Kalinovodagi eng katta, eng yaxshi pichanzoridan boshlaydigan bo‘ldi.

– Innaykeyin, mening chalg‘imni Titga yuboring, charxlab ertaga olib chiqsin; o‘zim ham birga o‘rishsam, ajab emas, – dedi u qizarib ketmaslikka tirishib.

Ishboshchisi kulimsirab:

– Xo‘p bo‘ladi, – deb qo‘ydi.

Kechqurun choy ichishib o‘tirganda, Levin akasiga:

– Nazarimda, havo turib beradiganga o‘xshaydi, ertaga men ham o‘roqqa boraman, – dedi.

– Men bu ishni juda yaxshi ko‘raman, – dedi Sergey Ivanovich.

– Men-chi, judayam yaxshi ko‘raman. Gohi mahallar mujiklar bilan o‘rishganman, ertaga ham kechgacha birga o‘rishmoqchiman.

Sergey Ivanovich boshini ko‘tarib, ukasiga maroq bilan qaradi.

– Ya‘ni, qanday? Butun kun mujiklar bilan birga o‘rishmoqchimisan?

– Ha, juda maza-da, – dedi Levin.

– Jismoniy mehnat ma‘nosida-ku juda ajoyib ish-a, lekin chidash berolmasang kerak, – dedi Sergey Ivanovich, gapga zarracha ham istehzo aralashmasdan.

– O‘rib ko‘rganman. Oldin og‘ir bo‘ldi, keyin ko‘nikib ketdim. Bu safar ham orqada qolmasman, deb o‘ylayman...

– Shunaqa de! Shoshma, sening o‘rganingga mujiklar qanday qarashadi? Xo‘jayin miyasini yeb qo‘yibdi deb kulishsa kerak.

– Yo‘q, kulishmas, chunki bu shunaqayam dilcash, ayni zamon-da, shunaqayam og‘ir ishki, birovdan kulishga vaqt topilmaydi.

– Menga qara, ular bilan birga qanday tushlik qilasan? Senga kurka qovurib, dasturxon tuzab borib bo‘lmaydi-yu u yerga?

– Yo‘q, ular dam olishgan paytda uyga kelib ketaman.

Ertasiga ertalab Konstantin Levin odatdagidan barvaqt turgan bo‘lsa ham, xo‘jalik ishlari bilan biroz tutilib qoldi, shuning uchun pichanzorga kelganda o‘roqchilar ikkinchi qatorni o‘rib borishayotgan edi.

U tepaga chiqqanda, tepa etagidagi pichanzorning o‘rib bo‘lingan soya-salqin qismi va kulrang kiyimli saf-saf o‘roqchilar ko‘ziga tashlandi, ularning o‘rimga tushgan joylariga yechib qo‘ygan chakmonlari to‘p-to‘p bo‘lib qorayib yotardi.

Levin pichanzorga yaqinlashgan sari bir-biri orqasidan har maqomda chalg‘i solib borayotgan mujiklar qatori ko‘zga ravshan chali-

na boshladi, mujiklarning ba'zilari chakmonda, ba'zilari ko'ylakchan edi. Levin ularni sanab, qirq ikki kishi ekanliklarini aniqladi.

Ular pichanzorning ilgari ko'lob bo'lgan pastqam, o'ydim-chuqur yerida sekin-sekin o'rib borishardi. Levin o'zining mujiklaridan bir qanchasini tanidi. Uzun oq ko'ylakli Yermil chol ham shu yerda edi, u bukilib, chalg'i solib borardi, ilgari Levinda kucherlik qilgan Vaska nomli yigitcha ham har chalg'i solishda bir qatorini o'rib ketmoqda edi. Levinga o'rishni o'rgatgan ushoqqina, qotma mujik Tit ham shu yerda, u qaddini bukmasdan oldinda, xuddi o'roqni qo'lida o'ynatayotgandek, har chalg'i solganda keng qatorni shipirib ketardi.

Levin otdan tushdi-da, otini yo'l bo'yiga bog'lab, Titning oldiga bordi. Tit buta tagidan ikkinchi chalg'ini olib Levinga uzatdi. U boshidan qalpog'ini oldi-da, kulimsirab:

– Tayyor, xo'jayin, ustaraday o'zi o'radi, – dedi chalg'ini tutqazayotib.

Levin chalg'ini olib, chog'lab ko'rdi. O'z qatorini tugatib, terga pishib ketgan o'roqchilar xursand bo'lib birin-ketin yo'lga chiqishdi, xo'jayin bilan kulib-ochilishib ko'risha boshlashdi. Hammasi Levinga tikilib turgan bo'lsa ham, soqolsiz yuzini tirish bosgan, eg-niga qo'y terisidan nimcha po'stin kiyib olgan novcha chol yo'lga chiqib, xo'jayinga murojaat qilmaguncha hech kim og'iz ochmadi.

– Ha-da, xo'jayin, qatordan joy oldingmi – bo'ldi, orqada qolib ketma! – dedi u. Levin shu payt o'roqchilarning qiqillab kulganlarini eshitdi.

Levin:

– Qolmaslikka harakat qilaman, – dedi-yu, Titning orqasiga kelib, boshlash paytini kutib turdi.

– Ha-da, – deb chol yana ta'kidladi.

Tit yo'l ochib ketdi, orqadan Levin ham boshladi. Yo'l bo'yidagi o't past bo'yli edi, Levin anchadan beri pichan o'rmagani va hammaning o'ziga qarab turganidan biroz tortinayotgani sababli dastlabki daqiqalarda chalg'ini qulochkashlab solsa ham, lekin yaxshi o'rolmay bordi.

– Chalg'i yomon o'tqazilibdi, sopi baland, ko'rdingmi, egilib ket-yapti! – dedi o'roqchilardan biri.

– Og'irligingni ko'proq tovoningga sol, – dedi yana bittasi.

– Qo‘yaver, hechqisi yo‘q, o‘rganib ketadi, – dedi chol. – Qara, o‘nglanib oldi... Keng olyapsan, charchab qolasan... Joningga bunaqa javr qilaverma, xo‘jayin! Qara, ola qolib ketyapti! Biz shunaqa qilsak, boshimiz tayoq ostida qolardi.

Endi ko‘katlarning barrasi boshlandi, Levin esa odamlarning gapini eshitsu ham javob bermasdan, Titdan qolib ketmaslik uchun mumkin qadar yaxshiroq o‘rishga tirishdi. Yuz qadamcha ilgarilashdi. Tit to‘xtamasdan hamon oldinda borar, charchaganligi bilinmasdi, ammo Levin shu qadar charchagan ediki, holdan ketib qolaman deb qo‘rqa boshladi.

U madorining quriganini sezib, Titdan to‘xtashni iltimos qilmoqchi bo‘lib turgan edi, shu payt Titning o‘zi to‘xtadi-yu, egilib yerdan ko‘kat oldi-da, o‘rog‘ini artib, qayray boshladi. Levin qaddini rostlab chuqur tin oldi, keyin orqasiga o‘girilib qaradi. Orqasida kelayotgan mujik ham, aftidan, juda charchagan bo‘lsa kerak, chunki Levinga yetmasdanoq darrov to‘xtab, chalg‘isini qayrashga kirishdi. Tit o‘zining chalg‘isini ham, Levinnikini ham qayrab bo‘lgandan so‘ng yana o‘roqqa tushishdi.

Bu safar ham o‘rim yana boyagiday davom etdi. Tit to‘xtamasdan, charchamasdan chalg‘i solib bordi. Levin esa uning ketidan orqada qolib ketmaslikka tirishib intilar, ilgarilashgan sari ahvoli og‘irlashib borardi, shunday daqiqalar bo‘lardiki, butunlay majoldan ketganligini sezib, endi sob bo‘ldim deb turganda, birdan Tit to‘xtardi-da, yana chalg‘isini qayray boshlardi.

Birinchi qatorni shu taxlitda o‘rib o‘tishdi. Bu uzun qator Levinga juda ham qiyin ko‘rindi, lekin qator tugagandan so‘ng Tit chalg‘isini yelkasiga qo‘yib, o‘rgan yerida poshnasi qoldirib ketgan iz bilan sekin-sekin qayta boshlaganda, Levin ham o‘z iziga tushib orqasiga qaytdi. Yuzi terga pishib, burnidan chak-chak ter tomib turganiga va yag‘rini xuddi suvga tushganday ivib ketganiga qaramay, u o‘zini yaxshi his qilardi. U endi o‘roqqa yaraganligini bilar, bu esa uni ayniqsa, xursand qilardi.

Ammo qatorning yaxshi emasligi ta‘bini ancha xira qildi. Titning xuddi ip tortib o‘rganday qatorini o‘zining tarqoq, qing‘ir-qiyshiq qatori bilan solishtirib: «Endi qo‘limni kamroq silkitib, butun gavdamning og‘irligini solib o‘raman», deb o‘ylandi.

Levinning sezishicha, Tit xo‘jayinini sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan, shekilli, birinchi qatorda juda shaxdam ilgarilab borgan edi, bu-

ning ustiga, qator ham uzun edi. Keyingi qatorlarda esa ish ancha osonlashdi, shunday bo'lsa ham, Levin mujiklardan orqada qolib ketmaslik uchun bor kuchini ishlatishga majbur bo'ldi.

U mujiklardan qolib ketmaslik uchun iloji boricha yaxshiroq o'rishdan boshqa hech nimani o'ylamas, hech nimani xohlamas edi. U faqat chalg'ilarning ziringlashinagina eshitar, oldida Titning uzoqlashib borayotgan raso qaddini, kamalak bo'lib o'rilgan yerni, sekingina ag'darilib tushayotgan ko'katlarni, o'z chalg'isining tig'i yonidagi gullarni, ro'parasidagi qator oxirini – yetilganda dam oladigan o'sha egatnigina ko'rardi.

Levin nima bo'lganligini, qayoqdan kelganligini o'zi ham tushunmay, ish o'rtasida terga pishib yotgan qaynoq yelkasi qo'qqisdan muzday bo'lib, yoqimli bir tarzda sovuganini his etdi. Chalg'ilarni qayrashayotganlarida osmonga qaradi. Qora bulutlar pastlab, og'irlashib kelardi, birdan yomg'ir quyib yubordi. Mujiklarning ba'zilari yugurishib borib chakmonlarini kiyib olishdi, boshqalari esa, Levin singari, rohatbaxsh salqin yomg'irda quvonishib, yelkalarini qisib turaverishdi.

Bundan keyin yana ikki qator o'rishdi. Uzun va qisqa, ko'katlari yaxshi va yomon ungan qatorlardan o'tishdi. Levin vaqt tushunchasini yo'qotib, hozir kechmi-ertami ekanligini butunlay bilmay qoldi. Hozir uning ishida nihoyatda zo'r zavq berayotgan o'zgarish yuz bermoqda edi. Ish o'rtasida qilib turgan ishini esidan chiqarar, shunday paytlarda ish yaxshi yurishar, o'rgan qatori ham, Titniki singari, qariyb tekis, yaxshi chiqar edi. Lekin qilayotgan ishini o'yladi deguncha, yaxshiroq o'rishga tirishardi-yu, mehnatning og'irligini seza boshlardi, qatori ham yomon chiqardi.

Yana bir qator o'rgandan so'ng, tag'in yangi qatorga tushmoqchi bo'lgan edi, Tit to'xtab, cholning yoniga bordi-da, past ovoz bilan unga bir nima dedi. Ikkovi quyoshga qaradi. Mujiklarning kamida to'rt soatdan beri tinmay pichan o'rishayotganlarini, nonushta qilish payti kelganini Levin sezmay qolgan edi, u hayron bo'lib: «Bular nimani gaplashyapti, nega Tit qatorga tushmadi?» deb o'ylandi.

– Nonushta qilib olaylik, xo'jayin, – dedi chol.

– Vaqt bo'ldimi? Mayli, qilinglar.

Levin o'roqni Titga berdi-da, chakmonlari yechilib qo'yilgan joyga non olib kelgani ketayotgan mujiklar bilan birga o'rilgan va yomg'ir xiyol ivitib ketgan bo'sh maydon orqali otining yoniga

keldi. Havoning qanday kelishini bilmay, pichanni yomg'irga ivitib qo'rganini mana shu yerga kelgandagina fahmladi. Levin:

– Pichan rasvo bo'ldi-da, – degan edi, chol:

– Hechqisi yo'q, xo'jayin, yomg'irda o'r-u, havo ochig'ida yig'ib ol, degan gap bor, – dedi.

Levin otini yechib, uyiga qahva ichgani ketdi. Sergey Ivanovich o'rnidan shu tobdagina turgan edi. Levin qahvasini ichdi-yu, Sergey Ivanovich kiyinib, yemakxonaga chiqquncha, apil-tapil yana o'roqqa jo'nab ketdi.

V

Nonushtadan keyin Levin boyagi joyga emas, uni o'z yoniga taklif qilgan hazilkash chol bilan shu kuzak uylangan va o'roqqa birinchi marta chiqqan yosh mujikning o'rtasiga kelib turdi.

Chol qaddini g'oz tutib yengil, aniq, ravon harakatlar bilan (yuranda silkingan qo'l shunchalik charchashi mumkin edi), qiyshiq oyoqlarini katta-katta bosib borar, xuddi o'ynayotgandek, og'ir, baland ko'katlarni bir me'yorda o'rib tashlardi. U emas, o'tkir chalg'ining o'zi bu barra ko'katlarni o'rayotganga o'xshardi.

Levinning orqasida yosh Mishka o'rib borardi. Peshonasini arqon taxlit o'rilgan ko'kat bilan tang'ib olgan bu yigitning yosh, chiroyli yuzi mehnatning zo'ridan qiyshayib ketar, lekin unga birov qaradi deguncha, darrov kulib yuborar edi. Aftidan, qiynalganligini bo'yniga olishdan ko'ra, o'lishga tayyordek ko'rinardi.

Levin ana shu ikki kishining o'rtasida borardi. Kunning eng issiq paytida o'rim Levinga u qadar qiyin tuyulmadi. Quyilib turgan ter badanini salqin tutar, yag'rinini, boshini, engi tirsagigacha shimarilgan qo'lini kuydirayotgan oftob esa ishiga dalda, o'ziga quvvat berardi, ba'zi vaqtlarda qilayotgan ishini o'ylamas, ishi xayolidan ko'tarilardi, bunday holat tez-tez bo'lib turardi. Bunday vaqtlarda o'roqning o'zi o'radi. Bu baxtli daqiqalar edi. Qatorlar taqaladigan anhorga etishganda, chol chalg'isini ho'l, qalin ko'kat bilan artib, tig'ini muzdek anhor suvida chayqagandan so'ng, Levinga do'lchasini botirib suv olib berar, bu – baxtli, quvonchli daqiqalar edi.

– Qani, bizning kvasdan bir tatib ko'rgin-chi! Qalay, yaxshi-a? – deyardi chol ko'zini qisib.

To'g'ridan ham, Levin tunuka do'lchanning zangi va ichida suzib yurgan yashil narsalarning tami kelib turgan iliq suvchalik shirin, huzurbaxsh ichimlikni bir umr ichmagan edi. Ana shundan keyin qo'lda chalg'i bilan sekin-sekin yurib boriladigan rohatijon sayr boshlanar, bu mahalda badanda yopishib qolgan tyerlarni artish, ko'krakni to'ldirib nafas olish, orqada turnaqator bo'lib kelayotgan o'roqchilarni, tevarakda, o'rmonda, dalada qilinayotgan ishlarni tomosha qilish mumkin bo'lardi.

Levin o'rgan sayin hamma narsa xayolidan ko'tarilar, bunday daqiqalarda chalg'ini qo'l emas, balki chalg'ining o'zi hamon hissini yo'qotmagan, hayot bilan to'lib-toshgan gavdasini harakatga keltirib borar, ish ham fikr talab qilmasdan, o'z-o'zicha ravon, chapdast qilinaverardi. Eng lazmatli daqiqalar shular edi.

Bu shuursiz harakatni to'xtatib, do'nglik yerlar va o'tolmay qolgan yo'g'on o'lanlarni qanday qirqish kerakligi to'g'risida o'ylash lozim bo'lgan kezlarda ish yana og'irlashardi. Chol esa bu narsalarni osongina bajara olardi. Do'nglik yer to'g'ri keldi deguncha, darrov harakatni o'zgartirar, goh chalg'ining tig'i bilan, goh uchi bilan kalta-kalta zarblar ila do'nglikni ikki tomondan o'rib qirqib tashlardi. Chol bu narsalarni qilib turib, ro'parasidan ko'zini uzmay, nima chiqishiga qarab borardi, goh ba'zi giyohlarning o'zagini yulib o'zi yer yo bo'lmasa, Levinga tutar, goh chalg'ining uchi bilan shoxni ilib irg'itar, goh o'roq tagidan uchib chiqqan bedana uyasini kelib qarar, goh yo'lida uchragan sariq ilonni tutib, chalg'isi bilan xuddi sanchqi singari sanchib olardi-da, Levinga ko'rsatib, yana irg'itib tashlar edi.

Harakatni bu xilda o'zgartirib borish Levinga ham, uning orqasida o'rib kelayotgan yigitchaga ham qiyin edi. Bularning ikkovi o'zlarini bir xil harakatga rostlab olib jon-jahdlari bilan ishlashar, harakatlarini o'zgartirishga, ayni zamonda ro'paralariga qarab borishga qodir emas edilar.

Levin vaqtning o'tib borayotganligini sezmasdi. Agar undan qancha vaqtdan beri o'rayotganligini so'rashguday bo'lsa, yarim soatdan beri, deb javob qilardi, vaqt esa tushlikka yaqinlashib qolgan edi. Chol yangi qatorga endi tushganda, har yoqdan qiz bolalar, o'g'il bolalar kela boshlaganini ko'rib qoldi, bular g'ovlab ketgan ko'katlar ichida bo'ylari ko'rinmay, tugunchada non, og'ziga

latta tiqilgan kuvachalarda kvas ko'tarishib, qo'llari uzilguday bo'lib o'roqchilar tomon kelishardi.

Chol bolalarga ishora qilib:

– Ana, kichkina mittilar kelib qolishdi! – dedi-da, qo'lini soya-bon qilib oftobga qaradi.

Yana ikki qator o'rishgandan so'ng, chol to'xtadi.

– Bas, xo'jayin, endi ovqatlanamiz! – dedi u qat'iy qilib.

O'roqchilar anhorga yetishgandan so'ng qator orqali orqalariga qaytishib, kiyimlari yechilgan joyga kelishdi, ovqat keltirgan bolalar ularni shu yerda kutib o'tirishgan edi. Uzoqdan kelgan mujiklar aravaning tagiga, yaqindan kelgan mujiklar esa buta ostiga pichan solib o'tirishdi.

Levin ham bularning yonlariga kelib o'tirdi, uyiga qaytgisi kelmas edi.

Xo'jayindan tortinish degan so'z allaqachon o'rtadan ko'tarilgan edi. Mujiklar tushlik qilishga tayyorlana boshlashdi. Bir xillari yuvinishar, yoshlar anhorda cho'milishar, boshqalari dam oladigan joy tayyorlashar, non solingan tugunchalarini yechib, kvas kuvachalarining og'zini ochishardi.

Chol idishga nonini maydalab to'g'radi-da qoshiq sopi bilan ezdi, ustiga tunuka krujkadan suv quydi, nonni yana ezdi, tuz sepdii, keyin sharqqa yuzlanib ibodat qila boshladi.

– Qani, xo'jayin, bizning bo'ktirmaga qaralsin, – dedi u, idish oldida cho'kkalanib.

Bo'ktirma shunday mazali bo'lar ekanki, Levin uyga ovqat yegani borishdan aynidi. U chol bilan birga ovqatlandi-da, cholning uy ishlari to'g'risida gap ochib, dilkashlik qilib o'tirdi. Keyin cholni qiziqtirishi mumkin bo'lgan o'z ishlaridan, mavjud ahvoldan gapirib berdi. Levin akasidan ko'ra uni o'ziga ko'proq yaqin tutar, unga nisbatan qalbida uyg'ongan mehr va muhabbatdan ixtiyorsiz jilmayib qo'yardi. Chol yana o'rmidan turib duo qilgach, buta ostida cho'zilib, boshiga ko'kat qo'yib yotganda, Levin ham shunday qildi-da, oftobda juda ham xira bo'lib, ter yuziga va badaniga yopishavergan xira pashshalar va hasharotlarga qaramay, dong qotib uxlab qoldi. Quyosh butaning orqasiga o'tib, ustiga tusha boshlagandagina uyg'ondi. Chol allaqachon uyg'onib, yosh o'roqchilarning chalg'ilarini sozlab o'tirgan edi.

Levin tevaragiga qarab, pichanzorini taniy olmadi: shu qadar o'zgarib ketgan edi. Poyonsiz pichanzor o'rib qo'yilgan, quyoshning kechki, qiya tushgan nurlarida o'ziga xos yangi bir tov bilan tovlanib, o'rilgan pichanlaridan xushbo'y hid kelar edi. Anhor bo'yidagi butalar, ilgari ko'rinmay turgan, endi esa qayrilish joylarida suvlari po'lat singari tovlanayotgan anhorning o'zi, o'rnidan turayotgan, u yoqdan bu yoqqa yurib turgan odamlar, hali o'rilmagan, tik devordek turgan ko'katlar, yaydoq pichanzor ustida suzib yurgan qiyg'irlar – bularning hammasi yangi narsalar edi. Levin uyqudan turib, qancha joy o'rilganligini, yana bugun qancha o'rish mumkinligini xayol qila boshladi.

Qirq ikki kishi bir bo'lib, haddan tashqari ko'p joyni o'rib tashlagan edi. Barshchina mahalida o'ttiz kishi ikki kunda zo'rg'a o'rib kelgan kattakon pichanzor butunlay o'rib bo'lingan edi. Faqat kalta-kalta qatorli burchaklarigina qolgan edi. Ammo Levin bugun iloji boricha ko'proq o'rilishini xohlar, shuning uchun quyoshning tez botib borishi g'ashiga tegar edi. Charchaganini hech sezmasdi, u faqat iloji boricha ko'proq, tezroq, yana ham tezroq o'rishnigina xohlardi.

– Nima deysan, Mishkin Verxni ham o'rib tashlay olarmikanmiz? – deb so'radi u choldan.

– Xudo biladi, kun og'ib qoldi-da. Yoinki yigitlarga sharob va'da qilasanmi?

Tushlikdan keyin tamaddi qilishga o'tirib, kashandalar tamaki cheka boshlashganda, chol: «Mishkin Verxni o'rsak, siylovga sharob ichamiz!» deb e'lon qildi.

– Uni o'rish ham gap bo'ptimi! Yur, Tit! Hash-pash deguncha o'rib tashlaymiz! Ovqatingni kechasi ham yeyaverasan. Tur! – degan ovozlar eshitildi. Shunday qilib, o'roqchilar nonlarini yeb bo'lishib, o'rishga tushishdi.

– Ko'zlaringni katta och, yigitlar! – dedi-yu, Tit oldinga tushib, yo'rg'alab o'rib ketdi.

Chol uning orqasidan qistab, osongina yetib oldi-da:

– Chaqqon, chaqqon o'r! – dedi. – Oyog'ingni o'rib tashlayman. Hazir bo'!

Yoshlar ham, chollar ham, xuddi kim o'zarga o'ynashgandek, shaxdam o'rib borishardi. Lekin har qancha shoshilishsa ham, ko'katlarni nobud qilishmas, qatorlarni toza, tep-tekis olib ketishardi.

Burchakda qolgan pichanni birpasda sarishta qilib qo'yishdi. Orqadagi o'roqchilar yangi qatorga tushar-tushmas, oldindagilar chakmonlarini yelkalariga tashlab, yo'l orqali Mishkin Verxga o'ta boshlashdi.

Ular tunuka do'lchalarini shiqirlatishib, Mishkin Verxning pastidagi o'rmonzorga kirishganda, quyosh daraxtlar ustiga kelgan edi. Jarlik o'rtasidagi ko'katlar odam belidan kelar, yumshoq, nozik, hilpillab turardi.

Bo'yiga qarabmi, eniga qarabmi, o'rish xususida qisqagina maslahatlashib olishgandan so'ng, Proxor Yermilin oldinga tushib o'ra ketdi, bu zabardast qoramag'iz kishi ham nom chiqargan o'roqchilardan edi. U bir qatordan o'rib, orqasiga burildi, boshqalar ham uning orqasidan qatorni to'g'rilab, pastga, jarlikka tusha boshladi, keyin tepaga o'rlab, o'rmonning etagigacha chiqishdi. Quyosh o'rmon orqasiga botdi. Shudring tusha boshladi. O'roqchilar faqat tepadagina oftobni ko'rishar, bug' ko'tarila boshlagan pastlikda esa shudring ichida, salqin soyada o'rishardi. Ish qaynagandan qaynab borar edi.

Shilt-shilt o'rilib, yoqimli bo'y taratib turgan semiz ko'katlar qator-qator bo'lib yotib qolardi. Hamma yoqdan tor qatorga siqilishib kelayotgan o'roqchilar goh bellaridagi tunuka do'lchalarini shiqirlatishib, goh bir-biriga urilgan o'roqlarini zingillatishib, goh chalg'ilarini qayrayotgan qayroqlarini taqirlatishib, bir-birlarini qishtashib kelardi.

Levin hamon boyagi yigit bilan chol o'rtasida o'rib borar edi. Qo'y terisidan qilingan nimcha po'stinini kiyib olgan chol boyagidek o'ynab-kulib o'rar, hazillashar, o'zini hali ham erkin tutar edi. O'rmonda, ko'katlar ichida yetilgan qo'ziqorinlar uchrar, bularni chalg'ilar kesib ketardi. Lekin chol har safar qo'ziqorinni ko'rganda egilib olib qo'yniga solar: «Kampirga sovg'a» deb qo'yar edi.

Ho'l, nozik ko'katlarni o'rish har qancha oson bo'lsa ham, jarlikning tik yonbag'ridan chiqib-tushish ancha qiyin edi. Lekin chol bundan tap tortmasdi. Chalg'ini hamon boyagiday silkitib, kattakon chipta kavush kiygan oyoqlarini qattiq-qattiq bosib, mayda qadamlar bilan sekin-sekin tepaga chiqib borar, butun badani va ko'ylagidan pastga osilib tushgan qorni selkillab turar, yo'lida bitta ham ko'katni, bitta ham qo'ziqorinni qoldirmay, mujiklar bilan ham, Levin bilan ham hazillashishini qo'ymas edi. Levin uning orqasidan borar, cholni o'roqsiz ham chiqish qiyin bo'lgan shunday tik tepaga chiqayotgan-

da yiqilib tushmasaydi, deb qo‘rqar edi, lekin chol bemalol chiqib borar, ishini ham qilar edi. Levin cholni allaqanday tashqi bir kuch harakatga keltirayotganini his qilardi.

VI

Mishkin Verxdagi pichanlarni o‘rib bo‘lishdi, so‘nggi qatorni oxiriga yetkazishdi, chakmonlarini kiyishib, shod-u xurram bo‘lib uylariga qaytishdi. Levin otiga mindi-da, mujiklar bilan yuragi achishib xayrlashgandan so‘ng uyga jo‘nab ketdi. U tepadan orqasiga qayrilib qaradi, mujiklar pastdan ko‘tarila boshlagan tuman ichida ko‘rinmasdi, faqat xushchaqchaq yo‘g‘on ovozlar, kulgilar, bir-biriga tegib ketgan chalg‘ilarning jaranggigina eshitalardi.

Sergey Ivanovich allaqachon tushlik ovqatini yeb bo‘lib, o‘z bo‘lmasida limon va muz solingan suv ichib, pochtadan hozirgina olingan gazetalar bilan jurnallarni o‘qib o‘tirganda, sochlari terdan peshonasiga yopishgan, to‘zg‘igan ko‘ylagining orqasi bilan ko‘kragi qorayib, ivib ketgan Levin chaqchaq urib kirib keldi. U kecha akasi bilan o‘zi o‘rtasida o‘tgan noxush gapni butunlay unutib:

– Qoyil, butun pichanni o‘rib tashladik! Qanday ajoyib, qanday hayron qoladigan ish bo‘ldi-ya! Xo‘sh, o‘zing qanday o‘tirding? – dedi.

– Voy sho‘rim! Kapatangni qara! – dedi Sergey Ivanovich, dastlab ukasiga norozi bir nazar bilan qarab. – Ey, eshikni yop, eshikni! – deb qichqirdi. – Kamida o‘ntasini kirgizding-da.

Sergey Ivanovich pashshani ko‘rsa, jini qo‘zirdi, shuning uchun bo‘lmasining derazasini faqat kechalarigina ochib, eshikni mahkam yopib yurardi.

– O‘lay agar, bitta ham kirgani yo‘q. Kirgizgan bo‘lsam, o‘zim tutaman. Qanday maza qilganimni aytsam, ishonmaysan! O‘zing qanday o‘tirding?

– Yaxshi. Menga qara, nahotki, kun bo‘yi pichan o‘rding, a? Chamamda, qorning ochib, bo‘laringcha bo‘lgandirsan. Kuzma ovqatingni tayyorlab qo‘ydi.

– Yo‘q, hech ovqat yegim yo‘q. O‘sha yerda ovqatlandim. Endi chiqib yuvinib olay.

Sergey Ivanovich boshini tebratib turib ukasiga:

– Chiqa qol, chiqa qol, hozir men ham orqangdan boraman, – dedi. Keyin kulimsirab: – Bor tezroq, – deb ilova qildi-da, kitoblarini yig‘ib, o‘zi ham chiqishga tayyorlandi. Uning hozir birdan ko‘ngli ravshan tortib, ukasidan ayrilgisi kelmay qoldi. – Aytgandek, yomg‘ir yoqqanda qayerda jon saqlading?

– Qanaqa yomg‘ir? Biroz tomchilab o‘tdi, xolos. Hozir yuvinib kelaman. Demak, yaxshi o‘tirdim degin? Juda soz bo‘libdi-da, – dedi-yu, kiyingani chiqib ketdi.

Besh daqiqadan keyin aka-uka yemakxonada topishdi. Levin, garchi ovqat yegisi yo‘qdek tuyulsa ham, Kuzmani xafa qilmaslik uchun dasturxon yoniga o‘tirdi-yu, ovqatni yeya boshlaganda, ovqat juda ham shirin tatib ketdi. Sergey Ivanovich unga jilmayib qarab turardi.

Keyin birdan:

– Ha-ya, senga xat bor, – dedi. – Kuzma, baraka topkur, pastdan olib chiq. Eshikni yopish esingdan chiqmasin.

Xat Oblonskiydan kelgan edi. Levin ovozi chiqarib o‘qidi. Oblonskiy Peterburgdan: «Dollidan xat oldim, u hozir Yergushovoda, ishlari yaxshi emas emish. Jon og‘ayni, borib, maslahatlaring bilan yordam bermasang bo‘lmaydi, sen axir hamma narsani bilasan. Borsang, Dolli juda xursand bo‘ladi. Yolg‘iz qoldi, bechora. Qaynanam birga ketgan odamlari bilan haligacha chet elda», deb yozgan edi.

– Juda soz! Albatta borib kelaman, – dedi Levin. – Xohlasang, birga boramiz. Juda yaxshi xotin-da, to‘g‘rimi?

– Turadigan joylari uzoqmi bu yerdan?

– O‘ttiz chaqirimcha kelar. Yo‘q, qirq chaqirim kelib qolsa ham ajab emas. Lekin yo‘l kaftday. Yaxshi o‘ynab kelamiz.

Sergey Ivanovich hamon jilmayib:

– Juda xursandman, – deb qo‘ydi.

Ukasining chehrasini ko‘rib, juda vaqtichog‘ bo‘lib ketgan edi.

Sergey Ivanovich ukasining likopcha ustiga engashgan, oftobdan kuygan qizil-qo‘ng‘ir yuziga tikilib turib:

– Ishtahang chakki emas! – dedi.

– Chakki emas ham gapmi, karnay! Bunaqangi ishning har qanaqa bema‘ni tajangliklarga davo ekanligini aytsam, ishonmaysan-da.

Men tibbiyotni Arbeit – scur¹ degan yangi atama bilan boyitmoqchiman.

– Lekin senga buning zarurati yo‘q bo‘lsa kerak, deyman.

– Ha, faqat har xil asabiy kasallarga.

– Rost, buni qo‘llab ko‘rish kerak. Ha, aytgandek, sening oldingga, pichanzorga bormoqchi bo‘ldim-u, lekin issiq shunday zabtiga olib berdiki, o‘rmondan naryog‘iga o‘tolmadim. O‘sha yerda biroz o‘tirib, o‘rmon orqali qishloqqa o‘tdim-da, enangni ko‘rib, mujiklarning senga qanday qarashini surishtirdim. Gapning mazmunidan, mujiklar bu ishingni ma‘qul ko‘rishmagan ko‘rinadi. Enang: «Xo‘jayin qiladigan ish emas bu», dedi. Umuman, nazarimda, ularning «xo‘jayin ishi» deb atagan narsalarida xalqning o‘ziga xos bir tushunchasi bor ko‘rinadi. Shu sababdan ham, xo‘jayinlarning ular tushunchasidagi doiradan chiqib ketishlari aqllariga sig‘maydi.

– Ehtimol shundaydir, lekin bu ish odamga shunaqayam ajoyib zavq beradiki, men bunaqasini umrim bino bo‘lib ko‘rgan emasman. Buning hech qanday yomon joyi ham yo‘q. Shunday emasmi? – dedi Levin. – Nima ham qildim, agar ularga yoqmagan bo‘lsa. Lekin, nazarimda, buning hech qanday aybi yo‘q. A?

Sergey Ivanovich so‘zini davom qildirib:

– Umuman, bugungi kuningdan juda xursand ko‘rinasan, – dedi.

– Topding. Butun pichanzorni o‘rib tashladik. Yana qandayin bir chol bilan tanishib oldim degin? Uning qanday ajoyib inson ekanligini ko‘z oldingga keltirolmaysan!

– Bo‘pti, bugungi kuningdan shunaqa xursand bo‘libsan. Men ham. Avvalo, ikkita shoxmot masalasini yechdim, biri juda ham aloamat – piyoda boshlab beradi. Senga ham ko‘rsataman. Keyin kecha ikkovimizning o‘rtamizda o‘tgan gapni o‘yladim.

Levin ovqatdan so‘ng huzur qilib ko‘zlarini qisdi, bir necha bor nafasini puflab chiqardi-da, kechagi gapning qanday gap ekanligini sira ham esiga keltirolmasdan:

– Labbay? Kechagi gapni? – deb so‘radi.

– Nazarimda, qisman sen haq ko‘rinasan. Fikrlarimizdagi qarama-qarshilik shundan iborat ediki, sen harakatga keltiruvchi kuch deb shaxsiy manfaatni qo‘yding, men bo‘lsam ma‘rifatning ma‘lum

¹ Mehnat davosi (*nem.*).

pog'onasida turgan har bir kishida umumiy baxt-u saodat manfaati bo'lishi kerak, degan fikrdaman. Faoliyatni moddiy manfaat asosiga qurilgan bo'lishi ma'qul deyish bilan, ehtimol, sen haqdirsan. Fransuzlar aytganidek, sen umuman prime-sautiere¹ odamsan; senga ehtirosli qizg'in faoliyat kerak yoki hech narsa kerak emas.

Levin akasining so'zlarini eshitsu ham, lekin hech nimaga tushunmas, tushungisi ham kelmas edi. U faqat, akam gapiga quloq solmayotganimni fosh qilib qo'yadigan bironta savol berib qo'ymasaydi, deb qo'rqardi, xolos.

Sergey Ivanovich ukasini yelkasidan turtib:

– Shunaqa, og'ayni, – dedi.

– Albatta. Menda nima ayb! Men o'z fikrimni o'tkazaman deb tiranib turib olganim yo'q-ku, – deb javob berdi Levin, aybini bo'yniga olgan bolalarnikiga o'xshash bir jilmayish bilan. «Nima to'g'risida gap talashgan edik-a? – deb o'yladi u. – Albatta, men ham haqman, u ham haq, vassalom. Faqat hozir idoraga borib, kerakli topshiriqlarni berish kerak». Levin kerishib, kulimsirab turib o'rnidan qo'zg'aldi.

Sergey Ivanovich ham kulimsiradi.

Sergey Ivanovich quvvat va tarovat barq urib turgan ukasidan ajrab qolgisi kelmay:

– Biroz aylanib kelging kelsa, birga chiqaylik, – dedi. – Yur, ishing bo'lsa, idoraga ham kirib chiqamiz.

– E, buni qara! – deb Levin shunday shang'illab gapirdiki, Sergey Ivanovich qo'rqib ketdi.

– Nima gap, nima bo'ldi?

Levin peshonasiga urib:

– Agafya Mixaylovnaning qo'li nima bo'ldi? – dedi. – Butunlay esimdan chiqibdi-ya!

– Bugun ancha tuzuk.

– Shunday bo'lsa ham, birrov kirib chiqmasam bo'lmaydi. Sen shlapangni kiyib bo'lguningcha qaytaman.

Ana shundan keyin Levin Levin poshnalarini to'qillatib zinapoyadan pastga yugurib tushib ketdi.

¹ Birdan g'ayratga kirib ishga kirishadigan (*frans.*).

VII

Stepan Arkadich, garchi biror idorada xizmat qilmagan kishilar uchun tushunarli bo'lsa ham, barcha xizmatchilar uchun tushunarli, ularga ma'lum bo'lgan tabiiy, eng zaruriy vazifa bilan (bu vazifani ado etmay turib xizmat qilish mumkin emas edi), ya'ni o'zining borligini vazirlikka eslatib qo'yish maqsadi bilan Peterburgga keldi. Bu vazifani o'tash maqsadida uydagi pullarining qariyb hammasini olib, poygalar va chorbog'larda vaqtini chog' qilib yurgan kezlarda, Dolli, uy xarajatini iloji boricha kamaytirish uchun, bolalari bilan qishloqqa ko'chib chiqqan edi. U o'zining mahriga tushgan Yergushovo qishlog'iga ko'chib keldi. Stepan Arkadich bahorda kelib shu qishloqdagi o'rmonni sotib ketgan edi. Yergushovo Levinga qarashli Pokrovskoye qishlog'idan ellik chaqirimlik masofada edi.

Yergushovodagi eski, katta uy qachonlari buzib tashlangan, yondagi kichkina uyni esa knyazning o'zi yaxshilab tuzatib kengaytirib qo'ygan edi. Bu kichkina uy, hamma chorbog'lardagi shunaqa uylar singari, kun yurish tomonga qaragan, yoni bilan katta xiyobonga qilib solingan bo'lsa ham, Dollining qizaloqlik mahalida, ya'ni bundan yigirma yilcha oldin ancha keng, ancha qulay edi. Lekin bu uy ham hozir eskirib, chirib qolgan edi. Stepan Arkadich bahorda o'rmonni sotgani kelganda, Dolli uyni tekshirib, kami-ko'stini tuzattirib qo'yishni so'ragan edi. Hamma gunohkor yerlar singari, xotiniga juda ham g'amxo'r bo'lib qolgan Stepan Arkadich uyni o'zi kelib tekshirdi-da, o'z fahmicha, zarur bo'lgan narsalarning hammasini qilishni topshirdi. Uning fahmicha, mebellarni yangidan qoplatish, eshik va derazalarga pardalar osish, bog'ni tozalash, hovuz bo'yiga ko'prik qilish, gullar ekish kerak edi, lekin u boshqa ko'p zarur narsalarni esidan chiqarib qo'ydi, bu narsalarning yetishmagani orqasida Darya Aleksandrovna keyincha yomon qiynalib qoldi.

Stepan Arkadich mehribon ota, g'amxo'r er bo'lishga har qancha urinsa hamki, xotini borligini, bolalari borligini hech bir esda saqlab qololmas edi. U takasaltang didli kishi edi, hamma narsaga ham shu ko'z bilan qarardi. U Moskvaga qaytib kelgandan so'ng, hamma narsaning taxt, uyi esa xuddi qo'g'irchoqdek bo'lganini xotiniga zo'r g'urur bilan e'lon qilib, o'sha yerga ko'chib chiqishni maslahat berdi. Xotining qishloqqa ko'chib chiqishi Stepan

Arkadich uchun har jihatdan ma'qul edi: bolalari sog' bo'ladi, uy xarajatlari kam bo'ladi, o'zining yurish-turishi ham bemalol bo'ladi. Darya Aleksandrovna esa yoz faslida qishloqqa ko'chib chiqishning bolalar uchun, ayniqsa, qizilcha kasalidan keyin o'ziga kelolmayotgan qizi uchun, nihoyat, bachkana xo'rliklardan, uni bezor qilgan o'tinfurush, baliqfurush, vofurushga bo'lgan mayda qarzlaridan qutulish uchun zarur deb hisoblardi. Innaykeyin, qishloqqa ko'chib chiqishning unga yoqib tushgan yana boshqa tomoni ham bor ediki, u yoz o'rtalarida chet eldan qaytib kelishi va doktorlarning topshirig'i bilan tez-tez cho'milib turishi kerak bo'lgan singlisi Kitini ham qishloqqa ko'chirib olib kelish orzusida edi. Kiti ma'dan suvlaridan yozgan xatida: «Ikkovimiz uchun ham bolalik xotiralari bilan to'lib-toshgan Yergushovoda yozni sen bilan birga o'tkazishdan boshqa orzum yo'q», degan edi.

Dastlabki paytlarda qishloq hayoti Dolliga juda og'ir bo'ldi. Bolalik chog'larida qishloqqa kelib turar edi, unda qishloq shahar bemazagarchiliklaridan qutqazadigan, garchi chiroyli bo'lmasa ham (Dolli bunga ko'nar edi), hamma narsa arzon, hamma narsa qulay, hamma narsa bor, hamma narsani topish mumkin, bolalar uchun ham yaxshi joy degan tasavvur hosil bo'lgan edi. Lekin hozir qishloqqa ro'zg'or boshi bo'lib keldi-yu, bu narsalarning o'zi o'ylaganiga sira ham o'xshamaganligini ko'rdi.

Kelgan kunlarining ertasiga biram jala quyib berdiki, kechasi yo'lak bilan bolalar xonasidan chakka o'tib ketdi, shundan keyin bolalarning karavotchalarini mehmonxonaga chiqarib qo'yishga majbur bo'ldi. Xizmatkorlar turadigan joyda oshpaz xotinlar yo'q edi; molboqarning so'ziga qaraganda, to'qqizta sigirdan ba'zilari qisir qolibdi, ba'zilari birinchi tuqqan, ba'zilari qarib, ba'zilarining yelini qotib qolgan ekan, bolalar uchun ham na yog' bor va na sut. Tuxum esa doriga ham topilmasdi. Sotvolishga tovuq yo'q, etini pay bosib ketgan qari, qotma xo'rozlarnigina qovurib berishardi. Pollarni yuvdirishga bironta ayol ham topib bo'lmasdi – hammasi kartoshka chopish bilan band. Aravaga tushib sayohat qilib ham bo'lmaydi, chunki ot bitta, u ham bo'lsa aravaga kirmaydi. Cho'miladigan joy yo'q, chunki anhor bo'ylarini mollar bosib, iflos qilib tashlagan, buning ustiga ko'cha, tomon ochiq, hatto piyoda sayrga ham chiqib bo'lmaydi, chunki mollar yiqilgan to'siq-devordan to'g'ri boqqa

kirib kelishaveradi, bular ichida juda xunuk bo'kiradigan buqa bor edi, aftidan, suzong'ichga o'xshardi. Kiyim saqlanadigan javonlar yo'q edi. Borlari bo'lsa yopilmas, bir amallab yopganingda ham yonidan o'tsang ochilib ketaverardi. Dekchalar ham, otashkuraklar ham yo'q, kirxonada qozon yo'q, xizmatkor qizlar turadigan uyda dazmol taxtasi ham yo'q.

Darya Aleksandrovna, o'zining nuqtayi nazaricha, bu dahshatli falokatga yo'liqqandan keyin, dastlabki paytlarda dam olish o'rniga azob ichida qoldi: kuchining boricha harakat qilsa ham, bu qiyin ahvoldan qutulishning iloji yo'qligini sezib, ko'ziga kelgan yoshlarini zo'rg'a-zo'rg'a tutib qolardi. Stepan Arkadich chiroyli husni va odobli muomalasi uchun eshikbonlikdan sarkorlikka ko'targan sobiq vaxmistr esa boshiga falokat tushgan Darya Aleksandrovnaga joni achimay, hurmat bilan: «Hech nima qilib bo'lmaydi, bular shunaqa yomon odamlar», deyardi-yu, yordam qilmasdi.

Ahvol nihoyatda tang edi. Lekin Oblonskiylarning uyida ham, hamma oilali uylardagi singari, ko'zga uncha chalinmaydigan, lekin nihoyatda muhim, foydali bir shaxs bor edi, bu – Matryona Filimonovna edi. U bekasini yupatib, hamma narsa o'nglanib ketadi, der (bu so'zni Matvey Matryona Filimonovnadani o'rganib olgan edi), o'zi esa shoshilmasdan, hovliqmasdan harakat qilardi.

Dolli darhol sarkorning xotini bilan topishdi-da, birinchi kundayoq bu er-u xotin bilan birga akatsiya tagida choy ichib o'tirib, hamma ishlar to'g'risida gaplashib oldi. Ko'p o'tmay akatsiyalar tagida Matryona Filimonovnaning «klub»i tashkil topdi, sarkorning xotinidan, oqsoqoldan va idora xodimidan iborat bo'lgan bu tashkilot orqali turmushdagi ba'zi qiyinchiliklar asta-sekin barham topib, bir haftadan keyin haqiqatan ham hamma ish o'nglanib ketdi. Tom tuzatildi, oqsoqolning qudasi oshpazlikka keltirildi, tovuqlar sotib olingdi, sigirlar sut bera boshladi, bog' devorini shoxlar bilan to'sishdi, duradgor bolalarga sirg'anadigan joy qilib berdi, javonlarga ilgak qilindi, endi ularning eshigi o'zicha ochilmaydigan bo'ldi, dazmol taxtasi yasaldi, buning bir uchini kursi suyanchig'iga, ikkinchi uchini past javonga qo'yib bahuzur dazmollash mumkin bo'ldi, xizmatkor qizlar xonasida dazmol hidi anqiy boshladi.

Matryona Filimonovna dazmol taxtasiga ishora qilib:

– Ana, bu ham bo'ldi! Hadeb kuyayotgan edingiz, – dedi.

Atrofiga bordon to'sib, cho'miladigan joy ham qilindi. Lili cho'mila boshladi. Shunday qilib, Darya Aleksandrovnaning orzusi qisman bo'lsa ham ushaldi: qishloqdagi hayoti birmuncha sertashvish bo'lsa hamki, yo'lga tushib ketdi. Lekin Darya Aleksandrovna oltita bolasi bilan tinib-tinchib ketolmasdi. Bolalarning biri og'rib qoldi, ikkinchisi ham og'rishi mumkin edi, uchinchisiga biron narsa yetishmas, to'rtinchisi yomon qiliq chiqara boshladi, hokazo va hokazo. Havoning ochiq kelgan kunlari juda-juda kam bo'lardi. Lekin bu ish va tashvishlar Darya Aleksandrovna uchun birdan-bir baxt edi. Agar shu narsalar bo'lmasa, o'zini yaxshi ko'rmaydigan eri haqidagi fikrlar bilan yuragi tars yorilib ketardi. Lekin bundan tashqari, bolalarining kasal bo'lishi ehtimol, xastaliklar, bolalarning yomon qiliq orttirishi ona uchun naqadar og'ir bir dahshat bo'lmasin, bolalar uni oz-moz xursand qilib, dardiga malham bo'lardilar. Bu quvonchlar shu qadar kichik, arzimas ediki, qum ichida ko'rinmagan tillaga o'xshardi, kayfi buzilgan kezlarida esa qayg'udan, ya'ni qumdan boshqa hech nimani ko'rmas edi, ammo faqat quvonchini, faqat oltinnigina ko'rgan baxtli kezlari ham bo'lardi.

Endi bu xilvat qishloqda, tez-tez shodlik gashtini sura boshladi. U ko'pincha bolalariga qarab turib, ona bo'lgani uchungina bolalarini haddan tashqari yaxshi ko'rgani yolg'on ekaniga o'zini ishon tirish uchun qo'lidan kelgan harakatini qilardi, lekin bolalarining yaxshiligini, oltovi olti xil bo'lsa ham, bunday bolalar kamdan-kam bo'lishini ko'nglida ta'kidlab, bolalari bilan o'zini baxtiyor his qilardi, ular bilan faxrlanardi.

VIII

Dolli qishloqdagi chatoqliklar to'g'risida eriga shikoyat qilib yozgan xatiga may oyining oxirlarida, ahvol ozmi-ko'pmi o'nglanib ketganda javob oldi. U hamma narsani nazar-e'tiborga ololmagani uchun uzr so'rab, iloji topildi deguncha qishloqqa yetib kelishga va'da qilgan edi. Ammo iloji topilavermadi, shekilli, Darya Aleksandrovna iyun boshigacha qishloqda o'zi yolg'iz turdi.

Avliyo Pyotr bayramida, yakshanba kuni Darya Aleksandrovna hamma bolalariga tabarruk suv sepdirish uchun ularni cherkovga olib bordi. Darya Aleksandrovna singlisi, onasi, do'st-dugonalari bilan chin ko'ngildan qilgan suhbatlari, falsafiy musohabalarida o'zining

dinga munosabatidagi erkin mulohazalari bilan ularni ko'pincha taajjubda qoldirardi. Unda din haqida o'ziga xos taajjub bir tushuncha bor edi. U bir odam o'lgandan keyin uning ruhi boshqa jonivorga o'tishiga ishonar, cherkov aqidalarini parvoyiga keltirmay, faqat shu tushunchasigagina e'tiqod qilardi, lekin oilada esa faqat ibrat bo'lish uchungina emas, balki chin qalbdan – cherkov talablarining hammasini bajarar, shuning uchun bolalarining bir yilchadan beri tabarruk suv sochimida bo'lmaganliklaridan xavotir tortib kelardi; mana endi yozda Matryona Filimonovnaning qo'llab-quvvatlashi bilan bolalarini cherkovga olib borishga qaror qildi.

Darya Aleksandrovna bolalarini qanday kiyintirish xususida bir necha kun oldin o'ylab qo'ygan edi. Yangi ko'ylaklar tiktirdi, eskilarini buzib tuzattirdi, yuvdirdi, bahyalarini so'ktirib, uzaytirdi, tugmalar qadatdi, lentalarni tayyorlab qo'ydi. Ingliz xonim Tanyaga tika boshlagan ko'ylak Darya Aleksandrovnaning kayfiyatini yomon buzdi. Ingliz xonim ko'ylakni boshqatdan tikayotib, yengini o'rniga emas, qiyshiq o'rnatib qo'ydi – shu bilan ko'ylakni rasvo qildi. Tanyaning yelkalari qisilib qoldi, buni ko'rib onaning yuragi achishdi. Lekin Matryona Filimonovna yaxshiyamki chok solib, qanot qilish kerakligini aytib qoldi. Ish o'nglandi-yu, lekin ingliz xonim bilan janjal chiqishiga oz qoldi. Har holda, ertalabgacha hamma narsa tayyor bo'ldi; popdan ibodatni boshlamay turish to'g'risida iltimos qilingan muddatgacha, ya'ni ertalab soat to'qqizlarga borib, bashang kiyingan, chehralari charaqlagan bolalar eshik yonidagi izvosh oldida onalarining chiqishini kutib turardilar.

Izvoshga Matryona Filimonovnaning topshirig'i bilan qorabayir o'rniga sarkorning qo'ng'ir otini qo'shgan edilar; Darya Aleksandrovna pardoz-andozi bilan biroz kechikib, oq doka ko'ylakda chiqdi-yu, aravaga o'tirdi.

Darya Aleksandrovna diqqat bilan, hayajon bilan taranib-kiyindi. Ilgarilari o'zi uchun, husnini ochish, boshqalarga yoqish uchun o'ziga zeb berardi; yoshi ulg'aygan sari, yasanish-tusanish o'ziga yoqmay bordi, u xunuklashib ketganini ko'ra boshlagan edi. Lekin bugun yana shukuh va hayajon bilan kiyindi. Bugun u o'zi uchun, o'zining husnini ochish uchun emas, balki bu ajoyib bolalarning onasi bo'lgani sababli, umumiy taassurotga zarar yetkazmaslik uchun

kiyindi. So‘nggi marta oynaga qarab, o‘zidan mamnun bo‘ldi, chunki ko‘rinishi yaxshi edi. Lekin ballarga borganda yaxshi ko‘rinishni istaganidek yaxshi bo‘lmasa ham, har holda, hozir nazarda tutgan maqsadi uchun yaxshi edi.

Cherkovda mujiklar, qorovullar va ularning xotinlaridan boshqa hech kim yo‘q edi. Lekin Darya Aleksandrovna bolalariga, o‘ziga ham, hammaning havasi kelganligini ko‘rdi yoki shunday tuyuldi. Bolalari bashang kiyimlarida go‘zal, ajoyib bo‘libgina qolmay, o‘zlarini tutish-turishlarida ham shirin-dilbar edilar. To‘g‘ri, Alyosha uncha yaxshi turmadi; egnidagi kurtkasini ko‘rish uchun hadeb kallasini orqasiga qayirib qarayverardi, shunday bo‘lsa ham shirin, ko‘zga juda yaqin edi. Tanya katta qizlarday ukalariga qarab turardi. Lekin kichik qizi Lili hamma narsaga soddadillik bilan ajablanib qarar, shu qiligi bilan dilbar ko‘rinardi, boshiga tabarruk suv sochilgandan keyin: «Please, some more»¹ deganda, jilmaymasdan turib bo‘lmas edi.

Bolalar uyga qaytishda, allaqanday tantanali bir marosim bo‘lganligini his qilib, yuvosh bo‘lib qolishdi.

Uyda ham hamma narsa ko‘ngildagidek borayotgan edi, lekin nonushta mahalida Grisha hushtak chaldi-yu, hamma ishni buzdi-qo‘ydi, bunisi ham mayli-ya, ingliz murabbiyasining gapiga kirmagani juda yomon bo‘ldi, natijada, shirin pirogdan mahrum qilindi. Darya Aleksandrovna shu yerda bo‘lsa, bunday kunda jazoga yo‘l qo‘ymagan bo‘lur edi, lekin murabbiyaning yonini olmasdan bo‘lmasdi, shuning uchun Grishaga shirin pirog berilmaydi degan qarorni quvvatladi. Bu hol umumiy shodu xurramlikka andak shikast yetkazdi.

Grisha bo‘lsa Nikolinka ham hushtak chalganini, lekin unga jazo berishmaganini aytib yig‘ladi. «Menga pirog berishmagani uchun yig‘layotganim yo‘q – menga baribir – lekin noto‘g‘ri jazo berishgani uchun yig‘layapman», dedi. Buni eshitib, Darya Aleksandrovnaning yuragi ezilib ketdi. U Grishaning gunohini kechirish to‘g‘risida gaplashish uchun murabbiyaning yoniga jo‘nadi. Lekin zaldan o‘tib borayotganda shunday bir manzaraga duch keldiki, yuragi birdan quvonchga to‘ldi, ko‘zlariga ixtiyorsiz yosh keldi, jinoyatkorni o‘zi kechirib qo‘ya qoldi.

¹ Yana biroz marhamat (*ingl.*).

Jazolangan Grisha zal burchagidagi deraza tagida turar, yonida esa Tanya bor edi. Tanya qo'g'irchog'ini boqish bahonasi bilan ingliz murabbiyasidan o'zining pirogini yotog'iga olib kirib ketishga ijozat so'rabdi-yu, u yoqqa olib kirish o'rniga, ukasiga olib kelibdi. Grisha nohaq berilgan jazodan hamon yig'lab turib, opasi keltirgan pirogni yer, yig'i aralash: «O'zing ham, birga yeylik... birga», der edi.

Grishaga achingani avval Tanyaning o'ziga ham ta'sir qila boshladi, keyin savob ish qilayotganini o'ylab, ko'zlariga yosh oldi, shunday bo'lsa ham, o'z hissasini olishdan bosh tortmadi.

Onalarini ko'rib oldin qo'rqib ketishdi, keyin yuziga qarab, o'zlarining yaxshi ish qilganlarini tushunishdi-yu, kulib yuborishdi, pirog to'la og'izlarini, jilmayib turgan lablarini yenglari bilan artib, ko'z yoshlarini, murabblarini yuzlariga surta boshlashdi.

– Voy o'lmasam! Yangi ko'ylag-a! Tanya! Grisha! – onasi toza ko'ylaklarni saqlab qolish uchun shunday deb qichqirsa ham, ko'zlarida quvonch yoshlari ko'rinar, jilmayar, kulimsirar edi.

Yangi ko'ylaklar yechtirildi, qizlarga bluzka, o'g'il bolalarga esa eski ko'ylaklar kiydirildi-da, qo'ziqorin terish va cho'milib kelish uchun yana arava qo'shdirildi; bu safar ham, ishboshining jahlini chiqarib, qo'ng'ir otni o'rtaqa qo'shishdi. Bu xabar bolalar bo'lmasida shod-xurramlik va qiyqiriqlar bilan qarshi olindi, shovqin jo'nab ketgunlaricha ham bosilmadi.

Ular bir savat qo'ziqorin yig'ishdi, Lili hatto oq qayin qo'ziqorini ham topib keldi. Ilgarilari miss Gul topib, Liliga ko'rsatardi, hozir uning o'zi kattakon bir oq qayin qo'ziqorinni topib keldi, hamma birdan suyunib: «Liliya qo'ziqorin topdi!» deb qichqirib yubordi.

Keyin anhora kelishdi, otlarni oq qayin ostiga qo'yib, o'zlari cho'milgani ketishdi. Kucher Terentiy dumlari bilan so'nalarni haydab turgan otlarni daraxtga bog'lab, o'zi soyada, ko'katlar ustida cho'zilib, tamaki chekib yotdi. Anhordan cho'milayotgan bolalarning qiyqirishlari, chinqirishlari eshilib turdi.

Bolalarning hammasiga ko'z-quloq bo'lish, sho'x bolalarni tiyish odamni ancha ovora qilsa ham, bu paypoqlar, ishtonchalar va har xil oyoqlaridan yechilgan poyabzallarni bir-biri bilan adashtirib yubormaslik, ularni esda olib qolish, botinka iplarini yechib,

keyin bog'lash, tugmalarini chiqarib, keyin qadash qancha qiyin bo'lsa ham, cho'milishni o'zi yaxshi ko'radigan, bolalari uchun esa foydali deb hisoblaydigan Darya Aleksandrovna uchun dunyoda bolalari bilan birga cho'milishdek rohat yo'q edi. Uning uchun bu yumshoq, baqaloq oyoqlarga paypoq kiygizishdan, bu yalang'och kichkintoylarni ko'tarib kelib suvga cho'ktirib olishdan, ularning goh suyunib, goh qo'rqib chinqirishlarini eshitishdan, ko'zlari qinidan chiqquday bo'lib qo'rqib ketib, yana kulib, jilmaygan, nafasini zo'rg'a-zo'rg'a olayotgan bu dilbar bolalarni, badanlaridagi suvlarni sochib yugurishgan kichkina farishtalarni ko'rishdan ham kattaroq zavq yo'q edi.

Bolalarning yarmi kiyinib bo'lganda, qaymog'i olingan sut uchun xurmacha ko'tarib ketayotgan, yasanib-tusanib olgan mujik ayollar anhorga yaqinlashib, qo'rqa-pisa bir chetda o'tirishdi. Matryona Filimonovna ulardan bittasini chaqirib, suvda ivigan choyshab bilan bitta ko'ylakchani quritishga berdi. Shunda Darya Aleksandrovna ayollarni gapga soldi. Ular oldin qo'llarini og'izlariga tutib kulishsa, berilgan savollarga tushunmay turishsa ham, tezda o'zlarini qo'lga olib, gaplasha ketishdi va bolalariga havaslari kelgani uchun Darya Aleksandrovna darhol iyib ketdi.

Ulardan biri Tanyaga suqlanib qarab:

– Munchayam chiroyli qiz ekan, xuddi qanday oppog'-a, – dedi boshini chayqatib. – Lekin juda ozg'in...

– Ha, kasal bo'ldi.

Yana bir xotin Darya Aleksandrovnaning emizikli chaqalog'iga ishora qilib:

– Iye, bu azamatni ham cho'miltirishibdi-da, – degan edi, Darya Aleksandrovna faxrlanib:

– Yo'q, bu endi uch oylik bo'ldi, – dedi.

– Obbo sen-ey!

– Sening ham bolang bormi?

– To'rtta bolam bor edi, ikkitasi qoldi: bir o'g'il, bir qiz. Shu ro'zadan keyingi oyda sutdan chiqardim.

– Yoshi qanchada?

– Ikki yoshga to'lib qoldi.

– Nega muncha kech chiqarding?

– Bizda odat shunaqa: uch ro‘za o‘tishi kerak...

Shundan keyin suhbat Darya Aleksandrovna uchun g‘oyat qiziq mavzuga ko‘chdi: qanday tug‘ding? Bola nima bilan og‘ridi? Ering qayerda? Tez-tez kelib turadimi?

Darya Aleksandrovnaning mujik ayollardan hech ajrab ketgisi kelmay qoldi, chunki ular bilan gaplashish nihoyatda qiziq edi, ularning manfaatlari ham xuddi o‘ziniki bilan bir edi. Bu mujik ayollar Darya Aleksandrovnaning bolalari ko‘pligiga, ularning yaxshiligiga shu qadar havas qilishardiki, Darya Aleksandrovna buni ko‘rib, terisiga sig‘may quvona boshladi. Yosh ayollardan biri hammadan keyin kiyina boshlagan ingliz xotinning uchinchi yubkani kiyayotganini ko‘rdi-yu: «Voy o‘lmasam, pak-pakana bo‘yi bor, yetti qavat to‘ni bor, deganlari shu ekan-u!» deb yubordi, hamma sharaqlab kuldi. Shu bilan ular, bir yoqdan, kulgiga sabab bo‘lgan va bunga tushunmay qolgan ingliz ayolni xafa qilishdi-yu, ikkinchi yoqdan, Darya Aleksandrovnanani ham ancha kuldirishdi.

IX

Darya Aleksandrovna hammasi cho‘milgan, sochlari ho‘l bolalari o‘rtasida, boshida ro‘mol bilan uyga yetib kelganda, kucher:

– Bir to‘ra kelyapti, chamamda, Pokrovskoye qishlog‘ining egasi bo‘lsa kerak, – dedi.

Darya Aleksandrovna oldinga cho‘zilib qaradi-yu, ro‘paradan kelayotgan, kulrang shlapa va kulrang paltoli Levinning tanish qi-yofasini ko‘rib, suyunib ketdi. Levinni ko‘rganda, u hamma vaqt xursand bo‘lardi. Hozir esa o‘zining dabdaba bilan kelayotganini ko‘rishini bilib, yana ham ko‘proq quvonib ketdi. Uning olijanobligini hech kim Levinchalik bilmas edi.

Levin uni ko‘rdi-yu, xuddi xayolida tasavvur qilgan kelajak oila va hayot manzaralaridan birini ko‘rgandek bo‘ldi.

– Jo‘ja ochib chiqqan ona tovuqning o‘zisiz, Darya Aleksandrovna.

Darya Aleksandrovna unga qo‘lini uzatib:

– Kelganingizga biram xursand bo‘ldimki! – dedi.

– Xursand bo‘lasiz-u, xabar qilmaysiz. Hozir akam menikida turibdi. Sizning bu yerda ekanligingizni Stivanning xatidan bildim.

– Stivaning xatidan? – deb Darya Aleksandrovna hayron bo‘lib so‘radi.

– Ha, sizning bu yerga ko‘chib kelganingizni yozib: «Biron masalada yordam berishingga ruxsat etar, deb o‘y layman», debdi. – Levin shuni deb birdan xijolat bo‘ldi, gapdan to‘xtab, arava yonida lipa surxlarini uzib, tishlab-tuflab indamay bordi. U, eri yordam berishi kerak bo‘lgan ishda begona odamning ko‘maklashishi Darya Aleksandrovna ga og‘ir botar, degan xayol bilan xijolat torta boshlagan edi. Stepan Arkadichning oila ishlarini begona odamlarga topshirish odati Darya Aleksandrovna ga haqiqatan ham yoqmas edi. Shuning uchun buni Levin ham tushunayotganligini darhol payqadi. Darya Aleksandrovna Levinni ana shunday farosati, ana shunday nazokati uchun ham yaxshi ko‘rardi.

– Tushundim, albatta, – dedi Levin, – bu faqat meni ko‘rgingiz kelganinigina bildiradi, xursandman. Bu yog‘i ham borki, siz shahar ayoli bo‘lganingiz uchun bu yer qandaydir yovvoyi ko‘rinishi mumkin, shu sababli mabodo yordamim zarur bo‘lib qolsa, jonim bilan xizmatingizga tayyorman.

– Dastlabki kunlarda ancha noqulayliklar bo‘ldi, hozir esa qari enagam sharofati bilan hamma ishlar tuzalib ketdi, – dedi Doli, Matryona Filimonovna ga ishora qilib. Kampir gap o‘zi ustida ketayotganligini fahmlab, Levinga ochiq chehra bilan do‘stona kullimsirab boqardi. Matryona Filimonovna Levinning Kitiga munosib kuyov ekanligini bilar, ishi o‘ngidan kelsa edi, deb yurardi.

– Aravaga chiqing, biz biroz jilishamiz, – dedi u Levinga.

– Yo‘q, piyoda boraman. Bolalar, kim men bilan otdan o‘zishga chopishadi?

Bolalar Levinni juda kam bilishardi, qachon ko‘rganlari ham eslarida qolmagan edi, shunday bo‘lsa ham, ular Levinga, o‘zlarini soxta ko‘rsatgan katta kishilarni ko‘rganda bolalar yuragida uyg‘onadigan g‘alati tortinish, jirkanish hissi bilan qarashmas edi. (Bunday qarangarlari uchun ko‘pincha ularning boshida kaltak sinardi). Har qanday narsada qilingan soxtalik eng aqlli, eng zehnli odamni aldashi mumkin, lekin soxtalik har qancha yashirib-berkitilgan bo‘lmasin, uni eng to‘pos bola ham bilib oladi, bilgandan keyin esa undan jirkanadi. Levinda har qancha kamchilik bo‘lsa bordir, lekin soxtalikdan zarracha ham asar yo‘q edi, shuning uchun bolalar onala-

rining yuzida do'stlik ifodasini ko'rib, unga shunday munosabatda bo'ldilar. Levinning taklifi bilan bolalardan ikkita kattasi aravadan sakrab tushdi-da, enagalari bilan, miss Gul bilan, onalari bilan qanday tortinmay chopishsa, u bilan ham shunday bemalol chopishib ketdi. Lili Levinga qarab talpingan edi, onasi unga uzatdi, Levin Lilini yelkasiga o'tqazib olib, birga chopib ketdi.

– Qo'rqmang, qo'rqmang, Darya Aleksandrovna! – derdi u xushvaqtligidan jilmayib. – Qoqinmayman, tushirib yubormayman.

Darya Aleksandrovna uning chaqqon, kuchli, ehtiyotli va jiddiy harakatlarini ko'rib, ko'ngli tinchidi-yu, unga qarab qah-qah urib kula boshladi.

Levin shu yerda, bolalar yonida, o'zi hurmat qiladigan Darya Aleksandrovna huzurida bolalarcha quvonib, yayrab-yashnab ketdi, bu xushchaqchaqlikni Darya Aleksandrovna juda ham yaxshi ko'rardi. U bolalar bilan yugurishib, ularni gimnastikaga o'rgatar, yaxshi bilmagan inglizcha so'zlari bilan miss Gulni kuldirar, qishloqdagi ishlaridan Darya Aleksandrovnaga so'zlab borardi.

Tushlikdan so'ng Darya Aleksandrovna u bilan balkonda xoli qolib Kitidan gap ochdi.

– Xabaringiz bormi? Kiti kelib, yozni shu yerda o'tkazib ketmoqchi.

– Rostdan-a? – dedi u birdan hovliqib, keyin gapni boshqa yoqqa aylantirib yubordi. – Nima qilay, sigirlarimdan ikkitasini yuboraymi? Agar hisob-kitob to'g'ri bo'lsin desangiz, mayli, vijdongingiz qiynalmasligi uchun, oyida besh so'mdan to'lab turarsiz.

– Yo'q, rahmat. Bu tomonlar hal bo'lgan.

– Unday bo'lsa, sigirlaringizni ko'raman, ruxsat etsangiz, qanday boqishni o'rgatib qo'yaman. Hamma gap boquvda.

Shundan keyin Levin, gapni boshqa yoqqa burish uchun, Darya Aleksandrovnaga sutchilik xo'jaligi nazariyasini aytib berdi, uning fikricha, sigir yem-xashakni sutga aylantirib beradigan bir mashina edi, xolos.

Levin bu narsani gapirib tursa ham, Kiti haqidagi tafsilotni juda ham bilgisi kelar, shu bilan birga, bundan qo'rqar edi. Nene azob bilan qo'lga kiritgan tinchligining buzilishidan dahshatga tushardi.

Darya Aleksandrovna malol kelgandek qilib:

– Tuzug-u, lekin bu narsaga birov qarab turishi kerak-da, kim qaraydi? – deb javob berdi.

U Matryona Filimonovna yordami bilan ro‘zg‘orini shu qadar yo‘lga solib yuborgan ediki, endi o‘zgartirishga hech ra‘yi yo‘q edi. Bundan tashqari, Levinning qishloq xo‘jaligi haqidagi bilimiga ham ishonmasdi. Sigir sut yasab beradigan mashina degan mulohazalari ham unga shubhali ko‘rinardi. Darya Aleksandrovnaning nazarida, bu xil mulohazalar xo‘jalikning rivojiga faqatgina xalaqit berishi mumkin edi. Uning fikricha, bu oson narsa: faqat Matryona Filimonovnaning tayinlanganlari qilinsa, ya‘ni Olaqorin bilan Oqquloqqa ko‘proq em-xashag-u tert berib turilsa, oshpaz yuvindilarni kirchining sigiriga olib ketib qolmasa bo‘lgani edi. Un, ko‘kat berib boqish to‘g‘risidagi gaplari esa dudmal, shubhali gaplar. Hozir gapirgisi kelib turgan asosiy narsa bu emas, Kiti masalasi edi.

X

O‘rtaga tushgan qisqagina jimlikdan so‘ng, Darya Aleksandrovnaga:

– Kiti menga yuborgan xatida hozir tanholikdan, osoyishtalikdan boshqa hech narsani xohlamayman, deb yozibdi, – dedi.

– Qalay, sog‘ligi yaxshimi? – deb so‘radi Levin yuragi o‘ynab.

– Xudoga shukur, butunlay tuzalib ketibdi. Ko‘kragida kasal borligiga hech ishongim kelmovdi-ya.

– O, juda xursandman! – dedi Levin; Lekin bu so‘zlarni aytib, unga jimgina qarab qolganda, Darya Aleksandrovnaga Levinning yuzida qandaydir ma‘yus, ojiz bir ifoda ko‘ringanday bo‘lib ketdi.

Darya Aleksandrovnaga mehribon, biroz istehzoli tabassumi bilan jilmayib turib:

– Menga qarang, Konstantin Dmitrich, – dedi, – Kitiga nima uchun achchiq qilasiz?

– Menmi? Hech achchiq qilmayman, – dedi Levin.

– Yo‘q, achchiq qilasiz. Bo‘lmasa, Moskvada ekanligingizda nima uchun biznikiga ham, ularnikiga ham kirmadingiz?

– Darya Aleksandrovnaga, – dedi u quloqlarigacha qizarib, – shunday ziyrak xotinsiz-ku, payqamaganingizga hayron qolaman. Bila turib, menga hech rahm qilmasdan...

– Nimani bilaman?

– Mening turmush qurish to‘g‘risida taklif qilganimni, lekin rad javobi olganimni bilasiz, – dedi Levin; bir zumgina oldin Kitiga nisbatan yuragida qaynab-toshgan nozik hislar o‘rnini ko‘rgan haqorati uchun g‘alayonga kelgan g‘azab hislari egallab oldi.

– Nima uchun meni biladi deb o‘ylaysiz?

– Shuning uchunki, buni hamma biladi.

– Sizning xatongiz mana shunda; payqab yurgan bo‘lsam ham, lekin bilmas edim.

– A! Bo‘lmasa, mana endi bildingiz.

– Men faqat qandaydir bir hodisa bo‘lganini, nimadir unga qat-tiq azob berayotganligini fahmlagan edim, o‘zi bu haqda minba‘d gap ochma deb iltimos qilgan edi. Agarki menga aytmagan bo‘lsa, demak, boshqa hech kimga ham aytgan emas. Xo‘sh, nima voqea bo‘lgan? Qani, aying-chi.

– Nima voqea bo‘lganini sizga aytgan edim-ku.

– Qachon?

– Oxirgi marta sizlarnikiga borganimda.

– Men sizga aytsam, – dedi Darya Aleksandrovna, – bechoraga juda jonim achiydi, juda ham. Siz faqat izzati nafsingiz og‘rigani uchun azob tortasiz...

– Ehtimol, – dedi Levin, – lekin...

Dolli uning so‘zini bo‘lib qo‘ydi.

– Lekin u bechoraga juda, juda jonim achiydi. Endi hamma sirga tushundim.

– Endi meni kechirasiz-da, Darya Aleksandrovna, – dedi Levin, o‘rnidan qo‘zg‘alib. – Xayr! Yaxshi qoling Darya Aleksandrovna.

– Yo‘q, to‘xtang, – dedi u Levinni yengidan tutib, – shoshmang, picha o‘tiring.

Levin dafn qilingan deb hisoblagan umidining qalbida yana bosh ko‘tarib, harakatga kela boshlaganini sezib tursa ham, o‘tirayotib:

– Jon Darya Aleksandrovna, bu haqda gapirmaylik, baraka topkur, – dedi.

Darya Aleksandrovna:

– Sizni yaxshi ko‘rmaganimda, – dedi-yu, ko‘zlariga yosh oldi, – sizni bilmaganimda, sizni tanimaganimda...

O'lib ketganday tuyulgan his asta-sekin tirilib, bosh ko'tara va Levinning qalbini zabt eta bordi.

– Ha, endi hamma sirga tushundim, – deb Darya Aleksandrovna so'zini davom ettirdi. – Siz bunday narsalarga tushuna olmaysiz. Sizday boshi ochiq erkaklar, qiz tanlab yurgan erkaklar kimni yaxshi ko'rishini o'zlari biladi. Ammo kuyov kutib turgan qizlar, ayollik, qizlik nomusi tillarini bog'lab qo'ygan qizlar siz erkaklarni uzoqdan ko'rishadi-yu, so'zlaringizga qarab ish ko'rishadi, qizlar shunday narsalarni his etishadi va etishi mumkinki, nima deyishni bilmay qolishadi.

– Albatta, agar qalbi undamasa...

– Yo'q, qalbi undaydi, lekin bu yog'ini tushuning: siz erkaklar biron qizni ko'z ostlaringizga olsangiz, uylariga borasizlar, tanishasizlar, xulq-odobiga qaraysizlar, payt poylaysizlar, yaxshi ko'rishko'rmasliklaringizni aniqlaysizlar, yaxshi ko'rganliklaringizga ishonganingizdan keyingina birga turmush qurishni taklif qilasizlar...

– Yo'q, bu uncha to'g'ri emas.

– Muhabbatigiz voyaga yetgandan yoki ikki talabgorning bittasi tarozi pallasini bosib ketgandan keyin, taklif qilasiz. Lekin qizning ra'yini so'rashmaydi. O'zi tanlab olsin deb tashlab qo'yishadi, qiz bechora bo'lsa qaysi birini tanlashini bilmaydi. Faqat «ha» yo «yo'q» deb javob beradi, xolos.

Levin: «Ha, men bilan Vronskiyini tanlashga o'xshash», deb o'yladi-yu, qalbida tirilgan murda yana o'ldi, faqat qalbini changalab qiynay boshladi.

– Darya Aleksandrovna, – dedi u, – ko'ylakni yoki boshqa sotib olinadigan narsani shunday tanlaydilar, lekin muhabbatni emas. Bir bor tanladimi, vassalom... yana boshqasini izlab yurish to'g'ri kelmaydi.

Darya Aleksandrovna, undagi bu hisning faqat ayollargina biladigan boshqa bir hisga nisbatan pastkashligidan hazar qilayotgandek:

– Ax, mag'rurlik, bu mag'rurlik qursin-da! – dedi. – Siz Kiti-ga og'iz solgan paytingizda, u xuddi o'sha ahvolda edi, javob bera olmasdi. Unda ikkilanish bor edi. Sizni tanlashni ham, Vronskiyini tanlashni ham bilmay, ikkilanib yurgan payti edi. Uni har kun ko'rib turardi, sizni bo'lsa uzoq vaqtlardan beri ko'rmagan edi. Faraz qilay-

lik, Kiti kattaroq yoshda bo'lsa, masalan, uning o'rnida men bo'lsam, ikkilanishga o'rin qolmas edi. Vronskiy menga juda bema'ni kishi ko'rinardi, oxiri bema'ni bo'lib ham chiqdi.

Levin Kitining javobini esladi. U: yo'q, bo'ladigan gap emas bu, degan edi...

– Darya Aleksandrovna, – dedi u quruqqina qilib, – menga bo'lgan ishonchingizning qadriga yetaman, albatta; lekin, fikrimcha, siz xato qilasiz. Haqmanmi yo nohaqmanmi, lekin sizning nafratingizni qo'zg'atgan o'sha mag'rurlik Katerina Aleksandrovna to'g'risida o'ylashga imkon bermaydi, tushunyapsizmi, bunga hech yo'l qo'ymadi.

– Men bir narsani esingizga solib qo'yay: tushunyapsizmi, men o'z bolalarimday yaxshi ko'radigan singlim haqida gapiryapman. U sizni yaxshi ko'rardi, deyayotganim yo'q, men faqat o'sha mahalda bergan javobi hech narsani dalolat qilmaydi deb aytyapman, xolos.

– Hayronman! – dedi Levin o'rnidan sakrab turib. – Jonimga qanday azob berayotganingizni bilsangiz edi! Chunonchi, masalan, bolangiz o'lib qoldi deydik, boshqalar kelib: attang, o'lmasa unday bo'lardi, bunday bo'lardi, o'lmasligi ham mumkin edi, deyishsa, siz unaqa odamlardan xursand bo'larmidingiz! Yo'q, u o'lgan, o'lgan, o'lgan...

Darya Aleksandrovna Levinning hayajon ichida ekaniga qaramay, ma'yus bir zaharxanda bilan:

– Xo'p qiziq odamsiz-da, – dedi. Keyin gapini o'ylanib turib davom qildi: – Ha, endi tushunyapman, ko'zim endi ochilyapti. Shunday qilib, Kiti kelganda bizni yo'qlamay qo'yar ekansiz-da?

– Yo'q, kelmayman. Albatta, Katerina Aleksandrovnani ko'rishdan qochib emas, lekin ilojini topgan joyimda meni ko'rish dilsiyohligidan u kishini xalos qilishga tirishaman.

– Juda, juda ham qiziq odamsiz, – deb takrorladi Darya Aleksandrovna, uning yuziga mehr bilan tikilib turib. – Xo'p bo'lmasa, bu haqda og'iz ochmagan bo'la qolaylik. Nimaga kirding, Tanya? – Darya Aleksandrovna qizining kirganini ko'rib, fransuzchalab so'radi.

– Kurakcham qayerda, oyi?

– Men fransuzchalab gapiryapman, sen ham shunday javob ber.

Qizi ham fransuzchalab gapirmoqchi bo'ldi-yu, lekin kurakchanning fransuzcha nomini esidan chiqarib qo'ygan edi, onasi aytib

bergandan keyin, kurakchasini qayerdan topish mumkinligini fransuz tilida aytib berdi. Bu narsa ham Levinga xush yoqmadi.

Endi Darya Aleksandrovnaning uyidagi narsalar ham, bolalari ham Levinning ko'ziga avvalgidek jozibali ko'rinmadi.

«Nima uchun bolalari bilan fransuzcha gaplashadi-ya? Bu naqadar g'ayritabiiy, qalbaki bir narsa! Bolalari ham buni sezib turishibdi. Fransuzchani o'rgatishga o'rgatadi-yu, samimiyatdan uzoqlashtiradi, xolos», deb o'ylandi, lekin u bilmas ediki, Darya Aleksandrovna bu narsa ustida yigirma martalab o'ylagan, va oqibat, samimiyat zarariga bo'lsa hamki, bolalarini shu yo'lda tarbiyalashga qaror qilib qo'ygan.

– Hozir qayoqqa ham borasiz-a? O'tiring.

Levin choy mahaligacha qoldi, lekin vaqtichog'ligidan asar ham qolmadi, o'zini o'ng'aysiz his qila boshladi.

Levin choydan so'ng dahlizga chiqdi-da, yo'l taraddudini ko'rish haqida buyruq berib, yana uyga qaytib kirganda Darya Aleksandrovna hayajonlangan, avzoyi buzilgan, ko'zlari yoshlangan edi. Levin dahlizga chiqib ketganda, Darya Aleksandrovna uchun shunday bir hodisa ro'y berdiki, natijada, uning bugungi baxti, bolalaridan faxrlanishi, g'ururi bir zumda yakson bo'ldi. Grisha bilan Tanya to'p talashib urishib qolishdi, Darya Aleksandrovna chinqiriqni eshitib, bolalar bo'lmasiga yugurib kirdi-yu, dahshatli bir manzara ustidan chiqdi. Tanya Grishaning sochini changallab olgan, jahlidan yuzlari qahrli tus olgan, Grisha esa Tanyaning to'g'ri kelgan yeriga musht tushirar edi. Buni ko'rganda, Darya Aleksandrovnaning ichida bir nima uzilganday bo'ldi. Go'yo boshi ustiga zulmat bulutlari suzib kelardi: u shu qadar faxrlanib yurgan bolalari eng oddiy, el qatori bolalar bo'libgina qolmay, balki yomon, tarbiyasi buzuq, qo'pol, qiliqlari yirtqich hayvonlarnikiga o'xshagan yovuz bolalar ekanligini angladi.

Darya Aleksandrovna hozir boshqa to'g'rilarda gapirish va o'ylash holatida emas edi, u hozir o'z baxtsizligini Levinga aytib berolmasdan turolmas edi.

Levin uning kuyib-yonayotganligini ko'rib turar, bu janjal bolalarning dog'uli emasligini, hamma bolalar ham mushtlashishi mumkinligini aytib, uni yupatishga tirishar edi. Levin tilida shunday desa ham, dilida: «Yo'q, men bolalarim bilan nozlanib, fransuzcha gaplashmayman, lekin bolalarim ham bulardaqa bo'lmaydi, faqat bola-

larni buzmaslik, rasvo qilmaslik kerak, xolos, ana unda bolalar ajoyib bo'ladi. Ha, mening bolalarim sira ham bularga o'xshamaydi», deb o'ylardi.

U xayrlashib jo'nab ketdi, Darya Aleksandrovna ham uni ortiq tutib turmadi.

XI

Iyul oyining o'rtalari edi. Opasining Pokrovskoyedan yigirma chaqirim narida bo'lgan qishlog'i oqsoqoli Levin oldiga ishlarning ahvoli va o'rim-yig'imning borishi haqida hisob bergani keldi. Opasining mulkidan keladigan asosiy daromad pichanzorlardan unardi.

Ilgarigi yillarda mujiklar pichanni har botmoniga yigirma so'mdan berib, o'rib kelishardi. Levin mulkni o'z boshqarmasiga olgandan keyin, pichanzorlarni tekshirib ko'rib, bu haqning ozligini aniqladi-yu, botmoniga yigirma besh so'mdan narx qo'ydi. Mujiklar bunga rozi bo'lishmadi va Levinning gumonicha, boshqa xaridorlarni ham yo'ldan urishdi. Ana shundan keyin Levin o'zi borib, pichanzorning bir qismini odam yollab, bir qismini esa uchdan birga o'rdirishni buyurdi. Opasining mujiklari bu yangi tartibga jon-u jahdlari bilan qarshi chiqqan bo'lishsa ham, ish yurishib ketdi va birinchi yildayoq pichanzordan qariyb ikki hissa ortiq daromad olindi. Burnog'i yil ham, o'tgan yili ham mujiklarning norozilik qilishiga qaramay, o'rim-yig'im yana o'sha tartibda o'tdi. Bu yil mujiklar hamma pichanni uchdan birga o'rishgan edi, mana endi oqsoqol hamma pichanlarning yig'ishtirib olinganligini, yog'ingarchilikdan qo'rqib, idora boshlig'ining ko'zida pichanlarni taqsim qilganligini, xo'jayinga tegadigan pichanlarni sakkiz g'aram qilib qo'yanligini aytgani kelgan edi. Levin o'zining «Asosiy pichanzordan qancha pichan olindi?» degan savoliga berilgan dudmal javobdan, oqsoqolning so'ramay-netmay pichanlarni shoshib taqsim qilib yuborganidan, uning gapi va avzoyidan bunda bir g'irromlik borligini sezib, o'zi tekshirib kelishga qaror qildi.

Levin choshgohda qishloqqa yetib keldi-da, otini bir qari oshnasining (bu chol akasini emizgan mujik ayolning eri edi) eshigi oldiga qo'yib, pichan taqsimotini so'roqlab ko'rish uchun cholning asalarilar saqlanadigan hovlisiga kirdi. Sergap chol Parmenich Levinni ko'rib juda suyundi, unga butun xo'jaligini ko'rsatdi. Asalarilarni,

bu yil ularning qancha ko'payganini oqizmay-tomizmay aytib berdi, ammo Levinning pichan to'g'risidagi savoliga istar-istamas dudmal javob qildi. Bu narsa Levinda taxminlarining to'g'riligini tasdiqladi. Shundan keyin pichanzorga borib, g'aramlarni ko'rdi. Har bir g'aramda ellik aravachalik ham pichan yo'q edi. Levin mujiklarning kirdikorlarini fosh qilish uchun pichan tashiyotgan aravalarning hammasini darhol chaqirtirib, ko'zi oldida bir g'aramni saroyga tashittirdi. G'aramdan atigi o'ttiz ikki aravagina pichan chiqdi. Oqsoqol pichanning oldin yumshoq bo'lganligini, keyin g'aramda bosilib qolganligini, pichanlar halol taqsim qilinganligini aytib qasam ichsa ham, Levin so'zida mahkam turib, pichanni o'zining buyrug'isiz taqsim qilganligini, shuning uchun har bir g'aramni ellik arava pichan o'rnida qabul qilolmasligini bildirdi. Uzoq talashib-tortishganlaridan keyin, mujiklar bu o'n bitta g'aramni ellik aravadan deb o'zlari oladigan, xo'jayinga esa yana qo'shimcha pichan ajratib beradigan bo'ldilar. Bu talashib-tortishuv, pichan bo'lishuv mojarosi kechgacha cho'zildi. Pichan oxirigacha taqsim qilib bo'lingandan keyin, Levin boshqa ishlarni idora xodimiga topshirdi-da, o'zi ustiga tol novdasi sanchib belgi qo'yilgan g'aram yonida o'tirib, odamlar qaynab-toshgan pichanzorni tomosha qila boshladi.

Uning ko'z o'ngida, anhorning botqoq orqasidagi qayrilishida, ola-quroq kiyimli mujik ayollarning chaqchaq urgan jarangdor tovushlari eshitildi. Hademay ular yumshoq pichanlarni ko'kat o'sib chiqqan dalaga to'play boshladilar. Ayollar orqasidan mujiklar ayri bilan yurib, xotinlar to'plagan pichanlarni g'aramlab turishdi, dam o'tmay keng, baland, dumaloq g'aramlar qad ko'tara boshladi. Chap tomonda, pichanlari yig'ishtirib olingan maydonda esa guldurab aravalar kelar, g'aram pichanlari birin-ketin aravalarga ortilar, g'aramlar o'rnida bir tomonini otlar sag'risi ustiga osilib tushib turgan, og'ir pichanli aravalargina qolardi.

– Havoning ochiqligida tashib olingani ma'qul-da! Xo'p pichan bo'ldi-da! – dedi chol, Levinning yoniga kelib o'tirib. – Pichan ham gapmi? Qara, xuddi o'rdak bolalari don terganday terib olishyapti-ya! – deb chol aravalarga yuklashayotgan pichan g'aramlarga ishora qildi. – Qiyomdan berisiga yarmidan ko'pini tashib qo'yishdi ya, azamatlar!

Bularning yonidan bir yigit arava yashigi oldidagi peshtaxta ustiga o'tirib olib, ot tizginini siltab o'tib borardi. Chol:

– Ha, oxirgisimi? – deb qichqirdi.

Yigitcha ham ot jilovini tortib turib:

– Oxirgisi, ota! – deb javob qildi-yu, arava yashigida o‘tirib bora-yotgan qizil yuz juvonga qarab kulimsirab qo‘ydi; bu xushchaqchaq juvon ham unga bir kulimsirab qo‘ygandan keyin yigit otini haydab ketdi.

– Kim bu? O‘g‘lingmi? – deb so‘radi Levin.

– Kenjam, – dedi chol muloyimgina jilmayib.

– Azamat yigit ekan!

– Chakki emas.

– Xotin olganmi?

– Ha, uch yil bo‘lib qoldi.

– Bo‘lmasa, bolalari ham bordir?

– Bola qayda! Bir yilgacha hech nimaning fahmiga bormay yurdi, – deb javob berdi chol. – O, rosa pichan bo‘pti-da! Pichanmisan pichan-da! – dedi yana chol, gapni boshqa yoqqa burish uchun.

Levin Vanka Parmenov bilan xotiniga diqqat bilan qarab turdi. Ular Levin yaqinidagi g‘aramni yuklashayotgan edi. Ivan Parmenov aravada turib, yosh, xushro‘y qaylig‘i avval quchoq-quchoq qilib keltirib turgan, keyin esa ayri bilan chaqqon-chaqqon uzatgan pichanlarni olar, tekislar, oyoqlari bilan tepib yotqizardi. Yosh juvon kulib turib, epchillik bilan ishlar edi. Bosilib qolgan g‘aram pichanlari gohida ayriga ilinmas edi. Shunday paytlarda avval pichanni bo‘shatib, orasiga ayrini suqardi-da, keyin chapdastlik ila gavdasining butun og‘irligi bilan ayrini bosib turib, qizil durra yopilgan yag‘rinini darhol rostlar, qaddini ko‘tarardi-yu, oq parda ostidagi bo‘liq ko‘ksini do‘rttaytirib, ayri sopini mahkam ushlaganicha pichanni aravaga oshirib tashlardi. Ivan esa, uning bir daqiqa ortiqcha zahmat chekishiga ham yo‘l qo‘ymay, uzatilgan pichanni qulochlari-ni keng ochib darhol ilib olar, aravaga joylab borardi. Juvon pichan-ning qolganini ayri bilan uzatib bergandan so‘ng, bo‘yniga to‘kilgan xas-cho‘plarni qoqdi-da, oftobda kuymagan oq peshonasiga tushib qolgan durrasini tuzatib qo‘ygach, aravaning tagiga kirib, arqon tortishga tutindi. Ivan qayerga bog‘lashini yuqoridan aytib turgan edi, qaylig‘ining bir nima deganini eshitib, xaxolab kulib yubordi. Bu har ikki chehrada yaqindagina uyg‘ongan kuchli, navqiron sevgi ifodasi ko‘zga tashlanib turardi.

XII

Aravadagi pichan arqon bilan mahkam qilib bog'landi. Ivan tepadan sakrab tushib, bardam, to'q otni jilovidan yetaklab ketdi. Yosh juvon esa ayrisini aravaga tashladi-yu, ashula aytib ketishayotgan ayollar tomon dadil odimlar bilan qo'llarini siltab-siltab yurib ketdi. Ivan yo'lga chiqib, aravalar karvoniga qo'shildi. Ayollar ayrilari yelkada, rang-barang guldor ko'ylaklarda, shang'illashib, chaqchaqlashib aravalar orqasida borishardi. Ayollarning biri yo'g'on, nosoz bir tovush bilan ashulani boshlab naqarotigacha aytdi, ana shundan keyin ashulani ellikka yaqin turli-tuman, qo'pol-nozik, balland ovoz ilib olib, yana boshdan oxirigacha aytdi.

Ayollar ashula bilan Levinga yaqinlashib kelardilar, nazarida bulutlar gulduros bilan ustiga bosib kelayotgandek bo'ldi. Bulut bosib kelib, Levinni qamrab oldi, mana endi Levin cho'zilib yotgan g'aram ham, boshqa g'aramlar, aravalar va uzoq-yaqinlardagi pichanzorlar ham hayqiriqlar, hushtaklar, hiq-hiqlar bilan qorishib ketgan bu gulduros, sho'x ashuladan larzaga kela boshladi. Bu sog'lom kishilarning o'yin-kulgilariga Levinning havasi kelar, bu hayot tantanasiga o'zining ham qatnashgisi kelar edi. Lekin qo'lidan hech narsa kelmasdi, faqat jimgina yotib tomosha qilishdan, quloq solishdan boshqa iloji yo'q edi. Odamlar ko'zdan g'oyib bo'lib, ashulalari eshitilmay qolganda, Levinga o'zining yolg'izligi, umrini behudaga o'tkazayotganligi va bu olamga dushmanlik ko'zi bilan qaraganligi o'ziga qattiq alam qildi.

U bilan pichan to'g'risida ko'proq talashgan, undan dillari ozor tortgan ana o'sha mujiklarning ba'zilari yoki Levinni aldamoqchi bo'lganlar unga ochiq chehra bilan bosh egib ta'zim qilishadi, aftlaridan, ko'ngillarida unga nisbatan hech qanday yomonlik yo'q, bo'lishi ham mumkin emas edi yoki uni aldamoqchi bo'lganliklari uchun pushaymon bo'lganlarining asari ham ko'rinmas edi. Bu narsalarning hammasi umumiy quvnoq mehnat dengizida g'arq bo'lib ketgan edi. Yorug' kunni bergan Xudo kuch-quvvat ham beradi. Kun ham, kuch-quvvat ham mehnatga sarf qilinadi, mukofot ham mehnatdan olinadi. Lekin bu mehnat kim uchun? Mehnat samarasi qanday bo'ladi? Bu xususda bosh qotirish behuda, buning ishga aloqasi yo'qdir.

Levin bu hayotni ko‘pincha havas qilsa ham, shunday hayot kechiruvchilarga ko‘pincha hasad qilib kelgan bo‘lsa ham, lekin bugun, ayniqsa, Ivan Parmenovning yosh qaylig‘iga qilgan munosabatlarini ko‘rgandan keyin, o‘zi yashab kelgan og‘ir, behuda, sun‘iy shaxsiy hayotni mehnat bilan to‘lgan ana shu pok, chiroyli hayotga alishtirish mumkinligini va buning faqat o‘zigagina bog‘liq ekanligini birinchi marta ravshan angladi.

Yonida o‘tirgan chol allaqachon uyiga ketgan, odamlar ham tarqab bo‘lgan edi. Yaqinda turadiganlar uylariga ketib, uzoqdan kelganlar esa shu yerda yotib qolish harakatida ovqat qilishmoqda edi. Levin hamon g‘aramda o‘yga botib yotar, goho u yoq-bu yoqlarni tomosha qilar, odamlarning so‘zlariga quloq solar, lekin odamlar buni sezmasdilar. Pichanzorda yotib qolgan odamlar qisqa yoz kechasida qariyb mijja qoqmay chiqardilar. Oldin umumiy gurgung eshitildi. Keyin ovqat ustida xaxolashib kulishdi, so‘ngra yana ashula, kulgilar boshlandi.

Bu uzun mehnat kuni ularda quvnoqlikdan boshqa hech qanday asar qoldirmagan edi. Tongotardagina hamma yoq jimidi. Faqat tuni bilan jimimagan botqoqdagi baqalarning qurillashi va tong oldida ko‘tarilgan tumanda o‘tlab yurgan otlarning pishqirishlarigina eshilib turardi. Levin ko‘zlarini ochib g‘aramdan turdi-da, yulduzlarga qarab, tong otganligini ko‘rdi.

Levin shu qisqa tunda miyasidan o‘tgan, his qilgan narsalarning hammasini birato‘la ifoda qilishga tirishib: «Xo‘p, endi nima qilaman? Qanday tadbir ko‘raman?» dedi o‘ziga. Miyasidan qayta-qayta o‘tgan va his qilgan narsalarning hammasi uchta alohida fikr turkumiga bo‘linardi. Bittasi – eski hayotdan, foydasiz bilimdan, hech narsaga kerak bo‘lmagan ilmdan voz kechish fikri edi. Bu narsalardan voz kechish unga zavq berar, shuning uchun ham bu narsalar unga oson va soddaga o‘xshab ko‘rinardi. Ikkinchi xil fikr va tasavvurlari esa endi boshlamochi bo‘lgan hayotga taalluqli edi. U bu yangi hayotning soddaligini, tozaligini, qonuniyligini ravshan his qilar va undan qanoat, o‘zini qadrlash hislarini topishiga va tinchishiga qattiq ishonar edi. Ammo uchinchi xil fikrlar eski hayotdan yangi hayotga qanday qilib o‘tish kerak ekan, degan savol atrofida aylanib yurar, ko‘ziga ravshan bir narsa ko‘rinmas edi, «Xotin olaymi? Ishlaymi, zaruriy ish orqasidan yuguraymi? Pokrovskoyeni tashlab

ketaymi? Yer sotib olaymi? Biror jamiyatga a'zo bo'lib kiraymi? Dehqon qiziga uylanaymi? Qanday qilib? – deb qayta-qayta o'zidan o'zi so'rar, lekin javob topolmas edi. – Darvoqe, kechasi uxlaganim yo'q, shuning uchun o'zimga o'zim ravshan javob topolmayman, – deb o'ylardi. – Bu narsalarni keyin aniqlayman. Lekin bir narsa aniqki, bu tun taqdirimni hal qildi. Oila hayoti to'g'risidagi avvalgi xayollarim puch ekan, behuda ekan, – dedi yana o'ziga. – Bu narsa o'ylaganimdan ko'ra soddaroq, yaxshiroq...»

Boshining qoq ustiga, osmon o'rtasiga kelib to'xtagan, xuddi sadaf chig'anog'iga o'xshagan oq bulut pag'asiga qarab: «Naqadar chiroyli! – deb o'yladi Levin. – Bu go'zal tunda naqadar go'zal hamma narsa! Bu bulut qachon chig'anoq shakliga kira qolibdi, a? Haligina osmonga qaraganimda ikkita yo'l-yo'l bulutdan boshqa hech nima yo'q edi. Ha, mening hayotga bo'lgan qarashlarim ham ana shu taxlit sezilmasdan o'zgarib ketdi!»

Levin pichanzordan chiqib, katta yo'l bilan qishloqqa ketdi. Shabada turdi, keyin har mahaldagidek, tong oldida, yorug' qorong'ilik ustidan to'la g'alaba qilar oldida g'ira-shira qorong'ilik tushdi.

Levin sovuqdan dildirab, yerdan ko'z uzmay shoshib borardi. Birdan kareta qo'ng'irog'ini eshitib: «Bu nimasi? Birov kelyapti shekilli», deb o'yladi. O'zi borayotgan katta yo'lda, qirq qadamcha narida, ro'parasidan to'rt otlı kareta kelaverdi. O'rtadagi otlar chetga qarab tortar, lekin peshtaxta ustida yakka kift bo'lib o'tirib olgan epchil yamshik otlarni chetga chiqarmay, aravani tekis yo'ldan haydab borardi.

Levin buni payqadi-yu, kim ketayotibdi ekan deb o'ylab ham o'tirmay, aravaga parishon bir nazar bilan qaradi.

Karetaning burchagida bir kampir mudrab borar, deraza yonida esa, aftidan, hozirgina uyg'ongan bir yosh qiz oq kallapo'shining lentalarini ikki qo'li bilan ushlab o'tirardi. Levinga tamoman yot bo'lgan, murakkab ichki hayot bilan to'lib-toshgan bu yorqin chehrali, bu o'ychan go'zal qiz derazadan tong shafaqlarini tomosha qilib borardi.

Bu manzara bir xayolot kabi g'oyib bo'lgandan so'ng haqiqatgo'y ko'zlar Levinga qayrilib qaradi. Qiz Levinni tanidi-yu, chehrasi hayrat aralash quvonch bilan porlab ketdi.

Levinning yanglishuvi mumkin emasdi. Dunyoda bu ko'zlar yakka-yu yagona edi. Uning nazarida butun yorug' dunyoni, butun hayotning ma'nosini o'zida mujassamlashtira oladigan xilqat dunyoda

yakkayu yagona edi. Bu o'sha edi. Bu Kiti edi. Levin uning temiryo'l stansiyasidan Yergushovoga ketayotganligini angladi. Shunday qilib, bu uyqusiz kechada Levinni hayajonga keltirgan narsalar, shu kecha kelib qo'ygan qarorlari hammasi birdan yo'q bo'ldi-qoldi. Dehqon qiziga uylanish to'g'risidagi orzularini eslab jirkandi. So'nggi vaqtlarda o'ziga qattiq azob berayotgan hayot jumbog'ini hal qila oladigan narsa faqat unda, yo'lning narigi yuziga o'tib olib, tez uzoqlashib ketayotgan karetagina edi.

Qiz ortiq qaramadi. G'ildiraklar ovozi tindi, faqat qo'ng'iroqlargina sal-pal eshitilib turdi. Itlarning hurishi – karetaning qishloqdan o'tib ketganligini bildirardi; endi tevarakda yaydoq dalalar, oldinda qishloq, qatnovsiz katta yo'lda yolg'iz borayotgan, hamma narsaga begona bo'lgan g'arib boshi, bir o'zigina qoldi.

U boyagina zavqlanib qaragan va bugun kechasi miyasiga kelgan fikr-xayollari, hislarining timsoli bo'lgan chig'anoq bulutni topish niyati bilan osmonga qaradi. Osmonda chig'anoqqa o'xshagan hech bir narsa qolmagan edi. U yerda, qo'l yetmaydigan yuksaklikda sirli bir o'zgarish yuz berayotgan edi. Chig'anoqdan asar qolmagan, faqat parchalanib borayotgan pag'a bulutlar osmonning butun bir yarmini tekis qoplab olgan edi. Yorishib, moviylashgan osmonda u Levinning iltijoli ko'zlariga hamon boyagi malohat bilan, boyagi qo'l yetmas yuksaklikdan qarab turardi.

«Yo'q, – dedi u o'z-o'ziga, – mehnat bilan to'liq bu sodda hayot qanchalik yaxshi bo'lmasin, men ortiq unga qaytolmayman. Men uni sevaman».

XIII

Aleksey Aleksandrovichga yaqin turgan odamlardan boshqa hech bir kim basharasidan og'ir tabiatli va aql-u idrokli ko'ringan bu kishining umumiy xarakteriga sira ham mos kelmaydigan bitta zaif tomoni borligini bilmas edi. Aleksey Aleksandrovichning yosh bola yoki xotin kishining ko'z yoshlarini ko'rishga, yig'isini eshishga tob-u-toqati yo'q edi. Ko'z yoshlari uni esankiratar, u butunlay aqli-hushini yo'qotib qo'yardi. Mahkamasidagi ishlar mudiri bilan kotibi uning bu odatini bilar, shu sababli arz-dod bilan kelganlarni «Ishingizni buzib qo'ygingiz kelmasa, ko'z yosh qilmang», deb ogoh-

lantirishardi. «Achchig'i chiqadi-yu, arzingizga quloq solmaydi», deyishardi. Haqiqatan ham, shunday paytlarda ko'z yoshlari Aleksey Aleksandrovichning kayfini buzib, uni darhol g'azabga keltirardi. U shunday paytlarda: «Hech narsa qilolmayman, qo'limdan kelmaydi. Qani, jo'nab qoling!» deb qichqirib berardi.

Anna poygadan qaytib kelayotganda o'zi bilan Vronskiy o'rtasidagi munosabatni ochiqchasiga aytgandan so'ng yuzini qo'llari bilan berkitib yig'lay boshlaganda Aleksey Aleksandrovich Annaga qarshi qalbida to'lib toshgan g'azabga qaramay, ko'z yoshlarini ko'rganda, har mahaldagidek, ko'ngli buzildi. Buni bilgani va hozirgi paytda o'z hislarini bildirib qo'yish g'ayritabiiy bir holat bo'lib ko'rinishini anglagani sababli o'zining hatto nafas olayotganini bildirmaslikka tirishib, qimir etmadi, Annaga ham qaramadi. Shu boisdan yuzi murdanikiga o'xshab qolgan, Annani shoshirib qo'ygan edi.

Uyga yetib kelishganda, Aleksey Aleksandrovich Annani karetdan tushirib qo'ydi-da, o'zini zo'rlab bo'lsa ham xotini bilan odatdagi hurmat-ehtirom bilan xayrlashib, o'ziga hech qanday majburiyat yuklamaydigan so'zlarni aytdi, ertaga o'z qarorini ma'lum qilishga va'da etdi.

Xotining so'zlari, eng yomon gumonlarini tasdiqlab, Aleksey Aleksandrovichning ruhini qattiq azobga soldi. Annaning ko'z yoshlari uyg'otgan g'alati jismoniy ayanch hissi bu ruhiy azobni yana besh battar kuchaytirdi. Lekin Aleksey Aleksandrovich karetda yolg'iz qolgandan keyin bu ayanch hissidan va so'nggi vaqtlarda o'zini azob ichida qovurib kelayotgan shubha-gumonlardan, rashk iztiroblaridan butunlay xalos bo'lganligini sezib ham ajablandi, ham quvondi.

Aleksey Aleksandrovich o'zini uzoq vaqtlardan beri og'rib kelayotgan tishini oldirgan kishi singari his qilardi. Kasal dahshatli og'riqdan so'ng og'zidan, o'z kallasidan ham kattaroq bir narsaning sug'urib olinganini sezib, o'z baxtiga ishongisi kelmay quvnadi. Hayotini uzoq vaqtlardan beri zaharlab, butun es-hushini olib qo'ygan narsadan qutulganini, endi u ham faqat tishining g'amini yeyish bilangina o'tmay, bemalol yashashi, boshqa narsalar haqida ham o'ylashi mumkinligini his etadi. Aleksey Aleksandrovich ham shu hisni boshidan kechirdi. Og'riq ham g'alati, ham dahshatli edi, lekin endi o'tib ketdi, bosildi, u hozir faqat xotini haqidagina emas,

boshqa narsalar haqida ham o'ylashi, bermalol yashashi mumkinligini his qildi.

«Nomussiz, qalbsiz, dinsiz, buzuq xotin! Unga achinib, o'zimni aldash kelgan bo'lsam ham, buni bilardim, hamisha ko'rib yurardim», dedi Aleksey Aleksandrovich o'ziga o'zi. Haqiqatan ham, u bu narsani hamisha ko'rib yurgandek edi, u ilgari o'ziga hech bir jihatdan xunuk ko'rinmagan o'tmish hayotining tafsilotini bir-bir xayolidan kechirdi, mana endi bu tafsilotlar Annaning hamma vaqt buzuq ekanligini ochiq-oydin ko'rsata boshladi. «Men o'z hayotimni u bilan bog'lab xato qilganman, lekin mening yanglishimda hech qanday ayb narsa yo'q, shuning uchun o'zimni baxtsizman deb aytolmayman. Ayb menda emas, – dedi yana o'ziga, – unda. Lekin u bilan mening ishim yo'q. U ortiq men uchun tamom bo'lgan...»

Annaning boshiga nimaiki tushsa, o'g'lining boshiga ham xuddi shu narsa tushadi, mana endi Aleksey Aleksandrovichning histuyg'ulari xotiniga, o'g'liga nisbatan ham o'zgardi, ortiq ularni parvoyiga ham keltirmadi. Lekin hozir uning fikri-zikrini band qilgan narsa – xotini razolat botqog'iga yiqilib yuziga sachratgan iflosdan qanday qilib odamshavandalik bilan eng yaxshi, eng qulay tarzda, demak, eng odil bir usulda qutulish va o'zining faoliyat bilan to'lgan nomusli, foydali hayoti yo'lida davom etish masalasi edi.

«La'natga botgan bir xotin jinoyat qilgani uchun men baxtsiz bo'lolmayman. U meni kiritib qo'rgan og'ir ahvoldan qutulishning eng yaxshi yo'lini topishim kerak, xolos. Bu yo'lni topaman ham, – derdi u o'ziga o'zi, tobora battarroq xo'mrayib. – Bu bobda men birinchi ham emasman, oxirgisi ham». Menelayning xotini go'zal Yelena kabi hammaning esida hali-hali saqlanib kelgan tarixiy misollar haqida gapirilmaganda ham, hozirgi oliy kibor jamiyatiga mansub xotinlarning erlariga qilgan vafosizliklari Aleksey Aleksandrovichning xayolida bir-bir jonlana bordi. «Daryalov, Poltavskiy, knyaz Karibanov, graf Paskudin, Dram... Ha, Dram... shunday nomusli, tadbirli kishi ham... Semyonov, Chagin, Sigonin, – deb eslay boshladi Aleksey Aleksandrovich. – Bu odamlar boshiga allaqanday ridicule¹ dardi tushyapti deb faraz qilaylik, lekin men bunda baxtsizlikdan boshqa biron narsa borligini hech qachon

¹ Kulgili bir dard. (frans.)

ko'rgan emasman, balki hamma vaqt xayrixoh bo'lib kelganman», dedi o'ziga Aleksey Aleksandrovich, garchi bu gapi noto'g'ri bo'lsa ham. Aksincha, u bu xildagi baxtsizlarga hech qachon xayrixoh bo'lgan emas, yerlariga vafosizlik qilgan xotinlar ko'payib borgan sari u o'zini baland qo'yar, qadrlar edi. «Bu baxtsizlik har kimning boshiga tushishi mumkin. Mana endi mening boshimga tushdi. Hamma gap bu ahvoldan qanday qilib yaxshiroq qutulishda». Shundan keyin, uning ahvoliga tushgan odamlar qanday chora-tadbir ko'rganliklarini bir-bir xayolidan o'tkaza boshladi.

«Daryalov duelda otishdi...»

Aleksey Aleksandrovich jisman yuraksiz odam bo'lgani, buni o'zi ham yaxshi bilgani uchun yoshligida duelni juda ko'p o'ylar edi. Aleksey Aleksandrovich to'pponchani o'ziga o'q'talib turishganini xayol qilganida dahshatga tushmasdan turolmasdi. Shuning uchun umrida hech qanday qurol ishlatmagan. Bu dahshat uni yoshlik chog'laridanoq duel haqida tez-tez o'ylashga, jonini xatarga solgan kishi holatiga o'zini qo'yib ko'rishga majbur etardi. Hayotda yutuqlarga erishib, mustahkam mavqega ega bo'lgandan keyin bu hisni allaqachon esdan chiqarib yuborgan edi, lekin vahima hissi yana qo'zg'aldi, yuraksizlik dahshati haligacha shu qadar kuchli ekanki, Aleksey Aleksandrovich, hech bir yo'sin bilan otishmasligini oldindan bilsa ham, duel xususida har taraflama o'ylab, xayolida uzoq ardoqlab yurdi.

«Shubhasiz, bizning jamiyatimiz hali shu qadar yovvoyiki (Angliyadagidaqa emas), ko'p kishilar (bu ko'p kishilar jumlasida Aleksey Aleksandrovich fikrlarini juda qadrlaydigan odamlar ham bor edi) duelda yaxshi narsa deb qarashadi, lekin duelning oqibati nima bo'ladi? Faraz qilaylik, men duelga chaqirdim, – deb Aleksey Aleksandrovich xayol surdi, keyin duelga chaqirgandan so'ng o'tkazadigan kechasini va o'ziga o'q'talgan to'pponchani tasavvur qildi-yu, bir seskanib, hech mahal bunday qila olmasligini tushundi, – faraz qilaylik, men uni duelda chaqirdim ham. Faraz qilaylik, menga qanday otishni o'rgatishdi ham, – deb xayol sura ketdi u, – aytganlarini qilib, tepkini bosdim ham, – dedi o'ziga o'zi ko'zlarini yumib, – bunday qaragam, o'ldirib qo'yibman, – dedi-yu, bu ahmoqona fikrlarni miyasidan haydash uchun boshini chayqatdi. – Jinoyatkor xotining bilan o'g'lingga bo'lgan munosabatingni muayyanlashtirish uchun odam o'ldirishingdan nima

ma'no bor? Xotinimni nima qilishimni ham xuddi shu taxlitda hal qilishim kerak. Lekin ehtimolga yaqinrog'i shuki, men shubhasiz yo o'ldirilaman, yoki yarador bo'laman. Hech qanday aybim yo'g'-u, qurbon bo'laman – o'ldirilaman yoki yarador bo'laman. Bunisi yana ham bema'ni. Bu ham oz hali, duelga chaqirishim – mening nomimdan qilingan qilvirlik bo'lib chiqadi. Ajabo, do'stlarimning meni duelda otishtirib qo'ymasliklarini, Rossiyaga kerak bo'lgan bir davlat kishisi-ning hayoti xavf-xatarda qolishiga hech qachon yo'l qo'ymasliklarini oldindan ham bilmaymanmi? Xo'sh, oqibati nima bo'ladi? Oqibati men oldindan bilgan narsa bo'ladi: janjal orttirgan bo'laman. Bu qilvirlik, qalloblik, bu o'zingni ham, boshqalarni ham aldash bo'ladi. Duel aqlga sig'maydigan narsa, innaykeyin, uni hech kim mendan kutmaydi ham. Maqsadim o'z faoliyatimni monesiz davom ettirish uchun otinga dog' tushirmaslikdan iboratdir». Ilgarilari ham Aleksey Aleksandrovichning ko'zida katta ahamiyatga ega bo'lgan xizmat faoliyati hozir unga nihoyatda muhim bo'lib ko'rina boshladi.

Aleksey Aleksandrovich duel masalasini har taraflama o'ylab chiqib rad qilgandan so'ng taloq masalasiga o'tdi, bu Aleksey Aleksandrovichning esiga tushgan ba'zi erkaklar tanlagan yo'l edi. Aleksey Aleksandrovich ma'lum taloq hodisalarining hammasini (bunday taloq hodisalari unga juda yaxshi ma'lum bo'lgan kiborlar muhitida ko'p uchrardi) bir-bir xayolidan o'tkazib, birontasidan ham o'zi nazarda tutgan maqsadni topolmadi. Bu hodisalarning hammasida er yo yonbosar, yoki bo'lmasa vafosiz xotinini sotardi; natijada, qilgan aybi uchun nikoh huquqidan mahrum bo'lgan tomon yangi er bilan uydirma, soxta qonuniy aloqaga kirishardi. Aleksey Aleksandrovich esa o'zining boshiga tushgan hodisada qonuniy taloq, ya'ni aybdor xotingina rad qilinadigan taloqqa erishib bo'lmaydi deb hisoblardi. U o'zi yashab turgan murakkab hayot sharoiti xotining jinoyatini ochib tashlash uchun qonun talab qilgan qo'pol dalil-isbotlarga yo'l qo'ymaydi, deb bilardi, bu hayotning ma'lum nazokati bunday dalillar bo'lganda ham, bularni qo'llanishga yo'l qo'ymasligini, bu dalillar qo'llanilgan taqdirda jamiyat ko'zida xotining sha'nidan ko'ra o'z sha'niga ko'proq isnod kelishi aniqligini ham tushunardi.

Xotinidan ajralish harakati janjalli jarayon bilan natijalanishi mumkin edi, u holda bu narsa Aleksey Aleksandrovichga tuhmat

toshi yog'dirish, uning yuksak martabasiga kibor jamiyati oldida dog' tushirish uchun dushmanlar qo'lida qurol bo'lib qolardi. Masalani yeng ichida hal qilib yuborishdan iborat asosiy maqsadga esa taloq yo'li bilan erishib bo'lmasdi. Bundan tashqari, taloq qilinganda, hatto taloq harakatiga tushilganda ham, xotining eri bilan aloqasini uzib, o'ynashi bilan topishib ketishi turgan gap edi. Aleksey Aleksandrovich hozir o'zini xotiniga nafrat aralash parvosizlik bilan qarab yurgandek his qilsa ham, qalbida unga nisbatan hamon bir his yashardi: xotining Vronskiy bilan monesiz topishib ketishini, shu bilan jinoyati unga qo'l kelishini xohlamas edi. Bu fikr Aleksey Aleksandrovichning zardasini shu qadar qaynatdiki, uni xayoliga keltirishi bilan ichida paydo bo'lgan og'riqdan ingrab, karetada o'tirgan o'rnidan sakrab turdi-yu, boshqa joyga kelib o'tirdi va shundan keyin uzoq vaqtgacha qovog'ini solib, muzlagan ozg'in oyoqlarini yumshoq yung ro'mol bilan o'rab oldi.

U o'zini bosib olgandan keyin: «Rasmiy taloqdan tashqari, Karibanov, Paskudin va sho'rlik Dram singari ish ko'rishi, ya'ni er-xotinning har yoqqa ketib qolishi ham mumkin edi», deb o'yladi yana, lekin bu tadbir ham, taloq tadbiri singari, odamni sharmanda qilib qo'yadi, xususan, bu tadbir ham, rasmiy taloq singari, xotinini Vronskiyning quchog'iga keltirib tashlaydi. «Yo'q, bu bo'ladigan gap emas, bo'ladigan gap emas! – u oyoqlaridagi ro'molni boshqatdan o'rashga kirishib, baland ovoz bilan shunday dedi. – Men-ku baxtsiz bo'lolmayman, lekin xotinim ham, u ham baxtli bo'lmasligi kerak».

Ahvol betayin ekanida azob berib kelgan rashk hissi xotining so'zlari bilan darhol yo'q bo'ldi-qoldi, tishini og'ritib turib sug'urib tashladi. Lekin bu his o'rniga boshqasi keldi: xotinim tantana qilibgina qolmasin, lekin shu bilan birga, o'z jinoyati evaziga jazo ham tortsin, deyardi. Aleksey Aleksandrovich bu hisga tan bermasa ham, lekin qalbining chuqur bir yerida o'z tinchini, nomusini buzgani uchun xotining jazolanishini xohlar edi. Ana shundan keyin, duel, taloq, ayriliq shartlarini xayolidan yana bir-bir o'tkazib, ularni yana rad etgandan so'ng, Aleksey Aleksandrovich najot yo'li faqat bittagina ekaniga qanoat hosil qildi – yuz bergan hodisani odamlar ko'zidan yashirib, Annani yonida saqlab qolish, ularning o'rtalaridagi aloqani uzish uchun qo'lidan kelgan hamma tadbirlarni ko'rishi va eng muhimi – bunisiga Aleksey Aleksandrovichning o'zi ham tan bermasdi –

Annani jazolash zarur degan fikrga keldi. «U oila boshiga solgan og‘ir ahvolni o‘ylab chiqib, o‘z qarorimni eshittirishim kerak, boshqa choralarning hammasi ham har ikki tomon uchun tashqi status quoga¹ nisbatan yaxshi emas, men bunday shartga rioya qilishga roziman, faqat xotinim iro‘damga batamom bo‘ysunishi, ya‘ni o‘ynashi bilan aloqasini uzishi shart». Bu qaror uzil-kesil qabul qilingandan keyin Aleksey Aleksandrovichning miyasiga qarorini tasdiq qiluvchi yangi bir fikr keldi: «Faqat shu qaror bilangina dinga muvofiq harakatda bo‘laman, – dedi u o‘ziga, – faqat shu qaror bilangina jinoyatkor xotinimni rad qilmayman, balki tuzalishiga imkon beraman, hatto – menga naqadar og‘ir bo‘lsa hamki – uni tuzatish va saqlab qolish uchun kuchimning bir qismini sarf ham qilaman». Garchi Aleksey Aleksandrovich xotiniga axloqda ta‘sir ko‘rsata olmasligini, uni tuzatish yo‘lidagi bu harakatlari soxta ekanini bilsa ham, bu og‘ir lahzalarni boshidan kechirib turgan paytda biron marta bo‘lsin dinni rahnamo qilib olish aqliga kelmagan bo‘lsa ham, mana endi, uning nazarida, qarori din talablariga muvofiq tushgandan keyin, dinga mos bo‘lgan bu qaror unda to‘la qanoat hosil qildi, qisman tasalli ham bera boshladi. Hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan bu muhim ishda, dinga nisbatan umumiy sovush va beparvo qarash hukm surgan bir paytda, din bayrog‘ini baland ko‘tarib, uning qonun-qoidalariga munosib harakat qilmabsan, deb hech kim ta‘na qilolmasligini o‘ylab quvonar edi. Aleksey Aleksandrovich boshqa tomonlarni ham o‘ylab ko‘rgandan keyin, xotiniga bo‘lgan munosabatlarining qariyb ilgari gicha saqlanib qolishiga ko‘zi etdi. Xotiniga avvalgidek hurmat-ehtiromlar bilan muomala qilishga hech mahal ko‘ngli bo‘lmasligi shubhasiz edi, lekin Annaning yomon xulqli, vafosiz xotin bo‘lgani uchun o‘z hayotini zahar qilish, iztirob chekish to‘g‘ri kelmas, bunga hech qanday sabab yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas edi. «Ha, vaqt o‘tadi, yaralar bitadi, eski munosabatlar yana tiklanadi, – dedi Aleksey Aleksandrovich o‘ziga, – ya‘ni shu darajada tiklanadiki, umrimning oxirigacha dilsiyohlikni ko‘rmayman. Anna baxtsiz bo‘lishi kerak, lekin men aybdor emasman, shuning uchun ham baxtsiz bo‘lolmayman».

¹ Ilgarigi ahvol (*lot.*).

XIV

Aleksey Aleksandrovich Peterburgga yaqinlashganda uzil-kesil shu qarorga kelib, xotiniga yozadigan xatni miyasida tuzib ham qo'ydi. Aleksey Aleksandrovich darbon hujrasiga kirib, xatlarga va vazirlikdan keltirilgan qog'ozlarga ko'z tashladi-da, orqasidan kabinetga olib kirishni buyurdi.

U darbonning savoliga:

– Qoldirilsin, hech kim qabul qilinmasin, – dedi kayfining yaxshi ekanligini bildiruvchi bir mamnuniyat bilan «qabul qilinmasin» so'ziga alohida urg'u berib.

Aleksey Aleksandrovich kabinetida ikki marta u yoq bu yoqqa yurgandan so'ng kattakon yozuv stoli yonida to'xtadi; stolda o'zidan oldin kamerdiner yoqib chiqib ketgan oltita sham yonib turardi, barmoqlarini shiqirlatganidan so'ng o'tirib, yozuv asboblarini tartibga sola boshladi. Tirsaklarini stolga qo'yib, kallasini bir yonga qiyshaytirib bir daqiqacha o'ylanib turgach, bir soniya ham to'xtamasdan yoza boshladi. U Annaga murojaat qilmasdan, rus tilidagi singari sovuq tuyulmaydigan «siz» olmoshini ishlatib, fransuzcha yozdi.

«So'nggi suhbatimizda o'sha suhbat mavzusi to'g'risidagi qarorimni sizga xabar qilaman deb aytgan edim. Hamma narsani diqqat bilan o'ylab chiqqanimdan keyin, hozir ana o'sha va'damni bajarish maqsadida shularni yozyapman. Men quyidagicha qarorga keldim: sizning qilmishingiz qanday bo'lmasin, taqdirning irodasi bilan bir-birimizni bog'lab turgan ipni uzishga o'zimni haqli deb hisoblamayman. Oila zavjlardan birining injiqligi, ixtiyori, hatto jinoyati bilan ham buzilishi mumkin emas, shuning uchun hayotimiz ilgari qanday borgan bo'lsa, yana shunday borishi kerak. Bu narsa men uchun, siz uchun, o'g'limiz uchun zarur. Ushbu xatimning yozilishiga sababchi bo'lgan masala xususida pushaymon yeganingizga va hozir pushaymon yeb turganingizga aminman hamda oramizga tushgan sovuqlikning sababini tub-tomiri bilan yulib tashlashda va bo'lib o'tgan narsalarni unutishda menga yordam berishingizga to'la ishonaman. Aks holda o'zingizning boshingizga, o'g'lingizning boshiga nimalar tushishini fahmlab olishingiz mumkin. Bu haqda yuzma-yuz o'tirib, to'la va mufassal gaplashib olishimizga umidvorman. Chorbog'da

turish fasli tugab qolgani uchun Peterburgga mumkin qadar tezroq, seshanbadan kechikmay ko'chib kelishingizni iltimos qilar edim. Ko'chib kelishingiz uchun zarur bo'lgan butun topshiriqlar eriga yetkaziladi. Bu iltimosimning bajarilishiga katta ahamiyat bilan qarayman, sizdan ham bunga e'tibor qilishingizni o'tinib so'rayman.

A. Karenin.

R. S. Xat ichida pul ham bor, sarf-xarajatingizga kerak bo'lar».

U xatni o'qib chiqib mamnun bo'ldi, pul solib qo'yish esiga tushgani uchun yana ham xursand bo'ldi, bitta ham dag'al so'z, bitta ham gina yo'q edi, lekin yalinish ohangi ham yo'q edi. Eng muhimi – qaytish uchun oltin ko'prik solingan edi. Xatni taxladi, uni fil suyagidan qilingan kattakon, vazmin pichoq bilan bosib tekisladi-da, pul bilan birga xatjildga solgandan so'ng, yaxshi tartibda saqlanadigan yozuv asboblari qo'lga olganda hamma vaqt ko'nglida uyg'onadigan bir mamnuniyat bilan qo'ng'iroqni chaldi.

– Kuryerga ber, ertaga chorboqqa chiqib, Anna Arkadevnaga topshirsin, – deb o'rnidan turdi.

– Xo'p bo'ladi, janobi oliylari, choyni kabinetlariga keltiraymi?

Aleksey Aleksandrovich choyni kabinetiga keltirishga buyurdi-da, vazmin pichoqni qo'lida o'ynatib, kursi tomonga qarab yurdi, u yerga chiroq yoqilib, yevgyubik yozuvi haqidagi o'qiy boshlagan fransuzcha kitobi keltirib qo'yilgan edi. Kursi ustiga Annaning mashhur rassom tomonidan chizilgan g'oyat chiroyli portreti oltin suvi yugurtirilgan ramkada osib qo'yilgan edi. Aleksey Aleksandrovich portretga qaradi. Ochiqchasiga gapirishgan so'nggi kechadagi singari bu sirli ko'zlar unga mazax qilayotganday bezrayib qarab turardi. Rassom tomonidan mahorat bilan chizilgan boshidagi qora to'rlar, qora sochlar, yon barmog'iga qo'sha-qo'sha uzuklar taqilgan oppoq, chiroyli qo'llar Aleksey Aleksandrovichda jirkanch va g'azab hissi uyg'otdi. Aleksey Aleksandrovich portretga bir daqiqacha qarab turgandan so'ng shu qadar junjilib ketdiki, lablari qaltirab, og'zidan «brrr» degan ovoz chiqib ketdi, yuzini teskari o'girdi. Apil-tapil kursiga o'tirib, kitobni ochdi. O'qishga urinib ko'rdi, lekin yevgyubik yozuvlariga bo'lgan ilgari otashin maroqi hozir uni tark qilgan edi. Ko'zlari kitobda bo'lsa ham, o'ylari boshqa yerda edi. U hozir xotinini emas, balki

so'nggi vaqtlarda davlat faoliyatida tug'ilgan va xizmat vazifasida juda muhim o'rin tutgan bir mushkul ish ustida o'ylayotgan edi. Bu mushkul ish to'g'risida har vaqtdagidan ham chuqurroq, atrofiroq o'ylagan sari miyasida juda asosli bir fikr (bu so'zlarni kibr-u havosiz ayta olardi) tug'ilib borayotganini, bu fikr mushkulotini hal qilishi, o'zini esa xizmat martabasida ko'tarishi, dushmanlarini yerga kirgizishi, shu bilan davlatga nihoyatda zo'r foyda keltirishi kerakligini his qilardi. Xizmatkor choyni qo'yib chiqib ketgandan so'ng Aleksey Aleksandrovich darhol o'rnidan turib yozuv stoli yoniga keldi. Joriy ishlar solingan portfelini o'rta surib, mamnun bir holda miyig'ida kulimsiradi-yu, qalamdondan bitta qalamni olib, o'zi talab qilib olgan murakkab bir ishni o'qishga kirishdi, bu ish ro'y beradigan mushkulotga aloqador edi. Mushkulot esa quyidagidan iborat edi: davlat arbobi bo'lgan Aleksey Aleksandrovichning xosiyati, yuqori ko'tarilib borayotgan har bir amaldorda bo'ladigan o'ziga xos xarakterli xususiyati, uning martabasini oshirgan shuhratparastlik, ehtiyotkorlik, halollik va o'ziga ishonganlik sifatleri qog'ozbozlikni mensimaslikdan, harakatdagi ishga bevosita aloqador bo'lgan yozishmalarni kamaytirish, ishni mumkin qadar bevosita boshqarish va tejashdan iborat edi. Nima ham bo'ldi-yu, 2 iyundagi mashhur komissiya Aleksey Aleksandrovichning vazirligiga qarashli Zarayskaya guberniyasidagi sug'oriladigan dalalar to'g'risida ish ko'tarib qoldi, bu ish qilingan sarf-xarajatlarning va ishga qog'ozbozlik bilan qarashning naqadar samarasiz bir harakat ekanini ko'rsatuvchi yaqqol misol edi. Aleksey Aleksandrovich bu narsaning o'rinli ekanligini bilardi. Zarayskaya guberniyasining dalalarini sug'orish ishi Aleksey Aleksandrovichdan ilgari amaldorning izboshisi tomonidan boshlangan edi. Haqiqatan ham, bu ishga juda ko'p pul sarf qilingan va sarf qilinayotgan bo'lsa-da, natijasi ko'rinmas, bu tadbirdan biron narsa chiqishiga aqli yetmas edi. Aleksey Aleksandrovich amalga mingandan keyin ahvolni darhol tushunib, ishni to'xtatib qo'ymoqchi ham bo'ldi, lekin dastlabki paytlarda o'z mavqeyining hali mahkam emasligini bilgani uchun, bu tadbirning juda ko'p kishilar manfaatiga daxli borligini sezib, harakatga kirishishdan o'zini tortdi, keyin esa, boshqa ishlar bilan bo'lib ketib, bu narsani esidan chiqarib qo'ydi. Ish esa, hamma ishlar singari, o'z-o'zicha sustlik bilan davom etaverdi. (Juda

ko'p odamlar, ayniqsa, musiqaga berilgan axloqli bir oila shu ish orqasida kun ko'rardi, bu oila boshlig'ining hamma qizlari cholg'u chalishardi. Aleksey Aleksandrovich bu oilani bilardi, katta qizlaridan birining nikohida vakil ota rolini bajargan edi.) Bu ishning dushmanlik qilib yurgan vazirlik tomonidan qo'zg'atilishi, Aleksey Aleksandrovichning fikricha vijdotsizlik edi, chunki har bir vazirlikda ham bundan battar ishlar bor, lekin, xizmat sohasida hukm surgan ma'lum odob-andishaga ko'ra, hech kim ko'tarmas edi. Hozir unga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishganda, u kurashga mahkam bel bog'lab kirishdi-yu, Zarayskaya guberniyasining dalalarini sug'orish masalasi bo'yicha tuzilgan komissiyaning ishini o'rganish, tekshirish uchun maxsus komissiya belgilanishini talab qildi, lekin ayni zamonda u janoblarni holi-jonlariga tashlab qo'ymadi. Boshqa millat xalqlarini joylashtirish ishi yuzasidan ham maxsus komissiya belgilanishini talab qildi. Boshqa millat xalqlarini joylashtirish masalasi 2 iyun qo'mitasida tasodifan ko'tarilgan bo'lsa hamki, Aleksey Aleksandrovich boshqa millat xalqlarining ahvollari g'oyat og'ir bo'lgani uchun buni to'xtovsiz hal qilish kerak deb turib oldi. Bu ishning qo'mitada muhokama qilinishi bir qancha vazirliklarning bir-birlari bilan aytishib qolishlariga sabab bo'ldi. Aleksey Aleksandrovichga qarshi bo'lgan vazirlik boshqa millat xalqlarining ahvoli gullab-yashnab turganligini, taklif qilingan tadbirlar esa ularni faqat nobud qilishi mumkinligini aytib, agar o'rtada biron yomon narsa sodir bo'lgan bo'lsa, bu faqat Aleksey Aleksandrovich vazirligining qonun talab etgan tadbirlarni amalga oshirmagani oqibatidir, xolos, deb turib oldi. Endi Aleksey Aleksandrovich shularni talab qilish fikrida edi: birinchidan, yangi komissiya tuzdirib, unga boshqa millat xalqlarining ahvolini joylarda tekshirish vazifasini yuklatish; ikkinchidan, agar boshqa millat xalqlarining ahvollari haqiqatan ham qo'mita qo'lidagi rasmiy hujjatda ko'rsatilganday bo'lib chiqsa, u holda boshqa millat xalqlarining bu og'ir ahvollari sababini: a) siyosiy, b) ma'muriy, v) iqtisodiy, g) etnografik, d) moddiy va e) diniy nuqtayi nazardan tekshirish uchun yana bitta maxsus komissiya tuzdirish; uchinchidan, dushmanlik qilayotgan vazirlikdan hozir boshqa millat xalqlari tushib qolgan yomon ahvolga barham berish uchun shu vazirlik so'nggi o'n yil ichida ko'rgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni talab qildirish; nihoyat, to'rtinchidan, nima uchun

qo‘mitaga topshirilgan 17 015 va 18 308-sonli, 1863-yil 5-dekabr hamda 1864-yil 7-iyun tarixli ma‘lumotlaridan ko‘rinib turganidek, qonunning tub va asl ma‘nosiga, ya‘ni 18-moddaga va 36-moddaning izoh qismiga tamoman zid ravishda harakat qilganligining izohini vazirlikdan talab qildirish. Bu fikrlar konspektini shoshib-pishib yozayotganda, Aleksey Aleksandrovichning yuzi lovillashib ketdi. Bir qog‘ozni yozib to‘ldirgandan keyin o‘rnidan turib, qo‘ng‘iroq chalidda, devonxona ishlar mudiriga ikki enlik xat yozib, zarur ma‘lumotlar keltirib berishni topshirdi. O‘rnidan turgandan keyin u yoq bu yoqqa yura turib, yana portretga qaradi-yu, xo‘mrayib, nafrat bilan kulimsirab qo‘ydi. Aleksey Aleksandrovich yevgyubik yozuvi haqidagi kitobni biroz o‘qib, yana yuragida eski maroqni uyg‘otgandan keyin soat o‘n birda yotgani ketdi, keyin, o‘rnida yotib, xotini voqeasini eslagan edi, bu safar u ilgari gidek xunuk ko‘rinmadi.

XV

Vronskiy Annaga ahvolning bunday davom etishi mumkin emasligini aytib, hamma sirni eriga ochiq-oshkor bildirishga undaganda, Anna jahli chiqib, qattiq qarshi turgan bo‘lsa ham, dilida o‘z ahvolining soxtaligini, nomussizligini sezib, butun qalbi bilan uni o‘zgartirishni xohlardi. Poygadan eri bilan birga qaytib kelayotganda, hayajon ichida butun bu narsalarni erining yuziga ochib solgan edi, o‘sha payt qalbida turgan og‘riqqa qaramay, Anna gapning ochig‘ini aytganiga xursand bo‘lgan edi. Eri qoldirib ketgandan keyin, «Endi xursandman, endi hamma narsa ochdi bo‘ldi, endi hech bo‘lmaganda, yolg‘on gapirish va aldanchilikka o‘rin qolmadi», deb aytgan edi o‘ziga. Endi ahvolning uzil-kesil hal bo‘lishi unga shubhasizdek tuyulardi. Bu yangi ahvol yaxshi bo‘lmasligi mumkin, lekin oydinlashdi, dudmallik va yolg‘onchilik o‘rtadan ko‘tarildi. Bu so‘zlarni aytayotganda o‘zining ham, erining ham dili siyoh bo‘lgani bilan ishlar o‘nglanib, tuzalib ketadi, deb o‘ylardi. O‘sha kecha Vronskiy bilan uchrashdi-yu, lekin eri bilan o‘zi o‘rtasida o‘tgan gapni unga aytmadi, holbuki, ahvolning bir yoqli bo‘lishi uchun buni aytish kerak edi.

Ertasiga ertalab uyg‘onganda xayoliga kelgan birinchi narsa – eriga aytgan so‘zlari bo‘ldi, shunda bu so‘zlar unga shu qadar dahshatli ko‘rindiki, bu xunuk, dag‘al so‘zlarni qaysi yurak bilan ayt-

ganiga hozir hech tushunolmas, buning oqibati nima bo'lishini ta-savvur qilolmasdi. Lekin so'zlar aytilgan, Aleksey Aleksandrovich ham hech nima demay jo'nab ketgan edi. «Vronskiyni ko'rdim-u, hech nima demadim. Chiqib ketayotganda bir ko'nglim to'xtatib, hamma gapni aytmoqchi ham bo'ldim-u, lekin fikrimdan qaytdim, chunki kelgan soat aytmay hozir aytishim o'zimga qiziq tuyuldi, nega aytishni xohladim-u, nega aytmadim?» Bu savolga javoban yuziga qon yugurib lovillashib ketdi. U bu gaplarni aytishdan o'zini tutib turgan narsani tushundi, uni tutib qolgan narsa nomus edi. Kecha kechqurun bir yoqli bo'lgandek ko'ringan ahvoli, bugun birdan bir yoqli bo'lish u yoqda tursin, hatto boshi berk ko'chaga kirib qolgandek tuyuldi. Anna sharmandalikdan dahshatga tushdi, ilgari-lari bunday bo'ladi, deb xayoliga ham keltirmas edi. Eri ko'radigan tadbirlarni o'ylaganda, miyasiga vahimali fikrlar kelardi. Hozir ish boshqaruvchi kelib, o'zini uydan quvib chiqarishini, sharmandaligi butun olamga yoyilishini o'ylar edi. Uydan haydab chiqarganlarida qayerga boraman deb o'zidan so'rar, javob topolmay qiynalardi.

Vronskiyni o'ylaganda esa, Vronskiy uni yaxshi ko'rmaydigandek, undan beziy boshlagandek, Anna ham unga o'zini taqdim etol-maydigandek tuyular, shu sababli, o'zida Vronskiyga nisbatan kek tu-gilib borardi. Eriga aytgan va ichida doim takrorlab kelgan so'zlarini u hammaga aytgandek bo'lar, hamma eshitgandek tuyulardi. Endi u birga yashab turgan odamlarining yuzlariga boqishga botinolmasdi. Xizmatkor qizni chaqirishga, boringki, pastga tushib, o'g'li bilan murabbiyasini ko'rishga yuragi dov bermas edi.

Eshik tashqarisida qachondan beri quloq solib turgan xizmatkor qizning o'zi bo'lmaga kirib keldi. Anna uning ko'zlariga savol na-zari bilan qaradi-yu, qizarib ketdi. Xizmatkor qiz qo'ng'iroq ovozi-ni eshitganday bo'lib kirib qolgani uchun uzr so'radi. U Annaning ko'ylagi bilan bir xat olib kirgan edi. Xat Betsidan edi. Betsi o'z xatida bugun ertalab ularnikiga kroket o'ynagani Liza Merkalova va baronessa Shtols o'z muxlislari bilan, Kalujskiy va Stremov chol bilan kelishlarini xabar qilib, «hech bo'lmasa urf-axloqlarini o'rgangani keling, sizni kutaman», deb yozgan edi.

Anna xatni o'qib, chuqur tin oldi. Keyin pardoiz stolidagi atir shishalari va cho'tkalarni joy-joyiga qo'yayotgan Annushkaga qarab:

– Hech narsa, hech narsa kerak emas, – dedi. – Boraver, hozir kiyinib chiqaman. Hech narsa kerak emas.

Annushka chiqib ketgan bo'lsa ham, Anna kiyinmasdan, hamon boyagi holatda boshi bilan qo'lini solintirib o'tirib qoldi, qandaydir imo-ishora qilgisi, biron nima degisi kelgandek ora-sira butun vujudi titrab, seskanib ketar, yana jimib qolardi. Sira tinmasdan, nuqul: «Yo Xudo! Yo Xudo!» der, lekin na «yo» va na «xudo» hozir uning uchun hech qanday ma'noga ega emas edi. O'z ahvoliga dindan madad izlash fikri ham (o'zi e'tiqod qilgan dinga hech qachon shak keltirmaganiga qaramay), uning uchun Aleksey Aleksandrovichning o'zidan madad izlash kabi yot, befoyda narsa edi, Anna o'z hayotining butun ma'nosini tashkil qilgan narsalardan voz kechgandagina dindan madad topishi mumkinligini oldindan bilardi. Ahvoli og'ir bo'lishi bilan birga, o'zi hech bir sinamagan yangi ruhiy holat oldida qo'rquvga tusha boshlagan edi. Charchagan ko'zlarga hamma narsa qo'shaloq bo'lib ko'ringanidek, qalbida ham hamma narsa qo'shaloqlasha boshlaganini sezib turardi. U ba'zan nimadan qo'rqayotganligini, nimani xohlayotganligini bilmas edi. Yuz bergan narsalardan qo'rqadimi va shularni xohlaydimi yoki yuz beradigan narsalardan qo'rqadimi va shularni xohlaydimi – bilmas edi.

Boshining ikki chakkasida birdan og'riq turganini sezib: «Voy, nima qilib qo'ydim-a!» dedi o'ziga. Hushiga kelganda esa zulflarini ikkala qo'li bilan changallab, chakkalarini qisayotganligini ko'rdi. O'rnidan sakrab turib, u yoq bu yoq yura boshladi.

Annushka yana qaytib kirdi-yu, Annani yana boyagi ahvolda ko'rib:

– Qahva tayyor, mamzel bilan Seryoja sizni pastda kutib turishibdi, – dedi.

Anna o'g'li borligini ertalabdan beri birinchi marta yodiga olib, birdan jonlandi-yu:

– Seryoja? Seryoja nima bo'пти? – deb so'radi.

Annushka kulimsirab:

– Ayb ish qilib qo'yibdilar, shekilli, – deb javob berdi.

– Nima qilibdi?

– Burchakdagi hujrada shaftolilaringiz bor edi-yu, shulardan bitasini bildirmay yeb qo'yibdilar.

O'g'lining esga tushirilishi Annani boshi berk ko'chadan olib chiqqandek bo'ldi. Anna o'g'li uchun yashab kelardi, so'nggi yillar-

da o'z zimmasiga olgan qisman samimiy, ko'proq mubolag'ali onalik rolini esladi-da, o'zining shu holatida, eri bilan bo'lganda ham, Vronskiy bilan bo'lganda ham, bu holatga hech bir bog'liq bo'lmagan davlati borligini sezib, quvondi. Bu davlat – o'g'li edi. Qaysi holatda bo'lsa ham o'g'lini tark qilolmaydi. Mayli, eri sharmanda qilib quvib chiqarsin, mayli, Vronskiy undan sovub, o'zining mustaqil hayotini davom ettira bersin (Anna yana Vronskiy haqida o'ylaganda alam qilib saffrosi qaynab ketdi), o'g'lini tashlab ketolmaydi. O'z hayotining maqsadi bor. Shu sababli o'g'li bilan birga bo'ladigan holatni ta'min etish uchun harakat qilishi, o'g'lini oldirib qo'ymaslik uchun qo'lidan kelganicha jonbozlik qilishi kerak. Mumkin qadar tezroq, o'g'lini olib qo'ymaslaridan burun tezroq harakat boshlashi kerak. O'g'li bilan boshqa yoqqa ketishi kerak. Hozir uning qilishi kerak bo'lgan birdan-bir ish – shu. U o'zini tinchitishi, azob berayotgan mushkul holatdan qutulishi kerak edi, o'zini o'g'li bilan bog'lab turgan ip to'g'risidagi, hoziroq u bilan qayoqqa bo'lsa ham jo'nab ketishi to'g'risidagi fikr ko'nglini tinchitdi.

Anna shoshib-pishib kiyindi-yu, pastga tushib, dadil odimlar bilan mehmonxonaga kirdi, odatdagicha, u yerda qahva va Seryoja bilan murabbiyasi Annaga muntazir bo'lib turardi. Seryoja oppoq kiyimda, oyna oldidagi stol yonida boshi bilan kiftini egib, diqqat bilan o'zi keltirgan gulini allanima qilib turardi, yuzida onasi yaxshi bilgan va otasinikiga juda ham o'xshab tushgan ifoda bor edi.

Murabbiyaning qiyofasi juda ham jiddiy edi. Seryoja har mahalgidek, chinqiroq tovush bilan: «A, oyi!» deb qichqirdi-yu, ikkilanib to'xtab qoldi: gulni tashlab, onasi bilan salomlashishni ham, yasab turgan gulchambarni tugatib, gul bilan borishini ham bilmas edi.

Murabbiya salomlashgandan so'ng, Seryojaning gunohini ezmalanib ayta boshladi; lekin Anna unga quloq solmadi, u hozir murabbiyani o'zi bilan birga olib ketish-ketmaslik to'g'risida o'ylar edi. «Yo'q, olib ketmayman, – dedi Anna, axiyri shu qarorga kelib. – O'zim yolg'iz o'g'lim bilan ketaman».

– Ha, juda ham xunuk ish qilibdi, – dedi Anna, keyin o'g'lini yelkasidan ushlab yuziga qaradi-yu, o'pib qo'ydi, o'g'li uning ko'zlaridagi yumshoq, hurkak ifodani ko'rib biroq izza tortgan bo'lsa ham, quvonib ketdi. Anna hayron bo'lib qolgan murabbiyaga: – Mayli,

mening yonimda qolaversin, – dedi o‘g‘lini qo‘lidan chiqarmay, keyin qahva qo‘yilgan stol yoniga borib o‘tirdi.

– Oyi! Men... men... hech... – dedi Seryoja, onasining yuzidan o‘zi yeb qo‘ygan shaftoli uchun qanday jazo berilishini payqab olishga tirishib.

Murabbiya uydan chiqib ketishi bilanoq:

– Seryoja, bu ishing yaxshi emas, – dedi Anna. – Endi bunday qilmaysan-a? Yaxshi ko‘rasanmi meni?

Anna ko‘zlariga yosh kela boshlaganini sezdi. O‘g‘lining cho‘chib, shu bilan birga, quvonib turgan ko‘zlariga tikilganicha: «Nahotki, buni yaxshi ko‘rmasligim mumkin bo‘lsa? – deb o‘yladi. – Nahotki, bu meni qatl etish uchun otasi bilan bir yoqadan bosh chiqarsa? Nahotki, menga rahm qilmasa?» Uning ko‘zlaridan duv-duv yosh oqaverdi, ko‘z yoshlarini yashirish uchun sakrab o‘rmidan turdida, tez-tez yurib ayvonga chiqib ketdi.

So‘nggi kunlarda momaqaldiroq bilan quyib turgan yomg‘irdan keyin havo birmuncha sovub, ochilib ketdi. Toza yaproqlar orasidan charog‘on quyosh tushib tursa ham havo sovuq edi.

Anna ham sovuqdan, ham toza havoda o‘zini yangi kuch bilan qamrab olgan ichki dahshatdan junjika boshladi. Orqasidan chiqib kelayotgan Seryojaga:

– Bor, Mariyette yoniga bor, – dedi-da, ayvonga solingan chipta ustida u yoq-bu yoq yura boshladi. «Nahotki, ular meni kechirishmasa, nahotki, bundan boshqacha bo‘lishning iloji yo‘qligiga tushunishmasa?» deb o‘yladi.

Anna to‘xtadi-da, yaproqlari yomg‘irda yuvilib, sovuq quyoshda yarqirab turgan tog‘teraklarning uchlari shamolda tebranayotganiga qarab qoldi: u shu qarashida o‘zini kechirmasliklarini, endi hamma, hamma narsa mana shu osmon, mana shu daraxtlar singari o‘ziga shafqat qilmasligini angladi. Yana ko‘nglida allanarsalar ko‘paya boshlaganini payqadi. «O‘ylab o‘tirish kerak emas, – dedi u o‘ziga. – Yo‘l taraddudini ko‘rish kerak. Lekin qayerga? Qachon? Kimni birga olib ketaman? Ha, Moskvaga, kechki poyezd bilan jo‘nayman. Annushka bilan Seryojani va eng zarur narsalarni olaman. Ammo ularning har ikkoviga ham oldin xat yozish kerak». Shundan keyin shoshib uyga, o‘z kabinetiga kirdi-da, stol yoniga o‘tirib, eriga yozdi.

«Bo‘lib o‘tgan voqeadan keyin ortiq uyingizda qololmayman. Men o‘g‘limni olib, jo‘nab ketyapman. Men qonunlardan bexabar

odamman, shuning uchun o'g'il ota-onasining qaysi biri bilan qolishi kerakligini bilmayman, shunday bo'lsa ham uni olib ketaman, chunki usiz yashay olmayman. Olijanoblik qilib, uni menda qoldirsangiz».

Anna shu yergacha odatdagicha tez-tez yozdi, lekin gap olijanoblikka kelib taqalganda (Anna unda olijanoblik borligini tan olmas edi) va xatni biron ta'sirli so'z bilan tugatish zarur bo'lganda, to'xtab qoldi.

«O'z gunohim va pushaymonligim haqida og'iz ocholmayman, chunki...»

Anna fikrlarining qovushmaganini sezib, yana to'xtab qoldi. «Yo'q, hech narsa kerak emas», dedi-yu, xatni yirtib tashladi, keyin olijanoblik to'g'risidagi gaplarini tushirib qoldirib, xatni boshqatdan ko'chirdi-da, xatjildga solib yopishtirdi.

Ikkinchi xatni Vronskiyga yozishi kerak edi. «Erimga hamma gapni aytdim», deb boshlagan bo'lsa ham, davomini yozishga qurbi yetmay, uzoq o'tirib qoldi. Bu so'zlar juda ham qo'pol, dag'al edi. «Innaykeyin, unga nima ham deb yozdim-a?» dedi o'ziga. Yana uyalganidan yuziga qon yugurdi, yana uning xotirjam qiyofasi ko'z oldiga keldi, ana shundan keyin yuragida unga qarshi tug'ilgan g'ashlik atigi bir jumlagina yozilgan qog'ozni parcha-parcha qilib yirtib tashlashga majbur qildi. «Hech narsa kerak emas», dedi o'ziga, so'ngra xat soladigan papkasini yopib, yuqoriga chiqdi-da, bugun Moskvaga jo'nashni murabbiya bilan xizmatkorlarga e'lon qilgach, darhol ul-bullarini yig'ishtirishga kirishdi.

XVI

Chorbog'dagi uyning hamma xonalarida xodimlar, bog'bonlar, malaylar ul-bullarni tashqariga tashib chiqarishardi. Shkaflar, javonlar ochiq, ikki marta do'kondan chilvir keltirildi; gazeta qog'ozlari pollarda ivirsib yotardi. Ikkita sandiq, qoplar, ro'molga o'ralgan tunganlar dahlizga chiqarib qo'yildi. Kareta bilan ikkita izvosh eshik oldida kutib turardi. Anna ul-bullarni yig'ishtirish bilan ovora bo'lib tashvishi esidan chiqdi, u kabinetidagi stol yonida turib, o'zining qopchig'iga ul-bullarini joylayotganda, Annushka gumburlab yaqinlashib kelayotgan karetaga uning diqqatini jalb qildi. Anna derazadan qarab, Aleksey Aleksandrovichning eshik oldida qo'ng'iroq chalib turgan kurerini ko'rdi.

– Nima gap ekan, bilib kel-chi, – dedi-yu, Anna taqdirga tan berib, kursiga o'tirdi-da, qo'llarini tizzasi ustiga qo'ydi. Yugurdak Aleksey Aleksandrovichning qo'li bilan yozilgan qalin bir paketni olib kirdi.

– Kuryerga javobini olib kel, deb buyuribdilar, – dedi yugurdak.

– Xo'p, – dedi-yu, Anna xizmatkor chiqib ketar-ketmas qaltiroq barmoqlari bilan paketni yirtdi. Banderol shaklida yelimlanib, bukmasdan solingan bir dasta pul yerga tushib ketdi. Anna xatni chiqarib, oxiridan boshlab o'qidi: «Ko'chib kelishingiz uchun lozim bo'lgan tayyorgarliklarni ko'rdirib qo'ydim, iltimosimni bajarishga alohida e'tibor bilan qarashingizin o'tinib so'rayman». Anna xatning pastidan yuqorisiga qarab hammasini o'qidi, keyin yana bir marta boshdan-oyoq o'qib chiqdi. Xatni o'qib bo'lgandan keyin vujudi muzlay boshlaganini, boshiga hech qachon o'ylamagan bir baxtiqoralik tog'i ag'darilganini sezdi.

Anna eriga aytgan so'zlari uchun ertalab pushaymon bo'lgan va bu so'zlarni aytganiga achingan edi. Mana endi bu xat o'sha so'zlarni aytilmagan deb qabul etgan va Annaning ko'nglidagi narsasini bag'ishlagan edi. Lekin bu xat u tasavvur qilishi mumkin bo'lgan hamma narsadan ham dahshatliroq bo'lib chiqdi.

«Haqli! Haqli! – deb gapira ketdi. Anna. – Albatta, u hamma vaqt haqli, u nasroniy, u olijanob odam! Ha, tuban, razil odam! Shunisi yomonki, bundayligini mendan boshqa hech kim anglamaydi, men ham tushuntirib aytib berolmayman. Ular: dindor, axloqli, vijdonli, aqlli kishi, deb yurishadi, lekin ular men bilgan narsani bilishmaydi. Ular sakkiz yildan beri umrimni xazon qilayotganligini, menda bo'lgan hayot nihollarining hammasini bo'g'ib kelganligini, mening tirik, jonli xotinligimni, muhabbatga tashna ekanligimni aqalli bir marta ham xayoliga keltirmaganligini bilishmaydi. Har qadamda meni haqorat qilganligini, shundan keyin o'zidan mamnun bo'lganligini bilishmaydi. Ajabo, hayotimni oqlash uchun harakat qilmadimmi, bor kuchim bilan tirishib-tirmashmadimmi? Ajabo, er o'rnida yaxshi ko'rishning iloji bo'lmaganiga qaramay, uni yaxshi ko'rishga, o'g'limni yaxshi ko'rishga urinmadimmi? Lekin, vaqti kelibdi, men o'zimni ortiq alday olmasligimni, men ham tirik jon ekanligimni, Xudo meni shunday yaratgani uchun aybdor emasligimni, menga ham sevish, yashash kerakligini anglagan bo'lsam, nima

qilay? Bu qanday ko'rgilik-a? Meni o'ldirsa ham, uni o'ldirsa ham, hammasiga chidash berardim, hammasini afv etardim, lekin u...»

«Tavba, uning nima qilishiga nechuk fahmim yetmabdi-ya? O'zining razil xarakteriga munosib chora ko'radi. O'zi haqli bo'lib qoladi, meni, men notavonni esa yana ham battar, yana ham tubanroq halok qiladi...» U xatdagi so'zlarni esladi: «O'zingizning boshingizga, o'g'lingizning boshiga nimalar tushishini fahmlab olishingiz mumkin». «Bu o'g'limni tortib olaman deb qilgan do'qi, ehtimol, ularning ahmoqona qonunlari bunga yo'l qo'yar. Ajabo, nega bunday deyayotganligini men bilmaymanmi? O'g'limni yaxshi ko'rishimga ishonmaydi yoki nafratlanadi (hamma vaqt shunday mazax qilib yuradi), mening bu hissимdan nafratlanadi, lekin u biladi: men o'g'limni tashlamayman, tashlay olmayman, hatto yaxshi ko'rgan kishim bilan ham o'g'limsiz yashay olmayman, umr qilolmayman, lekin o'g'limni tashlab, undan qochib ketsam, shu bilan eng sharmanda, eng razil xotinday ish ko'rgan bo'laman, u buni biladi, bunday qilishga qurbim yetmasligini biladi».

Anna xatdagi boshqa bir jumalani esladi: «Hayotimiz ilgari qanday borgan bo'lsa, yana shunday borishi kerak». Bu hayot ilgari azob-uqubatdan iborat bo'lsa, so'nggi vaqtlarda undan ham besh battar og'ir bo'ladi. Endi nima bo'lardi? O'zi bu narsalarning hammasini biladi, havo bilan nafas olayotganimdan, sevgiga muhtalo bo'lganimdan, pushaymon qilolmasligimni ham biladi, buning yolg'on-yashiq aldamchilikdan boshqa narsa emasligini biladi, shunday bo'lsa ham meni qiynashdan boshqa narsani o'ylamaydi-ya. Men uni bilaman. Suvdagi baliq singari, yolg'on-yashiqlar ichida suzib, gasht qilishini bilaman. Yo'q-yo'q, men uni gasht qildirib bo'pman, meni o'rab olmoqchi bo'lgan o'rgimchak uyasini, yolg'onchilik iplarini uzib tashlayman, mayli, nima bo'lsa bo'lar, boshimga nimaiki tushmasin, hammasi yolg'onu aldamchilikdan yaxshiroq!»

«Lekin qanday qilay? Yo Xudo! Yo Xudo! Dunyoda menchalik baxtiqora xotin bo'lganmikan?..»

Anna o'midan sakrab turdi-da, ko'z yoshlarini to'xtatib:

– Yo'q, uzib tashlayman, uzib tashlayman! – deb qichqirdi, shundan keyin unga boshqa xat yozish uchun yozuv stoliga bordi. Lekin hech narsani uzib tashlashga qurbi yetmasligini, ilgarigi ahvoli qanchalik soxta, qanchali benomus bo'lsa ham, undan voz kechishga qurbi yetmasligini qalbining chuqur bir yerida sezib turardi.

U yozuv stolining yoniga kelib o'tirdi, lekin yozish o'rniga, qo'llarini stol ustiga, boshini qo'llari ustiga qo'ydi-yu, butun ko'ragi bilan tebranib, hiqillab, yosh boladay yum-yum yig'ladi. U o'z ahvolini aniqlab olish, bir yoqli qilish to'g'risidagi orzulari abadiy barbod bo'lgani uchun yig'lar edi. U hamma narsaning eskichasiga va balki eskisidan ham battar bir ahvolga tushib qolishini oldindan bilardi. Kiborlar jamiyatida tutgan mavqeyi, o'zi hamisha foydalanib kelgan, bugun ertalab esa ko'ziga juda ham ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan bu hayot o'zi uchun qadrlı ekanini, shuning uchun uni eri bilan o'g'lini tashlab, o'ynashi bilan topishib ketgan tuban bir xotinning sharmanda hayotiga almashtirish hech va hech qachon qo'lidan kelmasligini, har qancha tirishib-tirmashsa ham, o'ziga kuchi yetmasligini sezar edi. U hech mahal muhabbat erkining gashtini surmaydi, balki hamma vaqt jinoyatkor xotin bo'lib qoladi, birga hayot kechirolmaydigan yot, boshi ochiq bir kishi bilan sharmandalarcha aloqada bo'lish uchun erini aldab yurgan jinoyatkor xotin kabi daqiqa sayin siri oshkor bo'lishidan qo'rqib titrab yuradi. Anna mutlaqo shunday bo'lishini bilardi, shu bilan birga. bu narsa shu qadar dahshatli ediki, buning oqibati nima bo'lishini ko'z oldiga ham keltirolmas edi. Shuning uchun o'zini tutolmay yig'lar, jazolangan bolalar kabi to'lib-to'lib yig'lardi.

Yugurdakning oyoq tovushi uni hushiga keltirdi, yuzini yashirib, o'zini xat yozayotganga soldi.

– Kuryer, javob bersalar deyapti, – dedi yugurdak.

– Javob? Ha, kutib tursin, – dedi Anna. – O'zim chaqiraman.

«Nima deb yozdim? – deb o'ylana boshladi. – Bir o'zim qanday hal qilaman? Men nimani bilaman? Tilagim nima? Nimani yaxshi ko'raman?» Yana ko'nglida ikkilana boshlaganini sezdi. Bundan yana qo'rqib ketib, o'zi to'g'risidagi fikrlarini tarqatishi mumkin bo'lgan birinchi bahonaga yopishib oldi. «Alekseni ko'rishim kerak (Vronskiyning xayolida shunday deb atardi) nima qilishim lozimligini yolg'iz uguna aytib berishi mumkin. Betsinikiga boraman, uni zora o'sha yerda ko'rsam», dedi u o'ziga, holbuki kecha knyaginya Tverskayanikiga o'zining bormasligini aytganda, Vronskiy: «Bo'lmasa, men ham bormayman», deganini Anna butunlay esidan chiqargan edi. Anna stolga kelib, eriga shu satrni yozdi: «Xatingizni oldim. A». Shundan keyin qo'ng'iroq chalib, xatni malayga berdi.

- Shu mahal ichkariga kirib kelgan Annushkaga:
– Ketmaymiz, – dedi.
– Butunlay ketmaymizmi?
– Yo‘q, tugunlarni ertagacha yechmanglar, kareta ham tursin.
Hozir knyaginyanikiga boraman.
– Qaysi ko‘ylagingizni tayyorlay?

XVII

Knyaginya Tverskaya Annani taklif qilgan kroket o‘yining qatnashchilari ikki nafar xonim-u va bularning muxlislaridan iborat bo‘lishi kerak edi. Bu ikki xonim Peterburgda nimagadir taqlid qilinib tashkil topgan narsaga taqlid qilib les sept merveilles du monde¹ deb atalgan yangi oliy tabaqa kiborlar to‘garagining vakillaridan edi. Darhaqiqat, bu xonimlar oliy tabaqalilar to‘garagiga mansub bo‘lishsa hamki, bu to‘garak Anna qatnashadigan to‘garakka butunlay dushman edi. Bundan tashqari, Peterburgdagi nufuzli odamlardan biri hisoblangan va Liza Merkalovaning muxlisi bo‘lgan Stremov chol xizmati yo‘li bilan Aleksey Aleksandrovichga dushman edi. Anna mana shu mulohazalar bilan borishni xohlamagan, knyaginya Tverskaya o‘z xatida uning shu mulohazaga ko‘ra kelishni istamaganligiga ishora qilgan edi. Endi esa Anna Vronskiyini ko‘rish umidida borishga qaror qildi.

Anna knyaginya Tverskayanikiga boshqa mehmonlardan oldin keldi.

Anna uyga kirib borayotganda, Vronskiyning bakenbardlari taralgan va kamer-yunkerga o‘xshagan yugurdagi ham kirib ketayotgan edi. U eshik og‘zida to‘xtab furajkasini boshidan oldi-yu, Annaga yo‘l berdi. Anna yugurdakni tanidi-da, Vronskiyning bormayman degan so‘zi darhol esiga tushdi. Shu haqda xat yuborgan bo‘lsa ehtimol edi.

Anna ustki kiyimlarini dahlizda yecha turib, hatto «r» tovushini ham kamer-yunker singari talaffuz qilayotgan yugurdakning: «Grafdan knyaginyaga» deganini eshitdi, yugurdak xatni berdi.

Anna undan xo‘jayinining qayerdaligini bir so‘ragisi ham keldi, orqasiga qaytib, biznikiga kelsin, deb unga xat yuborgisi yoki o‘zi

¹ Olamning etti mo‘jizasi (*frans.*).

uning yoniga borgisi kelib ketdi. Lekin unisini ham, bunisini ham, uchinchisini ham qilib bo'lmaz edi, chunki Annaning kelganligini e'lon qilgan qo'ng'iroq sadolari eshitilgan, knyaginya Tverskayaning yugurdagi lang ochiq eshik oldida yoni bilan turib, Annaning ichkari xonalarga kirishini kutayotgan edi.

Ikkinchi xonadagi bir yugurdak:

– Knyaginya bog'dalar, hozir xabar qilishadi. Balki bog'ga marhamat qilishni istarlar? – dedi.

Anna bu yerda ham, uyidagi singari, ikkilanib, tang ahvolga tushib qoldi, ahvoli uyidagidan ham yomon edi, chunki bu yerda bir narsa qilib bo'lmaz, Vronskiyning ko'rib bo'lmaz, aksincha, mana shu yerda, o'ziga yot, kayfiyatiga tamoman zid odamlar orasida qolishi kerak edi, lekin u pardozi-andozi, libosi o'ziga yarashib turganini bilardi, u yolg'iz emas edi, bu muhitda o'zi odatlanib qolgan zeb-ziynatli, bema'ni hayot hukm surar, uydan ko'ra bu yerda o'zini yengil his etardi, qiladigan ishini o'ylab o'tirishga hojat yo'q edi. Hamma narsa o'z-o'zidan bo'lib ketaverar edi. Anna o'ziga peshvoz kelayotgan Betsi bilan uchrashdi-yu, uning zeboligi bilan hayratda qoldirgan oppoq kiyimlariga, pardozi-andoziga qarab, har vaqtdagiday Betsiga kulimsirab qo'ydi. Knyaginya Tverskaya esa Tushkevich hamda bir qarindoshining qizi bilan kelayotgan edi, qarindoshining bo'yi yetib qolgan bu qizi yoz kunlarini mashhur knyaginya yonida o'tkazish bilan chet viloyatda yashovchi ota-onasini behad baxtiyor qilmoqda edi.

Aftidan, Annaning qiyofasida g'ayrioddiy bir narsa bo'lsa kerak, Betsi buni darhol payqadi.

Anna ro'paralaridan kelayotgan yugurdakka razm solib turib:

– Notinch uxladim, – dedi, Annaning mulohazasicha, bu yugurdak Vronskiyning xatini olib kelmoqda edi.

– Kelganingizga biram suyundimki, – dedi Betsi. – Judayam charchadim, ular yetib kelguncha bir do'lcha choy ichib olay deb kelayotgan edim. Ha, menga qarang, – dedi u Tushkevich tomonga o'girilib, – Masha bilan chiqib, ko'katlari o'rib tashlangan joyda kroket-ground o'ynab turmaysizlarmi? – U Annaga qarab, – siz bilan esa choy ustida o'tirib gaplashamiz, well have a cosy chat¹, shunday emasmi? – dedi-yu, soyabon ushlab turgan qo'lini qisib qo'ydi.

¹ Shiringina suhbat qilamiz (ingl.).

– Shunisi ma’qul, chunki bu yerda uzoq qololmayman, Vrede kampirga albatta uchrashim zarur, allaqachon va’da qilgan edim, – dedi Anna. Tabiatiga butunlay zid bo’lgan yolg’onchilik odamlar orasida bermalol aytilaveradigan shunchaki gap bo’libgina qolmay, balki unga zavq ham bera boshlagan edi.

Bir soniya oldin miyasiga kelmagan bu gapni nima uchun aytganini o’zi ham tushuntirib berolmasdi. U bu gapni Vronskiy bo’lmagandan keyin bu yerdan ketish va bir amallab Vronskiyini ko’rishga harakat qilish mulohazasi bilangina aytgan edi. Lekin boshqa ko’p odamlar-nikiga borishi mumkin bo’lgani holda nima uchun faqat qari freylina Vredenigina tilga olganligini aytib berolmas edi, keyincha Vronskiy bilan uchrashish uchun har xil hiyla-nayranglar ishlatib yurganda, bundan yaxshirog’ini o’ylab topolmagani ma’lum bo’ldi.

Betsi Annaning yuziga diqqat bilan razm solib:

– Yo’q, hecham javob bermayman-da, – dedi. – Sizni yaxshi ko’rmaganimda, o’lay agar, xafa bo’lardim. Men bilan ulfat bo’l-sangiz, xuddi badnom bo’ladiganday qo’rqasiz-a! Marhamat, kichik mehmonxonaga choy keltiring, – dedi u ko’zlarini qisib. Yugurdakka hamma vaqt ko’zlarini shunday qisib gapirardi. Keyin, undan xatni olib, o’qib chiqdi. – Aleksey noma’qul ish qilibdi, – dedi u, fran-suzchalab. Keyin Vronskiy kroketboz bo’lgani uchungina Anna unga e’tibor beradi, bundan boshqa fikr hech qachon miyamga kelishi mumkin emas, degandek oddiy, tabiiy bir ohangda ilova qildi: – Kelolmayman deb yozibdi-ya.

Anna Betsining hamma gapdan xabari borligini bilsa ham, yana o’z oldida Vronskiydan gap ochganda, uning hech narsadan xabari yo’qligiga bir lahza qanoat hosil qilardi.

Anna bu narsa bilan ishi yo’qday, parvosizgina qilib:

– E! – dedi-yu, keyin, kulimsirab, so’zini davom qildi: – Sizga ulfat bo’lgan kishi qanday qilib badnom bo’lishi mumkin? – bu so’z o’yini, sir boy bermaslik hamma xotinlarga zavq bag’ishlagani sin-gari, Annaga ham zavq bag’ishlardi. Annani qiziqtirgan narsa sirni pinhon tutish emas, maqsadi ham emas, sirni pinhon tutish mahorati edi. – Men papadan ham taqvodor katolik bo’lolmayman, – dedi Anna. – Stremov bilan Liza Merkalova esa jamiyat qaymog’ining qaymoqlari. Innaykeyin, ular hamma yerda qabul qilinib kelingan, men bo’lsam (men so’ziga jo’rttaga urg’u berib aytdi), hech qachon

bunday salobatga ega bo'lgan emasman. Gapning qisqasi, vaqtim yo'q.

– Yo'q, balki Stremov bilan uchrashgiz kelmas? Qo'yavering, ular Aleksey Aleksandrovich bilan qo'mitada nayzabozlik qilaversinlar, bizga buning aloqasi yo'q. Lekin u kiborlar orasida men bilgan odamlarning eng nazokatlisi, krocket o'yinining eng ashaddiy ishqibozi. Hali o'zingiz ko'rasiz. Qariganida Lizaga oshiq bo'lishdek kulgili bir ahvolga tushib qolganiga qaramay, bu kulgili ahvoldan o'zini qanday saqlab yurganini bir ko'rish kerak! Juda dilbar kishi. Safo Shtolsni taniysizmi? Bunisi yangi, butunlay yangi tarzdagi odam.

Betsi shu gaplarni gapirib turganda, Anna uning sho'x, ma'noli ko'zlariga qarab, o'z ahvolidan uning qisman xabardorligini, shuning uchun bir narsa qilmoqchi bo'lib turganligini payqadi. Ular kichkina kabinetda o'tirishgan edi.

– Har holda Alekseyga xat yozib yuborish kerak, – dedi-yu, Betsi stol yoniga o'tirib, bir necha satr yozgandan keyin, xatni xatjildga soldi. – Uni tushlik ovqatga taklif qildim. Xonimlarimdan biri tushlikda erkaksiz qoladigan ko'rinadi, dedim. O'qib qarang-chi, ishon-sa bo'ladingmi? Kechirasiz, bir daqiqagina sizni yolg'iz qoldiraman. Mumkin bo'lsa, o'zingiz xatjildni berkitib, jo'natib yuborsangiz, – dedi Betsi eshik yonidan, – odamlarga topshiradigan ishlarim bor.

Anna bir zum ham o'ylab o'tirmasdan Betsining xatini olib, stol yoniga o'tirdi-da, uni o'qimasdanoq, ostiga shu so'zlarni yozib qo'ydi: «Sizni ko'rishim zarur. Vredening bog'iga keling. Soat oltida o'sha yerda bo'laman». Anna xatjildni berkitganda, Betsi qaytib kirdi-yu, uning ko'z o'ngida xatni berib yubordi.

Haqiqatan ham, kichkina, salqin mehmonxonada patnis stol-da keltirilgan choyni ichishib o'tirib, ikki ayol o'rtasida knyaginya Tverskaya mehmonlar kelmasdan o'tkazishni va'da qilgan cosy chat¹ boshlanib ketdi. Ular kelishlarini kutishib turgan odamlarning g'iybatini qilishdi, axiyri, gap Liza Merkalovaga kelib to'xtadi.

– U juda dilbar juvon, menga hamisha yoqadi, – dedi Anna.

– Siz uni yaxshi ko'rishingiz kerak. Tushida ham faqat sizni ko'rib, sizni gapiradi. Kecha poygadan keyin yonimga kelib, siz-

¹ Shiringina suhbat (*ingl.*).

ni ko'rolmay qolgani uchun dudi osmonga chiqayozdi. U sizni: «Roman uchun haqiqiy qahramon bo'ladigan juvon, agar erkak kishi bo'lganimda bormi, yo'lida ming xil noma'qulchiliklar qilgan bo'lardim», deydi. Bu so'zlarini Stremov eshitib: «Shundog' ham qilyapsiz», deb kuldi.

Anna biroz jim o'tirgandan so'ng:

– Menga aytib bersangiz, men bir narsaga hech tushunolmayman, – dedi, uning bu so'zlarida shunday bir ohang bor ediki, bu narsani shunchaki, xo'jako'rsinga so'ramayotganligini, balki so'rayotgan narsasi keragidan ham ortiqroq muhim narsa ekanligini bildirardi. – Aytib bersangiz, Lizaning Mishka laqabli knyaz Kalujskiyga bo'lgan aloqasi nimadan iborat? Men ularni kam uchratganman. Bu nimasi, a?

Betsi ko'zlari bilan kulimsirab, Annaga sinchiklab nazar tashladi.

– Yangi qiliq, – dedi u. – Hammalari yangi qiliq orttirgan. Eski qiliqlar eski lattaga tugib tashlangan. Lekin shunday qiliqlar borki, yangi qiliqlarni ham uloqtirib tashlaydi.

– Tuzug-u, lekin Lizaning Kalujskiyga qanaqa aloqasi bor?

Betsi birdan ochilib, qah-qah urib kulib yubordi, unda bunday hollar kamdan-kam bo'lardi.

– Siz hozir knyaginya Myagkayaning sohasiga chang solyapsiz. Bu yomon bolaning savodi, – dedi-yu, Betsi, aftidan, kulgisini tiymoqchi bo'ldi, lekin o'zini to'xtatolmay kamdan-kam kuladigan odamlarda uchraydigan qattiq kulgi bilan qotib-qotib kula boshladi. Keyin kulgi yoshlari orasidan: – Buni o'zlaridan so'rash kerak, – dedi.

Anna ham ixtiyorsiz kulib:

– Yo'q, hazillashyapsiz, – dedi, – to'g'risi, men bunga hech tushunolmayman. Men bu masalada erning rolini tushunolmayman.

– Erimi? Liza Merkalovanning eri hamma vaqt xotining orqasidan ro'molini ko'tarib, xizmatiga shay bo'lib yuradi. Naryoqda nima gap bo'layotgani bilan hech kimning ishi yo'q. Bilasiz-ku, yaxshi jamiyatda pardoz-andozning ba'zi iker-chikirlari haqida gaplashmaydilar, hatto o'ylashmaydilar ham. Bu narsa ham shunga o'xshagan.

Anna gapni boshqa yoqqa burish uchun:

– Rolandaki bayramiga borasizmi? – deb so'radi

– Borish xayolimda ham yo'q, – deb javob berdi Betsi, keyin dugonasiga qaramasdan, mayda, shaffof finjonlarga ehtiyotlik bi-

lan xushbo'y choy quya boshladi. Finjoni Annaning oldiga surib qo'yib, sigaret oldi-da, kumush mundshtukka suqib cheka boshladi.

– Mana, ko'rdingizmi, yana kayfim joyiga tushdi, – dedi kulmasdan Betsi finjonni qo'liga olarkan. – Sizni ham, Lizani ham bilaman. Liza – bolalar singari, nima yaxshi, nima yomonligiga fahmi etmaydigan soddadil juvonlardan bittasi. Har holda, juda ham yoshligida bu narsalarga fahmi etmas edi. Hozir esa bu go'lligining o'ziga yarashganini biladi. Ehtimol, endi o'zini jo'rttaga go'llikka solayotgandir, – dedi Betsi, nozik bir tabassum bilan. – Har holda, bu narsa unga juda yarashadi. Ko'rdingizmi, ayni bir narsani fojia deb bilib, u tufayli azob chekish ham, unga parvo qilmay qarash va xushchaqchaq bo'lish ham mumkin ekan. Ehtimol, sizda bunday narsalarga falokat deb qarash mayli bordir.

– Koshki edi boshqalarni ham xuddi o'zimni bilgandek bilsam, – dedi Anna jiddiy va o'ychan bir holatda. – Men boshqalardan yomonroqmanmi yo yaxshiroqmanmi? Nazarimda, yomonroqman.

– Yomonroq, yomonroq, – dedi Betsi qayta-qayta. – Ana, o'zlari ham kelishdi.

XVIII

Oldin oyoq tovushi bilan erkak ovozi, keyin ayol ovozi bilan kulgisi eshitildi, so'ngra kutilgan mehmonlar: Safo Shtolts bilan Vaska laqabli, sog'ligidan terisiga sig'may yuzi yilt-yilt qilib turgan yosh yigit kirib keldi. Egan so'qim go'shti, qayla, ichgan burgon vinosi unga juda yoqqani ko'rinib turardi. Vaska xonimlarga bosh egib ta'zim qilgandan so'ng yuzlariga qaradi, lekin bir soniyadan keyin ko'zini olib, Safo orqasidan mehmonxonaga kirdi, u, xuddi Safoga ip bilan bog'lab qo'yilgandek, orqada borar, xuddi eb qo'ygudek bo'lib, papiroq ko'zlarini Safodan uzmas edi. Safo Shtolts qora ko'z, mallasoch juvon edi. U tik poshnali tuflidagi oyoqlari bilan mayda, dadil qadam tashlab kirib keldi, xonimlarning qo'llarini erkakchasiga mahkam qisdi.

Anna bu yangi shuhrat egasini hech qachon uchratmagan edi, shuning uchun husnini, me'yoridan ortiq pardoz-andozini, qiliqlarining dadilligini ko'rib og'zi ochilib qoldi. Boshidagi nozik oltin rangli ulama sochlari va o'z sochi shunday baland qilib turmaklangan ediki, boshining kattaligi basti kelishgan, ko'kragi bo'rtib chiqqan va old tomoni juda ham ochiq bo'lgan ko'ksi qadar kelardi. Shunday

shaxdam qadam tashlar ediki, yurganda tizzalarining shakli, oyoqlarining yuqori qismi ko‘ylagining tagidan yaqqol bilinib turar, odamning xayoliga ixtiyorsiz: ustidan juda ochiq, orqadan, pastdan juda ham yopiq mo‘jazgina, xushbichim tanasi orqadan larzanglab turgan «chodir»ning qayerida ekan degan savol kelardi.

Betsi uni darrov Anna bilan tanishtirdi.

Safo ko‘zlarini uchirib, kulimsirab va ko‘ylagining bir tomonga haddan tashqari ko‘p tashlab yuborgan uzun etagini orqaga tortib turib, darhol hikoya qila ketdi:

– Ikkita askarni bostirib ketishimizga sal qolsa bo‘ladimi! Vaska ikkovimiz kelayotgan edik... Aytmoqchi, sizlar tanish emassizlar-a? – Shundan keyin yigitni familiyasini aytib tanishtirdi-da, qilgan xatosi uchun, ya‘ni notanish odam oldida uni Vaska deb atagani uchun qizarib, qah-qahlab kulib yubordi.

Vaska Annaga yana bir marta bosh egib ta‘zim qilgan bo‘lsa ham, hech nima demadi. Safoga qarab:

– Garovni yutqazdingiz. Oldin kelibmiz. Qani, to‘lab qo‘ying, – dedi kulimsirab.

Safo yana ham ochilib kuldi.

– Hozir emas-da, – dedi Safo.

– Baribir, keyin ham olaman.

– Xo‘p, xo‘p. Ha-ya! – dedi birdan uy bekasiga yuzlanib. – Esim qurmasin... yodimdan ko‘tarilibdi, sizga bir mehmon olib keldim. Ana o‘zi.

Safo boshlab kelgan bo‘lsa ham, yodidan chiqarib qo‘ygan bu kutilmagan mehmon ham shu qadar viqorli mehmon ediki, yoshligiga qaramay, ikkala xonim ham o‘rinlaridan turib qarshi olishdi.

Bu Safoning yangi muxlisi edi. U ham hozir, Vaska singari, orqasidan qolmay ergashib yurardi.

Hademay knyaz Kalujskiy, Stremov bilan Liza Merkalovalar ham yetib kelishdi. Liza Merkalova qoramtir sochli, sharqliklarga o‘xshash tanbal chehrali, odamlar so‘zi bilan aytganda, ta‘rifga sig‘maydigan go‘zal shahlo ko‘zli, qotma bir juvon edi. Kiyimboshining qoramtirliigi (Anna darhol sezib, o‘z bahosini berib qo‘ydi) husniga quyilib tushgandek edi. Safo qanchalik zuvalasi pishiq va ixcham bo‘lsa, Liza shu qadar yumshoq va bo‘shang edi.

Lekin Liza Annaning didiga ko'proq yoqdi. Betsi Annaga, Liza yosh bolaning qiliqlarini qilib yuradi, deb aytgan bo'lsa ham, Anna uni ko'rgandan keyin, Betsining gapi noto'g'ri ekanligini payqadi. Liza chindan ham sodda, buzilgan, lekin dilbar, mo'min bir xotin edi. To'g'ri, uning yurish-turishi Safoniki singari edi, Safoga o'xshash, uning orqasidan ham, xuddi etagiga tikib qo'yilgandek, ikkita muxlis hamisha ergashib, ko'zlari bilan yeb qo'ygudek bo'lib yurardi, bu muxlislarning biri yosh, ikkinchisi esa qari edi, lekin Lizada u atrof-dagilardan balandroq turadigan allanima bor edi – u shishalar orasidagi javohir kabi tovlanib turardi. Bu tovlanish haqiqatan ham ta'rifga sig'maydigan nihoyatda chiroyli ko'zlarida namoyon edi. Qora doira bilan o'rab olingan bu ko'zlarning horg'in, ayni zamonda ehtirosli nigohi o'zining g'oyat samimiyligi bilan odamni hayron qoldirardi. Bu ko'zlarni ko'rgan har bir kishi uni ipidan-ignasigacha bilgandek bo'lar, bilgandan keyin esa yaxshi ko'rmay turolmasdi. Annani ko'rgan soati butun yuzi shodlik tabassumi bilan chaqnaq ketdi.

Liza Annaning yoniga kelib:

– Voy, sizni ko'rib biram quvondimki, – dedi. – Kecha poygada endi oldingizga boraman deb tursam, ketib qolibsiz. Men sizni mutlaqo kecha ko'rgim kelgan edi. Juda yomon bo'ldi, a! – dedi, butun qalbini ochib ko'rsatgan nigoh bilan qarab.

– Ha, bu qadar hayajonga solar deb hech o'ylamagan edim, – dedi Anna qizarib.

Jamoat boqqa chiqish uchun o'rnidan qo'zg'aldi.

Liza kulimsirab, Annaning yoniga kelib o'tirdi-da:

– Men chiqmayman, – dedi. – Siz ham chiqmaysizmi? Kroket o'yinida nima bor-a!

– Yo'q, men yaxshi ko'raman, – dedi Anna.

– Menga qarang, zerikmaslik uchun nima qilasiz, a? Sizga qaragan kishining bahri-dili ochilib ketadi. Siz yashash yo'lini bilasiz, men bo'lsam xunob bo'lib o'taman.

– Nega xunob bo'lasiz? Axir, siz Peterburgdagi eng sho'x odamlar orasidasiz-ku! – dedi Anna.

– Qaydam, bizning to'pimiz orasida bo'lmaganlar, ehtimol, ko'proq xunobgarchilik tortar, lekin biz, ayniqsa, men, siqilib o'laman, shunday yomon zerikamanki, naryog'i yo'q.

Safo papirosini tutatib, ikkita yigiti bilan boqqa chiqib ketdi. Betsi bilan Stremov choy ichib qoldi.

– Nega xunob bo‘lasiz? – deb so‘radi Betsi. – Safo kecha sizlarnikida rosa o‘ynab-kuldik dedi-yu.

– E, qayoqda, zerikib o‘lib bo‘ldim! – dedi Liza Merkalova. – Poygadan keyin hammamiz biznikiga bordik. Eski hammom, eski tos! Biron bir yangi narsa bo‘lsa ham go‘rga edi. Kechgacha divanlarda cho‘zilib umrimiz o‘tdi. Shu ham o‘yin-kulgi bo‘ptimi? Yo‘q, zerikmaslik uchun siz nima qilasiz? – dedi yana Annaga yuzlanib. – Sizga bir qaragan kishi: «Ana bu asl xotin, baxtiyorligida ham, baxtsizligida ham o‘zini zeriktirmaydi!» deb o‘ylaydi. Menga o‘rgatib qo‘ying, qanday qilasiz, a?

Anna bu pashshaxo‘rda savollardan qizarib:

– Hech nima qilmayman, – dedi.

– Mana bu eng yaxshi odat, – deb Stremov gapga aralashdi.

Stremov ellik yoshlarda, sochlariga oq oralagan, hali tarovatli, g‘oyat xunuk bir kishi bo‘lsa ham, yuzidan xarakteri va aqli yaqqol sezilib turardi. Liza Merkalova xotining jiyani edi, u butun bo‘sh soatlarini Liza bilan birga o‘tkazardi. Anna Kareninani ko‘rgandan keyin, xizmat yo‘li bilan Aleksey Aleksandrovichning dushmani hisoblansa ham, kibor va dono odam bo‘lgani uchun, dushmanining xotini bilan ayniqsa, sermulozamat bo‘lishga tirishdi.

Stremov nozikkina kulimsirab, Annaning so‘zini takrorladi:

– «Hech nima», – dedi. – Zerikmaslikning eng yaxshi davosi shu. – Keyin Liza Merkalovaga yuzlanib gapirdi: – Men sizga: «Zerikib xunob bo‘lmaslik uchun hech qachon zerikishni o‘ylamaslik kerak», deb qachonlari aytganman. Bu ham, uyqusizlikdan qo‘rqqan kishi uyqum kelmaslik deb qo‘rqmasligi kerak, deganday gap. Anna Arkadevna ham sizga xuddi shuni aytdilar.

– Shunday degan bo‘lsam, juda ham xursand bo‘lardim, chunki bu faqat dono gap bo‘libgina qolmay, haqiqat ham, – dedi kulimsirab Anna.

– Yo‘q, nima sababdan odam uxlay olmaydi-yu, nima sababdan zerikmay turolmaydi, shuni aytib bering?

– Uxlash uchun ishlash kerak, xursand bo‘lish uchun ham ishlash kerak.

– Mening ishim hech kimga darkor bo‘lmagandan keyin ishlab nima qilaman? Jo‘rttaga mug‘ambirlik qilishni bilmayman ham, xohlamayman ham.

Stremov Lizaga qaramasdanoq:

– Siz hech tuzalmaysiz, – dedi-da, yana Annaga yuzlandi.

Stremov Anna bilan kamdan-kam uchrashar, har gal unga bema‘ni gaplarnigina gapirardi, mana hozir ham Annaning Peterburgga qachon ko‘chib kelishi, grafinya Lidiya Ivanovnaning Annani yaxshi ko‘rishi to‘g‘rilarida bema‘ni gap ochgan bo‘lsa-da, uning ifodasida jon-dili bilan Annaga shirin so‘zlar aytish, kamoli hurmat va ehtiromini ko‘rsatish istagi bor edi.

Tushkevich kirib, kroket o‘ynovchilarni jamoat kutib turganligini bildirdi.

Liza Merkalova Annaning ketishini eshitib:

– Yo‘q, ketmang, qoling, – deb iltimos qildi. Stremov ham Lizaga qo‘shildi.

– Bu jamoatni tashlab, Vrede kampirikiga ketish yaxshi emas. Innaykeyin, u g‘iybatchining tiliga tushasiz, bu yerda esa fisq-fasodga teskari bo‘lgan eng yaxshi hislar uyg‘otasiz, – dedi u Annaga.

Anna bir daqiqagina ikkilanib turdi. Bu aqlli kishining shirin so‘zlari, Liza Merkalovaning unga bo‘lgan bolalarcha sodda husni tavajjuhi, o‘zi odatlanib qolgan butun bu kiborlar muhiti – bularning hammasi shu qadar orombaxsh, uni kutib turgan narsa esa shu qadar og‘ir ediki, «Qolsammi, og‘ir izohot daqiqasini keyinga qoldirsammi», deb bir daqiqagina taraddudda qoldi. Lekin biron qarorga kelmasa, uyda boshiga nimalar kelishini, o‘zi uchun, xotirasi uchun dahshatli bo‘lgan holatini, ikki qo‘li bilan sochlarini yulqilagan paytini esladi-yu, xayrlashib jo‘nab ketdi.

XIX

Vronskiy zohirda engiltak kibor hayoti bilan yashab kelayotgan kishiga o‘xshasa ham, haqiqatda tartibsizlikni yomon ko‘rardi. Korpusda ta‘lim olib yurgan yoshlik chog‘larida ishi chatoq bo‘lib, qarz so‘raganida, qarz bermaganlari uchun xo‘rligi kelib, yerga kirib ketguday bo‘lgan va o‘shandan beri o‘zini bir marta ham shunday o‘sal ahvolga tushirmagan edi.

Ishini hamma vaqt tartibda saqlash uchun vaziyatga qarab goh tez-tez, goh onda-sonda, yilda besh marta o'zini xilvatga olib, ishlarini aniqlab qo'yar edi. U bu narsani hisob-kitobni to'g'rilash yoki faire ia lessie¹ deb atardi.

Vronskiy poyganing ertasiga uyqudan juda kech uyg'onib, soqolini ham qirmay, yuvinmay kitelini kiydi-da, stolga pullarini, hisoblarini, xatlarini qo'yib, ishga tushib ketdi. Petritskiy uyg'ondiyu, o'rtog'ini yozuv stoli yonida mashg'ul ekanligini ko'rib, uning bunday mahallarda serjahl bo'lishini bilgani uchun, sekin kiyindi-da, xalaqit bermasdan chiqib ketdi.

O'z muhiti sharoitining murakkabligini mukammal bilgan har qanday kishi ixtiyorsiz bu sharoitning murakkabligi va buni aniqlab bilib olishning qiyinligi faqat o'zining shaxsiy tasodifiy fazilati deb taxmin qiladi-yu, boshqalarning ham, o'zi singari, o'shanday shaxsiy sharoit qiyinchiligida ekanligini aslo xayoliga keltirmaydi. Vronskiy ham ana shunday holatda edi. Shuning uchun Vronskiy, har bir boshqa odam mana shunday mushkul ahvolga tushib qolsa, allaqachon kallasini yo'qotib, yomon ish qilib qo'yishga majbur bo'lardi, deb o'ylardi, uning bu o'yi asossiz bo'lmagandek, bunda kibru havo ham yo'q emas edi. Lekin Vronskiy kallasini yo'qotib qo'ymaslik uchun mutlaqo hozir hisob-kitobini to'g'rilash va o'z ahvolini aniqlash zarurligini his qilib qoldi.

Vronskiy eng oson ish deb qo'lga olgan birinchi ish – pul masalasi bo'ldi. O'zining mayda yozuvi bilan pochta varaqasiga hamma qarzini yozib chiqib yakunlagandan so'ng qarzi o'n yetti ming-u bir necha yuz so'mga yetganligi ma'lum bo'ldi; bir necha yuz so'mni hisobni to'g'rilash maqsadida chiqarib tashladi. Pullarini va bank daftarchasini hisoblab chiqib, qo'lida bir ming sakkiz yuz so'mgina qolganligini aniqladi, yangi yilgacha esa qo'lga pul tushishi ehtimoldan uzoq edi. Qarz ro'yxatini o'qib chiqqandan so'ng uni uch qismga bo'lib ko'rdi. Birinchi qismga darhol to'lanishi yoki har holda, talab qilinguday bo'lsa, bir daqiqa ham paysalga solmay to'lash uchun pulni tayyorlab qo'yishi lozim bo'lgan qarzlari kirdi. Bunday qarzlari to'rt ming so'm atrofida edi: bir ming besh yuz so'm ot haqi, ikki ming besh yuz so'm esa yosh o'rtog'i Venevskiy uchun

¹ Yuvish (*frans.*).

va'da qilgan kafolat haqi edi; Venevskiy bu pulni o'z ko'zi oldida firibgar qartabozga yutqazib qo'yganda Vronskiy o'sha soatidayoq to'lab qo'ymoqchi bo'ldi-yu (yonida pul bor edi), lekin Venevskiy bilan Yashvin o'zimiz to'laymiz deb unashmadi, haqiqatda Vronskiy o'yinda qatnashmagan edi. Bunisi-ku yaxshi edi-ya, lekin Vronskiy bu iflos ishda Venevskiyga og'zaki kafolat berish bilan qatnashgan bo'lsa ham, firibgarning yuziga otib tashlash va u bilan gapni tamomlash uchun qo'lida ikki ming besh yuz so'm bo'lish zarurligini ham bilardi. Shunday qilib, ana shu eng muhim qism uchun qo'lida to'rt ming so'm pul bo'lishi kerak. Ikkinchi qismga kirgan sakkiz ming so'mlik qarzi u qadar ahamiyatli qarzlardan emas edi. Bular asosan chopqir otlar saqlanadigan otxonaga, suli va pichan yetkazib beruvchiga, inglizga, sarrojga va shunga o'xshagan narsalarga to'lanadigan qarzlar edi. Butunlay xotirjam bo'lish uchun bu qarzlardan ham ikki ming so'mchasini to'lab qo'yish kerak edi. Do'konlarga, musofirxonalarga, tikuvchilarga bo'lgan qarzlari kiritilgan so'nggi qism haqida esa uncha o'ylashning hojati ham yo'q edi. Shunday qilib, joriy xarajatlar uchun loaqal olti ming so'm kerak bo'lgani holda, qo'lida faqat bir ming sakkiz yuz so'mgina pul bor edi. Vronskiyning butun mulkidan olinadigan daromad hisoblab chiqilganda ma'lum bo'lishicha, yilda yuz ming so'm daromad oladigan bir kishi uchun bunday qarzlarni to'lash hech qiyin emasligi ko'rinib tursa ham, lekin gap shunda ediki, uning qo'liga sira ham yuz ming so'm kirmas edi. Birgina otasidan qolgan va yilda ikki yuz ming so'mgacha daromad keltiradigan mulki aka-ukalar o'rtasida hali bo'linmagan edi. Akasi qulog'idan qarzga botib yotgan holda knyajna Varya Chirkovaga, ya'ni hech qanday mulki bo'lmagan dekabristning qiziga uylanganda, Aleksey otasining mulkidan olinadigan daromaddan o'ziga faqat yiliga yigirma besh ming so'mdangina qoldirib, qolganini akasiga in'om qilib yubordi. O'shanda Aleksey to uylangunimcha shu pul o'zimga yetib turadi, uylanishim ham ehtimoldan uzoq, deb aytdi. Akasi sarf-xarajatlari katta polklardan birining komandiri bo'lgani, buning ustiga, yangi uylangani uchun bu in'omni qabul qilolmasdan qolmadi. O'zining alohida mulki bo'lgan onasi ham, Aleksey o'ziga qoldirgan yigirma besh ming so'mdan tashqari, unga yilda yigirma ming so'mdan berib turar, Aleksey bu pullarning hammasini yeb tugatar edi. Onasi

so'nggi vaqtlarda o'g'li orttirgan aloqasi va Moskvadan ketib qolgani uchun urishib qolib, unga pul yubormay qo'ydi. Qirq besh ming sarflab hayot kechirishga o'rganib qolgan Vronskiy natijada bu yil faqat yigirma besh ming so'm bilangina qolib, hozir og'ir ahvolga tushdi. Bu ahvoldan qutulish uchun onasidan pul so'ray olmas edi. Kecha onasidan olgan xati juda yomon xafa qildi, chunki bu xat, yaxshi odamlar ko'zida badnom qiladigan hayoting uchun emas, kiborlar jamiyatida va xizmatda muvaffaqiyat qozonishing uchun yordam etishga tayyorman, degan mazmunda edi. Onasining pul bilan o'ziga og'dirib olishni istagani Alekseyning yuragiga qattiq haqorat bo'lib botdi, uni onasidan yana ham battarroq sovutdi. Lekin u o'zining olijanob so'zini qaytarib ololmasdi, garchi hozir, Karenina bilan bo'lgan aloqasi birmuncha tasodifiy ekanini oldindan sal-pal ko'rib tursa ham, bu olijanob so'zning yengiltaklik bilan aytilganini, o'zidek bo'ydoq bir kishi uchun yuz ming so'mlik daromad ham asqatib qolishi mumkinligini sezib turardi. Ammo bergan so'zidan qaytib bo'lmasdi. So'zini qaytarib olishning iloji yo'qligini anglash uchun akasining xotinini ko'z oldiga keltirish, bu dilbar, dilkash Varyaning, har bir o'ng'ay fursatdan foydalanib, Alekseyning olijanobligi aslo esidan chiqmasligi, uni qadrlashligi to'g'risidagi gaplarini eslashning o'zi kifoya edi. Xotin kishini kaltaklash, pulini o'g'irlash yo aldash naqadar mumkin bo'lmasa, bu narsa ham shu qadar mumkin emas edi. Vronskiy bir daqiqa ham ikkilanmasdan bir qarorga keldi, bu qaror: sudxo'rdan o'n ming so'm pul ko'tarish (bu juda oson narsa edi), umuman, sarf-xarajatlarini kamaytirish va to'pichoqlarini sotishdan iborat edi. Vronskiy shu qarorga keldi-yu, otlarini sotib olmoqchi bo'lib bir necha bor odam yuborgan Rolandakiga darhol xat yozdi. So'ngra ingliz bilan sudxo'rga odam yuborib, qo'lidagi pullarni hisob varaqalariga taqsim qildi. Bu ishlarni tugatgandan so'ng onasining xatiga sovuq, dag'al javob yozdi. So'ngra ham yonidan Annaning uchta xatini chiqarib o'qidi, keyin ularni yoqib tashladi-da, kecha o'zi bilan Anna o'rtasida o'tgan gapni eslab, o'ylanib qoldi.

XX

Vronskiyning hayoti ayniqsa shu bilan baxtli ediki, unda nima-ni qilish, nima qilmaslik kerakligini ochiq-oydin belgilab beradigan qoidalar majmui bor edi. Bu qoidalar majmui juda kichik bir shart-

sharoit doirasini o'z ichiga olgan bo'lsa ham, lekin bundagi qoidalar shubhaga hech o'rin qoldirmas, shuning uchun ham Vronskiy, bu doiradan hech vaqt tashqariga chiqmay, qilinishi kerak bo'lgan narsa ustida bir zum ham ikkilanib turmasdi. Bu qoidalar: firibgarga yutqazgan pulni to'lash, tikuvchiga esa to'lamaslik kerakligini, erkaklarga yolg'on gapirish kerak emas, xotinlarga esa mumkinligini, hech kimni aldash kerak emas, erni esa aldash mumkinligini, haqoratni kechirish kerak emas, o'zing esa haqorat qilishing mumkinligini, hokazo va hokazolarni hech shubhaga o'rin qoldirmay belgilab berardi. Bu qoidalar bema'ni, besharm bo'lishi mumkin, lekin bular shubhaga hech qanday o'rin qoldirmas, shu sababli, Vronskiy bu qoidalarni bajarganda, ko'ngli joyiga tushganini, boshini baland ko'tarib yurishi mumkinligini his qilardi. Faqat so'nggi paytlarda, Anna bilan aloqa bog'lagandan keyin Vronskiy o'zining qoidalari butun sharoitni to'lato'kis o'z ichiga olmaganligini, oldinda qiyinchilik va shubhalarga duch kelishini, bunda o'ziga rahnamo yo'qligini his qila boshladi.

Annaga va uning eriga bo'lgan hozirgi munosabati Vronskiy uchun sodda, ravshan bir narsa edi. Bu munosabat o'zi qo'llanib kelgan qoidalar majmuida aniq va ravshan belgilangan edi.

Anna uni o'z muhabbatidan bahramand qilgan odamshavanda ayol edi, shu sababli Vronskiy uni yaxshi ko'rdi, chunki u Vronskiy uchun qonuniy xotinchalik, balki bundan ham ortiq hurmatga loyiq bir ayol edi. «Qo'limni kesishga jon deb tutib boraman-u, lekin uni so'z yoki imo-ishora bilan haqorat qilish u yoqda tursin, xotin kishi loyiq bo'lgan ehtiromdan ham mahrum qilmayman», deyardi.

Jamiyatga bo'lgan munosabati ham ravshan edi. Uning sirini hamma bilishi, gumon qilishi mumkin, lekin hech kim yuziga solmasligi kerak. Aks holda undaylarning og'zini yumdirishga, o'zi yaxshi ko'rgan ayolning aslida yo'q nomusini hurmat qildirishga tayyor edi.

Aleksey Aleksandrovichga bo'lgan munosabati esa hammasidan ham ravshanroq edi. Anna o'zini yaxshi ko'rib qolgan daqiqadan boshlab uni butunisiga o'ziniki deb hisoblaydigan bo'ldi. Vronskiyning nazarida, Annaning eri ortiqcha va xalal beruvchi bir shaxsgina edi. To'g'ri, Aleksey Aleksandrovichning ahvoli, shubhasiz, ayanchli edi, lekin nachora? Erining bir narsagagina huquqi bor, u ham bo'lsa, qo'lda qurol bilan dovga chaqirish; Vronskiy bo'lsa bunga ham dastlabki daqiqadan tayyor edi.

Lekin so'nggi paytlarda o'zi bilan Anna orasida yangi, ichki munosabatlar paydo bo'ldi, bu munosabatlar o'zining dudmalligi bilan Vronskiyini qo'rqitardi. Mana, kecha Anna homilador bo'lib qolganligini aytdi. Bu xabar va Anna undan kutgan narsalar o'z hayotida qo'llanib kelgan qoida kodeksida to'la ifodasini topmagan narsalarni talab qilayotganini Vronskiy anglay boshladi. Haqiqatan ham, u g'aflatda qoldi, shuning uchun, Anna homilador ekanini aytganda, qalbi, erini tashlab ketishni talab qil, deb amr etdi. O'shanda Vronskiy shunday degan bo'lsa ham, hozir buni o'ylab ko'rib, masalani busiz ham hal qilish mumkinligini aniq bildi, lekin shu fikrga kelishi bilan «Yomon bo'lmasmikan?» deb hadiksiray boshladi.

«Agar erini tashlab ketishni iltimos qilgan bo'lsam, demak, men bilan bo'lishini so'raganim bo'ladi-da. Xo'sh, bu narsaga tayyormanmi? Hozir pulim yo'q-ku, qanday qilib olib ketaman? Faraz etaylik, pul masalasini hal qildim ham... lekin harbiy xizmatda bo'la turib, qanday qilib olib ketaman? Agar shunday degan bo'lsam, demak, shunga tayyor bo'lishim, ya'ni pul topishim, iste'foga chiqishim kerak».

Shundan keyin u o'ylanib ketdi. Iste'foga chiqish-chiqmaslik masalasi uni hayotining pinhona, o'zigagina ma'lum bo'lgan, yuragining bir yerida chigallik tursa ham, ahamiyati jihatidan birinchi o'rinda turgan bir orzu-havasga to'qnash keltirib qo'ydi.

Shuhratparastlik uning bolalik va o'smirlilik chog'laridan qolgan ehtirosli eski orzu edi, o'zi ham iqror bo'lmagan bu orzu shu qadar kuchli ediki, hozir ham bu ehtirosi sevgisi bilan olishmoqda edi. Uning kiborlar jamiyatida, xizmatida bosgan dastlabki qadamlari muvaffaqiyatli bo'ldi, ammo bundan ikki yil avval bitta qo'pol xato qilib qo'ydi. U o'zining mustaqil kishi ekanligini ko'rsatishni, obro'yini oshirishni xohlab, o'ziga taklif qilingan o'rinni rad qildi, bu o'rinni rad qilish bilan qadr-qimmatim oshadi, deb umidvor bo'lgan edi, lekin bu qiligi ma'qul bo'lmadi-yu, uni joyida qoldirishdi, shundan keyin istar-istamas o'zini mustaqil kishi qilib ko'rsatib yurdi, g'oyat ustalik va donolik bilan shu rolni bajardi, u o'zini hech kimdan xafa emasdek, o'zini hech kim xafa qilmagandek, ishqilib, o'zini tinch qo'ysalar bas, chunki shunday o'ynab-kulib yurganim yaxshi, dyeyayotgandek tutardi. Haqiqatda esa, o'tgan yil Moskvaga ketgandan beri o'yin-kulgilar tamom bo'lgan edi. Har narsa qo'lidan

keladigan, lekin qilishni xohlamagan bu mustaqil kishi vaziyati sekin-sekin yaxshilanib borayotganligini sezar, ko'p kishilar o'ziga vijdonli va mehr-u shafqatli yigit, bundan boshqa hech narsaga yaramaydi, deb qanoat hosil qila boshlaganlarini payqar edi. O'zining Karenina bilan bo'lgan aloqasi shuncha shov-shuvlar ko'tarib, hammaning diqqatini o'ziga jalb qilgandan, unga yangi shuhrat tojini kiygizgandan keyin ichini kemirib kelgan shuhrat qurtini tinchitib qo'ygan edi, lekin bundan bir hafta burun bu qurt yangi kuch bilan uyg'ondi. Bir muhit, bir jamiyatga mansub bo'lgan, bir korpusda tarbiyalangan, korpusni baravar tamomlagan, sinfda ham, gimnastikada ham, sho'xliklarda ham, shuhratparastlikka intilishda ham raqobatlashib kelgan bolalik chog'idagi o'rtog'i Serpuxovskoy yaqinda O'rta Osiyodan qaytib keldi, harbiy martabasi ikki pog'ona ko'tarilgan va generallarga kamdan-kam beriladigan o'rnak belgisi bilan mukofotlangan edi.

Peterburgga kelishi bilan uning to'g'risida, xuddi yangidan ko'tarilib kelayotgan mo'tabar bir odam to'g'risida gapirgandek duv-duv gap boshlandi. Vronskiyga tengdosh va sinfdosh bo'lgan bu yigit allaqachon generallik darajasiga ko'tarilgan va davlat ishlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bir amalga tayinlanishini kutib turgan edi. Vronskiy esa mustaqil yashab, porloq hayot kechirib yurgan, go'zal bir ayolning sevgisiga sazovor bo'lgan bo'lsa ham, lekin ko'ngli xohlaganicha mustaqil bo'lib yurishga ruxsat berib qo'yilgan bir rotmistr edi, xolos. «Serpuxovskoyga hasad qilmayman, albatta, hasad ham qilolmayman, lekin martabasining tez ko'tarilib borishi menga o'xshagan kishi paytni poylab turib tashlab qolsa, hash-pash deguncha martabasini ko'tarib olishi mumkin ekanligini ko'rsatadi. Bundan uch yil avval xuddi mening darajamda edi. Iste'foga chiqsam, kemalarimga o't qo'ygan bo'laman, xizmatda qolsam, zarar ko'rmayman. Annaning o'zi «ahvolimni o'zgartirishni xohlamayman», deb aytdi. Men bo'lsam, uni sevaman, Serpuxovskoyga hasad qilolmayman». Shu o'ylardan keyin mo'ylovlarini sekin-sekin burab stol yonidan turdi-da, xonada u yoq-bu yoqqa yura boshladi. Ko'zlari o't bo'lib lovillar, kayfi tetik, xotirjam va xushvaqt ekanini his qilar, ahvolini aniqlab olgan kezlarida hamisha shunday kayfiyatga tushar edi. Ilgarilari hisob-kitobdan keyin qanday ravshan va musaffo bo'lsa, hozir ham shunday edi. Soqolini qirdi, sovuq suvda cho'mildi, kiyindi-yu, chiqib ketdi.

XXI

– Seni chaqirib keldim. Bugun hisob-kitobing juda cho‘zildi-da, – dedi Petriskiy. – Ha, tamom bo‘ldimi?

Vronskiy ko‘zlari bilangina kulimsirab va bugun tartibga solgan ishini har qanday dadil, tez harakat xuddi buzib qo‘yadigandek, mo‘ylovlarning uchini asta burab turib:

– Tamom bo‘ldi, – deb javob berdi.

– Sen hamisha shu ishingdan keyin xuddi hammomdan chiqqanday bo‘lib qolasan, – dedi Petriskiy. – Meni Griski yubordi (polk komandirini shunday deb atashardi), seni kutib turishibdi.

Vronskiy, javob bermasdan o‘rtog‘iga qarab tursa ham, boshqa to‘g‘rida o‘ylardi. Keyin trubalarning yo‘g‘on tovushlari, polkalar, valsning tanish ovozlari quloq solib:

– Nima, unikida chalishyaptimi? – deb so‘radi. – Qanaqa bayram?

– Serpuxovskoy keldi.

– Iye, men bilmay qolibman-a, – dedi Vronskiy.

Kulib turgan ko‘zlari yana ham ravshanroq chaqnadi.

Vronskiy Annaga bo‘lgan muhabbati bilan o‘zini baxtiyor deb bilgani, shuhratparastlik hislarini ham uning yo‘lida qurbon qilgani, hech bo‘lmasa, shu rolni o‘z zimmasiga olgani uchun, Serpuxovskoyga na hasad qilar, na polkka tushgandan keyin hammadan avval o‘zining oldiga kelmagani uchun undan xafa bo‘lardi. Serpuxovskoy yaxshi oshnasi edi, u shunga quvonardi.

– Ha, juda xursandman.

Polk komandiri Demin kattakon bir pomeschchik uyida turardi. Butun jamoat pastdagi keng balkonda edi. Hovlida, sharob to‘ldirilgan kichkina bochka yonida kitel kiygan ashulachilar, zobitlar o‘rab olgan yo‘g‘on gavdali polk komandiri turgan edi, Vronskiyning ko‘ziga dabdurustdan shular ko‘rindi. Polk komandiri balkon oynasining birinchi pog‘onasiga chiqib olib, Ofenbax kadrlini chalayotgan orkestr sadolarini yo‘g‘on tovushi bilan bosib, nimalarnidir buyurar, bir chetda turgan askarlarga qo‘li bilan ishora qilardi. Bir to‘da askar, vaxmistr, bir qancha unter-zobit Vronskiy bilan birga balkonga yetib keldi. Polk komandiri stolga qaytdi-da, qo‘lida qadah bilan yana zinaga chiqib, qadah ko‘tardi: «Ilgarigi o‘rtog‘imiz, bahodir general knyaz Serpuxovskoyning sog‘ligi uchun. Ura!»

Polk komandiri orqasidan qo'lida qadah, yuzida tabassum bilan Serpuxovskoy ham zinaga chiqdi. U ro'parasida turgan ikkinchi navbatdagi harbiy xizmatni ham o'tayotgan qizil yuz, norg'ul vaxmistriga qarab:

– Yana ham yasharib ketibsan-ku, Bondarenko, – dedi.

Vronskiyning Serpuxovskoyini ko'rmaganiga uch yil bo'lgan edi. Bakenbard qo'yib, ancha yetilgan bo'lsa ham, lekin boyagiday qaddi raso, xushbichim edi, yuzi esa husnidan ko'ra ko'proq xushbichimligi, mardonavorligi bilan odamni hayratga solardi. Vronskiy unda birgina o'zgarish yuz berganligini payqadi: bu o'zgarish muvaffaqiyat qozongan va bu muvaffaqiyatning hamma tomonidan taqdirlanganiga amin bo'lgan kishilar yuzidan doim yog'ilib turadigan nur edi. Vronskiy buni bilardi, bu nurni o'sha soatiyoq Serpuxovskoyning ham yuzida ko'rdi.

Serpuxovskoy zinadan tushgandan so'ng Vronskiyini ko'rdi-yu, yuzi shodlik tabassumi bilan yorishib ketdi. U qadahni ko'targanicha boshini irg'ab, Vronskiyini salomladi, so'ng oldinga cho'zilib, lablarini o'pishga tayyorlab turgan vaxmistrning yoniga oldin borishi kerakligini shu harakati bilan bildirdi.

– Ana, shu yerda ekansan-u! – deb qichqirdi polk komandiri. – Yashvin esa, qovog'idan qor yog'ib o'tiribdi, devdi.

Serpuxovskoy norg'ul vaxmistrning tarovatli, nam lablaridan o'pgandan keyin og'zini dastro'molchasi bilan artib, Vronskiyning yoniga bordi.

Serpuxovskoy Vronskiyning qo'lini qisib:

– O, seni ko'rib juda xursand bo'ldim! – dedi uni bir chetga tortib.

Polk komandiri Yashvinga Vronskiyini ishora qildi-da:

– Ularning ko'nglini olib turing! – dedi, keyin o'zi askarlar yoniga tushib ketdi.

Vronskiy Serpuxovskoyga ko'z yugurtirib:

– Nega kecha poygaga bormading? Seni o'sha yerda ko'rarman deb o'ylovdim, – dedi.

– Bordim, lekin kech qolibman. Uzr, – dedi-yu, Serpuxovskoy ad'yutantiga murojaat qildi: – Borib aytasangiz, kishi boshiga qanchadan to'g'ri kelsa, mening hisobimdan bo'lashib berishsin, – dedi.

U shu soʻzlardan keyin hamyonidan uchta yuz soʻmlik chiqarib berdi-yu, qizarib ketdi.

– Vronskiy! Biron narsa yeymizmi yo ichamizmi? – deb soʻradi Yashvin. – Hoy, grafga ovqat olib kel! Mana buni ich.

Polk komandirining uyidagi aysh-ishrat, mayxoʻrlik uzoq davom etdi.

Juda koʻp ichishdi. Serpuxovskoyni koʻtarib havoga irgʻitishdi. Keyin polk komandirini koʻtarib irgʻitishdi. Soʻngra polk komandirining oʻzi Petriskiy bilan ashulachilar yonida oʻyinga tushdi. Keyin polk komandiri majoldan ketib, hovlidagi oʻrindiqqa borib oʻtirdida, Yashvinga Rossiyaning Prussiyadan ustun ekanligini, ayniqsa, kavaleriya hujumida zoʻrligini isbot qila boshlagan edi, toʻpolon ham bir zungina tinib qoldi. Serpuxovskoy qoʻlini yuvgani uyga, xalajoyga kirganda, u yerda Vronskiy koʻrib qoldi, Vronskiy boshidan suv quyayotgan edi. Kitelini yechib tashlab, yung bosib ketgan qizil boʻynini joʻmrak ostiga qoʻyganicha boʻyni bilan boshini ishqalab turgan edi. Vronskiy yuvinib boʻlgandan soʻng Serpuxovskoyning yoniga kelib oʻtirdi. Ikkovi shu yerdagi kichkina divanda oʻtirishib, har ikkovi uchun ham juda maroqli boʻlgan mavzuda gap boshlashdi.

– Sening toʻgʻringdagi gaplarning hammasini xotinimdan eshitdim, – dedi Serpuxovskoy. – Xotinimni tez-tez koʻrib turibsan, xur-sandman.

– Xotining Varya bilan oʻrtoq, bular Peterburgda topilmaydigan ayollar, bular bilan koʻrishsam huzur qilaman, – dedi Vronskiy kulimsirab. U gap borib taqaladigan mavzuni oldindan bilib turgani uchun kulimsirab, bu narsa unga xush yoqar edi.

Serpuxovskoy kulimsirab turib qaytarib soʻradi:

– Peterburgda topilmaydigan?!

Vronskiy chehrasida bu ishorani taqiq qiladigan bir ifoda bilan keskin qilib:

– Ha, sening toʻgʻringdagi gaplarni ham bilib turdim, lekin faqat xotining orqali emas, – dedi. – Muvaffaqiyatingga hayron boʻlmadim, aksincha, juda xursand boʻldim, lekin bundan ham koʻprogʻiga koʻz tutgan edim.

Serpuxovskoy kulimsiradi. Bu fikr, aftidan, unga xush yoqqan boʻlsa kerak, yashirib oʻtirishni lozim koʻrmadi.

– Men bo‘lsam, aksincha, iqrор bo‘lishim kerak, bundan ozrog‘ini kutgan edim. Lekin xursand bo‘ldim, juda ham xursand bo‘ldim. Men shuhratparast odamman, mening zaif tomonim shu, men bunga iqrorman.

– Muvaffaqiyating bo‘lmaganda, ehtimol, iqrор ham bo‘lmas eding, – dedi Vronskiy.

Serpuxovskoy yana kulimsirab:

– Qaydam, – deb qo‘ydi. – Busiz yashashdan ma‘no chiqmas edi demayman-u, lekin diqqinafaslikdan boshqa narsa bo‘lmas edi. Albatta, mening xato qilishim mumkin, lekin o‘zim tanlagan faoliyat sohasida uncha-muncha layoqatim bor, innaykeyin, qanaqa bo‘lishiga qaramay qo‘limda biron hokimiyat bo‘lsa, men bilgan ko‘pgina odamlarning qo‘lida bo‘lganidan ko‘ra ancha yaxshiroq bo‘lardi, deb o‘ylayman, – dedi Serpuxovskoy yutug‘ini bilib turgan kishidek yuzi yorishgan holda. – Shu sababli, bu niyatimga qancha yaqinlashsam, shuncha xursand bo‘laman.

– Bu narsa, ehtimol, sen uchun yaxshidir, lekin hamma uchun unday emas. Men ham shu fikrda edim, mana, yashab turibman, faqat o‘sha niyat uchungina yashashning hojati yo‘q deb o‘ylayman, – dedi Vronskiy.

– Shunaqami! Shunaqami! – dedi Serpuxovskoy, kulib turib. – Men ham, sening to‘g‘ringda eshitgan narsamdan, rad qilgan narsangdan boshlaganman... Albatta, bu harakating menga ma‘qul bo‘ldi. Lekin hamma narsaning ham royishi bor. Shuning uchun qilgan ishing yaxshi-yu, ammo do‘ndirolmagansan, deb o‘ylayman.

– O‘tgan ishga salavot, deydilar, o‘zing bilasan-ku, qilgan ishimdan men hech tonmayman. Innaykeyin, o‘zim maza qilib yuribman ham.

– Uzoqqa bormaydi-da bu maza qilishing. Ko‘rasan, axiy-ri, ko‘ngling to‘lmay qoladi. Akang to‘g‘risida bo‘lsa bir nima demayman. Anavi bizning xo‘jayinimizga o‘xshash dilbar yigit. Ana, qara! – deb ilova qildi, «ura» sadolariga quloq solib. – U shunaqa vaqtini chog‘ qilib yuraveradi, sen bo‘lsang bunday narsalar bilan qanoatlanib qololmaysan.

– Men qanoatlanaman deyayotganim yo‘q-ku.

– Ey, gap faqat shundagina emas. Senga o‘xshagan odamlar kerak.

– Kimga?

– Kimga? Jamiyatga. Rossiyaga odamlar kerak, partiya kerak, yo‘qsa, hamma narsa barbod bo‘ladi, it yalog‘iga tushadi.

– Ya‘ni, nima demoqchisan? Rus kommunistlariga qarshi ish olib borayotgan Vertenev partiyasini aytasanmi?

Serpuxovskoy o‘zining shunday bema‘ni narsada shubha qilina-yotganiga xafa bo‘lib:

– Yo‘g‘-e, – dedi, yuzini burishtirib. – Tout ca est une blague¹. Hamma vaqt shunday edi. Yana shunday bo‘laveradi. Hech qanday kommunistlar yo‘q. Lekin hamma vaqt ig‘vogar odamlar uchun zararli, xavfli partiyalarni o‘ylab chiqarish zarur-da. Bu eski nayrang. Yo‘q, sen-u menga o‘xshagan mustaqil odamlarning hukmron partiyasi kerak.

– Nega endi? – deb so‘radi-yu, Vronskiy bir qancha hukmron odamlarning nomlarini aytdi. – Nima uchun bular mustaqil odamlar emas?

– Yolg‘iz shuning uchunki, ularda mustaqillik beradigan davlat yo‘q yoki tug‘ilganlaridan buyon bo‘lgan emas, nomlari chiqqan emas, biz saltanat quyoshi ostida tug‘ilganmiz, ular esa bundan mahrum. Ularni yo pul bilan, yoki shirin so‘z bilan sotib olish mumkin. Ular o‘z mavqelarini saqlab turish uchun yo‘l o‘ylab chiqaradilar. Shu sababli o‘zlari ishonmaydigan, faqat zarar keltiradigan allaqanday fikrlarni, uydirma yo‘llarni oldinga suradilar, bularning hammasi davlat uyida turish va faloncha oylik olish uchun bir vosita, xolos. Qo‘llaridagi qartaga qarasang, cela n'est pas plus fin gue ca². Ehtimol, men ulardan yomonroq, nodonroqdirman, ammo ulardan qayerim kam? Lekin hozir menda shunday bir aniq, muhim xislat borki, bizni sotib olish qiyinroq bo‘ladi. Shunday odamlar har mahalgidan ko‘ra ko‘proq zarur.

Vronskiy diqqat bilan quloq soldi, lekin uni qulog‘iga kira-yotgan so‘zlarning mazmunidan ko‘ra Serpuxovskiyning ishga bo‘lgan munosabati ko‘proq qiziqtirardi, u hukumatdorlarga qarshi kurash fikriga tushib, bu haqda tavajjuh va g‘ayritavajjuh qarashlarga ega bo‘lgan holda Vronskiy faqat eskadron manfaatlarini o‘ylar edi. O‘zi yashab turgan muhitda kamdan-kam uchraydigan shub-

¹ Bularning hammasi bema‘ni gaplar (*frans.*).

² Unchalik quv emas (*frans.*).

hasiz iste'dod bilan, aql va idrok bilan shu qadar chuqur o'ylab, chuqur tushunayotgan Serpuxovskoyning naqadar kuchli ekanligini Vronskiy ham angladi. Vijdoniga qanchalik og'ir botsa ham, unga hasadi keldi.

– Har holda, bu muhim, asosiy narsa uchun menda bir narsa etishmaydi, – deb javob berdi Vronskiy, – hokimiyatga intilish istagi etishmaydi. Bir mahallar bor edi, endi yo'q.

– Meni kechir-u, lekin bu gaping to'g'ri emas, – dedi Serpuxovskiy kulimsirab.

Vronskiy rost aytayotganligini bildirish uchun:

– Yo'q, to'g'ri, to'g'ri!.. Hozir, – deb ilova qildi.

– Ha, hozir to'g'ri, bu boshqa gap, lekin bu hozir deganing uzoqqa bormaydi.

– Balki, – deb javob qildi Vronskiy.

Serpuxovskoy uning fikrini bilib olganday:

– Sen balki deysan, – deb davom qildi, – men bo'lsam, albatta, deyman. Shuning uchun ham seni ko'rmoqchi edim. Sen juda to'g'ri ish qilgansan. Bunga tushunaman, lekin sen o'zingni u yoq bu yoqqa tashlamasliging kerak. Men sendan faqat *carte blanche*¹ talab qilaman, xolos. Senga homiylik qilayotganim yo'q... garchi nima uchun homiylik qilmasligimga o'zim hayron bo'lsam ham... Menga necha martalab homiylik qilgansan-u! Do'stligimiz bu narsalardan yuqori turadi, deb umid qilaman. Shunday, – dedi u ayollar singari muloyimgina tabassum qilib. – Menga *carte blanche* ber, polkdan chiqqin, seni sekin yuqoriga tortib olaman.

– Lekin shunisiga tushun: ahvol qanday bo'lsa, – dedi Vronskiy, – tag'in shunday bo'lib qolishidan bo'lak hech narsani xohlamayman, menga faqat shu kerak.

Serpuxovskoy o'rimdan qo'zg'alib, uning ro'parasiga kelib turdi.

– Ahvol qanday bo'lsa, tag'in shunday bo'lib qolsin, deysan. Bu gapping ma'nosiga tushunaman. Menga qara, biz tengdoshmiz, lekin sen, ehtimol, xotin zotini mendan ko'ra ko'proq ko'rgandirsan. – Serpuxovskoyning tabassumi bilan imo-ishorasi: «Hozir og'riq joyingga sekin, muloyimgina tegaman, bundan sen qo'rqmasliging kerak», derdi. – Lekin men uylangan kishiman, gapimga ishon,

¹ Harakat erkinligi (*frans*).

yaxshi ko'rgan xotining bilan birga bo'lib, uni yaxshi bilib olsang (allakim shunday deb yozgan edi), mingtasini bilganingdan ko'ra, ayol zotining hammasini ipidan-ignasigacha bilib olasan.

Vronskiy eshikdan mo'ralab, ularni polk komandirining yoniga chaqirgan zobitga:

– Hozir boramiz! – deb qichqirdi.

Vronskiy endi uning gapini oxirigacha eshitishni istar edi.

– Mening fikrim shunday. Ayollar – inson faoliyatidagi asosiy g'ovdir. Xotin kishini ham sevib, ham bir ish chiqarish qiyin. Bunda sevgi xalaqit bermaydigan bitta yo'l bor – uylanish. Miyamdagi fikrimni qanday qilib aytsam senga, – dedi tanbeh bilan gapirishni yaxshi ko'ruvchi Serpuxovskoy, – shoshma, shoshma! Ha, fardeau¹ bilan ketayotganingda, shu fardeau yelkangga tang'ilib, mustahkam o'rnashib olgandagina qo'llaring bilan biron narsa qilishing mumkin, bu esa uylanish degan so'z. Men ham buni uylanganimdan keyin sezdim. Birdan qo'llarim bo'shab qoldi. Uylanmasdan shu fardeau-ni ko'tarib yuraversang, qo'llaring shu qadar band bo'ladiki, hech nima qilolmaysan. Mazankovni, Krupovni ko'r. Xotinlar orqasida martabalarini bir pul qilib qo'yishdi.

Vronskiy yuqorida nomlari tilga olingan ikki kishi aloqada bo'lgan fransuz ayol bilan aktrisini eslab:

– Qanaqa xotinlar? – deb so'radi.

– Xotin kishining mavqeyi kibor jamiyatida qancha mustahkam bo'lsa, shuncha yomon, ha, shuncha yomon. Bu fardeau-ni qo'lda ko'tarib yurish emas, boshqa odamdan tortib olish bilan bab-baravar.

Vronskiy ro'parasiga tikilib turib Annani o'yladi-yu:

– Ishq savdosi boshingga tushmagan-da, – dedi past tovush bilan.

– Ehtimol. Lekin aytgan so'zlarim esingda bo'lsin. Yana bitta gap: xotinlar erkaklardan ko'ra dunyoparast bo'ladi. Biz muhabbatni oliy narsa deb bilamiz, ular esa har vaqt terre-a-terre².

– Hozir, hozir! – dedi u ichkari kirib kelgan yugurdakka. Ammo yugurdak, u o'ylaganicha, chaqirgani kirgan emas edi. Vronskiyga xat keltirgan edi.

– Sizga knyaginya Tverskayaning odami olib keldi.

¹ Yuk (*frans.*).

² Kundalik ish bilan mashg'ul (*frans.*).

Vronskiy xatjildni ochib, bo'g'riqib ketdi.

– Boshim og'riyapti, uyga ketmasam bo'lmaydi, – dedi u Serpuxovskoyga.

– Xayr, yaxshi bor. Carte blanche bo'ladimi?

– Keyin gaplashamiz, seni Peterburgdan topib olaman.

XXII

Soat beshdan oshgan edi, shu sababli tayinlangan vaqtga ulgurish va ayni zamonda, o'zining hamma taniydigan otlarini qo'shtirmaslik uchun Vronskiy Yashvinning izvoshiga o'tirdi-da, iloji boricha tezroq haydashni buyurdi. Izvosh shaklida ishlangan bu to'rt o'rinli eski kareta kenggina edi. Vronskiy burchakka o'tirib, oyoqlarini oldingi o'ringa qo'ydi-yu, xayol surib ketdi.

Ishlari aniq, ravshan holga keltirilib, xotirjam bo'lgan Vronskiy uni kerakli kishi deb hisoblagan Serpuxovskoyning xushomadgo'yligi, do'stona muomalasini eslash, hammasidan ham yor vaslini kutish – bularning hammasi bir qo'shilib, hayotidan xursand bo'lib ketdi. Unda uyg'ongan bu his shu qadar kuchli ediki, beixtiyor jilmayib qo'ydi. U oyoqlarini tushirib, birini ikkinchisining tizzasiga qo'ydi-yu, kecha yiqilganda lat yegan oyog'ining bo'liq, tiqin boldirini qo'li bilan ushlab ko'rdi, keyin orqaga suyanib, butun ko'ksi bilan bir necha bor nafas oldi.

«Yaxshi, juda soz!» dedi u o'z-o'ziga. Ilgarilari ham o'zining jismoniy sog'ligidan shodlanib kelardi, lekin o'zini, jismini hech qachon hozirgidek yaxshi ko'rgan emas edi. Kuchli oyog'idagi bu yengil og'riqni sezib xushlanar, nafas olayotganda ko'ksidagi mushaklarning harakatga kelishini payqab quvonardi.

Annaga shu qadar og'ir ta'sir qilgan o'sha ochiq, salqin avgust kuni Vronskiyga odamni hayajonga soladigan darajada jonbaxsh bo'lib ko'rinar, boshidan suv quygandan keyin qizib ketgan bo'yni bilan yuziga salqinlik berardi. Mo'ylovidan anqib turgan mushk hidi mana shu toza havoda unga yana ham boshqacha bo'lib tuyulardi. Kareta derazasidan ko'rgan narsalarining hammasi, bu toza, salqin havodagi narsalarning hammasi: botayotgan quyosh nurlarida yarqirab turgan uylarning tomlari ham, devorlari va binolarning yaqqol ko'zga tashlangan burchaklari ham, ora-sira uchrab qoladigan piyodalar va izvoshlar ham, daraxtlar va o'lanlarning, qimir etmay

turgan yashil yaproqlari ham, jo'yaklari to'g'ri tortilgan kartoshka dalalari ham, uylar va daraxtlardan, butalardan qiya tushib turgan soyalar ham, kartoshka jo'yaklari ham kechki paytning xiralashib borgan yorug'ida, Vronskiyning o'zi singari, tarovatli, quvonchli edi. Hamma narsa, hozirgina rassom qo'lidan chiqib, lak surtilgan surat kabi chiroyli edi.

Vronskiy kareta derazasidan bosh suqib:

– Hayda! Hayda! – deb qistadi-da, cho'ntagidan uch so'mlik qog'oz pul chiqarib, uni shu mahal o'ziga o'girilib qaragan kucherga uzatdi. Kucherning qo'li fonar yonida yotgan bir narsani paypaslab ko'rgandan keyin qamchi havoda vizilladi, kareta esa tekis tosh yo'lda silliq g'irilladi.

Vronskiy qo'ng'iroqning ikki deraza o'rtasidagi suyak tugmasiga tikilganicha Annani so'nggi marta ko'rgan holatida ko'z oldiga keltirib: «Menga hech narsa, bu baxtdan boshqa hech narsa kerak emas, – deb o'yladi. – Kun sayin unga bo'lgan muhabbatim kuchayib boryapti. Mana, Vredega hukumat bergan chorbog'. Qayerda ekan? Qayerda? Nega? Nega uchrashadigan joyni shu yerga tayinladi-yu, Betsi bitgan xatning tagiga yozdi?» U hozir faqat shu narsalarni o'ylardi; lekin o'ylashga fursat qolmagan edi. Xiyobonga yetmasdan kucherni to'xtatdi-da, eshikni ochib, pastga sakrab tushdi, bir zum ham to'xtamay, uyga boriladigan xiyobon bilan yurib ketdi. Xiyobonda hech kim yo'q edi, lekin o'ng tomonga qarab, darhol uni ko'rdi. Annaning yuzida harir parda bor edi, lekin Vronskiy bir qarashdayoq uni o'zigagina xos yurishidan, qiya tushgan yelkalaridan va boshini tutishidan tanib oldi, shu on vujudidan elektr quvvati yugurib o'tganday bo'ldi. U oyoqlarining tarang harakatidan tortib, nafas olayotgan o'pkasining harakatini, o'zini yana yangi kuch bilan his qila boshladi, shunda allanima lablarini qichitdi.

Anna uning qo'lini mahkam qisib ko'rishdi.

– Chaqirganimga jahling chiqqani yo'qmi? Zarur ishim bor edi, – dedi Anna, Vronskiy parda ostidan Annaning lablari jiddiy yo'sinda qimtilganini ko'rib kayfi o'zgarib ketdi.

– Nega jahlim chiqsin! Hay, bu qanaqa joy, qanday qilib kelding bu yerga?

– Baribir, – dedi Anna qo'lini uning qo'liga qo'yib, – yur, sen bilan gaplashib oladigan gapim bor.

Vronskiy bir nima balo bo'lganligini, bugungi uchrashuv xur-sandchilik keltirmasligini tushundi. U Anna oldida ixtiyorini yo'qotib qo'yardi: Annaning nega hayajonlanayotganini bilmay turib, u haya-jon o'ziga ham ta'sir qila boshlaganligini his etdi.

Vronskiy tirsagi bilan Annaning qo'lini mahkam qisdi-da, yuzi-dan uning fikrlarini bilib olishga tirishib:

– Ha, nima bo'ldi? Nima gap? – deb so'radi.

Anna o'ziga dadillik berish uchun bir necha qadam yurgandan keyin birdan to'xtadi. Keyin og'ir-og'ir nafas olib turib, tez-tez ga-pira boshladi:

– Aleksey Aleksandrovich bilan poygadan qaytib kelayotganimda hamma gapni yuziga ochib soldim... Xotini bo'lib qololmasligimni aytdim... Innaykeyin... hamma gapni aytdim. Bu narsalarni kecha senga aytmagan edim.

Vronskiy, Annaning ahvolini xuddi yengillashtirgisi kelgandek, butun qaddini ixtiyorsiz egib turib quloq soldi. Lekin Anna bu gap-larni aytishi bilan Vronskiy qaddini birdan rostladi-yu, yuzi jiddiy, mag'rur tus oldi.

– Ha, ha, bunisi yaxshi, ming chandon yaxshi! Bilaman, juda og'ir narsa bu, – dedi Vronskiy.

Lekin Anna uning so'zlarini eshitmas, yuz ifodasidan miyasida-gi fikrlarini o'qir edi. Anna uning yuzidagi ifoda miyasiga kelgan birinchi fikrga – duelning muqarrarligi to'g'risidagi fikrga oid ekan-ligini bilmas edi. Duel haqidagi fikr Annaning miyasiga hech vaqt kelmagan edi, shuning uchun bu bir lahzalik jiddiy ifodaga u o'zicha ma'no berdi.

Anna erining xatini olgandan keyin hamma narsaning eskicha qolishini, o'z mavqeyini poymol qilishga qurbi yetmasligini, o'g'lini tashlab, oshig'i bilan topishib ketolmasligini qalbining chuqur bir yerida his etgan edi. Knyaginya Tverskayanikida o'tkazgan ertalabki soatlari bu ishonchini yana ham kuchaytirdi. Shunday bo'lsa ham, Vronskiy bilan hozirgi ko'rishish uning uchun g'oyat zo'r ahami-yatga ega edi. Anna bu ko'rishishdan ahvolning o'zgarishiga, o'zini saqlab qolishiga umidvor edi. Agar Vronskiy bu xabarni eshitib, bir daqiqa ham ikkilanib turmasdan ehtiros va qat'iyat bilan: «Hamma narsani tashla, men bilan qoch!» desa, Anna o'g'lini tashlab, u bilan qochib ketardi. Lekin bu xabar unga Anna kutganicha ta'sir qilmadi: uning xuddi bir narsadan ko'ngli og'riganday bo'ldi.

– Bu gapni aytish menga hech og‘ir bo‘lgani yo‘q. O‘z-o‘zidan bo‘ldi-qoldi, – dedi Anna g‘ashi kelib, – mana... – Anna qo‘lqopidan erining xatini chiqardi.

Vronskiy xatni oldi-yu, o‘qimasdanoq, uni tinchitishga tirishdi.

– Tushunaman, tushunaman, – dedi gapini bo‘lib. – Men bir narsani xohlardim, buni sendan iltimos ham qilgan edim: hozirgi ahvolga barham ber, hayotimni baxting yo‘liga tikay degan edim.

– Nima qilasan menga bunaqa gaplarni aytib? – dedi Anna. – Nima, mening bunga gumonim bormi? Agar gumonim bo‘lsa...

– Kim anavilar? – dedi birdan Vronskiy ro‘paralaridan kelayotgan ikkita xonimga ishora qilib. – Balki bizni tanishar, – dedi-da, Annani yetaklab, o‘zini darhol xilvatga tortdi.

– Ax, menga baribir! – dedi Anna, lablari qaltirab ketdi. Shunda Vronskiyga Annaning ko‘zlari parda ostidan unga g‘alati bir g‘azab bilan qarab turgandek tuyuldi. – Men gap bunda emas deyapman, men bunga shubha qilolmayman, lekin buni qara, nimalar yozibdi. O‘qib boq, – Anna yana to‘xtab qoldi.

Vronskiy, boya Annaning eri bilan orani ochdi qilgani to‘g‘risidagi xabarni eshitgan birinchi daqiqasidagi singari, xatni o‘qib turib, yana tahqir etilgan yerga nisbatan o‘zida uyg‘ongan tabiiy hisga beixtiyor taslim bo‘ldi. Mana endi, uning xati qo‘lida ekan, bo‘lsa-bo‘lmasa bugun yo ertaga duelga chaqirilishini, duel mahalida esa, hozirgidek, yuzida sovuq, mag‘rur bir ifoda bilan havoga otib, o‘zini tahqir etilgan er o‘qiga tutib berishini ixtiyorsiz ko‘z oldiga keltirdi. Keltirdi-yu, boyagina Serpuxovskoy aytgan, ertalab o‘zi ham o‘ylagan fikr miyasidan lip etib o‘tdi; bu o‘zini bog‘lamagani ma‘qulligi to‘g‘risidagi fikr edi, buni Annaga aytolmasligini ham bilardi.

Vronskiy xatni o‘qib bo‘lgandan keyin Annaga qaradi, nigohida qat‘iyat yo‘q edi. Anna bu narsani Vronskiy oldin miyasida o‘ylab olganligini darhol fahmladi. U, Vronskiy nima desa ham, baribir, ko‘nglidagi gaplarning hammasini aytmassligini bilardi. Shunday qilib, Anna so‘nggi umidi ham puch chiqqanligini angladi. Annaning kutgan narsasi bu emas edi.

Anna qaltiroq tovush bilan:

– Ko‘ryapsanmi uning qanaqaligini? – dedi.

– Kechir meni, men bu narsadan xursandman, – deb Vronskiy uning soʻzini boʻlib qoʻydi. Keyin, soʻzini aytib olishga ijozat soʻrayotgandek, koʻzlari bilan yalinib turib ilova qildi: – Xudo haqi, gapimni oxirigacha eshit. Men shuning uchun xursand boʻlyapmanki, bu ahvol u taxmin qilgan vaziyatda qololmaydi.

Anna uning aytadigan soʻzlariga hech qanday maʼno berish niyatida emasday, koʻz yoshlarini tutib turib:

– Nima uchun qololmaydi? – dedi. Anna taqdirining hal boʻlganligini seza boshlagan edi.

Vronskiy, oʻz fikricha, oʻrtada oʻtishi muqarrar boʻlgan dueldan keyin ahvolning bu xilda davom etishi mumkin emasligini aytmoqchi boʻldi-yu, lekin boshqa narsani gapirdi.

– Davom etishi mumkin emas. Endi uni tashlab ketarsan, deb umid qilaman. Yana bir umidim, – dedi-yu, xijolatdan qizarib ketdi, – quradigan hayotimizni yoʻlga qoʻyish va oʻylash uchun menga ijozat berasan. Ertaga... – deb fikrini davom ettirgan edi, Anna soʻzini ogʻzidan oldi.

– Oʻgʻlim nima boʻladi?! – dedi u qichqirib. – Koʻrding-ku nima deb yozganini? Oʻgʻlimni tashlab ketishim kerak emish, men boʻlsam tashlab ketolmayman, tashlab ketishni xohlamayman ham.

– Xudo haqi, qaysi biri yaxshi? Oʻgʻlingni tashlab ketganingmi yo boʻlmasa, bu xoʻrlikni davom ettirganingmi?

– Kim uchun xoʻrlik?

– Hamma uchun, hammadan ham koʻproq sen uchun.

– Xoʻrlik, deysan... unday dema. Bu soʻzning men uchun hech qanday maʼnosi yoʻq, – dedi Anna, ovozi qaltirab. U hozir Vronskiyning yolgʻon gapirishini xohlamas edi. Annada uning muhabbatidan boshqa narsa qolmagan edi, shuning uchun Anna uni sevishni istardi. – Tushungin, senga koʻngil qoʻygan kunimdan boshlab hamma narsa oʻzgarib ketdi. Men faqat bitta, bittagina narsani bilaman – bu sening muhabbating. Agar u meniki boʻlsa, men oʻzimni shu qadar yuksak, mustahkam his qilamanki, hech narsa menga xoʻrlik keltirmaydi. Men oʻz ahvolim bilan magʻrurman, chunki... shuning bilan magʻrurmanki... magʻrurman... – Anna nima bilan magʻrurligini aytolmadi. Nomus va hayajon yoshlari ovozi boʻgʻib qoʻydi. Toʻxtab, birdan yigʻlab yubordi.

Vronskiy ham bo'g'ziga bir nima tiqilib kelayotganligini, burning ichini allanima achishtirayotganligini his qildi, umrida birinchi marta yig'lab yuborishga sal qolganini payqadi. O'ziga bunchalik ta'sir qilgan narsaning nima ekanligini aytolmasdi, Annaga achinar, unga yordam qilish qo'ldan kelmasligini sezar, ayni zamonda, uning baxtsizligiga o'zi aybdor ekanligini, allaqanday yomon ish qilib qo'yganligini ham bilardi.

– Taloq olishning iloji yo'qmi, a? – deb so'radi u, sust tovush bilan. Anna javob qilmay, kallasini chayqatdi. – O'g'lingni olsang-u, uni tashlab ketsang bo'lmasmikan, a?

– Ha, lekin hamma narsa unga bog'liq. Hozir uning oldiga bori-shim kerak, – dedi Anna quruqqina qilib. Hamma narsaning eskicha qolishligi to'g'risidagi karomati to'g'ri chiqdi.

– Seshanba kuni Peterburgda bo'laman, o'shanda bir yoqli qilamiz.

– Ha, – deb qo'ydi Anna. – Lekin bu xususda ortiq gap ochmaymiz.

Anna karetasini qaytarib yuborib, keyinroq Vrede bog'ining panjarasi yoniga kelib turishini buyurgan edi. Kareta kelgandan keyin, Anna Vronskiy bilan xayrlashib, uyiga jo'nab ketdi.

XXIII

Dushanba kuni 2 iyun komissiyasining odatdagi majlisi bo'ldi, Aleksey Aleksandrovich majlis zaliga kirib, odatdagicha, rais va a'zolar bilan salomlashib, o'rniga o'tirdi-da, oldiga tayyorlab qo'yilgan qog'ozlar ustiga qo'llarini qo'ydi. Bu qog'ozlar orasida o'ziga kerakli ma'lumotlar ham, qilmoqchi bo'lgan bayonotining, naridan-beri tuzilgan matni ham bor edi. Aslida, ma'lumotlarning unga luzumi ham yo'q edi. Hamma narsa esida edi, ha, shuning uchun aytdigan gaplarini xayolida takrorlab o'tirishni ortiqcha deb hisoblardi. Payt kelganda, o'zini beparvolikka solishga uringan dushman yuzini ro'parasida ko'rib turganda, so'zlari hozir tayyorlab qo'yilganidan ko'ra yaxshiroq bir shaklda o'z-o'zidan quyilib kelaverishini bilardi. U nutqining mazmuni juda ham chuqurligini, har bir so'zi katta ma'noga ega ekanligini sezib turardi. Bunga qaramasdan, oddiy ma'ruzani eshitib o'tirganda, qiyofasi ma'sum, mo'min ko'rinardi. Oldida yotgan oq qog'ozning ikki chetini uzun barmoqlari bilan mu-

loyimgina paypaslagan, tomirlari o'ynab chiqqan oq qo'llarini va horg'in bir ifoda bilan bir yonga qiyshaygan boshini ko'rgan kishi hozir uning og'zidan dahshatli hayajon qo'zg'atadigan, a'zolari bir-birlarining gaplarini bo'lib qichqirishga, raisni tartib saqlashni talab qilishga majbur etadigan gaplar quyiladi deb o'ylamas edi. Ma'ruza tamom bo'lgandan so'ng Aleksey Aleksandrovich o'zining bosiq, ingichka ovozi bilan boshqa millat xalqlarini joylashtirish ishi yuzasidan ba'zi mulohazalari borligini bildirdi. Hammaning diqqati unga jalb bo'ldi, Aleksey Aleksandrovich bir yo'talib olgandan keyin, raqibiga qaramasdan, lekin, har gal nutq irod qilganidagi singari, eng oldinda o'tirgan va komissiyada hech vaqt hech qanday fikri bo'lmagan kichkina, mo'mingina cholga qarab olib, mulohazalarini bayon qila ketdi. Gap qonunning tub va uzviy qismiga borib qadal-ganda, raqibi sakrab turib, e'tiroz qila boshladi. Stremov (bu ham komissiya a'zosi, buning ham qitig'iga tegib o'tilgan edi) o'zini oqlashga urindi, xullas, majlis to's-to'polonga aylanib ketdi, lekin Aleksey Aleksandrovich g'olib chiqdi, takliflari qabul qilindi: uch-ta yangi komissiya tayinlandi. Ertasiga esa Peterburgning ma'lum doirasida bu majlis og'izdan tushmadi. Aleksey Aleksandrovichning muvaffaqiyati o'zi kutganidan ham ortiq bo'ldi.

Ertasiga ertalab, ya'ni seshanba kuni, Aleksey Aleksandrovich uyqudan uyg'ongandan keyin huzur qilib kechagi g'alabasini esladi-yu, mahkamadagi ishlar mudiri, laganbardorlik qilib, kechagi komissiya to'g'risidagi qulog'iga chalingan mish-mishlarni aytganda, o'zini parvosizday ko'rsatishni xohlasa ham, kulimsirasdan turolmadi.

Aleksey Aleksandrovich, mahkamasining ishlar mudiri bilan band bo'lib, bugun seshanba ekanligini, Anna Arkadevna bugun ko'chib kelishi kerakligini butunlay xayolidan chiqarib qo'ydi: xizmatkor kirib, xotining ko'chib kelganligini xabar qilganda, Aleksey Aleksandrovich ajablanib, ta'bi biroz xira bo'ldi.

Anna Peterburgga sahar etib keldi, Annadan shoshilinchnoma kelgandan keyin kareta yuborilgan edi, shuning uchun Aleksey Aleksandrovich uning kelishini bilardi. Kelganda esa chiqib kutib olmadi. Annaga Aleksey Aleksandrovichning hali kabinetidan chiqmaganligini, ishlar mudiri bilan mashg'ul ekanligini aytishdi. Odam kirgizib, o'zining kelganligini aytishni buyurdi-da, kabinetiga kirib, shu yerga kelar degan bir umid bilan ul-bullarini joylashtira boshladi.

Lekin bir soat o'tgandan keyin ham kirmadi. Shundan keyin topshiriqlar berish bahonasida yemakxonaga kirib, bo'lmasa shu yerga chiqadi, degan umid bilan jo'rttaga ovozini chiqarib gapirdi. Anna uning ishlar mudirini kabinet eshigiga kuzatib chiqqanini payqadi, lekin shunday bo'lsa ham, bu yerga kirmadi. Anna, odatdagicha, hali zamon xizmatiga jo'nab ketishini bilgani uchun, ungacha ko'rib, munosabatlarini bir yoqli qilib olishni xohlardi.

U zaldan o'tib, dadillik bilan kabinetga yo'l oldi. Anna kabinetga kirganda u rasmiy mundirda (jo'nab ketmoqchi bo'lib turgan edi, shekilli), kichkina stol yonida, unga tirsaklarini qo'yib, ro'parasiga qarab g'amgin tikilib o'tirgan edi. Anna uni oldin ko'rdi-yu, o'zi haqida o'ylayotganligini angladi.

Aleksey Aleksandrovich Annani ko'rib, o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi, lekin bu fikridan qaytdi, yuzi bo'g'riqib ketdi, Anna hech vaqt unda bunday holatni ko'rmagan edi, Aleksey Aleksandrovich chapdast o'rnidan turdi-da, Annaning ko'zlariga emas, balandroqqa, peshonasi bilan sochlariga qarab peshvoz yurdi. Annaga yondoshib, uni qo'lidan ushladi, o'tirishga taklif qildi.

U Annaning yoniga o'tira turib:

– Ko'chib kelganingizga juda xursandman, – dedi, keyin yana bir nima demoqchi bo'ldi-yu, lekin tili tutilib qoldi. Bir necha marta gapirishga chog'lansa ham, gapirolmadi... Anna bu ko'rishishga tayyorlanib, undan nafratlanib, uni ayblashni ko'ngliga tugib qo'yan bo'lsa-da, hozir nima deyishini bilmas, unga achinar edi. Shu taxlit ancha vaqtgacha jim o'tirishdi. – Seryoja salomatmi? – deb so'radi Aleksey Aleksandrovich, lekin javob kutib o'tirmasdanoq, ilova qildi: – Bugun uyda tushlik qilmayman, hozir jo'nashim kerak.

– Moskvaga jo'nab ketmoqchi edim, – dedi Anna.

Aleksey Aleksandrovich:

– Yo'q, ko'chib kelib, juda-juda yaxshi qildingiz, – dedi-yu, tag'in jim bo'lib qoldi.

Anna uning gap ochishga majoli yetmayotganini ko'rib, o'zi gap ochdi.

– Aleksey Aleksandrovich, – dedi Anna, unga yuzlanib va o'z sochlariga tikilib qolgan yeriga tikka qarab, – men jinoyatkor xotinman, yomon xotinman, lekin hali ham o'shanda sizga nima degan bo'lsam, o'shandayman, shundog' bo'lsa ham hech narsani o'zgartira olmasligimni sizga aytgani kelganman.

Aleksey Aleksandrovich uning ko'zlariga nafrat bilan tikilib turib:

– Sizdan so'raganim yo'q buni, – dedi, birdan keskin ohangda, – shunday dersiz deb o'ylovdim. – G'azab ta'sirida, aftidan, yana avvalgi salohiyatini tiklab oldi. – Lekin o'shanda sizga aytgan, keyin xatimda ham yozgan edim, – deb keskin, ingichka tovush bilan gap boshladi, – bu narsalarni bilishga majbur emasligimni hozir ham takrorlayman. Men buni inkor qilaman. Hamma xotinlar ham erlariga shu qadar yoqimli bo'lgan bu xil xabarlarni yetkazishga sizchalik shoshiladigan darajada mehribon emaslar. – U «yoqimli» so'ziga urg'u berib gapirdi. – Men buni kiborlar jamiyatiga ma'lum bo'lguncha, sha'nimga isnod etguncha inkor qilib turaman. Shu sababdan ham munosabatlarimiz ilgari qanday bo'lib kelgan bo'lsa, yana shunday bo'lib qolishi kerak, mabodo o'zingizni badnom qilib qo'ygudek bo'lsangiz, men o'z sha'nimga dog' tushirmaslik uchun tegishli choralarni ko'rishga majburman, deb ogohlantiryapman.

Anna qo'rquv to'la ko'zlari bilan unga qarab turib, hurkak bir tovush bilan:

– Lekin munosabatlarimiz hech mahal ilgarigiday bo'lolmaydi, – dedi.

Anna yana uning xotirjam basharasini ko'rgandan, yana bu bolalarnikiga o'xshash chinqiroq, istehzoli tovushini eshitgandan keyin yuragida uyg'ongan jirkanish hissi avvalgi achinish, shafqat tuyg'ularini o'ldirib, yolg'iz qo'rquvnigina qoldirdi, lekin Anna, har nima qilib bo'lsa ham, masalani bir yoqli qilishni xohlar edi.

– Sizga xotin bo'lib qololmayman, chunki... – deb gap boshlagan edi, Aleksey Aleksandrovich sovuqqina qilib, zahrini sochib kulib yubordi.

– Tanlagan tarzi hayotingiz, aftidan, ongingizga ham ta'sir etgan-ga o'xshaydi. Unisiga qanchalik hurmat bilan qaragam, bunisiga ham shunchalik nafrat bilan qarayin... O'tmishingizni hurmat qilaman, hozirgi ahvolingizdan nafratlanaman... mening so'zlarimga bergan ma'nongizdan men juda-juda uzoqdaman.

Anna chuqur tin olib, boshini tushirdi.

– Men bir narsaga hayron bo'laman, masalan, siz shunchalik mustaqillikka egasizki, – deb qizishib so'zida davom etdi, – eringizga qilayotgan vafosizligingizni ro'y-rost aytib, bu harakatingizni

o'zingizga ep ko'rasiz-u, xotin kishining er oldidagi majburiyatini bajarishni o'zingizga ep ko'rmaysiz.

– Aleksey Aleksandrovich! Mendan nima talabingiz bor?

– Sizdan talabim shuki, men u odamni bu yerda ko'rmayin, innaykeyin, siz o'zingizni shunday tutingki, kiborlar ham, xizmatkorlar ham sizni ayblasha olmasin... Siz u odamni ko'rmang. Nazarimda, talabim katta emas. Bularning evaziga halol xotin huquqidan foydalanasiz, garchi xotinlik vazifasini bajarmasangiz ham. Sizga aytadigan gapim shu. Endi ishga borishim kerak. Tushlikka kelolmayman.

Aleksey Aleksandrovich o'rnidan turib, eshik tomon yurdi. Anna ham qo'zg'aldi. U indamay ta'zim qilib, Annani o'tkazib yubordi.

XXIV

Pichan g'aramida o'tkazgan tuni Levin uchun bekor ketmadi. Boshqarib kelayotgan xo'jaligi me'dasiga tegib, nazarida butun ahamiyatini yo'qotib qo'ygan edi. Hosilning nihoyatda yaxshi bo'lishiga qaramay, uning nazarida o'zi bilan mujiklar orasidagi munosabatda hech qachon bu yilgichalik adovat va muvaffaqiyatsizlik bo'lgan emas edi, mana endi bu dushmanlik va muvaffaqiyatsizliklar sababi butunlay ravshan bo'ldi. Mujiklar bilan yaqinlashib olib birga ishlaganda qilgan huzur-halovati, mujiklarga, ularning turmushlariga qilgan hasadi, o'sha kecha ortiq orzulikdan chiqib mujiklar singari hayot kechirish niyatiga aylangan (bu niyatni ikir-chikirlarigacha o'ylab chiqqan edi) istagi – bularning hammasi o'z xo'jaligining tartibiga bo'lgan qarashini shu qadar o'zgartirib yubordiki, uning ilgarigi havasini yo'qotdi va hamma ishlarning asosini tashkil qilgan mardikorlariga ilgari xunuk muomala qilib kelganligini ko'rdi. Pava singari zoti yaxshilangan bir poda sigir, o'g'it solib, haydab qo'yilgan yerlar, tollar bilan o'rab olingan to'qqiz qarta bir xil yer, go'ng chuqur solinib haydab qo'yilgan to'qson botmon yer, qatorasiga ekadigan seyalkalar va hokazo va hokazolar hammasi bir o'zigina qilgan yoki o'rtoqlari, o'ziga xayrixoh bo'lgan odamlar bilan birgalashib qilgan ish samarasi bo'lsa, ko'p ajoyib bo'lardi. Lekin u shu narsani ravshan ko'ra boshladi (qishloq xo'jaligi haqidagi kitobi ustida olib borgan ishi ko'p jihatdan o'ziga yordam bermoqda edi, chunki kitobida mardikorlarni xo'jalikning asosiy elementi qilib

ko'rsatardi), o'z xo'jaligini mardikorlar bilan qattiq kurashib davom ettirayotganini, bu kurashda hamma narsani o'zi eng yaxshi deb hisoblagan tartib asosida sira tinmay, zo'r berib o'zgartirishga tirishib kelganligini, u tomonning esa xo'jalikning eskicha tartibda borishiga intilganligini endi ravshan ko'ra boshladi. U bu kurashda u tomon hech qanday zo'r bermasa, hatto g'arazi bo'lmasa-da, Levin, bir o'zi butun kuchini ishga solib, tirishib-tirmashsa-da, baribir xo'jalikdan biron naf chiqmasligini, ajoyib qurollar, ajoyib mol va chorvalar, yer xayf ketishini ko'ra boshladi. Eng muhimi – bu ishga sarf qilayotgan kuch-g'ayratining butunlay xayf ketayotganligini angladi, buning ustiga, xo'jaligining bema'niligi ham hozir ko'z oldida ravshan bo'lgandan keyin, sarf qilib kelayotgan bu kuch-g'ayratining maqsadi butunlay behuda ekanligini ham sezmay qololmadi. Kurashning mohiyati nimadan iborat edi? Levin har bir tiyini uchun kurashardi (kurashmasligining iloji yo'q edi, chunki g'ayratni sal bo'shashtirib yuborsa, mardikorlarning haqini to'lashga pul yetmay qolardi), ular bo'lsa tinch, bexarxasha, ya'ni o'zlari odatlanib qolgan usulda ishlash uchun kurashardilar. Levin har bir mardikor ko'proq ish qilsin, shu bilan birga, anqaymasdan seyalkalarni, ot molalarini, g'alla yanchadigan asboblarni sindirib qo'ymasin, qilayotgan ishini o'ylab-bilib qilsin, deb urinar edi, mardikor bo'lsa o'zini qiynamasdan, dam olib turib, hammasidan ham muhimrog'i – g'am yemasdan, hech narsani o'ylamasdan, bemalol ishlashni xohlaydi. Levin shu yoz har qadamda shu narsaga duch kelardi. U o't-o'lan, sassiq alaf bosib ketgan, urug'likka yaramaydigan eng yomon bedazorlarni ajratib, ularni pichanga o'rdirgani yuborganda, urug'bop eng yaxshi bedalarni ham aralash-quralashiga o'rib tashlashib, ishboshchi buyurdi, deb o'zlarini oqlashdi va pichan juda soz bo'ladi, deb tasalli berishdi, lekin bedani shu taxlitda o'rish oson bo'lgani uchun shunday qilishganini Levin bilardi. U shamol mashinasini yuborganda, birinchi qatordayoq sindirib qo'yishdi, chunki ustida qanotlarini aylantirib turgan mashinada o'tiraverish mujikning yuragini siqib yuborgan edi. Shundan keyin: «Xavotir bo'lmasinlar, ayollar kelib bir zumda yayratib tashlashadi», deyishardi. Pluglar ishga yaroqsiz bo'lib chiqdi, chunki uning qulog'ini burab tushirib qo'yish qo'shchining aqliga kelmas edi-da, zo'r berib bosar, shu bilan otlarni ham qiynar, yerni ham buzardi, shundan keyin yana xavotir bo'lmang deyishardi. Otlar-

ni bug‘doyzorga qo‘yib yuborishardi, chunki mardikorlardan bittasi ham kechasi otga qorovullik qilishni xohlamas, bunday qilmanglar deb buyurilganiga qaramay, mardikorlar kechasi navbatlashib qo‘riqlar, Vanka bo‘lsa, kuni bilan ishlab, kechasi uxlab qolardiyu, qilmishidan pushaymon bo‘lib: «Ixtiyoringiz», deb turib olardi. Uchta eng yaxshi buzoqni bo‘ktirib qo‘yishdi, chunki sug‘ormasdan bedapoyaga solib yuborishdi, keyin, beda shishirib yuborganiga hech ishonishmasdan, qo‘shnilarining bir yuz o‘n ikkita moli uch kunda shishib o‘lganini aytib, tasalli bera boshlashdi. Bu narsalarni hech kim Levinga yoki xo‘jaligiga zarar yetkazish uchun qilmas edi, aksincha, Levin o‘zini yaxshi ko‘rishlarini, oddiy to‘ra deb hisoblashlarini (bu esa eng yuksak maqto‘v edi) bilardi, lekin buning sababi shu ediki, ular tashvish tortmay, o‘ynab-kulib turib ishlashni istar edilar. Levinning manfaati ular uchun yot, tushunib bo‘lmaydigan, dudmal, shu bilan birga, o‘zlarining haqqoniy manfaatlariga mohiyat e‘tibori bilan tamoman zid narsa edi. Levin ancha vaqtlardan beri o‘z xo‘jaligiga bo‘lgan munosabatidan ko‘p norozi edi. U o‘zi o‘tirgan hayot qayig‘iga suv kirayotganini ko‘rsa ham, o‘zini jo‘rttaga aldab, suv qayerdan kiryapti, deb izlamas edi. Endi o‘zini ortiq alday olmaydi. Boshqarib kelayotgan xo‘jaligi endi o‘zini qiziqitirmay qo‘ydi, balki, aksincha, jirkanch ko‘rinib qoldi, shuning uchun xo‘jaligi bilan mashg‘ul bo‘la olmas edi.

Bu tashvishlar ustiga o‘zidan o‘ttiz chaqirimcha narida turgan Kiti Shcherbatskaya ham yangi tashvish bo‘lib tushdi. Levin uni ko‘rgisi kelsa ham, ko‘rolmas edi. Levin Darya Aleksandrovna Oblonskayanikiga borganda, u yana kelishini iltimos qilgan edi, Darya Aleksandrovna, agar Levin kelib, taklifini yana takrorlasa, Kitining qabul qilishiga ishorat etganday edi. Levinning o‘zi Kiti Shcherbatskayani ko‘rgandan keyin, uni hanuz yaxshi ko‘rganligini angladi, shunday bo‘lsa ham, Kitining u yerdaligini bila turib, Oblonskiylarnikiga bora olmas edi. Kitiga qilgan taklifi va uning rad javobi o‘zi bilan Kiti o‘rtasiga o‘tib bo‘lmaydigan g‘ov tashlab qo‘ygan edi. «U xohlagan kishisiga tega olmagani uchungina, menga teg, deb iltimos qila olmayman», derdi u o‘ziga. Bu fikr uni Kitidan sovutar, yovlantirar edi. «U bilan gaplashganda ginaxonlik qilmaslikka, g‘azablanmasdan yuziga qarashga qurbim yetmaydi, ana shundan keyin meni yana ham battarroq yomon ko‘rib qoladi, bu turgan gap.

Innaykeyin, Darya Aleksandrovna menga aytgan soʻzlardan keyin qanday qilib yoniga boraman? Ajabo, oʻzimni u aytgan soʻzlarni eshitmaganga sola olamanmi? Demak, men olijanoblik bilan gunohlaridan oʻtish, afv etish uchun borar ekanman-da? Men u yerga Kitining gunohlarini kechiruvchi va uni oʻz sevgimga sazovor qiluvchi kishi sifatida borar ekanman-da!.. Darya Aleksandrovna shunday dedi-ya menga? Agar shunday demaganda, Kitini tasodifan koʻrardim-u, hamma narsa oʻz-oʻzidan toʻgʻri boʻlib ketardi, endi buning iloji yoʻq, hech iloji yoʻq!»

Darya Aleksandrovna unga bir parcha xat yozib, Kiti uchun zai-fona egar berib yuborishini soʻragan edi. «Sizda egar bor, deyishdi, – deb yozgan edi. – Oʻzingiz olib kelarsiz, deb umid qilaman».

Levin bu narsaga chidab turolmas edi. Shu qadar aqlli, nazokatli xotin qanday qilib oʻz singlisini yerga uradi-ya! Levin oʻntacha mak-tub yozdi-yu, hammasi ham yirtib tashlab, egarni quruq yuboraverdi. «Boraman» deb yozay desa, boʻlmaydi, chunki borolmaydi, biron narsa xalaqit berayotganligini yo biron yoqqa ketayotganligini baho-na qilib, «borolmayman» desa, bu xunuk boʻladi. U egarni maktubsiz joʻnatib yubordi-yu, uyat bir ish qilib qoʻyganligini sezib, meʼdasiga tekkan xoʻjalik ishlarini ishboshchisiga topshirdi-da, oʻzi ertasigayoq Sviyajskiy degan bir oshnasinikiga ketvordi, u atrofda xushmanza-rali loyxoʻrak ovlanadigan botqoqlar bor edi, bundan tashqari, uzoq uyezdida turadigan bu oshnasi yaqinda Levinga xat yozib, mehmon boʻlib kelish toʻgʻrisidagi eski niyatini bajarishni iltimos qilgan edi. Surovskiy uyezdida loyxoʻrak ovlanadigan botqoqlik qachonlardan beri Levinni oʻziga jazb qilib kelgan boʻlsa ham, xoʻjalik ishlari bilan boʻlib, borolmay yurgan edi. Mana endi Shcherbatskiylar bilan yonma-yon turishdan, xususan, meʼdasiga tekkan xoʻjaligidan bo-shini olib, har qanday qaygʻu va hasratlarda ham oʻziga eng yaxshi tasalli beradigan ovga jon-jon deb joʻnab ketdi.

XXV

Surovskiy uyezdiga temiryoʻl ham, pochta yoʻli ham tushmagan edi, shuning uchun Levin oʻzining tarantasiga oʻtirib joʻnadi.

Levin yoʻlning yarmida otlariga yem-xashak berish uchun bir boy mujiknikiga tushdi. Koʻkragi bilan bitta boʻlib turgan va chakkalariga

oq tushgan qo'ng'ir soqolli, taqir bosh, tarovatli bir chol darvoza-ni ochib, uch otli tarantas kirguncha, darvoza kesakisiga qapishib turdi. Chol kucherga quruq omochlar yotgan yangi, toza hovlida-gi bostirmadan joy ko'rsatgandan keyin Levinni uyga taklif qildi. Toza kiyingan yoshgina bir juvon, yalang oyoqlariga kalish ilib olib, yangi qurilgan dahlizning polini latta bilan artayotgan edi. U Levin orqasidan kirib kelgan itdan qo'rqib qichqirib yubordi, lekin itning tegmasligini bilib, qo'rqib ketgani uchun kulib qo'ydi. Juvon yengi shimarilgan qo'li bilan uy eshigini Levinga ishora qilgach, egilib, chiroyli yuzini yana berkitib polni yuvishga kirishdi.

– O'ziqaynar keltiraymi? – deb so'radi u.

– Ha, marhamat.

Mujik uyi golland pechkali, kenggina xona bo'lib, bir tomoni to'sib qo'yilgan edi. Ikona ostida naqshinkor stol, bitta o'rindiq va ikkita stul, kiraverishda idish-oyoq terilgan shkaf bor edi. Darpar-dalar tushirib qo'yilgani uchun pashsha kam, shu qadar toza ediki, Levin yo'l bo'yi arava atrofida yugurib, loy bosib kelgan Laska pol-ni bulg'amasin deb unga eshik biqinidagi burchakdan joy ko'rsatdi. Levin uyni tomosha qilgandan keyin orqa hovliga chiqdi. Xushro'y juvon obkashga ilgan bo'sh chelaklarini chayqatib, uning oldida qu-duqqa qarab chopib ketdi.

– Tez bo'l! – deb chol unga qichqirgandan keyin Levinning yo-niga keldi. – Yo'l bo'lsin, taqsir, Nikolay Ivanovich Sviyajskiynikiga ketyaptilarmi? U kishi ham biznikiga tushib turadi, – chol zinapoya panjarasiga tirsagi bilan suyanib ezmalana boshladi.

Cholning Sviyajskiy bilan tanishligi to'g'risidagi hikoyasi yar-miga borganda, yana darvoza g'ichillab ochildi-da, daladan qayt-gan qo'shchilar so'qa va molalari bilan hovliga kirib keldi. So'qalar bilan molalarga qo'shilgan otlar semiz-semiz, yo'g'on-yo'g'on edi. Qo'shchilar, aftidan, shu oilaga qarashli odamlar ko'rinaradi, ikkitasi yosh, egnilarida chit ko'ylak, boshlarida qalpoq, eski ko'ylakli bosh-qa ikkitasi (bularning biri qari, ikkinchisi yosh) mardikor edi. Chol otlar yoniga keldi-da, ularni so'qadan chiqara boshladi.

– Qayerni haydashdi? – deb so'radi Levin.

– Kartoshka jo'yaklarini. Jindek yerimiz bor. Menga qara, Fedot, axtani qo'yvorma, yerda yotgan yog'ochga bog'la, unisini qo'shamiz...

– Nima bo‘ldi, ota, omochga tish olib keling devdim, keltir-
dingizmi? – deb so‘radi bo‘yi baland, bardam yigit (bu cholning
o‘g‘li bo‘lsa kerak).

Chol otdan chiqarilgan tizginni qo‘liga o‘rab turib:

– Hu... dahlizda, – dedi-da, tizginni yerga tashladi. – Ovqat qilib
bo‘lishguncha, to‘g‘rilab qo‘y. – Xushro‘y juvon yelkalarini bosib
ketgan suv to‘la chelaklarni ko‘tarib dahlizga kirib ketdi. Allaqayerda
yana yosh, chiroyli, o‘rta yoshli, xunuk, bolali, bolasiz ayollar paydo
bo‘ldi.

O‘ziqaynar varaqlab qaynab ketdi, mardikorlar bilan oila a‘zolari
otlarini bog‘lab, ovqatlanishga o‘tirishdi. Levin o‘z aravasidan ovqa-
tini olib, cholni choyga taklif qildi.

Chol bu taklifni jon-u dili bilan qabul qilib:

– Ey, hali ichuvdig-u, – dedi. – Xayr, azbaroyi ulfatchilik.

Levin choy ichib o‘tirib, chol xo‘jaligining butun tarixini su-
rishtirib oldi. Chol bundan o‘n yil avval pomeshchik ayoldan yuz
yigirma botmon yerni ijaraga olgan ekan, bultur u yerini butunlay
sotib olib, qo‘shni pomeshchikdan yana uch yuz botmon yerni ija-
raga olibdi. Yerning juda ozginasini, eng yomonini ijaraga berib,
qirq botmonchasini o‘zi oila a‘zolari va ikkita mardikori bilan hay-
dayotgan ekan. Chol ishning yaxshi ketmayotganligidan shikoyat
qilardi. Ammo Levin uning shunchaki zorlanayotganligini, xo‘jaligi
esa gullab-yashnab turganligini bilardi. Ahvol yomon bo‘lsa, bir yuz
besh so‘mdan yer sotib olmagan bo‘lar edi. Uch o‘g‘li bilan bir jiya-
nini uylantirmagan bo‘lar edi, yong‘indan keyin birini avvalgisidan
yaxshi qilib ikki marta yangi uy solmagan bo‘lar edi, chol, zorlansa
ham, o‘z bor-u burdidan, o‘g‘illari, jiyani, kelinlari, otlari, sigirla-
ridan, ayniqsa, xo‘jaligi mustahkamligidan faxrlanar, faxrlanishga
haqli edi. Levin uning gaplaridan xo‘jalikdagi yangi tartibga qarshi
emasligini bildi. Chol kartoshkani ko‘p ekar ekan. Levinning kar-
toshkalari endi gulga kirgan bir paytda, uning kartoshkalari gulini
to‘kib, kartoshka tuga boshlagan edi (Levin yo‘lda buni o‘z ko‘zi
bilan ko‘rgan edi). Chol kartoshka maydonini pomeshchikdan olgan
pulga (plugni shunday derdi) bilan haydar ekan. Yana bug‘doy ham
ekar emish. Chol bug‘doy orasidagi javdarilarni yuldirib olib, shu
yulingan javdarilar bilan otlarini boqqani to‘g‘risidagi gaplari Levinni

juda ham hayratga soldi. Levin bu ajoyib ot yemi zoe ketganini necha bor ko'rib, yig'dirib olishga harakat qilsa ham, lekin hech ilojini topmas edi. Bu mujik bo'lsa javdarilarni o'tab olar ekan, shuning uchun maqtanishga uning haqi bor edi.

– Xotinlarning boshqa nima ishi bor? Yulib-yulib yo'lga chiqarib tashlashadi, keyin arava olib ketaveradi.

Levin unga stakanda choy uzatib:

– Mana bizda, pomeshchiklarda, mardikor solib ishlatish masalasi juda yomon, – dedi.

Chol stakanni olib:

– Kam bo'lmang, – dedi-yu, tishlab qo'ygan kichkina qandini ko'rsatib, tutilgan qandni olmadi. – Kim mardikor solib baraka topdi? – dedi. – Hammasi ham bir go'r. Mana, Sviyajskiyni olaylik. Eri qanaqaligini bilamiz – oltin, lekin u ham hosildan dodlab yuradi. Hamma gap ko'z-quloq bo'lmaslikda!

– Mana, siz mardikorlarni tuppa-tuzuk ishlatar ekansiz-ku!

– E, bizning yo'rig'imiz boshqa, biz mujikmiz. Hamma narsaga o'zimiz qo'l uramiz. Yomon bo'lsa, ana katta ko'cha, yengni shimarib olib o'zimiz qilaveramiz.

Bir ayol kalish sudrab kirib:

– Ota, Finogen arava moyi topib qo'y devdi, – dedi.

Chol o'rnidan qo'zg'alib:

– Shunaqa, taqsir! – dedi-da, uzoq cho'qingandan so'ng, Levingga tashakkur aytib, chiqib ketdi.

Levin kucherini chaqirish uchun qora uyga kirganda, hamma erkaklar stol atrofida o'tirib ovqatlanayotgan edi. Xotinlar tik turib xizmat qilishardi. Cholning yosh, norg'ul o'g'li og'zini bo'tqaga to'lg'azib olib, qiziq bir gapni aytar, hamma xaxolar, ayniqsa, idishlarga karam sho'rva quyib turgan kalishli juvon sharaqlab kulardi.

Kalish sudrab yurgan juvonning chiroyli husni sharofati ila, ehtimol, Levinda bu dehqon uyi yaxshi taassurot qoldirgandir, lekin bu taassurot shu qadar kuchli ediki, Levin uzoq vaqtgacha unutilmay yurdi. Cholnikidan jo'nab to Sviyajskiynikiga yetguncha ham yo'l bo'yi chol xo'jaligini tez-tez eslab bordi, go'yo shu taassurotidagi allanarsa uning e'tiborini o'ziga tortib turgandek edi.

XXVI

Sviyajskiy o'z uyezdida dvoryanlar oqsoqoli edi. U Levindan besh yosh katta, uylanganiga ham ancha bo'lgan edi. Uning uyida yoshgina qaynsinglisi turar, Levinga juda ham yoqardi: Sviyajskiy ham, xotini ham, bu qizni unga bergilari kelib yurishganini Levin bilardi. Kuyov bo'ladigan yosh yigitlar singari, Levin ham, garchi buni hech kimga og'zidan chiqarishga yuragi dov bermasa-da, shubhasiz bilar, shu bilan birga, uylanish harakatida bo'lganiga, bu g'oyat jozibador qizning ajoyib xotin bo'lishiga asos borligiga qaramay, unga uylana olmasligini ham bilardi. Kiti Shcherbatskayani yaxshi ko'rmagan taqdirda ham, osmonga ustun qo'yish mumkin bo'lmaganidek, unga uylanishi ham shunday mumkin bo'lmagan narsa edi. Shuni bilgani uchun Sviyajskiy nikiga borib oladigan lazzati zaharlanmoqda edi.

Levin Sviyajskiydan ovga taklif qilib yozib yuborgan xatni olgan soati xuddi shu narsani o'yladi, lekin bunga qaramasdan, Sviyajskiy shu niyatdadir, deb o'ylash hech narsaga asoslanmagan bir taxmin bo'lsa kerak, degan qarorga keldi-yu, har holda borish fikriga tushdi. Bundan tashqari o'zini imtihon qilmoqchi, shu qizning o'ziga munosibmi, yo'qmiligini sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Sviyajskiyning oilaviy hayoti borib turgan darajada ajoyib edi, Sviyajskiyning o'zi ham, Levin bilgan zemstvo arboblari ichida eng yaxshisi bo'lgani uchun, Levinda g'oyat zo'r maroq uyg'otardi.

Sviyajskiy Levinni hamma vaqt hayratga solib kelgan odamlardan biri edi, bunday odamlarning mulohazalari, garchi hech qachon mustaqil bo'lmasa ham, lekin izchil bo'lib, o'z maromida boraverar, hayotlari esa mustahkam va aniq izga tushgan bo'lsa ham, butunlay mustaqil va hamma vaqt deyarli mulohazasiga zid ravishda, o'z-o'zicha boraverardi. Sviyajskiy borib turgan liberal odam edi. U dvoryanlikdan nafratlanar, aksar dvoryanlarni qo'rqanlaridan sir boy bermay yurgan yashirin krepostnoylar deb hisoblardi. Rossiyani Turkiya singari halok bo'lgan mamlakat, hukumatni esa shu qadar yomon deb hisoblardiki, uning xatti-harakatini jiddiyroq tanqid qilishni o'ziga ep ko'rmas, shu bilan birga, xizmatini o'tar, dvoryanlarning ibratli oqsoqoli bo'lib, hamisha yo'lga tamg'ali va qizil gardishli furajka kiyib chiqar edi. U inson faqat chet eldagina yashashi mumkin deb o'ylar, ilojini topguncha darhol chet elga qarab yugu-

rar, bunga qaramasdan, Rossiyada g'oyat murakkab va mukammal xo'jalik olib borar, Rossiyada bo'layotgan narsalarning hammasini g'oyat zo'r maroq bilan kuzatib, hammasini bilib turardi. Rus mujigini taraqqiyoti jihatidan maymundan odamga o'tish pog'onasida turgan xilqat deb hisoblar, lekin bunga qaramay, zemstvo saylovlari-da mujiklarning qo'llarini hammadan ko'ra qattiqroq qisar, ularning fikrlariga jon-u dili bilan quloq solardi. U na bu dunyo, na u dunyoga ishonar, lekin ruhoniylarning maishatini yaxshilashga urinar va qavmlarning ozayib ketayotganidan tashvishlanar, ayniqsa, cherkovni o'z qishlog'ida qoldirish uchun tirishardi.

Xotinlar masalasida, xotinlarga to'la erkinlik, ayniqsa, mehnat huquqi berishni talab qiluvchilar tomonida turar, lekin xotini bilan shunday hayot kechirardiki, ularning totuv yashashlariga, bolasiz yashashlariga hammaning havasi kelardi, u xotining hayotini shunday tartibga soldiki, xotining eri bilan o'zi boshidagi umumiy tashvishlaridan vaqtlarini qanday qilib yaxshiroq, quvnoqroq o'tkazish g'amidan boshqa hech ishi yo'q, hech narsa qila ham olmas edi.

Agar Levin odamlarning yaxshi tomonlarini ko'rish fazilatidan mahrum bo'lganda, Sviyajskiyning xarakterini osongina tushunib olgan bo'lardi, unda o'zicha: ahmoq yoki bo'lmag'ur odam deyardi-qo'yardi-yu, shu bilan hamma narsa ravshan bo'lardi. Lekin u ahmoq deyolmasdi, chunki Sviyajskiyning g'oyat aqlli kishi ekanligi shubhasiz edi, shu bilan birga, g'oyat bilimdon va bilimdonligini shunchaki sezdirmasdangina yuradigan odam edi. U bilmaydigan narsa yo'q edi, lekin majbur bo'lgan kezlaridagina bilimdonligini ko'rsatardi. Levin Sviyajskiyni bo'lmag'ur deyishga ham jur'at qilolmasdi, chunki Sviyajskiy shubhasiz, nomusli, mehribon, aqlli kishi edi, u atrofdegilar yaxshi deb bilgan ishlarni hamma vaqt o'ynabkulib, bajonidil qilar, umrida hech mahal biron yomon ishni ongli ravishda qilmas, yomonlik qilish ham qo'lidan kelmas edi.

Levin uning hayotini tushunishga tirishar, lekin tushunmas, har mahal uni va uning hayotini jumboq deb bilardi.

Levin u bilan do'st edi, shuning uchun Sviyajskiyni holi-joniga qo'ymay gapirtirishga, hayotga bo'lgan qarashini tub-tomirigacha bilib olishga tirishar, lekin urinishlari zoe ketardi. U har gal, Sviyajskiyning hamma uchun ochiq bo'lgan ko'nglidagi ichki sirlarini bilib olishga harakat qilganda, Sviyajskiyning andak shoshib qol-

ganligini sezardi. Levin mening qanday odamligimni fahmlab qoladi, deb qo'rqayotgandek, ko'zlarida bilinar-bilinmas hadik alomati ko'rinardi-yu, darhol mehribonlik va xushchaqchaqlik bilan gapni boshqa yoqqa burib yuborardi.

Mana endi, o'z xo'jaligidan hafsalasi pir bo'lgandan keyin, Levin Sviyajskiynikiga borishdan alohida lazzat ola boshladi. O'zlaridan va barcha odamlardan mamnun bo'lgan u baxtli zavjlarni, ularning shinam uylarini ko'rishdan Levinning bahri-dili ochilib ketadi, shu bilan birga, u hozir o'z hayotidan norozi ekanligini seza boshlagan bir paytda, Sviyajskiy hayotini ravshan, aniq va dilkash qilgan sirlarni bilib olgisi kelib qoldi. Levin Sviyajskiynikida qo'shni pomeschchiklarni ko'rishini bilardi. Shuning uchun ular bilan gaplashishga, ularning hosil, mardikor yollash va shular kabi masalalardagi gaplarini eshitishga juda ham qiziqardi, chunki Levin bu masalalarga nima sababdandir past narsalar deb qarab kelinganini bilar, lekin bu masalalar hozir Levinga eng muhim narsalardan biri bo'lib ko'rinardi. «Bu, ehtimol, krepostnoylik huquqi davrida ahamiyatsiz narsalar deb hisoblangandir yoki Angliyada ahamiyatsizdir. Har ikkala holda ham sharoit aniq, lekin hozir bizda bu narsalar o'zgarib, endi o'nglanib kelayotgan bir paytda, bu sharoitni qanday o'nglash kerak degan masala, hozir Rossiyada mavjud bo'lgan eng muhim masaladir», deb o'ylardi Levin.

Ov Levin kutganidan ancha yomon bo'ldi. Botqoq qurib, loyxo'raqlar kelmay qo'yibdi. U kuni bilan yurib, atigi uchtagina loyxo'rak otib keldi, lekin shu bilan birga, har mahal ovdan qaytgandagi singari, ajoyib ishtaha, baland ruh va hayajonga kelgan holda keldi. Ov mahalida hech narsani o'ylamayotganday ko'rinsa-da, yana chol bilan oilasi ko'z o'ngiga kelib turar va bu taassurot o'ziga diqqat talab qilish bilan birga, o'zi bilan bog'liq bo'lgan allanarsaning hal qilinishini ham talab qilardi.

Kechqurun, choy ustida, qandaydir vorislik masalasi bilan kelgan ikkita pomeschchik huzurida, Levin qiziqqan maroqli masala to'g'risida gap ochilib ketdi.

Levin choy stoli yonida o'tirgan uy bekasi va uning singlisi bilan gaplashib o'tirardi (uy bekasi – yonida, qiz – ro'parada o'tirardi). Uy bekasi yuzlari yumaloq, sochlari malla, bo'yi novcha, betlarida chuqurchasi bo'lgan, kulib turgan juvon edi. Levin o'zi uchun jum-

boq bo'lib kelayotgan masalani, ya'ni erining sirlarini xotinidan bilib olishga tirishar, lekin o'ng'aysizlik sezgani uchun ochiq-sochiq gapirolmadi. Ro'parasida bekaning singlisi ko'ksi chorburchak shaklida juda g'alati qilib o'yilgan va Levinning nazarida uning uchun ataylab kiygan ko'ylakda o'tirgani uchun ham u juda o'ng'aysiz holga tushib qolgan edi. Qizning ko'ksi juda ham oq bo'lganiga qaramay yoki juda-juda oppoq bo'lgani uchun ham, ko'ylagining chorburchak shaklida o'yilgani Levinni dovdiratib qo'ygan edi. U xatoga ketib, ko'ylagini jo'rttaga men uchun shunday bichgan deb o'ylar, shuning uchun unga qarashga o'zini haqsiz deb hisoblab, qaramaslikka tirishardi; lekin ko'ylakning shu taxlit bichilganligi to'g'risida o'zini aybdor his qilardi. Levinning nazarida, o'zi birovni aldayotgandek, nimanidir tushuntirib berishi kerakdek, lekin bu narsani tushuntirib berishning sira iloji yo'qdek tuyular, shu sababdan nuqul qizarar, xavotirlanar, o'ng'aysizlanar edi. Undagi o'ng'aysizlikning jonon qizga ham nuqsi urdi. Lekin beka buni sezmagandek ko'rinar, singlisini jo'rttaga gapga solardi. Beka boshlangan gapni davom ettirib:

– Siz erimni ruslarga oid bo'lgan narsalar qiziqitirmaydi, deysiz, – dedi. – Aksincha, u chet ellarda vaqtichog' bo'lib yuradi, lekin hech qachon bu yerdagichalik emas. Bu yerda o'zini rohatda his qiladi. Ishi shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, har bir narsaga qiziqib qaraydi. Aytmoqchi, bizning maktabimizni ko'rganingiz yo'g'-a?

– Ko'rdim... chirmov o'rab olgan kichkina uymi?

– Ha, u Nastyaning ishi, – dedi beka singlisiga ishora qilib.

Levin qayoqqa qaramasin, baribir, ko'zi ko'ylakning o'yilgan joyiga tushishini sezib tursa ham, yonroq tomonga qarab turib:

– O'zingiz o'qitasizmi? – deb so'radi.

– Ha, o'zim o'qitar edim, hozir ham o'qitaman, lekin bizda ajoyib bir muallima bor, gimnastika ham kirgizganmiz.

– Yo'q, rahmat, endi ichmayman, – dedi Levin, hurmatsizlik qilayotganini, lekin bu suhbatni davom ettirishga ortiq majoli qolmagani sezdi-yu, qizarib, o'rnidan turdi. – Qulog'imga juda qiziq gaplar eshitilyapti, – deb ilova qilgandan so'ng stolning u burchiga bordi, u yerda xo'jayin ikkita pomeshchik bilan gaplashib o'tirgan edi. Sviyajskiy stolga yonini berib, suyangan qo'li bilan do'lchani aylantirar, ikkinchi qo'li bilan soqolini tutamlab, burniga olib kelar, keyin, xuddi hidlab bo'lgandek, yana qo'yib yuborardi. U pipirab turgan

qora ko'zlari bilan qizishib gapirgan oq mo'ylov pomeshchikka, xuddi uning so'zlarini ermak qilayotgandek, tikilib o'tirardi. Pomeshchik mujiklardan zorlanardi, pomeshchikning shikoyatiga Sviyajskiyda javob borligi, bu javob uning dalillarini chilparchin qilib tashlashi, lekin Sviyajskiy o'z mavqeyi bo'yicha bunday javobni qilolmasligi, shuning uchun pomeshchikning kulgili gaplariga zavqlanib o'tirgani Levinga ayon edi.

Oq mo'ylov pomeshchik, aftidan, qishloqda eskidan yashab kelgan o'taketgan krepostnoy, qishloqning ashaddiy xo'jayinlaridan biri edi. Bu narsalarning alomatini Levin kiyimlaridanoq bilib oldi, bu alomatlar pomeshchikka unchalik o'tirishmagan eski urfdagi, chirik syurtukdan, xo'mrayib turgan aqlli ko'zlaridan, silliq ruscha so'zlaridan, aftidan, uzoq tajriba orqasida o'zlashtirilgan amirona ohangidan, yon barmog'ida eski nikoh uzugi bo'lgan kattakon, chiroyli, oftobda kuygan qo'llarining qat'iy harakatlaridan ko'rinib turardi.

XXVII

– Qo'limga kiritilgan shuncha narsalarga jonim achimaganda... Qurg'ur ko'p mehnat to'kilgan-da... hammasiga qo'limni siltardim-u, sotib, Nikolay Nikolayevichday, hayt deb ketvorardim... Yelenaning ashularini eshitgani, – dedi pomeshchik; uning yoqimli tabassumi ma'noli yuzini yoritib turardi.

– Mana, tashlab ketmayapsiz-ku, – dedi Nikolay Ivanovich Sviyajskiy, – demak, bu yerda manfaat bor.

– Manfaat bitta: o'z uyimda turaman. Ovqatni sotib olmayman, odam yollamayman. Innaykeyin, bu mujiklarga bugun-erta aql kirib qolarmikan, deb o'ylayman. Ey, gapimga ishonsangiz, bu piyonis-talik, bu buzuqchilik jonimni bo'g'zimga keltirdi. Bu mujiklar bor-budlarini, otlarigacha, sigirlarigacha sotib-sovurib bo'lishdi. Ochdan o'lib yotishibdi-yu, mardikor qilib yollasangiz – qolasiz baloga: ishingizni rasvo qilgani etmay, yana ustingizdan sudga ham dodlashib borishadi.

– Siz ham sudga dodlab boring-da, – dedi Sviyajskiy.

– Dodlab boray? Ikki dunyoda ham bormasman! Duv-duv gap tarqaladi, arz qilganingga ming-ming pushaymonlar yeysan! Mana,

masalan, zavodda, moyana olishdi-yu, qochib ketishdi. Sud nima qildi? Oqlab yubordi. Xayriyatki, volost sudi bilan oqsoqol bor, shular tutib turishibdi. Oqsoqol eskichasiga qilib bir tayoqlasa bormi! Ha, bular bo‘lmaganda, hamma narsangni tashla-yu, yo-hu deb ketaver!

Pomeshchik, aftidan, Sviyajskiyning jig‘iga tegmoqchi bo‘ldi, lekin Sviyajskiyning jahli chiqishi u yoqda tursin, aksincha, bu gapdan maza qilib kuldi.

– Axir, biz unday choralar qo‘llanmasdanoq xo‘jaligimizni tebratib turibmiz-ku, – dedi u, kulimsirab, – mana, masalan, men, Levin, bular.

U narigi pomeshchikni ishora qildi.

– Ha, Mixail Petrovich juda tebratib turibdi-yu, lekin o‘zidan bir so‘rang-chi, qanday tebratayotgan ekan? Buni qanday qilib ratsional xo‘jalik deb aytib bo‘ladi? – dedi pomeshchik, «ratsional» degan so‘zni oliftagarchilik bilan ishlatib.

– Meniki oddiygina xo‘jalik, – dedi Mixail Petrovich. – Xudoga shukur. Mening xo‘jaligim kuzda pullarni yig‘ib-undirib olishdan iborat, xolos. Mujiklar kelishib: «Taqsir, umringdan baraka topkur, picha qarashib yubor?» deyishadi. Nima ham deysan, hammasi o‘z qo‘ni-qo‘shnilaring, mujiklar, achinasan-da. Uchdan biriga sharti bilan qarashasan, lekin qulog‘iga quyib qo‘yasan: ko‘zingni och, xaloyiq, men senlarga yordam berdimmi – berdim, senlar ham zarur bo‘lganda: suli ekishdami, pichan yig‘ishdami, o‘roqdami, ishqilib, ish borida qarashib yuborasanlar, deysan-u, oladigan-beradigan haqingni pisanda qilib qo‘yasan. Bunaqalar orasida ham muttahamlar bor, bunisi to‘g‘ri.

Levin bu patriarxal usullarni ilgari bilardi, shuning uchun, Sviyajskiy bilan bir ko‘z urishtirib olib, oq mo‘ylovli pomeshchikka murojaat qildi-yu, shu bilan Mixail Petrovichning so‘zini bo‘lib qo‘ydi.

– Siz nima qilish kerak deb o‘ylaysiz? – deb so‘radi Levin undan – Xo‘jalikni endi qanday tebratish kerak?

– Mixail Petrovich singari tebrataverish kerak: yo yerni teng sheriklikka berish yoki bo‘lmasa mujiklarga ijaraga berib yuborish kerak, bunday qilish mumkin-u, lekin bu tadbir davlatning umumiy boyligini barbod qiladi. Krepostnoy mehnati davrida va xo‘jalik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan paytda yerlarimdan o‘n hissa hosil

olsam, mujiklarga topshirib qo‘yganimdan faqat uch hissagina hosil ko‘raman. Ey, bu isloh degan kasofat Rossiyaning boshiga bitgan balo bo‘ldi!

Sviyajskiy kulib turgan ko‘zlari bilan Levinga qarab, xiyol iljayib qo‘ydi, lekin Levinga pomeschikning so‘zlari kulgili tuyulmadi. Levin bu so‘zlarga Sviyajskiydan ko‘ra ko‘proq tushunardi. Islohot Rossiyani barbod qilgani haqida pomeschik keltirgan dalillarning ko‘pi Levinga nihoyatda to‘g‘ri, o‘zi uchun esa inkor qilib bo‘lmaydigan yangi narsa bo‘lib ko‘rindi. Pomeschik, aftidan, ishlaymay yotgan miyasini biron narsa bilan band qilish niyati bilan emas, balki o‘z hayoti sharoitida bunyodga kelgan, qishloqda, xilvatda har taraflama o‘ylab voyaga yetkazgan xususiy fikrini bayon qilayotgan edi, bunday hol kamdan-kam bo‘lardi.

U, aftidan, ma‘rifatli odam ekanligini ko‘rsatish niyatida bo‘lsa kerak:

– Gap shundaki, har qanday taraqqiyot hokimiyat kuchi bilan o‘tkaziladi, – dedi. – Chunonchi, Pyotr, Yekaterina, Aleksandrlar o‘tkazgan islohotlarni oling. Yevropa tarixini oling. Ayniqsa, tasarrufot sohasidagi taraqqiyotni oling. Hatto kartoshka ham hayotimizga zo‘rlik bilan kiritilgan. U yog‘ini surishtirsangiz, omochni ham hamma vaqt ishlatib kelgan emasmiz. Omochni ham zo‘rlik bilan, ehtimol, viloyatlar knyazlar qo‘lida bo‘lgan zamonda kiritishgandir. Mana endi, o‘z zamonamizni olaylik, biz pomeschiklar ham krepostnoy huquq davrida xo‘jaligimizga yangilik kiritib mukammallashtirdik, sushilkalarni ham, veyalkalarni ham, go‘ng aravalarini ham, boshqa qurollarni ham – hammasini o‘z kuchimiz bilan zo‘rlab kiritdik, oldin mujiklar qarshi turishdi, keyin esa bizga taqlid qila boshlashdi. Mana endi-chi, krepostnoy huquqni bekor qilish bilan birga, qo‘limizdan nufuzimizni ham olib qo‘yishdi, natijada, xo‘jaligimizning ravnaq topgan joylari pastga qarab ibtidoiy holatiga qaytishi kerak. Men masalani shunday tushunaman.

– Nega endi? Agar manfaat chiqadigan bo‘lsa, xo‘jaligingizni odam yollab tebrataversangiz ham bo‘laveradi, – dedi Sviyajskiy.

– Nufuzimiz yo‘q. Shu ahvolda qanday kuch bilan tebrataman? Qani, sizdan bir so‘rab qo‘yay.

«Xo‘jalikning asosiy elementi mardikor kuchi, deganim shu!» – deb o‘yladi Levin.

– Mardikorlar kuchi bilan.

– Mardikorlar yaxshi ishlashni, yaxshi qurol bilan ishlashni xohlashmaydi. Bizning mardikorlarimiz faqat bir narsanigina bilishadi – to‘ng‘izday ichib mast bo‘lish, qo‘liga bergan narsalaringizning hammasini buzish, rasvo qilish, otlarni bo‘ktirish, yaxshi yuganni uzish, g‘ildirak shinasini sotib sharob ichish, yanchiq mashinasini sindirish uchun parragiga tosh tashlash. O‘ziga ma‘qul bo‘lmagan narsani ko‘rdimi, joni chiqadi. Ana shuning uchun ham xo‘jalik pasayib ketyapti. Dalalar ekinsiz, hamma yoqni sassiq alaf bosib ketyapti yoki yerlar mujiklarga bo‘lib berilyapti, ilgari million chorak hosil bergan yer hozir yuz ming choraklab hosil beryapti, umumiy boylik kamayib ketyapti. Agar bu narsalarni qilishar ekan, unda hisob bilan...

U bunday noqulay ahvolga xotima beradigan ozodlik rejasini bayon qila ketdi.

Bu narsalar Levinni qiziqtirmas edi, shuning uchun, pomeschchik gapni tugatganda, Levin u bayon qilgan birinchi fikr yuzasidan o‘z mulohazasini aytdi va bu muhim fikrga Sviyajskiyni ham tortishga tirishdi.

– Xo‘jalik darajasining tushib ketayotganligi va bizning mardikorlarga bo‘lgan hozirgi munosabatimiz oqibatida xo‘jalikni ratsional ravishda tebratib bo‘lmasligi to‘g‘risida aytilgan gaplar butunlayin to‘g‘ri, – dedi Levin.

– Bu to‘g‘rida aytilgan gaplar butunlay to‘g‘ri deb aytolmayman, – deb jiddiy tusda e‘tiroz bildirdi Sviyajskiy, – lekin xo‘jalikni tebratishga uquvimiz yetmaganligini ko‘rib turibman, yana shunisi ham borki, krepostnoylik huquqi davridagi xo‘jaligimiz baland emas, aksincha, juda ham past edi. Bizda na mashinalar bor, na yaxshi ish hayvonlari, biz na xo‘jalikni yaxshi boshqarishni bilamiz, na hisob-kitob ishlarini. Xohlagan yer egasidan so‘rab ko‘ring: nimadan naf bor, nimadan yo‘qligini bilmaydi.

– Daromad bilan buromad bab-baravar, – dedi pomeschchik kino-ya qilib. – Hisoblab hisobiga yetmaysan, hamma narsangni shunday rasvoyi raddi balo qilishadiki, bir chaqalik hayon ko‘rmaysan.

– Nimaga rasvo qilishar ekan? Sizning almisoqdan qolgan rus yanchiq mashinangizni buzishadi, ammo mening bug‘ mashinamni buzishmaydi. Sizning quyrug‘idan ko‘tarib turg‘azib qo‘ysangiz tu-

radigan xashaki qirchang'ingizni rasvo qilishadi, lekin zotdor otlarni ko'paytiring, ularni rasvo qilishmaydi. Hamma narsa ham shu taxlit. Xo'jaligimizni yuksaltirishimiz kerak.

– Ey, aytishga oson-da, Nikolay Ivanovich! Sizning yo'rig'ingiz boshqa, men sho'rlik universitetda o'qiyotgan o'g'limga qarashim, kichiklarimni gimnaziyada tarbiyalashim kerak, menga zotdor otlar sotib olish yo'l bo'lsin.

– Buning uchun bank bor.

– Oling-a, bor-yo'g'imni sotib sovrishsinmi? Ey, qullug'-e!

– Xo'jalikni yuksaltirishimiz, ko'tarishimiz kerak, ko'tarish mumkin ham, deyilgan fikrga qo'shilolmayman, – dedi Levin. – Men bu masala bilan shug'ullanib kelaman, menda mablag'-vosita ham bor, lekin hech narsa qilolmayman. Banklarning kimga foydasi tegadi, bilmayman. Masalan, men xo'jalikning qaysi sohasiga pul sarf qilmayin, hamma vaqt zarar ko'rib kelaman: chorvadan ham zarar, mashinadan ham zarar.

Oq mo'ylovli pomeschik zavqlanib kulib yubordi.

– Mana bu gapingiz to'g'ri, – dedi u tasdiqlab.

– Bu – yolg'iz mening boshimga tushgan ish emas, – deb gapini davom qildi Levin, – ishni ratsional shaklda olib borayotgan hamma xo'jayinlardan qiyos olib gapiryapman; juda kam odamni istisno qilganda, hammasi ham zarar ko'rib kelyapti. Mana, masalan, siz ayting: xo'sh, xo'jaligingiz foyda keltiryaptimi? – dedi Levin, lekin Sviyajskiyning ko'zlarida uning ko'nglidagi siriga voqif bo'lishni istaganda sezgan o'tkinchi bir qo'rquv alomati yalt etib ko'ringanini payqadi.

Bundan tashqari, Levinning bunday savolni berishi insofdan emas edi. Sviyajskiyning xotini hozirgina Levin bilan choy ichishib o'tirib, shu yil yozda Moskvadan buxgalteriyani siqib suvini ichib yuborgan bir nemisni chaqirib keltirganlarini, u besh yuz so'm siylov evaziga butun daromad-buromadni ipidan-ignasigacha hisoblab chiqib, xo'jaliklari uch ming so'mdan ortiqroq zarar ko'rganini aniqlaganini aytib bergan edi. Beka qanchaligini esida olib qololmagan, ammo nemis chorak tiyingacha hisoblab chiqqan ekan.

Pomeschchik Sviyajskiyning xo'jaligidan oladigan daromadi to'g'risidagi gapni eshitib, bu dvoryanlar oqsoqoli qanday foyda ko'rishi mumkin, deya yotganday qilib kulimsirab qo'ydi.

– Ehtimol, zarar ko‘rayotgandirmiz, – deb javob berdi Sviyajskiy, – bu yomon xo‘jayin ekanligimni yo bo‘lmasa rentani oshirish uchun sarmoyani ko‘proq sarf qilayotganligimni ko‘rsatadi.

– Ax, renta! – deb qichqirdi Levin dahshat bilan. – Ehtimol, renta Yevropada bordir, u yoqda yer to‘kilgan kuch-mehnatdan yaxshilangan, lekin bizda to‘kkan kuch mehnatimizdan yerlarimiz yomonlashib ketyapti, ya‘ni haydashdimi – bo‘ldi, renta qayoqda!

– Nega renta yo‘q bo‘ladi? Bu – qonun-ku.

– Qonun bilan bizning ishimiz yo‘q, rentaning biz uchun hech qanday ma‘nosi yo‘q, aksincha, u kalavani chuvatadi, xolos. Yo‘q, siz menga aytib bering, renta haqidagi ta‘limot qanday qilib...

– Qatiq ichasizlarmi? Masha, bizga qatiqmi, malinami yubortir, – dedi Sviyajskiy xotiniga. – Bu yil malina juda yaxshi saqlandi-da.

Sviyajskiy kayfi chog‘ bo‘lib o‘rmidan turdi-da, Levin suhbat endi boshlanadi deb turgan paytda suhbat tamom bo‘ldi degan xayolga kelib, ketib qoldi.

Levin bu suhbatdoshidan ayrilgandan so‘ng ham pomeshchik bilan suhbatni davom ettirib, butun qiyinchiliklar mardikorlarimizning xosiyatlarini, ularning urf-odatlarini bilmaganimizdan kelib chiqadi, deb isbot qilishga tirishdi, lekin pomeshchik, odamlarga qo‘shilmay, tanasiga o‘ylovchi kishilar singari, o‘zgalarning fikrini qiyinlik bilan tushunadigan, lekin o‘z bilganidan qolmaydigan kishi edi. U: «Rus mujigi to‘ng‘iz. Isqirtlikni yaxshi ko‘radi, uni bu holdan qutqazish uchun qattiqqo‘llik kerak, bunday qo‘l esa yo‘q, tayoq kerak, biz esa shu qadar liberallashib ketganmizki, ming yillardan beri hukm surib kelayotgan tayoqni birdan allaqanday advokatlar va qamoqlarga alishtirganmiz, qamoqlarda esa bu yaramas, sassiq mujiklarni mazali sho‘rva bilan boqishadi, ularga ko‘p futlab havo ajratishadi», deb gapida mahkam turib oldi.

Levin yana o‘sha masalani qo‘zg‘ab:

– Xo‘sh, nega siz ishchi kuchiga nisbatan, ishning serunum bo‘lishiga yordam beradigan munosabat o‘rnatish mumkin emas, deb o‘ylaysiz? – so‘radi.

– Rus xalqi bilan bu narsani hech mahal qilib bo‘lmaydi! Hokimiyat yo‘q, – deb javob berdi pomeshchik.

Sviyajskiy qatiq ichib bo'lgandan keyin papirosini tutatib oldi-da, yana gap talashib o'tirganlarning yoniga kelib:

– Bo'lmasa, qanday yangi sharoit topiladi? – dedi. – Ishchi kuchiga mumkin bo'lgan hamma munosabatlar aniqlanib, o'rganib chiqilgan, – dedi u. – Vahshiylik sarqitlari – bir-birini qo'llab-qo'ltiqlash asosiga qurilgan ibtidoiy jamoa tuzumi o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketyapti, krepostnoylik huquqi bitirildi, endi faqat erkin mehnatgina qoldi, erkin mehnat formalari aniqlangan, tayyor, shuni olish kifoya. Batrak, mardikor, fermachi – bu narsalardan qochib qutulolmaysizlar.

– Lekin Yevropa bu formalardan norozi-ku.

– Norozi, lekin yangi formalarni qidiriyapti. Albatta, topadi ham.

– Men ham shuni aytyapman-da, – dedi Levin. – Nima uchun biz ham qidiravermaymiz?

– Shuning uchunki, bu ham temiryo'l qurishning yangi usullarini topishday gap. Bu usullar topib qo'yilgan, tayyor.

– Bordi-yu, bizga to'g'ri kelmasa, bema'ni bo'lsa-chi? – dedi Levin.

U yana Sviyajskiyning ko'zlarida qo'rquv alomatini ko'rdi.

– Ha, qalpog'imiz bilan urib yiqitamiz, Yevropa izlab yotgan narsani biz allaqachon topganmiz, degan gap bu! Men bunaqangi gaplarni yaxshi bilaman, lekin, meni kechirasizlar, Yevropada ishchilarni joylash masalasida qilingan narsalarning hammasidan xabarlarinigiz bormi?

– Yo'q, uncha xabarimiz yo'q.

– Bu masala hozir Yevropaning eng oqil kishilarini mashg'ul qilib kelyapti. Shultse-Deliche oqimi... so'ng eng liberal Lassal oqimining ishchilar masalasiga oid had-hisobsiz chiqargan kitoblari... Milgauzen tartibi – bular bor narsalar, bularni, ehtimol, bilsalaringiz kerak.

– Xabarim bor, lekin yuzaki.

– Yo'q, shunday deysiz-da, bu narsalarni mendak yomon bilmaysiz, bunisi aniq. Albatta, men ijtimoiy fanlar professori emasman. Lekin meni qiziqtiradi, mabodo siz ham qiziqadigan bo'lsangiz, marhamat, siz ham mashg'ul bo'ling.

– Xo'sh, qanday xulosaga kelishdi ular?

– Uzr...

Pomeshchiklar qo'zg'alib qolishdi, Sviyajskiy, o'z ko'nglidagi sir-asrorni bilishga urinish kabi xunuk odati bo'lgan Levinni qoldirib, mehmonlarni kuzatgani chiqdi.

XXVIII

Levin shu kecha xonimlar huzurida juda zerikib qoldi: hozir o'z xo'jaligidan ko'nglida qo'zg'algan norozilik – yolg'iz uning boshiga tushgan narsa emas, balki Rossiyadagi umumiy ish sharoiti natijasi ekan; ishchilar qayerda ishlashmasin, u yarim yo'lda uchratgan mujik qo'lidami yo boshqa yerdami, ularning ahvollarini, ularga bo'lgan munosabatni yo'lga solish masalasi bir orzu emas, hal qilinishi zarur bo'lgan vazifa ekani to'g'risidagi fikr uni ilgari hech ko'rilmagan darajada qattiq hayajonga solmoqda edi. Levinga bu vazifani bajarish mumkinday ko'rinar, bajarish harakatiga bel bog'lar edi.

Levin xonimlar bilan xayrlashdi-da, hukumat o'rmonidagi alomat o'pqonni birga otlq borib tomosha qilish uchun ertaga kuni bilan yana shu yerda qolishga va'da bergandan so'ng yotish oldidan ishchilar masalasi to'g'risidagi kitobni (Sviyajskiy o'qib chiqishni tavsiya qilgan edi) olish uchun uy egasining kabinetiga kirdi. Sviyajskiyning kabinetini kitobli shkaflar va ikkita stol qo'yilgan kattakon xonadan iborat edi, bu stollarning biri – xona o'rtasida turgan yo'g'on, vazmin yozuv stoli, ikkinchisi esa ustidagi chiroq atrofiga har xil tillardagi gazeta va jurnallar yulduz shaklida terib qo'yilgan yumaloq stol edi. Yozuv stoli yonida g'aladonlariga tilla harflar bilan yorliq yozilgan baland javon bor, bunda turli qog'ozlar saqlanardi.

Sviyajskiy kitobni olib tebranma kursiga o'tirdi-da, yumaloq stol yonida to'xtab, jurnallarni qarab turgan Levinga:

– Nimani qarayapsiz? – deb so'radi.

– Aytmoqchi, o'sha jurnalda juda qiziq bir maqola bor, – dedi Sviyajskiy, Levin ushlab turgan jurnal to'g'risida. Keyin jonlanib, ilova qildi: – Qarang, Polshani parchalashda bosh aybdor hecham Fridrix emas ekan. Ma'lum bo'ldiki...

Shundan keyin, u o'ziga xos bo'lgan ravshan ifoda bilan bu yangi, juda muhim, juda qiziq kashfiyotni qisqacha qilib aytib berdi. Hozir Levinni hamma narsadan ham ko'proq xo'jalik to'g'risidagi fikrlar band qilganiga qaramay, xo'jayinining gaplariga quloq solib

turib, o'z-o'zidan: «Uning ichida nima bor ekan? Tavba, Polshaning parchalanganligi nima uchun uni qiziqtiradi-ya?» deb so'rardi. Sviyajskiy xikoyasini tugatganda, Levin beixtiyor undan: «Xo'sh, nima bo'пти?» deb so'rab qoldi. Hech nima bo'lmabdi. Qiziq degan narsang – faqat «ma'lum bo'ldiki»dagina ekan. Lekin Sviyajskiy bu tarixiy voqeaga nimaga qiziqqanligini uqtirib o'tirmadi, uqtirib o'tirishni lozim ham ko'rmadi.

– Ammo boyagi serjahl pomeschchik meni rosa qiziqtirdi-da, – dedi Levin tin olib. – Aqlli odam ekan, gaplarining ko'pi to'g'ri.

– Ey, qo'ysangiz-chi! Suyak-suyagiga singib ketgan krepostnoychi, hammasi ham bir qora go'r, – dedi Sviyajskiy.

– Ana shularning oqsoqoli, yo'l boshlovchisi sizensiz...

– Ha, men ularni boshqa yoqqa boshlayman, – deb Sviyajskiy kuldi.

– Meni mana shu masala juda qiziqtiradi, – dedi Levin. – U to'g'ri aytadi: biz ishimizni, ya'ni xo'jalikni ratsional yo'lda olib borolmayapmiz. Haligi muloyim mushukka o'xshagan sudxo'rlarninggina xo'jaligi rivoj topyapti. Kim aybdor bunda?

– Albatta, o'zimiz. Innaykeyin, rivoj topmayapti degan gap ham to'g'ri emas. Vasilchikovning ishi joyida.

– Zavod...

– Nimasiga hayron bo'lganingizga ajablanaman. Xalq moddiy va ma'naviy taraqqiyotning shunday past pog'onasidaki, o'ziga yot bo'lgan narsalarga qarshilik qilishi turgan gap. Yevropada ratsional xo'jalik shuning uchun rivoj topyaptiki, u yerda xalq ma'rifatli, demak, biz ham xalqni ma'rifatli qilishimiz kerak, vassalom.

– Xalqni qanday ma'rifatli qilish mumkin?

– Xalqqa ma'rifat berish uchun uchta narsa zarur: maktab, maktab, yana maktab.

– Axir, o'zingiz xalqni moddiy taraqqiyotning pastki pog'onasida turadi, deb aytdingiz. Bunday bo'lgandan keyin maktablarning qo'lidan nima keladi?

– Bilasizmi, gaplaringiz kasalga berilgan maslahat to'g'risidagi bir latifani esimga tushiradi: «Surgi ichib ko'rsangiz, qalay bo'lar ekan». – «Ichirishdi: battar bo'ldi». – «Bo'lmasa, zuluk solib ko'ring». – «Solib ko'rdik: battar bo'ldi». – «Undoq bo'lsa, Xudoga nola qiling». – «Nola qildik: battar bo'ldi». Siz bilan bizning gapi-

miz ham shunaqa bo'lyapti. Men siyosiy iqtisod desam, siz battar deysiz. Men sotsializm, desam, siz battar deysiz. Ma'rifat desam, battar deysiz.

– Ayting, axir, maktab nima qila oladi?

– Xalqda boshqa ehtiyojlar tug'diradi.

– Mana bunisiga hech tushunmayman, – deb Levin qizishib e'tiroz qildi. – Maktablar moddiy ahvollarini yaxshilashda xalqqa qanday qilib yordam bera oladi? Siz maktablar, ma'rifat xalqda yangi ehtiyojlar tug'diradi, deysiz. Bunisi ham yomon, chunki xalq bu ehtiyojlarni qondirolmaydi. Qo'shish, ayirish va din qoidalarini bilish xalqning moddiy ahvolini yaxshilashga qanday qilib yordam berishi mumkinligini hech qachon aqlimga sig'dirolmagan edim. Tunov kuni emizik bolali bir mujik ayolga duch kelib, qayerga ketayotganligini so'ragan edim: «Qushnochnikidan kelyapman, bolam yig'loqi bo'p qolgan edi, olib borib ko'rsatdim», dedi. «Qushnoch nima qilib tuzatdi?» – deb so'rasam, «Bolani tovuq qo'ndog'iga o'tqazib, allanimalar o'qidi», deb aytdi.

Sviyajskiy vaqtichog'lik bilan kulimsirab dedi:

– Ana, o'zingiz ham aytib turibsiz! Bolani qushnochga olib borib shifolantirmaslik uchun...

Levin bo'g'ilib:

– Ey, bo'lmagan gap, – dedi. – Bu xil shifolash ham, mening nazarimda, xalqni maktablar bilan shifolashday gap. Xalq kambag'al, bilimi, savodi yo'q – mujik xotin bolasining yig'lashidan kasal bo'lganligini qanday ravshan bilsa, biz ham buni shunday ravshan bilamiz. Bu kambag'allik va ma'rifatsizlik balosidan qutulishda maktabning qanday yordam berishi ham, kasal bolaga qo'ndiqning qanday yordam berishiday, tushunib bo'lmaydigan narsa. Xalqni kambag'al qilgan sabablarni yo'qotishga yordam berish kerak.

– Ana, bu fikringiz bilan, har holda, jiningiz sevmaydigan Spenserga yaqinlashib kelyapsiz, u ham, hayotda farovonlik va qulaylik ko'p bo'lsa, uning ta'biricha, tez-tez yuvinib-tozalanib turil-sagina ma'rifatga erishish mumkin, deydi, lekin o'qish, hisoblashni bilmaslik esa...

– Bo'ldi, Spenserga o'xshab qolganim uchun juda shodman, yoki, aksincha, juda xafaman, faqat bu haqiqatni men allaqachon bila-man. Maktablar yordam bermaydi, xalqning boyligini orttiradigan,

bo'sh vaqtni ko'paytiradigan iqtisodiy tadbirlargina yordam berishi mumkin.

– Lekin butun Yevropada hozir maktablarga qatnash majburiy.

– Unday bo'lsa, Spenserning bu haqdagi fikriga qo'shilasizmi?
– deb so'radi Levin.

Lekin Sviyajskiyning ko'zlarida qo'rquv alomati ko'rindi-yu, keyin kulimsirab turib:

– Yo'q, u bolaning kasali ajoyib! – dedi. – Nahotki, o'z qulog'ingiz bilan eshitdingiz-a?

Levin bu odamning hayoti bilan fikrlari o'rtasidagi bog'lanishni baribir bilolmasligiga aqli yetdi. Mulohazalarining oqibati qanday bo'lishi bilan uning ishi yo'q edi; unga faqat mulohaza jarayonining o'zigina kerak edi. Shu sababdan ham mulohazalari uni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi yoqmas edi. Sviyajskiy bu narsani yaxshi ko'rmas, shuning uchun gapni biron sho'x, yoqimli tomonga burib yuborib, undan o'zini olib qochardi.

Bugungi barcha taassurotlari, bugun yo'lda uchragan mujik o'zida qoldirgan barcha taassurotlar Levinni qattiq hayajonga solib qo'ygan, bu esa bugungi fikrlari va taassurotlari uchun turtki bo'lgan edi. Fikrini jamiyat oldida ko'z-ko'z qilish uchungina saqlab yuradigan va aftidan, Levin uchun sir bo'lgan allaqanday hayot asoslariga ega bo'lgan, ayni zamonda, bir talay odamlar bilan birlikda o'ziga yot bo'lgan fikrlar bilan afkor ommaga rahbarlik qilib kelayotgan bu dil-kash Sviyajskiy; hayotda ko'rgan qiyinchiliklari natijasida ortirgan o'z mulohazalarida tamoman haqli bo'lgan, lekin butun bir sinfga, yana Rossiyaning eng yaxshi sinfiga qarshi nohaq g'azabnok bo'lgan anavi serjahl pomeschchik; Levinning o'z faoliyatidan noroziligi va bular hammasi tuzalib ketadi, deb umidvor bo'lishi uning ko'nglida hayajon uyg'otar, hamma mushkullarning yaqin o'rtada bir yoqli bo'lishiga ishonch tug'dirar edi.

Levin o'ziga ajratilgan xonada, qo'llari, oyoqlari qimirlab ketganda o'zini qo'qqisdan irg'itib tashlaydigan prujinali karavotda yotib, uzoq vaqtgacha uxlay olmadi. Sviyajskiy anchagina ma'noli gaplar gapirgan bo'lsa ham, hech biri Levinni qiziqtirmagan edi, lekin pomeschchikning dalillari o'ylab ko'rishni talab qilardi. Levin ixtiyorsiz uning so'zlarini esladi-yu, unga bergan javoblariga xayolan tuzatishlar kirita boshladi.

«Ha, unga bunday javob berishim kerak edi: siz, xo‘jalikka kiritilayotgan yangiliklarni mujik jinidan battar ko‘radi, shuning uchun ham xo‘jaligimiz rivoj topmayapti, yangiliklarni zo‘rlik bilan kiritmasak bo‘lmaydi, deysiz, agar xo‘jalik ishlari bu yangiliklar-siz taqa-taq to‘xtab qolsa, siz u taqirda haqli bo‘lar edingiz, lekin xo‘jalik tebranib turibdi, men yarim yo‘lda ko‘rgan cholnikidagi singari, mardikor o‘zi o‘rganib qolgan usul bilan ish qilgan joylardagina tebranib turibdi. Sizlarning ham, bizlarning ham xo‘jalikdan bo‘lgan umumiy noroziligimiz ayb bizda yoki mardikorlarda ekanligidan dalolat beradi. Biz mardikorlar kuchining xossasi qanday ekanligini surishtirib o‘tirmay, kalamizni qachondan beri o‘zimizchasiga, yevropachasiga g‘ovlatib kelamiz. Ishchi kuchini ideal ishchi kuchi deb emas, o‘z instinktlari bo‘lgan rus mujigi deb qabul etaylik-da, xo‘jalikni shunga muvofiq qilib qurib ko‘raylik. Men unga, faraz qiling: sizning xo‘jaligingiz ham, cholniki singari, tebranib turibdi, mardikorlarni ishning muvaffaqiyatli chiqishiga manfaatdor qiladigan choralar topdingiz, ular tan olishi mumkin bo‘lgan yangiliklarni ham kiritdingiz, ana unda yerni oriqlatmay hosilni ilgarigidan ikki-uch baravar ortiq oladigan bo‘ldingiz; ana shu hosilni teng ikkiga bo‘ling-u, yarmini mardikorlarga bering, sizga qolgan qismi ilgarigi mahsulotingizdan ko‘p bo‘ladi, mardikorlarga tegadigan haq ham ko‘payadi, deyishim kerak edi. Bunga erishish uchun nafsni biroz tiyish va mardikorlarni xo‘jalik muvaffaqiyatiga manfaatdor qilish kerak. Bunga qanday erishish kerak, bu ikir-chikirlar ikkinchi masala, lekin erishish mumkin, bunga shubha yo‘q».

Bu fikr Levinni qattiq hayajonga soldi. Bu fikrlarni amalga oshirish yo‘llarini o‘ylab, yarim kechagacha uxlay olmadi. U ertaga jo‘nash fikrida emas edi. Lekin hozir ertaga saharlab uyga jo‘nashga qaror qildi. Bundan tashqari, ko‘ylagining ko‘kragi o‘yilgan bu qaynsinglisi ham kishi yomon ish qilib qo‘yganda seziladigan uyatga va pushaymonga o‘xshash bir his tug‘dirmoqchi edi. Ishqilib, tezroq jo‘nash kerak edi: qayroqlar ekilmay turib, ularni yangi usulda ektirish uchun darhol mujiklarga yangi loyiha taklif qilishga shoshilish kerak edi. U eski xo‘jaligini ostin-ustin qilib tashlashga ahd etgan edi.

XXIX

Levinning rejasini ro'yobga chiqarishda qiyinchiliklar ko'p edi, shunday bo'lsa ham kuchini ayamay harakat qildi va istaganiga erisholmagan bo'lsa ham, qo'lidan kelganiga erishdi, o'zini aldamadi, bu ishdan naf chiqishiga ishondi. Qiyinchiliklardan biri shundan iborat ediki, xo'jaligi tebranib turar, uni to'xtatib, hamma ishni boshidan boshlashning iloji bo'lmas, mashinaning harakatini yo'l-yo'lakay o'zgartirib borishga to'g'ri kelar edi.

O'sha oqshom uyiga qaytib kelib, rejalarini ishboshchisiga aytganda, ishboshchi uning shu mahalgacha qilinib kelgan narsalarning behudaligi va foydasizligi to'g'risidagi gapiga mamnuniyat bilan qo'shildi. Ishboshchi bu narsalarni qachonlari aytganligini, lekin gapiga quloq solmaganlarini so'zladi. Levinning hamma qarollar bilan birga butun xo'jalik ishlarida hissador bo'lib qatnashish to'g'risidagi taklifiga kelganda, u qovoq-tumshug'ini osiltirib, aniq bir fikr aytmadi, balki gapni boshqa yoqqa burib, qolgan javdari bog'larini er taga tashib qo'yish va odamlarni ko'paytirish to'g'risida gap ochdi. Bunday gap Levinning qulog'iga kirmas edi.

Levin mujiklar bilan ham shu to'g'rida gaplashib, yerni yangi shartlar bilan mujiklarga berishni taklif qilganda, u katta qiyinchilikka duch keldi – mujiklar kundalik ishlar bilan nihoyatda band bo'lganliklari uchun ularning bu tadbir foydalimi-zararlimi ekanligi to'g'risida bosh qotirib o'tirishga fursatlari yo'q edi.

Chorva mollar keltiradigan foydaga sherik bo'lish uchun oilasi bilan qatnashishni taklif qilganda, soddadil mujik Ivan bu taklifni to'la-to'kis tushunganday ko'rindi-yu, bu tadbirga darhol xayrixoh bo'ldi-qoldi. Ammo Levin kelajakda qo'lga kiritiladigan foydalarini uqtira boshlaganda, Ivanning yuzida hayajon va taassuf alomati paydo bo'lar, bu gapni oxirigacha eshitishga toqati qolmas, darhol, bironta zarur ishni bahona qila boshlardi: yo oxurga pichan tashlash uchun qo'lga ayri olar yoki suv quyishga, yo bo'lmasa, go'ng tozalashga kirishardi.

Yana bir qiyinchilik shundan iborat ediki, dehqonlar pomeshchikning maqsadi o'zlarini mumkin qadar ko'proq talashdan boshqa narsa emas deb qarashar, bunga sira ham ishonmas edilar. Ular pomeshchik nima desa ham asl maqsadi u aytgan so'zlarida emas,

balki o'zlariga aytmagan so'zlarida bo'lsa kerak, deb qattiq ishonardilar. Ularning o'zlari ham, juda ko'p gapirsalar hamki, asl maqsadlarini hech qachon ochib aytishmas edi. Bundan tashqari (Levin serjahl pomeshchikning haqligini seza boshlagan edi), dehqonlar har qanday shartnoma tuzganlarida ham, baribir o'zlarini xo'jalikning yangi usulini qo'llashga va yangi qishloq xo'jalik qurollarini ishlatishga majbur qilmasliklarini birinchi va qat'iy shart qilib qo'yardilar. Dehqonlar plugning yaxshiligiga, tez haydar mashinaning ishi serunumligiga qo'shilishardi-yu, lekin unisini ham, bunisini ham ishlatish mumkin emasligi to'g'risida minglab sabab va bahonalar topishardi, shundan keyin Levin xo'jaligining saviyasini pasaytirish zarurligiga qanoat hosil qilsa ham, foydasi yaqqol ko'rinib turgan yangiliklardan voz kechishga yuragi achishardi. Lekin bu qiyinchiliklarga qaramay, Levin murodiga yetdi, kuzga borib ishi yurishib ketdi yoki hech bo'lmaganda, unga yurishib ketganday ko'rindi.

Oldin Levin xo'jaligini boricha mujiklarga, mardikorlarga, sarkorga shirkat asosida topshirib yubormoqchi ham bo'ldi, lekin bunday qilish to'g'ri emasligini tez orada tushundi-yu, xo'jaligini taqsimlashga qaror qildi. Chorva, bog', poliz, pichanzorlar, bir necha qismga bo'lingan dalalar alohida-alohida xo'jalik tarmoqlarini tashkil qilishi kerak edi. Levinning nazarida, uning maqsadiga hammadan ko'ra yaxshiroq tushungan soddadil Ivan molboqar asosan o'z oila a'zolaridan iborat bir artel tuzib, chorva ishlariga sherik bo'ldi. Sakkiz yildan beri tashlandiq bo'lib yotgan eng olisdagi dalani aqli cho'pkor Fyodor Rezunovning yordami bilan oilali olti mujik sherikchilikka oldi, mujik Shurayev ham polizni shu shart bilan o'ziga oldi. Boshqa tomonlar eskicha qoldi, lekin bu uch tarmoq yangi tartibning boshlanganini bildirar, Levin bundan xursand bo'lardi.

To'g'ri, mol qo'rasidagi ishlar haligacha burungidan yaxshi bormas, Ivan sigirlarni issiqda saqlashga va sarmoy qilishga jon-jahdi bilan qarshi turib, sigir sovuqda kam ovqat yeydi, sarmoydan ko'ra qaymoqning o'zi tuzuk, der, eski vaqtlardagi singari oylik talab qilar, olayotgan pullarining oylik emas, oladigan foydasi hisobidan berilayotgan bo'nak ekanligi bilan hech qiziqmas edi.

To'g'ri, Fyodor Rezunov va'dasi ustidan chiqmadi, shirkati vaqtning ziqligini bahona qilib, plug bilan haydaladigan yerlarni ikki ba-

ravar orttirmadi. To‘g‘ri, bu shirkatning mujiklari yangi tartib asosida ishlashga pisanda qilishgan bo‘lishsa ham, u yerni umumiy, o‘rtadagi yer deb bilishmas, ijaraga olingan yer deb hisoblashardi, innaykeyin, bu shirkatning mujiklari, Rezunovning o‘zi ham Levinga necha marta: «Yerning chaqasini olib qo‘ya qolsangiz-u, o‘zingizga ham yaxshi bo‘lardi, bizga ham oson», dedi. Bundan tashqari, u mujiklar shu yerga chorva qo‘rasi qurish to‘g‘risida qilingan pisandani har xil bahonalar bilan paysalga solib, qishgacha cho‘zib keldilar.

To‘g‘ri, Shurayev o‘zi ijara qilgan polizlarni mujiklarga maydamayda qilib bo‘lashib bermoqchi ham bo‘ldi. U yerni qaysi shart bilan olganligini butunlay noto‘g‘ri tushungan, aftidan, jo‘rttaga shunday tushunganga o‘xshar edi.

To‘g‘ri, Levin mujiklar bilan gaplashib va yangi tartibning foydalarini ularga uqtirib turgan kezlarida, mujiklar uning tovush ohangiga quloq solishgani, har qancha sayrasang ham, baribir, tuzog‘ingga ilinmaymiz, deb o‘ylashganini sezib turardi. Levin buni mujiklarning eng aqllisi hisoblangan Rezunov bilan so‘zlashib turganda yana ham ravshan sezdi va uning ko‘zlarida Levinni mazax qilayotganini, kim aldansa ham, har holda u, ya‘ni Rezunov aldanmasligiga qattiq ishonganligini ochiq-oydin ko‘rdi.

Lekin bularga qaramay, Levin ish har holda tebranib borayotir, agar hisob-kitobni qattiqqo‘llik bilan olib borsam, o‘z talabimda qattiq tursam, kelajakda bu tartibning foydalarini ularga isbot qilib bera olaman, shunda ish o‘z-o‘zidan yurishib ketadi, deb o‘ylardi.

Bu ishlar, o‘z qo‘lida qolgan boshqa xo‘jalik ishlari, o‘z kitobi ustida kabinetda qiladigan ishlari – hammasi birgalashib Levinning qo‘lini shu qadar band qilib qo‘ydiki, u ovga ham qariyb chiqa olmay qoldi. Avgustning oxirlarida egarni qaytarib olib kelgan odamdan Oblonskiylarning Moskvaga ko‘chib ketishganini eshitdi. Levin hali-hali eslasa, uyalganidan qizarib ketadigan nazokatsizligini, Darya Aleksandrovnaning xatiga javob bermaganligini, shu bilan qanotlarini sindirib olganligini va minba‘d ularnikiga borolmasligini sezardi. Xayrlashmay ketib qolish bilan Sviyajskiya ham xuddi shunday muomala qildi. Endi ularnikiga ham hech qachon bormaydi. Endi Levin uchun bu narsalarning farqi qolmagan edi. Xo‘jaligini yangi

tartibda qurish istagi uni shu qadar qamrab olgan ediki, umrida hech narsa uni bu qadar qiziqdirmagan edi. Sviyajskiy bergan kitoblarni qayta-qayta o'qidi, o'zida yo'q kitoblarni oldirdi, shu masalaga oid siyosiy-iqtisodiy mazmundagi kitoblarni o'qib chiqdi va, kutganidek, o'zi boshlagan ishga aloqador bo'lgan hech bir fikr topolmadi. O'zini mashg'ul qilgan masalalarni hal qilish umidida zo'r harorat bilan o'rgangan siyosiy iqtisod kitoblaridan, masalan, Mille asaridan, Yevropadagi xo'jaliklardan xulosa qilib chiqarilgan qonunlarmigina topdi, lekin u Rossiyaga tatbiq qilib bo'lmaydigan bu qonunlarning nima uchun umumiy qonun ekanligiga hayron edi. Sotsialistik mazmundagi kitoblarda ham shu ahvolni ko'rdi: bu kitobdagi narsalar Levin talabalik chog'ida qiziqib kelgan, lekin tatbiq qilib bo'lmaydigan yo ajoyib fantaziyalar edi yoki Rossiyadagi ziroatchilikka hech qanday aloqasi bo'lmagan Yevropa ish usuliga kiritilgan tuzatishlar, qo'shimchalargina edi. Siyosiy iqtisod: Yevropaning boyligini taraqqiy qildirgan yoki taraqqiy qildirayotgan qonunlar umumiy va shubhasiz qonunlar xulosasidir, deydi. Sotsialistik ta'limot esa bu qonun bilan borgan taraqqiyot halokatga uchraydi, deydi. Lekin unisida ham, bunisida ham Levinning, butun rus mujiklari va ziroatchilari umumiy farovonlikka erishish yo'lida ko'proq mahsul olish uchun millionlab ishchi kuchlari va botmonlarini qanday ishga solish kerak, degan savoliga javob berish u yoqda tursin, hatto bu xususda biron ishora ham yo'q edi.

Levin bu ishga bel bog'lab kirishgandan keyin o'z masalasiga doir narsalarni qunt bilan butkul o'qib chiqdi-da, har xil masalalarda o'zida sodir bo'lib turadigan xatolar bu masalada ham takrorlanmasin degan maqsadda ishni o'z joyida o'rganish uchun kuzda chet elga jo'nashni niyat qildi. U suhbatdoshining fikrini anglab, o'z fikrini ayta boshlaganda, birdan: «Kaufman-chi, Jonschi, Dyubua-chi, Micheli-chi? Bularning asarlarini o'qiganingiz yo'q-ku. O'qib ko'ring, bu masalani ular ishlab chiqishgan», deb qolishardi.

Endi u Kaufman ham, Micheli ham o'ziga hech nima berolmasligini ravshan ko'rib turardi. U nima xohlashini o'zi bilardi. U Rossiyaning yerlari ajoyibligini, ishchilari ajoyibligini, ba'zi hollarda, masalan, yarim yo'ldagi mujikniki singari ba'zi hollarda yer ham, ishchilar ham mahsulni ko'p berishligini, mablag'ni evropachasiga sarf qilin-

gan ko‘p hollarda esa mahsul kam bo‘lishini va bu narsalar ishchilarning o‘zlariga xos bo‘lgan usul bilangina ishlashni xohlaganlari va yaxshi ishlayotganlari natijasida yuz berayotganligini, yangilikka qarshi chiqishlari tasodifiy bo‘lmay, balki xalq ruhiga asoslangan doimiy hol ekanligini ko‘rib turardi. Levin, hamma yerlar egallanib bo‘lmaguncha, bo‘sh yotgan poyonsiz yerlarning hammasini ongli ravishda ishga solmaguncha rus xalqi shu yo‘sinda ish tutadi, chunki bu usul odatda o‘ylaganlaridek, juda ham yomon emas, deb o‘ylar edi. Shuning uchun bu narsani kitobida nazariy jihatdan, xo‘jaligida esa amaliy jihatdan isbot qilishni istar edi.

XXX

Artelga berilgan yerda mol qo‘rasi qurish uchun o‘n sakkizinchi sentyabrda yog‘och keltirildi, sigir sutlaridan olingan sarmoy sotilib, foyda bo‘lib olindi. Xo‘jalik ishlari amalda a‘lo darajada borar yoki har holda Levinga shunday ko‘rinardi. Hamma ishni nazariy jihatdan asoslash va Levinning orzulariga muvofiq siyosiy iqtisodda o‘zgarish yasab, bu fanni uzil-kesil yo‘q qilib, xalqning yerga munosabati haqidagi yangi fanga asos solishi kerak bo‘lgan o‘z asarini tamomlash uchun faqat chet elga borish, bu sohada qilingan ishlarining hammasini joyida o‘rganib kelish va u yerda qilingan ishlarning hammasi behuda narsalar ekanligiga ishonarli dalillar topish kerak edi, xolos. Levin pulini olib, chet elga jo‘nab ketish uchun faqat bug‘doylarining sotilishinigina kutib turardi. Lekin yog‘ingarchilik boshlanguncha qolgan g‘alla bilan kartoshkani yig‘ishtirib olishga ulgurishmadi, hamma ishlar, hatto bug‘doy sotish ishi ham to‘xtab qoldi. Yo‘llar yurib bo‘lmaydigan darajada loy bo‘lib ketdi; ikkita tegirmonni sel oqizib ketdi, havo esa kun sayin yomonlashib bordi.

O‘ttizinchi sentyabr kuni ertalab oftob ko‘rindi, Levin havoning ochilib ketishiga ko‘z tutib, uzil-kesil yo‘l taraddudiga tushdi. Sotiladigan bug‘doyni qoplatdi-da, pul keltirish uchun ishboshchisini savdogarnikiga yuborib, o‘zi safarga jo‘nash oldidan so‘nggi topshiriqlarini berish maqsadida xo‘jaligini aylangani ketdi.

Levin hamma ishlarini saranjom qilgandan so‘ng, charm palatosining yoqasidan bo‘yniga, tizzasidan qo‘njiga quyilgan yomg‘ir suvlaridan ivib, uyga kayfi chog‘, bardam holda kechqurun qaytib

keldi. Kechga borib havo yana battar buzildi: hamma yog‘i ivib, quloqlari, kallasi qaltirab borayotgan otni mayda qor shu qadar savalay boshladiki, jonivor yoni bilan yurishga majbur bo‘ldi; lekin quloqchin kiyib olgan Levin o‘zini yaxshi his qilar, goh arava izlarida sharillab oqayotgan loyqa suvlarga, goh yalang‘och shoxlarda osilib qolgan tomchilarga, goh ko‘prik taxtalari ustida erimay qolgan qorlardan hosil bo‘lgan oq dog‘larga, goh yaydoq bujun daraxti tevaragida ko‘rpa bo‘lib yotgan yumshoq, qalin xazonlarga qarab, tevarakni vaqtichog‘lik bilan tomosha qilib borardi. Tevaragidagi tabiatning bahaybatligiga qaramay, u o‘zini juda xursand his qilardi. Olib qishloqdagi mujiklar bilan qilgan suhbatlarning yangi tartibga ko‘nika boshlaganlarini ko‘rsatgan edi. Levin yo‘lda usti-boshini quritib olish uchun bir chol qorovulnikiga tushgan edi, gapining mazmunidan Levinning rejasi unga ma‘qul tushgan ko‘rindi, shuning uchun ham qoramol sotib olish yo‘li bilan shirkatga kirish ixtiyorini bildirdi.

«Maqsadga erishish uchun og‘ishmay boraverish kerak, shunday qilsam, murodimga yetaman, – deb o‘ylardi Levin, – ishlashga, mehnat qilishga arziydigan narsalar bor. Bu mening shaxsiy ishim emas, gap umumning baxt-saodati ustida ketayotibdi. Butun xo‘jalik, asosan – butun xalqning ahvoli tubdan o‘zgarishi kerak. Kambag‘alilik o‘rniga – umumiy boylik, farovonlik, dushmanlik o‘rniga – inoqlik va manfaat birligi bo‘ladi. Gapning qisqasi – oldin o‘zimizning kichkina uyezdimizda, keyin guberniyada, Rossiyada, butun dunyoda qonsiz inqilob, lekin ulug‘ inqilob bo‘ladi. Chunki odil fikrning samarasiz bo‘lishi mumkin emas. Ha, bu shunday bir maqsadki, buning yo‘lida ishlasa arziydi. Balga qora bo‘yinbog‘ taqib borgan, Shcherbatskaya tomonidan rad qilingan, o‘z holicha chuvalchangday oyoq ostida qolgan ayanch odam men, Kostya Levin ekanligim – hech nimani dalolat qilmaydi. Franklin ham o‘zini eslaganda, o‘zini menday chuvalchang his qilib, o‘ziga menday ishonmagandir, deb o‘ylayman. Buning ahamiyati yo‘q. Uning ham o‘z Agafya Mixaylovnasi bo‘lgandir. U ham rejalarini unga aytgandir».

Levin shu xil o‘ylar bilan qosh qorayganda uyga kirib keldi.

Savdogarning oldiga ketgan sarkori bug‘doy pulidan bir qismini olib kelgan edi. Qorovul bilan shart tuzilibdi, sarkor yo‘lda kelayotib, hamma yerda g‘alla yig‘ishtirib olinmaganini ko‘ribdi, o‘zi

yig'ishtirib ololmagan bir yuz oltmish g'aram bug'doy boshqalarniki oldida hech gap emas emish.

Levin ovqatlanib bo'lgandan so'ng, odaticha, qo'lda kitob bilan kursiga o'tirdi-da, kitobni o'qib o'tirib, o'z asari munosabati bilan qiladigan safarini o'ylay ketdi. Qilayotgan ishining qanday katta ahamiyatga ega bo'lganini aniq tasavvur etdi va fikrlarning mohiyatini ifoda qiluvchi boblar aqlida o'z-o'zidan tartibga tushib bordi. «Buni yozib olish kerak, – deb o'yladi u. – Bu ilgari men luzumi yo'q deb hisoblagan qisqacha kirish so'zi bo'ladi». U yozuv stoliga borish niyatida o'rnidan turgan edi, oyoqlari yonida yotgan Laska ham kerishdi-da, yotgan yeridan turdi, qayoqqa boramiz, deganday egasiga qaradi. Lekin fikrlarini yozishning imkoni bo'lmadi, chunki ishboshilar farmoyish so'rab kelib qolishdi, Levin dahlizga, ularning oldiga chiqib ketdi.

Ertaga qilinadigan ishlar yuzasidan topshiriqlar bergandan, ish bilan kelgan hamma mujiklar ila gaplashib bo'lgandan so'ng Levin kabinetga kirib, ishlashga o'tirdi. Laska stol tagiga kelib yotdi; Agafya Mixaylovna to'qiyotgan paypog'i bilan kelib o'z o'rniga o'tirdi.

Levin ancha-muncha yozgandan so'ng, hayajon bilan Kitini, rad javobini va keyingi uchrashuvini esladi. O'rnidan turib, xonada u yoq-bu yoqqa yura boshladi.

– E, joningizni siqib nima qilasiz, – dedi Agafya Mixaylovna. – Nima, uydan oy ko'rganmisiz? Issiq suvlarga borib o'ynab-kulib kelmaysizmi?

– Hali ham indinga ketyapman, Agafya Mixaylovna. Oldin ishni tamomlash kerak.

– Iye, nima qilasiz o'zingizning joningizni qiynab! Mujiklarga qilgan shuncha in'omlaringiz ozmi! Hali ham: «Bu qilganiga xo'jayinimiz podshohdan siylov oladi», deb yurishibdi. Tavba, mujiklarning g'amini yeb nima qilasiz?

– Ularning g'amini yeyayotganim yo'q, o'zim uchun qilyapman.

Agafya Mixaylovna Levinning xo'jalik rejasini barcha ikir-chikirlari bilan bilar edi. Levin o'z fikrlarini ko'p vaqt barcha nozik tomonlari bilan unga tushuntirib berar, Agafya Mixaylovnaning gapiga qo'shilmay, u bilan ko'pincha tortishib qolar edi. Hozir esa Levinning aytgan so'zlarini butunlay boshqacha tushundi.

– Albatta, odam har narsadan ham ko‘proq u dunyoni o‘ylashi kerak, – dedi Agafya Mixaylovna xo‘rsinib. – Ana, Parfen Denisichni qarang, bekorga savodsiz bo‘lib o‘tmagan ekan, dunyodan shunday chiroyli o‘tdiki, qani endi Xudoyim hammaga shundayin o‘limni nasib qilsa, – dedi yaqindagina o‘lgan qorovul to‘g‘risida. – Izzat-ikrom, dabdaba bilan ko‘mildi, fotihaxonlik bo‘ldi.

– Men u to‘g‘rida gapirayotganim yo‘q, – dedi Levin. – O‘z foydamni ko‘zlab shunday qilyapman, dedim. Mujiklar yaxshiroq ishlashsa, menga foyda-ku.

– Ey, ming jon kuydirganingizda ham, o‘lguday dangasa bo‘lgandan keyin baribir, qornini qashishga ham erinib o‘tiraveradi. Or-nomusi bo‘lsa, ishlaydi, bo‘lmasa-chi, bez bo‘lib o‘tiraveradi.

– Qo‘ying-e, o‘zingiz, Ivan mol-chorvaga yaxshi qaraydigan bo‘lib qoldi, dedingiz-ku.

– Men boshqa gapni aytyapman, – dedi Agafya Mixaylovna o‘z fikrida izchil turib, – uylanishingiz kerak, men shuni aytyapman, aylanay! – Uning gapi bejiz emasdi.

Levinning o‘zi hozirgina o‘ylab turgan narsasini Agafya Mixaylovna yana eslatishi uni ancha xafa qilib, nafsini og‘ritdi. Levin qovoqlarini osiltirib, unga javob bermay, yana ishiga o‘tirdi-yu, bu ishning ahamiyati to‘g‘risida o‘ylagan narsalarning hammasini miyasida yana bir qur takrorlab chiqdi. O‘rtaga cho‘kkan sukunatda Agafya Mixaylovna urchuqlarining shitiriga ora-sira quloq solib o‘tirib, eslashni xohlamagan narsasini yana esladi-yu, tag‘in yuzini tirishtirdi.

Soat to‘qqizda loyga botib, chayqalib kelayotgan karetaning qo‘ng‘iroq tovushi eshitildi.

Agafya Mixaylovna o‘rnidan qo‘zg‘aldi-da, eshik tomon ketayotib:

– Ana, mehmon keldi, endi zerikmaysiz, – dedi. Lekin Levin undan oldinroq chopib chiqdi. Hozir ishi yurishmay turgan edi, shuning uchun mehmon kim bo‘lsa ham, uning kelishidan xursand bo‘ldi.

XXXI

Levin zinaning yarmigacha chopib tushdi-yu, dahlizdan o‘ziga tanish yo‘tal tovushini eshitdi; lekin o‘z oyoq dupuri orqasida uni yaxshi aniqlay olmay, xato eshitgan bo‘lsam kerak, degan umidga tushdi; keyin uzun, qotmadan kelgan tanish qomatni ko‘rdi; lekin

o'zini aldashga ortiq o'rin qolmagan bo'lsa hamki, yana zora adashayotgan bo'lsam, zora dahlizda po'stinini yechib, yo'talib turgan novcha kishi Nikolay akam bo'lmasa, deb umid qilarg edi.

Levin akasini yaxshi ko'rsa ham, lekin har doim u bilan birga turish bir azob edi. Hozir u miyasiga kelgan fikrlar va Agafya Mixaylovna tomonidan esiga tushirilgan narsalar ta'siri ostida ko'ngli alag'da, tabiati xira bo'lgani uchun akasi bilan uchrashishi unga malol kelardi. Xit bo'lgan ko'nglimni ochar, deb umid qilgan yot, xushchaqchaq, sog'lom bir mehmon o'rniga o'zining dilidagi narsalarni bilib turadigan, ko'nglida pinhon yotgan hamma fikrlarini oqizmay-tomizmay aytishga majbur etadigan akasi bilan ko'rishishi kerak, holbuki bu narsalarga tobi yo'q edi.

Levin ko'nglida uyg'ongan bu qabih his uchun o'zidan koyib, yurguranicha dahlizga kirdi. Akasini yaqindan ko'rishi bilanoq o'zida uyg'ongan taassuf hissi darhol g'oyib bo'lib, uning o'rnini akasiga achinish tuyg'usi oldi. Ozib-to'zib ketgan va kasalligi bilan ilgari dahshatli ko'ringan akasi hozir undan ham battar oriqlab, majoldan ketib qolgan edi. U teri qoplangan bir skeletga o'xshardi.

U dahlizda uzun, ozg'in bo'ynini qiltillatib turar, bo'ynidan sharfini olayotib, g'alati, ayanchli bir holda kulimsirardi. Levin bu mo'min, itoatkor jilmayishni ko'rdi-yu, tomiri tortishib, tomog'i bo'g'ilayotganligini payqadi.

Nikolay ukasining yuzidan ko'zlarini bir zum ham olmay, bo'g'iq tovush bilan:

– Mana, senikiga ham keldik, – dedi. – Qachonlari kelmoqchi edim-u, lekin kasallik qo'ymadi. Hozir tuppa-tuzukman, – u qotma, serbar kafti bilan soqolini silab qo'ydi.

– Juda soz, – deb javob qildi Levin. U o'pishayotganda, akasining tani quruqshab qolganligini lablari bilan sezib, g'alati chaqna b turgan kattakon ko'zlarini yaqindan ko'rdi-yu, besh battar dahshatga tushdi.

Levin bundan bir necha hafta ilgari akasiga xat yozib, o'rtalarida bo'linmay qolgan kichkinagina joyni sotganligini va bundan akasiga tegadigan ikki ming so'mcha pulini olishi mumkinligini xabar qilgan edi. Nikolay hozir o'sha pulni olishga, eng muhimi – uyida turib, bahodirlar singari, kelajak faoliyatiga kuch to'plash uchun kidingining qoni to'kilgan jonajon yerni tavof qilgani kelganini aytdi.

Avvalgidan bukchayib, bo'yiga nisbatan juda ham oriqlab ketganiga qaramay, harakatlari ilgariqiday ildam, chapdast edi. Levin akasini kabinetiga boshlab kirdi.

Akasi ilgari hech ko'rilman qunt bilan kiyimlarini o'zgartirdi, siyrak, yumshoq sochlarini tarab, kulimsirab yuqoriga chiqdi.

Nikolay juda muloyim, quvnoq edi, Levin bolalik chog'larida uni shu kayfiyatda ko'p ko'rardi. Nikolay hatto Sergey Ivanovichni tilga olganda ham jahli chiqmadi. Agafya Mixaylovnani ko'rganda esa, u bilan hazillashib, eski xizmatkorlarni surishtirdi. Parfen Denisichning o'lib ketgani unga yomon ta'sir qildi. Yuzida qo'rquv alomati paydo bo'ldi-yu, lekin o'zini darrov o'nqlab oldi.

– O'zi ham qarib qolgan edi-da, – dedi va darhol gapni boshqa yoqqa burib yubordi. – Shunday qilib, senikida bir oymi, ikki oymi turaman-u, tag'in Moskvaga qaytaman. Xabaring bormi, Myagkov menga bir o'rin va'da qilyapti, xizmatga kirmoqchiman. Endi tirikchiligimni butunlay boshqa yo'lga solib yuboraman, – dedi. – Xabaring bordir, u xotinni quvib yubordim.

– Marya Nikolayevnanimi? Nega, nima uchun?

– Ey, yaramas xotin! Meni ko'p xijolatda qoldirdi. – Lekin qanday xijolatda qoldirganini aytmadi. U Marya Nikolayevnani choyni suyuq damlagani, ayniqsa, o'zini kasal odamday boqqani uchun quvib yuborganligini og'zidan chiqarmadi. – Innaykeyin, hozir umuman turmushimni butunlay o'zgartirish fikridaman. Albatta, men ham, hamma odamlar singari, noma'qulchiliklar qildim, davlatimni sovurganimga (buning ahamiyati yo'q) tirnoqcha achinmayman. Ishqilib, salomatlik bo'lsa bas, salomatligim bo'lsa, Xudoga shukur, yaxshi bo'lib qoldi.

Levin akasining gaplariga quloq solar, o'zi ham bir narsa deyishni xohlar, lekin o'ylab topolmay xunob bo'lardi. Nikolay ham buni sezgan bo'lsa kerak; shuning uchun ukasidan ishlarini surishtirdi; Levin o'zi to'g'risida jon deb gaplashardi, chunki o'zini mug'ombirlikka solishga majbur emas edi. Rejalarini, qilib turgan ishlarini akasiga aytib berdi.

Akasi quloq solib o'tirgan bo'lsa ham, aftidan, qiziqmagani ko'rinib turardi.

Bu ikki inson bir-biriga shu qadar yaqin, shu qadar jondosh ediki, kichik bir harakat, ovoz ohangi so'z bilan bayon qilinishi mumkin

bo'lgan har qanday narsadan ham ko'proq ma'noni bir-biriga ma'lum qilib turardi.

Bularning har ikkalasi hozir bittagina narsa ustida o'ylar edi, u ham bo'lsa Nikolayning dardi va yaqinlashib kelayotgan o'limi edi; bu fikr boshqa hamma narsani bosib ketgan edi. Lekin bu ham, u ham bu narsa to'g'risida og'iz ochishga botinolmasdi, shuning uchun, miyalarini band qilib turgan birdan-bir narsa to'g'risida dam urmaganlari uchun, boshqa nimaiki to'g'risida gapirishmasin, hammasi yolg'on edi. Oqshom tugab, endi yotish payti kelganda, Levin hech qachon bunga shu bugundagidek quvonmagan edi. Hech bir yot kishi bilan qilgan suhbatida, hech bir rasmiy tashrifida Levin bugungidek g'ayritabiiy, soxta holatga tushmagan edi. O'zining g'ayritabiiy muomala qilayotganini sezishi va bundan pushaymon bo'lishi uni yana ham battarroq g'ayritabiiy ahvolga kiritib borardi. O'limi yaqinlashib qolgan akasining ustida yig'lagisi kelsa ham, yana uning yashashi to'g'risidagi gaplariga quloq solishga va bu gaplarni quvvatlashga majbur edi.

Uy zax bo'lgani va bittagina xonaning pechkasi yoqilgani uchun Levin akasini o'z yotoqxonasiga olib kirib, to'siq orqasiga yotqizdi.

Akasi yotdi – uxlaganmidi yo uyg'oqmidi – lekin kasal bo'lgani uchun hadeb u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilar, yo'talar, yo'tali qisib qolganda bir nimalar deb to'ng'illar edi. Goho, nafasi tiqilganda: «Voy, Xudo-yey!» deb qo'yardi. Goho balg'am bo'g'zida turib qolganda, alamiga chidayolmay: «Ha, iblis!» deb so'kinardi. Levin bu narsalarga quloq solib, uzoq vaqtgacha uxlay olmay yotdi. Levinning miyasiga turli-tuman fikrlar kelsa ham, lekin hammasi bir narsaga kelib taqalardi: ajal!

Hamma va hamma narsaning intiyesi bo'lgan ajal birinchi marta uning ko'z oldida butun dahshati bilan gavdalandi. Xuddi shu yerda, uyqusirab ingrayotgan va odati bo'yicha befarq goh Xudoga nola qilib, goh shaytonga nafrat o'qiyotgan sevikli akasining yoqasiga yopishgan ajal ilgari o'ylagandek uzoqda emas edi. Bu ajal o'zining ichiga ham kirib olgan, buni o'zi ham sezardi. Bugun bo'lmasa ertaga, ertaga bo'lmasa o'ttiz yildan keyin baribir ajal o'z ishini qiladi-ku! Bu ajalning muqarrarligini Levin bilsa-da, bu haqda o'ylamas va o'ylashga jur'at qilolmas edi.

«Men ishlayapman, allanima qilmoqchiman, holbuki hamma narsaning bir kun borib tugalishini, buning o'lim ekanligini xotirimdan chiqaribman».

Levin karavotda, qorong'ida g'ujanak bo'lib, tizzalarini quchoqlab, fikrlarining zo'ridan nafasi qisilib, jimgina o'ylab o'tirardi. Lekin u zo'r berib o'ylagan sari hayotda kichik bir haqiqatni shubhasiz nazardan qochirganligi, esdan chiqarib qo'yganligi, ya'ni ajal kelib, hamma narsaning tugalishi, shu sababli biron ishni boshlashning aslida hojati yo'q ekanligi va bunga hech narsa bilan yordam qilib bo'lmasligi ravshan bo'ldi. Ha, bu dahshatli bo'lsa ham, lekin haqiqat edi.

«Shoshma, men hali tirikman-ku. Endi nima qilay, nima qilishim kerak?» derdi u tajang bo'lib. Keyin shamni yoqdi-da, o'rnidan sekin turib, oyna yoniga borgandan so'ng yuzi bilan sochlariga qaray boshladi. Ha, chakkalariga oq oralabdi. Og'zini ochib qaradi. Jag' tishlari buzila boshlabdi. Mushaklari o'ynagan qo'llarini ochib qaradi. Ha, hali kuch ko'p. Lekin o'pkasining qolgan-qutgani bilan nafas olib yotgan anavi Nikolinkaning ham badani sog'lom-da. Shunda yoshlik chog'larida birga yotishgani, Fyodor Bogdanich eshikdan chiqib ketdi deguncha, bir-birlariga yostiqt otishib o'ynashgani, qah-qah urib kulishgani, chetlaridan toshib, ko'piklanib qaynagan baxtli hayot quvonchini Fyodor Bogdanich oldidagi qo'rquvlari ham bosishdan ojiz qolganligi birdan esiga tushib ketdi. «Mana endi g'ijillagan bo'sh ko'krag-u... o'zimning nima bo'lishimni bilmagan mengina qoldim...»

– Qha! Qha! Ax, iblis-a! Nega ivirsib yuribsan, nega uxlamaysan? – dedi akasining ovozi.

– O'zim; hayronman, uyqum kelmayapti.

– Uyqumni yaxshi oldim, terim sovibdi. Qara-chi, ko'yлагimni ushlab ko'r-chi. Ter yo'g'-a?

Levin ko'yлакni ushlab ko'rgandan so'ng to'siq orqasiga o'tib shamni o'chirdi, lekin yana uzoq vaqtgacha uxlay olmadi. Qanday yashash kerak masalasi biroz oydinlashdi deguncha, hal qilib bo'lmaydigan yangi chigal bir masala ko'z o'ngida ko'ndalang bo'lib turaveradi; ajal!

«Xayr, u o'lyapti, deylik, bahorga chiqib o'ladi ham, deylik, lekin unga qanday qilib yordam berish kerak? Nima deya olaman unga? O'lim to'g'risida nima ham bilaman? O'limning haqligi yodimdan ko'tarilgan ekan».

Levin odamlarning muteligi va itoatkorliklari kishini noqulay ahvolga tushirsa, talabchanliklari va injiqliklari haddidan oshganda esa tezda jonga tegishini ko'p vaqtlardan beri sezib yurardi. U akasi bilan ham shunday bo'lishini his etardi. Haqiqatan ham, Nikolay akasining mo'minligi uzoqqa bormadi. Kelgan kunning ertasidanoq injiqlik qilib, ukasining jig'iga tega boshladi.

Levin o'zini aybdor his qilar, lekin aybini tuzatish yo'lini bilmas edi. Agar ular o'zlarini mug'ombirlikka solmay, ko'nglidagi bor narsalarini astoydil gapirishsa, ya'ni o'zlari aniq o'ylashgan va his qilingan narsalarnigina ochiq-oydin aytishsa, u holda bir-birlarining ko'zlariga ro'y-rost qarasha olar, unda Konstantin: «Sen o'lasan, o'lasan, o'lasan!» der, Nikolay bo'lsa: «O'lishimni bilaman, lekin qo'rqaman, qo'rqaman, qo'rqaman!» der, Levin bu narsani sezib turardi. Agar ko'ngil yorib gapirishsa, bundan ortiq hech nima de-yishmagan bo'lar edi. Lekin bu xil yashab bo'lmasdi, shuning uchun Konstantin umrida hamma vaqt qilishga tirishib kelgan, lekin qilish qo'lidan kelmagan narsani va o'z kuzatishlariga ko'ra, ko'plar ustalik bilan qilib kelgan, busiz yashash mumkin bo'lmagan narsani qilishga tirishar edi: u o'ylagan narsasini gapirmaslikka tirishar, buning esa soxta chiqayotganligini akasi fahmlab qoni buzilayotganligini sezib turardi.

Uchinchi kuni Nikolay ukasini oldiga chaqirib, uni o'z rejasini aytishga yana majbur qildi, uni qoralabgina qolmay, qasddan kommunizmga qorishtira boshladi.

– Sen birovning fikrini o'g'irlagansan xolos, lekin rasvo qilgan-san, buni tatbiq qilib bo'lmaydigan narsaga tatbiq qilmoqchi bo'lasan.

– Axir, aytdim-ku, buning kommunizmga hech qanday aloqasi yo'q, deb. Ular xususiy mulk, kapital, merosning haqqoniyiligini rad qilishadi, men bo'lsam rag'batlantiruvchi bu asosiy narsani rad qilmayman (Levin bunday so'zlarni ishlatishni xushlamasa ham, lekin o'z ishiga qiziq boshlagandan beri bu xil ajnabiy so'zlarni tobora ko'p ishlatadigan bo'lib qolgan edi), men faqat mehnatni tartibga solmoqchiman.

– Ha, ana o'zingga kelding, sen birovning fikrini olgansan; sen ana shu fikrning kuchli tomonlarini qirqib tashlagansan, xolos,

endi buni yangi fikr deb isbot qilmoqchi bo'lasan, – dedi Nikolay bo'yinbog'li bo'ynini liqillatib.

– Miyamdagi fikrimning u narsalarga hech aloqasi yo'q, axir...

– Ularda, – Nikolay Levin ko'zlarini pirpiratib va kinoyaomuz kulimsirab turib gapirdi, – har nechuk, nima desam bo'ladi, ha, ularda geometrik go'zallik – ravshanlik, shubhaga o'rin qoldirmaydigan aniqlik bor. Ehtimol, bu utopiyadir. Faraz etaylik, o'tmishdagi hamma narsalardan tabula rasa¹ qilish mumkin bo'ldi, deylik: xususiy mulk yo'q, oila yo'q, lekin mehnat ravnaq topadi. Senikida esa hech nima yo'q...

– Nega aralashtirasan, men hech vaqt kommunist bo'lgan emasman.

– Men kommunist bo'lganman, shuning uchun bunga hali vaqt bor deb hisoblayman, bu ancha ma'noli narsa dastlabki asrlardagi nasroniylik singari, istiqboli bor narsa.

– Mening xayolimda, ishchi kuchiga tabiatshunoslik nuqtayi nazaridan qarash kerak, ya'ni uni o'rganish, xossalarini e'tirof qilish va...

– E, butunlay bekorchi gap bu. Bu kuch o'z taraqqiyotining pog'onasiga qarab ma'lum faoliyat shaklini topib oladi. Hamma erda qullar ham, keyin metayers-lar² ham bo'lgan; bizda ham erni teng sherikka ishlovchilar bor, ijaraga oluvchilar bor, batrak bo'lib ishlash bor, nima deb o'ylaysan?

Levin shu so'zlarni eshitdi-yu, birdan qizishib ketdi, chunki bu gaplarning haqiqatligi, kommunizm bilan xo'jalikning ma'lum formalari o'rtasida muvozanat saqlashga uringani, lekin buning bajariishi mumkin bo'lmagan bir narsa ekanini sezib, yuragiga g'ulg'ula tusha boshlagan edi.

– Men o'zim uchun ham, ishchi uchun ham unumliroq bo'lgan ish vositasini qidirayman, – deb javob berdi Levin. – Men shunday qilmoqchimanki...

– Sen hech narsa qilmoqchi emassan; faqat originallik ko'rsatmoqchisan, sen mujiklarni shunchaki ekspluatatsiya qilibgina qolmay, balki ma'lum g'oya bilan ekspluatatsiya qilayotganingni

¹ Toza taxta, ya'ni butun o'tmishni sidirib, o'chirib tashlash (*lot*).

² Ijrochilar (*ingl.*).

ko'rsatmoqchisan, sen butun umr shunday qilib kelgansan.

Levin chap betining go'shtlari lip-lip uchayotganini sezib:

– Ey, sen shunaqa deb o'ylaysan-da, bas qil bu gaplarni! – deb javob berdi.

– Senda aqida bo'lgan emas, hozir ham yo'q, sen faqat o'z nafsingni qondirsang bas.

– Yaxshi bo'пти, qo'y meni o'z holimga, bas qil!

– Bas qildim! Allaqachon bas qilishim kerak edi, saxting qursin! Ahmoq bo'lmasam, sening oldingga kelarmidim!

Levin keyin akasini har qancha yupatishga tirishsa ham bo'lmadi, Nikolay ukasining gaplarini eshitgisi kelmay, ajrashib ketganimiz yaxshi, deb turib oldi; Konstantin akasining hayotdan bezganini ang'ladi.

Nikolay endi jo'nab ketmoqchi bo'lib turganda Konstantin yana kirib, sertakalluflik bilan agar xafa qilgan bo'lsa, kechirishini so'radi.

– A, olijanoblik! – dedi Nikolay, kulimsirab. – Agar haqli bo'lib chiqishni xohlayotgan bo'lsang, seni xursand qilishim mumkin. Sen haqlisan, lekin men har holda jo'nab ketaman!

Nikolay jo'nash oldida Konstantin bilan o'pishib, unga birdan g'alati qilib jiddiy qaradi-yu:

– Ishqilib, meni yomon ot bilan eslama, Kostya! – dedi. Ovozi titrab ketdi.

Chin qalbdan aytilgan birdan-bir so'zlar shular edi. Levin bu so'zlarning tagida: «Ahvolimning yomonligini ko'rib, bilib turibsan; kim biladi, endi ko'rishmasimiz ham», degan ma'nolar borligini tushundi. Levin shunday tushundi-yu, ko'zlariga tirqirab yosh keldi. Akasini yana bir marta o'pdi, ammo hech nima deyoilmadi, nima deyishni ham bilmas edi.

Akasidan uch kun so'ng Levin ham chet elga jo'nab ketdi. Temir yo'lda Kitining amakivachchasi Shcherbatskiy bilan uchrashib, Levin uni o'zining xafagazakligi bilan hayron qoldirdi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radi Shcherbatskiy.

– Shunday, dunyoda odam xursand bo'ladigan narsalar ko'p deysizmi?!

– Nega ko'p bo'lmasin? Yuring men bilan Parijga, Myuluza degan odamning o'rniga olib ketaman. Xursandchilikni ana u yerda ko'rasiz!

– Yo‘q, men sob bo‘ldim. Ajalimni kutib turibman.

– Ana xolos! – dedi kulib Shcherbatskiy. – Men endi yashashni boshlamoqchiman-ku.

– Men ham yaqinda shunday deb o‘ylab yurardim, endi o‘lar kunim yaqinlashib qolganini sezib turibman.

Levin chindan ham shu so‘nggi vaqtlarda miyasiga kelgan fikrlarni aytdi. Hamma narsani ko‘rganda ajalni eslar yoki unga yaqinlashib borayotganligini payqardi. Shunday bo‘lsa ham boshlagan ishi miyasini band qilgan edi. Ajal kelmay turib, biron narsa bilan mashg‘ul bo‘lish kerak-da. Zulmat ko‘z oldidagi hamma narsani to‘siq qo‘ydi; lekin bu zulmatda unga rahnamolik qiluvchi najot yulduzi – boshlagan ishi edi, shuning uchun bu ishga bor kuchi bilan yopishib olgan edi.





TO'RTINCHI QISM

I

Er-u xotin Kareninlar hamon bir uyda yashab, har kun ko'rishib turishsa ham, lekin bir-birlariga tamoman yot-begona edilar. Aleksey Aleksandrovich xizmatkorlar har xil narsalarni taxmin qilib yurishmasin degan niyatda har kun xotini bilan ko'rishishni o'ziga bir odat qilib qo'ydi-yu, lekin tushlik ovqatni uyda qilishdan qochib yurdi. Vronskiy Aleksey Aleksandrovichning uyiga butunlay oyoq bosmay qo'ydi, ammo Anna uni uyidan tashqarida ko'rib turar, eri esa sezib yurar edi.

Uchalasining ahvoli ham azob ichida qoldi, agar bu ahvolning faqat o'tkinchi bir qiyinchilikkina ekaniga, ertami-kech tuzalib ketishiga umidvor bo'lishmasa, ulardan bittasi ham bu og'ir ahvolga bir kun bo'lsin chiday olmas, bunga qurbi yetmas edi. Aleksey Aleksandrovich, hamma narsa o'tib ketganidek, bu ehtirosning ham o'tib ketishini, bu mojaro hammaning esidan chiqishini va o'z nomi yana dog'siz, isnodsiz bo'lib qolishini kutib yurardi. Bu mojaroning sababchisi bo'lgan Anna hammadan ham ko'proq azob chekar, bu ahvolning tezda bir yoqli bo'lishini kutar va bunga qattiq ishongani uchun ham chidab kelardi. Bu ahvolni bir yoqli qiladigan narsa nima ekanini qat'iyon bilmasa ham, lekin u bu narsa tezda ro'y berishiga qattiq ishonar edi. Vronskiy ham beixtiyor Annaga bo'ysunib, o'ziga bog'liq bo'lmagan, lekin mushkulini oson qiladigan allanimani kutib yurardi.

Qish o'rtalarida Vronskiy bir hafta juda yomon siqilib qoldi. Uni Peterburgga kelgan bir chet el shahzodasiga qo'shib qo'yishdi, Vronskiy unga Peterburgning tomoshabop joylarini ko'rsatishi kerak edi. Vronskiy salobatli zobitlardan edi; bundan tashqari, u o'zini viqor bilan tutar, izzatini qo'ldan bermasdi, chunki u bu xil shaxslar bilan muomala qilish mahoratiga ega edi; shuning uchun ham uni

shahzodaga qo‘shib qo‘yishgan edi. Lekin bu vazifa Vronskiyga juda og‘ir tuyuldi. Shahzoda uyiga qaytganda: «Rossiyadagi falon narsani ko‘rdingmi?» deb so‘rab qolishi mumkin bo‘lgan narsalarning bittasini ham ko‘zdan qochirmaslikka tirishardi; bundan tashqari, uning o‘zi ham iloji boricha ruslarday kayf-safo surib maza qilish niyatida edi. Vronskiy bu va boshqa to‘g‘rilarda unga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lishga majbur edi. Ular har kuni erta bilan tomoshabop joylarni ko‘rishar, kechqurunlari esa ruslarga xos kayf-safo joylarga borishardi. Shahzoda hatto shahzodalar orasida ham kam uchraydigan bir salomatlikka ega edi; ham gimnastika qilish, ham badantarbiya orqasida o‘zini shu darajaga yetkazgan ediki, kayf-safolarga haddan tashqari berilganiga qaramay, mosh yegan xo‘rozday qip-qizil edi. Shahzoda sayohatga ko‘p chiqar, yo‘l vositalarining hozirgiday yengil bo‘lishi har xil millatlarning kayf-safolarini tatib ko‘rishga imkon beradi, deb hisoblardi. Ispaniyada bo‘lgan, u yerda oshiqalar ashulasini aytib, mandolina chaluvchi bir ispan qiz bilan yaqinlashgan, Shveysariyada bir gemzani o‘ldirgan; Angliyada qizil frak kiyib olib, otini devorlardan oshirib choptirgan va garov o‘ynashib ikki yuzta qirg‘ovulni otgan. Turkiyada sulton haramiga kirgan, Hindistonda fil minib yurgan, mana endi Rossiyada ruslarga xos kayf-safolarning hammasidan tatib ko‘rmoqchi bo‘lib yuribdi.

Har xil shaxslar tomonidan shahzodaga taklif qilingan ruslarga xos kayf-safolardan qaysi birini tanlash shahzoda yonida bosh udaychi vazifasini o‘tagan Vronskiy uchun ko‘p qiyinchilik tug‘dirardi. Bu xil ko‘ngil ochishlar orasida yo‘rtoq otlarda kezish ham, chalpak yeyish ham, ayiq ovlash ham, uch otlik chanalarda kezish ham, lo‘lilar o‘yinini tomosha qilish ham, ruschasiga idish-oyoq sindirib qilinadigan to‘polonlar ham bor edi. Shahzoda ham hademay rus odatlariga juda osonlik bilan ko‘nikib ketdi: patnisdagi idishlarni sindiradigan, lo‘li qizlarni tizzasiga o‘tqazadigan bo‘ldi; ana shu narsalardan keyin ham: «Yana nima bor, yo rus odatlari faqat shularning o‘ziginami?» deb so‘rayotgandek ko‘rinardi.

Mohiyat e‘tibori bilan shahzodaga barcha ruslarga xos kayf-safolar ichida fransuz aktrisalari, balet raqqosasi va oq tamg‘a shampan vinosi ko‘proq yoqardi. Vronskiy shahzodalarga o‘rganib qolgan edi, lekin keyingi vaqtlarda o‘zi o‘zgarib qolganidanmi yoki bu shahzoda bilan haddan tashqari inoqlashib ketganidanmi, har nechuk, bu hafta unga

juda og'ir ko'rinib ketdi. Xavfli jinniga qarab turish uchun belgilangan, ham jinnidan, ham u bilan birga yurgani uchun o'z miyasining aynib qolishidan qo'rqqan kishi qanday narsani his etsa, Vronskiy ham shu hafta davomida doim o'zini shunday his etdi. Vronskiy, o'zining nafsoniyatini xo'rlatmaslik uchun, qat'iy rasmiyatga rioya qilib hurmat saqlash zarurligini ham ko'zidan qochirmadi. Shahzodaga ruslarga xos ko'ngil ochish joylarini ko'rsatish uchun jonlarini jabborga berib, Vronskiyini hayratga solgan shaxslarga shahzoda nafratomuz muomalada bo'lar edi. Shahzodaning maishat qilib ko'rgisi kelgan rus ayollari to'g'risidagi mulohazalari Vronskiyini nafratlantirib, necha bor qizartirdi. Shahzodani Vronskiyga juda ham badhazm qilgan asosiy sabab shu ediki, Vronskiy shahzodaga qarab beixtiyor o'zini ko'rardi. Bu oynada ko'rgan narsalari esa Vronskiyini xursand qilmasdi. Bu g'oyat nodon, g'oyat xudpisand, lekin g'oyat sog'lom, g'oyat pokiza odam edi xolos, bundan ortiq emasdi, u jentlmen edi – bunisi to'g'ri, Vronskiy buni inkor qilolmasdi. U olimaqomlarga yaltoqlik qilmas, o'zini bir xil tutar, tengdoshlari bilan erkin va soddagina muomalala bo'lar, o'zidan pastlarga nafratangiz bir mehribonlik ko'rsatardi. Vronskiyning o'zi ham shunday edi, shu sababli buni kattakon fazilat deb hisoblardi; lekin shahzodaga nisbatan o'zi past martabali odam hisoblanar, shuning uchun o'ziga qilingan nafratangiz bir mehribonlik bilan muomala qilishidan g'azabga kelardi.

«Tentak buzoq! Nahotki, men ham shundayman-a?» deb o'ylardi Vronskiy.

Shahzoda haftaning ettinchi kuni Moskvaga jo'nash oldidan unga tashakkur bildirib, xayrlashib ketdi; ana shunda Vronskiy bu noqulay ahvoldan va yoqimsiz oynadan qutulgani uchun terisiga sig'may quvondi.

U ayiq ovida tuni bilan ruslarga xos mard-maydonlikni ko'rib qaytdi-da, stansiyada shahzoda bilan xayrlashdi.

II

Vronskiy uyga kelib, Anna yuborgan bir parcha xatni oldi. Anna: «Betobman, juda siqilib ketdim. Chiqishga ilojim yo'q, sizni ko'rishga juda mushtaq bo'ldim. Kechqurun keling. Soat yettida Aleksey Aleksandrovich qo'mitaga ketib, soat o'ngacha o'sha yerda

bo'ladil», deb yozgan edi. U yerining, Vronskiyning uyda qabul etma, deb talab qilganiga qaramay, Anna uyga chaqirayotganligiga hayron bo'lib, bir daqiqacha o'ylanib turgandan so'ng, borishga qaror qildi.

Vronskiy shu yil polkovnik darajasiga ko'tarilgandan so'ng polkdan chiqib, o'zi yolg'iz tura boshlagan edi. Nonushta qildi-yu, darhol divanga cho'zildi, so'nggi kunlarda ko'rgan ko'p xunuk narsalarni besh daqiqa xotirladi, Anna hamda ayiq ovida muhim rol o'ynagan ovchi mujik to'g'risidagi xayollari bir-biri bilan qorishib ketdi; shundan keyin Vronskiyning uyqu bosdi. Qorong'ida vahm bilan uyg'ondi-yu, apil-tapil shamni yoqdi. «Nima edi? Tushimda qanaqa vahimali narsani ko'rdim-a? Ha, ha. O'zi kichkina, hamma yog'i kir, soqoli paxmaygan ovchi mujik, chamamda, egilib turib, bir nima qilayotgan edi, shekilli, birdan fransuzchalab allaqanday so'zlarni aytdi. Ha, tushimga boshqa narsa kirgani yo'q, – dedi u o'ziga. – Nega bundan qo'rqib ketdim-a?» U o'sha mujikni va bu mujik aytgan g'alati fransuzcha so'zlarni yana bir marta xayoliga keltirdi-yu, dahshatga tushib, muzdek terga botdi.

Vronskiy: «Bu qanday bema'nilik!» deb o'yladi-da, soatiga qaradi.

Soat sakkiz yarim bo'lib qolgan edi. Qo'ng'iroq chalib xizmatkorni chaqirdi-da, apil-tapil kiyinib, ko'cha eshigiga chiqdi; endi tushi esidan chiqqan, kechikkani uchun bo'g'ila boshlagan edi. Kareninlarning eshigiga yetganda yana soatiga qaradi: soat o'nta kam to'qqiz edi. Eshik oldida ikkita bo'z ot qo'shilgan baland, kambar bir kareta turardi. Annaning karetasini Vronskiy darhol tanidi. «Mening oldimga bormoqchi ekan, – deb o'yladi Vronskiy, – borsa yaxshi bo'lardi. Bu uyga kirishga hech yuragim betlamaydi. Baribir yashirinib yurolmayman-ku», dedi-yu, o'ziga bolalik choqlaridan uyalish-tortinish degan narsalarni yig'ishtirib qo'ygan bir kishidek chanadan tushib, eshik oldiga keldi. Eshik ochildi-yu, darbon qo'lidagi jun ro'mol bilan karetni imlab chaqirdi. Mayda-chuyda narsalarga e'tibor berishga odatlanmagan Vronskiy darbonning o'ziga ajablanib qaraganini payqadi. Vronskiy xuddi eshik og'zida Aleksey Aleksandrovichga duch kelib qoldi. Gaz chiroq qora shlapa ostidagi qonsiz, so'lg'in yuzni va paltosining yoqasi tagida yarqirab turgan oq bo'yinbog'ni yoritib ko'rsatdi. Karenin nursizlangan,

qotib qolgan ko‘zlarini Vronskiyning yuziga tikdi. Vronskiy bosh egib ta‘zim qildi, Aleksey Aleksandrovich esa bir tamshanib olgandan so‘ng qo‘lini shlapasi yoniga keltirdi-yu, o‘tib ketdi. Vronskiy uning orqasiga qaramay to‘g‘ri borib karetaga o‘tirganini, issiq ro‘mol bilan durbinini derazadan olib, keyin g‘oyib bo‘lganini ko‘rdi. Vronskiy dahlizga kirdi. Qoshlari chimirilgan, ko‘zlari g‘azab va g‘urur o‘ti bilan chaq nab turgan edi.

«Manavi ahvolni qarang, – deb o‘yladi u. – Agar u kurashsa, o‘z sha‘nini himoya qilsa, u holda mening harakat qilishim, g‘azabimni ko‘rsatishim mumkin bo‘lardi; lekin bu zaiflik yoki pastkashlik... U meni aldamchi kishi ahvoriga tushirib qo‘yyapti, holbuki, men unday bo‘lishni xohlagan ham emasman, xohlamayman ham».

Vrede bog‘ida Anna bilan so‘zlashgandan buyon Vronskiyning fikri anchagina o‘zgargan edi. Anna o‘zini butunlay Vronskiyga taslim qilib, undan faqat o‘z taqdirining hal qilinishinigina kutib yurar, Vronskiy esa Annaning bu irodasizligiga ixtiyorsiz bo‘ysunib, taqdirga tan beradigan bo‘ldi-yu, o‘sha kezlarda o‘ylaganidek, bu aloqaning bir kun emas, bir kun uzilishi mumkinligini xayoliga keltirmay qo‘ydi. Shuhratparastlik rejalari yana orqaga chekindi, shundan keyin, hamma narsa aniq-ravshan bo‘lgan faoliyat doirasidan o‘zini chetga chiqqan his etib, butunlay his-tuyg‘ularga taslim bo‘ldi, bu his-tuyg‘ular esa uni Annaga tobora mahkamroq bog‘lab qo‘ydi.

U Annaning uzoqlashib borayotgan odimlarini dahlizdan turib eshitdi. Anna o‘zini kutganligini, quloq solib turganligini, endi mehmonxonaga qaytib ketayotganligini angladi.

Anna uni ko‘rgan soati:

– Yo‘q! – deb qichqirib yubordi, ovozi chiqishi bilan ko‘zlariga yosh keldi, – yo‘q, agar bu ahvol yana shunday davom etsa, u narsa ancha tez, ancha tez sodir bo‘ladi!

– Nima gap, do‘stim?

– Nima gap? Kutib ko‘zlarim to‘rt bo‘ldi, qiynalдим, bir soat kutdim, ikki soat... yo‘q, to‘g‘ri kelmaydi!.. Sen bilan urisha olmayman. Bilaman, ilojing bo‘lmagan. Yo‘q, urisha olmayman!

Anna ikkala qo‘lini uning yelkasiga qo‘ydi-da, chuqur, shod, ayni zamonda sinovchan bir nazar bilan unga uzoq tikilib turdi. Ko‘rishmagandan buyon yuzida bo‘lgan o‘zgarishlarni tekshirmoqda

edi. Anna, har gal ko‘rishgandagi singari, uning to‘g‘risidagi tasavvurini (haqiqatdagidan qiyos qilib bo‘lmaydigan darajada yaxshiroq tasavvurini) Vronskiyning o‘zi bilan birlashtirish harakatida edi.

III

Chiroq tagidagi stol yoniga o‘tirishgandan so‘ng:

– Unga duch kep qoldingmi? – deb so‘radi Anna. – Kechikib qolganingning jazosi shu.

– Duch kep qoldim, lekin qanday gap? Qo‘mitada bo‘lishi kerak edi-ku!

– Bordiyam, keldiyam, yana allaqayoqqa jo‘nab ketdi. Mayli. Bu haqda gapirma. Qayerlarda yurding? Haligacha shahzoda bilan-misan?

Anna Vronskiyning hayotini butun ikir-chikirlarigacha bilardi. Vronskiy kechasi bilan uxlamaganini, keyin uyida uxlab qolganligini aytmoqchi bo‘ldi-yu, lekin Annaning bir yoqdan xavotirlanib, bir yoqdan quvonib turgan yuzini ko‘rib, aytishga tortindi. Shuning uchun, shahzodaning ketgani to‘g‘risida hisob bergani borishimiz zarur edi, deb qo‘ya qoldi.

– Endi ishlaring bitdimi? Jo‘nab ketdimi?

– Xudoga shukur, bitdi. Bu ishdan jonim halqumimga kelganini aytsam ishonmaysan.

– Nega endi? Axir, bu sizlardaqa yosh erkaklarga juda ham xush keladigan hayot-ku, – dedi Anna qoshlarini chimirib; keyin stoldan o‘qiyotgan narsasini oldi-yu, Vronskiyga qaramasdan, ilgagini sug‘urib oldi.

Vronskiy uning yuzida paydo bo‘lgan o‘zgarishga hayron qoldi, buning sirini bilishga tirishib:

– Unday hayotdan allaqachon qo‘l siltaganman, – dedi. Keyin, zich tishlarining oqini ko‘rsatib kulimsiradi-da, yana gapirdi: – Iqror bo‘lishim kerak, shu hafta yana o‘sha hayotni ko‘rib, xuddi oynaga qaraganday bo‘ldim, ta‘bim rosa xira bo‘ldi.

Anna ishini qo‘lda ushlab o‘tirgan bo‘lsa ham, lekin unga qo‘l urmay, kek to‘la g‘alati bir nazar bilan Vronskiyga qarab turardi.

– Bugun ertalab Liza keldi, Lidiya Ivanovnaga parvo qilmay, hali ham menikiga kelishdan qo‘rqmaydi, deb gap qotdi, sizlarning «Afina»da o‘tkazgan kechalaringizni aytib berdi. Qanday razolat!

– Men hozirgina aytmoqchi bo‘lib turib edim...

Anna so‘zini kesib qo‘ydi.

– Ilgarigi jazmaning Therese ham bor ekan-a?

– Men aytmoqchi edim...

– Qanday razilsizlar siz erkaklar! Xotinlar bunday narsalarni eslaridan chiqara olmasliklarini nechuk bilmaysizlar-a? – deyardi Anna, tobora qizishib va shu bilan nima uchun jahli chiqqanini bildirib qo‘yib. – Ayniqsa, sening hayotingdan boxabar bo‘la olmagan xotin buni hecham esidan chiqarolmaydi. Sen to‘g‘ringda men nima bilaman? Nima bilardim? – deya gapira ketdi u. – Faqat o‘zing aytgan narsalarnigina bilaman, xolos. To‘g‘ri aytganmisan-yo‘qmi, men qayerdan bilaman...

– Anna! Meni haqorat qilyapsan. Nahotki, menga ishonmasang? Ichimda sendan yashiradigan bironta sirim yo‘q, ajabo, senga buni aytmaganmidim?

– Aytgansan, aytgansan, – dedi Anna, aftidan, rashkini keltirayotgan fikrlarini o‘zidan quvmoqchi bo‘lib, – ishonaman senga... ha, nima deyayotgan eding?

Lekin Vronskiy nima demoqchi bo‘lganligini darhol esiga tushirolmadi. So‘nggi vaqtlarda Annada tez-tez bo‘lib turgan bu rashk jazavasi uni dahshatga solar, buni yashirishga har qancha tirishsa ham, bu rashkning boisi o‘ziga bo‘lgan muhabbat ekanligini bilsa ham, baribir ko‘nglini Annadan sovutib borardi. «Annaning muhabbati men uchun bir baxt», deb necha bor aytgandi o‘ziga; muhabbati hayotining barcha huzur-halovatidan ustun chiqqan bir xotin qanday seva olsa, Anna ham uni shunday sevardi; bunga qaramay, u hozir o‘zini Annaga ergashib Moskvadan jo‘nagan vaqtidagi baxtidan juda-juda uzoqda his qilardi. To‘g‘ri, u vaqtlar Vronskiy o‘zini baxtli deb hisoblamasa ham, lekin baxt oldinda edi; hozir esa eng yaxshi baxt orqada qolib ketganligini his qila boshladi. Birinchi ko‘rganda Anna butunlay boshqacha edi. Hozir esa ham ma‘naviy, ham jismoniy tomondan o‘zgarib, yomonroq bo‘lib qoldi. Tarvaqaylab ketdi, boya aktrisa to‘g‘risida gapirib turganda, yuzida chehrasini buzib turgan g‘azab alomati bor edi. U chiroyli bo‘lgani uchun, husni tufayli uzib barbod qilgan guli so‘lgandan so‘ng, bu so‘lib yotgan gulga qarab avvalgi husnini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a taniyolgan kishiday, Annaga qarar edi. O‘sha paytda, ya‘ni muhabbati kuchliroq bo‘lgan



kunlarda, agar jonidan istasa, qalbidan muhabbatini yulib tashlash mumkinligini his qilgan bo'lsa, hozir, nazarida, Annaga muhabbat his etmagan shu damda o'rtalaridagi aloqa ipining uzilishi mumkin emasligini bilib turardi.

– Qani, qani shahzoda to'g'risida nima demoqchi eding menga? Haydab yubordim, haydab yubordim iblisni, – dedi Anna. Ular rashk-ni iblis deb atardilar. – Ha, shahzoda to'g'risida qanday gap ochib eding? Nima uchun u bilan birga yurishdan qiynalding?

– Ah, bosh og'riq! – dedi u, fikr kalavasining uchini topishga tirishib. – U bilan yaqindan tanishsang – ixlosing qaytadi. Aniq-roq tavsif qilganda, juda yaxshi boqilgan hayvonning o'zi; bunday hayvonlar ko'rgazmada birinchi darajali mukofot olishadi, boshqa hech narsa emas, – dedi Vronskiy afsuslanganday. Uning afsuslanib gapirishi Annani qiziqitirdi, u e'tiroz qilib:

– Yo'g'-e, nega endi? Har holda, ko'p narsani ko'rgan kishi, o'qigan, ma'rifatli kishidir.

– Bu tamoman boshqa ilm – ularning ilmi. U ilmdan nafratlanish huquqiga ega bo'lish uchungina ilm olgan ko'rinadi; chunki ular hayvoniy kayf-safodan boshqa hamma narsadan nafratlanishadi.

– Ey, sizlarning hammalaring ham ana shunaqa hayvoniy kayf-safoni yaxshi ko'rasizlar, – dedi Anna; Vronskiy uning ko'zlarida boyadan beri o'zidan yashirinib turgan xunuk qarashni ko'rdi.

– Nega uni hadeb himoya qilasan-a? – dedi Vronskiy kulimsirab.

– Himoya qilayotganim yo'q, men uchun farqi yo'q; lekin o'zing shunday kayf-safolarni yaxshi ko'rmaganingda, borishga unamagan bo'lar eding, deb o'ylayman. Sen bo'lsa Terezani Momo Havo kiyimida ko'rishdan zavqlanasan...

Vronskiy Annaning stolga qo'ygan qo'lini oldi-da, o'pib turib:

– Yana keldi, yana iblis keldi! – dedi.

– Nima ilojim bor! Seni kuta-kuta ko'zlarim to'rt bo'lganini bilmaysan-da! Men o'zimni rashkchi deb o'ylamayman. Men rashkchi emasman; shu yerda, qoshimda ekaningda senga ishonaman; lekin men uchun sir bo'lgan hayotingni allaqaylarda yolg'iz o'tkazib yurganingda-chi...

Anna undan o'zini tortdi-da, sanchig'ini nihoyat to'qib turgan to'ridan chiqardi; shundan keyin chiroqda yarqirab turgan oq yung ip ilgaklari ko'rsatkich barmog'ining yordami bilan bir-bir ketin tez-

tez o'ralib bordi; kashtali eng ichidan chiqib turgan nozik qo'llar asabiylik bilan tez-tez qimirlay boshladi.

– Xo'sh, Aleksey Aleksandrovichni qayerda uchratding? – birdan Annaning ovozi g'ayritabiiy bir ohangda jarangladi.

– Eshik og'zida to'qnash keldik.

– Senga ta'zim ham qildimi?

Anna yuzini cho'zdi, ko'zlarini chala yumib, yuz ifodasini tez o'zgartirdi, qo'llarini qovushtirdi, shunda Vronskiy uning chiroyli yuzida Aleksey Aleksandrovich ta'zim qilganda chehrasida paydo bo'lgan ifodaning ayni o'zini ko'rdi. Vronskiy kulimsiradi, Anna esa o'zini latofatli ko'rsatgan chiroyli, dilbar kulgisi bilan qah-qah urib kulib yubordi.

– Unga hech tushunolmayman, – dedi Vronskiy. – Chorbog'da hamma gapni ochiq aytganingdan keyin sen bilan aloqasini uzgan bo'lsa, meni duelga chaqirgan bo'lsaydi... lekin bu qilig'iga hech tushunmayman: bu ahvolga qanday qilib chidaydi, a? Azob cheksa kerak, ko'rinib turibdi.

– Umi? – istehzo bilan so'radi Anna. – Ey, u juda mamnun.

– Nega o'zimizni o'zimiz qiynaymiz-a? Busiz ham ishni o'nglab yuborsak bo'ladi-ku!

– Lekin u o'zini qiynamaydi. Nima, men uni badan-badaniga yolg'onchilik singib ketganini bilmaymanmi?.. Bir baloni seza bila turib, u men bilan yashaganday yashab bo'ladimi? U hech narsani tushunmaydi, sezmaydi. Sevgisi bor odam jinoyatkor xotini bilan bir uyda tura oladimi? Shunday xotin bilan gaplashib bo'ladimi? Yana senlab, a?

Anna yana uni beixtiyor taqlid qildi: «sen, ma chere, sen, Anna!»

– U erkak emas, inson emas, qo'g'irchoq! Hech kim buni bilmaydi, lekin men bilaman. Agar uning o'rnida men bo'lsam-u, xotinim menga o'xshasa, uni allaqachon o'ldirib, tilka-pora qilib tashlardim, men undaqa: «sen, ma chere, Anna», deb o'tirmas edim. U odam emas, vazirlikning mashinasi. Mening senga xotinligimni, o'zi esa begona, ortiqcha ekanligini tushunmaydi... Qo'y, uni og'zimizga olmaylik, olmaylik!..

Vronskiy uni tinchlantirishga tirishib:

– Nohaq gapiryapsan, nohaq, do'stim, – dedi. – Mayli, shunday bo'lsa ham, uning orqasidan gaplashmaylik. Qani ayt-chi, nima qilding? Nima bo'ldi senga? Nima kasal bo'lding, do'xtir nima deydi?

Anna unga istehzoli bir quvonch bilan qarab turardi. Aftidan, erining yana kulgili va kelishmagan qiliqlarini topgan bo'lsa kerak, shularni so'zlash paytini poylab turgandek ko'rinardi.

Lekin Vronskiy so'zini davom qildirdi:

– Nazarimda, kasallik emas, ikkiqatliging bo'lsa kerak. Qachon ko'z yorasan?

Annaning ko'zlaridagi istehzo o'ti o'chdi, lekin avvalgi ifoda o'rnini boshqa bir tabassum oldi; bu tabassum Vronskiyga noma'lum bo'lgan allanarsani bilgan va ich-ichidan hasrat chekayotganini bildirib turgan tabassum edi.

– Oy-kunim yaqin. Sen ahvolimizning og'irligini, tezroq bir yoqli qilish kerakligini aytding. Koshki edi bu ahvolning men uchun naqadar og'irligini, senga bo'lgan muhabbatim bilan bemalol, bexavotir yashash uchun jon fido qilishga tayyor ekanligimni bilsang! Unda o'zim ham qiynalmasdim, seni ham rashklarim bilan qiynamasdim... yaqinda shunday bo'ladi. Lekin biz o'ylaganimizcha bo'lmaydi.

Yaqinda nima bo'lishi miyasiga kelganda, Annaning o'ziga shunday rahmi kelib ketdiki, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi, so'zini ortiq davom qilolmadi. Chiroqda uzuklari yarqirayotgan oppoq qo'lini Vronskiyning yengi ustiga qo'ydi.

– Bu narsa biz o'ylagandek bo'lmaydi. Men buni aytmoqchi emas edim-u, lekin qo'ymading. Tezda, tezda hamma narsa ochti bo'ladi. Ana undan keyin hammamiz ham azobdan qutulib, tinchib ketamiz.

Vronskiy uning gaplariga tushunib tursa ham, yana:

– Gaplaringga tushuna olmayapman, – dedi.

– Qachon ko'z yorishimni so'rading-a? Yaqinda. Lekin men sob bo'laman. Gapimni bo'lma! – Anna gaplarini gapirib olishga shoshilardi. – Buni yaxshi bilaman, bilganimda ham, juda aniq bilaman. Men o'laman, o'lishimga xursandman, o'zimni ham, sizlarni ham azobdan qutqazaman.

Annaning ko'zlaridan duvillab yosh oqa boshladi; Vronskiy uning qo'li ustiga engashdi-da, hech qanday asossizligini bilsa ham, lekin bosishga qurbi yetmagan hayajonini yashirishga tirishib, qo'lini o'pa boshladi.

– Shunday bo'ladi, shunday bo'lsa yaxshiroq bo'ladi, – derdi Anna, uning qo'lini qattiq bosib. – Biz uchun shu birgina narsa qoldi xolos.

Vronskiy o'ziga kelib, boshini ko'tardi.

– Bu qanday bema'ni gap! Bo'lmag'ur, noma'qul gaplarni gapir-yapsan!

– Yo'q, rost.

– Nima, nimasi rost?

– O'lishim rost, tushimda ko'rdim.

– Tushingda? – deb Vronskiy takrorladi-yu, o'zi tushida ko'rgan mujikni darhol esladi.

– Ha, tushimda, – dedi Anna. – Bu tushni ko'rganimga juda ko'p vaqt bo'ldi. Tushimda emish, o'z yotoqxonamga chopib kiribman-u, u yerdan allanima baloni olmoqchi, allanima baloni bilmoqchi bo'libman; bilasan, tushda shunaqa narsalar bo'ladi-ku, – deyardi Anna, vahimadan ko'zlarini katta ochib, – bunday qaragam, bur-chakda allanima turgan emish.

– Ey, bema'ni gaplar! Ishonib bo'ladimi...

Lekin Anna so'zini bo'ldirmadi. Aytib turgan narsalari o'zi uchun g'oyatda muhim edi.

– Bir vaqt o'sha allanima menga qayrilib qolmaydimi! Qaragam: soqoli paxmaygan, bo'yi kichkina, bahaybat bir mujik emish. Endi qochmoqchi bo'lib turganimda, mujik qop ustiga engasharmish-u, qo'lini tiqib, qopni kavlashtirarmish...

Anna mujikning qopni kavlaganini taqlid qilib ko'rsatdi. Yuzida dahshat bor edi. Vronskiy ham, tushini eslab yurganini ana shunday dahshat to'ldirib borayotganligini sezdi.

– Mujik qopni kavlab turib, nuqul fransuzchalab gapirarmish: «Il faut le battre le fer, le broyer, le petrir...»¹ dermish. Shunda vahimadan uyg'onmoqchi bo'lib, uyg'onibman ham... Lekin tushimda uyg'ongan emishman. Keyin: «Buning ma'nosi nima bo'ldi?» deb o'zimdanda so'rabman. Haligi mujik Korney bo'lsa: «Tug'ishda o'lasiz, begoyim, tug'ishda...» der emish menga. Shundan keyin uyg'onib ketdim...

Vronskiy:

– Qanday bema'ni tush-a, qanday bema'ni tush-a! – desa ham, ovozida hech qanday ishonch ohangi yo'qligini o'zi sezib turardi.

– Gapni bas qilaylik. Qo'ng'iroqni chal, buyur, choy keltirishsin. Yo'q, shoshma, endi ko'p qolgani yo'q, men...

¹ «Temirni quyish, tuyish, ezish kerak...» (frans.)

Anna birdan to‘xtab qoldi. Yuzidagi alomatlar bir zumda o‘zgardi. Dahshat va hayajon o‘rnini sokin, jiddiy saodat ifodasi ishg‘ol etdi. Vronskiy bu o‘zgarish sabablarini tushuna olmadi. Anna o‘zidagi yangi hayotning qimirlayotganiga quloq sola boshlagan edi.

IV

Aleksey Aleksandrovich Vronskiyga o‘zining eshigi og‘zida duch kelgandan keyin to‘g‘ri italyan operasiga ketdi, aslida, u shu niyat bilan chiqqan edi. Operaning ikki pardasini tomosha qilgach, o‘ziga kerak bo‘lgan odamlarning hammasi bilan uchrashdi. Uyga qaytib kelgandan keyin kiyim osiladigan joyga diqqat bilan razm solib, harbiy palto yo‘qligini sezdi-da, odati bo‘yicha o‘z bo‘lmasiga kirib ketdi. Lekin, odatiga xilof qilib, uxlagani yotmadi, kechasi soat uchgacha o‘z kabinetida u yoqdan bu yoqqa yurib vaqt o‘tkazdi. Xotining odob-andisha qoidalariga bo‘ysunmagani, o‘ynashini uyda qabul qilmaslik to‘g‘risida o‘zi qo‘ygan birdan-bir shartni bajarmagani uchun yuragida g‘alayonga kelgan g‘azab tinchini olib qo‘ygan edi. Anna uning talabini bajarmagan edi, shuning uchun Aleksey Aleksandrovich endi uning jazosini berishi, o‘z tahdidini amalga oshirishi – taloqni talab qilib, o‘g‘lini tortib olishi kerak edi. Aleksey Aleksandrovich bu ishning nihoyatda qiyinligini bilsa ham, lekin shunday qilaman degani uchun, hozir tahdidini amalga oshirishga majbur edi. Uning boshiga tushgan ahvoldan qutulishning eng yaxshi yo‘li shu ekanligini grafmya Lidiya Ivanovna ham ishora qilib o‘tgan edi, innaykeyin, so‘nggi vaqtlarda taloq tajribalari bu ishni shu qadar ravnaq toptirib yuborgan ediki, Aleksey Aleksandrovich rasmiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish imkoni borligini ko‘rib turardi. Bundan tashqari, falokat kelsa yolg‘iz kelmaydi, o‘zga millat xalqlarini joylashtirish va Zarayskaya guberniyasidagi yerlarni sug‘orish to‘g‘risidagi ishlar ham Aleksey Aleksandrovichning dilini shu qadar siyoh qila boshlagan ediki, u mana shu so‘nggi vaqtlarda qattiq siqilib yurardi.

Kechasi bilan mijja qoqmay chiqdi, g‘azabi shu qadar kuchaydiki, ertalab chidab bo‘lmaydigan darajaga etdi. U xotining uyg‘onganini eshitgandan keyin shoshib-pishib kiyindi-yu, go‘yo g‘azab to‘la kosasini ko‘tarib borayotganda uning chayqalib to‘kilishidan hamda

xotini bilan gaplashganda zarur bo'ladigan kuch-g'ayratni ham shu g'azab bilan birga to'kib yuborishdan qo'rqayotgandek, Annaning yoniga kirdi.

Erini yaxshi bilaman deb o'ylab yurgan Anna, Aleksey Aleksandrovich kirib kelganda, uning vajohatini ko'rib hayratda qoldi. Qosh-qovoqlari osilgan ko'zlari Annaning ko'zidan o'zini olib qochib ro'parasiga xo'mrayib qarab turar, lablari qattiq, nafrat bilan qimtilgan edi. Yurishlarida, harakatlarida, tovushlarida xotini hech mahal ko'rmagan bir qat'iyat, sabot bor edi. U Annaning bo'lmasiga kirdi-da, salomlashmasdanoq, to'g'ri xotininig yozuv stoli yoniga bordi, kalitni olib, g'aladonni ochdi.

– Nima kerak! – deb birdan qichqirib yubordi Anna.

– O'ynashingizning xatlari, – dedi u.

– Bu yerda emas, – dedi Anna g'aladonini berkitib; lekin Aleksey Aleksandrovich uning bu harakatidan taxmin qilgan narsasining shu yerda ekanligini payqadi, Annaning qo'lini qo'pollik bilan itarib tashlab, darrov portfelga chang soldi; Anna eng zarur qog'ozlarini shu portfelda saqlashini bilardi.

U portfelni qo'ltig'iga urib:

– O'tiring! Siz bilan gaplashadigan gapim bor, – dedi; portfelni tirsagi bilan shunday qisib olgan ediki, hatto yelkasi ko'tarilib ketdi.

Anna unga hayrat va hadik bilan jimgina qarab turardi.

– O'ynashingizni uyda qabul qilishingizga yo'l qo'ymayman, deb ta'kidlagan edim.

– Uni ko'rishim kerak edi, chunki...

Anna bahona topolmay to'xtab qoldi.

– Xotin kishining o'ynashini ko'rishdan nima maqsad borligini surishtirib o'tirishga toqatim yo'q.

– Men, men faqat... – Anna tutaqib ketgan edi. Aleksey Aleksandrovichning bu dag'alligi jahlini chiqarib yuragiga dalda berdi. – Nahotki, meni haqorat qilishni o'zingizga shuncha oson bilsangiz? – dedi Anna.

– Halol odam bilan halol xotinnigina haqorat qilish mumkin, lekin o'g'riga sen o'g'ri deyish, faqat la constation d'un fait¹ xolos.

¹ Faktni tasdiqlash (*frans.*).

– Sizning bu yangi fe’lingizni – bag’ritoshligingizni hech qachon ko’rmagan edim.

– O’zining pokiza uyidan faqat sharm-hayoga rioya qilish sharti bilangina xotiniga joy bergan va erkinlik bergan erning bu harakatini siz bag’ritoshlik deb ataysiz-a tag’in. Shu bag’ritoshlik bo’ldimi?

– Bu bag’ritoshlikdan ham battar, bu razillik, agar bilgingiz kelsa!
– Annaning g’azabi toshib qichqirib yubordi, so’ngra o’rnidan turib, chiqib ketmoqchi bo’ldi.

– Yo’q! – Aleksey Aleksandrovich odatdagidan bir parda balandroq chiqqan chinqiroq ovozi bilan qichqirib, kattakon barmoqlari bilan Annaning qo’lini shunday mahkam changallab oldiki, qisilgan bilaguzukdan bilagida qizil dog’ qoldi; u Annani zo’rlab o’qtazdi. – Razillik bo’ldimi? Agar shu so’zni ishlatmoqchi bo’lsangiz, u holda, u holda o’ynashni deb erini, o’g’lini tashlash razillik deb aytiladi.

Anna boshini egdi. U kecha oshig’iga: «Erim sen, erim bo’lsa ortiqcha...» degan so’zlarini hozir aytish u yoqda tursin, hatto aytishni o’ylamagan ham edi. Anna uning so’zlari haqqoniy ekanligini sezib turardi. Shuning uchun past ovoz bilan shunday dedi:

– Siz mening ahvolimni o’zim bilganimdan ham battarroq tasvir-lab berolmaysiz, nima qilasiz menga bu gaplarni aytib?

– Nima qilaman aytib? Nima uchun? – deb Aleksey Aleksandrovich yana g’azab bilan so’zini davom qildi. – Modomiki, mening sharm-hayoga rioya qilish to’g’risidagi talabimni bajarmadingiz, endi bu ahvolga xotima berish uchun chora ko’raman, ana shuni bilib qo’ying deb aytyapman.

– Yaqinda, uningsiz ham yaqinda tugaydi, – dedi-yu, Anna endi o’zi intizor bo’lgan o’limning yaqinlashganini o’ylab, ko’zlariga yana yosh oldi.

– Siz o’ynashingiz bilan o’ylaganingizdan ham tezroq hal bo’ladi! Sizga hayvoniy ehtirosni qondirish bo’lsa bas...

– Aleksey Aleksandrovich! Bu olijanoblik emas deyman, lekin yotgan odamni kaltaklash – insofsizlik!

– Ha, siz faqat o’zingizni bilasiz, lekin eringiz bo’lgan bir odamning iztiroblari sizni qiziqirtirmaydi. Butun hayoti barbod bo’lgani bilan, iztilo... iztizo... iztilob chekayotgani bilan ishingiz yo’q.

Aleksey Aleksandrovich shu qadar bidirlab gapirdiki, adashib qolib, bu soʻzni hech aytolmadi. Iztirob deyish oʻrniga oxiri iztilob deb yubordi. Annaning kulgisi qistadi, lekin shunday paytda kulgisi qistagani uchun xijolat boʻldi. Anna birinchi marta oʻzini uning oʻrniga qoʻyib, uning hislarini oʻzi his qilib koʻrdi, shunda unga yuragi achishib ketdi. Lekin nima qila olar, nima deya olardi? Anna boshini egib, jim oʻtirardi. Aleksey Aleksandrovich ham ancha vaqtgacha jim qoldi, keyin u qadar chinqirmay, sovuq tovush bilan gapira ketdi, gapirganda ham u qadar muhim ahamiyatga ega boʻlmagan soʻzlarni boshqacha qilib pala-partish gapirdi.

– Men sizga aytgani keldim... – dedi u.

Anna unga yalt etib qaradi. Iztirob soʻzini yanglish talaffuz etganda yuzida paydo boʻlgan ifodani eslab: «Yoʻq, menga shunday koʻringan xolos, – deb oʻyladi, – yoʻq, bunday soʻnik koʻzli, bunday xudpisand odam biron narsani his qilishi mumkinmi?»

– Men hech nimani oʻzgartira olmayman, – deb shivirladi Anna.

– Men sizga aytgani keldim: ertaga Moskvaga ketaman, lekin bu uyga bir umr qaytib kelmayman; mening qarorimni advokatdan eshitasiz, men unga taloq masalasini topshiraman. Oʻgʻlim boʻlsa opamnikiga ketadi, – dedi Aleksey Aleksandrovich, oʻgʻli toʻgʻrisida aytmoqchi boʻlgan soʻzlarini zoʻrgʻa eslab.

Anna unga yer ostidan qarab turib:

– Mening jonimni ogʻritish uchungina Seryojani olmoqchisiz, – dedi. – Siz uni yaxshi koʻrmaysiz... Seryojani qoldiring!

– Toʻgʻri, oʻgʻlimdan ham koʻnglim sovidi, chunki sizga boʻlgan nafratimning bir tomondan unga ham kasri tegadi. Shunday boʻlsa ham, baribir olib ketaman. Xayr!

U chiqib ketmoqchi boʻlgan edi, endi Anna tutib qoldi.

– Aleksey Aleksandrovich, Seryojani qoʻyib keting! – deb yana shivirladi Anna. – Bundan boshqa arzim yoʻq. Seryojani qoʻyib keting, to men... yaqinda tugʻaman, tashlab keting!

Aleksey Aleksandrovich xunob boʻlib, qoʻlini undan shartta tortib oldi-da, uydan churq etmay chiqib ketdi.

Aleksey Aleksandrovich kirganda mashhur Peterburg advokati-ning qabulxonasi odamlar bilan to‘la edi. Biri kampir, biri yosh juvon va biri savdogar ayoli bo‘lgan uch xonim; biri barmog‘iga uzuk taq-qan bankchi nemis, ikkinchisi soqolli savdogar, uchinchisi bo‘yniga xoch taqib olgan rasmiy mundirli amaldordan iborat uch janob bo‘lib, anchadan beri kutib o‘tirishganga o‘xshar edi. Advokatning ikkita yordamchisi stolda g‘itillatib yozib o‘tirishardi. Yozuv asboblari mis-li ko‘rilmagan darajada yaxshi edi. Yaxshi yozuv asboblariga ishqiq-boz bo‘lgan Aleksey Aleksandrovichning buni sezmay iloji yo‘q edi. Yordamchilardan biri, o‘tirgan joyida ko‘zlarini qisib turib, Aleksey Aleksandrovichdan:

– Nima ishingiz bor? – deb zarda bilan so‘radi.

– Advokatda ishim bor.

Yordamchi kutib o‘tirganlarga qo‘lidagi pero bilan ishora qilib:

– Advokat band, – dedi-yu, yozuvini davom ettirdi.

– Nahotki, fursati bo‘lmasa? – deb so‘radi Aleksey Alek-sandrovich.

– Bo‘sh vaqti yo‘q, hamma vaqt band. Marhamat qilib, kutasiz.

Aleksey Aleksandrovich o‘zining kimligini bildirish zaruratini ko‘rib, viqor bilan:

– U holda, marhamat qilib, mening kartochkamni kiritib bersangiz, – dedi.

Yordamchi kartochkani oldi, aftidan, kartochkaning mazmuni ma’qul tushmadi, shekilli, eshikdan kirib ketdi.

Aleksey Aleksandrovich prinsipda ochiq sudga xayrixoh bo‘lsa ham, lekin uning bizdagi tatbiqida uchraydigan ba’zi ikir-chikirlariga xizmat maqomi nuqtayi nazaridan uncha xayrixoh emas edi, shuning uchun farmoni oliy bilan tasdiq qilingan biron narsani qanchalik qo-ralashi mumkin bo‘lsa, buni ham shunchalik qoralar edi. Uning butun umri ma’muriy ishlar bilan o‘tgan edi, shu vajdan u biron narsaga xayrixoh bo‘lmasa hamki, xatosiz ish bo‘lmaydi, degan fikrda edi, har bir ishda bunday xatolarni tuzatish imkoni borligiga ishonardi, shuning orqasida uning munosabati yumshar edi. U yangi sud mu-assisalarida advokatlarning tutgan mavqeyini ma’qul ko‘rmas edi.

Lekin shu mahalgacha advokatlarga ishi tushmagan edi, shuning uchun ham advokaturani faqat nazariy jihatdangina ma'qullamas edi; mana endi uning ma'qullamasligi advokat qabulxonasida olgan xunuk taassuroti orqasida yana ham kuchaydi.

– Hozir chiqadi, – dedi yordamchi; haqiqatan ham, ikki daqiqadan keyin eshik og'zida qari huquqshunosning novcha qomati bilan advokatning o'zi ko'rindi; huquqshunos advokat bilan maslahatlashgani kelgan edi.

Advokat g'o'labir, tepakal, qo'ng'ir-jiyron soqol, oqish baroq qosh, do'ngpeshona, kichikkina bir odam edi. Bo'yinbog'i, qo'sh zanjiridan tortib, to amrikon botinkasigacha bashang, xuddi kuyovga o'xshardi. Yuzi ma'noli, mujiknusxa, kiyimlari oliftalarcha, lekin didsiz edi.

Advokat Aleksey Aleksandrovichga yuzlanib:

– Marhamat qilsinlar, – dedi-yu, Kareninni xo'mrayib turib yonidan o'tkazgach, eshikni ichidan yopib oldi.

Advokat qog'oz taxlanib yotgan yozuv stoli yonidagi oromkursini ko'rsatib:

– Buyursinlar, – dedi-da, o'zi rais o'rniga borib o'tirdi, keyin oq tuk bosib ketgan qisqa barmoqli qo'llarini bir-biriga ishqab, boshini bir yonga solintirdi. Lekin joylashib o'tirib, endi tinchigan ham ediki, birdan stol tepasida kuya uchib o'tib qoldi. Advokat o'zidan kutilishi mumkin bo'lmagan bir chapdastlik bilan qo'llarini bir-biridan ayirdiyu, kuyani tutib, keyin yana boyagicha o'tirib oldi.

Aleksey Aleksandrovich advokatning harakatlarini hayrat bilan kuzatib:

– Men ishim to'g'risida gapirishdan avval, – dedi, – shuni ta'kidlab qo'yishim kerakki, siz bilan hozir gaplashadigan ishim sir bo'lib qolishi lozim.

Advokatning lablarida sezilar-sezilmas tabassum paydo bo'ldi, osilib tushgan qo'ng'ir-jiyron mo'ylovlari xiyol ko'tarilib ketdi.

– Menga ishonib aytilgan sirlarni saqlay bilmaganimda, advokat bo'lib o'tirmas edim, agar o'zlariga isbot kerak bo'lsa...

Aleksey Aleksandrovich uning yuziga qaradi, uning hamma narsadan xabardorga o'xshab ko'ringan ma'noli kulrang ko'zlari kula-yotganini ko'rdi.

– Mening familiyamni bilasiz-a? – deb soʻzini davom qildi Aleksey Aleksandrovich.

– Oʻzingizni ham, har qanday rus, – u yana kuya tutdi, – har qanday rus kishisi kabi qilayotgan foydali ishingizni ham bilaman, – dedi advokat enkayib.

Aleksey Aleksandrovich oʻziga dalda berib, bir xoʻrsinib oldi. Dardini aytishga qaror qilgandan keyin esa sira hayiqmay, oʻzining chiyillagan ovozi bilan ayrim soʻzlarni chertib-chertib, adashmay soʻzlay ketdi.

– Mening boshimga, – dedi Aleksey Aleksandrovich, – aldangan er shoʻri tushdi, shuning uchun xotinim bilan boʻlgan aloqamni qonun yoʻli bilan uzib tashlamoqchiman, yaʼni ajrashmoqchiman, lekin shunday qilmoqchimanki, oʻgʻlim onasi bilan qolmasin.

Advokatning koʻkish koʻzlari kulmaslikka tirishsa ham, lekin shodligidan oʻzini tutolmay chaqnar edi; Aleksey Aleksandrovich bu koʻzlarda yolgʻiz serdaromad ish olayotgan kishining shodligi emas, balki unda xotining koʻzlarida koʻrgan mashʼum oʻtning ayni oʻzini, tantana, shodlik alomatlari ham borligini koʻrdi.

– Taloq masalasida mening yordam berishimni koʻzlaysiz, shunday-a?

– Ha, xuddi shunday; lekin sizni ogohlantirib qoʻyishim kerak, men diqqat-eʼtiboringizdan foydalanib, suiisteʼmol qilib yuborishim mumkin. Hozir siz bilan faqat maslahatlashib olishgagina keldim. Men ajralishni xohlayman, lekin men uchun eng muhim narsa ajralish usulidir. Bu usul mening talablarimga muvofiq kelmasa, bu ehtimoldan uzoq emas, u holda men qonuniy daʼvolarimdan voz kechaman.

– O, albatta, hamma vaqt shunaqa boʻladi-da, – dedi advokat, – hamma vaqt ixtiyor oʻzingizda boʻladi.

Sevinchi ichiga sigʻmay turgan advokat oʻz qiyofasi bilan mijozini xafa qilib qoʻyishi mumkinligini sezib, koʻzlarini tushirdi-da, Aleksey Aleksandrovichning oyoqlariga tikilib qoldi. U burnining tagidan uchib oʻtayotgan kuyaga biroz tikilib turgandan soʻng bir silkindi-yu, lekin Aleksey Aleksandrovichga hurmat yuzasidan tutmadi.

– Bu masala toʻgʻrisidagi qonun-qoidalarimiz garchi menga umumiy tarzda maʼlum boʻlsa hamki, – deb soʻzini davom qildi Aleksey

Aleksandrovich, – bunday ishlarning amalda qaysi shaklda hal qilinishini bilib qo‘ysam devdim.

Advokat o‘z mijozining gap ohangiga mamnuniyat bilan taqlid qilib:

– Istagingiz bajarilishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni, – deb javob qildi ko‘zlarini ko‘tarmay, – aytib berishimni xohlaysiz.

Aleksey Aleksandrovich boshi bilan tasdiqlagandan keyin advokat Aleksey Aleksandrovichning dog‘dor bo‘lib qizargan yuziga orasira ko‘z qiri bilan qarab-qarab so‘zini davom ettirdi.

– Bizning qonun-qoidalarimizga muvofiq taloq, – dedi u, bizning qonun-qoidalarimizni ma‘qullamaganini bildiruvchi nozik bir ishora bilan, – o‘zingiz bilasiz, faqat shu hollardagina mumkin... shoshmang! – advokat boshini eshikdan suqib qaragan yordamchisiga shunday degan bo‘lsa ham, yana o‘rnidan turib, unga bir necha og‘iz so‘z aytgandan keyin tag‘in joyiga kelib o‘tirdi. – Mana shunday hollarda: zavjlarda jismoniy kamchilik bo‘lganda, keyin bir-birini tashlab, besh yilgacha besabab ajralishib qolganda, – dedi tuk bosib ketgan kalta barmog‘ini bukib, – keyin o‘ynash tutish hollari yuz berganda (bu so‘zni oshkora bir shukuh bilan aytdi). Bular moddalarga shu taxlitda bo‘linadi (ajralish hollarini va bularning moddalarga bo‘linishini birgalikda tasnif qilib bo‘lmasa ham, u yo‘g‘on barmoqlarini birin-ketin buka ketdi): xotin yo‘ning jismoniy kamchiligi, keyin xotin yo‘ning o‘ynash tutishi. – Barmoqlarining hammasi bukilib bo‘lgani uchun, ularni yozib yuborib, tag‘in davom qildi: – bu nazariy jihatdan qarash, lekin meni sharaflantirgan murojaatingizdan maqsad bu masalaning amaliy tomonlarini bilish istagi bo‘lishi kerak deb o‘ylayman. Shuning uchun mavjud amaliyotga suyanib shuni aytishim kerak: bu ajralish hodisasining xulosasi bunday: fahmimcha, jismoniy kamchiliklar yo‘q, shunday emasmi? Shuningdek, sababsiz tashlab ketish hodisasi ham yuz bermagan.

Aleksey Aleksandrovich boshini egib gapini tasdiqladi.

– Binobarin, bunday xulosa chiqadi: zavjlardan biri o‘ynash tutgan, jinoyatkor tomon o‘rtadagi pisan-dani buzgan va bu xil pisan-dadan tashqari, o‘z-o‘zini ixtiyorsiz fosh qilgan. Shuni ham aytib o‘tishim kerakki, keyingi hodisa amalda kamdan-kam uchraydi, – dedi-yu, advokat Aleksey Aleksandrovichga ko‘z qiri bilan bir qarab,

so'ngra qurollarining fazilatlarini tafsir qilgandan so'ng xaridorning qaysi bir qurolini tanlashini kutib turgan to'pponcha savdogari singari jim bo'lib qoldi. Lekin Aleksey Aleksandrovich indamadi. Shundan keyin advokat yana so'zida davom qildi: – Mening nazarimda, buning eng oddiy, eng sodda, eng ma'qul yo'li – o'zaro kelishib zino qilishdir. Agar farosatsiz odam bilan gaplashganimda, albatta, men bunday narsalarni og'zimga ololmasdim, – dedi advokat, – lekin, aminman, bunga sizning fahmingiz yetadi.

Ammo Aleksey Aleksandrovichning kayfi shu qadar buzilgan ediki, o'zaro kelishib zinoni vaj qilishning ma'qulligiga darhol tushuna qolmadi. Shuning uchun unga hayratlanib qaradi; lekin advokat darhol unga yordam qo'lini cho'zdi.

– Bunday odamlar birga turisha olmaydi. Bu fakt. Agar har ikkala tomon shunga rozi bo'lsa, u holda rasmiyatning ham, tafsilotning ham ular uchun ahamiyati qolmaydi, lekin shu bilan birga, eng sodda, eng to'g'ri yo'l shu.

Aleksey Aleksandrovich endi to'la tushundi. Lekin unda bunday tadbirning qo'llanishiga yo'l qo'ymaydigan diniy talab bor edi.

– Bu masalada shu hodisani tatbiq qilib bo'lmaydi, – dedi Aleksey Aleksandrovich. – Bu yerda faqat bittagina hodisani dalil keltirish mumkin: o'z ixtiyoridan tashqari xatlari bilan isbot qilib fosh etish mumkin, menda bunday xatlar bor.

Aleksey Aleksandrovich xatlarni tilga olganda, advokat lablarini qimtib, achinuvchi, nafratomuz ingichka bir tovush chiqardi.

– Bu yog'i ham bor-da, – deb gap boshladi u, – bu xil ishlar, o'zingizga ma'lum, diniy nazoratlarda ko'riladi; oliy mansabdagi pop hazratlari bu xil ishlarni to'lipidan ignasigacha juda yaxshi bilishadi, – dedi u, poplarning nozik didlariga xayrixohligini ko'rsatuvchi bir jilmayish bilan. – Xatlar, shubhasiz, jinoyatni qisman isbot qilib bera oladi; lekin oshkora dalil to'g'ri yo'l bilan, ya'ni shohidlar orqali topilishi kerak. Agar meni o'z ishonchingiz bilan musharraf qilish niyatida bo'lsangiz, u holda qo'llanilishi lozim bo'lgan tadbirlarni mening ixtiyorimga topshirasiz.

Aleksey Aleksandrovich birdan oqarib:

– U holda... – deb gap boshlagan edi, advokat o'rnidan turib, yana o'ziga gap qotgan yordamchisining yoniga chiqib ketdi.

– O‘sha ayolga aytib qo‘ying, biz arzon mol xarid qilayotganimiz yo‘q! – dedi-yu, yana Aleksey Aleksandrovichning yoniga qaytib keldi.

Joyiga qaytib kelayotib, sezdirmasdan yana bitta kuyani tutib oldi. «Yozda mebellarini yaxshilab qoplatib olishga to‘g‘ri keladi», deb o‘yladi, qovoqlarini solib u.

– Shunday qilib, demoqchisizki... – dedi u.

– U holda, qarorimni sizga xat bilan ma‘lum qilaman, – dedi Aleksey Aleksandrovich o‘rmidan qo‘zg‘alib. Stolni ushlab biroz jim turgandan keyin ilova qildi: – Aytgan so‘zlaringizdan ajralish mumkin degan xulosaga kelishim mumkin. Yana bir iltimos: qanday shartlar bilan ishga kirishishingizni bilsam.

– Mening bemalol harakat qilishimga yo‘l qo‘yib bersangiz, hamma narsani qilish mumkin, – dedi advokat, savolga javob bermay. Keyin eshikka yaqinlashdi-da, ko‘zlarini chaqnatgan holda amirkon etiklarini yaltiratib: – Xatingizni qachon olishimga ko‘z tutishim mumkin? – deb so‘radi.

– Bir haftadan keyin. Bu ishni uhdangizga olasizmi, olsangiz, qanday shart bilan olasiz, bu to‘g‘rilarini ham menga lutfan ma‘lum qilsangiz.

– Xo‘p bo‘ladi.

Advokat hurmat bilan ta‘zim qilib, mijozini eshikdan chiqarib yuborgandan so‘ng yolg‘iz o‘zi qoldi-da, shodlik tuyg‘ulariga berildi. Shodligi ichiga shu qadar sig‘may ketdiki, o‘z odatiga xilof qilib, savdolashayotgan xonimga yon bosdi va uchib yurgan kuyalarga ham parvo qilmay qo‘ydi; kelasi qishda mebellariga Sigoninnikiga o‘xshatib baxmal qoplatishga uzil-kesil qaror qildi.

VI

Aleksey Aleksandrovich o‘n yettinchi avgust komissiyasining majlisida porloq g‘alaba qozongan bo‘lsa ham, bu g‘alaba oqibatda qanotlarini kesib qo‘ydi. O‘zga millat xalqlarining turish-turmushlarini har tomonlama o‘rganish uchun yangi komissiya tuzilgan va bu komissiya Aleksey Aleksandrovichning qutqusi bilan joylarga misli ko‘rilmagan bir g‘ayrat va shitoblik bilan yuborilgan edi. Uch oydan so‘ng komissiya o‘z hisobotini topshirdi. O‘zga millat xalqlarining turish-turmushi siyosiy, ma‘muriy, iqtisodiy, etnografik, moddiy va

diniy jihatlardan tekshirib chiqildi. Hamma savollarga juda yaxshilab javoblar berilgan va bu javoblar shubhaga o'rin qoldirmagan edi, chunki bular xatoga yo'l qo'yadigan inson aqlining mahsuli bo'lmay, balki hammasi ham xizmat faoliyati yo'li bilan tartibga solingan mukammal asar edi. Bu javoblar o'z yo'li bilan volost mingboshilari va volost poplari tomonidan berilgan ma'lumotlarga asoslanib uyezd boshliqlari va din peshvolari bergan ma'lumotlarga asosan gubernatorlar va arxiyeriylar tomonidan berilgan rasmiy ma'lumotlar natijasi edi; shu sababli bu javoblarning hammasi ham shubhaga hech o'rin qoldirmas edi. Barcha savollar, masalan, nima uchun hosil bo'lmay qoladi, nima uchun aholi o'z dinida mahkam turadi va shular kabi savollarga, xizmat mashinasi qo'l kelmaganda hal qilib bo'lmaydigan va asrlardan beri hal qilinmay kelayotgan masalalarga ravshan, aniq javoblar olingan edi. Shuning uchun qaror ham Aleksey Aleksandrovich oldinga surgan fikr foydasiga hal bo'lgan edi.

Lekin Stremov so'nggi majlisda o'zining nafsoniyatiga tegib o'tilganini sezib, komissiyaning ma'lumoti olinganda, Aleksey Aleksandrovich hech kutmagan bir taktikani qo'lladi. Stremov a'zolaridan bir qanchasini o'z orqasidan ergashtirib, birdan Aleksey Aleksandrovich tomoniga o'tib oldi-yu, Karenin taklif qilgan tadbirlarning harakatga keltirilishini harorat bilan himoya qilib, shu bilan birga, shu qabildagi g'oyat qaltis takliflarni ham kiritdi. Aleksey Aleksandrovichning asosiy fikrini quvvatlab tushgan bu tadbirlar qabul qilingandan keyin Stremovning taktikasi oshkor bo'lib qoldi. O'taketgan bu keskin tadbirlar birdan shunaqa ham noma'qul ko'rinib ketdiki, bir vaqtda ham davlat arboblari, ham afkor omma, ham dono xonimlar, ham gazetalar – hammasi norozilik bildirishib, bu tadbirlarning o'ziga ham, ularning otaxoni bo'lgan Aleksey Aleksandrovichga ham birdan hujum qilib qolishdi. Stremov esa o'zini Kareninning rejasiga ko'r-ko'rona ergashgan, endi qilingan ishlarga hayron bo'lib, g'azabga kelayotgan kishiga solib, bir chetga chiqib oldi. Uning bu qiligi Aleksey Aleksandrovichni larzaga keltirdi. Lekin Aleksey Aleksandrovich yo'qolib borayotgan sog'ligiga, oilasidagi dardu alamlariga qaramay, bo'sh kelmadi. Komissiyada ixtilof chiqdi. Stremov boshchiligidagi ba'zi a'zolar Aleksey Aleksandrovich rahbarligidagi taf-tish komissiyasining ma'lumotiga ishonish bilan o'zlarining xatoga

yo‘l qo‘yganliklarini aytib oqlanishar, bu komissiyaning ma‘lumoti bo‘lmagan gap va quruq qog‘ozbozlikdan iborat, deyishardi. Aleksey Aleksandrovich bo‘lsa qog‘ozlarga bu xil munosabatda bo‘lishning xavfini ko‘rib turgan bir to‘da odamlar bilan taftish komissiyasi ishlab chiqqan ma‘lumotlarni bo‘sh kelmay himoya qildi. Buning oqibatida yuksak doiralarda, hatto jamoat orasida ham fikrlar chuvalib ketdi; bu narsa hammani nihoyatda qiziqtirganiga qaramay, o‘zga millat xalqlari chindan ham bechorachilikdan qirilib ketyaptimi yo gullab-yashnab turibdimi – bu narsani hech kim aniq bilmas edi. Shu narsalar oqibatida va qisman xotinining vafosizligi tufayli odamlar nafratiga uchrasa orqasida Aleksey Aleksandrovichning mavqeyiga ancha putur yetgan edi. Aleksey Aleksandrovich shunday ahvolga tushib qolgandan keyin muhim bir qarorga keldi. U ishni o‘zi borib joyida tekshirib kelish uchun ijozat so‘ramoqchi ekanligini aytib, komissiyani hayron qoldirdi. Keyin Aleksey Aleksandrovich ijozat oldi-da, uzoq guberniyalarga jo‘nab ketdi.

Aleksey Aleksandrovichning jo‘nab ketgani, ayniqsa, mo‘ljallangan joyiga yetib olguncha o‘n ikki ot xarajati uchun o‘ziga berilgan yo‘l xarajatlarini jo‘nash oldidan qog‘oz bilan birga rasmiy ravishda qaytargani ko‘pgina shov-shuvga sabab bo‘ldi.

– Men buni g‘oyat olijanoblik deb bilaman, – dedi Betsi, knyaginya Myagkaya bilan gaplashib o‘tirib. – Hozir hamma yerda temir yo‘l borligini hamma biladi-yu, tag‘in nima uchun pochta otlari uchun pul berishar ekan-a?

Lekin knyaginya Myagkaya uning gapiga qo‘shilmadi, knyaginya Tverskayaning fikri hatto g‘ashini ham keltirdi.

– Bunday deyish oson-da sizga, – dedi knyaginya Myagkaya, – necha millionlab pulingiz bor ekanligini bilmayman-u, lekin mendan so‘rasangiz, erim yozda taftish qilishga boradigan bo‘lsa, jonim kiradi. Erim, bir yoqdan, o‘ynab-kulib keladi, ikkinchi yoqdan, bu pul-larni men ekipajim bilan izvoshimning xarajatlariga sarf qilaman, mening odatim shunday.

Aleksey Aleksandrovich uzoq guberniyaga ketayotib, yo‘lda Moskvaga uch kungagina tushib o‘tdi.

Kelgan kunining ertasiga u general-gubernatornikiga tashrif bilan bordi. Hamma vaqt ekipajlar bilan izvoshlar tiqilishib qoladigan Gazetniy tor ko‘chasi yonidagi chorrahada Aleksey Aleksandrovich

o'zining nomini birov baland va dilxush ovoz bilan chiqarganini eshitib karetasidan qayrilib qarashga majbur bo'ldi. Trotuar burchagida, kalta moda palto kiygan, kichkinagina moda shlapasini peshonasiga dol qo'ygan, qip-qizil lablar orasidagi tishlarining oqini ko'rsatib, yosh, quvnoq Stepan Arkadich kulib turar, karetani to'xtatishni talab qilib, zo'r berib qichqirardi. U baxmal shlapali xotin va ikkita yosh bola boshi chiqib turgan burchakdagi karetaning derazasini bir qo'li bilan ushlab olib, ikkinchi qo'li bilan kuyoviga imo qilar, jilmayardi. Karetadagi xonim ham ochiqko'ngillik bilan kulimsirab, Aleksey Aleksandrovichga qo'li bilan ishora qilardi. Bolalari bilan o'tirgan bu ayol Dolli edi.

Aleksey Aleksandrovich Moskvada hech kim bilan uchrashishni istamas edi, ayniqsa, xotining akasini ko'rishga tobi yo'q edi. U shlapasini xiyol ko'tarib salomlashgandan so'ng jo'nab ketmoqchi bo'lgan edi, Stepan Arkadich uning kucheriga to'xtashni buyurib, o'zi qor kyechib yugurib bordi.

– Bay-bay-bay, xabar qilmabsan-a, ayb emasmi! Qachon kelding? Kecha Dyussonikiga borib, taxtada «Karenin» degan familiyani ko'ribman-u, senliging xayolimga ham kelmabdi! – deb gapira ketdi Stepan Arkadich, kallasini kareta derazasidan ichkariga suqib. – Bilsam, kirardim. Seni ko'rib biram xursand bo'ldimki! – dedi yana, qorni qoqib tushirish uchun oyoqlarini bir-biriga urib. – Seni qara-yu, xabar qilmabsan-a, ayb emasmi! – dedi yana o'sha gapni takrorlab.

– Vaqtim bo'lmadi, juda band edim, – deb sovuqqina javob qildi Aleksey Aleksandrovich.

– Yur, xotinimning oldiga boraylik, seni juda ko'rmoqchi.

Aleksey Aleksandrovich muzlab qolgan oyoqlari ustidagi issiq o'rov ro'molini olib tashlab karetadan chiqdi-da, qor kechib Darya Aleksandrovnaning oldiga yurib keldi.

– Bizni bunday bosib o'tishingiz qanday bo'ldi-ya, Aleksey Aleksandrovich? – dedi Dolli kulimsirab.

– Juda band edim, sizni ko'rib nihoyatda xursand bo'ldim, – dedi Aleksey Aleksandrovich ko'rganidan xafa ekanligini bildiruvchi bir ohangda. – Qalay, salomat yuribsizmi?

– Mening Annajonim qalay, yaxshimi?

Aleksey Aleksandrovich bir nima deb to'ng'illadi-yu, ketmoqchi bo'ldi. Lekin Stepan Arkadich to'xtatib qoldi.

– Mana, ertaga bunday qilamiz. Dolli, bularni mehmonga chaqir! Innaykeyin, bu kishini Moskva ziyolilari bilan birga mehmon qilish uchun Koznischev bilan Pessovni ham chaqiramiz.

– Ha, albatta, ertaga biznikiga keling, – dedi Dolli, – soat beshda, xohlasangiz, oltida kutamiz. Annajonim qalay-a? Ko‘p bo‘ldi...

– Sog‘-salomat yuribdi, – deb to‘ng‘illadi Aleksey Aleksandrovich xo‘mrayib. – G‘oyat xursand bo‘ldim! – dedi-yu, keyin kareta tomon yurib ketdi.

– Kelasiz-a? – deb qichqirdi Dolli.

Aleksey Aleksandrovich allanima dedi, lekin Dolli aravalari shaqir-shuqurida eshita olmay qoldi.

– Ertaga oldingga boraman! – deb Stepan Arkadich uning orqasidan qichqirib qoldi.

Aleksey Aleksandrovich karetaga kirib, o‘zi ham hech nimani ko‘rmaydigan, boshqa ham uni ko‘rolmaydigan joyga pisib o‘tirib oldi.

Stepan Arkadich unga ishora qilib:

– G‘alati odam! – dedi xotiniga, so‘ngra soatiga bir qarab olgandan keyin, qo‘lini yuzi oldida qimirlatib xotini bilan bolalarini erkalagan bo‘ldi-da, shaxdam odimlar bilan trotuar ustida yurib ketdi.

– Stiva! Stiva! – deb qichqirdi Dolli qizarib.

Stepan Arkadich qayrilib qaradi.

– Grisha bilan Tanyaga palto olishim kerak. Pul ber, axir!

– Hechqisi yo‘q, meni beradi desang bo‘ldi, – dedi-yu, aravada o‘tib ketayotgan tanishiga xursandlik bilan boshini egib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

VII

Ertangi kun yakshanba edi. Stepan Arkadich Katta teatrda bo‘layotgan balet repetitsiyasiga bordi-da, kecha va‘da qilgan marvarid marjonni o‘zining tavsiyasi bilan yaqindagina baletga kirgan xushro‘ygina raqqosa Masha Chibisovaga berib, sahna orqasida, qorong‘i bir joyda uning bu sovg‘adan quvonib, charaqlab turgan chiroylikkina yuzchasidan o‘pib ham oldi. Marjonni berishdan tashqari, baletdan so‘ng uchrashish masalasini ham gaplashib olmoqchi edi. Baletning boshida kela olmasligini uqtirgandan so‘ng, oxirgi pardaga

yetib kelib, kechki ovqatga olib ketishga va'da qildi. Stepan Arkadich teatrdan chiqib Oxotniy ryadga bordi, tushlikka baliq va sarsabilni¹ o'zi tanlab olgandan so'ng soat o'n ikkida Dyussoning musofirxonasiga yetib keldi; Stepan Arkadich uch kishi bilan uchrashmoqchi edi, uning baxtiga uchovi ham shu mehmonxonaga qo'ngan ekan: yaqinda chet eldan qaytib, shu mehmonxonaga tushgan Levinni, yuksak martabali o'ringa yaqindagina tayinlangan va Moskvani taf-tish qilayotgan yangi boshliqni va kuyovi Kareninni ko'rishi kerak (Kareninni albatta tushlik ovqatga olib ketishi kerak edi).

Stepan Arkadich boplab tushlik qilishni yaxshi ko'rardi, lekin katta bo'lmasa ham, har holda, lazzatli ovqatlar, xushtam ichimliklar va nozik mehmonlarni tanlab tushlik ziyofat berishni yana ham ko'proq yaxshi ko'rardi. Bugungi tushlik dasturi unga juda ham ma'qul tushdi: tirik zog'orabaliq, sarsabil va la piece de resistance² bo'lgan ajoyib, lekin oddiy rostbif³ va shularga yarasha ichkiliklar bo'ladi. Bular yeyiladigan ovqat-u ichiladigan ichimliklar. Mehmonlardan esa Kiti bilan Levin, innaykeyin, ko'zbo'yash uchun amakisining qizi bilan yosh Shcherbatskiy va mehmonlarning la pieese de resisfancesi⁴ – Sergey Koznishev bilan Aleksey Aleksandrovich bo'ladi. Sergey Kuznishev moskvalik, ham faylasuf, Aleksey Aleksandrovich esa, peterburglik, ham amaliyotchi; innaykeyin, mashhur g'ayratmand tentaknamo Pessovni ham taklif qiladi, bu liberal, ezma, musiqachi, tarixchi ellik yoshli dilbar kishi esa Kuznishev bilan Kareninga par va olapar bo'ladi. Pessov ularni gij-gijlab bir-biri bilan urishtirib o'tiradi.

Savdogardan o'rmon pulining ikkinchi navbatda to'lanadigan qismi olinib, hali sovurib bo'linmagan edi. Dollri so'nggi vaqtlarda juda ham dilxush, mehribon bo'lib qolgan, tushlik ziyofati berish fikri Stepan Arkadichni nihoyatda quvontirardi. Uning kayfi g'oyat chog' edi. Ikkita narsa ko'nglini g'ash qilib tursa ham, lekin bu har ikki tashvish Stepan Arkadich vujudini qamrab olgan quvnoqlik dengizida g'arq bo'lib ketgan edi. Ko'nglini g'ash qilgan bu ikki tashvish quyidagidan iborat edi: birinchisi, kecha Aleksey Aleksandro-

¹ Sarsabil – o'simlik.

² Ovqatlar sarasi (*frans.*).

³ Rostbif – biqin go'shtidan tayyorlangan qovurma.

⁴ Sarasi (*frans.*).

vichni ko'chada ko'rganda, uning o'zi bilan quruq, qattiq muomala qilganini sezdi-da, Aleksey Aleksandrovichning yuzidagi bu ifodani hamda Moskvaga kelib, o'zlarinikiga kirmaganini, xabar ham qilmaganini Anna bilan Vronskiy to'g'risida qulog'iga chalingan dud-dud gaplarga bog'lab ko'rib, er-xotin o'rtasida xunuk bir narsa yuz berganligini Stepan Arkadich payqadi.

Tashvishining biri shu edi. Ikkinchi kichik tashvishi shundan iborat ediki, yangi boshliq ham, hamma yangi boshliqlar singari, ertalab soat oltida turarmish, o'tdek ishlarmish, qaramog'idagi odamlardan ham shunday ishlashni talab qilarmish, degan vahimali gap tarqalgan edi. Bundan tashqari, bu yangi boshliq odamlar bilan dag'al muomala qilarmish, innaykeyin, mish-mishlarga qaraganda, avvalgi boshliq mansub bo'lgan, Stepan Arkadichning o'zi ham haligacha mansub bo'lib kelayotgan oqimga tamoman teskari emish, degan nom ham chiqargan edi. Kecha Stepan Arkadich mundirda ishga kelgan edi, yangi boshliq Oblonskiy bilan xuddi eski tanishdek muloyim gaplashdi; shuning uchun Stepan Arkadich syurtuk kiyib, uni yo'qlashni o'ziga burch deb bildi. Ko'nglida g'ashlikni tug'dirgan ikkinchi narsa – yangi boshliq meni yomon qarshilashi mumkin, degan fikri edi. Shunday bo'lsa ham, Stepan Arkadich savqitabiiylik bilan ishlarning o'nglanib ketishini sezib turardi. U musofirxonaga kirib kelayotib: «Hamma insonlar ham, biz singari, gunohga botgan odamlar: janjalning, talashishning nima hojati bor?» deb o'ylardi.

Stepan Arkadich shlapasini peshonasiga dol qo'yib yo'lakdan o'tib borayotganda, tanish yugurdakka:

– Iya, ishlar katta-ku, Vasiliy! – deb qichqirdi. – Bakenbard qo'yib yuboribsan-da? Levin yettinchi xonadami-a? Ko'rsatib qo'y, baraka topkur. Ha, aytmoqchi, so'rab ko'r-chi, graf Anichkin (yangi boshliq shu kishi edi) qabul qilarmikan?

– Xo'p bo'ladi, – dedi kulimsirab Vasiliy. – Juda kamnamo bo'lib ketdilar?

– Kecha kelganman, lekin narigi eshikdan kirdim. Yettinchi shumi?

Stepan Arkadich kirib kelganda, Levin bir tverlik mujik bilan xona o'rtasida turib, gaz bilan yangi ayiq terisini o'lchayotgan edi.

– E, ayiq ovladingizmi? – deb qichqirib yubordi Stepan Arkadich. – Rost teri ekan-da! Urg'ochi ayiqmi? Salom, Arxip!

Stepan Arkadich mujikning qo'lini qisgandan so'ng, paltosi bilan shlapasini yechmasdanoq, stulga o'tirdi.

Levin uning shlapasini boshidan olib:

– Yechinsang-chi, biroz o'tir-da! – dedi.

– Yo'q, vaqtim ziq, bir zungina o'tirib chiqib ketaman, – deb javob berdi Stepan Arkadich. Shundan so'ng paltosining oldini ochdi-yu, keyin butunlay yechib tashlab, Levin bilan ov to'g'risida va boshqa narsalar to'g'risida rosa bir soat dilkashlashib o'tirdi.

Mujik chiqib ketgach, Stepan Arkadich:

– Qani, ayt-chi, chet ellarda nima qilding? Qayerlarga bording? – deb so'radi.

– Germaniyada ham bo'ldim, Prussiyada ham, Fransiyada ham, Angliyada ham, lekin poytaxtlarda emas, fabrikalar bor shaharlarda, juda ko'p narsalar ko'rdim. Borganimga o'zim ham rosa xursand bo'ldim.

– Ha, ishchilarning ahvolini tuzatish to'g'risidagi fikrlaringdan xabarim bor.

– Yo'g'-e, Rossiyada ishchilar masalasi bo'lishi mumkin emas. Rossiyada mehnatkash xalqning yerga munosabati masalasi bor, u yerda ham bu masala bor, lekin u yerda yirtiqqa yamoq solish qabilida, bizda esa...

Stepan Arkadich Levinning so'zlariga diqqat bilan quloq soldi.

– Ha, ha! – dedi Stepan Arkadich. – Gaping to'g'ridir, ehtimoldan uzoq emas. Kayfing tuzuk, bardamsan, ko'rib juda xursand bo'ldim: ayiq ovlariga ham chiqasan, ishlaysan ham, har xil narsalarga qiziqasan ham. Shcherbatskiy seni ko'rgan ekan shekilli, u seni g'amga cho'kib ketibdi, nuqul o'limdan gapiradi, deydi-ya menga...

– To'g'ri, o'limni hamma vaqt o'ylayman, – dedi Levin. – Chindan ham, o'lish vaqti yetib qoldi. Boshqa narsalarning hammasi behuda gaplar. Senga rostini aytsam: fikrlarimni ham, ishlarimni ham jonimdan ortiq ko'raman, aslda esa, o'zing o'ylab ko'r, biz yashab turgan shu kattakon dunyo – zinqarcha sayyoramizda paydo bo'lgan kichkina mog'ordan boshqa narsa emas, biz bo'lsak, bizda ulug' narsalar – fikrlar, ishlar bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz! Holbuki, bularning hammasi faqat qum zarralaridek gap, xolos.

– Ey, og'ayni, bu ham dunyoga o'xshagan eski gaplar!

– Eskilikka eskiku-ya, lekin, men senga aytsam, ravshan tushunib olganingdan keyin, hamma narsa mayda, ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Ayniqsa, bugun yo erta o‘lishingni, hech narsa qolmasligini tushunganingdan keyin esa hamma narsa butunlay ahamiyatini yo‘qotadi! Men o‘z fikrimni juda-juda muhim narsa deb hisoblayman, holbuki amalga oshirilgan taqdirda ham, baribir, oqibatda xuddi mana shu ayiqni ovlash singari behuda, quruq narsa bo‘lib chiqadi. Mana shu sababdan o‘limni o‘ylamaslik uchungina umringni ov bilan, ish bilan o‘tkazasan.

Stepan Arkadich Levinning so‘zlarini nozik, muloyim bir tabasum bilan eshitib o‘tirdi.

– Ha, albatta! Mana endi mening fikrimga yaqinlashib kelding. Esingdami: hayotdan lazzat qidirish bilan ovorasan, deb bir kun menga hujum qilgan eding?

– O, axloq piri, bo‘lma bu qadar qattiq!

– Yo‘q, har nima bo‘lganda ham, hayotda yaxshi narsa shuki...

– Levin so‘zini yo‘qotib qo‘ydi. – Bunisini bilmayman. Lekin ham-mamiz tezda o‘lamiz – shunigina bilaman.

– Nega endi tezda?

– Bilasanmi, o‘limni o‘ylaganingda hayot zavqi kamayadi-yu, lekin tinchliging ortadi.

– Aksincha, umrning oxiri shirinroq bo‘ladi. Xayr, bas, boray endi, – dedi Stepan Arkadich, o‘ninchi marta o‘rmdan turib.

Levin yana ushlab:

– Ey, o‘tirsang-chi picha! – der edi. – Endi qachon ko‘rishamiz? Men ertaga ketaman.

– Esim qursin! Seni aytgani keluvdim-ku... Bugun biznikiga albatta tushlik qilgani borasan. Akang ham keladi. Kuyovimiz Karenin ham bo‘ladi.

– Iya, u shu yerdami? – deb so‘radi Levin, keyin Kitini so‘ramoqchi bo‘ldi-yu, lekin uning qish boshida Peterburgga, diplommatning xotini bo‘lmish opasinikiga ketganini eshitgani va u yerdan qaytib kelgan-kelmaganini bilmagani uchun so‘rash fikridan qaytdi. «Oblonskiyga kelsa ham, kelmasa ham baribir», deb o‘yladi.

– Kelasan-a?

– Albatta.

– Soat beshda, syurtukda.

Shundan keyin Stepan Arkadich o'rnidan turib, pastga – yangi boshlig'ining xonasiga tushib ketdi. Stepan Arkadichning yuragi aldamadi. Vahimali yangi boshliq xushmuomala odam ekan, Stepan Arkadich u bilan birga nonushta qilib gaplashib qoldi-yu, faqat soat uchdan oshgandagina Aleksey Aleksandrovichning yoniga kirdi.

VIII

Aleksey Aleksandrovich ibodatdan qaytgandan so'ng ertalabki vaqtini xonasida o'tkazdi. Ertalab ikkita ishi bor edi: birinchisi, o'zga millat xalqlarining Peterburgga jo'nab ketayotgan, lekin hozir Moskvada bo'lgan vakillarini qabul qilishi va jo'natishi; ikkinchisi esa advokatga va'da qilgan xatni yozishi kerak edi. Vakillar, garchi Aleksey Aleksandrovich tashabbusi bilan chaqirilgan bo'lsalar ham, ko'pgina o'ng'aysizlik tug'dirar, hatto xatarli ham edi. Aleksey Aleksandrovich ularni Moskvada uchratgani uchun juda ham quvondi. Bu vakolat a'zolari o'z rollari va burchlari to'g'risida qilcha ham tushunchaga ega emasdilar. Ular soddalik bilan burchlarini o'z ehtiyojlarini hamda hozirgi ahvollarini aytib berishdan va hukumatdan yordam so'rashdan iborat deb ishonishar, lekin ba'zi arz-dodlari va talablari dushman partiyasini qo'llab-quvvatlashini, shuning uchun butun ishni rasvo qilishlari mumkinligini zarracha ham tushunmas edilar. Aleksey Aleksandrovich ular bilan uzoq ovora bo'ldi, qo'llariga dasturilamal yozib berib, bundan bir qadam ham chetga chiqmaslik kerakligini ta'kidladi, ularga javob bergandan so'ng vakillarni tegishli joylarga yuborish uchun Peterburgga bir necha xat yozdi. Bu masalada eng katta yordamchi grafinya Lidiya Ivanovna bo'lishi kerak edi. U vakillarni yo'lga solish ishida mutaxassis hisoblanar, bu xil ishlarni bajarishda, vakillarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatishda hech kim uning oldida ip esholmasdi. Aleksey Aleksandrovich bu maktubni tugatgandan so'ng advokatga xat yozdi. U zarracha ham ikkilanib o'tirmasdan butun ishni advokatning ixtiyoriga topshirdi. Xatjildga Vronskiyning Annaga yozgan uch parcha xatini ham solib yubordi; bu xatlar Annadan tortib olingan portfeldan topilgan edi.

Aleksey Aleksandrovich oilasiga minba'd qaytmaslik niyati bilan uyidan chiqib ketgandan buyon, advokatning oldiga borib, o'z niyatini hech bo'lmasa o'shanga aytgandan buyon, ayniqsa, bu hayotiy ishni qog'ozbozlikka aylantirgandan buyon kun sayin qasd qilgan

ishiga ko'nikib bordi va bu niyatining bajarilish imkonini ravshanroq ko'radigan bo'ldi.

U advokatga yozgan xatini xatjildga solib turganda, Stepan Arkadichning shang'illagan ovozi eshitildi. Stepan Arkadich esa Aleksey Aleksandrovichning xizmatkori bilan «kirib ayt!» deb janjal qilayotgan edi.

«Baribir, – deb o'yladi Aleksey Aleksandrovich, – bir jihatdan yaxshi ham bo'ldi: singlisiga bo'lgan hozirgi munosabatimni aytaman-u, nima uchun unikiga bormasligimni shu bilan bildiraman».

Aleksey Aleksandrovich qog'ozlarini yig'ishtirdi-da, ularni papkasiga solib turib, baland ovozda:

– Qo'yvor! – deb qichqirdi.

O'zini qo'ymagan xizmatkorga Stepan Arkadichning:

– Ana ko'rdingmi, tag'in yolg'on gapirasana, uyda ekan-ku, – degan ovozi eshitildi, keyin yo'l-yo'lakay paltosini yechib, o'zi xonaga kirib keldi. – Ey, juda yaxshi bo'ldi-da seni topganim! Endi umid qilamanki... – deb Stepan Arkadich quvonib gapira ketdi.

Aleksey Aleksandrovich mehmonni o'tirishga taklif qilmay, tik turgan holda, sovuqqina qilib:

– Borolmayman, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich o'zi ajralish masalasini qo'zg'agan xotining akasi bilan sovuq muomalada bo'lish fikriga tushgan bo'lsa ham, lekin Stepan Arkadichning qalbidan mehr-shafqat daryosi toshib chiqayotganini nazardan qochirgan edi.

Stepan Arkadich chaqnagan ma'sum ko'zlarini katta ochib:

– Nega borolmas ekansan? Nima demoqchisan? – deb hayrat bilan fransuzchalab so'radi. – Yo'q, va'da qilgansan, tamom. Ham-mamiz seni kelasana deb kutib o'tiribmiz.

– Borolmayman deyish bilan shuni aytmoqchimanki, o'rtamizda bo'lgan qarindoshchilik aloqasi endi uzilishi kerak.

– Nega? Ya'ni nima sababdan? Nima uchun? – dedi kulimsirab turib Stepan Arkadich.

– Shuning uchunki, sizning singlingiz, mening xotinim bilan ajralish masalasini qo'zg'ayapman. Meni shunday qilishga...

Lekin Aleksey Aleksandrovich so'zini tamomlamay, Stepan Arkadich: «oh» dedi-yu, kursiga o'zini tashladi. Karenin bunday qiladi deb hech kutmagan edi.

– Yo‘g‘-e, Aleksey Aleksandrovich, bu qanaqa gap! – deb qichirdi Oblonskiy, shunda yuzida iztirob alomati ko‘rindi.

– To‘g‘risi shu.

– Kechir meni-yu, lekin bunday bo‘lishiga ishonmayman, ishona olmayman ham...

Aleksey Aleksandrovich aytgan so‘zlarning o‘zi kutganicha ta’sir qoldirmaganini, endi gapni ochiq aytish zarurligini, gapni har qancha ochib aytganda ham, baribir qaynisiga bo‘lgan munosabati o‘zgarishini sezib, o‘tirib oldi.

– Ha, men ajralishni talab qiladigan bir ahvolga tushib qoldim, men bunga majburman, – dedi.

– Mening aytadigan bir gapim bor, Aleksey Aleksandrovich. Sening ajoyib, insofli odamligingni bilaman, Annaning ham (kechirasan, men Anna to‘g‘risidagi fikrlarimni o‘zgartira olmayman) ajoyib, dilbar xotinligini bilaman, shuning uchun, kechirasan, bu narsalarga hech ishona olmayman. Bunda bir anglashilmovchilik bo‘lishi kerak, – dedi Stepan Arkadich.

– Qani endi, faqat anglashilmovchilikning o‘zi bo‘lsa...

– Shoshma, tushundim, – deb Stepan Arkadich uning so‘zini bo‘ldi, – ha, albatta... faqat, shoshilmaslik kerak. Sira ham, sira ham shoshilmaslik kerak!

– Men ham shoshilganim yo‘q, – dedi Aleksey Aleksandrovich sovuqqina qilib, – innaykeyin, bunday ishlarni birov bilan maslahatlashib ham bo‘lmaydi. Qarorim qat‘iy.

Stepan Arkadich og‘ir xo‘rsinib:

– O, bu juda dahshatli narsa-ku! – dedi. – Sening o‘ringda bo‘lsam, bir ish qilardim, Aleksey Aleksandrovich. Yolvorib so‘rayman, qil shuni! – dedi u. – Fahmimcha, hali ish boshlanmagan. Ishni boshlashdan oldin mening xotinim bilan bir ko‘rish, gaplashib ko‘r. Xotinim Annani o‘z singlisiday yaxshi ko‘radi, seni ham yaxshi ko‘radi, o‘zi juda alomat xotin. Xudo haqi, gaplashib ko‘r! Shu to‘g‘rida menga bir og‘aynigarchilik qil, yolvorib so‘rayman!

Aleksey Aleksandrovich o‘ylanib qoldi, Stepan Arkadich esa unga rahmi kelib, sukunatni buzmay, qarab turdi.

– Xotinimning oldiga borasan-a?

– Qaydam. Shuning uchun ham sizlarni yo‘qlamagan edim. Aloqamiz har holda o‘zgarishi kerak, deb o‘ylayman.

– Nima uchun? Men bunga biron sabab borligini ko‘rmayman. O‘rtamizdagi qarindoshlik aloqamizdan tashqari, men hamma vaqt senga nisbatan do‘stlik qilib kelganman, senda ham menga nisbatan shunday his bor, deb o‘ylashga ijozat ber... Undan keyin, bir-birimizni astoydil hurmat qilib kelganmiz, – dedi Stepan Arkadich, uning qo‘lini qisib turib. – Agar eng yomon taxminlaring to‘g‘ri bo‘lganda ham, tomonlarning unisini ham, bunisini ham qoralamayman, qoralashni uhdamga ham olmayman, shu sababli, aloqamizning nima uchun o‘zgarishi kerakligiga sabab ham topolmayman. Endi iltimos, aytganimni qil, xotiningga uchra.

– Lekin bu masalaga har xil ko‘z bilan qaraymiz, – dedi Aleksey Aleksandrovich sovuqqina qilib. – Xayr, mayli, bu gaplarni bas qilaylik.

– Shoshma, nima uchun bormaysan? Hech bo‘lmasa, bugun tushlikka bor, xo‘pmi? Xotinim seni kutib o‘tiribdi. Jon Aleksey Aleksandrovich, borgin. Hammasidan ham, xotinim bilan bir gaplashib ol. Juda ajoyib xotin u. Xudo haqi, tiz cho‘kib yolvoraman!

Aleksey Aleksandrovich bir xo‘rsinib olgandan so‘ng:

– Agar borishimni juda ham xohlasanglar, xo‘p, borsam boray, – dedi.

Keyin gapni boshqa yoqqa aylantirib yuborish uchun ikkovlarini ham qiziqtirgan narsani – Stepan Arkadichning hali yoshi qaytmagan, lekin birdan shunday baland martabaga mingan yangi boshlig‘ini surishtirdi.

Aleksey Aleksandrovich graf Anichkinni burunlari ham yomon ko‘rib, ko‘p masalalarda u bilan kelishmay kelgan bo‘lsa ham, lekin hozir xizmatchilargina tushunadigan bir hisdan, ya‘ni xizmatida mag‘lubiyatga uchragan kishining xizmatda yuqori martabaga ko‘tarilgan kishiga bo‘lgan adovatidan o‘zini tiya olmadi.

Aleksey Aleksandrovich zaharli bir istehzo bilan:

– Xo‘sh, ko‘rdingmi uni? – deb so‘radi.

– Bo‘lmasa-chi, kecha o‘zi ham mahkamaga keldi. Aftidan, ishni juda yaxshi biladigan, serharakat kishiga o‘xshaydi.

– Ha-ha, lekin harakati nimaga qaratilgan? – deb so‘radi Aleksey Aleksandrovich. – Yangi ish qilishgami yoki qilingan ishlarni buzib, boshqatdan qilishgami? Davlatimizning bir baxtsizligi bo‘lsa,

u ham ma'muriyatdagi qog'ozbozlik, sening boshlig'ing bo'lsa bu ma'muriyatning ko'zga ko'ringan arboblariidan.

– Rostini aytsam, nimasini qoralashni bilmayman. Harakati nimaga qaraganligidan xabarim yo'q, lekin bilgan bitta narsam shuki – ajoyib odam, – deb javob berdi Stepan Arkadich. – Hozirgina oldiga kirib chiqdim, rostdan ham juda ajoyib odam ekan. Birga nonushta qilishdik, innaykeyin, bilasanmi nimani o'rgatdim? Vinoni apelsin bilan ichishni o'rgatdim. Odamning ichini muzdek qiladi. Qiziqki, hech qachon bunaqa qilib ichmagan ekan. O'ziga ham rosa yoqdi-da. Rostini aytsam, yaxshi odam.

Stepan Arkadich soatiga qaradi.

– Voy-bo', soat to'rtidan oshib ketibdi-ku, hali yana Dolgovu-shinnikiga ham borishim kerak! Shunday qil, baraka topkur, tushlikka yetib bor. Bormasang, xotinim bilan meni juda yomon xafa qilasan, ha!

Aleksey Aleksandrovich qaynog'asini boya kutib olgandan butunlay boshqacha qilib kuzatdi.

– Va'da qildimmi – boraman, – dedi u mungli tovush bilan.

– Ishonaver, aytganim chiqadi, umid qilaman, pushaymon bo'lmaysan, – deb Stepan Arkadich kulimsirab turib javob qildi.

Stepan Arkadich yo'l-yo'lakay paltosini kiyib ketayotib, qo'lini yugurdakning boshiga urib oldi-da, qah-qah urib chiqib ketdi.

– Soat beshda, syurtukda, shunday bo'lsin! – deb yana bir marta qichqirdi, eshik og'ziga qaytib kelib.

IX

Uy egasining o'zi soat beshdan oshib, ba'zi mehmonlar kelgandan keyingina yetib keldi. U eshik oldida bir-birlari bilan to'qinishib qolgan Sergey Ivanovich Koznishev va Pessov bilan birga kirib keldi. Oblonskiyning ta'biricha, bular Moskva ziyolilarining ikkita eng zo'r vakili edi. Ikkovi ham xarakterlari, ham aqllari jihatidan hurmatli kishilar edi. Ular bir-birlarini hurmat qilishsa ham, lekin deyarli hamma masalada bir-biri bilan kelisholmasdilar, buning sababi qarama-qarshi oqimga mansub bo'lganliklarida emas, balki bir lager kishilari (dushmanlari ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborar edi) bo'lganlarida edi, lekin bu lagerda ularning har biri o'ziga xos

xususiyatga ega edi. Yarim mavhum masalalarga doir fikrlardagi qarama-qarshilik muvofiqsizlikka qarshi narsa bo'lgani uchun ularning fikrlari hech mahal bir-biriga to'g'ri kelmas, bir-birlariga achchiq qilmasdan, biri ikkinchisining hech tuzalmaydigan xatosiga shunchaki kulibgina qo'yishga o'rganib qolishgan edi.

Stepan Arkadich orqalaridan yetib kelganda, ular ob-havo to'g'risida gaplashib eshikdan kirib kelishayotgan edi. Mehmonxonada Oblonskiyning qaynotasi knyaz Aleksandr Dmitriyevich, yosh Shcherbatskiy, Turovsin, Kiti va Karenin o'tirishgan edi.

Stepan Arkadich mehmonxonaning usiz huvillab turganligini darhol payqadi. Darya Aleksandrovna marosimlarda kiyadigan kulrang shoyi ko'yligida yasanib turgan bo'lsa ham, aftidan, bolalar bo'lmasida yolg'iz ovqat qilishlari kerak bo'lgan bolalari bilan ovora bo'lib, erining haligacha kelmaganidan xavotirga tushgan, mehmonlarga yaxshi qaray olmagan ko'rinardi. Knyaz iborasi bilan aytganda, hamma mehmonga kelgan pop ayollar singari o'tirar, bu yerga qanday kelib qolganlariga hayron bo'lishib, jim o'tirmaslik uchun zo'rma-zo'raki gaplashib o'tirardilar. Ko'ngilchan Turovsin, aftidan, o'zini nobop joyga tushib qolganday his qilayotgan bo'lsa kerak, Stepan Arkadichni ko'rganda durdoq lablarida paydo bo'lgan jilmayish: «Ey, og'ayni, meni aqlli odamlar bilan o'tqazib qo'yib rosa bopladig-da! Menga ichish bo'lsa-yu, Chateau des fleurs bo'lsa bas, jonim kiradi» deyayotganday bo'lardi. Qari knyaz, porlab turgan ko'zlarining qiri bilan Kareninga qarab, jimgina o'tirgan edi, Stepan Arkadich uning ko'z-ko'z qilish uchungina mehmonga chaqiriladigan bu davlat arbobini bitta so'z bilan adabini berib qo'yishni o'ylab qo'rganligini payqadi. Kiti Konstantin Levin kirib kelganda qizarib ketmaslik uchun o'zini mahkam tutib eshikka qarab o'tirardi. Karenin bilan tanishtirib qo'yilmagan yosh Shcherbatskiy o'zini bunga parvo qilmasligini ko'rsatishga tirishardi. Kareninning o'zi esa Peterburg odatiga ko'ra xonimlar bilan birga qilinadigan tushlikka frak kiyib, oq bo'yinbog' taqib kelgan edi, Stepan Arkadich uning bergan so'zi ustidan chiqish uchungina kelganligini, bu odamlar orasida o'tirish bilan og'ir bir burchni ifoda etayotganligini yuzidan payqadi. Stepan Arkadich kelguncha hamma mehmonlarni muzlatib qo'yan, sovuqchilikka sabab bo'lgan bosh aybdor xuddi shuning o'zi edi.

Stepan Arkadich mehmonxonaga kirdi-yu, hamma vaqt kechikib, yo‘q bo‘lib ketgan kezlarida har doim unga bahona bo‘lgan va uni balolardan qutqazgan bir knyaz ushlab qolganligini aytib uzr so‘radi-da, bir zumda hammani bir-biri bilan tanishtirib chiqib, Aleksey Aleksandrovich bilan Sergey Koznischev o‘rtasiga Polshani ruslashtirish mavzusini tashlab qo‘ydi; bu mavzuga uchovi baravariga chang soldi. Turovsinni yelkasidan qoqib qo‘yib, qu-log‘iga bir kulgili narsani aytdi-yu, uni xotini bilan knyaz yoniga o‘tqazdi. Keyin Kitiga bugun juda ham ochilib ketganligini aytib, Shcherbatskiyni Karenin bilan tanishtirib qo‘ydi. Bir daqiqa ichida bu jamoat xamirini shu qadar qorishtirib tashladiki, mehmonxona ari iniga aylanib, hamma yoqni g‘ovur-g‘uvur bosib ketdi. Faqat Konstantin Levingina yo‘q edi. Lekin yo‘qligi yaxshi bo‘ldi, chunki Stepan Arkadich yemakxonaga chiqib qarasa portveyn bilan xeresni Levedan emas, Depredan olib kelishibdi, Stepan Arkadich dahshatga tushdi. U kucherni darhol Levega yuborishni buyurib, yana mehmonxonaga qarab yurdi.

Yemakxonada Konstantin Levin duch keldi.

– Kechikkanim yo‘qmi?

– Sening kechikmagan vaqting ham bo‘lganmi? – dedi Stepan Arkadich qo‘ltig‘idan olib.

Levin qo‘lqopi bilan qalpog‘idagi qorlarni qoqib turib:

– Mehmoning ko‘pmi? Kimlar bor? – deb so‘radi beixtiyor qizarib.

– Hammasi ham o‘zimizga qarashli odamlar. Kiti ham shu yerda. Yur, Karenin bilan tanishtirib qo‘yay.

Stepan Arkadich o‘zining liberal ekanligiga qaramay, Karenin bilan tanishish har qanday kishiga manzur bo‘lishligini bilardi, shuning uchun ulfatlariga ana shu nozik mehmonni ko‘z-ko‘z qilardi. Lekin Konstantin Levin hozirgi daqiqada bu tanishishdan zavqlanadigan holatda emas edi. Vronskiy bilan uchrashgan va xotirasida saqlanib qolgan o‘sha kechadan beri (agar katta yo‘lda ko‘rgan birgina daqiqasi hisobga olinmaganda) Kitini ko‘rmagan edi. Kitini bugun shu yerda ko‘rishni butun qalbi bilan sezib turardi. Lekin miyasidagi fikrlariga nuqta solib qo‘ymaslik uchun o‘zini zo‘r berib buni sezmaganga solardi. Mana endi Kitining shu yerdaligini eshitganda, birdan shu qadar quvonib ketdi, ayni zamonda shu qadar vahimaga

tushib qoldiki, nafasi bo'g'ziga tiqildi. Aytadigan gapini aytolmay qoldi.

«Qanaqa, qanaqa bo'lib qoldi ekan? Avvalgidaqamikan yo karetada ko'rganimdaqamikan? Bordi-yu, Darya Aleksandrovnaning gapi to'g'ri bo'lsa-chi? Nega ham to'g'ri bo'lmasin?» deb o'ylardi u.

Levin zo'r qiyinchilik bilan:

– Kel, meni Karenin bilan tanishtirib qo'y, – dedi-yu, shiddatli, qat'iy odimlar bilan mehmonxonaga kirib, uni ko'rdi.

U ilgari daqa emas edi, karetadagidaqa ham emas edi, butunlay boshqacha edi.

U qo'rquvda, vahmda, xijolatda edi, shu tufayli yanada latofatli edi. U Levinni mehmonxonaga kirgan lahzada ko'rdi. U Levinni kutardi. Levinni ko'rganda quvondi va quvonganidan shu qadar uyalib ketdiki, Levin uy bekasining yoniga borganda, so'ngra unga yana qaraganda, o'ziga, Levinga va hamma narsani ko'rib turgan Dolliga u o'zini tutolmay, hozirgina yig'lab yuboradigandek ko'rinib ketdi. Kiti qizardi-bo'zardi, yana qizardi va Levinning o'z yoniga kelishini kutib, lablari xiyol qaltirab, shamdek qotib qoldi. Levin uning yoniga keldi, bosh egib ta'zim qildi, so'ngra indamasdan qo'lini cho'zdi.

Agar lablarining xiyol titrashi bo'lmasa, ko'zlarini qoplagan va unga jilo berib turgan namlik bo'lmasa, og'zidan quyidagi so'zlar chiqqanda, tabassumi osoyishta ko'ringan bo'lar edi.

– Ko'rishmaganimizga necha vaqtlar bo'ldi-ya! – dedi-yu, Kiti shiddatli bir qat'iyat bilan uning qo'lini o'zining sovuq qo'li bilan qisdi.

Levin baxt tabassumi bilan charaqlab:

– Siz meni ko'rganingiz yo'q, lekin men sizni ko'rganman, – dedi. – Temir yo'ldan Yergushovoga ketayotganingizda ko'rganman.

– Qachon? – deb ajablanib so'radi Kiti.

Levin qalbidan tushib chiqayotgan baxt zamzami bo'g'ziga tiqila boshlaganini sezib:

– Siz Yergushovoga ketayotgan edingiz, – dedi. Keyin: «Allaqanday nomunosib narsa haqidagi fikrlarimni bu iffatli mehribon xilqatga nisbat berishga qanday jur'at etdim! Ha, Darya Aleksandrovna aytgan narsalar ham to'g'riga o'xshaydi», deb o'yladi.

Stepan Arkadich Levinni qo'lidan ushlab, Kareninning yoniga olib keldi.

– Ruxsat etinglar, tanishtirib qo‘yay, – dedi-yu, Stepan Arkadich ularning nomlarini aytdi.

Aleksey Aleksandrovich Levinning qo‘lini qisib turib:

– Yana ko‘rishganim uchun juda xursandman, – deb qo‘ydi sovuqqina qilib.

Stepan Arkadich ajablanib:

– Iya, tanishmisizlar? – deb so‘radi.

– Vagonda uch soat birga o‘tirganmiz, – dedi Levin kulimsirab, – keyin xuddi maskaraddan chiqqanday, bir-birimizga qiziqib chiqdik, har holda, men shunday holatda edim.

– Shunaqami! Buyursinlar, – dedi Stepan Arkadich, yemakxona tomonga ishora qilib.

Erkaklar yemakxonaga chiqishib, tamaddilar, olti nav sharob, kumush kurakchali va kurakchasiz olti nav pishloq, ikra, sho‘r baliq, har xil konservalar, fransuz bo‘lkalari to‘g‘ralgan likopchalar qo‘yilgan stol yoniga kelishdi.

Erkaklar hidlari dimog‘larga urilayotgan sharoblar bilan gazaklar yonida turishar va Sergey Ivanovich Koznishev, Karenin hamda Pessov o‘rtasida Polshani ruslashtirish masalasi ustida davom etayotgan suhbat ovqat kutib turganlari uchun sekin-sekin pasayib borardi.

Mavhum va jiddiy munozarani to‘xtatish uchun suhbatni askiya bilan tugatishda va shu bilan suhbatdoshlarining kayflarini o‘zgartirib yuborishda Sergey Ivanovichga teng keladigan odam yo‘q edi, u hozir ham shunday qildi.

Aleksey Aleksandrovich, rus ma‘muriyati tomonidan joriy qilinishi kerak bo‘lgan oliy prinsiplar natijasidagina Polshani ruslashtirish mumkin deb da‘vo qilardi.

Pessov bir xil xalq juda tig‘iz joylashgandagina boshqa xalqni o‘ziga singdirib yubora oladi, deb turib oldi.

Koznishev u da‘voga ham, bu da‘voga ham faqat hadlaridan oshib ketmaslik sharti bilan qo‘shilardi. Ular mehmonxonadan chiqishayotganda, suhbatga yakun yasash uchun Sergey Ivanovich kulimsirab turib bunday dedi:

– Shu sababli, boshqa millat xalqlarini ruslashtirish uchun bita yo‘l bor: ko‘proq bola tug‘dirish. Mana shu masalada ukam ikkovimiz hammadan yomonroq harakat qilyapmiz. Xotinli janoblar,

sizlar esa, ayniqsa, siz, Stepan Arkadich, juda yaxshi vatanparvarlik ko'rsatyapsizlar, nechta bolangiz bor? – u mehr bilan kulimsirab uy egasidan so'radi-da, ikkinchi bo'sh qadahchani keltirib unga tutdi.

Hamma kuldi, ayniqsa, Stepan Arkadich sharaqlab kulib yubordi. Keyin og'zidagi pishloqni chaynab va o'ziga tutilgan bo'sh qadahchaga allaqanday maxsus navli sharobdan quyib turib:

– Ha, mana bu eng yaxshi yo'l! – dedi. Suhbat shu hazil bilan xotima topdi.

– Mana bu pishloq yomon emas. Marhamat! – derdi uy egasi. Keyin chap qo'li bilan Levinning paylarini ushlab ko'rib: – Nima balo, yana gimnastika bilan mashg'ul bo'ldingmi? – deb so'radi. Levin kulimsirab, paylarini taranglatgan edi, Stepan Arkadichning barmoqlari tagidan, nafis movut syurtugining yengi ostidagi po'latday bikir mushaklari do'ppayib chiqdi.

– Po'lat-a, po'lat! Qoyil!

Ov to'g'risida eng muhmal tushunchaga ega bo'lgan Aleksey Aleksandrovich yupqa qilib kesilgan yumshoq nonga pishloq qo'ya turib:

– Meningcha, ayiqni ovlash uchun, odamda ham zo'r kuch bo'lishi kerak, – dedi.

Levin kulimsiradi.

– Hech qanday kuch kerak emas. Aksincha, ayiqni yosh bola ham o'ldirishi mumkin, – dedi Levin, keyin uy bekasi bilan gazak stoliga yaqinlashib kelayotgan xonimlarga xiyol bosh egib, o'zini chetga oldi.

Kiti hadeb sirg'anib ketavergan silliq qo'ziqorinni sanchqi bilan ilib olishga tirishib va ichidan oppoq qo'li ko'rinib turgan to'rlarini silkitib turib:

– Siz ayiq o'ldirgan emishsiz, rostmi? – deb so'radi. Keyin chiroyli boshini unga sal o'girib, kulimsirab ilova qildi: – Siz tomonda ayiqlar ham bormi?

Kitining aytgan so'zlarida g'ayrioddiy bir narsa yo'qdek ko'rinsa ham, lekin u bu so'zlarni aytib turganda, har bir sadosida, lablari, ko'zlari va qo'llarining har bir harakatida Levin uchun so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydigan naqadar ajoyib ma'nolar bor edi! Bunda uzr so'rash ham, unga ishonch ham, navozish, nozlanib qo'rqa-pisa erkalanish ham, va'da ham, umid ham, Levin ishona olmasligi mum-

kin bo'lmagan va uni baxt rishtalari bilan bo'g'a boshlagan sevgi ham bor edi.

– Yo'q, Tver guberniyasiga borgan edik. U yoqdan kelayotib, vagonida sizning qaynog'angiz yoki qaynog'angizning kuyovi bilan uchrashib qoldik, – dedi Levin kulimsirab. – O'zi ham juda qiziq uchrashuv bo'ldi.

Keyin butun kechasi bilan uxlamaganini, Aleksey Aleksandrovichning kupesiga po'stinda bostirib kirganini qiziq qilib aytib berdi.

– Konduktor mening ustimdagi kiyimimni ko'rib, otashkurakda qimchib chiqarib tashlamoqchi bo'ldi, lekin men balandparvoz so'zlarni ishlata boshladim, innaykeyin... siz ham, – dedi Kareninga qarab va uning nomini esidan chiqarib, – oldin kalta po'stinimni ko'rib chiqarib tashlamoqchi bo'ldingiz, xayriyat, keyin yonimni oldingiz, buning uchun sizdan juda minnatdorman.

Aleksey Aleksandrovich barmoqlarining uchini dastro'molchasi bilan artib turib:

– Umuman, joy tanlashda yo'lovchilarning huquqi juda ham noaniq, – dedi.

– Mening to'g'rimda taraddudga tushib qolganligingizni payqab qoldim, – dedi Levin, muloyimlik bilan kulimsirab, – keyin po'stinim qoldirgan taassurotni yumshatish uchun darrov oqilona suhbat boshlab yubordim.

Sergey Ivanovich uy bekasi bilan gaplashib turib, bir qulog'i bilan ukasining gaplariga quloq solayotgan edi, ukasiga bir olayib qaradi-yu: «Unga bugun nima bo'ldi? Juda dadil-ku», deb o'yladi. Levin o'zida qanot paydo bo'lganini sezib turganidan akasining xabari yo'q edi. Levin o'z so'zlarini Kiti eshitib turganligini, buni eshitishdan huzur qilayotganligini payqardi. Hozir uning aqlini olgan narsa faqat shu edi. Faqat bu xonadagina emas, balki butun olamda o'ziyu Kitidan boshqa hech kim qolmagan edi (uning hayoti buyuk e'tibor va ma'no kasb etgan edi). U o'zini boshni gangitadigan balandlikda his etar, anavi mehribon, dilbar Kareninlar, Oblonskiylar va butun dunyo esa unga pastda, juda-juda uzoqda ko'rinardi.

Stepan Arkadich zarracha ham sezdirmasdan, ularning yuzlariga ham qaramasdan, xuddi boshqa joy yo'qdek, Levinni Kitining yoniga o'tqazib qo'ydi.

– Qani, bo‘lmasa, sen shu yerga o‘tira qol, – dedi u Levinga.

Ovqatlar ham yaxshi, idish-oyoqlar ham soz edi. (Stepan Arkadich yaxshi idish-oyoqlarga ishqiboz edi). Mari Luiz deb ataladigan sho‘rva og‘izlarda qolardi, og‘izda erib ketadigan mayda somsalar ta‘rifdan tashqari edi. Oq bo‘yibog‘ taqib olgan ikki yugurdak bilan Matvey ovqatlarni sharpasiz keltirib, churq etmay, epchillik bilan vinolarni quyib turishardi. Ziyofat moddiy jihatdan muvaffaqiyatli edi, g‘ayrimoddiy jihatdan esa yana ham soz bo‘ldi. Suhbat goh umumiy, goh xususiy mavzularda sira tinmay davom etdi, ovqat oxiriga borib shu qadar qizib ketdiki, erkaklar stoldan turishganda ham gaplari to‘xtamadi, hatto Aleksey Aleksandrovich ham jonlanib ketdi.

X

Pessov oxirigacha munozara qilishni yaxshi ko‘rardi, Sergey Ivanovichning so‘zlaridan qanoatlanmagan, buning ustiga, o‘z fikrining to‘g‘ri emasligini ham seza boshlagan edi. Shuning uchun sho‘rva ichib o‘tirishganda Aleksey Aleksandrovichga yuzlanib:

– Men hech qachon aholining faqat tig‘izligigina masalani hal qiladi, deb o‘ylagan emasman, – dedi, – lekin bunda prinsip emas, asoslarni nazar-e‘tiborga olish kerak.

Aleksey Aleksandrovich shoshmasdan, bo‘shashib turib javob qildi:

– Nazarimda, ikkovi ham bir narsa. Mening fikrimcha, boshqa xalqqa oliy taraqqiyotga ega bo‘lganlaringina ta‘sir o‘tkaza oladi, qaysiki...

– Hamma gap shundaki, – deb Pessov o‘zining yo‘g‘on tovushi bilan gapni bo‘lib qo‘ydi, u hamma vaqt fikrini aytishga shoshilar va hamma vaqt jon-jahdi bilan gapirardi, – oliy taraqqiyot deb niman taxmin qilish kerak? Inglizlar, fransuzlar, nemislarning qaysi biri taraqqiyotning oliy pog‘onasida? Kim kimni o‘z millatiga singdirib oladi? Ko‘rib turibmizki, Reyn fransuzlashib qoldi, holbuki, nemislar ulardan past emas! – deb qichqirdi u. – Bunda boshqa bir qonun bor!

Aleksey Aleksandrovich qoshlarini xiyol ko‘tarib:

– Nazarimda, ustunlik hamma vaqt chinakam ta‘lim tomonda bo‘lishi kerak, – dedi.

– Xo‘p, lekin chinakam ta’limning belgilari deb nimalarni tushunishimiz kerak? – dedi Pessov.

– Fikrimcha, belgilari ma’lum, – deb qo‘ya qoldi Aleksey Aleksandrovich.

– Uning belgilari juda ham ma’lum deb aytib bo‘ladimi? – deb Sergey Ivanovich nozik bir tabassum bilan gapga aralashdi. – Faqat sof klassik ta’limgina haqiqiy ta’lim bo‘la oladi, men bunga tan beraman, lekin biz taraflarning qattiq talashib-tortishayotganlarini ko‘rib turibmiz, demak, qarshi lagerning o‘z foydasi uchun kuchli dalillari bo‘lishi mumkinligini inkor qilib bo‘lmaydi.

– Klassiksiz, Sergey Ivanovich. Qizilidan bo‘lsinmi? – dedi Stepan Arkadich.

Sergey Ivanovich, stakanni shisha og‘ziga tutib turib, yosh bolaga ilinchoqlik qilayotgandek kulimsiradi.

– Men ta’lim berishning u xili to‘g‘risida ham, bu xili to‘g‘risida ham fikrimni aytayotganim yo‘q, – dedi u, – faqat har ikki tomonning ham kuchli dalillari borligini gapiryapman, – deb so‘zini davom qildi Aleksey Aleksandrovichga yuzlanib. – Men klassik ta’lim olganman, ammo bu munozarada shaxsan o‘z o‘rnimni topolmayman. Real fanlar oldida klassik fanlarga nima uchun ko‘proq ustunlik berilishining ravshan dalillarini ko‘z oldimga keltirolmayman.

– Tabiiy fanlarning ham pedagogik taraqqiyotda o‘shalarga o‘xshash ta’siri bor, – deb Pessov gapni ilib ketdi. – Masalan, astronomiyani oling, botanikani oling, umumiy qonunlar sistemasi bilan hayvonotni oling!

– Men bu fikrga to‘la qo‘shilolmayman, – deb javob qildi Aleksey Aleksandrovich. – Tillarning sarf-nahvini o‘rganish jarayonining o‘zi ma’naviy taraqqiyotga juda ham samarali ta’sir qiladi, nazarimda, buni e’tirof qilmasdan bo‘lmaydi. Bundan tashqari, klassik yozuvchilarning ta’sirlari axloq-odob masalalarida juda zo‘r kuchga ega bo‘lgani holda, tabiiy fanlarni o‘qitish ishlari zamonamizning marazi bo‘lib kelayotgan zararli, yolg‘on ta’limotlar bilan qo‘shib olib borilayotibdi, bu bir baxtsizlikki, buni inkor qilib bo‘lmaydi.

Sergey Ivanovich bir nima demoqchi bo‘lgan edi, Pessov do‘rillagan tovushi bilan uni bosib ketdi. U bu fikrning nohaqligini

qizishib isbot qilishga kirishdi. Sergey Ivanovich, mutlaqo g'alaba qiladigan e'tiroz tayyorlab qo'ygan bo'lsa kerak, jimgina so'z navbatini kutib turdi.

Sergey Ivanovich nozikkina kulimsirab Kareninga yuzlandi-da:

– Lekin, – dedi, – agar klassik ta'lim tomonida hozir siz aytgan odob-axloq disons le mot¹ – aksilnigilistik ta'sir ustunligi bo'lmaganda, u yo bu fanlarning foyda va zararlarini taroziga solib tortish qiyin bo'lardi, qaysi birini ma'qullash masalasi ham bu qadar tez, uzil-kesil hal qilinmas edi, bu fikrga qo'shilmasdan bo'lmaydi.

– Shubhasiz.

– Basharti, bu antinigilistik ta'sir ustunligi klassik fanlar tomonida bo'lmaganida, biz har ikki tomonning ham dalillari ustida ko'proq o'ylagan, taroziga solib tortib ko'rgan bo'lar edik, – dedi Sergey Ivanovich nazokat ila kulimsirab, – u oqimga ham, bu oqimga ham ixtiyor bergan bo'lar edik. Lekin hozir biz bu klassik ta'limda nigilizm maraziga qarshi hapdori kuchi borligini bilamiz, shuning uchun ham bu dorini o'z bemorlarimizga dadil tavsiya qilamiz... Nima, unda hapdori kuchi yo'qmi? – deb so'zini hazil-mu'toyiba bilan tugatdi.

Sergey Ivanovichning hapdori haqidagi gapi hammani kuldirdi, ayniqsa, boyadan beri qiziq gapni kutib o'tirgan Turovsin xaxolab, qah-qahlab kulib yubordi.

Stepan Arkadich Pessovni taklif qilishda yanglishmagan edi. Pessov bor erda ma'noli suhbat bir daqiqa ham to'xtamas edi. Sergey Ivanovich suhbatga o'z hazili bilan endi xotima berib ham ediki, Pessov yana darhol yangi bir mavzuni ko'tarib qoldi.

– Hukumatda shunday fikr bor, deyilgan gapga ham aslo qo'shib bo'lmaydi, – dedi u. – Hukumat ko'riladigan tadbirlarning ta'siriga loqayd bo'lgan holda umumiy mulohazagagina suyanib ish ko'rsa kerak. Masalan, xotin-qizlarga bilim berish masalasi zararli deb hisoblanishi kerak edi, holbuki, hukumat xotin-qizlar uchun kurslar, universitetlar ochib berayotibdi.

Ana shundan keyin suhbat darrov xotin-qizlarga bilim berish mavzusiga ko'chdi.

¹ Dangal aytaylik (*frans.*).

Aleksey Aleksandrovich xotin-qizlarga bilim berish masalasining odatda xotin-qizlar erkinligi to'g'risidagi masala bilan aralastirib yuborilayotgani va faqat shu sababdangina bu tadbir zararli deb hisoblanishi mumkinligi haqida fikr yuritdi.

– Aksincha, men bu ikki masalani bir-biri bilan bog'liq deb bilaman, – dedi Pessov, – bu faqat ko'zga ikki xil bo'lib ko'rinardi, xolos. Xotin-qizlar ma'lumotlari yetishmaganligi orqasida huquqlaridan mahrum, ma'lumotlari yetishmaganligi esa huquqsizlikdan kelib chiqadi. Xotin-qizlarning qulligi shu qadar kuchli, shu qadar eski bir qullikka, ularni bizdan ayirib turgan o'rtadagi girdobni ko'pincha payqashni istamaymiz, buni esdan chiqarmaslik kerak.

Sergey Ivanovich Pessovning so'zi tamom bo'lgandan so'ng:

– Siz huquq to'g'risida gapirdingiz, – dedi, – sud ishlarida maslahatchi vazifasini egallash, zemstvo a'zosi bo'lish, idoralarda rais bo'lib o'tirish huquqi, xizmatga kirish, parlamentga a'zo bo'lish huquqi...

– Shubhasiz.

– Lekin xotin-qizlar kamdan-kam uchraydigan bir istisno tariqasida bu o'rinlarni egallashganda ham, nazarimda, «huquq» so'zini siz noto'g'ri qo'lladingiz. Agar «vazifa» deganingizda, to'g'riroq bo'lardi. Sud maslahatchisi bo'lib ishlaganimizda ham, zemstvo a'zosi bo'lganimizda ham, telegraf amaldori bo'lib xizmat etayotganimizda ham biz o'zimizning vazifamizni ado etib turibmiz desak, har qanday odam bu gapimizga qo'shiladi. Shuning uchun gapning ochig'ini aytganda, xotin-qizlar vazifaga muhtoj, mana bunisi tamoman qonuniy. Shuning uchun ularning erkaklar boshiga tushgan umumiy ishga yordam berish istaklariga faqat xayrixoh bo'lishgina mumkin.

– Tamoman to'g'ri, – deb tasdiqladi Aleksey Aleksandrovich. – Ular bu vazifani uddalay oladilarmi-yo'qmi, mening fikrimcha, masala faqat shuning ustida.

– Ular orasiga ma'rifat tarqalganda, – deb Stepan Arkadich gap qotdi, – albatta, uddalay olishadi.

– Biz buni...

Gapga uzoq quloq solib o'tirgan knyaz kinoya bilan kulib turgan kichkina ko'zlarini chaqnatib:

– Xo‘sh, maqol-chi? – dedi, – qizlarim oldida aytaversam bo‘ladi: sochi uzun...

– Negrlar ozod qilinmasdan ilgari ular to‘g‘risida ham xuddi shunday deb o‘ylashardi, – dedi jahli chiqib Pessov.

– Men xotin-qizlarning yangi vazifalar axtarishiga hayron qolaman, – dedi Sergey Ivanovich, – holbuki, biz erkaklar odatda bu xil narsalardan o‘zimizni olib qochamiz.

– Vazifa – huquq va boylikning jo‘rasi; hokimiyat – pul, sharaf demakdir – xotin-qizlar shularni qidirishadi, – dedi Pessov.

– Enagalik huquqini olganimda ham, menga haq bermay, xotinlarga haq berishganini ko‘rsam, baribir jahlim chiqardi, – dedi qari knyaz.

Turovsin xaxolab kulib yubordi. Sergey Ivanovich bo‘lsa bu gapni o‘zi aytmaganiga afsus eb qoldi. Hatto Aleksey Aleksandrovich ham kulimsirab qo‘ydi.

– Erkak kishi qanday enaga bo‘la oladi, – dedi Pessov, – xotin kishi...

– Yo‘q, bir ingliz kemada chaqalog‘ini enaga bo‘lib emizibdi, – dedi qari knyaz qizlari oldida bu pardasiz gapni aytishga tortinmay.

– O‘shandaqa inglizlardan chiqqan enaga qancha bo‘lsa, xotin-qizlardan chiqadigan amaldorlar ham shuncha bo‘ladi, – deb aytdi Sergey Ivanovich.

Stepan Arkadich Pessovga xayrixohlik ko‘rsatish va uni himoya qilish bilan hamma vaqt o‘zi ko‘zda tutgan Chibisovani eslab:

– Shundaydir-u, lekin oilasi bo‘lmagan qiz nima qilishi mumkin? – dedi.

Darya Aleksandrovna Stepan Arkadich qanday qizni nazarda tutib gapirganligini payqagan bo‘lsa kerak, qo‘qqisdan gapga aralashib, tajanglik bilan:

– Agar o‘sha qizning o‘tmishiga yaxshilab ko‘z tashlansa, u holda bu qiz o‘ziga nozik ish topishi mumkin bo‘lgan o‘z oilasini yoki opasining oilasini tashlab ketganligini ko‘rasiz, – dedi.

– Lekin biz prinsip ustida, ideal ustida gap talashib o‘tiribmiz, – dedi Pessov do‘rillagan ovozi bilan. – Xotin-qizlar erkin bo‘lish, ma‘rifatli bo‘lish huquqini xohlashadi. Ular bu narsalarning imkoni yo‘qligini ko‘rib siqilishadi, ezilishadi.

– Men bo‘lsam, meni bolalar uyiga enaga qilib olishmasligini bilganim uchun siqilib, ezilib yotibman, – dedi yana qari knyaz Turovsinning kayfini chog‘ qilib, Turovsin kulgi zo‘ridan sarsabilni yo‘g‘on tomoni bilan qaylaga tushirib yubordi.

XI

Umumiy gurungga Kiti bilan Levindan boshqa hamma aralashib o‘tirdi. Oldin, bir xalqning ikkinchi xalqqa o‘tkazadigan ta’siri haqida gap ketayotganda, Levinning bu boradagi fikrlari beixtiyor miyasiga kelgan bo‘lsa ham, lekin ilgarilari o‘zi uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bu fikrlar, xuddi tushidagidek, miyasidan lip-lip o‘tar, endi unda zarracha ham maroq uyg‘otmas edi. Hech kimga darkori bo‘lmagan bu narsalar to‘g‘risida ularning jon kuydirib gap talashayotganlari Levinni hatto taajjublantirdi. Ularning xotin-qizlar huquqi va ma’rifati to‘g‘risidagi gaplari ham Kitini xuddi ana shunday maroqlantirishi kerak edi. Chet elda orttirgan dugonasi Varenkani, uning birovga qaram bo‘lib, og‘ir hayot kechirishini eslab, bu haqda necha martalab o‘ylagan, erga tegmasa, o‘zining boshiga nimalar tushishini necha martalab o‘ylagan, bu haqda opasi bilan necha martalab talashgan edi! Hozir esa bu narsa uni zarracha ham qiziqtirmasdi. Ularning Levin bilan o‘zaro gaplari bor edi, gaplar emas, balki ularni daqiqa sayin bir-biriga yaqinlashtirib, ular qadam tashlagan noma’lum bir istiqbol oldida qalblarini shodlik vahimasi bilan to‘ldirib borayotgan allaqanday sirli bir munosabat bor edi.

Oldin Levin Kitining, o‘tgan yili meni karetada qanday qilib ko‘ra oldingiz, degan savoliga javoban, pichan o‘rog‘idan kelayotib, katta yo‘lda uchratganini aytib berdi.

– Sahar pallasi edi. Siz endi uyg‘ongan bo‘lsangiz kerak. Oyingiz burchakda uxlab o‘tirgan ekanlar. Ajoyib bir tong edi. O‘zim ketyapman-u: «Bu to‘rt otlik karetada kim bor ekan-a?» deb o‘ylayman. Qo‘ng‘iroqli to‘rt azamat ot g‘izillab o‘tayotganda, birdan siz ko‘rinib qoldingiz: derazaga qaragam, kallapo‘shingizning bog‘ichlarini ikki qo‘lingiz bilan ushlab, mana bunday o‘tiribsiz, bir nimani qattiq o‘ylab boryapsiz, – dedi u kulimsirab. – Qani endi, o‘shanda nimalarni o‘ylayotganingizni bilsam. Muhim narsamidi?

«Sochlarim to‘zg‘ib ketmaganmidikan-a?» deb o‘yladi Kiti, lekin bu tafsilotni xotirlaganda Levinning lablarida muloyim tabassum paydo bo‘lganini ko‘rib, o‘zi o‘shanda qoldirgan taassurotning, aksincha, juda ham yaxshi ekanligini payqadi. Kiti qizarib, xursandligidan kulib yubordi.

– Qarang-a, hech esimda yo‘g‘-a.

Levin Turovsinning kulgidan yosh kelgan ko‘zlariga va silkinib turgan gavdasiga havasi kelib:

– Qanday yaxshi kuladi-ya? – dedi.

– Uni ko‘pdan buyon taniysizmi? – deb so‘radi Kiti.

– Qayoqda deysiz!

– Chamamda, uni yomon kishi deb o‘ylasangiz kerak, a?

– Yomon emas, past odam!

– Hech-da! Miyangizdan darrov quving bu fikrni! – dedi Kiti. – Men ham ilgari uning to‘g‘risida xuddi shunday fikrda edim, lekin u nihoyatda dilkash, mehribon odam ekan. Qalbi oltin.

– Qalbini qanday qilib bildingiz?

– Biz u kishi bilan juda qadrdon do‘stmiz. Men uni yaxshi bila-man. O‘tgan qish... Siz biznikiga kelib ketganingizdan keyin, – dedi Kiti, gunohkor kishiday, ayni zamonda dilrabo bir tabassum bilan, – Dollining hamma bolasi qizilcha bo‘lib qoldi, o‘shanda Turovsin bir kun yo‘qlab keldi. – Kiti shivirlab gapira ketdi: – Bilasizmi, Turovsin Dolliga shu qadar achindiki, o‘sha yerda qolib, opam bilan birga bolalarga qarab yurdi. Ha, opamlarnikida uch hafta turib, bolalarni xuddi enagaday parvarish qildi.

Kiti opasi tomonga egilib:

– Bolalar kasal bo‘lganda Turovsinning boqishganini Konstantin Dmitriyevichga aytib beryapman, – dedi.

Dolli o‘zi to‘g‘risida gapirishayotganini sezib o‘tirgan Turovsinga qaradi-yu, muloyimgina kulimsirab:

– Ha, juda ajoyib, dilkash kishi! – dedi.

Levin Turovsinga yana bir karra qaradi-da, bu odamning dilkashligini ilgari fahmlamaganiga hayron qoldi. Keyin hozir his qila boshlagan narsalarini astoydil bo‘yniga olib:

– Uzur, uzur, odamlar to‘g‘risida minba‘d yomon fikr qilmayman! – dedi.

XII

Xotin-qizlarning huquqlari haqida ochilgan munozarada xonimlar oldida nikoh huquqidagi tengsizlik masalasiga tegib o'tilgan edi. Tushlik mahalida Pessov bu masalani necha qaytalab qo'zg'amoqchi bo'lsa ham, Sergey Ivanovich bilan Stepan Arkadich gapni astagina boshqa yoqqa burib yuborib turishdi.

Ovqatdan so'ng o'rinlaridan turishib, xonimlar chiqib ketganlaridan so'ng, Pessov ular orqasidan ergashmay, Aleksey Aleksandrovichga yuzlandi-da, tengsizlikning asosiy sababini so'zlab ketdi. Uning fikricha, er-u xotin o'rtasidagi tengsizlik shundan iborat emishki, xotinning vafosizligi bilan erning vafosizligini qonun ham, afkor omma ham bir xil jazolamas emish.

Stepan Arkadich shoshib-pishib Aleksey Aleksandrovichning yoniga keldi-yu, papiros taklif qildi.

Aleksey Aleksandrovich o'zini xotirjam tutib:

– Yo'q, chekmayman, – degandan so'ng, bu munozaradan o'zining qo'rqmasligini atayin ko'rsatmoqchi bo'lgandek, Pessovga sovuqqina jilmayib turib murojaat qildi.

– Bunday qarashning sababi, mening fikrimcha, masalaning asl mohiyatida bo'lishi kerak, – dedi u, keyin mehmonxonaga o'tib ketmoqchi bo'ldi, lekin shu mahal kutilmaganda Turovsin Aleksey Aleksandrovichga murojaat qilib qoldi.

Shampan vinosidan ichib ancha jonlangan va joniga tekkan sukkunatni buzish uchun qachondan beri payt poylab turgan Turovsin:

– Pryachnikov voqeasini eshitdingizmi? – deb so'radi. – Vasya Pryachnikov, – dedi yana, nam va qizil lablari bilangina kulimsirab, u ko'proq bosh mehmon Aleksey Aleksandrovichga yuzlanib gapirdi. – Tverda Kvitskiy bilan duelda otishib, raqibini o'ldirgan emish, bugun menga shunday deyishdi.

Hamma vaqt mayib bo'lgan eringni jo'rttaga urib olishdan qo'rqqanidek, Stepan Arkadich ham bugun gap nuqul Aleksey Aleksandrovichning og'riq yeriga borib tegayotganligini sezib turardi. U kuyovini boshlab chiqib ketmoqchi bo'lgan edi – bo'lmadi, Aleksey Aleksandrovichning o'zi qiziqib so'rab qoldi:

– Pryachnikov nimaga duelda otishibdi?

– Xotini to'g'risidan. Erkakcha ish qilibdi, azamat! Duelga chaqiribdi-yu, o'ldiribdi-qo'yibdi!

– E! – dedi parvosizgina Aleksey Aleksandrovich qoshlarini kerib, keyin mehmonxonaga o‘tib ketdi.

Dolli salqin mehmonxonada qo‘rqa-pisa, tabassum bilan uni kutib olib, dedi:

– Juda xursandman kirganingizga, siz bilan gaplashadigan gapim bor. Shu yerga o‘tiraylik.

Aleksey Aleksandrovichning kerilgan qoshlari o‘ziga beparvolik tusini berib turardi, u shu qiyofada Dolli yoniga o‘tirib, yasama bir tabassum bilan jilmaydi.

– Shuning uchun ham sizdan uzr so‘rab darhol jo‘namoqchi edim, – dedi u. – Ertaga yo‘lga chiqishim kerak.

Darya Aleksandrovna Annaning gunohsizligiga qattiq ishonar, shuning uchun ham gunohsiz dugonasini pinagini buzmay halok qilish fikriga tushib qolgan bu sovuq, hissiz kishiga qarshi qo‘zg‘algan g‘azabidan qoni qochib, lablari titray boshlaganini his qilib o‘tirar edi.

Dolli uning ko‘zlariga dadil tikilib:

– Aleksey Aleksandrovich, – dedi. – Men sizdan Annani so‘rovdim, javob bermadingiz. Ahvoli qanday?

Aleksey Aleksandrovich uning yuziga qaramasdan oq:

– Salomat bo‘lsa kerak, Darya Aleksandrovna, – deb javob qildi.

– Aleksey Aleksandrovich, meni kechiring, haqim yo‘q, albatta... lekin Annani men o‘z singlimday yaxshi ko‘raman, hurmat qilaman, iltimos qilaman sizdan, yolvorib so‘rayman, o‘rtangizda nima gap bor? Uni nima to‘g‘rida ayblaysiz?

Aleksey Aleksandrovich yuzini tirishtirdi, ko‘zlarini chala-chulpa yumib, boshini solintirdi.

– Anna Arkadevnaga bo‘lgan ilgarigi munosabatlarimni nima uchun o‘zgartirishim zarur deb hisoblaganimning sabablarini eringiz aytib bergandir, deb o‘ylayman, – dedi u Dollining ko‘zlariga qaramay, lekin shu mahal mehmonxonadan o‘tib ketayotgan Shcherbatskiyga norozi bir nazar tashladi.

Dolli suyaklari ko‘rinib turgan qo‘llarini betoqatlanib qisdi-da:

– Bu narsaga ishonmayman, ishona olmayman! – dedi. Keyin o‘rnidan chapdast turib borib, qo‘lini Aleksey Aleksandrovichning yengiga qo‘ydi. – Bu yerda bizga xalaqit berishadi. Yuring bu yoqqa, Xudo xayringizni bersin.

Dollining hayajoni Aleksey Aleksandrovichga ham ta'sir qildi. O'rnidan turib, Dolli orqasidan indamay bolalar darsxonasiga kirdi. Ular qalamtarosh bilan keskilab tashlangan kleyonkali stol yoniga kelib o'tirishdi.

Dolli uning o'zidan olib qochayotgan ko'zlariga qarashga tirishib:

– Bunga ishonmayman, ishonmayman! – deb aytdi.

– Faktlarga ishonmay bo'lmaydi, Darya Aleksandrovna, – dedi u faktlarga so'zini bo'rttirib.

– Ayting, axir, nima qilib qo'ydi? – dedi yana Darya Aleksandrovna. – Aysangiz-chi, nima qildi, axir?

– O'z burchini oyoq-osti qilib, eriga xiyonat etdi. Ana uning qilgan ishi, – dedi Aleksey Aleksandrovich.

Dolli qo'llarini chakkalariga tegizib, ko'zlarini yumib turib:

– Yo'q, yo'q, bu bo'ladigan gap emas! – dedi.

Aleksey Aleksandrovich qarorining qat'iyiligini unga ham, o'ziga ham ko'rsatish uchun faqat lablari bilangina sovuqqina kulimsirab qo'ydi, Dollining bu otashin himoyasi uni taraddudga solmagan bo'lsa ham, lekin yarasiga tuz sepdi. Endi u jonlanibroq gapira boshladi.

Aleksey Aleksandrovichning jahli chiqdi, yana burnini tortib turib:

– Xotinning o'zi eriga gapning ochig'ini aytgandan keyin, xato qilish juda qiyin. Sakkiz yillik umrini, o'g'il ko'rganini xato deb e'lon qilsa-yu, yangidan hayot boshlash tilagini aytib tursa-yu, yana shubhaga o'rin qoladimi?! – dedi.

– Annadan gunoh sodir bo'lishini aqlimga sig'dirolmayman, bu narsalarga ishonolmayman.

U endi Darya Aleksandrovnaning hayajonlangan shafqatli yuziga ro'y-rost qarab va tili qichib gapga tushib ketdi:

– Darya Aleksandrovna! – dedi. – Shubhaga hali ham o'rin bo'lsa, men jon derdim. Shubha bilan yashab yurgan kezlarim men uchun har qancha og'ir bo'lsa hamki, hozirgidan yengilroq edi. Shubha bilan o'tgan kunlarimda hali umidga o'rin bor edi, lekin endi umidim uzildi, shunday bo'lsa ham, hamma narsaga shubha bilan qarayman. Hamma narsadan shu qadar shubhalanamanki, hatto o'g'limdan ham nafratlanaman, ba'zan uning o'z o'g'lim ekaniga ham ishonmayman. Men nihoyatda baxtsizman.

Bu narsani gapirib o'tirishning keragi ham yo'q edi. U Darya Aleksandrovnaning yuziga qaraganda, Dollini baxtsizligini fahmlab oldi, ana shunda Dollining rahmi kelib ketdi, o'z dugonasining gunohsizligi to'g'risidagi ishonchiga ham darz ketdi.

– Oh! Qanday dahshat, qanday dahshat! Nahotki, ajralish qaroringiz rost bo'lsa?

– Bundan boshqa chora qolmadi. Noiloj shu qarorga keldim.

– Voy, noilojlik qursin, noilojlig-e!.. – dedi u ko'zlariga yosh olib. – Yo'q, iloji yo'q emas! – dedi yana kuyinib.

– Bu xil qayg'u-alamning shunisi yomonki, boshqa har qanday judolikda, o'limda yig'lab-siqtab bo'lsa ham ko'nikib ketasiz-u, bunda harakat qilishga majbursiz, – dedi Aleksey Aleksandrovich uning o'ylarini topgandek. – Boshingizga tushgan xo'rlik, haqirlikdan qutulishingiz kerak, uch kalla bir qozonda qaynamaydi.

Dolli:

– Tushunaman, juda yaxshi tushunaman, – deb boshini solintirdi. U o'zini, boshiga tushgan qayg'u-alamlarni o'ylab biroz jim o'tirgandan so'ng birdan boshini ko'tardi-da, yolvoruvchi bir ado bilan qo'llarini qovushtirdi. – Shoshmang! Axir, nasroniysiz. Annani o'ylang! Tashlab ketsangiz, bechoraning boshiga nimalar kelishini o'ylang!

– O'ylaganman, Darya Aleksandrovna, juda ko'p o'ylaganman, – dedi Aleksey Aleksandrovich. Yuzida qizil dog'lar paydo bo'ldi, xira ko'zlari Dolliga tikildi. Darya Aleksandrovna endi butun qalbi bilan unga achina boshladi. – Mening sharmanda bo'lganimni u o'z tili bilan aytgandan keyin ham men siz aytgan narsani qildim, hamma narsani eskicha qoldirdim. Tuzalishiga imkon berdim, uni qutqarib qolishga intildim. Oqibat nima bo'ldi? Odob-andishaga rioya qilishdan iborat bo'lgan eng oson talabimni ham bajarmadi, – dedi qizishib. – Halok bo'lishni xohlamagan odamni qutqazib qolmoq mumkin, lekin tabiati butunlay buzilgan, razolatga uchragan kishi uchun halokati birdan-bir najot bo'lib ko'rinsa, unda nima qilmoq kerak?

– Har nima bo'lsa ham, lekin taloq qilish kerak emas! – deb javob berdi Darya Aleksandrovna.

– Xo'p, bo'lgan gap shumi?

– Yo'q, bu bir dahshat! U hech kimga xotin bo'lmaydi, halok bo'ladi!

Aleksey Aleksandrovich yelkalari bilan qoshlarini ko'tarib:

– Mening nima ilojim bor? – dedi. Xotining so'nggi qilmishini eslab shu qadar jahli chiqib ketdiki, yana suhbat boshidagi singari sovuq bo'lib oldi. – Dardkashligingiz uchun g'oyat minnatdorman, lekin menga ijozat, – dedi o'rmidan qo'zg'alib.

– Yo'q, to'xtang! Annani halok qilmasligingiz kerak. Shosh-mang, men o'z sho'rimni gapirib beraman. Men erga tegdim, lekin erim meni alday boshladi, alamimga chidolmay, rashkim qo'zg'ab, har narsani tashlab ketmoqchi bo'ldim, hatto... lekin es-hushimni yig'ishtirib oldim, kimning yordami bilan deng? Annaning. Anna meni qutqazib qoldi. Mana endi yaxshi yashab turibman. Bolalar o'sishyapti, erim o'z oilasiga qaytib keldi. O'zining nohaq ish qilganini sezib, insofga keldi, yaxshiroq bo'lib qoldi – men ham yashab kelyapman... Men erimning gunohlarini kechirdim, siz ham kechirishingiz kerak!

Aleksey Aleksandrovich unga quloq solib o'tirgan bo'lsa ham, lekin so'zlari endi kor qilmasdi. Ko'nglida yana o'sha taloq qilishga qaror bergan kunidagi g'azab qo'zg'algan edi. U bir silkinib oldi-yu, chinqiroq, baland tovush bilan gapira boshladi:

– Afv eting, gunohidan o'ta olmayman, kechirishni ham istamayman, men buni adolatsizlik deb bilaman. Men bu xotin uchun qo'limdan kelgan hamma narsani qildim. U esa hamma narsani oyoq-osti qilib balchiqqa bulg'ab tashladi, bu unga odat. Men zolim emasman, hech qachon birovdan nafratlangan emasman, lekin undan qalbimning bor kuchi bilan nafratlanaman, boshimga solgan barcha sho'ri-g'avg'olar uchun haddan tashqari nafratlanganligim sababli gunohlarini ham kechira olmayman! – dedi u, ovozida sezilib turgan alamli yoshlari bilan.

Darya Aleksandrovna xijolatpazlik bilan:

– O'zingizdan nafratlanganlarni seving... – deb shivirladi.

Aleksey Aleksandrovich nafratomuz jilmaydi. U bu vasiyatni qachonlardan beri bilsa ham, lekin boshiga tushgan savdoga buni tatbiq qilib bo'lmaz edi.

– O'zingizdan nafratlanganlarni seving, deyilgan-u, lekin o'zing nafratlangan odamni sevib bo'lmaydi. Dilingizni xira qildim, kechiring. Hammaning qayg'usi o'z boshidan oshib yotadi! – Aleksey Aleksandrovich o'zini qo'lga olib, vazmingina xayrlashdi-yu, jo'nab ketdi.

XIII

Stoldan turishganda, Levin Kitiga ergashib mehmonxonaga kirmoqchi bo'ldi, lekin mulozamatining bu qadar ochiq-sochiqligidan Kiti o'ng'aysizlikka tushib qolmasmikan deb qo'rqdi. Shuning uchun erkaklar to'dasida qolib, umumiy gurungga aralashib o'tirdi, garchi Kitiga qaramasa ham, uning nima qilayotganini, qarayotganini va mehmonxonada qayerda o'tirganini sezib turdi.

Hamma to'g'risida faqat yaxshi fikrda bo'lish, hammani hamma vaqt yaxshi ko'rish to'g'risida Kitiga bergan va'dasini hozir o'zini hech zo'rlamay, qiynalmay bajarmoqda edi. Gap yerdan jamoa bo'lib foydalanish ustiga borib taqalganda, Pessov buni allaqanday narsani ko'plashib ishlashning ibtidosi deb atadi. Levin Pessovning ham, rus jamoasining ahamiyatini o'zicha tushungan yo tushunmagan akasining ham fikriga qo'shilmadi. Lekin bularni yarashtirishga, ixtiloflarini yumshatishga tirishdi. U o'zi aytgan gaplarga hech qiziqmasdi, ular aytgan gaplarga yana ham kamroq qiziqardi, faqat ularga ham, boshqalarga ham yaxshilikdan boshqa hech narsani ravo ko'rmasdi. U hozir faqat bir narsanigina muhim deb bilardi. Bu bir narsa avval shu yerda, mehmonxonada edi, keyin undan jilib, eshik og'ziga kelib to'xtadi. Uning o'ziga tikilganini, jilmayayotganini o'girilmasdanoq sezib turardi, keyin o'girilishga majbur bo'ldi. U eshik og'zida Shcherbatskiy bilan birga o'ziga qarab turar edi.

– Men sizni fortepyano oldiga ketyapsizmi, deb o'ylabman, – dedi Levin Kitining yoniga kelib. – Qishloqda bir kamim shu-da: musiq.

– Yo'q, faqat sizni chaqirgani kelayotgan edik, – dedi Kiti o'z tabassumi bilan uni sarafroz qilib, – o'zingiz kelganingiz uchun rahmat. Gap talashishdan nima maza chiqadi-ya? Hech qachon ular bir-birini mot qilisholmaydi.

– To'g'ri aytasiz, – dedi Levin, – ko'pincha raqibing nima demoqchi ekanligini hech tushuna olmaganing uchun ham kishi shunaqa qizishib gap talashib qoladi.

Eng aqlli kishilar orasida munozara chiqqanda, bir talay kuch, bir talay fosih iboralar ishlatgandan so'ng, talashuvchi tomonlar gap boshidayoq, allaqachon o'zlariga ma'lum bo'lgan narsani bir-birlariga isbot qilish uchun bekorga jon kuydirishganlarini,

lekin o'zlarining har xil narsani yaxshi ko'rishganlarini sezadilar, munozaradan mag'lub bo'lib chiqmaslik uchungina yaxshi ko'rgan narsalarining nomini aytmaydilar, bunday hollarni Levin ko'p mar-ta ko'rgan edi. Munozara mahalida raqibing yaxshi ko'rgan narsani tushunib, ba'zan o'zing ham birdan yaxshi ko'rib qolasan-u, darhol uning fikriga qo'shila qolasan, ana undan keyin butun dalillaring behuda narsa bo'lib ketadi. – Levin ko'p mahal shu ahvolga tu-szar edi; gohi mahallar esa, aksincha, nihoyat, o'zing yaxshi ko'rgan narsani gapirib berasan va bu tufayli o'zing o'ylab chiqargan dalil-larni ro'kach qilasan; agar bu narsalarni yaxshilab, samimiyat bi-lan aytsang raqibing fikringga qo'shiladi-yu, munozarani to'xtatadi. Levin shu narsani aytmoqchi bo'ldi.

Kiti peshonasini tirishtirib, uning fikrini tushunishga urindi. Ammo Levin gap boshlashi bilanoq u darrov tushunib oldi.

– Tushundim, avval uning nima to'g'risida munozara qilayotga-nini, nimani yaxshi ko'rganligini bilish kerak, unda...

Kiti uning juda no'noq ifoda qilingan fikrini fahmlab, to'g'rilab aytib berdi. Levin quvonib kulimsiradi: Pessov va akasi bilan o'zi o'rtasida chiqqan bu ezma, chigal munozaraning eng murakkab fikr-larning bu sodda, qisqa xulosa bilan yakunlanishi uni qoyil qoldirgan edi.

Shcherbatskiy ularning yonidan ketgandan so'ng Kiti qartalar dasta-dasta qilib qo'yilgan stol yoniga kelib o'tirdi-da, qo'liga bir parcha bo'r olib, yangi yashil barqutga doiralar chiza boshladi.

Ular ovqat mahalida ochilgan gap ustida: xotin-qizlarning ozod-ligi va qiladigan ishlari to'g'risida yana gaplasha boshlashdi. Levin Darya Aleksandrovnaning erga tegmagan qiz oilasidan o'ziga ya-rasha ish topib oladi, degan fikriga qo'shilganini aytdi. U bu fikrni, hech qanday oila xotin-qizlar yordamisiz yashay olmaydi, har bir kambag'al oilada ham yollangan yoki o'z qarindoshlaridan enagalar bo'lishi kerak, deb quvvatladi.

Kiti qizarib, lekin rostgo'y ko'zlari bilan unga dadil tikilib turib:

– Yo'q, – dedi, – qizlar shunday ahvolga solib qo'yilgan bo'lishlari mumkinki, ular bir oilaga bosh egmay kira olmaydilar, holbuki, ular...

Levin uning so'zlarini kinoyasidan fahmladi.

– O! Albatta! – dedi u. – Ha, ha, ha, to'g'ri aytasiz, to'g'ri!

Levin Kitining qalbida haqirlikdan qoʻrqish va iffat hissi borligini payqagandagina ovqat ustida xotin-qizlar ozodligi toʻgʻrisida Pessov daʼvo qilgan narsalarni tushundi va unga boʻlgan muhabbati tufayli bu qoʻrquv haqirlikni oʻzi ham his etib, oʻz daʼvolaridan darhol voz kechdi.

Oʻrtaga jimlik choʻkdi. Kiti hamon boʻr bilan stol ustini chizib oʻtirar, koʻzlari sokin bir nur bilan porlar edi. Levin uning kayfiyatiga boʻysunib, oʻz vujudini baxt-saodat toʻldirib borayotganini sezdi.

– E! Butun stolni chizib yuboribman! – dedi-yu, Kiti boʻrni qoʻyib, turmoqchi boʻlgandek, qoʻzgʻalib qoʻydi.

«Usiz qanday yolgʻiz qolaman?» deb oʻyladi Levin vahimaga tushib, keyin boʻrni oldi-yu, stol yoniga oʻtirib:

– Toʻxtang, – dedi. – Sizdan allaqachondan beri bir nimani soʻramoqchi boʻlib yurardim.

U Kitining javdiragan, lekin mehr toʻla koʻzlariga tikildi.

– Marhamat, soʻrang.

– Mana, – dedi-yu, Levin aytmoqchi boʻlgan soʻzlarining bosh harflarini yozib koʻrsatdi: b, b, g, d, oʻ, m, b, a, yo, b? Bu harflar: «Bu boʻladigan gap emas, deganingizda, oʻsha mahalda boʻlmasligini aytganmidingiz yo butunlaymi?» degan soʻzlarni bildirardi. Kitining bu murakkab jumlaning tushunib olishiga sira ham aqli ishonmasdi, ammo Levin unga shunday qaradiki, hayoti goʻyo uning bu soʻzlarni tushunib olish-olmasligigagina bogʻliq kabi edi.

Kiti unga jiddiy qiyofa bilan qarab olgach, tirishgan peshonasini qoʻliga tirab, oʻqiy boshladi. Ora-sira unga qarab, koʻzlari bilan: «Shu oʻylaganim toʻgʻrimi?» deb soʻrayotgandek boʻlardi.

– Tushundim, – dedi Kiti qizarib.

Levin butunlay soʻzini anglatuvchi b harfini koʻrsatdi:

– Bu qanday soʻz? – deb soʻradi.

– Bu harf butunlay degan soʻzni bildiradi, – dedi Kiti, – lekin bu toʻgʻri emas!

Levin oʻzi yozgan harflarni darhol oʻchirdi-da, boʻrni Kitiga berib oʻrnidan turdi. Kiti shu harflarni yozdi: oʻ, b, x, j, b.

Dolli Aleksey Aleksandrovich bilan qilgan suhbatidan soʻng qaygʻu ichida qolgan edi; bu ikki baxtiyorni: qoʻlida boʻr, lablarida tortinchoq, baxtli tabassum bilan yuqoriga, Levinga qarab turgan Kitini va chiroyli qomati stol ustiga engashgan, chaqnagan koʻzlarini

goh stolga, goh Kitiga tikkan Levinni ko'rganda qayg'usi butunlay tarqaldi. Levinning birdan yuzi yorishib ketdi: harflarning ma'nosini tushungan edi. Ularda: «O'shanda boshqa xil javob berolmasdim», degan ma'nolar bor edi.

Levin unga qo'rqa-pisa savol nazari bilan qaradi.

– Faqat o'shandaginami?

– Ha, – deb javob berdi Kiti tabassum-la.

– Ho... ha, hozirchi? – deb so'radi u.

– Mana, o'qib ko'ring. Faqat xohishimni aytaman. Faqat xohishimni! – U ko'nglidagi so'zlarning bosh harflarini yozdi: b, o', n, u, k, i. Bularning ma'nosi: «Bo'lib o'tgan narsalarni unutishingizni, kechirishingizni istardim».

Levin titroq bosgan barmoqlari bilan bo'rni oldi-da, uni sindirib, quyidagi so'zlarning bosh harflarini yozdi: «Men unutadigan, kechiradigan hech nima yo'q, sizni hamma vaqt yaxshi ko'rib kelganman».

Kiti lablarida qotib qolgan tabassum bilan unga qaradi. Keyin shipshitib:

– Tushundim, – dedi.

Levin o'tirib, uzun bir jumla yozdi. Kiti: «Hammasiga tushundim, shundaymi?» deb so'rab o'tirmasdanoq bo'rni olib, darhol javob yozdi.

Levin bo'lsa uning yozganlarini anchagacha tushunolmay, unga qarab-qarab qo'yar edi. Baxt zehnini olib qo'ygan edi. Kiti nazarda tutgan so'zlarni hech topolmasdi, shunday bo'lsa ham, Kitining baxt chaqnaq turgan chiroyli ko'zlaridan o'zi bilishi kerak bo'lgan narsalarning hammasini uqib oldi. Shundan keyin uchta harf yozdi. Lekin yozib ulgurmay, Kiti paydar-pay o'qib bordi va uning so'zlarini o'zi tugatib, javob ham yozdi: «Ha».

Qari knyaz bular yoniga kelib:

– He, secretaire o'ynayapsizlar deyman-a? – dedi. – Teatrqa kechikmay borging kelsa, yur, ketaylik.

Levin o'rnidan turib, Kitini eshikkacha kuzatib bordi.

Ular o'rtasida o'tgan suhbatda hamma narsa, Kiti uni yaxshi ko'rish, otasi bilan onasiga ma'lum qilishi va ertaga ertalab Levinning ularnikiga kelishi aytilgan edi.

XIV

Kiti ketib, Levinning o'zi yolg'iz qolganda, tipirchilab, sabrsizlik bilan tezroq, tezroq kecha o'tsa-yu, tong otsa, deb intizorlik torta boshladi: ertaga ertalab yana Kitini ko'radi, u bilan abadul-abad qovushadi! O'rtada yana o'n to'rt soat borligini, bu uzun muddatni usiz o'tkazish kerakligini o'ylab, yuragini vahima bosdi. Yolg'iz qolmaslik, vaqtni o'tkazish uchun kim bilan bo'lsa ham gaplashish zaruratini his etdi. Stepan Arkadich uning uchun eng dilkash suhbatdosh bo'la olardi, lekin u kechaga, haqiqatda esa baletga ketishi kerak edi. Levin unga o'zining baxtli ekanligini, Stepan Arkadichni yaxshi ko'rganligini va bu qilgan yaxshiligini hech vaqt, hech qachon esidan chiqarmasligini-gina aytib qoldi. Stepan Arkadichning qarashlari, tabassumlari uning his-tuyg'ularini yaxshi tushunganligini ko'rsatar edi.

Stepan Arkadich iyib ketib, uning qo'lini qisdi-yu:

– Xo'sh, o'lish vaqti kelgani yo'qmi? – dedi.

– Yy-yo'q, – dedi Levin.

Darya Aleksandrovna ham uni kuzata turib, xuddi tabrik qilayotgandek:

– Kiti bilan yana uchrashganingiz uchun benihoya xursandman, shunday bo'lsin: eski do'stlikni qadrlash kerak... – deb qo'ydi.

Ammo Darya Aleksandrovnaning bu so'zlari Levinga xush kelmadi. Chunki u bu his-tuyg'ularning yuksakligini, bu narsalarni anglashga qobil emasdi, Darya Aleksandrovna bu narsani esiga solishga jur'at qilmasligi kerak edi. Levin ular bilan xayrlashdi-yu, yolg'iz qolmaslik uchun akasiga qo'shilib oldi.

– Qayoqqa borasan?

– Majlisga ketyapman.

– Bo'lmasa, men ham birga ketdim. Mumkinmi?

– Nega mumkin bo'lmasin? Birga boramiz, – dedi Sergey Ivanovich kulimsirab. – Bugun senga nima bo'ldi?

– Mengami? Baxt qushi kelib qo'ndi! – dedi Levin o'zlari ketayotgan karetaning derazasini ochib. – Maylimi? Juda dam bo'lib ketdi. Baxt qushi kelib qo'ndi! Nega sen hech uylanmaysan-a?

Sergey Ivanovich kulimsiradi.

– Juda xursandman, nazarimda, juda yaxshi qiz... – deb Sergey Ivanovich gap boshlagan edi, Levin akasining po'stini yoqasiga ikki qo'llab chang soldi-da, yuzini to'sib:

– Gapirma, gapirma, gapirma! – deb qichqirib berdi. «Juda yaxshi qiz» – bu oddiy, rangsiz soʻzlar Levinning hislariga sira-sira munosib emas edi.

Sergey Ivanovich kulib yubordi, unda bunday hollar kam boʻlardi.

– Xoʻp-xoʻp, lekin shuni aytsam boʻlar: nihoyatda xursandman.

– Bu gapingni ertaga, faqat ertaga aytishing mumkin. Hozir jim! Hozir jim, jim, jim, jim! – dedi Levin. Keyin poʻstinini yana oʻrab turib, ilova qildi: – Seni jonimdan ortiq koʻraman! Nima deysan, majlislaringga borsam boʻlaveradimi?

– Albatta, boʻlaveradi.

Levin lablaridagi tabassumni yigʻishtirib ololmay:

– Bugun nima toʻgʻrisida gaplashasizlar? – deb soʻradi.

Ular majlisga yetib kelishdi. Levin kotibning, aftidan, oʻzi ham tushunmagan bir bayonnomani tutilib-tutilib oʻqishiga quloq solib oʻtirdi, ammo Levin bu kotibning dilkash, muloyim, ajoyib kishi ekanligini yuzidan koʻrib turardi. Bu narsa bayonnomani oʻqiyotganida adashib, uyalib ketganidan maʼlum edi. Soʻngra muzokaralar boshlandi. Allaqanday mablagʻ ajratish, allaqanday quvurlar oʻtkazish masalalari ustida talasha ketishdi: shunda Sergey Ivanovich ikkita aʼzoni mot qilib, nimalar toʻgʻrisidadir uzundan-uzoq dabdaba bilan gapirdi, boshqa bir aʼzo qogʻozga allanimalar yozib olib, oldin qoʻrqib-pisib gap boshlagan boʻlsa ham, keyin chaqib oladigan qilib Sergey Ivanovichga boplab javob berdi. Soʻngra Sviyajskiy (u ham shu yerda edi) juda chiroyli, olijanob gap qildi. Levin ularning talashib-tortishishlariga quloq solib, oralarida ajratilgan mablagʻlar ham, quvurlar ham yoʻqligini, bir-birlariga sira ham achchiq qilmay, shiringina soʻzlashayotganlarini, ularning har holda yaxshi, dilkash odamlar ekanligini ravshan koʻrib oʻtirardi. Ular hech kimga xalaqit berishmasdi, hamma huzur qilib oʻtirardi. Levin uchun shunisi ajoyib ediki, u bugun bularning ichidagi gaplarini bilib turar, ilgari oʻzi payqamagan kichkina alomatlardan har birining koʻnglida boʻlgan narsani payqab olar, bularning hammasi ham yaxshi odamlar ekanligini aniq-ravshan sezib borar edi. Bularning hammasi ham Levingga juda mehribon boʻlib qolgan edi. Bu hol ularning Levin bilan muloyim gaplashganlaridan, hatto notanishlarning ham unga mehr bilan qaraganlaridan koʻrinib turardi.

Sergey Ivanovich undan:

– Qalay, majlisdan mamnun bo‘ldingmi? – deb so‘radi.

– Juda. Men bu qadar qiziq bo‘lar deb hech o‘ylamagan edim!
Juda soz, juda alomat bo‘ldi!

Sviyajskiy Levinning yoniga kelib, uni o‘zinikiga choyga taklif qildi. Levin Sviyajskiydan nega norozi ekanligini, undan nimani talab qilganligini hech eslay olmadi. Sviyajskiy aqlli, ajoyib mehrshafqatli odam edi. Levin:

– Juda xursandman, – dedi-yu, xotini bilan qaynsinglisidan hol so‘radi. Sviyajskiyning qaynsinglisi haqidagi fikri miyasida uylanish haqidagi fikr bilan bog‘langan edi, shunisi qiziqki, o‘z baxtini so‘ylashga Sviyajskiyning xotini bilan qaynsinglisidan ham ma‘qulroq odam ko‘ziga ko‘rinmadi, shuning uchun taklifni xursandchilik bilan qabul qildi.

Sviyajskiy Yevropada topilmagan narsani topib kelgan bo‘lishiga zarracha ham ishonmagan bo‘lsa-da, har vaqtdagidek, qishloqdagi ishlarini surishtirgan edi, bu safar bu gaplar Levinning ta‘bini zarracha ham xira qilmadi. Aksincha, u Sviyajskiyning haqligini, bu ishlar bachkana narsalar ekanligini fahmlar, Sviyajskiy ajoyib bir muloyimlik va nazokat bilan o‘zining haqligini aytishdan o‘zini tiyib turganini ko‘rib turardi. Sviyajskiyning xonimlari ham xushmuomala bo‘lishdi. Levinning nazarida, ular hamma gapdan voqif, unga xayrixoh edi, lekin andishaga borib gapirishmayotganday tuyulardi. Levin ular bilan har xil mavzularda bir, ikki, uch soatcha gaplashib o‘tirgan bo‘lsa ham, faqat ko‘nglini to‘ldirib turgan narsadan boshqasini, o‘zining mezbonlar me‘dasiga o‘lgudek tekkanligini, ular allaqachon yotib uxlashlari kerakligini sezmas edi. Sviyajskiy oshnasining g‘alati kayfiyatda ekanligiga taajjublanib, esnab yurib uni dahlizgacha kuzatib chiqdi. Soat birdan oshgan edi. Levin musofirxonaga qaytib keldi-yu, qolgan o‘n soatni shunday betoqatlik bilan bir o‘zim qanday o‘tkazar ekanman, degan fikrga kelib qo‘rqib ketdi. Uyg‘oq yurgan navbatchi yugurdak shamlarini yoqib bergandan keyin chiqib ketmoqchi bo‘lgan edi, Levin to‘xtatib qoldi. Ilgarilari Levin ko‘rmagan bu yugurdak Yegor juda aqlli, yaxshi, ayniqsa, mehribon kishi chiqib qoldi.

– Qalay, uxlamay yurish qiyinmi, Yegor?

– Nima qilaylik! Bizning ishimiz shu. Xo‘jayinlar rohat qilishadi, lekin bu yerda yaxshi haq to‘lashadi.

Levin surishtirib bilsa, Yegorning oilasi, uchta o'g'li va bitta tikuvchi qizi bor ekan, qizini sarrojlik do'konida ishlovchi bir yigitga bermoqchi emish.

Levin shu munosabat bilan o'zining fikrlarini unga aytib berdi: nikohda eng muhim narsa muhabbat ekanligini, muhabbat bor yerda hamisha baxt borligini, chunki muhabbat faqat odamning o'zidagina bo'lishini so'zlab berdi.

Yegor diqqat bilan quloq solib turdi, aftidan, Levinning fikrlariga to'la tushungan bo'lsa kerak, buning isboti uchun Levin kutmagan bir narsani so'zlab qoldi: yaxshi xo'jayinlarnikida xizmat qilganda, hamma vaqt ulardan mamnun bo'lganligini, hozirgi xo'jayini fransuz bo'lsa ham, baribir bundan ham mamnun ekanligini aytdi.

«Xo'p alomat, dilkash kishi ekan», deb o'ylandi Levin.

– Menga qara, Yegor, uylanganingda xotiningni yaxshi ko'rib olganmisan?

– Yaxshi ko'rmasdan ham olib bo'ladimi, – deb javob qildi Egor.

Levin ana shunda Yegorning ham kayfi xushnud bo'lganligini, o'zining ichki hislarini aytish niyatiga tushganligini payqadi.

– Mening hayotim ham juda g'alati. Mushtumdayligimdan... – homuza tortgan odamni ko'rganga ham homuza yuqqani singari, Yegorga ham Levinning vaqtichog'ligi ta'sir qildi shekilli, ko'zlarini pipirratib gapira ketdi.

Lekin shu payt qo'ng'iroq jarangi eshitildi-yu, Yegor chiqib ketdi, shundan keyin Levin yolg'iz qoldi. U tushlik mahalida qariyb hech nima yemagan edi, Sviyajskiynikida ham choy bilan kechki ovqatdan bosh tortdi, tomog'idan ovqat ham o'tmas edi. O'tgan kecha uxlamadi, lekin uyqusi ham kelmas edi. Turgan xonasi salqin edi, lekin u o'tda yonardi. Ikkala darchani ochib tashlab, darchalar ro'parasidagi stolga o'tirdi. Qor bosib yotgan tom orqasidan zanjiri naqshband xoch va uning teparog'ida ko'tarilib borayotgan Yetti qaroqchi yulduzlar to'dasi ko'rinib turardi. U goh xochga qaraydi, goh yulduzlarga, xonaga bir me'yorda oqib kirayotgan muzdek havo bilan nafas oladi, xuddi tushdagidek, xayolida jonlangan siymolar va xotiralarni ta'qib qilib boradi. Soat uchdan oshganda yo'lakdan oyoq dupuri eshitdi-da, eshikni ochib qaradi. O'zi taniy-digan qimorboz Myaskin klubdan kelayotgan edi. U qovoqlarini solib, yo'talib, shumshayib o'tib borardi. «Bechora, baxtsiz!» deb

o'yladi-yu, bu odamga bo'lgan mehridan, unga rahmi kelganidan ko'zlariga yosh chiqdi. Levin u bilan gaplashmoqchi, unga tasalli bermoqchi bo'ldi, lekin ko'ylakchan ekanligini eslab, fikridan qaytdi-da, muzdek havoda cho'milish, anavi jim, lekin o'z nazarida mo'jizakor bo'lgan ajoyib shakldagi xochni va ko'tarilib borayotgan to'q sariq yulduzni tomosha qilish uchun yana darcha oldiga kelib o'tirdi. Soat oltidan oshganda pol yuvuvchilar shovqini, allaqaysi cherkovda qo'ng'iroqlar jarangi eshitildi, ana shundagina Levin o'zining sovqotganligini sezdi. Darchalarni yopdi, yuvindi, so'ngra kiyinib, ko'chaga chiqib ketdi.

XV

Ko'cha hali bo'sh edi. Levin Shcherbatskiylarning uyiga qarab ketdi. Ko'cha eshiklari berk, hamma uyquda edi. Orqasiga qaytib, xonasiga kirdi-da, qahva keltirishni so'radi. Kunduzi navbatchilik qiladigan yugurdak (Egor yo'q edi) qahva olib keldi. Levin yugurdak bilan endi gaplashmoqchi bo'lib turganda qo'ng'iroq chalinib qoldi-yu, yugurdak chiqib ketdi. Levin qahva ichmoqchi bo'lib, og'ziga kalach solgan edi, lekin og'zi kalachni nima qilishini bilmay qoldi, ana shundan keyin kalachni tuflab tashlab, paltosini kiydi-da, yana aylanib chiqib ketdi. Shcherbatskiylarning eshigiga ikkinchi marta kelganda, soat allaqachon to'qqizdan oshib ketgan edi. Uydagilar endi uyg'onishgan, oshpaz esa masalliq olgani ketayotgan edi. Bir amallab yana ikki soatgina sabr qilishi kerak edi.

Butun kechani, ertalabki vaqtini Levin tamoman shuursiz o'tkazdi, o'zini moddiy hayotdan tamoman ayrilgan holda his qildi. Butun kun ovqat yemadi, ikki kecha uxlamadi, bir necha soat yechinib sovuqda o'tirdi, bovujud, o'zini har qachongidan ham sog' va tetik, o'zini tanasidan butunlay mustaqil his qilardi: qadam tashlashi yengil, har qanday ishni bajarishga o'zini qodir his etardi. Agar zarurat tug'ilsa, uchib ketishga ham, uyning burchagini nariroqqa surib qo'yishga ham qodir ekanligiga ishonar edi. Qolgan vaqtini ko'chama-ko'cha yurish, ora-sira soatiga qarash va tevaragiga jalanglash bilan o'tkazdi. O'shanda ko'rgan narsalarini keyin hech mahal ko'rmadi. Ayniqsa, maktabga ketayotgan bolalar, tomlardan trotuar-ga uchib tushgan ko'k kaptarlar, allakim chiqarib qo'ygan, ustiga un

sepilgan saykalar¹ Levinga qattiq ta'sir qildi. Bu saykalar, kaptarlar, ikkita bola – bular Levinga yer xilqatlari bo'lib ko'rinmadi. Bu narsalarning hammasi bir vaqtda yuz berdi: bola kaptar yoniga yugurib keldi-da, Levinga kulimsirab qaradi, kaptar parr etib ko'tarildi, quyoshda qor zarralari yarqirab ketdi, derazadan esa yangi pishirilgan non hidi keldi, yana saykalar chiqarib qo'yildi. Bularning hammasi birgalikda shunday ajoyib taassurot qoldirdiki, Levin kulib turib, quvonchidan yig'lab yubordi. U Gazetniy tor ko'chasi bilan Kislovka atrofida aylanib chiqqandan so'ng yana musofirxonaga qaytib keldi-da, soatni oldiga qo'yib olib, vaqtning o'n ikki bo'lishini kutib o'tirdi. Qo'shni xonada allaqanday mashina va kimningdir pand berib ketgani to'g'risida gapirishar, ertalabki salqindan yo'talishar edi. Soat milining o'n ikkiga yaqinlashib kelayotganidan ular beparvo edi. Mil marraga yetib keldi. Levin ko'cha eshigiga chiqdi. Izvoshchilar hamma gapdan voqif ko'rinishardi. Ular ochiq chehra bilan Levinni o'rab olishib, bir-biri bilan navbat talasha boshlashdi. Levin boshqa izvoshchilarni koyitmaslik uchun ularning izvoshlariga ham keyincha tushishga va'da qilgandan so'ng, izvoshlardan biriga tushib, Shcherbatskiylarnikiga qarab haydashni buyurdi. Izvoshchining egnida chakmonidan chiqib turgan, yoqasi semiz, bo'liq, qizil bo'yniga qadalib turgan oq ko'ylak bor edi. Bu izvoshchining chanasi baland, bejirim ekan, keyincha Levin hech qachon bunday izvoshga tushmagan edi, oti ham yaxshi, chopishga intiladi, lekin sag'ri qimir etmaydi. Izvoshchi Shcherbatskiylarning uyini bilardi, shu vajdan mehmon hurmati uchun qo'lining tirsagini ko'tarib «Drrr!» deb dabdaba bilan eshik oldida izvoshni to'xtatdi. Shcherbatskiylarning darboni gapdan xabardor ko'rinardi. Bu narsa ko'zlarining tabassumidan va aytgan so'zlaridan bilinib turardi.

– E, juda kamnamo bo'lib ketdilar, Konstantin Dmitrich! – dedi u.

U hamma gapdan voqif bo'libgina qolmay, aftidan, xursand ham edi, bu xursandligini zo'r berib yashirishga tirishardi. Levin uning mehribon so'nik ko'zlariga qaradi-yu, o'z baxtining yana yangi tomonlarini ko'rdi.

– Turishdimi?

¹ Nonning bir turi (*tarj.*).

– Marhamat qilsinlar! – Levin qaytib borib qalpog‘ini olmoqchi bo‘lganda: – Mayli, shu yerda qola qolsin, – dedi. Buning bir ma‘nosi bo‘lsa kerak.

– Kimga xabar qilishimni buyuradilar? – deb so‘radi yugurdak.

Yugurdak yosh, olifta edi, u yangi kelgan bo‘lsa ham, lekin juda dilkash, yaxshi odam edi, bu ham gapdan xabardor ko‘rinardi.

– Knyaginya... Knyazga... Knyajnaga... – dedi Levin.

Levinning hammadan oldin uchratgan kishisi mademoiselle Linon¹ bo‘ldi. U zaldan o‘tib borar, to‘g‘nog‘ichlari ham, chehrasi ham charaqlab turardi. Levin u bilan endi gaplasha boshlaganda birdan eshik orqasidan ko‘ylak etaklarining shitiri eshitildi-yu, yaqinlashib kelayotgan baxtning sevinch aralash vahmi yuragiga g‘ulg‘ula soldi. Mademoiselle Linon shoshib-pishib uni yolg‘iz qo‘yib, o‘zi boshqa eshikka qarab yurdi. Bu xonim chiqib ketishi bilanoq, parket ustida yengil odimlarning dukur-dukuri eshitildi-da, baxti, hayoti, o‘zi – uzoq vaqtlardan beri intizor bo‘lib, izlab kelgan va o‘zidan ham yaxshiroq yangi bir o‘zi – tez-tez yaqinlashib kelaverdi. U yurib kelmas, balki ko‘zga ko‘rinmaydigan qanotlarida uchib kelardi.

Levin o‘zining ham qalbini to‘ldirib borayotgan sevgi shodligidan taka-puka bo‘lgan o‘sha rostgo‘y, ravshan ko‘zlarinigina ko‘rar, bu ko‘zlar sevgi nurlari bilan uning ko‘zlarini qamashtirib, borgan sari yaqindan porlar edi. Kiti uning juda yaqiniga kelib to‘xtadi. Qo‘llari ko‘tarilib, Levinning yelkalariga tushdi.

Kiti qo‘lidan kelgan hamma narsani qildi – yugurib keldi-da, qo‘rqa-pisa, shodlik bilan o‘zini unga taslim qildi. Levin uni quchoqladi, lablarini uning bo‘salariga mushtiq bo‘lib turgan la‘l duqqlariga bosdi.

Kiti ham kechasi bilan uxlamagan, ertalabdan buyon unga intizor bo‘lib o‘tirgan edi. Otasi bilan onasi shubhasiz bunga rozi edilar, qizlarining baxtidan saodatmand edilar. Kiti Levinni kutib o‘tirgan edi. U o‘zi bilan Levinning baxtini unga hammadan oldin o‘zi izhor etishini istardi. U Levinni o‘zi kutib olishga shaylanib turgan edi, bu fikridan tinmay quvonar, ham uyalar, ham qo‘rqar, nima qilishini o‘zi ham bilmay qiynalar edi. Kiti uning tovushini, oyoq dupurlarini eshitgan, mademoiselle Linon ketguncha, eshik orqasida kutib turgan

¹Linon xonim (*frans.*).

edi. Mademoiselle Linon ketdi. U o'ylab-netib o'tirmasdan, nima qilishini o'zidan so'ramasdan Levinga yaqinlashgan, unga taslim bo'lgan edi. Keyin uni qo'lidan ushlab:

– Yuring oyimlarning oldiga! – dedi. Levin anchagacha bir narsa deymadi, buning sababi yuksak hislarini so'z bilan buzib qo'yishdan qo'rqanidagina emas, balki bir nima demoqchi bo'lganda har safar so'z o'rniga ko'zlarida baxt yoshlari paydo bo'la boshlaganini sezganidan edi. Levin uni qo'lidan ushlab o'pdi.

– Nahotki, rost bo'lsa? – dedi u, nihoyat, bo'g'iq tovush bilan. – Meni yaxshi ko'rishingga hech ishona olmayman.

Kiti uning senlab gapirganiga va hadik bilan qaraganiga kulimsirab qo'ydi.

– Ha! – dedi Kiti, ma'nodor qilib. – Men shu qadar baxtiyormanki!

Kiti uning qo'lini qo'yib yubormay, to'g'ri mehmonxonaga kirdi. Knyaginya ularni ko'rdi-yu, tez-tez nafas olib, darhol yig'lab yubordi, shu soati kulib, Levin kutmagan bardam odimlar bilan ular yoniga chopib keldi-da, Levinning boshini quchoqlab, uni o'pdi, betlarini ko'z yoshlari bilan ivitdi.

– Qayg'ularim bitdi! Xursandman. Kitini sev. Xursandman... Kiti!

– Oshni tez pishiribsizlar! – dedi qari knyaz, o'zini parvosiz ko'rsatishga tirishib, ammo Levin uning o'ziga yuzlanganida ko'zlarida nam borligini payqadi.

Qari knyaz Levinni qo'lidan ushladi-yu, o'ziga tortib turib:

– Men qachonlardan beri, hamma vaqt shunday bo'lishiga mun-tazir edim! – dedi. – Men o'sha vaqtda ham anavi shamolparrak...

– Dada! – deb Kiti qichqirdi-yu, otasining og'zini qo'li bilan to'sib oldi.

– Xo'p, aytmayman! – dedi otasi. – Men juda-juda... xur... ax! Shuncha kaltafahmmanki...

U Kitini quchoqladi, yuzidan, qo'lidan o'pdi, yana yuzidan o'pdi-da, xoch chekib fotiha berdi.

Ana shunda, Kiti uning sergo'sht qo'lini mehr bilan uzoq o'pib qolganligini ko'rganda, Levinning qalbi ilgari o'ziga yot bo'lgan bu kishiga, qari knyazga yangi sevgi hissi bilan to'ldi.

XVI

Knyagina oromkursida jimgina kulimsirab o'tirardi, knyaz uning yaqiniga kelib o'tirdi. Kiti otasining kursisi yonida uning qo'lini qo'yib yubormay tik turardi. Hamma sukut ichida edi.

Knyagina birinchi bo'lib hamma narsani so'z bilan ifoda etdi, barcha fikr va hislarni hayot masalasi ustiga ko'chirdi. Dastlabki daqiqada bu narsa hammaga g'alati tuyuldi, hatto hammaning g'ashiga tegdi.

– Qachon endi? Fotiha berib, hammaga ma'lum qilish kerak. To'yni qachon qilamiz? Nima deysan, Aleksandr?

Qari knyaz Levinni ishora qilib:

– Mana o'zi, – dedi, – hozir ishboshi shu.

– Qachon deysizmi? – dedi Levin qizarib. – Ertaga. Agar mendan so'raydigan bo'lsalaringiz: bugun fotiha-yu ertaga to'y.

– E, qo'ysang-chi bu gaplaringni, mon cher, bema'ni gap bu!

– Xo'p, bir haftadan keyin.

– Bu qip-qizil jinni bo'lib qolibdi.

– Yo'q, nega endi?

– Voy, aylanay! – dedi onasi, bu shoshqaloqlikdan quvonganidan kulimsirab. – Biz beradigan sep, mol-mulk masalasi nima bo'ladi?

Levin dahshatga tushib: «Nahotki, sep, mol degan narsalar ham bo'lsa? – deb o'ylandi. – Darvoqe, sep, mol-mulk, fotiha-motihalar, ajabo, bu narsalar mening baxtinga raxna solishi mumkinmi? Hech narsa raxna sololmaydi!» U Kitiga qaradi-da, sep, mol-mulk to'g'risidagi gap uni zarracha bo'lsa ham tahqir etmaganligini ko'rdi. «Demak, shu narsalar kerak ekan-da», deb o'ylandi u.

– Men, axir, hech narsa bilmasam, faqat tilagimni aytdim, xolos, – dedi u uzr so'rab.

– Bo'lmasa, o'zimiz hal qilamiz. Hozircha fotiha berib, elga ma'lum qilamiz. Shunday qilamiz.

Knyagina erining yoniga kelib, uni o'pgandan keyin chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, knyaz to'xtatib qoldi, yosh oshiq singari muloyimgina quchoqlab, kulimsirab turib xotinini bir necha bor o'pdi. Chol-kampir oshiq-ma'shuq o'zlarimi yoki faqat qizlarimi, bir zungina adashtirib, eslaridan chiqarib qo'ygan ko'rinardilar. Knyaz knyagina bilan xonadan chiqib ketganda, Levin qaylig'ining yoniga

kelib, qo'lini ushladi. U ortiq o'zini bosib olgan edi, uning Kitiga aytadigan gaplari ko'p edi. Lekin aytishi kerak bo'lgan gapni emas, butunlay boshqa narsani aytdi.

– Men taqdirimizning shunday hal bo'lishini bilardim! Umid qilolmasam ham, lekin ko'nglimda qattiq ishonchim bor edi, – dedi Levin. – Buning peshonamizga bitilganiga ishonaman.

– Men-chi? – dedi Kiti. – Hatto o'shanda ham... – u biroz to'xtab qolgandan so'ng, unga rostgo'y ko'zlarini dadil tikib turib davom qildi, – o'z baxtimni ko'ksimdan itarib yuborgan o'sha paytimda ham ishonardim. Men hamisha bir siznigina sevardim, lekin havasga berilgan kezlarim bo'ldi. Sizga aytishim kerak... Shu gunohimni esingizdan chiqara olasizmi?

– Kim biladi, balki yaxshilikka bo'lgandir. Siz meni ko'p jihatdan kechirishingiz kerak. Sizga aytib qo'yishim kerak...

Bu uning Kitiga aytishni jazm qilgan narsalaridan biri edi. Birinchi kundayoq ikkita narsani aytishga qaror qilgan edi, biri – o'zining pok, halol emasligi, ikkinchisi esa Xudoga ishonmasligi. Buni aytish og'ir edi, shunday bo'lsa-da, unisini ham, bunisini ham aytishi kerak edi.

– Yo'q, hozir emas, keyin! – dedi Levin.

– Xo'p, keyin, lekin, albatta, aytasiz. Men hech narsadan qo'rqmayman. Hamma narsani bilishim kerak. Endi tamom.

Levin so'zining pirovardida shunday dedi:

– Endi tamom deyishdan maqsadingiz: meni qanday bo'lsam ham, shundayligimcha qabul qilasiz, mendan voz kechmaysiz-da? Shundaymi?

– Ha, ha.

Ularning gaplarini mademoiselle Linon bo'lib qo'ydi; u yasama bo'lsa ham, lekin muloyim bir tabassum bilan sevgili shogirdini tabrik qilgani kirdi. U chiqib ketishga ulgurmay, boshqa xizmatkorlar ham kirib tabrik qila boshlashdi. Keyin qarindosh-urug'lari keldi, ana shundan so'ng rohatbaxsh rasm-rusumlar boshlanib ketdi va to'yning ertasigacha bu rasmiyatlardan Levinning boshi chiqmadi. Levin hamma vaqt o'zini o'ng'aysiz his qilar, yuragi siqilar, lekin baxt shalolasi qalbini to'ldirib, toshib borardi. U o'zi bilmagan juda ko'p narsalar talab qilinishini har doim sezib turar, nimaniki aytishmasin – hammasini qilar va bu narsalar unga faqatgina baxt keltirardi. Bu

unashish marosimi boshqalarnikiga hech o'xshamaydi, unashishdagi oddiy rasm-rusumlar o'z baxtiga zavol yetkazadi, deb o'ylardi, lekin pirovardida u ham boshqalar nima qilsa, shuni qildi, baxti esa buning orqasida farovon bo'ldi, hech mahal misli ko'rilmagan bir xususiyat kasb etdi.

M-lle Linon:

– Endi konfet yeymiz, – desa Levin konfet sotib olgani bordi.

Sviyajskiy:

– Juda xursandman, maslahatimga kirsangiz, guldastalarni Fomindan sotib oling, – desa, Levin:

– Shundaymi? – dedi-yu, Fominning do'koniga qarab jo'nadi.

Akasi:

– Pul qarz olish kerak, chunki sarf-xarajat, sovg'a-salomlar ko'p bo'ladi, – desa, Levin:

– Sovg'a-salomlar ham kerak bo'ladimi? – dedi-yu, Fuldnikiga ot qo'yib ketdi.

Levin qandolatfurushnikida ham, Fominnikida ham, Fuldnikida ham o'zini kutib turganlarini, uning baxtiga xursand bo'lganliklarini, shu kunlarda Levinning ishi tushgan hamma odamlar singari ularning ham Levin baxtini ko'rib, tantana qilishayotganliklarini payqadi. Shunisi g'ayrioddiy bir hol ediki, hamma uni yaxshi ko'rar, ilgari jini suymagan, sovuq, parvosiz odamlarning unga zavqi kelib, butun degan-aytgan narsalariga itoat qilishar, uning his-tuyg'ulariga hurmat bilan qarashar, qaylig'im er xilqatiga o'xshamagan bir mo'jiza bo'lgani uchun dunyoda men eng baxtli odamman, degan qanoatiga sherik bo'lishar edi. Kiti ham shunday tuyg'ular ichida edi. Grafinya Nordston undan yaxshirog'ini topishi mumkinligini shama qilib o'tganda, Kiti qizishib, dunyoda Levindan yaxshiroq odam bo'lmasligi to'g'risida shunday ishonchli dalillar keltirib e'tiroz qila boshladiki, grafinya Nordston bu fikrga qo'shilishga majbur bo'ldi va Kiti huzurida Levinni hayrat tabassumi bilan kutib oladigan bo'ldi.

Levin o'z kechmishini Kitiga ma'lum qilishga va'da etgan edi, bu narsa o'sha kunlarning og'ir bir hodisasi bo'ldi. U qari knyaz bilan maslahatlashib, uning roziligini olgandan so'ng xotira daftarini Kitiga keltirib berdi, o'zini qiynab kelayotgan narsalar shu daftarda to'liq yozilgan edi. Bu xotiralarni o'sha mahal kelajak qaylig'i uchun yozgan edi. Iffatini yo'qotgani va dinsizligi uni tashvishga solardi.

Dinsizlik haqidagi e'tiroflar sezilmasdangina o'tib ketdi. Kiti dindor qiz edi, din haqiqatlariga hech mahal shak keltirmagan edi, ammo Levinning zohiriy dinsizligi Kitiga zarracha ham og'ir botmadi. Kiti sevgisi bilan uning qalbini ko'rib turar, uning qalbida o'zi xohlagan narsalar borligini bilar, qalbning shu holati dahriylik deb ataladi degan gapga Kiti befarq qarardi. Kitini achchiq-achchiq yig'latgan narsa esa boshqa bir e'tirofi bo'ldi.

Levin xotira daftarini berishdan oldin ikkilanib turgan edi. U o'zi bilan Kiti o'rtasida sir bo'lmasligi kerak, bo'lishi ham mumkin emas deb bilardi. Shuning uchun xotira daftarini keltirib bergan edi, lekin bu narsaning unga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'ylab ko'rmagan, o'zini uning o'rniga qo'yib ko'rmagan edi. Shu bugun teatrda jo'nash oldidan ularnikiga kelib, Kitining xonasiga kirgandagina, qayg'u-alamlardan uning yig'lab o'tirganini, dilbar yuzining baxtsizlikdan ma'yus bo'lib qolganini ko'rdi-yu, o'zining sharmanda o'tmishi bilan Kitining yangi ochilgan guldek pokligi o'rtasida chuqur bir jar borligini anglab, qilmishidan dahshatga tushdi.

Kiti oldidagi stol ustida yotgan xotira daftarini itarib:

– Oling, oling bu dahshatli kitobingizni! – dedi. – Nega berdingiz menga!.. – Keyin Levinning ma'yuslanganini ko'rib rahmi kelganidan: – Mayli, o'qib chiqqanim, har holda yaxshi bo'ldi. Lekin yomon dahshat, yomon dahshat! – deb ilova qildi.

Levin boshini solintirib, indamay turardi. Gapirishga qodir emasdi.

– Meni kechirmassiz, – deb shivirladi u.

– Yo'q, kechirganman, lekin bu bir dahshat!

Ammo Levinning baxti shu qadar ulug' ediki, xotiralari baxtiga zavol etkazmadi, balki yangi rang, yangi jilo berdi. Kiti uni kechirdi, shunday bo'lsa ham, Levin o'shandan beri o'zini Kitiga nomunosib deb biladigan, uning oldida axloqsiz boshini quyi egadigan va o'zi noloyiq bo'lgan baxtini yana ham yuksakroq qadrlaydigan bo'ldi.

XVII

Aleksey Aleksandrovich tushlik ovqat ustida va undan keyin o'tgan gaplar taassurotini xayolidan bir-bir o'tkazib, o'zining huvillagan xonasiga qaytib kelmoqda edi. Darya Aleksandrovnaning

kechirish to'g'risidagi gaplari faqat g'ashini keltirdi, xolos. Nasroniylik qonun-qoidalarini o'z ahvoliga tatbiq qilish-qilmaslik masalasi haddan ziyod og'ir edi. Bu haqda gapirish hazilakam narsa emasdi, innaykeyin, bu masalani Aleksey Aleksandrovich allaqachon salbiy ma'noda hal ham qilib qo'ygan edi. O'rtada o'tgan gaplarning ichida unga ko'proq ta'sir qilgan narsa nodon, ochiqko'ngil Turovsinning: erkakchasiga ish ko'ribdi, duelga chaqiribdi-yu, otib o'ldiribdi-qo'yibdi, degan so'zlari bo'ldi. Odob-andishaga borib bu haqda hech kim hech narsa demagan bo'lsa ham, lekin hamma uning gapiga xayrixoh ko'ringan edi.

«Darvoqe, hamma narsa tamom bo'ldi. Bu haqda bosh og'ritib o'tirishning hojati yo'q», deb o'ylandi Aleksey Aleksandrovich. Shundan keyin hozir yo'lga chiqish va taftish o'tkazish to'g'risida bosh qotirib xonasiga kirdi-yu, orqasidan kelayotgan darbondan yugurdagining qayerdaligini so'radi, darbon yugurdakning hozirgina tashqariga chiqqanligini aytdi. Aleksey Aleksandrovich choy keltirishlarini buyurib, stol yoniga o'tirdi-da, Frumni qo'lga olib, sayohat yo'nalishini o'ylab ketdi.

Yugurdak xonaga kirib:

– Ikkita shoshilinchnoma keldi, – dedi. – Kechirsinlar, janobi oliylari, hozirgina chiqib edim.

Aleksey Aleksandrovich shoshilinchnomalarni olib ochdi. Birinchi shoshilinchnoma Karenin egallashni xohlab yurgan o'ringa Stremovning tayinlangani to'g'risida edi. Aleksey Aleksandrovich shoshilinchnomani irg'itib tashlab, o'rnidan qizarib turdi-da, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi: «Quos vult perdere dementat»¹, dedi. Quos so'zini ishlatganda Stremovning tayinlanishiga yordam qilgan shaxslarni nazarda tutgan edi. Bu narsa unga yomon alam qildi, lekin bu o'rinni o'zi olmagan uchun emas (garchi o'zining nazar-pisand qilinmagani ravshan bo'lsa ham), balki laqma, ig'vogar Stremovning bu vazifaga boshqa har qanday odamdan ham noloyiqroq ekanligini ko'rmaganlariga hayron bo'lib tushunolmay qoldi. Uni shu vazifaga tayinlash bilan o'zlarini, o'z prestige-larini² barbod qilganliklarini nechuk ko'rishmadi ekan!

¹ «Xudo halok qilmoqchi bo'lgan kishini aqlidan ozdiradi» (*lot.*).

² Nufuz (*frans.*).

U ikkinchi shoshilinchnomani ocha turib: «Shunga o'xshagan yana bir balodir-da», deb o'yladi safrosi qaynab. Bunisi xotini-dan edi. Ko'k qalam bilan «Anna» deb qo'ygan imzosi eng avval ko'ziga chalindi. «O'lim to'shagidaman, o'tinaman, yolvoraman, yetib keling. Rozi-rizoligingizni eshitsam, osonroq jon beraman», deb yozilgan so'zlarni o'qidi. U nafrat bilan jilmayib, shoshilinchnomani irg'itib tashladi. Bu bir aldov, yolg'on edi, bunda hech qanday shubha bo'lishi mumkin emasdi, dastlabki daqiqada unga har holda shunday ko'rindi.

«Hech qanday yolg'ondan tap tortmaydi. Ko'z yorish kunlari yaqin edi. Ehtimol, shuning dardidir. Lekin maqsadlari nima? Bolani qonunlashtirish, meni sharmanda qilish, taloqqa xalaqit berish-da, — deb o'yladi u. — Ammo «o'lim to'shagidaman» degan so'zi bor...» Shoshilinchnomani yana qaytadan o'qib chiqdi; shoshilinchda aytilgan so'zning bevosita ma'nosi uni birdan hayajonga soldi. «Bordiyu, to'g'ri bo'lsa-chi? — dedi u o'ziga. — To'g'ri bo'lsa, og'ir iztirob daqiqalarida, jon berish oldida qilmishlaridan chinakam pushaymon bo'layotgan bo'lsa-yu, men buni aldov deb bilib, borishdan voz kechsam? Bu ishim faqat zolimlikdan boshqa narsa emas, hamma meni qoralaydi, men tomonimdan bir nodonlik ham bo'ladi».

— Pyotr, karetani to'xtat. Peterburgga boraman, — dedi u yugurdagiga.

Aleksey Aleksandrovich Peterburgga qaytib, xotinini ko'rishga qaror qildi. Agar kasalman deb aldagan bo'lsa, indamaydi-yu, qaytib ketaveradi. Agar chindan ham o'lim to'shagida yotgan bo'lsa, jon berishdan oldin uni ko'rishni istasa, borguncha qazo qilmagan bo'lsa, u holda gunohlarini kechiradi, kechikib borsa ham, so'nggi burchini ado etadi.

Nima qilishi kerakligini yo'lda bir marta ham o'ylamadi.

Aleksey Aleksandrovich horgan-tolgan, vagonda hamma yog'i bulg'angan holda Peterburgning subhidam tumanida, bo'm-bo'sh Neva xiyobonida ro'parasiga qarab olib, hech nimani o'ylamasdan borar edi. Uyida uni nimalar kutib turganligini hozir o'ylay olmasdi, chunki u yerdagi narsalarni ko'z oldiga keltirgudek bo'lsa, Annaning o'limi butun mushkulini oson qilib yuborishi to'g'risidagi taxminini xayolidan quvib yubora olmasdi. Nonvoyxonalar, yopiq do'konlar, tun izvoshlari, yo'lkalarni supurayotgan xodimlar ko'z oldidan lip-

lip o'tib turardi. U uyida o'zini kutib turgan, tilashga jur'at qilolmasa ham, yana tilab turgan narsalari to'g'risidagi fikrlarini bosish uchun, tevarakdagi narsalarni tomosha qilib borardi. Eshik oldida bir izvosh va kучeri uxlab o'tirgan yana bir kareta turgan edi. Aleksey Aleksandrovich dahlizga kirgandan so'ng ko'nglining burchagida yotgan bir fikrni qidirib topganday bo'ldi. Bu: «Aldagan bo'lsa, xazar qilib indamay jo'nab ketish. Agar rost bo'lsa, odob-andishaga rioya qilish», degan so'zlardan iborat edi.

Darbon Aleksey Aleksandrovich qo'ng'iroq chalmasdan burun eshikni ochdi. Darbon Petrov, boshqacha qilib aytganda Kapitonich – eski syurtukda, bo'yinbog'siz, tuflisiz g'alati bir ahvolda edi.

– Begoyim qalay?

– Kecha eson-omon ko'zlari yoridi.

Aleksey Aleksandrovich rangi o'chib, qotib qoldi. Xotining o'lishini naqadar xohlaganini endigina angladi.

– Sog'ligi-chi?

Korney ertalabki peshbandida zinadan yugurib tushdi.

– Juda yomon, – deb javob berdi u. – Kecha do'xtirlar yig'ilishib maslahat qilishdi, hozir ham do'xtir shu yerda.

Aleksey Aleksandrovich:

– Buyumlarni ol, – dedi-yu, o'lishiga hali ham umid borligi to'g'risidagi xabarni eshitgandan so'ng biroz yengil tortib, dahlizga o'tib ketdi.

Kiyimlar osiladigan joyda bir harbiy shinel ham bor edi. Aleksey Aleksandrovich sezib:

– Kim bor? – deb so'radi.

– Do'xtir, doya, innaykeyin graf Vronskiy.

Aleksey Aleksandrovich ichkariga kirib ketdi.

Mehmonxonada hech kim yo'q edi, oyog'ining dupurini eshitib, Annaning kabinetidan safsar lentali kallapo'sh kiygan doya chiqdi. Doya Aleksey Aleksandrovichning yoniga keldi-da, yaqinlashib qolgan o'lim vahmidan nazokatni ham unutib, uni qo'ldan ushlaganicha yotoqxonaga boshlab kirdi.

– Xudoga shukur, kelibsiz! Faqat sizga; sizgagina mushtoq edi, – dedi u.

Yotoqxonada doktorning amirona ovozi yangradi:

– Tezroq muz keltirsanglar-chi!

Aleksey Aleksandrovich Annaning kabinetiga kirdi. Uning stoli yonidagi past stulda Vronskiy yonlab o'tirar, yuzini qo'llari bilan berkitib olib yig'lar edi. Doktorning ovozi eshitib o'rnidan sapchib turdi-yu, yuzidan qo'llarini olib, Aleksey Aleksandrovichni ko'rdi. Annaning erini ko'rib shunday o'sal bo'ldiki, yana darhol joyiga o'tirib, o'zini qayoqqadir yashirgisi kelgandek, boshini yelkalari ichiga tortib oldi, lekin o'zini zo'rlab o'rnidan turdi-yu:

– Jon beryapti, – dedi. – Do'xtirlar umid yo'q deyishyapti. Men sizning ixtiyoringizdaman, lekin shu yerda bo'lishimga ijozat bering... mayli, yana ixtiyor sizda, men...

Aleksey Aleksandrovich Vronskiyning ko'zlaridagi yoshni ko'rib, ko'ngli buzila boshlaganini sezdi-da (boshqalarning iztirobini ko'rganda hamma vaqt ko'ngli buzilib ketardi), yuzini teskari o'girib oldi, keyin gapni oxirigacha eshitmasdan, eshik tomon shoshib yurib ketdi. Yotoqxonadan Annaning nima haqdadir gapirayotgan ovozi eshitildi. Ovozi quvnoq, jonli, aniq-ravshan ohanglarga boy edi. Aleksey Aleksandrovich yotoqxonaga kirib karavot yoniga keldi. Anna yuzini eri tomonga o'girib yotardi. Betlari qip-qizil, ko'zlari porloq, koftasining yengidan chiqib turgan kichkina oppoq qo'llari adyol uchini o'ynash bilan ovora edi. Faqat sog'-u salomatgina emas, balki kayfi ham nihoyatda chog' ko'rinardi. U shoshib charaqlab, ohangdor qilib yurak-yuragidan chiqarib gapirar edi.

– Chunki Aleksey, Aleksey Aleksandrovichni aytyapman (taajjub, taqdirning mudhishligini qarangki, ikkovi ham Aleksey-ya, shunday emasmi?), Aleksey gapimni qaytarmas edi. Meni kechirsa, unutib yuborardim... A, nega haligacha kelmaydi-ya u? Aleksey shafqatli odam, o'zining shafqatli ekanini bilmaydi. Voy! Yo Xudo, qanday dog'-u hasrat bu! Tezroq suv beringlar! O, yo'q, bu chaqaloqqa, qizginamga zarar qiladi! Xo'p, bo'пти, qizga enaga topib beringlar. Xo'p, roziman, shunisi tuzuk. Aleksey kelsa, ko'rib joni og'riydi... qizni berib yuboringlar...

Doya Annaning diqqatini Aleksey Aleksandrovichga tortishga tirishib:

– Anna Arkadevna, Aleksey Aleksandrovich kelgan. Ana! – dedi.

– O, bo'lmagan gap! – dedi yana Anna erini ko'rmay. – Olib kelinglar uni, qizaloqni olib kelinglar! U hali kelgani yo'q. Sizlar uni kechirmaydi deysizlar, uni bilmaganlaringiz uchun shunday deysizlar.

Uning qanaqaligini hech kim bilmas edi. Faqat bir mengina bilardim, shunda ham menga juda og'ir edi. Ko'zlari, Seryojaning ko'zlari ham shunaqa, shuning uchun ham Seryojaning ko'zlarini ko'rishga tobim yo'q. Seryojaga ovqat berdinglarmi? Bilaman, hamma esidan chiqarib qo'yadi. Aleksey bo'lsa esidan chiqarmasdi. Seryojani burchakdagi uyga qo'yinglar, Mariette-dan so'ranglar, Seryoja bilan yotsin.

Anna birdan g'ujanak bo'lib oldi, xuddi zarba kutayotganday qo'rqib, xuddi o'zini himoya qilayotganday qo'llarini ko'tarib yuziga keltirdi. U erini ko'rgan edi:

– Yo'q, yo'q, – dedi Anna tilga kirib, – undan qo'rqmayman, o'limdan qo'rqaman. Aleksey, yonimga kel. Men shoshib turibman, sababi bor, umrim oz qoldi, hozir isitmam ko'tariladi-yu, aql-hushim yo'qoladi. Hozircha aql-hushim joyida, hamma narsaga tushunib, hamma narsani ko'rib turibman.

Aleksey Aleksandrovichning tirishib-burishib ketgan yuzi azob chekayotganini ko'rsatib turardi; u Annani qo'lidan ushladi, bir nima demoqchi bo'ldi-yu, ammo hech nima deymadi, pastki labi titrardi, lekin u o'z hayajonini bosib olishga urinar, Annaga faqat ora-siragina qarab qo'yardi. Har gal uning ko'zlariga er ostidan qaraganda, u ko'zlarning shu mahalgacha hech qachon ko'rilmagan bir muloyimlik, quvnoqlik bilan qarab turganligini ko'rardi.

– To'xta, sening xabaring yo'q... to'xtang, to'xtang... – dedi-yu, Anna fikrini to'plab olmoqchi bo'lganday, to'xtab qoldi. Keyin yana gapini boshladi: – Ha, ha, ha, ha, men bunday demoqchi edim. Menga hayron bo'lma. Men hali ham avvalgidayman, lekin mening ichimda boshqa bir Anna bor, men ana shundan qo'rqaman – ana o'sha Anna uni yaxshi ko'rib qoldi, sendan bezib ketmoqchi bo'ldim, lekin avvalgi Annani, asl Annani unutib yuborolmadim. U Anna men emasman. Hozir men asl Annaman, bir butun Annaman. Hozir o'laman, o'lishimni bilaman, ishonmasang, undan so'ra. Mana, hozir ham sezib turibman, ana oyoqlarim, qo'llarim, barmoqlarim zil-zambil. Barmoqlarim mana bunday – kattakon! Mayli, hechqisi yo'q, tamom bo'lishimga oz qoldi... faqat bir narsanigina xohlardim: meni kechirsang, butunlay, butunlay kechirsang! Men omonman, lekin enaga «muborak jabrdiyda» degan edi meni – oti nimaydi? U mendan yomonroq edi. Keyin Rimga ketaman, u yerda cho'l-sahrolar bor, ana undan so'ng hech kimga xalaqit bermayman, faqat

Seryojani olib ketaman, qizaloqni ham... yo‘q, sen kechirolmaysan meni! Bilaman, bu narsalarni kechirib bo‘lmaydi! Yo‘q, yo‘q, nari bor, sen haddan ziyod yaxshi odamsan! – Anna o‘t bo‘lib yonayotgan bir qo‘li bilan uning qo‘lini ushlab yotar, ikkinchi qo‘li bilan esa uni itarar edi.

Aleksey Aleksandrovichning ko‘ngli buzilgandan buzilib, shu darajaga yetdiki, ortiq bu hayajonini bosib ololmadi, u ko‘ngil buzilishi deb hisoblangan bu holatning, aksincha, unga hech mahal ko‘rilmagan yangi baxt ato qiluvchi ma‘sum, ma‘yus bir holat ekanligini birdan sezib qoldi. U o‘zi umr bo‘yi itoat qilib kelgan nasroniylik qonun-qoidalarining: dushmanlaringni kechir, ularni yaxshi ko‘r, deb bergan ta‘limlarini o‘ylamas edi, lekin uning qal-bini quvnoq bir muhabbat va dushmani kechirish hislari to‘ldirib bordi. U tiz cho‘kib olib, boshini Annaning kofta tagidan ham o‘t bo‘lib yondirayotgan tirsagiga qo‘yib olib, yosh boladek ho‘ng-ho‘ng yig‘lar edi. Anna uning sochlari to‘kila boshlagan boshini quchoqladi. Unga yaqinroq burildi, keyin g‘olibona bir iftixor bilan ko‘zlarini ko‘kka ko‘tardi.

– Mana u, bilardim! Endi alvido, hammangizga alvido!.. Yana kelishdi, nega ketishmaydi-ya?.. Ha, ustimdan mana bu po‘stinni yechib tashlanglar!

Doktor Annaning qo‘lini undan ayirdi, astagina yostiqa qo‘yib, yelkasi bilan qo‘shib yopib qo‘ydi. Anna itoat bilan chalqancha tushib, chaqnoq ko‘zlari bilan to‘g‘risiga qarab yotdi.

– Bir narsa esingda bo‘lsin: menga faqat afving kerak xolos, boshqa hech narsani xohlamayman... Nega u kelmaydi? – dedi yana, Vronskiy yonida turgan eshikka qarab. – Yaqinroq kel, yaqinroq kel! Qo‘lingni ber unga.

Vronskiy karavot yoniga keldi-yu, Annani ko‘rib, yana yuzini qo‘llari bilan to‘sisib oldi.

– Yuzingni och, unga qara. U tabarruk odam, avliyo, – dedi Anna, keyin jahli chiqib, yana: – Ochsang-chi, och, axir, yuzingni! – dedi. – Aleksey Aleksandrovich yuzini ochib qo‘y! Ko‘rgim kelyapti.

Aleksey Aleksandrovich Vronskiyning qo‘lini ushlab, yuzidan olib qo‘ydi, oshkor ko‘rinib turgan iztirob va xijolat yuzini dahshatli bir tusga solib qo‘ygan edi.

– Qo‘lingni ber unga. Kechir gunohlarini.

Aleksey Aleksandrovich ko'zlaridan duv-duv to'kilib turgan yoshlarini to'xtatolmay, qo'lini berdi.

– Xudoga shukur, Xudoga shukur, – dedi Anna, – endi hamma narsa taxt bo'ldi. Faqat oyoqlarimni picha cho'zib olay. Shunday, ha, shunday, juda soz. O, muncha bedavo anavi gullar, sira ham binafshaga o'xshamaydi-ya, – dedi devorga yopishtirilgan gul qog'ozlarga ishora qilib. – Yo Xudo! Yo Rabbim! Qachon tugaydi-ya bu azob? Menga morfiy bering. Do'xtir! Morfiy bersangiz-chi. Voy Xudo, voy Xudo!

Anna ko'rpa ichida to'lg'ana boshladi.

Doktor va doktorlar buni xastalarning yuzdan to'qson to'qqizini olib ketadigan tug'urnuq isitmasi deb aytdilar. Anna butun kun isitmada yonib, alahsib, hushidan ketib turdi. Yarim kechaga borib kasal hushini yo'qotdi, tomiri qariyb urmay qo'ydi.

Lahza sayin uzilishini kutib o'tirdilar.

Vronskiy uyiga ketdi, lekin ertalab hol so'ragani keldi, shunda Aleksey Aleksandrovich uni dahlizda ko'rib:

– Ketmay turing, balki sizni yo'qlab qolar, – dedi-yu, uni o'zi xotinining kabinetiga boshlab kirdi.

Ertalab kasalda yana hayajon, jonlanish boshlandi, fikrlari o'tkir, so'zlari burro bo'lib qoldi, keyin bular yana hushsizlik bilan natijalandi. Uchinchi kun ham shu ahvol davom qildi, lekin doktorlar endi umid borligini aytdilar. Shu kuni Aleksey Aleksandrovich o'z kabinetiga kirdi, u yerda Vronskiy o'tirgan edi, Aleksey Aleksandrovich eshikni yopib, Vronskiyning ro'parasiga o'tirdi.

Vronskiy hozir o'rtada gap ochilishini sezib:

– Aleksey Aleksandrovich, – dedi, – men hozir gapirishga ham, biron narsani anglashga ham qodir emasman. Menga rahmingiz kelsin! Sizga har qancha qiyin bo'lsa ham, ishoning, menga undan ham qiyin.

U o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'lgan edi, Aleksey Aleksandrovich qo'lidan ushlab:

– Gaplarimga quloq solishingizni iltimos qilaman, – dedi, – bu juda zarur. Mening to'g'rimda xato fikrda ketmasligingiz uchun menga rahnamo bo'lgan, bundan keyin ham rahnamo bo'lib qoladigan hislarimni sizga uqtirib qo'yishim kerak. Bilasiz, men u bilan ajralishga qaror qilib, hatto ish ham boshlab yuborgan edim. Sizdan yashiradigan joyim yo'q, ish boshlashga boshladim-u, lekin

o‘zim ikkilanib, azob ichida qoldim, iqrор bo‘lishim kerak, meni harakatga solgan narsa sizdan ham, undan ham qasos olish istagi edi. Shoshilinchnomani olganimdan keyin yo‘lga ham xuddi shu tilak bilan chiqqan edim, bugina emas, hatto uning o‘limini ham istagan edim. Lekin... – o‘z hislarimni unga aytsammi-aytmasammi, degan taraddudda biroz jim bo‘lib qoldi. – Lekin ko‘rdim-u, gunohlarini kechirdim. Ana shundan keyin afv etish baxt-saodati ko‘zimni ochib, burchimni ko‘rsatdi. Gunohlarini butunlay kechirdim. Ikkinchi betimni ham tutib berishni istayman, choponimni yechib olganlarga ko‘ylagimni ham yechib berishni xohlayman, endi Xudoga munojot qilib tilaymanki, afv etish baxtini mendan ayirmasin! – Aleksey Aleksandrovichning ko‘zlaridan yosh chiqdi, uning yorqin, sokin nazari Vronskiyini hayratda qoldirdi. – Men shunday ahvoldaman. Siz meni xo‘rlab oyoqosti qilishingiz, jamiyat ko‘zida masxara qilishingiz mumkin, lekin men uni hech qachon tark etmayman, sizga ham o‘pka qilib bir so‘z aytmayman, – deb davom qildi. – Men o‘z burchimni aniq bilaman: men u bilan bo‘lishim kerak, bo‘laman ham. Agar sizni ko‘rgisi kelsa, o‘zim xabar qilaman sizga, lekin hozir jo‘nab qolishingiz ma‘qulroq deb o‘ylayman.

U o‘rnidan turib ketdi, bo‘g‘ziga kelib tiqilgan yig‘i so‘zlarini kesib qo‘ygan edi. Vronskiy ham o‘rnidan qo‘zg‘aldi-da, bukilgan holida, qaddini rostlamasdan, unga yer ostidan xo‘mrayib qaradi. U Aleksey Aleksandrovichning hislarini tushunolmasdi. Lekin undagi bu holatning qandaydir yuksak bir narsa ekanligini, u o‘z dunyoqarashida bunday narsani anglashga o‘zining qobil emasligini sezib turardi.

XVIII

Vronskiy Aleksey Aleksandrovich bilan o‘zining o‘rtasida o‘tgan gapdan keyin Kareninlarning ko‘cha eshigidan chiqdi-da, qayerda ekanligini zo‘rg‘a anglab, qayerga ketish yo‘jo‘nash kerakligi ustida o‘ylanib qoldi. U o‘zini sharmanda qilingan, tahqir etilgan, o‘z haqiriligini yuvish imkonidan mahrum qilingan bir gunohkor deb his qilardi. U o‘zini hozirgacha g‘urur bilan osongina yurib kelgan yo‘lidan chetga uloqtirib tashlangandek his qilardi. Shu mahalgacha mustahkam bo‘lib ko‘ringan hayotiy odat va qoidalari birdan turmushga tatbiq qilib bo‘lmaydigan soxta narsalar bo‘lib chiqdi. Hozirgacha bir chekkada g‘arib bo‘lib, aldanib kelgan Vronskiyning baxtiga ta-

sodifiy to‘g‘anoq bo‘lib kelgan kulgili er birdaniga xotini tomonidan chaqirib keltirildi-yu, salobatli, yuksak bir mavqega ko‘tarildi, endi bu er ana o‘sha yuksaklarda johil, ayyor, kulgili bo‘lib emas, balki mehribon, sodda, ulug‘vor bo‘lib ko‘rindi. Vronskiy buni sezmay qololmasdi. Rollari birdan o‘zgardi. Vronskiy uni yuksakda, o‘zini esa pastda, uni haq, o‘zini esa nohaq his qila boshladi. U Kareninning o‘z dard-u alamlarida olijanob ekanligini, o‘zining esa aldamchi, tuban, razil ekanligini sezdi. Lekin o‘zi nohaqdan nohaq nafratlanib kelgan bir kishisi oldidagi tubanligini anglashi boshidagi dard-u alamlarning faqat kichik bir qisminigina tashkil qilardi. U hozir o‘zini ta‘rif qilib bo‘lmaydigan darajada badbaxt his etardi, chunki Annaga bo‘lgan va keyingi vaqtlarda soviy boshlagandek ko‘ringan ehtirosi mana endi, Annadan batamom judo bo‘lganligini ko‘rgandan keyin, hech vaqt ko‘rilmagan darajada kuchayib ketgan edi. U Annani kasal yotganida boricha ko‘rdi. Qalbini bildi, Annani hech mahal bunchalik yaxshi ko‘rmaganiga tan berdi. Mana endi uni yaxshilab bilgan va jondan sevgan bir damida Annaning oldida oyoqosti bo‘ldi, unda o‘zi to‘g‘risida uyatli bir xotiragina qoldirib, judo bo‘ldi. Aleksey Aleksandrovich uning qo‘lini xijolatdan shuvut bo‘lgan yuzidan olib qo‘ydi, ana shunda Vronskiy tushgan kulgili, sharmandali ahvol hamma narsadan ham dahshatliroq edi. U Kareninlar eshigi oldida eshushini yo‘qotib qo‘ygan kishiday bo‘lib turar, nima qilishini bilmay hayron bo‘lar edi.

– Izvosh chaqiraymi? – deb so‘radi darbon.

– Ha, izvosh.

Vronskiy uch kecha uxlamay uyiga qaytib kelgandan so‘ng, kimlarini ham echmasdanoq divanga chalqanchasiga tushib yotdi-da, qo‘llarini chalmashtirib boshining ostiga qo‘ydi. Boshi og‘ir edi. Tasavvurlar, xotiralar, nihoyat, taajjub o‘ylar xoriqulodda bir shitoblik va ravshanlik bilan almashinib turardi: goh kasalga dori qo‘yib berayotib qoshig‘idan oshirib yuborgani, goh doyaning op-poq qo‘llari, goh Aleksey Aleksandrovichning karavot yonida juda taajjub bir qiyofada tiz cho‘kib turgani ko‘rinib ketardi.

Charchaganda uyqusi kelib, agar yotsa, darhol uxlab ketishiga bemalol ishongan sog‘ odam singari: «Uxlayman! Esdan chiqaraman!» dedi o‘ziga. Haqiqatan ham, xuddi shu on miyasidagi fikrlar chuvaldi-yu, hushsizlik chohiga qulay boshladi. Boshi ustida shuur-

siz hayot dengizining to'liqlari mavj urishga kirganda, birdan juda kuchli elektr toki urgandek shu qadar qattiq seskanib tushdiki, butun gavdasi divan ustida sakrab ketdi, qo'llari bilan divanga tiranib, qo'rqqanidan tiz cho'kib oldi. Ko'zlari hech mahal uxlamagan kishilarniki singari katta ochilgan edi. Bir zungina oldin o'zi sezib turgan boshidagi og'irlik, vujudidagi bo'shanglik birdan g'oyib bo'ldi.

U Aleksey Aleksandrovichning: «Meni xo'rlab oyoqosti qilishingiz mumkin», degan so'zlarini eshitdi, uning o'zini ham ko'z o'ngida ko'rdi, Annaning o'ziga emas, Aleksey Aleksandrovichga mehr-u shafqat va muhabbat bilan qarab yotgan ko'zlarini, o't bo'lib yongan qizil yuzlarini ham ko'z o'ngida ko'rdi; Aleksey Aleksandrovich qo'lini yuzidan olib qo'yganda, o'z nazarida tushib qolgan ahmoqona, kulgili ahvolni ham ko'z oldida ko'rdi. Shundan keyin oyoqlarini cho'zib, yana boyagi alpozda divanga o'zini tashladi-da, ko'zlarini yumib oldi.

«Uxlash kerak! Uxlash!» deb o'zicha takrorladi. Lekin ko'zlari yumilganda, o'sha esida qolgan poygadan oldingi kechada Annaning yuzini qay xolda ko'rgan bo'lsa, hozir ham ana shunday ravshan ko'ra boshladi.

– Bu narsa yo'q, bo'lmaydi ham, u endi bu narsalarni xotirasidan sidirib tashlamoqchi. Men bo'lsam busiz yashay olmayman. Qanday qilib yarashib olsak ekan? Qanday qilib yarashib olsak ekan? – dedi-yu, ovozi chiqarib, shuursiz bir holda shu so'zlarni takrorlay boshladi. Shu so'zlarni takrorlab turish esa xayolida qalashib yotganini sezib turib, yangi siymolar va xotiralarning qad ko'tarishlariga yo'l bermas edi. Lekin bu holat uzoq davom etmadi. Eng yaxshi daqiqalari bilan so'nggi marta boshi xam bo'lgani xoriqulodda bir sur'at-la ketma-ket ko'z oldiga kela boshladi. Annaning ovozi «Qo'lingni ol», deydi. U qo'lini oladi-yu, yuzining xijolatdan qizarib, ahmoqona bir tus olganini sezadi.

Vronskiy uxlashiga zarra qadar umid yo'qligini sezib tursa ham, hamon uxlashga tirishib yotar, miyasiga kelgan fikrlardan ba'zi birining tasodifiy so'zlarini shivirlab takrorlar, shu bilan ko'z oldiga yangi siymolarni keltirmaslik harakatida bo'lardi. U yotgan yerida quloq solib, g'alati, jinnilarcha bir shipshish bilan takrorlanayotgan shu so'zlarni eshitdi: «Qadriga yetmading, foydalana bilmading, qadriga yetmading, foydalana bilmading».

«Nima bo'ldi? Yo aqldan oza boshladimmi? – dedi u o'ziga. – Ajab emas. Nima sababdan aqldan ozishadi, nima sababdan o'zlarini otishadi?» deb o'ziga o'zi javob berdi-yu, ko'zlarini ochib, boshi yonidagi kashtali yostiqaqa hayron bo'lib qaradi, buni akasining xotini Varya o'z qo'li bilan gul solib tikib bergan edi. U yostiqlarning popugini ushlab ko'rdi, keyin Varyani, uni oxirgi marta qachon ko'rganligini eslashga harakat qildi. Ammo hozir begona narsalar to'g'risida o'ylash azob edi. «Yo'q, uxlash kerak!» deb yostiqlarni yaqin surdi-da, boshini unga mahkam bosib ko'zlarini yumib yotishga tirishdi. Lekin bo'lmadi, sakrab o'rnidan turib o'tirdi. «Endi bu narsa men uchun tamom bo'ldi, – dedi u o'ziga. – Endi nima qilishimni o'ylashim kerak. Endi menga nima qoldi?» Fikri Annaga bo'lgan muhabbatdan mahrum hayoti atrofida aylana boshladi.

«Shuhratparastlikmi? Serpuxovskoymi? Kibor jamiyatimi? Saroymi?» Bularning hech birida qaror topmadi. Bularning hammasida ilgari luzum bo'lgan esa-da, hozir hech qanday luzumi qolmagan. U divandan turdi, syurtugini yechmay, kamarini bo'shatdi, bemalolroq nafas olish uchun jun bosgan ko'kragini ochib yuborib, uyda u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. «Aqlni mana shunday yo'qotishadi, – deb o'zicha takrorlab ketdi, – mana shunday holda o'zlarini otishadi... uyat, nomusda qolmaslik uchun», deb sekingina ilova qilib qo'ydi.

U sekin kelib eshikni yopdi, so'ngra ko'zlari tingan tishlarini bir-biriga mahkam bosgan holda stol yoniga kelib to'pponchani oldi, uni yaxshilab qaradi, o'qlangan stolni burib, tepkiga to'g'riladi, so'ng o'yga cho'mdi. Miyasining zo'r berib ishlayotganligi chehrasidan bilinib turardi, boshini solintirib, qo'lida to'pponcha bilan ikki daqiqacha qimir etmay o'ylanib qoldi. Mantiqqa muvofiq, davomli, ravshan fikrlari shubhasiz bir xulosaga keltirgandek, «albatta», dedi o'ziga. Haqiqatda esa o'zi uchun shubhasiz bo'lgan bu «Albatta» faqat shu soatda ko'nglidan o'n martalab takror-takror o'tgan xotiralar va tasavvurlarning natijasigina edi. Yana o'sha batamom qo'ldan ketgan baxtining xotiralari, yana o'sha kelajak hayotining barcha bema'niligi to'g'risidagi tasavvurlari, yana o'sha xo'rlik haqidagi tushunchalari... ketma-ket ulanib ketgan bu tasavvurlar, bu hislar yana avvalgidek qayta-qayta takrorlanardi.

Fikri uchinchi marta yana o'sha xotiralar va o'ylarning sehrli doirasida aylana boshlaganda, yana bir karra «Albatta» deb takror-

ladi-yu, to'pponchani chap ko'ksiga qadadi, qo'li bilan uni qattiq changallab turib tepkini bosdi. To'pponchani otilganini o'zi eshitmay qoldi, ammo ko'kragiga kelib urilgan qattiq zarba uni yiqitdi. Stol chetini ushlab olmoqchi bo'lgan edi, to'pponcha qo'lidan tushib ketdi, gandarab borib yerga o'tirdi-yu, tevaragiga taajjublanib qaradi. Stolning bukik oyoqlariga, qog'oz savatga va yo'lbars terisiga pastdan qarab, o'z uyini taniyolmadi. Mehmonxona tomonidan shoshib kelayotgan xizmatkorlarning oyoq dupuri hushiga keltirdi. U zo'r berib miyasini ishlata boshladi, o'zining polda ekanligini ang'ladi. Keyin yo'lbars terisidagi hamda o'z qo'lidagi qonlarni ko'rib, o'zini otganligini fahmladi.

Vronskiy qo'li bilan to'pponchani paypaslab qidirib:

– Bema'ni ish bo'ldi! Mo'ljalga urolmadim, – dedi. To'pponcha yonida yotgan bo'lsa ham, uni naryoqlardan qidirardi. To'pponchani qidirib turib narigi tomonga cho'zilgan edi, muvozanatini saqlashga madori etmay, yiqilib tushdi, yarasidan sharillab qon ketdi.

Asablarning zaifligidan har doim tanishlariga zorlanib yuruvchi olifta yugurdak xo'jayinining yerda yotganligini ko'rib, shu qadar qo'rqib ketdiki, uni qon ichida qoldirib, yordamga chaqirgani chopib chiqib ketdi. Bir soatchadan keyin akasining xotini Varya yetib keldi va u har yoqdan chaqirgan, ammo hammasi ham bir mahalda yetib kelgan uch nafar doktor yordami bilan yaradorni karavotga keltirib yotqizdi-da, o'zi unga qarab qoldi.

XIX

Aleksey Aleksandrovich xotini bilan uchrashish taraddudiga tushganda Annaning pushaymonlari astoydil bo'lishi, o'zining kechirishi va Annaning o'lmay qolishi mumkinligini o'ylab ko'rmay, xatoga yo'l qo'ygan edi, ana shu xatosi u Moskvadan qaytib kelgandan so'ng ikki oy o'tgach, butun gavdasi bilan yaqqol ko'rinib qoldi. Lekin u yo'l qo'ygan xato bu ehtimollarni o'ylab ko'rmagani uchun-gina ro'y bergan emas edi, balki o'lim to'shagida yotgan xotini bilan ko'rishgunga qadar o'z qalbini bilmagani uchun ham ro'y bergan edi. U kasal xotini karavoti yonida umrida birinchi marta boshqalarning jafolarini ko'rib, shu qadar ko'ngli yumshab ketgan edi, ilgari-lari bu xislatni zararli bir zaiflik deb uyalib yurar edi; Annaga yuragi

ezilib achingani, Annaga o'lim tilagani uchun pushaymon bo'lgani, hammasidan ham xotinini kechirgani tufayli qalbida uyg'ongan quvonchi uni shunday ahvolga soldiki, o'z iztiroblarining birdan barcham topganini sezish bilan birga, umrida hech ko'rmagan ruhiy bir sokinlikni ham seza boshladi. U o'z iztiroblarining manbai bo'lib kelgan narsaning birdan ruhiy shodligiga manba bo'lib qolganligini, Annani qoralab, undan o'pkalab, nafratlanib yurgan kezlarida hal qilib bo'lmaydigandek ko'ringan chigal narsalarning endi, Annani kechirib, unga ko'ngil qo'ygandan keyin osongina yechiladigan sodda, ravshan narsalarga aylanganligini his qila boshladi.

Aleksey Aleksandrovich xotinini kechirdi-yu, tortayotgan azoblari, qilayotgan pushaymonlari uchun unga yuragi achishdi. Aleksey Aleksandrovich Vronskiyini kechirdi-yu, uning alam ustida qilgan ishi qulog'iga chalingandan keyin unga yana battar yuragi achishdi. Hozir o'g'liga ham ilgariyulardan ko'proq rahmdil bo'lib qoldi, u bilan kam mashg'ul bo'lgani uchun o'zini koyiy boshladi. Lekin yangi tug'ilgan mitti qizaloqqa faqat achinish hissi bilangina emas, allaqanday nozik, muloyim mehr hissi bilan qaraydigan bo'ldi. O'z pushti kamaridan bo'lmagan, onasining kasalligida parvosiz tashlab qo'yilgan va agar o'zi g'amxo'rlik qilmasa, o'lib ketish ehtimoli bo'lgan nimjon chaqaloqqa oldin faqat shafqat hissi bilangina qarab yurdi, keyin esa yaxshi ko'rib qolganligini o'zi ham bilmay qoldi. U har kun bolalar bo'lmasiga bir necha marta kirib, uzoq-uzoq o'tirib qolardi, undan avvallari tortinib-iymanib yurgan enaga bilan doya Aleksey Aleksandrovichga asta-sekin ko'nikib qoldi. U uxlab yotgan chaqaloqning och qizil, mayin, serajin yuzchasiga ba'zan yarim soatlab qarab o'tirar, tirishgan peshonasining qimirlashiga va barmoqchalari yumilgan qo'lchasining orqasi bilan kichkina ko'zlari va qangsharini ishqalashini tomosha qilardi. Ana shunday daqiqalarda Aleksey Aleksandrovich o'zini xotirjam va o'zidan mamnun his etar, o'z ahvolidan hech qanday g'ayrioddiy narsa yo'qligini, uni o'zgartirishga zarurat yo'qligini ko'rib turardi.

Lekin bu holati hozir o'zi uchun naqadar tabiiy bo'lmasin, baribir bu holatda qolishiga yo'l qo'ymasliklariga zamon o'tgan sari ravshanroq ishonib bordi. U o'z qalbiga rahnamo bo'lgan xayrli ma'naviy kuchdan tashqari, uning hayotiga rahnamo bo'lgan boshqa, dag'al, o'shanday yoki o'shandan ham quvvatliroq kuch borligini va bu

kuch u intizor bo'lgan osoyishtalikka erishuviga yo'l qo'ymasligini his qilardi. Hammaning o'ziga savol berayotgandek bir taajjub bilan qarab turganini, uning qanday odam ekanligiga hayron qolganlarini, undan nimanidir kutayotganlarini sezib turardi. Ayniqsa, xotini bilan o'zi o'rtasidagi munosabatning mahkam emasligini, g'ayritabiyy ekanligini sezib yurardi.

Yaqinlashib kelayotgan ajal ko'nglini yumshatgan edi, endi bu holat o'tgach, Aleksey Aleksandrovich Annaning o'zidan qo'rqa-yotganligini, siqilayotganligini, endi ko'zlariga tik qaray olmaganligini payqay boshladi. Anna bir nima demoqqa chog'lanar, lekin deyishga jur'at qilolmasdi, Anna ham, munosabatlarining davom etishi mumkin emasligini yuragi sezib turgandek, undan nimadir kutar edi.

Annaning chaqalog'i fevral oxirlarida kasal bo'lib qoldi (unga ham Anna deb nom qo'yilgan edi). Ertalab Aleksey Aleksandrovich bolalar bo'lmasiga kirdi-yu, doktorga odam yuborishni buyurib, o'zi vazirlikka ketdi. U yerda ishlarini tamomlab, uyga soat uchdan keyin qaytib keldi. Dahlizga kirib, zar uqali, ayiq terisidan yengsiz kalta kiyim kiygan, amirkon zotli oq kuchukni ushlab turgan bir ko'rkam yugurdakni ko'rdi.

– Kim keldi? – deb so'radi Aleksey Aleksandrovich.

– Knyaginya Yelizaveta Fyodorovna Tverskaya, – deb javob berdi malay, u Aleksey Aleksandrovichga kulimsiraganday tuyuldi.

Aleksey Aleksandrovich boshiga tushgan shu og'ir kunlarda kibor doiralarga mansub tanishlari, ayniqsa, ayol tanishlari uning va xotining qayg'u-alamlariga parvosiz qolmaganliklarini sezib yurardi. U barcha tanishlarining ko'zida yaqindagina advokatning ko'zlarida ko'rgan, mana endi malayda ham ko'rib turgan shodlikka o'xshagan allaqanday bir shodlik borligini, ular bu shodlikni zo'r-bazo'r yashirishib kelayotganlarini sezib yurardi. Aleksey Aleksandrovichni ko'rishganda, arang yashirib turgan shodlik bilan Annaning sog'ligini so'rashardi.

Xatti-harakatlari bilan Annaga aloqador bo'lgan va Aleksey Aleksandrovich yomon ko'rgan knyaginya Tverskayaning bu yerdaligi Kareninga yoqmadi, shuning uchun u to'g'ri bolalar bo'lmasiga o'tib ketdi. Birinchi bo'lmada Seryoja ko'kragini stolga tirab, oyoqlarini stulga qo'yib olib, g'ing'illab surat solayotgan

edi. Anna yotib qolganda fransuz murabbiyaning o'rniga kelgan ingliz xonim Seryojaning yaqinida ish to'qib o'tirgan edi, Aleksey Aleksandrovichni ko'rib darhol o'rnidan turdi-yu, ta'zim qilgandan so'ng Seryojani turtib qo'ydi.

Aleksey Aleksandrovich o'g'lining sochini siladi-da, murabbiyaning Anna sog'ligi to'g'risidagi savoliga javob qilgandan so'ng baby¹ to'g'risida doktor nima deganligini so'radi.

– Do'xtir hech qanday xavfli narsa yo'q, cho'miltiringlar, dedi, janob.

Aleksey Aleksandrovich qo'shni xonada chaqaloqning chinqirayotganini eshitib:

– Qiynalyapti, shekilli, – dedi.

– Nazarimda, emizuvchi enagasi to'g'ri kelmayotganga o'xshaydi, janob, – dedi ingliz xonim qat'iy qilib.

Aleksey Aleksandrovich yurib ketayotgan yerida to'xtab so'radi:

– Nega bunday deb o'ylaysiz?

– Grafinya Polning chaqalog'i ham shunday bo'luvdi, janob. Chaqaloqni dori berib shifolashdi, tekshirib qarashsa, bola bechora och qolar ekan, enagasining suti yo'q ekan, janob.

Aleksey Aleksandrovich biroz xayol surib turgandan so'ng ikkinchi eshikdan ichkariga kirib ketdi. Qizaloq emizuvchi xotinning qo'lida tipirchilab boshini har yoqqa tashlar, og'ziga tutgan bo'liq siynaga qaramas, ustida engashib turgan enaga bilan emizuvchining ha-halashlariga parvo qilmay, chinqirishini qo'ymas edi.

– Hali ham boyagidaymi? – deb so'radi Aleksey Aleksandrovich.

Enaga pichirlab:

– Juda bezovta bo'lyaptilar, – deb aytdi.

– Miss Edvard, ehtimol, emizuvchining suti yo'qdir, deyapti, – dedi Aleksey Aleksandrovich.

– Men ham shunday deb o'ylayman, Aleksey Aleksandrovich.

– Bo'lmasa, nega aytmaysiz?

– Kimga aytaman? Anna Arkadevna hali betob yotibdilar, – dedi enaga norozi bo'lib.

Enaga bu uyda eskitdan xizmat qilib kelgan qari xotin edi. Uning mana shu oddiy so'zlarida ham Aleksey Aleksandrovichga o'zining ahvoriga shama bordek tuyuldi.

¹ Chaqaloq (*ingl.*).

Chaqaloq bo'g'ilib, xirqirab yana battar chinqira boshladi. Enaga qo'lini siltab chaqaloq yoniga bordi-da, emizuvchidan olib, qo'lida tebratib yurdi.

– Do'xtirni chaqirib, emizuvchini ko'rsatish kerak, – dedi Aleksey Aleksandrovich.

Ko'rinishidan sog'lom, bashang emizuvchi, o'zining rad qilinishidan qo'rqib, to'la ko'kragini yashirdi-da, suti yo'qligi to'g'risidagi shubhadan istehzo bilan kulimsirab, allanima deb to'ng'illadi. Aleksey Aleksandrovichning nazarida u kulimsirash bilan mazax qilayotganday tuyuldi.

Enaga ha-halab va hamon u yoqdan bu yoqqa yurib turib:

– Sho'rlik bola, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich stulda o'tirib, u yoqdan bu yoqqa alang-alayotgan enagaga ma'yuslik bilan qarab qoldi.

Axyiri, tinchigan bolani enaga chuqur karavotga yotqizdi-da, yostig'ini to'g'rilab qo'yib, nari ketgandan so'ng Aleksey Aleksandrovich o'rnidan turdi-yu, bola yoniga oyoqlari uchida asta yurib keldi. Yana boyagiday ma'yuslik bilan bolaga bir daqiqagina jim qarab turdi, lekin birdan sochlari va peshonasining terisi orqasiga surilib yuzida iljayish paydo bo'ldi, yana sekingina uydan chiqib ketdi.

Yemakxonada qo'ng'iroqni chalib, kirgan xizmatkorga doktorga odam yuborishni buyurdi. Shunday shirin bolaning g'amini yemagani uchun xotiniga jahli chiqdi, ammo shu jahli bilan xotining oldiga kirishni xohlamadi, bundan tashqari, knyaginya Betsini ham ko'rgisi yo'q edi. Lekin xotini odatda kirib xabar oladigan erining nima uchun kirmaganiga hayron bo'lishi mumkin edi, shuning uchun o'zini zo'rlab bo'lsa ham xotining yotoqxonasiga qarab yo'l oldi. Yumshoq gilam ustida yurib kelib eshikka yetganda, eshitishni istamagan bir gapni beixtiyor eshitib qoldi.

– Agar u jo'nab ketayotgan bo'lmaganda edi, sizning ham, eringizning ham ko'nmaganiga tushungan bo'lardim. Lekin eringiz bunday narsalardan baland turishi kerak, – deyardi Betsi.

– Men o'zim uchun xohlamayman, erim uchun emas. Qo'ying bunday gaplaringizni! – deb javob berdi Annaning hayajonli tovushi.

– Shundaydir-u, lekin sizni deb o'zini otgan kishi bilan xayrlashmasligingiz to'g'ri kelmaydi-da...

– Shuning uchun ham xohlamayman.

Aleksey Alksandrovich yuragi chiqib ketgan aybdor kishidek to'xtab, sekingina orqasiga qaytib ketmoqchi bo'ldi. Lekin bunday qilish menga munosib emas, degan xayol bilan shu fikridan qaytib, yana orqasiga o'girildi-da, bir yo'talib qo'yib, yotoqxonaga qarab yurdi. Ovozlar tindi, u ichkari kirdi.

Kulrang xalatda, kalta qilib qirqilgan, yumaloq boshidagi qora, qalin sochlari fatila-fatila bo'lgan Anna kushetkada o'tirgan edi. Erini ko'rganda, har mahaldagi singari, yuzidagi jonlanish birdan g'oyib bo'ldi; Anna boshini solintirib, xavotirlanganday Betsiga qarab qo'ydi. Eng so'nggi urfda kiyingan Betsi, lampaning qalpog'iga o'xshab, boshining allaqaysi yerida qo'qqayib turgan shlapada, yo'l-yo'l chiziqlari beligacha bir tomonga, yubkasida ikkinchi tomonga qaragan ko'k ko'ylakda baland qomatini raso tutib Anna yonida o'tirgan edi; Aleksey Aleksandrovich kirganda, boshini solintirib, kinoyali bir tabassum bilan qarshiladi.

Betsi, xuddi hayron qolgandek:

– A! – deb qo'ydi. – Uyda ekansiz, ko'p xursandman. Hech qayerda ko'rinmaysiz, Anna kasal bo'lgandan beri sizni hech ko'rganim yo'q. Hamma gapni – g'amxo'rlicingizni eshitdim. Rostdan ham, g'oyat ajo'yib ersiz! – dedi Betsi, xotiniga qilgan mehribonligi uchun uni olijanoblik ordeni bilan taqdirlayotgandek, ma'nodor va dilovar bir qiyofada.

Aleksey Aleksandrovich sovuqqina ta'zim qildi-da, xotining qo'lini o'pgandan so'ng, salomatligini so'radi.

Anna ko'zini erining ko'zidan olib qochib:

– Tuzukka o'xshayman, – dedi.

– Lekin yuzingizdan isitmangiz bordek ko'rinadi, – dedi Aleksey Aleksandrovich, «isitma» so'zini bo'rttirib.

– Ko'p gaplashib yubordik, – dedi Betsi, – mening xudbinligim bo'ldi, xo'p, endi ketaman.

U o'rmidan qo'zg'algan edi, Anna birdan qizarib, yengidan shosh-qin ushlab qoldi.

– Yo'q, biroz o'tiring, iltimos. Bir gapim bor sizga... yo'q, sizga, – dedi Aleksey Aleksandrovichga qarab, uning bo'yni bilan peshonasiga qip-qizil rang yugurdi. – Sizdan biron narsani yashirishni xohlamayman, yashira olmayman ham, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich barmoqlarini shiqirlatib, boshini solintirdi.

– Betsi graf Vronskiyning Toshkentga jo‘nash oldidan biznikiga kelib, xayrlashib ketish istagi borligini aytdi. – Anna eriga qaramas va o‘ziga harchand qiyin bo‘lsa ham, aytadigan gapini aytib olishga shoshilardi. – Men uni qabul qila olmayman, dedim.

– Siz bu narsani Aleksey Aleksandrovichga bog‘liq deb aytdingiz, do‘stim, – deb Betsi uning xatosini tuzatdi.

– Baribir men uni qabul qilolmayman, chunki bu narsa hech nimaga... – Anna birdan to‘xtab, eriga savol nazari bilan qarab qoldi (u Annaga qaramay o‘tirgan edi). – Gapning qisqasi, xohlamayman...

Aleksey Aleksandrovich yaqinroq jilib, Annaning qo‘lini ushla-moqchi bo‘ldi.

Anna boshda o‘z qo‘lini uning kattakon tomirlari o‘ynab chiqqan nam qo‘lidan tortib oldi; keyin, o‘zini zo‘rlab bo‘lsa ham, uning qo‘lini xiyol qisib qo‘ydi.

– Menga bildirgan ishonchingiz uchun behad minnatdorman, ammo... – Aleksey Aleksandrovich o‘zicha oson va ochiq-oydin hal qilish mumkin bo‘lgan narsani knyaginya Tverskayaning oldida mu-hokama qilolmasligini sezib ham xijolatga tushdi, ham jahli chiqdi; knyaginya Tverskaya Aleksey Aleksandrovichning sevgi hislariga, afv etib xursand bo‘lishiga xalaqit berardi, u buni sezib, gapni oxiriga yetkazolmadi, knyaginya Tverskayaga qarab, to‘xtab qoldi.

Betsi o‘rnidan turayotib:

– Xayr, yaxshi qoling, jonginam, – dedi-yu, Annani o‘pib chi-qib ketdi, Aleksey Aleksandrovich uni kuzatib bordi. Betsi kichik mehmonxonada to‘xtadi-da, uning qo‘lini yana bir marta qisib: – Aleksey Aleksandrovich! Sizni chinakam olijanob odam deb bila-man, – dedi. – Men begona odamman, lekin Annani shu qadar yaxshi ko‘raman, sizni shu qadar hurmat qilamanki, bitta maslahat berishni lozim deb topaman. Qabul qilasiz. Aleksey Vronskiy nomus degan narsaning ayni timsoli, ana o‘sha Toshkentga ketyapti.

– Qayg‘umizni yeganingiz va bergan maslahatlaringiz uchun ta-shakkur, knyaginya. Lekin birovni qabul qilish yo qabul qilmaslik masalasini xotinimning o‘zi hal qiladi.

U odatiga ko‘ra sipolikni qo‘ldan bermay, qoshlarini chimirib tu-rib gapirdi, ammo aytgan so‘zlari qanday ahamiyatga ega bo‘lmasin, hozirgi ahvolidan kerilishga hech qanday o‘rin yo‘qligini darhol ang-

ladi. U bu narsani so'zi tugagandan keyin Betsi o'ziga zaharli, masxarali, lekin muloyim bir tabassum bilan qarab qo'rganidan uqib oldi.

XX

Aleksey Aleksandrovich zalda Betsi bilan bosh egib xayrlashgach, xotining yoniga qaytib keldi. Anna yotgan edi, lekin uning oyoq dupurini eshitdi-yu, apil-tapil o'rnidan turib boyagiday o'tirdi-da, unga qo'rqa-pisa qaradi. U Annaning yig'laganini ko'rdi.

Aleksey Aleksandrovich Betsi huzurida fransuzcha qilib aytgan gapini:

– Menga bildirgan ishonching uchun g'oyat minnatdorman, – deb ruscha qilib qisqacha takrorladi. U ruscha gapirganda va Annani sensirab so'zlaganda, bu «sen» Annaning g'ashini keltirardi. – Qaroring uchun ham g'oyat minnatdorman. Men ham, modomiki, ketayotgan ekan, graf Vronskiyning bu yerga kelishiga hech qanday hojat yo'q, deb bilaman. Yana...

– Aytdim-ku, yana takrorlashning nima keragi bor? – deb Anna birdan jahli chiqib gapini bo'lib qo'ydi; u jahlini bosib ololmagan edi. «Bir kishi bir xotinni sevsa, uning yo'lida aziz jonini fido qilmoqchi, qurbon qilmoqchi bo'lsa-yu, u xotin ham o'sha erkaksiz yashay olmasa-yu, tag'in u kelib shunday bir xotin bilan xayrlashmoqchi bo'lsa, bunga na hojat emish! – Anna lablarini qimtib, porloq ko'zlarini uning biri-birini silab turgan, tomirlari o'ynab chiqqan qo'llariga tikdi. – Yo'q, hech qanday hojati yo'q!»

– Minba'd bu haqda gapirishmaylik, – dedi vazmin qilib Anna.

– Bu narsalarni o'zingga havola qilgan edim, shuning uchun g'oyat xursandman, chunki... – Aleksey Aleksandrovich shunday gap boshlagan edi, Anna:

– Mening xohishim siznikiga mos keldi, – deb darhol gapni tugatdi; shu qadar imillab gapirganidan uning jahli chiqib ketgan edi, holbuki, u aytadigan so'zlarini Anna oldindan bilib turardi.

– To'g'ri, – deb Aleksey Aleksandrovich uning gapini quvvatladi. – Innaykeyin, knyagina Tverskaya ham oiladagi eng og'ir, mushkul masalalarga noo'rin aralashib yuradi. Ayniqsa, u...

– Betsi to‘g‘risida kim nima desa desin, lekin men ishonmayman, – dedi Anna bidirlab, – meni jon-dilidan yaxshi ko‘rganligini bilaman.

Aleksey Aleksandrovich bir xo‘rsinib, indamay o‘tirib qoldi. Ananda eriga nisbatan bir jismoniy jirkanch hissi uyg‘ondi. U o‘ziga azob beruvchi shu his bilan eriga qarab, xalatining popugini o‘ynab o‘tirar, jirkangani uchun o‘zini koyir, lekin uni bosib ololmasdi. Anna hozir bir narsanigina xohlardi – uning ko‘nglimga urgan basharasini ko‘rmasam, derdi.

– Hozir do‘xtirga odam yubordim, – dedi Aleksey Aleksandrovich.

– Sog‘man; menga do‘xtirning nima keragi bor?

– Yo‘q, chaqaloq yig‘layapti, emizuvchining suti kam emish.

– O‘zim boqay deb yalinganimda, nimaga unamading? Baribir (Aleksey Aleksandrovich bu «baribir» so‘zining nima ma‘noda ishlatilganini payqadi) u yosh bola, uni juvonmarg qilishadi. – Anna qo‘ng‘iroq chaldi, kirgan xizmatkorga chaqaloqni keltirishni buyurdi. – O‘zim boqay deganimda qo‘yishmagan edi, mana endi menga ta‘na qilishadi.

– Ta‘na qilayotganim yo‘q...

– Yo‘q, ta‘na qilyapsiz! E Xudoyim! Nega o‘lib ketmadim-a! – Anna shu so‘zlaridan keyin yig‘lab yubordi. – Kechir meni, juda injiq bo‘lib qolibman, nohaq gap qildim, – dedi keyin, o‘zini bosib olib. – Bor endi...

Aleksey Aleksandrovich xotining yonidan chiqqandan keyin: «Yo‘q, ahvol shundayligicha qolishi mumkin emas», – dedi o‘ziga qat‘iy qilib.

O‘z ahvolining kibor jamiyat ko‘zida shunday davom eta olmasligi, xotining o‘ziga nafrat bilan qarashi, umuman, ruhiy holatiga zid ravishda hayotiga rahnamo bo‘lib kelgan, o‘z irodasini bajarishni va xotiniga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishni talab qilgan o‘sha dag‘al, sirli kuch hech qachon ko‘z oldida hozirgidek ravshan gavalanmagan edi. U barcha kibor jamiyati, xotini o‘zidan nimanidir talab qilayotganligini ravshan ko‘rib turar, lekin nimani talab qilayotganligini hech anglay olmas edi. U shu tufayli qalbida butun rohatini buzib, xizmat sohasidagi qahramonona ishlarini puchga chiqarayotgan dahshatli bir g‘azab uyg‘onganligini sezib turardi. U Annaning Vronskiy bilan aloqasini uzishi uning o‘zi uchun yaxshi bo‘ladi, deb

hisoblar, agar ular buni imkonsiz narsa deb topishsa, azbaroyi bolalarni juvonmarg qilmaslik, ulardan ayrilib qolmaslik va o'z mavqeyini o'zgartirmaslik uchun ularning ilgarigi munosabatlariga yana yo'l qo'yib berishga ham tayyor edi. Bu naqadar qabih tadbir bo'lmasin, har holda judolikdan yaxshiroq edi, chunki o'rtaga ayriliq tushguday bo'lsa, unda Annaning ahvoli chatoq bo'ladi, sharmanda bo'ladi, o'zi esa dunyoda yaxshi ko'rgan narsalaridan mahrum bo'ladi. Lekin u o'zini zaif his qilardi; u hammaning o'ziga qarshi ekanligini, o'ziga hozir shu qadar tabiiy, shu qadar yaxshi bo'lib ko'ringan narsalarni qildirishmasligini, balki aslida qabohat bo'lsa ham, ularga ma'qul ko'ringan narsalarnigina qildirishlarini oldindan bilib yurardi.

XXI

Betsi zaldan chiqib ulgurmasdan, Stepan Arkadich eshik og'zida duch keldi; u hozirgina do'koniga yangi ustritsalar tushirgan Yelisevning oldidan kelib turgan edi.

– A! Knyaginya! Uchrashganimiz soz bo'ldi-da! – deb gapira ketdi Stepan Arkadich. – Men sizlarnikiga boruvdim.

Betsi qo'lqoplarini kiya turib:

– Bir daqiqali vaqtim bor, chunki jo'nab ketyapman, – dedi kulimsirab.

– Qo'lqoplaringizni kiymay turing, knyaginya, qo'lingizdan bir o'pib olay. Qadimgi odatlarning, chunonchi, qo'l o'pish odatining qaytadan rasm bo'lganiga benihoya xursandman. – Betsining qo'lini o'pdi. – Xo'sh, qachon otamlashamiz?

Betsi kulimsirab turib:

– Siz arzimaysiz, – dedi.

– Yo'q, juda ham arziyman-da, chunki borib turgan og'ir odam bo'lib qoldim. Hozir o'zimninggina emas, boshqalarning ham oilaviy ishlarini yo'lga soladigan bo'lib oldim, – dedi u yuziga ma'noli bir ifoda berib.

Betsi gap Anna ustida ketayotganligini darhol fahmlab:

– Unday bo'lsa, juda xursandman! – deb javob qildi. Keyin zalga qaytishib, burchakka kelib turishdi. – Axiyri, uni tiriklayin go'rga jo qiladi, – dedi Betsi, tagdor bir shipshish bilan. – Bunday qoldirib bo'lmaydi, bunday qoldirib bo'lmaydi...

– Siz ham shu fikrda ekanligingizdan g‘oyat xursandman, – dedi Stepan Arkadich, yuziga jiddiy va mungli tus bergan holda boshini chayqab, – men ham Peterburgga xuddi shu maqsadda kelganman.

– Butun shaharning og‘zida shu gap, – dedi Betsi. – Bu ahvolni davom ettirib bo‘lmaydi. Anna kundan kunga xazondag so‘lib bor-yapti. Annadek juvonlar o‘z hislariga ermak deb qaramasligini eri anglamaydi. Ikki yo‘l bor: er o‘lgur qattiq turib yo Annani bir yoqqa olib ketishi, yo bo‘lmasa, taloq berishi kerak. U bo‘lsa boyaqishning umrini xazon qilyapti.

– Ha, ha... xuddi shunday.... – dedi Oblonskiy xo‘rsinib. – Shuning uchun ham kelganman, ya‘ni faqat shuning uchungina emas... meni kamerger qilishdi, ha, endi bir kelib, minnatdorlik bildirib ketish kerak edi-da. Lekin ishning eng muhimi – ana shu masalani bir yoqli qilish.

– Xayr, Xudo madad bersin! – dedi Betsi.

Stepan Arkadich Betsini dahlizga kuzatib bordi-da, bilagini qo‘lqopidan yuqoriroq joyidan, tomirlari lo‘qillab turgan yeridan yana bir karra o‘pdi, keyin bir talay pardasiz yolg‘on-yashiq so‘zlar aytdi. Betsi jahl qilishini ham, kulishini ham bilmay qoldi, Stepan Arkadich esa singlisining yoniga kirib ketdi. U singlisini yig‘lab o‘tirgan holda ko‘rdi.

Stepan Arkadich hozir quvnoq, xushchaqchaq kayfiyatda bo‘lishiga qaramay, darhol Annaning ahvoliga mos keladigan dardman, shoiro-na g‘amgin bir ohangda gapira boshladi. Annaning sog‘ligini, ertalab o‘zini qanday his etganini so‘radi.

– Juda, juda ham yomon. Ertalabim ham, kunduzim ham, o‘tgan, kelajak kunlarim ham, – dedi Anna.

– Nazarimda, mungli xayollarga beriladigan bo‘lib qolganga o‘xshaysan. Unday xayollarni quvib yuborib, hayotga dadil qarash kerak. Bilaman, og‘ir, ammo...

– Xotinlar ba‘zi odamlarni nuqsoni uchun ham yaxshi ko‘r-rar-mish, – deb birdan Anna so‘z boshladi, – lekin saxovatli bo‘lgani uchun undan nafratlanaman. U bilan birga turolmayman. Tushungin: ko‘rinishining o‘ziyoq mening jismimga ozor yetkazadi, chidab turolmayman. Yo‘q, u bilan birga turolmayman, turolmayman. Nima qilay, nima qilishim kerak endi? Men baxtsiz edim, bundan ham baxtsizroq bo‘lish mumkin emas deb o‘ylar edim, lekin boshimdagi

hozirgi dahshatli ahvolga bir kun kelib tusharman deb xayol qilmagan edim. Uning yaxshi, ajoyib bir odam ekanligini, men uning tirtog'iga ham arzimasligimni bilganim holda yana undan nafratlanганиmni aytсам ishonmaysan. Men uni olijanoblighi uchun yomon ko'raman. Endi menda birgina chora qoladi, u ham bo'lsa...

«O'lish» demoqchi edi, Stepan Arkadich gapirtirmay qo'ydi.

– Kasalsan, injiq bo'lib qolgansan, – dedi Stepan Arkadich. – Ishon gapimga, sen mahovat qilyapsan. Boshingda dahshatga tushadigan hech narsa yo'q.

Shuni deb Stepan Arkadich kulimsirab qo'ydi. Stepan Arkadichning o'rni boshqa odam bo'lsa, shunday tang holatlarda sira ham kulimsiramagan bo'lar (kulimsirash qo'pol ko'rinar) edi. Lekin uning tabassumida mehr-u shafqat, xotinlardagina uchraydigan muloyimlik shu qadar zo'r ediki, uning tabassumi kishini haqorat qilmas, balki xafa bo'lib turgan kishini yumshatar, yupatar ham edi. Uning sokin, orombaxsh so'zlari va tabassumlari bodom yog'iday kishini yumshatar, tinchitar edi, Anna ham ko'p o'tmay o'zini shunday his qildi.

– Yo'q, Stiva, – dedi Anna. – Men halok bo'ldim, ado bo'ldim! Bundan ham besh battar bo'ldim. Men hali halok bo'lganimcha yo'q, hali hamma narsa tamom bo'ldi deb aytolmayman; aksincha, tamom bo'lmaganligini sezib turibman. Men tarang tortilgan, uzilishi muqarrar bo'lgan bir torman. Ammo hali sob bo'lganim yo'q. Lekin oxiri dahshatli bo'ladi.

– Hechqisi yo'q, torni sekin-sekin bo'shatib yuborsa bo'ladi. Dunyoda chorasi topilmaydigan mushkul narsa yo'q.

– O'ylab ko'rdim, o'ylamagan narsam qolmadi. Faqat bittagina...

Stepan Arkadich bu mushkuldandan qutulishning birdan bir yo'li, Annaning fikricha, o'lim ekanligini vahimali ko'zlaridan darhol fahmladi-yu, yana so'zini kesib qo'ydi.

– Aslo unday emas, – dedi Stepan Arkadich, – quloq sol. Sen o'z ahvolingni menchalik ko'rolmaysan. Ruqsat ber, fikrimni ochiq aytay. – U yana o'zining bodom moyidek muloyim tabassumi bilan sekingina kulimsirab qo'ydi. – Boshidan boshlayman: avvalo, o'zingdan yigirma yosh katta odamga erga tegding. Sen sevmasan yoki sevgining nimaligini bilmasdan erga tegding. Xo'p, shuni xato deb hisoblaylik.

– Dahshatli xato! – dedi Anna.

– Lekin takror aytaman: bu sodir boʻlgan fakt. Keyin, aytaylik, oʻz eringdan boshqasini yaxshi koʻrib qolish baxtsizligiga uchrading. Bu bir baxtsizlik. Ammo bu ham sodir boʻlgan fakt. Ering bu ahvolga koʻnib, seni kechirdi ham. – U har gapidan soʻng Annadan eʼtiroz kutib, picha toʻxtab qolar, ammo Anna hech nima demay oʻtirardi. – Ha, shunday boʻldi. Endi bir masala bor: ering bilan umr qilib keta olasanmi-yoʻqmi? Umr qilishni xohlaysanmi? Ering ham umr qilishni xohlaydimi?

– Men hech nima bilmayman, hech nima.

– Yoʻq, sen oʻzing uni koʻrishga koʻzing yoʻqligini aytding.

– Yoʻq, bunday deganim yoʻq. Bu fikrdan qaytdim. Men hech narsa bilmayman. Hech narsaga tushunmayman.

– Iya, unday dema-da...

– Yoʻq, sen tushunmaysan. Men chuqur chohga kallam bilan qulab ketayotganimni sezib turibman, lekin oʻzimni qutqazmayman, qutqaza olmayman ham.

– Hechqisi yoʻq, pastga yumshoq koʻrpa solib, seni ushlab qolamiz. Bilaman, aqlim, farosatim yetadi, sen oʻz xohishingni, baxtingni aytishga jurʼat qilolmaysan.

– Hech narsani, hech narsani xohlamayman... Ishqilib, hamma narsa tezroq tamom boʻlsa bas.

– Lekin ering bu narsalarni koʻrib turibdi, biladi. Ajabo, u sening siqilganingni koʻrib, siqilmaydi deb oʻylaysanmi? Sen azob cheksang, u ham azob chekadi, xoʻsh, oqibat nima boʻladi? Ajrashsanglar, boshqa gap, bu qoʻlingizni boʻshatadi, – Stepan Arkadich asosiy fikrini qiynalib boʻlsa ham aytdi-yu, Annaga maʼnodor qilib qarab qoʻydi.

Anna hech qanday javob qilmay, sochlari qirqilgan boshini yoʻq deganday chayqab qoʻydi. Lekin Stepan Arkadich uning avvalgi husni bilan birdan ochilib ketgan yuzidagi ifodani koʻrib, Anna buni etishib boʻlmaydigan bir baxt deb hisoblagani uchungina ajralishga rozi boʻlmayotganligini angladi.

Stepan Arkadich bu safar dadilroq kulimsirab:

– Sizlarga yuragim juda achishadi! Ishlaringizni bir yoqli qila olsam, oʻzimni juda baxtiyor his etardim! – dedi. – Yoʻq, gapirma, hech nima gapirma! Yuragimda bor gaplarni ayta olishimga Xudo jurʼat bersa edi! Eringning oldiga kiraman.

Anna porlab turgan o'ychan ko'zlari bilan unga bir qarab qo'ydiyu, hech nima demadi.

XXII

Stepan Arkadich o'z mahkamasida raislik kursisiga o'tirayotgan paytda yuzida paydo bo'ladigan bir tantanavor qiyofa bilan Aleksey Aleksandrovichning kabinetiga kirib bordi. Aleksey Aleksandrovich qo'llarini orqasiga qilib, kabinetda u yoqdan bu yoqqa yurar, Stepan Arkadich singlisiga aytgan narsalarini u ham o'ylar edi.

Stepan Arkadich, kuyovini ko'rganda, o'ziga tamoman yot bo'lgan uyatchanlik sezib:

– Xalaqit bermaymanmi? – deb so'radi. Keyin o'zining xijolat-pazligini yashirish uchun cho'ntagidan yangicha ochiladigan papirosdonini oldi-da, terisini hidlab ko'rib, ichidan papiros chiqardi. U bu papirosdonini hozirgina sotib olgan edi.

Aleksey Aleksandrovich malol kelganday:

– Yo'q. Nima, ishing bormidi? – deb javob berdi.

– Ha, meni haligi... men o'sha to'... ha, gapim bor edi, – dedi Stepan Arkadich, tabiatida bo'lmagan yuraksizligidan ajablanib.

Bu yuraksizlik hissi shu qadar kutilmagan, ajib bir his ediki, Stepan Arkadich niyat qilgan narsasining yomon niyat ekanligini o'ziga aytayotgan bu ovozning vijdon ovozi ekanligiga hech ishonolmadi. Stepan Arkadich o'zini zo'r lab, yuragida qo'zg'algan jur'atsizlikni yengib oldi.

– Sen mening singlimga bo'lgan muhabbatimga, senga bo'lgan samimiy do'stligim va hurmatimga ishonasan, deb umid qilaman, – dedi Stepan Arkadich qizarib.

Aleksey Aleksandrovich yurishdan to'xtagan bo'lsa ham, hech qanday javob qilmadi, lekin yuzidagi har qanday fidokorlikka tayyor ekanligini ko'rsatuvchi ifoda Stepan Arkadichni hayratda qoldirdi.

Stepan Arkadich o'ziga xos bo'lmagan uyatchanlik bilan hamon kurashib:

– Men singlim to'g'risida, ikkovingizning o'zaro munosabatingiz to'g'risida gaplashsam devdim, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich ma'yus kulimsiradi-da, qaynog'asiga bir qarab olgandan keyin, unga hech qanday javob qilmasdan stol yoniga kelib, boshlagan xatini Stepan Arkadichga olib ko'rsatdi.

– Mening ham uzzukun o'ylagan narsam shu. Meni ko'rsa, g'ashi kelganini bilganim uchun aytadigan gaplarimni xatga solib bersam, yaxshiroq bo'lar, degan o'y bilan mana bunday xat boshlagan edim, – dedi u xatni bera turib.

Stepan Arkadich xatni oldi-da, o'ziga tikilib qolgan xira ko'zlariga taajjub bilan bir qarab qo'yib, o'qiy boshladi.

«Meni ko'rganingizda g'ashingiz kelganini ko'rib turaman. Bunga qanoat hosil qilish men uchun nechog'li og'ir bo'lsa ham men buni ko'rib turaman, bundan boshqacha bo'lishi mumkin emasligini ham bilaman. Men sizni qoralamayman, Xudo shohid, sizni kasal yotganingizda ko'rib, o'rtamizda bo'lgan hamma narsalarni unutishga va yangidan hayot boshlashga qaror qilgan edim. Qilgan narsamdan pushaymon emasman, hech qachon pushaymon ham bo'lmayman; lekin faqat bir narsani, sizning baxt-saodatingizni, ruhingizning yengil bo'lishinigina istagan edim, mana endi istagimga yetganimni ko'rib turibman. Sizga chinakam baxt, qalbingizga chinakam rohat beradigan narsa nima ekanligini o'zingiz aytarsiz. Men o'zimni ixtiyoringizga topshiraman va adolatli qaroringizga bo'ysunaman».

Stepan Arkadich xatni kuyoviga qaytarib berib, nima javob qilishini bilmay, yana boyagiday taajjublanib unga qarab qoldi.

O'rtadagi sukunat ularning har ikkalasi uchun ham shu qadar o'ng'aysiz ediki, Stepan Arkadich ko'zlarini Kareninning yuzidan olmay jim turganda, lablari g'ayritabiiy ravishda titray boshladi.

Aleksey Aleksandrovich yuzini teskari o'girib turib:

– Singlingizga shu narsalarni aytmoqchi edim, – dedi.

Stepan Arkadich tomog'iga yosh kelib tiqilgani uchun javob berishga qurbi yetmay:

– Ha, ha... – dedi xolos. Keyin o'zini biroz o'nglab, qo'shib qo'ydi: – Ha, ha. Tushundim.

– Nimani xohlar ekan, shuni bilsam deyman, – dedi Aleksey Aleksandrovich.

– Anna o'zining ahvolini o'zi ham bilmaydi deb qo'rqaman. Hakam emas, har holda, – dedi Stepan Arkadich, o'ziga kelib. – U ezilib yotibdi, sening olijanobligingni ko'rib ezilib yotibdi.

Bu xatni o'qisa, biron narsa deyishga majoli yetmaydi, boshi yana battar xam bo'ladi.

– Xo'sh, bo'lmasa, nima qilish kerak? Nima desam bo'ladi? Istaganini qanday bilsam bo'ladi?

– Agar fikrimni aytishimga ijozat bersang, men bunday deb o'ylayman: bu ahvolga xotima berish uchun o'zing lozim ko'rgan tadbirlaringni ko'rishing kerak, bu senga bog'liq narsa.

– Demak, sen ahvolga xotima berish kerak, deb topasan? – deb Aleksey Aleksandrovich uning so'zini bo'lib qo'ydi. Keyin qo'llarini ko'zlari oldida g'alati qilib qimirlatib ilova qildi: – Qanday qilib? Men buning biron chorasi borligini ko'rmayman.

Stepan Arkadich o'rnidan turib, ancha jonlangan holda:

– Bu ahvoldan qutulishning ham chorasi bor, – dedi. – Bir mahal ajrashmoqchi bo'lib yurgan eding... Agar bir-biringizni baxtiyor qilishdan o'zligingizga hozir ishongan bo'lsang...

– Baxt degan narsani har xil tushunish mumkin. Lekin faraz etaylik, men hamma narsaga roziman, hech narsani xohlamayman, deylik. Xo'sh, ana shunda ham mushkulimizga qanday najot bor?

Stepan Arkadich boya Anna bilan gaplashgandagi yana o'sha yumshatuvchi, muloyim tabassumi bilan:

– Agar fikrimni bilmoqchi bo'lsang, – deb so'z boshladi. Bu dil-kash tabassum shu qadar ta'sirli chiqdiki, Aleksey Aleksandrovich o'zining zaif tomonini sezgani va unga bo'ysungani uchun Stepan Arkadichning so'zlariga ishonishga tayyor edi. – Anna hech qachon o'z xohishini aytmaydi. Lekin bir narsaning bo'lishi, u bir narsani xohlashi mumkin, – deb Stepan Arkadich so'zini davom qildirdi, – u ham bo'lsa, munosabatni uzishdan va shu munosabatga aloqador bo'lgan barcha xotiralarni unutishdan iborat. Menimcha, sizning ahvolingizdagi odamlar yangi munosabatlarga ko'chishlari kerak, bu yangi munosabatlar esa har ikki tomonning erkinligi bilan qaror topadi.

– Taloq, – deb Aleksey Aleksandrovich nafrat bilan uning so'zini bo'ldi.

– Ha, mening fikrimcha, taloq. Ha, taloq, – qizarib takrorladi Stepan Arkadich. – Sizlarga o'xshash munosabatda bo'lgan er-u xotinlar uchun har jihatdan eng ma'qul yo'l shu. Umr qilishning iloji yo'qligini ko'rib turgan er-u xotintlarga bundan boshqa yana nima qoladi? Bunday ahvollar hamma vaqt yuz berishi mumkin. –

Aleksey Aleksandrovich chuqur xo'rsinib, ko'zlarini yumib oldi. – Bu yerda faqat bitta mulohazaga o'rin bor xolos: er-u xotinning biri boshqaning nikohiga kirishni xohlaydimi-yo'qmi? Agar bunday niyat bo'lmasa, unda ish oson, – dedi Stepan Arkadich borgan sari uyatchanligini yengib.

Aleksey Aleksandrovich hayajondan yuzi tirishib, o'zicha bir nimalar deb to'ng'illadi-yu, hech qanday javob qilmadi. Stepan Arkadich nazarida shuncha oson ko'ringan narsalarning hammasini Aleksey Aleksandrovich ming martalab o'ylab ko'rgan edi. Oqibat, bu narsalar yolg'iz unga Stepan Arkadich o'ylaganidek oson ko'rinmay, balki iloji yo'q narsaga o'xshab ko'ringan edi. Ikir-chikirlarigacha bilib olgan ajralish-taloq masalasi unga hozir imkon xorijida ko'rinardi, chunki o'z izzat-nafsi va dinga bo'lgan hurmati riyokorlik bilan xotinini zinoda ayblashga, gunohini kechgan va o'zi sevgan xotining badnom etilishiga, sharmanda qilinishiga aslo-aslo yo'l qo'ymas edi. Taloq yana boshqa, yana ham muhimroq bir sababga ko'ra imkonsiz narsa bo'lib ko'rinardi.

Ajralib ketishsa, o'g'lining taqdiri nima bo'ladi? Onasi bilan qoldirishning esa aslo iloji yo'q. Eridan ajralgan xotinning qurgan oilasi g'ayriqonuniy bo'ladi, unda o'gay o'g'ilning ahvoli va unga beriladigan tarbiya, albatta, yomon bo'ladi. O'zi bilan qoldirgandachi? Aleksey Aleksandrovichning fikricha, o'g'lini o'z yonida qoldirish – xotinidan qasos olish demak edi, holbuki, u qasos olishni istamas edi. Lekin bulardan tashqari, Aleksey Aleksandrovich taloqni yana shu sababli imkonsiz narsa deb hisoblardiki, taloqqa rozi bo'lish bilan Annani halok qilgan ham bo'lar edi. Moskvada Darya Aleksandrovnaning aytgan gaplari ko'ngliga jo bo'lib qolgan; o'shanda Darya Aleksandrovna: «Taloqqa rozi bo'lishingiz bilan birga, faqat o'zingizni o'ylaysiz-u, shu harakatingiz bilan Annani abadul-abad halok qilayotganingizni o'ylamaysiz», degan edi. Aleksey Aleksandrovich o'sha so'zlarni o'z kechirimi bilan, bolalarga bo'lgan mehribonligi bilan bog'lab ko'rib, endi ularni o'zicha tushuna boshladi. Taloqqa rozi bo'lish, Annaga erkinlik berish, uning fikricha, o'zi sevgan bolalaridan mahrum bo'lish, Annani esa, ezgulik yo'lidagi so'nggi tayanchidan mahrum etib, halok qilish demak edi. Agar Anna taloq qilingan xotin bo'lib qolsa, u holda Vronskiy bilan topishib ketishini, bu aloqa g'ayriqonuniy,

jinoyatkorona tus olishini bilardi, chunki cherkov qonuniga ko'ra, eri hayot bo'lgan xotinning nikohiga yo'l yo'q edi. «Anna u bilan topishadi-yu, lekin bir-ikki yildan keyin yo u Annani tashlab ketadi, yo Anna yana yangi aloqaga kirishadi, – deb o'ylardi Aleksey Aleksandrovich. – Shuning uchun g'ayriqonuniy taloqqa rozi bo'lish bilan men uning halokatiga sababchi bo'laman». U bu narsalarni yuz martalab o'ylagan va taloq ishi, qaynog'asi o'ylaganidek, u qadar oson bo'lmay, balki imkon xorijidagi bir narsa ekanligiga qanoat ham hosil qilgan edi. U Stepan Arkadichning bitta ham so'ziga ishonmasdi, har bir so'ziga mingtalab raddiyalari bor edi, shunday bo'lsa ham unga quloq solib o'tirdi, chunki hayotining rahnamosi bo'lgan va o'zi itoat qilishi lozim bo'lgan o'sha qudratli dag'al kuch shu so'zlarda ifoda qilinmoqda edi.

– Masala faqat sening qanday shartlar bilan taloqqa rozi bo'lishinggagina bog'liq. Anna hech narsani xohlamaydi, sendan biron narsani so'rashga botinolmaydi, hamma narsani sening olijanobligingga havola qilib qo'ygan.

Aleksey Aleksandrovich hamma aybni er o'z zimmasiga oladigan taloq-ajralish mojarosini eslab: «Yo Rabbim! Yo Rabbim! Gunohim nima?» deb o'yladi-yu, Vronskiyga o'xshab, o'zi ham uyatidan yuzini qo'llari bilan to'sib oldi.

– Hozir hayajondasan, tushunaman. Agar o'ylab ko'rsang...

«O'ng betingga shapati urganga, chap betingni ham tutib ber», – deb o'yga ketdi Aleksey Aleksandrovich.

– Xo'p, xo'p, – dedi u chiyillab, – butun sharmandalikni zim-mamga olaman, hatto o'g'limni ham qo'shib beraman, lekin... bu mojaroni bas qilib bo'lmaydimi? Mayli, xohlaganingni qil...

Aleksey Aleksandrovich shuni aytib deraza yonidagi stulga borib o'tirdi-da, qaynag'asiga yuzini teskari qilib o'girib oldi. Ham hasrat, ham xijolat chekar edi u, ammo shu hasrat va xijolatpazlik bilan birga o'z hokisorligining teranligidan iyib ketib, yuragi quvonchga to'ldi.

Stepan Arkadichning ko'ngli buzildi, jim bo'lib qoldi.

– Aleksey Aleksandrovich, gapimga bemalol ishonaver, Anna olijanobliging qadriga yetadi, – dedi Stepan Arkadich, – lekin Xudoning irodasi bu, – deb qo'shib qo'ydi; u shu so'zlarni aytdi-yu, bularning ahmoqona so'zlar ekanligini sezib, o'z nodonligidan o'zi kulib yuborishiga sal qoldi.

Aleksey Aleksandrovich bir nima deb javob qilmoqchi bo'lgan edi, tomog'iga kelib tiqilib qolgan yoshlari qo'ymadi.

– Bu mash'um bir baxtsizlik, bunga tan bermay bo'lmaydi. Men bu baxtsizlikni sodir bo'lgan fakt deb bilib, unga ham, senga ham yordam qilishga harakat etyapman, – dedi Stepan Arkadich.

Stepan Arkadich kuyovining xonasidan ta'sirlanib, yuragi ezilib chiqqan bo'lsa ham, bu holat vazifasini muvaffaqiyat bilan bajargani uchun mamnun bo'lishiga xalaqit bermadi, chunki Aleksey Aleksandrovichning so'zidan qaytmasligiga ishonchi komil edi. Miyasiga kelgan bu fikr bu mamnuniyatga qo'shilib, uni yana ham xursand qildi: bu masala hal bo'lgandan keyin u o'z xotiniga, yaqin kishilariga shunday deb savol beradi: «Men bilan podshoning o'rtasida qanday tafovut bor? Podsho eru xotinni ajratganda, bundan hech kimning hojati ravo bo'lmaydi, men ajratganimda esa, u kishining hojati ravo bo'ldi... Yoki men bilan podshoning o'rtasida qanday o'xshashlik bor? Unda... yo'q, bu yog'ini keyin yaxshiroq o'ylab olaman», dedi u kulimsirab turib o'ziga o'zi.

XXIII

O'q yurakning yonidan o'tib ketgan bo'lsa ham, Vronskiyning yarasi xavfli edi. Bir necha kun hayot-mamot o'rtasida yotdi. Birinchi marta tili gapga kelganda, akasining xotini Varya uning bo'lmasida edi.

Vronskiy unga jiddiy ko'z bilan qarab turib:

– Varya! Men bexosdan o'zimni otib qo'ydim, – dedi. – Baraka topgur, hech mahal bu to'g'rida og'iz ochma, boshqalarga ham shunday de. Shu qadar bema'ni ish bo'ldiki!

Varya uning so'zlariga javob qilmay, boshi ustida engashdi-da, kayfi chog' bo'lib, tabassum bilan yuziga qaradi. Ko'zlarida sarosima yo'q, lekin chaqnab turar, jiddiy edi.

– Xay, Xudoga shukur! – dedi Varya. – Yarang og'rimayaptimi?

– Mana bu yerda picha og'riq bor, – deb ko'kragini ko'rsatdi Vronskiy.

– Kel bo'lmasa, bog'lab qo'yay.

Varya yarani bog'lab turganda, u kulchadek yuzining mushaklarini tirishtirib yangasiga jimgina qarab yotdi. Yarani bog'lab bo'lgandan so'ng, Vronskiy:

– Alahlayotganim yo‘q; umringdan baraka top, shunday qilginki, o‘zimni jo‘rttaga otganim to‘g‘risida gap-so‘z bo‘lmasin.

– Hech kim bunaqa deya-yotgani yo‘q. Lekin umid qilamanki, bundan keyin yana o‘zingni bexosdan otib qo‘ymassan, – dedi Varya, savol tabassumi bilan.

– Ha, endi unday bo‘lmas, lekin yaxshiroq bo‘lardi, agar...

So‘zini tugatmay, qovoqlarini solib kulimsirab qo‘ydi.

Vronskiy isitmasi o‘tib, o‘ziga kela boshlaganda, Varyani yomon qo‘rqitgan bu so‘zlariga, tabassumiga qaramay, qayg‘u-alamlarining biridan butunlay xalos bo‘lganligini his etdi. U ilgari o‘zi sezib yurgan haqirlik va nomus dog‘larini shu ishi bilan yuvgandek bo‘ldi. Endi Aleksey Aleksandrovich to‘g‘risida bemalol o‘ylay olardi. Aleksey Aleksandrovichning olijanobligiga iqror bo‘lib, endi o‘zini haqir his etmaydigan bo‘ldi. Bundan tashqari, u yana avvalgi hayot tarziga tushib olgan edi. Endi odamlarning ko‘ziga uyalmasdan qarashiga, o‘zi odatlangan tartibda yashashga imkon tug‘ilgan edi. Annadan abadiy judo bo‘lganligi tufayli yuragida qon tizg‘itib turgan alam va afsusga qarshi sira tinmay kurashib kelganiga qaramay, bu hisni qalbidan chiqarib tashlay olmas edi. Mana endi, uning eri oldida o‘z gunohini yuvgandan keyin, Annadan butunlay voz kechishi, pushaymon ichida qolgan Anna bilan eri o‘rtasida minba‘d to‘g‘anoq bo‘lmasligi kerak; Vronskiy as-toydil shu qarorga kelgan bo‘lsa ham, Annaning sevgisidan judo bo‘lganligi tufayli yuragida qon tizg‘ib yotgan afsusini ko‘nglidan chiqarolmas, Anna bilan birga o‘tkazgan, u mahallar o‘zi qadriga uncha yetmagan, mana endi butun latofati bilan uni shaydo qilayotgan baxtli daqiqalar xotirasini miyasidan sitib chiqarolmas edi.

Serpuxovskoy uni Toshkentga bir vazifa bilan yuboradigan bo‘ldi, Vronskiy zarracha ham ikkilanib o‘tirmasdan bu taklifga rozi bo‘ldi. Lekin jo‘nash payti yaqinlashgan sari o‘zini burchli deb hisoblagan kishisi yo‘lida beradigan qurboni ham og‘ir bota bordi.

Yarasi tuzalib, Toshkent safari oldidan u yoq-bu yoqqa chiqa boshladi.

Vronskiy: «Bir ko‘rsam-u, keyin o‘lsam, xok-turob bo‘lsam ham mayli edi», deb o‘ylardi; Betsinikiga xayrlashgani borganda, unga shu fikrini aytgan edi. Betsi Vronskiyning elchisi bo‘lib Annaning yoniga borgan va undan rad javobi olib kelgan edi.

Vronskiy bu xabarni eshitgandan so‘ng: «Soz bo‘pti, – deb o‘yladi. – So‘nggi kuchimni, madorimni quritadigan zaiflik edi bu».

Ertasiga ertalab Betsining o‘zi Vronskiydikiga kelib, Oblonskiydan yaxshi xabar eshitganini, Aleksey Aleksandrovich taloq xatini berishga rozi bo‘lganligini, shuning uchun Annani borib ko‘rishi mumkinligini aytdi.

Vronskiy Betsini kuzatib qo‘yishni ham unutib, qilgan butun ahd-u paymonlarini esdan chiqardi-da, qachon borishi mumkinligini, erining qayerda ekanligini so‘rab ham o‘tirmay, darhol Kareninlarnikiga qarab chopdi. Hech kimni, hech nimani ko‘rmay shoshib-pishib zina-ga chiqdi-da, chopib ketishdan o‘zini zo‘rg‘a ushlab, shitob odimlar bilan Annaning bo‘lmasiga kirdi. Uyda birov bormi-yo‘qligini o‘ylamay-netmay Annani quchoqladi-yu, yuzini, qo‘llarini, bo‘ynini cho‘lp-cho‘lp o‘pa ketdi.

Anna u bilan ko‘rishishga tayyorlanib, aytadigan gaplarini o‘ylab qo‘ygan edi, ammo hech bir narsa aytishga ulgurmas: Vronskiyning ehtirosi qamrab oldi. Uni bosmoqchi, o‘zini ham bosmoqchi bo‘ldi, lekin vaqt o‘tgan edi. Vronskiyning hislari unga ham ta‘sir qildi. Lablari shu qadar qaltiray boshladiki, ancha vaqtgacha bir nima deya olmadi.

Nihoyat, Vronskiyning qo‘lini o‘z ko‘ksiga bosib turib:

– Ha, sen meni maftun etding, men endi senikiman, – dedi.

– Shunday bo‘lishi kerak edi! – dedi Vronskiy ham. – Hayot ekanmiz, shunday bo‘lishi kerak. Men buni endi bilaman.

Anna borgan sari dokadek oqarib va uning boshini quchoqlab olib:

– To‘g‘ri, to‘g‘ri aytding, – derdi. – Shunday bo‘lsa ham, bo‘lib o‘tgan narsalardan keyin dahshatli bir nima qolgandek ko‘rinadi.

– Hammasi o‘tadi, hammasi o‘tib ketadi, shunday baxtli bo‘lamizki! Sevgimiz agar kuchaya olsa, o‘rtada dahshatli bir narsa borligidan yana ham ko‘proq kuchaygan bo‘lar edi, – dedi u boshini ko‘tarib va tabassumi bilan mustahkam tishlarining oqini ko‘rsatib turib.

Anna ham uning so‘zlariga emas, oshiq ko‘zlariga tabassum bilan javob berdi. Vronskiyning qo‘lini oldi-da, o‘zining muzdek betlarini, qirqilgan sochlarini uning qo‘li bilan silay boshladi.

– Seni taniyolmay qoldim, sochlaringni kalta qilib qirqtiribsan. Husning ochilib ketibdi. O‘g‘il bolaga o‘xshab qolibsan. Lekin yuzingda qon yo‘q!

– Ha, juda majolsizman, – dedi kulimsirab Anna. Shundan keyin yana lablari titray boshladi.

– Italiyaga ketamiz. U yerda o‘zingga kelib qolasan, – dedi u. Anna uning ko‘zlariga yaqindan tikilib turib:

– Nahotki, shunday bo‘lsa-ya? Nahotki, er-u xotindek bo‘lib, bir o‘zimiz, sen bilan men bir oila bo‘lib yashasak? – dedi.

– Qachondir buning boshqacha tus olishi meni ajablantirgan bo‘lardi.

Anna Vronskiydan ko‘zlarini opqochib:

– Stiva uning hamma narsaga rozi ekanligini aytdi. Ammo men uning olijanobligini qabul qilolmayman, – dedi. – Men taloq qilishini xohlamayman, menga endi baribir. Faqat Seryoja to‘g‘risida qanday qarorga kelishini bilmayman xolos.

Vronskiy Annaning mana shunday vaslga erishgan paytda o‘g‘lini, taloqni o‘ylaganiga, eslaganiga tushunolmay qoldi. Ajabo, baribir emasmidi?

Vronskiy Annaning qo‘lini o‘z qo‘lida aylantirib va uning e‘tiborini o‘ziga jalb qilishga tirishib:

– Bu narsalarni qo‘y, gapirma, o‘ylama ham, – dedi; ammo Anna hamon yuzini ters o‘girib turardi.

– Ax, nega o‘lib ketmadim, o‘lsam, yaxshi bo‘lardi! – dedi u; ana shunda yig‘i tovushi chiqmasa ham, ko‘zlaridan ikki betiga duvillab yosh oqa ketdi; ammo Vronskiyini xafa qilmaslik uchun hamon kulimsirar edi.

Vronskiyning oldingi qanoatiga ko‘ra, bir jihatdan, o‘zini tortib turgan, ikkinchi jihatdan, tahlikali bo‘lgan Toshkent safaridan voz kechib bo‘lmas, bu sharmandali bir hol bo‘lar edi. Mana endi, bir zum ham o‘ylab o‘tirmasdan, Toshkent safaridan voz kechdi-yu, o‘z harakatining olimaqom doiralarda ma‘qul ko‘rilmasligini payqab, darhol iste‘foga chiqdi.

Bir oydan keyin Aleksey Aleksandrovich uyida o‘g‘li bilan yolg‘iz qoldi, Anna bo‘lsa taloq xatini olmay, undan uzil-kesil voz kechib, Vronskiy bilan chet elga jo‘nab ketdi.

MUNDARIJA

Birinci qism.....	3
Ikkinchi qism	145
Uchinchi qism	295
To'rtinchi qism.....	435

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

Lev Nikolayevich Tolstoy

ANNA KARENINA

Roman

Birinci kitob

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

Nashrga tayyorlovchi *S. Saidmurodov*

Tarjimon *M. Ismoilov*

Muharrir *S. Saidmurodov*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhihlar: *L. Abduqodirova, Z. Komilova*

Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*


Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009. Bosishga 2020-yil 31-yanvarda ruxsat etildi. Bichimi 60×90¹/₁₆. Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 33,5. Nashr tabog'i 31,07.

Adadi 10000 nusxa. Buyurtma №20-24.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz







14



L.N. Tolstoy

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-25-948-5



9 789943 259485